

A.A. Mamajonov, D.V. Xakimov,  
B.R. Xamdamov

# SERTIFIKATLASHTIRISH ASOSLARI VA SIFAT MENEJMENTI



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI**

**A.A. Mamajonov, B.R. Xandamov, D.V. Xakimov**

**SERTIFIKATLASHTIRISH ASOSLARI  
VA SIFAT MENEJMENTI**

*Darslik*

**Toshkent - "NIF MSH" - 2020**

UDK: 6.03  
BOK: -30.607  
M 23

Mamajonov A.A., Xamdamov B.R., Xakimov D.V.

**Sertifikatlashtirish asoslari va sifat menejmenti/darslik.** Toshkent: "NIF MSH", 2020, 310 bet.

*Mazkur darslik iqtisodiyotda zarur bo'ladigan mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirishda sifatini nazorat qilish, sifatini ta'minlash va sifatini boshqarishning tavsiflari, ularning sifat ko'rsatkichlari va sinaxh usullari, me'yoriy hujjatlar bilan ta'minlanishi, fan tarixi va rivojlanish istiqboli hamda respublikamizdagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar natijalari va sertifikatlashtirish sohasida xalqaro muammolar, foydalaniladigan sxemalar, usullar, vositalar va me'yoriy hujjatlar bilan ta'minlanish masalalarini qamrab olgan. O'quv qo'llanmada xalqaro standart talabalari asosida mahsulotlarni ishlab chiqarish va xizmatlar sifati menejmenti tizimini korxona va tashkilotlarda ishlab chiqish, joriy etish hamda ularni sertifikatlashtirish bo'yicha nazariy va amaliy ma'lumotlar keltirilgan. Ushbu darslik texnika oliy o'quv yurtlari bakalavriyatura 5310900 – Metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifati menejmenti ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan.*

#### **Taqrizchilar:**

**N.Sh. Mo'minov-**

Toshkent arxitektura qurilish instituti  
«Shahar qurilishi va xo'jaligi» kafedrası  
mudiri t.f.d. professor

**Z.H. Ju'raev-**

Andijon mashinasozlik instituti  
«Metrologiya, standartlashtirish va  
mahsulot sifati menejmenti» kafedrası  
mudiri t.f.n. professor


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI TOMONIDAN NASHRGA TAVSIYA ETILGAN.**

**ISBN 978-9943-6793-7-5**

**© Mamajonov A.A va boshq. 2020.**

**© "NIF MSH", 2020.**

|                                                                                               |           |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------|-----------|
| <b>SO'Z BOSHI.....</b>                                                                        | <b>6</b>  |
| <b>1-Modul . SERTIFIKATLASHTIRISH TO'G'RISIDA UMUMIY</b>                                      |           |
| <b>MA'LUMOT.....</b>                                                                          | <b>9</b>  |
| 1-mavzu. "Sertifikatlashtirish asoslari" faniga kirish.....                                   | 9         |
| Nazorat savollari.....                                                                        | 16        |
| 2-mavzu. Sertifikatlashtirish faoliyati.....                                                  | 16        |
| Nazorat savollari.....                                                                        | 18        |
| 3-mavzu. Sertifikatlashtirishning me'yoriy va qonuniy asoslari.....                           | 19        |
| Nazorat savollari.....                                                                        | 26        |
| 4-mavzu. Sertifikatlashtirish bo'yicha asosiy tushunchalar.....                               | 26        |
| Nazorat savollari.....                                                                        | 32        |
| 5-mavzu. Xorijiy mamlakatlarda sertifikatlashtirish faoliyati.....                            | 32        |
| Nazorat savollari.....                                                                        | 49        |
| 1-Modul bo'yicha o'z –o'zini tekshirish, nazorat va test savollari.....                       | 49        |
| <b>2-Modul. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SERTIFIKATLASHTIRISH</b>                               |           |
| <b>FAOLIYATI .....</b>                                                                        | <b>52</b> |
| 6-mavzu. O'zbekiston Respublikasida sertifikatlashtirish faoliyati.....                       | 52        |
| Nazorat savollari.....                                                                        | 57        |
| 7-mavzu. Sertifikatlashtirish milliy tizimida qatnashuvchi idoralar.....                      | 57        |
| Nazorat savollari.....                                                                        | 63        |
| 8-mavzu. O'zbekiston Respublikasida maxsulotlarni sertifikatlashtirish tartibi.....           | 63        |
| Nazorat savollari.....                                                                        | 72        |
| 9-mavzu. Muvofiqlikni tasdiqlash va baholash uchun mahsulotni sinash.....                     | 73        |
| Nazorat savollari.....                                                                        | 79        |
| 2-Modul bo'yicha o'z –o'zini tekshirish, nazorat va test savollari.....                       | 79        |
| <b>3 - Modul. SERTIFIKATLASHTIRISH.....</b>                                                   | <b>83</b> |
| 10-mavzu. Xizmatlarni sertifikatlashtirish.....                                               | 83        |
| Nazorat savollari.....                                                                        | 87        |
| 11-mavzu. Sertifikatlashtirilgan ob'ektlarni inspeksion nazorati.....                         | 88        |
| Nazorat savollari.....                                                                        | 94        |
| 12-mavzu. O'zbekiston Respublikasi akkreditlashtirish milliy tizimining asosiy qoidalari..... | 94        |
| Nazorat savollari.....                                                                        | 102       |
| 13-mavzu. O'zbekiston Respublikasining "Muvofiqlikni baholash to'g'risida"gi qonun.....       | 102       |
| Nazorat savollari.....                                                                        | 117       |
| 14-mavzu. O'zbekiston Respublikasida akkreditlashtirish tartibi asosiy qoidalari.....         | 118       |
| Nazorat savollari.....                                                                        | 127       |
| 15-mavzu. Sinov laboratoriyalarini akkreditlash.....                                          | 128       |
| Nazorat savollari.....                                                                        | 138       |
| 16-mavzu. Sertifikatlashtirish idoralarga bo'lgan talablar.....                               | 138       |



|                                                                                                                          |            |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------|
| Nazorat savollari.....                                                                                                   | 141        |
| 17-mavzu. Ishlab chiqarishni sertifikatlashtirish.....                                                                   | 141        |
| Nazorat savollari.....                                                                                                   | 145        |
| 18-mavzu. O'zbekiston Respublikasi Milliy sertifikatlashtirish tizimida ishlar va xizmatlarga xaq to'lash qoidalari..... | 146        |
| Nazorat savollari.....                                                                                                   | 148        |
| 3-Modul bo'yicha o'z-o'zini tekshirish, nazorat va test savollari.....                                                   | 148        |
| <b>4 - Modul. SIFAT MENEJMENTI TIZIMI.....</b>                                                                           | <b>152</b> |
| 19-mavzu. Sifat, maxsulot sifatini boshqarish.....                                                                       | 152        |
| Nazorat savollari.....                                                                                                   | 162        |
| 20-mavzu. Sifat menejmenti tizimi to'g'risida ta'limot tarixi.....                                                       | 162        |
| Nazorat savollari.....                                                                                                   | 177        |
| 21-mavzu. ISO 9000 seriyali standartlar, xorijiy davlatlarda sifatni boshqarish tizimlari.....                           | 177        |
| Nazorat savollari.....                                                                                                   | 185        |
| 22-mavzu. Menejment tizimlarini sertifikatlashtirish idoralariga umumiy talablar (ISO/IEC 17021).....                    | 185        |
| Nazorat savollari.....                                                                                                   | 190        |
| 23-mavzu. Sifat menejmenti tizimiga talablar.....                                                                        | 190        |
| Nazorat savollari.....                                                                                                   | 193        |
| 24-mavzu. Sifat menejmenti tizimini sertifikatlashtirish.....                                                            | 194        |
| Nazorat savollari.....                                                                                                   | 212        |
| 25-mavzu. Sifat menejmenti tizimini tekshirish.....                                                                      | 212        |
| Nazorat savollari.....                                                                                                   | 221        |
| 26-mavzu. Sifat menejmenti tizimini xujjatlashtirish.....                                                                | 221        |
| Nazorat savollari.....                                                                                                   | 223        |
| 4-Modul bo'yicha o'z-o'zini tekshirish, nazorat va test savollari.....                                                   | 224        |
| <b>5 - Modul. SIFAT MENEJMENTI TIZIMINI JORIY ETISH.....</b>                                                             | <b>226</b> |
| 27-mavzu. Sifat menejmenti tizimini joriy etish.....                                                                     | 226        |
| Nazorat savollari.....                                                                                                   | 233        |
| 28-mavzu. Sifat tizimining ichki va tashqi auditlari.....                                                                | 233        |
| Nazorat savollari.....                                                                                                   | 239        |
| 29-mavzu. Sifat menejmenti tizimini sertifikatlashtirish bo'yicha ekspertlarga qo'yiladigan talablar.....                | 240        |
| Nazorat savollari.....                                                                                                   | 243        |
| 5-Modul bo'yicha o'z-o'zini tekshirish, nazorat va test savollari.....                                                   | 244        |
| <b>6 - Modul. SIFAT MENEJMENTI TIZIMINI SERTIFIKATLASHTIRISH.....</b>                                                    | <b>246</b> |
| 30-mavzu. Sifat menejmenti tizimini sertifikatlashtirish.....                                                            | 246        |
| Nazorat savollari.....                                                                                                   | 248        |
| 31-mavzu. Sifat menejmenti tizimining sertifikatlashtirish bosqichlari.....                                              | 248        |
| Nazorat savollari.....                                                                                                   | 252        |
| 32-mavzu. Auditni o'tkazish qoida va tartiblari.....                                                                     | 253        |
| Nazorat savollari.....                                                                                                   | 258        |

|                                                                                                                                                         |            |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------|
| 33-mavzu. Sifat menejmenti tizimining ichki xolatini baholash, uning natijaviyligi va samaradorligini aniqlashda qo'llaniladigan vosita va usullar..... | 259        |
| Nazorat savollari.....                                                                                                                                  | 270        |
| 6-Modul bo'yicha o'z –o'zini tekshirish, nazorat va test savollari.....                                                                                 | 271        |
| <b>ADABIYOTLAR .....</b>                                                                                                                                | <b>274</b> |
| <b>GLOSSARIY .....</b>                                                                                                                                  | <b>277</b> |
| <b>TESTLAR .....</b>                                                                                                                                    | <b>291</b> |

## SO'Z BOSHI

*"Agar mahsulot xalqaro sertifikatga ega bo'lnasa, u hech qachon raqobatbardosh bo'la olmaydi. Mamlakatda har bir tadbirkor standartni bilishi, tanishi kerak, shunday muhit yaratish zarur..."*

*Sh. M. Mirziyoyev.*

"Sertifikatlashtirish asoslari va sifat menejmenti" nomli darslikda hayotimizning barcha jabhalarida, iqtisodiyotning va sanoatning barcha tarmoqlari uchun o'ta zarur bo'lgan, sertifikatlashtirish haqidagi asosiy tushunchalar va ta'riflar, me'yoriy hujjatlar, sertifikatlashtirishning huquqiy va qonuniy asoslari hamda O'zbekiston respublikasi sertifikatlashtirish milliy tizimi kabi masalalari xususida yetarli va zarur ma'lumotlar keltirilgan.

Ushbu darslik mohiyatan hozirgi kunlarda respublikamizdagi ta'lim va iqtisodiyot borasidagi rivojlanishi va o'zgarishlari fan-texnika hamda texnologiyani jadal o'zgarib borishini hisobga olingan holda yaratildi.

Asosan standartlashtirish, sertifikatlashtirish va sifatni boshqarish faoliyatini paydo bo'lishi va rivojlanishi tarixiy manbalardan ma'lumki, uzoq tariximizga o'zaro bog'liq bo'lishi bilan bir qatorda, ilmiy-falsafiy nuqtai nazardan iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga xos bo'lgan, doimiy ravishda va uzluksiz tarzda rivojlanishda bo'luvchi faoliyatlar turkumiga mansubdir.

Mustaqil O'zbekistonimiz juda boy va ko'hna madaniy va ma'rifiy meroslarga ega bo'lib, ushbu meros G'arb falsafasini shakllanishida, buyuk olimlarni va allomalarni muvoffaqiyat qozonishlarida munosib o'rin egallagan. Bundan tashqari respublikamiz «Buyuk ipak yo'li» asosiy tomirida joylashganligi va yirik savdo markazlariga ega bo'lganligi sababli xalqaro iqtisodiy munosabatlarni rivojlanishida alohida ahamiyat kasb etgan.

Ma'lumki, respublikamizda tub iqtisodiy islohotlar orqali bozor munosabatlarini shakllantirishga kirishishda eng avvalo, uning strategik maqsadlari belgilanib olindi. Bu maqsadlar ichida «raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarishni ta'minlash» alohida ta'kidlab o'tilgan. Iqtisodiy islohotlarning ustivor sanalgan yo'nalishlarida ham quyidagilarni ko'rishimiz mumkin:

-ilg'or texnologiyalarni joriy qilish orqali tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish;

-aholini oziq-ovqat bilan ta'minlash;

-mamlakatning eksport quvvatidan to'la-to'kis foydalanish, uni jadallik bilan rivojlantirish.

Bu borada respublikamizda qisqa muddat ichida ulkan ishlar amalga oshirildi va natijada O'zbekiston sanoatlashgan hamda iqtisodiy jihatdan buyuk imkoniyatlarga ega davlatlar safiga qo'shildi.

Sertifikatlashtirish faoliyati yuqorida sanab o'tilgan yo'nalishlar va sanoatimizning barcha tarmoqlarida ishlab chiqarishdagi zamonaviylikni aks ettirish, texnologik jarayonlarni kompleks avtomatlashtirish, ishlab chiqarilayotgan va chetdan keltirilayotgan turli xil mahsulotlarning sifati yuqori darajada, me'yoriy xujjatlarning belgilangan talablariga mos bo'lishini, iste'mol mahsulotlarining aholi uchun xavfsizligini ta'minlash, ilg'or, ko'p yillik tajribadan o'tgan jahon andozalaridan foydalanish va ularni respublikamizda tadbiq etish kabi faoliyatlarni o'ziga mujassamlashtirgan. Tabiiyki, barcha soha mutaxassislari qaysi toifada bo'lishidan qat'iy nazar ushbu borada yetarli bilim va malakaga ega bo'lishlari lozim.

Sertifikatlashtirishning asosiy maqsadi – talabalarni mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish va ularning sifatini boshqarish masalalarining mazmun mohiyati nimadan iborat, uning kelib chiqishi va rivojlanish tarixi, hozirgi zamonda unga bo'lgan talablar, chet ellarda va Respublikamizda sertifikatlashtirish tartibi va qonun qoidolari, milliy sertifikatlashtirish va akkreditlash tizimlari hamda sifatni boshqarish to'g'risida bilim olishlariga va ko'nikmaga ega bo'lishlariga imkoniyat yaratadi.

Sertifikatlashtirish asoslari va sifat menejmenti darslik xorijiy davlatlarning, xalqaro tashkilotlarning hamda O'zbekiston Respublikasida sertifikatlashtirishning tashkiliy-uslubiy va huquqiy tomonlari, shuningdek sertifikatlashtirish qoidolari, amalga oshirish mexanizmlari va sifatni boshqarish bo'limlarini o'z ichiga olgan. Aytish kerakki, sertifikatlashtirish bilan sifat tizimi va akkreditlashtirish idoralarining sertifikatlashtirish va tadqiqot amaliyotlarini tadbiq qilish masalalari bevosita bir-biriga bog'liqdir. Shuningdek O'zbekistonda akkreditlash tizimini xalqaro andozalarga uyg'unlashtirilgan holda yaratish natijalari ustida olib borilayotgan harakatlar ham ushbu o'quv qo'llanmada e'tiborga olingan.

Mahsulotlar, xizmatlar va ishlarni sertifikatlashtirish – mahsulotni o'rnatilgan talablarga va uning sifati bilan to'g'ri bog'liqligini tasdiqlashdir. Sifatsiz mahsulot sertifikatlashtirilishi mumkin emas.

Sertifikatlashtirish quyidagi yo'nalishlarga:

- mahsulot (xizmat) iste'molchilarning tanlash layoqatliligi faoliyati;
- iste'molchilarni nopok va vijdonsiz ishlab chiqaruvchilar (sotuvchi, bajaruvchi)dan himoya qilish;
- mahsulot (xizmat, ishlar)ni atrof-muhit, yashash va jamiyat sog'lig'i uchun xavfsizligini nazorat qilish;
- mahsulot (xizmat, ishlar) sifat ko'rsatkichlari va ushbu mahsulotni ishlab chiqargan ishlab chiqaruvchilar (bajaruvchilar)ni tasdiqlash;
- tashkilot va xususiy tadbirkorlar faoliyatini Respublikamiz yagona tovar bozorini hamda xalqaro iqtisodiyotda, ilmiy-texnik hamkorlikda va xalqaro savdolarida qatnashishi uchun imkoniyat yaratish sohasida ish olib boradi.

Muvofiqlikni tasdiqlash va baholash tizimi mahsulot sifati va xavfsizligini, ishlar va xizmatlarni nazorat qilish va buning uchun davlat

tekshiruv va nazorati, litsenziyalashtirish, ixtiyoriy sertifikatlashtirish bilan boshqa nazorat shakllarining asosiy mexanizmi bo'lishi bilan ahamiyatlidir.

Respublikamizda sertifikatlashtirishning rivojlantirish istiqboli mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish, shu bilan birga «muvofiglikni tasdiqlash va baholash» - tizimiga o'tish, hamda bu faoliyatni takomillashtirish bo'yicha «O'zstandart» agentligi tomonidan qabul qilingan kontseptsiyada to'liq tarzda yoritib berilgan.

Shu sabablarga ko'ra, ushbu darslik respublikamizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy va ta'lim borasidagi islohotlarga yondashgan holda standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va sifatni boshqarish sohalaridagi bilimlarni yetkazishda sertifikatlashtirish asoslari va sifat menejmenti tayanch faoliyat ekanlagini inobatga olib yaratishga harakat qilindi.

# **1 -Modul . SERTIFIKATLASHTIRISH TO'G'RI SID A UMUMIY MA'LUMOT**

## **1-mavzu. "Sertifikatlashtirish asoslari" faniga kirish**

### **1.1. Fanga kirish. Fanning maqsadi va vazifalari**

1.1. Sertifikatlashtirish bo'yicha xalqaro tashkilotlari va ISO, ISO/IEC, ILAC tashkilotlarining faoliyatlar

### **1.1. Fanga kirish. Fanning maqsadi va vazifalari**

Ushbu fan iqtisodiyotda mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirishda sifatni nazorat qilish, sifatni ta'minlash va sifatni boshqarishning tavsiflari, ularning sifat ko'rsatkichlari va sinash usullari, me'yoriy xujjatlar bilan ta'minlanishi, korxona va tashkilotlarda sifat menejmenti tizimini ishlab chiqish va joriy etilgan sifat menejmenti tizimlarini sertifikatlashtirishda audit o'tkazish, audit turlari, o'tkaziladigan va o'tkazilgan ichki audit natijalarini taxlil qilish, taxlil natijalari asosida sifat menejmenti muvofiqligini baholash va tasdiqlash tartiblari, fan tarixi va rivojining tendentsiyasi, istiqboli hamda respublikamizdagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar natijalari va sertifikatlashtirish sohasidagi xalqaro, hududiy muammolarning sertifikatlashtirish istiqboliga ta'siri kabi masalalarini qamrab oladi.

Bu fanining ahamiyati xalqaro savdo tizimiga O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining integratsiyalashuvi bilan aloqador metrologiya, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va mahsulot sifat menejmenti yo'nalishlari bo'yicha bakalavrlarni tayyorlash sohasidagi vazifalarni qamrab olgan.

Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish va ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini boshqarish va sifatni ta'minlashda sertifikatlashtirish faoliyati, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifatini kafolatlanishi, muvofiqligini xolisona baxolash va raqobatbardoshligini ta'minlash, ishlab chiqarish texnologiyalarini rivojlanishi bilan mahsulotlarni sertifikatlashtirish muhim o'rin tutadi.

Shuning uchun mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish jarayoniga alohida talablar va vazifalar qo'yilgan. Ishlab chiqarish, mahsulot va xizmatlar xamda xodimlarni sertifikatlashtirish orqali iqtisodiy samaradorlikka erishish, sertifikatlashtirish ob'ektlarini eksport qilishga tayyorlash, ularning tannarxini va sarflanadigan xarajatlarni kamaytirishning tashkiliy masalalarini yoritib beradi. SHu sababli ushbu fan asosiy mutaxassis fani xisoblanib, ishlab chiqarish texnologik tizimining ajralmas bo'g'ini bo'lib xisoblayadi.

Ma'lumki, respublikamizda tub iqtisodiy islohotlar orqali bozor munosabatlarini shakllantirishga kirishishda eng avvalo, uning strategik maqsadlari belgilanib olindi. Bu maqsadlar ichida «raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarishni ta'minlash» alohida ta'kidlab o'tilgan. Iqtisodiy islohotlarning ustivor sanalgan yo'nalishlarida ham quyidagilarni ko'rishimiz mumkin:

- ilg'or texnologiyalarni joriy qilish orqali tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish;
- aholini oziq-ovqat bilan ta'minlash;
- mamlakatning eksport quvvatidan to'la-to'kis foydalanish, uni jadallik bilan rivojlantirish.

Bu borada respublikamizda qisqa muddat ichida ulkan ishlar amalga oshirildi va natijada O'zbekiston sanoatlashgan hamda iqtisodiy jihatdan buyuk imkoniyatlarga ega davlatlar safiga qo'shildi.

Mahsulotlar, xizmatlar va ishlarni sertifikatlashtirish — mahsulotni o'rnatilgan talablarga va uning sifati bilan to'g'ri bog'liqligini tasdiqlashdir. Sifatsiz mahsulot sertifikatlashtirilishi mumkin emas.

Sertifikatlashtirish quyidagi yo'nalishlarga:

- mahsulot (xizmat) iste'molchilarning tanlash layoqatligi faoliyati;
- iste'molchilarni nopok va vijdotsiz ishlab chiqaruvchilar (sotuvchi, bajaruvchi)dan himoya qilish;
- mahsulot (xizmat, ishlar)ni atrof-muhit, yashash va jamiyat sog'lig'i uchun xavfsizligini nazorat qilish;
- mahsulot (xizmat, ishlar) sifat ko'rsatkichlari va ushbu mahsulotni ishlab chiqargan ishlab chiqaruvchilar (bajaruvchilar)ni tasdiqlash;
- tashkilot va xususiy tadbirkorlar faoliyatini Respublikamiz yagona tovar bozorini hamda xalqaro iqtisodiyotda, ilmiy-texnik hamkorlikda va xalqaro savdolarida qatnashishi uchun imkoniyat yaratish sohasida ish olib boradi.

Muvofiqlikni tasdiqlash va baholash tizimi mahsulot sifati va xavfsizligini, ishlar va xizmatlarni nazorat qilish va buning uchun davlat tekshiruvi va nazorati, litsenziyalashtirish, ixtiyoriy sertifikatlashtirish bilan boshqa nazorat shakllarining asosiy mexanizmi bo'lishi bilan ahamiyatlidir.

Respublikamizda sertifikatlashtirishni rivojlantirish istiqboli mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish, shu bilan birga «muvofiqlikni tasdiqlash va baholash» - tizimiga o'tish, hamda bu faoliyatni takomillashtirish bo'yicha «O'zstandart» agentligi tomonidan qabul qilingan kontseptsiyada to'liq tarzda yoritib berilgan.

SHu sabablarga ko'ra, ushbu darslik respublikamizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy va ta'lim borasidagi islohotlarga yondashgan holda standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va sifat menejmenti sohalaridagi bilimlarni yetkazishda sertifikatlashtirish asoslari va sifat menejmenti tayanch faoliyat ekanligini inobatga olib yaratishga harakat qilindi.

Fanni o'qitishdan maqsad — talabalarda maxsulot va xizmatlar, korxona sifat menejmenti tizimini xamda xodimlarni sertifikatlashtirish, sertifikatlashtirish sxemalari, sertifikatlashtirishning shakllari, sinov laboratoriyalarini tashkil qilish, sinov turlari, sertifikatlashtirish va sinov natijalarini rasmiylashtirish xamda muayyan sharoitlarga mos xolda sertifikatlashtirishni tashkillashtirish, sifat menejmenti tizimini rivojlanish istiqbollari, respublikamizda sifat menejmenti tizimini korxonalarda joriy etish

va sertifikatlashtirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar bo'yicha yo'nalish ixtisosligiga mos bilim, ko'nikma va malaka shakllantirishdir.

Fanning vazifasi — uni o'rganuvchilarga:

- sertifikatlashtirish faoliyatlari to'g'risida;
- sertifikatlashtirish bo'yicha xalqaro, xududiy va milliy tashkilotlarning faoliyatlari va tuzilmasi to'g'risida;
- maxsulot va xizmatlarining sifatini kafolatlovchi hujjatlar haqida;
- savdodagi texnik to'siqlar va maxsulotlarning eksport va import jarayonlari;

ISO 9000 seriyasidagi xalqaro standartlar va ularning mahsulot sifatini ta'minlashdagi ahamiyati;

- mahsulot sifatiga jarayonli yondoshish roli;
- sifat ta'minoti tizimlari va ularning rivojlanish bosqichlari;
- sifat menejmenti tizimini korxonalarda qo'llash;
- sifat boshqaruv hujjatlarini elektron versiyasini;
- sifat tizimini zamonaviy boshqarishda axborot texnologiyalarini joriy qilish va rivojlantirish istiqbollari o'rgatishdan iborat.

## 1.2. Sertifikatlashtirish bo'yicha xalqaro tashkilotlari va ISO, ISO/IEC, ILAC tashkilotlarining faoliyatlari

 Hozigi kunda sertifikatlashtirish va sifat menejmenti masalalari bo'yicha bir nechta xalqaro tashkilotlar faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Jumladan, xalqaro standartlashtirish tashkiloti (ISO), Xalqaro elektrotexnika komissiyasi (ISO/IEC); Sinov laboratoriyalarini akkreditlash bo'yicha Xalqaro konferentsiya (ILAC) va boshqalar.

Xalqaro standartlashtirish tashkiloti - (ISO) o'zining ishlanmalari bilan turli xil milliy qonuniy holatlarda sertifikatlashtirish natijalarini o'zaro tan olish ishlari va o'z navbatida sertifikatlashtirish usullarini uyg'unlashtirishda yordam berib kelmoqda.

ISO tashkiloti mamlakatlarda sertifikatlashtirish tizimini yaratish va u qaerlarda mavjud bo'lmasa bu bo'yicha reja asosida uslubiy yordam qilib kelmoqda. ISO sertifikatlashtirish sohasida IEC bilan hamkorlikda ko'plab qo'llanmalar va tavsiyalar ishlab chiqmoqda. Sertifikatlashtirish sohasida asos bo'luvchi ISO/IES 28 "Uchinchi tomon mahsulotni sertifikatlashtirish tizimi namunaviy umumiy qoidalari" qo'llanma milliy sertifikatlashtirish tizimini yaratish bo'yicha tavsiya sifatida foydalanilmoqda.

Birinchi standartlashtirish milliy tashkiloti - Britaniya Assotsiatsiyasi /British Engineering Standards Association/ 1901 yilda tashkil etilgan bo'lib, biroz keyinroq, birinchi jahon urushi davrida Daniya byurosi, Germaniya qo'mitasi (1918 y.), Amerika qo'mitasi (1918 y.) va boshqalar tashkil topdi.

Standartlashtirish sohasidagi ishlar xalqaro markaz kerakligini taqazo qildi. Shu maqsadda 1926 yili standartlashtirish milliy tashkilotlarning Xalqaro

Assotsiatsiyasi (ISA) paydo bo'ldi. ISA ning tarkibiga 20 mamlakat vakillari kirdi.

1938 yili Berlin shahrida standartlashtirish bo'yicha Xalqaro s'ezd ochildi. Unda texnikaning turli sohalari bo'yicha 32 ta qo'mita va kichik qo'mitalar tuzildi. 1939 yili boshlangan ikkinchi jahon urushi ISA ning faoliyatini to'xtatib qo'ydi.

Hozirgi Xalqaro standartlashtirish tashkiloti (International Standards Organization) 1946-1947 yillari tashkil topdi, uni qisqacha ISO deb yuritiladi. Bu nufuzli tashkilot Birlashgan Millatlar Bosh Assambleyasi tarkibida faoliyat ko'rsatib, rivoj topmoqda. Tashkilotning tashkiliy tuzilmasi 1.2.1-rasmda keltirilgan.

ISO ning tuzilishidan ko'zda tutilgan asosiy maqsad - xalqaro miqyosdagi mol almashinuvida va o'zaro yordamni yengillashtirish uchun dunyo ko'lamida standartlashtirishni rivojlantirishga ko'maklashish hamda aqliy, ilmiy, texnikaviy va iqtisodiy faoliyatlar sohasida hamdo'stlikni rivojlantirishdir.

Bu maqsadlarni amalga oshirish uchun:

- dunyo ko'lamida standartlarni va ular bilan bog'liq bo'lgan sohalarda uyg'unlashtirishni yengillashtirish uchun choralar ko'rish;

- xalqaro standartlarni ishlab chiqish va chop etish (agar har bir standart uchun uning faol tashkiliy va kichik qo'mitalarining ikkidan uch qismi ma'qullab ovoz bersa va umumiy ovoz beruvchilarning to'rtidan uch qismi yoqlab chiqsa, standart ma'qullanishi mumkin);

- o'z qo'mita a'zolarining va texnikaviy qo'mitalarning ishlari haqida axborotlar almashinuvi tashkil qilish;

- sohaviy masalalar bo'yicha manfaatdor bo'lgan boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish ko'zda tutiladi.

ISO rahbar va ishchi qo'mita idoralaridan tashkil topgan. Rahbar idoralari tarkibiga Kengashning yuqori idorasi - Bosh Assambleya, Kengash, ijroiya byurosi, texnikaviy byuro, kengashning texnikaviy qo'mitalari va markaziy sekretariati kiradi.


ISOda prezident, vitse-prezident, g'azinachi va bosh sekretar lavozimlari mavjud. Bosh Assambleya - ISONing Oliy Rahbari bo'lib, ISONing yig'ilishi uch yilda bir marta bo'ladi. Uning sessiyasida prezident uch yil muddat bilan saylanadi.

Bosh Assambleya o'tkazish vaqtida sanoat sohasida yetakchi mutaxassislar ishtirokida xalqaro standartlashtirishning muhim muammolari va yo'nalishlari muhokama qilinadi.

ISO kengashi yiliga bir marta o'tkazilib, unda tashkilotning faoliyati, xususan, texnikaviy idoralarning tuzilishi xalqaro standartlarning chop etilishi, kengash idoralarining a'zolarini hamda texnikaviy qo'mitalarning raislarini tayinlaydi va boshqa masalalar ko'riladi.

Mahsulot sifatini yaxshilash, boshqarish va ta'minlash bo'yicha oxirgi vaqtda qilingan ishlarni mujassamlab, ISO o'zining bir qator me'yoriy

hujjatlarini ishlab chiqdi, bu hujjatlarga sifat tizimi sohasida ISO 9000, mehnat xavfsizligi sohasida ISO 18000 va oziq-ovqat mahsulotlari sifati, xavfsizligi ISO 22000 hamda ekologiya sohasida ISO 14000 seriyali standartlarni ko'rsatish mumkin.



### 1.2.1-rasm. ISO xalqaro tashkilotining tashkiliy tuzilmasi



Xalqaro elektrotexnika komissiyasi – XEK (IEC) ISO tashkilotidan farqli ravishda xalqaro sertifikatlashtirish tizimi va standartlarni ishlab chiqishda hamda mahsulot muvofiqligini sertifikatlashtirish va sinashda me'yoriy bazasining xavfsizlik qismlari bo'yicha uslubiy muammolar bilan shug'ullanadi.

Elektrotexnika sohasidagi xalqaro hamkorlik bo'yicha ishlar 1881 yildan boshlangan, chunki bu yili elektr bo'yicha birinchi Xalqaro kongress bo'lib o'tgan edi. Keyinroq 1906 yili Londonda 13 mamlakat vakillarining konferentsiyasida maxsus idora - xalqaro elektrotexnika komissiyasi tuzish to'g'risida bir fikrga kelindi. Bu idora elektr mashinalari sohasi bo'yicha atamalar va parametrlarni standartlashtirish masalalari bilan shug'ullana boshladi.

XEK nizomiga ko'ra, bu tashkilotning maqsadlari elektrotexnika va radiotexnika va ularga qo'shni tarmoqlardagi muammolar sohasidagi standartlashtirish masalalarini xal qilishdir.

ISO va XEK faoliyatlari bo'yicha farqlanadi, XEK elektrotexnika, elektronika, radioaloqa, asbobsozlik sohaları bo'yicha shug'ullanasa, ISO esa qolgan boshqa hamma sohalar bo'yicha standartlashtirish bilan shug'ullanadi.

Hozirgi vaqtda 41-ta milliy qo'mitalar XEKning a'zolari hisoblanadi. Bu mamlakatlarda yer qurrasining 80% aholisi yashab, 95% dunyodagi ishlab chiqarilayotgan elektr quvvatining iste'molchisi hisoblanadi. Bu asosan sanoati rivojlangan hamda rivojlanayotgan mamlakatlardir. XEK ingliz, frantsuz va rus tillarida ish olib boradi.



1.2.2-rasm. XEK xalqaro tashkilotining tashkiliy tuzilmasi

XEKning Oliy rahbar idorasi XEK kengashidir, u yerda mamlakatlarning hamma milliy qo'mitalari taqdim etilgan. Unda eng yuqori lavozim prezident bo'lib, u har 3 yil muddatda saylanadi. Bundan tashqari vitse-prezident, g'aznachi, bosh sekretar lavozimlari ham bor. XEK har yili bir marta o'z kengashiga yig'iladi va o'z faoliyati doirasidagi masalalarni hal qiladi. Uning tashkiliy tuzilmasi 1.2.2-rasmda keltirilgan.

1972 yilga qadar XEK va ISO lar tomonidan yaratilayotgan hujjatlar tavsiya sifatida faoleyo ko'rsatar edi. 1972 yili esa XEK, ISO larning tavsiyalari xalqaro standartlarga aylantirilishi haqida qaror qabul qilindi.



Sinov laboratoriyalarini akkreditlash bo'yicha Xalqaro konferentsiya - (ILAC) 1977 yil (Kopengagen, Daniya)da birinchi bo'lib tashkil etilgan.

Konferentsiyani ish olib borishidan maqsadi savdoda texnik to'siqlarni sinov laboratoriyalarini akkreditlash yo'li bilan xalqaro darajadagi tamoyillar va usullarni, sinov natijalarini o'zaro ishonchligini o'rnatish asosiy yo'nilishdir.

ILAC o'zining faoliyati darajasida xalqaro kelishuvni ikki turini ko'zda tutadi:

- akkreditlanmagan laboratoriya sinov sertifikatlari, bayonnomalarni o'zaro tan olish bo'yicha kelishish;

- milliy tizim akkreditlagan sinov laboratoriyalarini o'zaro tan olish bo'yicha kelishish (sertifikatlarni va ulardan foydalanish imkoniyati mavjudligi).

O'tgan asrning 90-yillarining o'rtalarida Yevropa Ittifoqida (EC) ishlab chiqariladigan va sotiladigan mahsulotlar sifati bo'yicha yangi siyosat qabul qilindi.

ISO va MEK ishlab chiqqan xalqaro qoidalariga asosan laboratoriyalarini akkreditlashdan maqsad sinov laboratoriyalarini aniq sinovlar yoki aniq tur sinovlari (ISO /IES Rukovodstvo 2.86) o'tkazishga huquq berishdan iborat.

Akkreditlangan sinovlar tushunchasi mahsulotni sertifikatlashtirish faoliyati bilan chambarchas bog'langandir.

ILAC (International Laboratory Accreditation Conference) birinchi marta 1977 yili Kopengagen (Daniya) da chakirilgan. ILAC ning yaratilishidan milliy tizimlarini o'zaro tan olish bilan amaldagi va xalqaro bitimlardagi ma'lumotlarni, mahsulotni sinash natijalarini va boshqa mahsulot sifati haqidagi ma'lumotlarni umumlashtirishga harakat qilish.

1980 yilda chakirilgan ILAC ning konferentsiyasida milliy tizimlarining akkreditlangan laboratoriyalarini o'zaro tan olish bo'yicha amaldagi ikki va ko'p tomonlama bitimlar haqida ma'ruza tayyorlashga qaror qabul qilindi.

Ish jarayonida ikki xil xalqaro bitimlar borligi namoyon bo'ldi:

Laboratoriyalarni akkreditlamasdan sinov natijalarini va sertifikat bayonnomalarini o'zaro tan olish bitimi;

Sinov laboratoriyalarining akkreditlash milliy tizimlarini o'zaro tan olish bitimi (tan olishni sertifikatga yozish bilan).

SHu masalalar bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan va ularning natijalariga ko'ra shunday bitimlar zarurligi qayd qilindi.

Laboratoriyalarning akkreditlash masalalari hozirgi kunda aktual bo'lib, ular bilan bog'liq bo'lgan materiallarni sistemali ravishda chop etilish zarurati tugildi. SHu masalalarda har doim ILAC o'z materiallarining chop etilishini «Metrologiya» jurnali tahririyati bilan hamkorlikda amalda oshirilishiga qaror qildi.

1983 yili ILAC tashabbusi bilan sinov laboratoriyalari uchun sifat bo'yicha qo'llanma tuzishga tavsiyaviy loyiha tayyorlandi, 1986 yili esa bunday

tavsiya qabul qilindi. ISO va MEK lar tomonidan qayta ishlangan bu hujjat ISO - IES 49 qo'llanmasi nomi bilan ma'lumdur.

ILAC tomonidan ishlab chiqarilgan xalqaro hujjatlar mahsulotni chetga chiqaradigan va chetdan mol olib keladigan mamlakatlardagi savdo – iqtisodiy siyosatiga katta ta'sir o'tkazmoqda. Bunga misol tariqasida YeES mamlakatlari tomonidan 1989 yili qabul qilingan akkreditlanuvchi laboratoriyalarga talablar asosini belgilovchi akkreditlar va sertifikatlashtirish idoralari uchun zarur Yevropa EN – 45000 standartini ko'rsatish mumkin.

### **Nazorat savollari**

1. Birinchi standartlashtirish milliy tashkiloti qachon va qayerda tashkil qilingan?
2. Hozirgi Xalqaro standartlashtirish tashkiloti ISO (International Standards Organization) qachon tashkil etilgan.
3. ISO ning tuzilishidan ko'zda tutilgan asosiy maqsad nima?
4. Xalqaro elektrotexnika komissiyasi qachon tashkil etilgan?
5. ISO va MEK faoliyatlari bo'yicha qaysi soxalarda ish olib boradi?

### **2-mavzu. Sertifikatlashtirish faoliyati**

- 2.1. Sertifikatlashtirishning rivojlanishi
- 2.2. Sertifikatlashtirish va sifatni boshqarishning qonuniy va me'yoriy asoslari

#### **2.1. Sertifikatlashtirishning rivojlanishi**

Hozirgi vaqtda sertifikat degan atamani tez-tez uchratib turamiz. Bu qanday atama deb so'rasangiz turlicha talqin olishingiz mumkin: kimdir biror malaka olganlik to'g'risidagi tasdiqlovchi hujjat desa, yana kimdir, mahsulotni sifati to'g'risidagi hujjat, ba'zi birovlar esa mahsulotni hududimizga olib kirish yoki olib ketish uchun bojxonaga ko'rsatilishi lozim bo'lgan hujjat deb ta'rif beradi.

Sertifikatlashtirish guvohlik berish, qayd yoki shahodat etish, ishonch bildirish ma'nolarini bildiruvchi certifikat (lotincha) so'zidan olingan bo'lib, kerakli ishonchlilik bilan mahsulotning muayyan standartga yoki texnikaviy hujjatga muvofiqligini uchinchi, xolis va tan olingan tomon tarafidan tasdiqlaydigan faoliyatni bildiradi.

Sanoat korxonalarida ishlab chiqilayotgan turli xil mahsulotlar muayyan sifat ko'rsatkichlariga ega bo'lishi kerak. Sifat ko'rsatkichlari esa ma'lum, belgilangan talablarga muvofiq /mos/ kelishi lozim. Muvofiqlik o'z navbatida ma'lum standartga yoki boshqa me'yoriy hujjatlarga mos kelishini talab etadi. Muvofiqlikni sertifikatlashtirish (ya'ni tasdiqlash) mumkin.

"Sertifikatlashtirish" tushunchasi birinchi marta Xalqaro standartlashtirish tashkiloti Kengashining sertifikatlashtirish masalalari bo'yicha maxsus qo'mitasi

tomonidan ishlab chiqilib va bu muhim tushuncha "Standartlashtirish, sertifikatlashtirish va sinov laboratoriyalarining akkreditlash sohalaridagi asosiyl atamali va ularning qoidalari" qo'llanmasiga kiritilgan.

Qayta ishlangan Xalqaro standartlashtirish tashkilotining qo'llanmasida "sertifikatlashtirish" atamasining faqatgina izohlari berilgan:


Sertifikatlashtirish umumiy atama bo'lib, mahsulot, texnologik jarayon va xizmatlarning sertifikatlashtirishda /muvofiglikni tasdiqlashda/ uchinchi tomonning qatnashishi va unga xolisona baho berishi tushuniladi. Sifat tizimini baholash sohasidagi taraqqiyot sifat tizimini sertifikatlashtirish /tashkilotning sifatli mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatlarini sertifikatlashtirish/ bo'yicha yangi dolzarb yo'nalishni keltirib chiqardiki, ushbu yo'nalish bugungi kunda keng qo'llanilib, bozor iqtisodiyotidagi raqobatbardoshlik, o'zaro savdosotiqning samarasi va istiqbolilik darajalarini belgilab beradigan omillardan asosiysi sifatida saxnaga chiqmoqda.


O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng sertifikatlashtirish sohasida juda katta ishlar amalga oshirildi va hozirgi kunda ham bu sohaning rivojlanishi, xalqaro miq'yosda tan olinishi ustida «O'zstandart» agentligi tomonidan katta e'tibor berilmoqda. Binobarin, 1992 yil mustaqillikning ilk yillaridayoq Vazirlar Mahkamasi huzurida standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish Davlat markazi ("O'zdavstandart") va keyinchalik, 2002 yilda, ushbu sohani yanada rivojlantirish va takomillashtirish maqsadida mustaqil "O'zstandart" agentligi tashkilotiga aylantirilishi Hukumatimiz tomonidan bu sohaga berilayotgan ahamiyatning maxsul sifatida qarash mumkin.

## **2.2. Sertifikatlashtirish va sifatni boshqarishning qonuniy va me'yoriy asoslari**

Har qanday faoliyat yoki yo'nalish nima maqsadni ko'zlashidan qat'iy nazar albatta qonunlashtirilishi, tartibga tushirilishi, faoliyatni olib borish esa ma'lum me'yoriy hujjatlar asosida olib borilishi talab etiladi. Xuddi shuningdek, sertifikatlashtirish faoliyati ham bundan mustasno emas.

Quyida ushbu sohaning qonuniy asosi va qonunosti hujjatlari to'g'risida tushuncha bermoqchimiz. Sertifikatlashtirishning qonuniy va me'yoriy asoslari va bazasi 2.2.1-rasmda keltirilgan.





**2.2.1-rasm. Sertifikatlashtirishning qonuniy va me'yoriy bazasi.**

#### **Nazorat savollari**

1. Sertifikatlashtirishga ta'rif bering.
2. Sertifikatlashtirishning mohiyatini tushuntirib bering.
3. O'zbekiston Respublikasining "Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida" qonunni qachon qabul qilingan va uni tushuntiring?
4. Sertifikatlashtirishning qonuniy va me'yoriy ta'minotini tushuntiring.
5. Sertifikatlashtirishning qonuniy faoliyati maqsad va vazifalarini tushuntiring.

### **3-mavzu. Sertifikatlashtirishning me'yoriy va qonuniy asoslari**

3.1. O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish va sifatni boshqarish sohasidagi qonun va huquqiy xujjatlari

3.2. Sertifikatlashtirish tizimi, milliy sertifikatlashtirish tizimi, vazifalari, qatnashuvchi idoralar, sertifikatlashtirish tartibi

#### **3.1. O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish va sifatni boshqarish sohasidagi qonun va huquqiy xujjatlari**

*O'zbekiston Respublikasi Olty Majlisi tomonidan sertifikatlashtirish masalalari bo'yicha qabul qilingan qonunlar:*

– O'zbekiston Respublikasining «Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida» gi qonuni;

– O'zbekiston Respublikasining «Standartlashtirish to'g'risida» gi qonuni;

– O'zbekiston Respublikasining «Oziq-ovqat mahsulotlari sifati va xavfsizligi to'g'risida» gi qonuni;

– O'zbekiston Respublikasining «Iste'molchilar xukukini ximoya qilish to'g'risida» gi qonuni;

– O'zbekiston Respublikasining «O'simliklarni karantini to'g'risida» gi qonun;

– O'zbekiston Respublikasining «Reklama to'g'risida» gi qonuni va xokazolar.

*O'zbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish milliy tizimining asos bo'luvchi me'yoriy hujjatlari:*

– O'z DSt 1.10-93 O'zbekiston Respublikasining standartlashtirish davlat tizimi. Asosiy atamalar va ta'riflar;

– O'z DSt 5.0:1998 O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimi. Asosiy qoidalar;

– O'z DSt 5.2-93 O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimi. Sertifikatlashtirish idorasiga umumiy talablar;

– O'z DSt 5.4-98 O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimi. Tekshirish va nazorat idoralariga qo'yiladigan talablar;

– O'z DSt 5.5:1999 O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimi. Asosiy atamalar va ta'riflar;

– O'z DSt 5.6:1999 O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimi. Sifat tizimini sertifikatlashtirish idoralariga talablar;

– O'z DSt 5.8:2006 O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimi. Muvofiqlik belgisini tasdiqlash. Qo'llash qoidalari.

– O'z RH 51-014:2006 O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimi. Sifat bo'yicha Ekspert-auditorlar. Tayyorlash va baholash talablari;

– O‘z RH 51-021:2004 O‘zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimi.

– O‘z RH 51-024-94 O‘zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimi. Sertifikatlashtirish bo‘yicha hujjatlarni ekspert baholash;

– O‘z RH 51-025-94 O‘zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimi. Sifat tizimlari va ishlab chiqarishni sertifikatlashtirish. Asosiy qoidalar;

– O‘z RH 51-026-94 O‘zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimi. Apellyatsiyalarni ko‘rib chiqish tartibi;

– O‘z RH 51-027-94 O‘zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimi. Sifat tizimlarini sertifikatlashtirish. O‘tkazish tartibi;

– O‘z RH 51-032:1999 O‘zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimi. Ishlar haqini to‘lash tartibi;

– O‘z RH 51-035-95 O‘zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimi. Ishlab chiqarishni sertifikatlashtirish. O‘tkazish tartibi;

– O‘z RH 51-103:2000 O‘zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimi. Sertifikatlashtirilgan sifat tizimlari va ishlab chiqarishlari inspeksion tekshiruv;

– O‘z RH 51-044-96 O‘zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimi. Majburiy sertifikatlashtirish qoidalariga rioya qilish yuzasidan Davlat nazorati va tekshiruvi. Umumiy talablar;

– O‘z RH 51-061-97 O‘zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimi. Xizmatlarni sertifikatlashtirish. O‘tkazish tartibi;

– O‘z RH 51-074-98 O‘zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimi. Mahsulotni identifikatsiyalash yuzasidan yo‘riqnoma;

– O‘z RH 51-085-99 O‘zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimi. Oziq-ovqat mahsulotlari va jihozlari va ularni ishlab chiqarish yuzasidan yo‘riqnoma, Davlat qaydi tartiblari;

#### ***O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari:***

– O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 28 apreldagi 122-sonli “Sertifikatlashtirish tartibotlarini va sifat menejmenti tizimlarini joriy etishni takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”

– O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 5 avgustdagi 373-sonli “O‘zbekiston davlat standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi tuzilmasini takomillashtirish va uning faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” qarori.

– O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 6 iyuldagi 318-sonli “Mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibotini soddalashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarori

– O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 3 oktyabrdagi 342-sonli “Standartlashtirish, metrologiya va mahsulotlar hamda

xizmatlarni sertifikatlashtirish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori

– "Mahsulotlarni sertifikatlash qoidalarini tasdiqlash to'g'risida". (Qayd AV 18.03.2005 y. № 1458)

– "Sertifikatlashtirilgan mahsulotlar va xizmatlarni inspeksiya nazoratidan o'tkazish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida" (Qayd AV 06.04.2005 y. № 1464)

– "Mahsulotning xavfsizlik talablariga muvofiqligini deklaratsiyalash tartibi to'g'risida nizomni tasdiqlash haqida". (Qayd AV 06.04.2005 y. № 1465)

– "Majburiy tartibda sertifikatlanadigan bir turdagi mahsulotlarning alohida turlarini sertifikatlash qoidalarini tasdiqlash to'g'risida" (Qayd AV 28.09.2005 y. № 1513)

– Oziq-ovqat mahsulotlariga, ularni ishlab chiqarish vositalariga va xalq iste'moli mollariga gigienik sertifikatini berish tartibi to'g'risida yo'riqnomani tasdiqlash haqida (Qayd AV 08.12.2005 y. № 1525).

– "Ishlab chiqarilgan etil spirt - rektifikatini sinovdan o'tkazish va tayyor mahsulotlar omborxonasiga topshirish tartibi to'g'risida nizomni tasdiqlash haqida" (Qayd AV 06.09.2007 y. № 1714)

– "O'zbekiston Respublikasi Milliy sertifikatlashtirish tizimida ishlar va xizmatlarga haq to'lash qoidalarini tasdiqlash to'g'risida". (Qayd AV 11.10.2013 y. № 2516).

– "Muvofiqlikni baholash sohasida xodim sifatida ishtirok etishga talabgor bo'lgan mutaxassislarni sertifikatlashtirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" (Qayd AV 11.10.2013 y. № 2748).

– "Sifat bo'yicha ekspert-auditorlarni attestatsiyadan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" (Qayd AV 21.07.2017 y. № 2899).

### ***O'zbekiston Respublikasining akkreditlashtirish tizimi me'yoriy hujjatlari:***

– O'z DSt 16.0-98 O'zbekiston Respublikasining akkreditlashtirish tizimi. Umumiy qoidalar.

– O'z DSt 16.1:1999 O'zbekiston Respublikasining akkreditlashtirish tizimi. Sertifikatlashtirish idoralari va tekshirish idoralarini akkreditlashini o'tkazish tartibi.

– O'z DSt 16.2:1999 (EN 45013) O'zbekiston Respublikasining akkreditlashtirish tizimi. Sertifikatlashtirish idorasi xodimlariga talablar.

– O'z DSt 16.3:2001 O'zbekiston Respublikasining akkreditlashtirish tizimi. Standart namunalarni tayyorlash, attestatlash va ishlatish huquqi bo'lgan yuridik shaxslarni akkreditlash. Tashkillashtirish va o'tkazish tartibi.

– O'z DSt 16.4:2001 (ISO/MEK 17025) O'zbekiston Respublikasining akkreditlashtirish tizimi. Sinash, o'lchash laboratoriyalariga quyiladigan umumiy talablar va ularni akkreditlash tartibi.

– O‘z DSt 16.5:2001 O‘zbekiston Respublikasining akkreditlashtirish tizimi. Hujjatlarni metrologik ekspertizasi va o‘lchashlarni bajarish usullarini attestatsiyalash huquqi bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslarni akkreditlash. Tashkillashtirish va o‘tkazish tartibi.

– O‘z DSt 16.6:2003 O‘zbekiston Respublikasining akkreditlashtirish tizimi. O‘lchashlarni bajarish usulini nazoratini tashkillashtirish huquqi bo‘lgan yuridik shaxslarni akkreditlash. Tashkillashtirish va o‘tkazish tartibi.

– O‘z DSt 16.7:2004 O‘zbekiston Respublikasining akkreditlashtirish tizimi. Inspeksion faoliyati mavjud firmalarga talablar.

– O‘z DSt 16.8:2004 O‘zbekiston Respublikasining akkreditlashtirish tizimi. Ishlab chiqarish laboratoriyalarini attestatlash. Umumiy talablar va o‘tkazish tartibi.

– O‘z RH 51-018:2002 O‘zbekiston Respublikasining akkreditlashtirish tizimi. Akkreditlangan laboratoriyalarining faoliyatini inspeksion tekshiruvini utkazish tartibi.

– O‘z RH 51-104:2000 O‘zbekiston Respublikasining akkreditlashtirish tizimi. Sertifikatlashtirilgan maxsulotlarni inspeksion tekshiruvini utkazish tartibi.

– O‘z RH 51-105:2001 O‘zbekiston Respublikasining akkreditlashtirish tizimi. Akkreditlangan sertifikatlashtirish idoralari faoliyatining inspeksion tekshiruvini utkazish tartibi

– O‘z RH 51-112:2002 O‘zbekiston Respublikasining akkreditlashtirish tizimi. Putur yetkazmasdan nazorat laboratoriyalarini akkreditlash

– O‘z RH 51-121:2002 O‘zbekiston Respublikasining akkreditlashtirish tizimi. Putur yetkazmasdan nazorat. O‘quv va imtihon markazlarini akkreditlash.

– O‘z RH 51-131:2003 O‘zbekiston Respublikasining akkreditlashtirish tizimi. Putur yetkazmasdan nazorat. Sertifikatlashtirish idorasi xodimlarini akkreditlash.

– O‘z RH 51-054:2003 O‘zbekiston Respublikasining akkreditlashtirish tizimi. Sinov laboratoriyalari sifat bo‘yicha qo‘llanmasi. Ishlab chiqish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatma;

– O‘z RH 51-056:2003 O‘zbekiston Respublikasining akkreditlashtirish tizimi. Sertifikatlashtirish idoralari sifat bo‘yicha qo‘llanmasi. Ishlab chiqish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatma;

SHu bilan birga aytib o‘tish kerakki, O‘zbekistonda sinov va kalibrlash laboratoriyalarini akkreditlashda yangi xalqaro standart «O‘z DSt ISO/IEC 17025:2019 «Sinov va kalibrlash laboratoriyalari kompetentligiga qo‘yiladigan umumiy talablar»» joriy qilinib, Milliy akkreditlash tizimida akkreditatsiyaga talabgor laboratoriyalar ushbu standart talablari asosida tekshiriladi.

### ***Sifatni boshqarish me'yoriy hujjatlari:***

- O'z RH 51-057:1997 Sifat tizimi hujjatlari tarkibi va turlari. O'z T 51-087:1999 Sifat tizimi hujjatlashtirilgan protseduralari va tarkibini aniqlash bo'yicha tavsiyalar;
- O'z RH 51-090:1999 Sifat dasturini ishlab chiqish bo'yicha uslubiy ko'rsatma;
- O'z T 51-094:2000 Xizmatlarga sifat tizimini joriy qilish tartibi;
- O'z DSt ISO 9001:2015 Sifat menejmenti tizimi. Talablar.;
- O'z DSt ISO 9000:2015 Sifat menejmenti tizimi. Asosiy qoida va lug'atlar;
- O'z DSt ISO 9004:2002 Sifat menejmenti tizimi. Sifatni yaxshilash bo'yicha tavsiyalar (ISO 9004:2000, IDT);
- O'z DSt ISO 10006:2005 Sifat menejmenti tizimi. Sifat menejmenti loyihasi bo'yicha rahbariy ko'rsatma (ISO 10006:2003, IDT);
- O'z DSt ISO 10007:2004 Sifatni ma'muriy boshqarish. Ma'muriy boshqarish konfiguratsiyasi bo'yicha rahbariy ko'rsatma;
- O'z DSt ISO 10013:2001 Sifat bo'yicha qo'llanmani ishlab chiqish bo'yicha uslubiy ko'rsatma;
- O'z DSt ISO/TR 10014:2004 Sifatni iqtisodiy boshqarish bo'yicha rahbariy ko'rsatma;
- O'z DSt ISO 10015:2003 Sifatni boshqarish. O'kitish bo'yicha rahbariy ko'rsatma;
- O'z DSt ISO/TR 10017:2005 Sifat menejmenti tizimini hujjatlashtirish bo'yicha tavsiya. O'z DSt ISO 9001:2002 doirasida statistik usullarni qo'llash bo'yicha rahbariy ko'rsatma;
- O'z DSt ISO 19011:2004 Sifat menejmenti tizimi va/yoki ekologik menejmenti tizimi auditi bo'yicha rahbariy ko'rsatma.

### **3.2. Sertifikatlashtirish tizimi, milliy sertifikatlashtirish tizimi, vazifalari, qatnashuvchi idoralar, sertifikatlashtirish tartibi**

Sanoat korxonalarida ishlab chiqarilayotgan turli xil mahsulotlar muayyan ko'rsatkichlarga javob berishi kerak. Bu ko'rsatkichlar esa ma'lum belgilangan talablarga muvofiq /mos/ kelishi lozim. Muvofiqlik o'z navbatida mahsulot yoki xizmatlarning ma'lum standartga yoki boshqa me'yoriy hujjatlardagi shu mahsulot yoki xizmatlarga belgilangan ko'rsatkichlarga mos kelishini talab etadi. Muvofiqlikni sertifikatlashtirish mumkin. Xo'sh sertifikatlashtirish tushunchasi nima?

**Sertifikatlashtirish** - deganda talab etilgan ishonchlilik bilan mahsulotning muayyan standartga yoki texnikaviy hujjatga muvofiqligini tasdiqlaydigan faoliyat tushuniladi.

**Muvofiqlik** - atamasi mahsulot, jarayon, xizmatga belgilangan barcha talablarga rioya qilishni o'z tarkibiga oladi. Bunda muvofiqlikni uchta ko'rinishi

- muvofiqlik bayonoti, muvofiqlikni attestatlash, muvofiqlikni sertifikatlashtirish degan tushunchalar mavjud.

**Sertifikatlashtirish jarayoni** deganda mahsulot /buyum, mol/ yoki xizmat muayan standart yoki texnikaviy shart talablariga mos kelishini tasdiqlash maqsadida o'tkaziladigan faoliyat tushunilib, ushbu faoliyat natijasida mahsulot /buyum, molning/ o'rnatilgan talablarga iste'molchini ishontiradigan tegishli hujjat – sertifikat beriladi.

**Sertifikatlashtirish tizimi** - muvofiqlikning sertifikatlashtirish faoliyatini o'tkazish uchun ish tartibi qoidalariga va boshqarishiga ega bo'lgan tizimdir.

**Sertifikatlashtirish milliy tizimi** — davlat miqyosida amal qiladigan, sertifikatlashtirish o'tkazishda o'z tartib va boshqaruv qoidalariga ega bo'lgan tizimdir.

"O'zstandar" agentligi O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish bo'yicha milliy organi bo'lib, amaldagi qonunchilikka binoan quyidagi faoliyatlarni bajaradi:

- sertifikatlashtirish sohasida davlat siyosatini amalga oshiradi;
  - sertifikatlashtirish o'tkazish yuzasidan umumiy qoidalarni belgilaydi, ular to'g'risida rasmiy axborotlar e'lon qilib boradi;
  - sertifikatlashtirish tizimini takomillashtirish dasturlarining loyihalarini ishlab chiqadi hamda ularni Hukumat muhokamasiga taqdim etadi;
  - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishgan holda sertifikatlashtirishning xalqaro tizimlariga qo'shilish to'g'risida qarorlar qabul qiladi;
  - sertifikatlashtirish natijalarini o'zaro e'tirof etish to'g'risida bitimlar tuzadi;
  - sertifikatlashtirish masalalari bo'yicha boshqa davlatlar bilan o'zaro munosabatlarda va xalqaro tashkilotlarda O'zbekiston Respublikasi nomidan ish ko'radi;
  - majburiy ravishda sertifikatlanadigan mahsulotlarning ro'yxatini belgilaydi va uni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdig'iga kiritadi;
  - sertifikatlashtirilgan mahsulotlarning, attestatsiyadan o'tkazilgan sifat bo'yicha ekspert-auditorlarning davlat reestrlarini yuritadi;
  - majburiy sertifikatlashtirish talablariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi;
  - sertifikatlashtirish to'g'risidagi qonun hujjatlari normalari buzilganligi uchun muvofiqlik sertifikatlarining va muvofiqlik belgilarining amal qilishini to'xtatib turadi hamda ularni bekor qiladi.
- Sertifikatlashtirish bo'yicha ishlarda qatnashuvchi korxonalar. O'zbekiston Respublikasi Sertifikatlashtirish milliy tizimi (O'z SMT) da sertifikatlashtirish bo'yicha ishlarni quyidagi tashkilotlar amalga oshiradi:
- mahsulotlarni sertifikatlashtirishni bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish bo'yicha akkreditlangan idoralar;

- sifat tizimlari va ishlab chiqarishlarni sertifikatlashtirishni sifat tizimi va ishlab chiqarishlarni sertifikatlashtirish bo'yicha akkreditlangan idoralar;

- O'zbekiston Respublikasida aniq mahsulotni sertifikatlashtirish bo'yicha akkreditlangan sertifikatlashtirish idorasi bo'lmagan taqdirlarda uni sertifikatlashtirish masalasini sertifikatlashtirish bo'yicha milliy idora «O'zstandart» agentligi hal qiladi;

- sertifikatlashtirish sinovlarini akkreditlangan sinash laboratoriyalari (markazlar) amalga oshirishadi;

- bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish bo'yicha idoralarni akkreditlashni sertifikatlashtirish milliy idorasi (keyinchalik - SMI) rahbari tasdiqlagan komissiya O'z DSt 5.2:2001 O'z SMT. Sertifikatlashtirish idorasiga qo'yiladigan umumiy talablar standartiga muvofiq o'tkazadi.

Sinash laboratoriyalari (markazlari)ni akkreditlashni akkreditlash bo'yicha idora O'z DSt 5.3 O'z SMT. Sinash laboratoriyalari (markazlari)ni akkreditlash. Asosiy qoidalarini standart talablariga muvofiq o'tkaziladi.

Ekspert-auditorlarni attestatlash O'z RH 51-014 O'z SMT Ekspert-auditorlarga qo'yilgan talablar rahbariy hujjatiga muvofiq amalga oshiriladi.

Mahsulotlarni sertifikatlashtirishga akkreditatsiya qilingan organlar;

- mahsulotlarni sertifikatlashtirish tizimlarini tuzadilar va ularning amal qilishini ta'minlaydilar;

- sertifikatlashtirishni tashkil etadilar va o'tkazadilar;

- milliy muvofiqlik sertifikatlarini rasmiylashtiradilar, beradilar yoki chet el muvofiqlik sertifikatlarini e'tirof etadilar;

- sertifikatlangan mahsulotlar ustidan nazoratni amalga oshiradilar.

O'zbekiston sertifikatlashtirish milliy tizimida mahsulotlarni sertifikatlash quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- sertifikatlashtirish organiga sertifikatlash yuzasidan ariza berish va uni ko'rib chiqish;

- taqdim etilgan mahsulot MIH va arizaga ilova qilgan boshqa hujjatlarni tahlil qilish;

- ariza bo'yicha qaror qabul qilish;

- sinov dasturini tayyorlash va tasdiqlash;

- namunalarni identifikatsiya qilish, tanlab olish va laboratoriyaga yetkazish;

- namunalarni akkreditlangan sinov laboratoriyasida sinovdan o'tkazish;

- mahsulotni ishlab chiqarish sharoitlarini baholash;

- sifat tizimini baholash;

- mahsulotning muvofiqligini deklaratsiyalash;

- olingan natijalarni tahlil qilish, muvofiqlik sertifikatini berish yoki uni berishni rad etish;

- muvofiqlik sertifikatini O'zbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish milliy tizimi Davlat reyestrda ro'yxatga olish.

## Nazorat savollari

1. Sertifikatlashtirish atamasini tushuntiring.
2. Muvofiqlik tushunchsini tushuntiring.
3. Sertifikatlashtirish bilan qaysi milliy organ shug'ullanadi?
4. Sertifikatlashtirish idorasiga qaysi normativ xujjat orqali talablar qo'yiladi?

### 4-mavzu. Sertifikatlashtirish bo'yicha asosiy tushunchalar

- 4.1. Sertifikatlashtirish milliy tizimiga oid asosiy qoidalar (O'zDSt 5.0)
- 4.2. Sertifikatlashtirish tizimining maqsadi, vazifalari va faoliyat turlari

#### 4.1. Sertifikatlashtirish milliy tizimiga oid asosiy qoidalar (O'zDSt 5.0)

Mazkur kursda qo'llaniladigan atama va ta'riflar ISO/IES 2, O'z DSt ISO 9000:2016, O'z DSt 5.0 standartlariga mos bo'lib quyidagi atama va ta'riflar mutanosiblik bilan qo'llaniladi:

**Sertifikatlashtirish jarayoni**, shunday uslubki, unda vositachi hisoblanmish – uchinchi tomon yozma ravishda guvohlik bildirib, mahsulot, jarayon yoki xizmatni qo'yilgan talablar darajasiga mosligini e'tirof qiladi.

Sanoat korxonalarida ishlab chiqarilayotgan turli xil mahsulotlar muayyan ko'rsatkichlarga javob berishi kerak. Bu ko'rsatkichlar esa ma'lum belgilangan talablarga muvofiq /mos/ kelishi lozim. Muvofiqlik o'z navbatida mahsulot yoki xizmatlarning ma'lum standartga yoki boshqa me'yoriy hujjatlardagi shu mahsulot yoki xizmatlarga belgilangan ko'rsatkichlarga mos kelishini talab etadi. Muvofiqlikni sertifikatlashtirish mumkin. Xo'sh sertifikatlashtirish tushunchasi nima?

**Muvofiqlik bayonoti** deb yetkazib beruv-chining mahsulot, jarayon va xizmatlarning aniq bir standartga yoki boshqa me'yoriy hujjatga to'la-to'kis muvofiqligi xaqida butun ma'suliyatni o'z ustiga olganligini bayon etishiga aytiladi. Bu atamani so'nggi vaqtlarda "o'z-o'zini sertifikat-lashtirish" tushunchasi bilan almashilayotgani qayd qilinmokda. O'z-o'zini sertifikatlashtirish deganda mahsulot ishlab chiqaruvchi tomon butun ma'suliyatni o'z zimmasiga olgan holda mahsulotning talab etilgan darajada sifatli haqidagi kafolatni o'z zimmasiga oladi.

**Sertifikatlashtirish** - deganda talab etilgan ishonchlilik bilan mahsulotning muayyan standartga yoki texnikaviy hujjatga muvofiqligini tasdiqlaydigan faoliyat tushuniladi.

**Muvofiqlik** - atamasi mahsulot, jarayon, xizmatga belgilangan barcha talablarga rioya qilishni o'z tarkibiga oladi. Bunda muvofiqlikni uchta ko'rinishi - muvofiqlik bayonoti, muvofiqlikni attestatlash, muvofiqlikni sertifikatlashtirish degan tushunchalar mavjud.

**Muvofiqlikni attestatlash** deganda uchinchi tomon tarafidan "sinov laboratoriyasining bayonoti" tushunilib, ma'lum namuna mahsulotga bo'lgan

talablarni belgilovchi ma'lum standartlar yoki boshqa hujjatlar bilan muvofiq ekanligini bayon etishiga aytiladi.

**Sertifikatlashtirish jarayoni** deganda mahsulot /buyum, mol/ yoki xizmat muayyan standart yoki texnikaviy shart talablariga mos kelishini tasdiqlash maqsadida o'tkaziladigan faoliyat tushunilib, ushbu faoliyat natijasida mahsulot /buyum, molning/ o'rnatilgan talablarga iste'molchini ishontiradigan to'g'ri hujjat – sertifikat beriladi.

Yana bir zarur atamalardan biri "sertifikatlashtirish tizimi" bo'lib u quyidagicha ta'riflanadi: Sertifikatlashtirish tizimi - muvofiqlikning sertifikatlashtirish faoliyatini o'tkazish uchun ish tartibi qoidalariga va boshqarishga ega bo'lgan tizimdir.

**"Sertifikatlashtirish tizimi"** atamasidan tashqari Sertifikatlashtirish xizmati /xizmat sertifikatini/ kiritilib, ushbu faoliyat muvofiqlikni sertifikatlashtirishda uchinchi tomon faoliyatining olib boradigan ish hajmi, ko'lam-kengligi, tartibi va sertifikatlashtirish sub'ekti bilan o'zaro munosabatini belgilaydi.


**Sertifikatlashtirish faoliyatida qo'llaniladigan uchta tushuncha to'g'risida** ta'kidlanib o'tiladi: sertifikatlashtirish tizimidan foydalanish, sertifikatlashtirish tizimida qatnashuvchi va sertifikatlashtirish tizimi a'zosi.

**Sertifikatlashtirish tizimidan foydalanish** – guvohnoma talabgoriga sertifikatlashtirish tizimining qoidalariga muvofiq berilgan sertifikatlashtirishdan foydalanish imkoniyati tushuniladi.

**Sertifikatlashtirish tizimida qatnashuvchi** – deb ushbu tizimning qoidalariga binoan faoliyat ko'rsatadigan, lekin tizimni boshqarish imkoniyatiga ega bo'lmagan sertifikatlashtirish qatnashuvchisi tushuniladi.

**Sertifikatlashtirish tizimi a'zosi** deganda ushbu tizimning qoidalariga binoan faoliyat ko'rsatadigan va tizimni boshqarishda ma'lum darajada ishtirok eta oladigan sertifikatlashtirish qatnashuvchisi tushuniladi.

Sertifikatlashtirish ikki xil bo'ladi: majburiy va ixtiyoriy (4.1.1-rasm). Ishlab chiqarilgan yoki iste'mol etiladigan mahsulot uchun uning tashqi muhitga, inson salomatligiga ta'siri asosiy mezon hisoblanadi. Tashqi muhitga, inson salomatligi va uning xavfsizligiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatuvchi mahsulotlar, majburiy sertifikatlashtirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi, unday mahsulotlar ro'yxati Davlat tomonidan tasdiqlanib, bu ro'yxatga kiritilmagan mahsulotlar esa sertifikatlashtirilishi ixtiyoriydir.



#### 4.1.1- rasm. Sertifikatlashtirish turlari

Hozirgi sharoitda tashqi mamlakatlar bilan savdoni, mamlakatlararo iqtisodiy aloqalarni, fan va texnikani rivojlanishi uchun, hamda chiqarilayotgan mahsulotlarni sifatini yaxshilash, ularning raqobatdoshlik qobiliyatini oshirish uchun muntazam ravishda sinovlardan o'tkazish ehtiyoji ortib bormoqda. Sinovlarni ko'pincha uchinchi tomon deb ataluvchi tashkilot amalga oshiradi.

Uchinchi tomon tarafidan olib boriladigan sertifikatlashtirish ishlab chiqaruvchilarning ishonchiga sazovor bo'lmoqda va shu sababli bunday yo'l keng qo'llanilib, samarali olib borilmoqda. Turli mamlakatlarda uchinchi tomon tarafidan bajarilayotgan sertifikatlashtirish tizimini tashkil etish amalda shuni ko'rsatmoqdaki, uni turlicha tashkil qilish mumkin ekan. Sertifikatlashtirish tarixini ko'rib chiqadigan bo'lsak bu faoliyat bilan ishlab chiqaruvchi assotsiatsiyalar, yirik iste'molchilar, standartlashtirish milliy tashkilotlari shug'ullanib turli tizimlarni yaratganlar. Masalan, Fransiya va Angliyada 60-yillar boshida iste'molchilar tomonidan harbiy maqsadlar uchun ishlatiladigan elektronika mahsulotlarini sertifikatlashtirish tizimi yaratildi.


Sertifikatlashtirish tushunchasi keng ma'noda uchinchi tomon tarafidan o'tkaziladigan texnikaviy me'yorga, ish uslubiga, qoidaga muvofiqligini qamrab olgan har qanday tekshiruvdir. Shuning uchun sertifikatlashtirishni tekshiruv deb hisoblab, bosim ostidagi idishlarni, portlash havfidan himoyalangan qurilmalarning, kemalarning, suzish vositalarining, tayyorlarning, aviatsiya qurilmalarining, atom reaktorlarining va tog' texnikasining ishlatilishdagi havfsizligini ta'minlash maqsadida texnikaviy nazorat o'rnatuvchi idoralar shartli tekshiruvni amalga oshiradi.

**Akkreditatsiya** – bu nufuzli idora tomonidan, boshqa bir tashkilot yoki shaxsni rasmiy ravishda aniq ishlarni bajarishda to'la huquqli vakolat berilganligini e'tirof etishidir.

**Mahsulot** – ma'lum faoliyat yoki jarayon natijasidir. Mahsulot tushunchasiga quyidagicha izohlar keltirilgan:

Mahsulotning turlari uning turli umumiy toifalariga kiradigan vazifalar yoki shu vazifani bajarish uchun qo'llanilayotgan elementlarni o'z tarkibida mujassam qilinishi bilan belgilanadi.

*Izoh. Mahsulotning turlari uning turli umumiy toifalariga kiradigan vazifalar yoki shu vazifani bajarish uchun qo'llanilayotgan elementlarni o'z tarkibida mujassam qilinishi bilan belgilanadi. Mahsulotni xizmatlar, dasturiy vositalar, texnik vositalar yoki qayta ishlanadigan materiallar qatoriga kiritish shu mahsulot uchun belgilangan vazifaning ustunlik qiladigan elementiga bog'liq. Masalan, yetkazib beriladigan mahsulot - "avtomobil", - texnik vositalar (masalan, shinalar), qayta ishlanadigan materiallar (yomilg'i, sovutish suyuqligi), dasturiy vositalar (motorni dasturli boshqarish, haydovchi uchun qo'llanma) va xizmatlar (avtomobildan foydalanish to'g'risidagi sotuvchi tomonidan beriladigan tushuntirishlar) dan iborat.*



Xizmat - yetkazib beruvchi va iste'molchining o'zaro hamkorligida amalga oshirilgan kamida bitta harakat natijasidir. Xizmatlar odatda nomoddiy bo'ladi. Xizmat ko'rsatish quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

- iste'molchi yetkazib bergan moddiy mahsulot ustida bajarilgan faoliyat (masalan, ta'mir talab avtomobil);

- iste'molchi yetkazib bergan nomoddiy mahsulot ustida bajarilgan faoliyat (masalan, soliq miqdorini aniqlash uchun zarur bo'lgan daromad to'g'risida ariza);

- nomoddiy mahsulotni berish (masalan, bilimlarni berish ma'nosidagi axborot);

- iste'molchilar uchun qulay sharoitlarni yaratib berish (masalan, mehmonxonalarda va oshxonalarda).

Dasturiy vosita axborotga ega bo'ladi va u odatda nomoddiy bo'ladi, shuningdek yondashuvlar, operatsiyalar yoki protseduralar shaklida ham bo'lishi mumkin.

Texnik vosita odatda moddiy bo'ladi va uning miqdori hisoblab topiladigan tavsif bilan ifodalanadi. Qayta ishlanadigan materiallar odatda moddiy bo'ladi va ularning miqdori uzluksiz tavsif bilan ifodalanadi. Texnik vositalar va qayta ishlanadigan materiallar ko'pincha tovar (mahsulot)lar deb ataladi.

Uslubiyat (metodika) – faoliyatni rasmiy amalga oshirish yo'lidir.

*Izoh: Metod (usul) (grekchadan «methods») – aniqlangan masalani hal etishda nazariy yoki amaliy tadqiqotlarni qabul qilish, qo'llash, yo'lidir. Metod – bu ko'p marotabali takrorlanishlar uchun oldindan rejalashtirilgan va maqbul bo'lgan murakab faoliyatni bajarish yo'lidir. Uslublar ma'lumki, odatda hujjatlashtiriladi.*

Hujjatlashtirilgan uslublar o'zida quyidagilarni ifoda etadi:

- faoliyatni maqsadi va doirasi;
- kim tomonidan va nima bajarilishi lozim;
- qachon, qayerda va qay tarzda amalga oshirilishi lozim;
- qanday manbaalar, hujjatlar va qanday jihozlar ishlatilishi lozim;
- bular qay yo'sinda nazorat qilinishi va qayd etilishi lozim.

Uslublar ma'lumki, odatda, bir necha xodimlarni javobgarlik va vakolatini aniqlaydi hamda sifat sohasi dasturiga yoki xususiyatlarga tayanadi.

Ishchi yo'riqnomalari ko'pincha uslublardan yoki texnologiyadan ko'chirma bo'ladi va bir xodimga yoki ish o'ringa yoziladi, shu sababli tanyanchga ehtiyoj sezilmaydi.

#### **4.2. Sertifikatlashtirish tizimining maqsadi, vazifalari va faoliyat turlari**

Sertifikatlashtirish tizimining maqsadi muvofiqlikni sertifikatlashtirishni amalga oshirish uchun tadbirlar, tartiblar va boshqaruv qoidalarini ishlab chiqishdir.

Sertifikatlashtirish tizimining asosiy vazifalari quyidagilar:

- sertifikatlashtirishda qo'llaniladigan hujjatlarning yagona tizimini tashkil qilish;
- yagona atama va ta'riflarni ishlab chiqish;
- bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirishning qoida va tartiblarini ishlab chiqish;
- sertifikatlashtirish uchun o'tkaziladigan sinovlarning qoidalarini ishlab chiqish (bundan keyin sertifikatlashtirish sinovlari);
- sertifikatlashtirish qatnashchilarining davlat boshqaruv idoralari bilan o'zaro hamkorlik tartiblarini aniqlash.

Sertifikatlashtirish milliy tizimi O'zbekiston Respublikasining qonuniy va me'yoriy hujjatlariga muvofiq faoliyat olib boradi.

O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimida quyidagi faoliyat turlari olib boriladi:

- mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish;
- sifat tizimlarini va ishlab chiqarishlarni sertifikatlashtirish;
- majburiy sertifikatlashtirish qoidalariga rioya qilinishi ustidan nazorat olib borish;

- yuqoridagi keltirib o'tilgan faoliyat yo'nalishlari bo'yicha ekspert-auditorlarni tayyorlash va attestatlash kabi faoliyat turlarini yuritadi.

Bundan tashqari hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasi Akkreditlash tizimlari ham mavjud bo'lib u quyidagi faoliyat turlarini olib boradi:

- sinash laboratoriyalarini (markazlarini) akkreditlash;
- bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish bo'yicha idoralarni

akkreditlash;

- sifat tizimlari va ishlab chiqarishlarni sertifikatlashtirish idoralarini akkreditlash;

- tekshirish idoralarini akkreditlashtirish;

- sertifikatlashtirilgan mahsulot, sertifikatlashtirilgan sifat tizimlari va ishlab chiqarishlar, akkreditlangan idoralar va sinash laboratoriyalari (markazlari)ni inspeksion tekshirish;

O'zbekiston Sertifikatlashtirish Milliy Tizimi sertifikatlashtirish bilan shug'ullanuvchi chet davlatlar tizimi va tashkilotlar, hamda shaxslar uchun sertifikatlashtirish tizimi qoidalarini tan olish sharti bilan ochiq deb hisoblanadi.

Sertifikatlashtirish mahsulotlar, jarayonlar va xizmatlarning quyidagi talablarga muvofiqqligini yoki nomuvofiqqligini tasdiqlash bo'yicha ish olib boradi:

- davlatlararo standartlarga (MDH – mustaqil davlatlar hamdo'stligi);
- mahsulotga bo'lgan talablarni belgilovchi O'zbekiston Respublikasi hududida qabul qilingan va rasman nashr qilingan me'yoriy hujjatlariga (keyinchalik MH);

- O'zbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish Milliy tizimiga Sertifikatlashtirish Idorasi sifatida a'zo bo'lgan sertifikatlashtirish tizimlari doirasidagi xalqaro va milliy chet el standartlariga.

O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimlari quyidagi tizimlar bilan o'zaro bog'lanishda faoliyat olib boradi:

- O'zbekiston Respublikasining davlat standartlashtirish tizimlari (O'z DST);

- O'zbekiston Respublikasining o'lchashlar birligini ta'minlash davlat tizimi (O'z O'DT);

- O'zbekiston Respublikasining akkreditlash tizimi (O'z AT);

- MDH davlatlarining sertifikatlashtirish milliy tizimlari, shuningdek, bu ishni boshqarish uchun maxsus huquqqa ega bo'lgan davlat boshqaruv idoralari

boshchiligidagi faoliyat ko'rsatayotgan muvofiqlikni tekshiruvchi boshqa tizimlar (Davlatkontexnazorati, Sog'liqni saqlash vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, Qurilish vazirligi) bilan o'zaro bog'liqlikda faoliyatini olib boradi.

### **Nazorat savollari**

1. Sertifikatlashtirishga jarayoni nima?
2. Sertifikat, muvofiqlik belgisi atamalariga ta'rif bering.
3. Sertifikatlashtirish tizimi nima degani?
4. Sertifikatlashtirish tizimidan foydalanish nima degani?
5. Sertifikatlashtirish tizimida qatnashuvchi nima degani?
6. Sertifikatlashtirishning qanday turlari mavjud va batafsil tushuntirib bering?
7. Sertifikatlashtirishni majburiy va ixtiyoriyga bo'linishi sababini tushuntiring.
8. Bozor iqtisodiyoti sharoitida sertifikatlashtirishning maqsad va vazifalari nima iborat?

### **5-mavzu. Xorijiy mamlakatlarda sertifikatlashtirish faoliyati**

- 5.1. Xalqaro, xududiy va milliy miqyosida sertifikatlashtirishning rivojlanishi
- 5.2. Chet-el davlatlarida sertifikatlashtirish tizimlari va ularning faoliyati

#### **5.1. Xalqaro, xududiy va milliy miqyosida sertifikatlashtirishning rivojlanishi**

##### **BMT Yevropa iqtisodiy komissiyasi**



BMT Yevropa iqtisodiy komissiyasi o'zaro tan olish to'g'risida ko'p tomonlama kelishish va ikki tomonlama faoliyatga yo'naltirilgan "Sinov natijalarini tan olish" tavsiyasini qabul qildi.

Ushbu hujjat sinov laboratoriyalarini akkreditlash amaliyotini takomillashtirishda ijobiy o'rin tutadi.

Sifat bo'yicha Yevropa tashkiloti /EOK/ vazifalari - Sifatni nazorat qilish Yevropa tashkiloti YeOKK (Evropeyskaya organizatsiya po kontrolyu kachestva) birinchi konferentsiyasi chaqirilgan yili - 1957 yilda tashkil topdi. Biroz keyinroq uni nizomi ham tasdiklandi.

EOKK ning har yili konferentsiya o'tkazishdan asosiy maqsadi mahsulot sifatini boshqarish bo'yicha tajriba almashinish, sifatning nazariy va amaliy masalalarini xal qilish, bu sohadagi so'nggi yutuqlarni targ'ibot qilish, sifatning dolzarb muammolari bo'yicha fikr almashinish, yangi muammolarni izlab topish va sifatga taaluqli ko'pgina boshqa masalalarni ko'rib chiqishdir.

1992 yili Yevropa iqtisodiy uyushmasi (EEC) doirasida umum Yevropa bozori tashkil qilinishi bilan YeOKK ning rahbariy hujjatlari qaytadan ko'rib chiqilgan.

U 1998 yilning 1 iyulidan boshlab o'z nizomini o'zgartirib, hozirda sifat bo'yicha Yevropa tashkiloti (EOKK) deb ataladi.

Sifat bo'yicha Yevropa tashkilotining hozirgi vaqtdagi asos buluvchi xujatlari YeOKK – ning nizomi ish tartibi qoidalari, qo'mita va seksiyalari uchun qoidalar hamda besh yilga mo'ljallangan asosiy masalalar bo'yicha yo'nalish rejalari mavjuddir.

EOK tarkibida 26 - ta to'liq huquqli a'zolari, 12 – ta jamoa muxbir a'zolari hamda 37 – ta alohida muxbir a'zolari va 10 - ta faxriy a'zolari bor. Qardosh tashkilotlarning 11 - tasi bilan bitimlariga egadir.

EOK maxsus bitimlari asosida sifat bo'yicha Argentina, Braziliya, Isroil, Kolumbiya, XXR, yangi Zelandiya, AQSH, Chili, Janubiy Koreya va Yaponiyalarning mintakaviy, milliy va kasaba uyushmalari bilan hamdustlik shartnomalari o'rganilgan.

EOK ning oliy lavozim egasi, uning prezidenti bo'lib, u har ikki yilda saylanadi. Asosiy ma'muriy idoralari - kengash, ijroiya qo'mitasi va sekretariatdir.

EOK ning ish yuritish rasmiy tillari ingliz va frantsuz tillaridir. Bu tashkilot o'zining ilmiy - texnikaviy jurnali Kvolutiga ega, jurnal yiliga 4 marta chop etiladi.

Hozirgi vaqtda YeOK ning 12 ta texnikaviy qo'mitalari mavjud bo'lib, ular ishonchlilik, statistik usullar, atamalar, iste'mol masalalari bo'yicha standartlashtirish, sifatni boshqarish, kadrlar tayyorlash, funktsional – baholashni taxlil qilish, sifat sohasida siyosat olib borish, sertifikatlashtirish va sifat tizimlarining nazorati, EHM ning matematik ta'minlanishida sifat, sifat to'garaklari, mahsulot sifatini metrologik ta'minoti bilan shug'ullanadi. Undan tashqari 7 ta turli seksiyalari mavjuddir. Bular quyidagilar:

- Avtomobil
- Energetika
- Qurilish
- Oziq-ovqat
- Farmatsevtika
- Sifat masalalari bo'yicha maslaxatlar ko'rsatish.

Texnikaviy qo'mitalar va tarmoq seksiyalari YeOK ning to'liq huquqli vakillaridan tashkil topadi. Ular o'z navbatida YeOK ning a'zo mamlakatining milliy tajribalariga suyanadi va xalqaro miqyosda mahsulotning sifatini ta'minlaydigan tashkilotlarning hujjatlaridan foydalanadi.

### **ES - Yevropa ittifoqida sertifikatlashtirish.**

ES Kengashi 1985 yilda asosiy standartlar va talablarini belgilash bo'yicha ularning texnikaviy uyg'unligi to'g'risida Direktivalar qabul qilgan.

Yevropadagi iqtisodiy uyushma (Европейское экономическое сообщество - ЕЭС) shu hududdagi mamlakatlar hayotining yagona iqtisodiy siyosati asosida o'zaro bog'langan holda rivojlanish shaklini tanlab oldi. EEC ning tashkil topilganligi haqidagi bitim 1957 yil 25 martda Rim shahrida imzolandi. Dastavval bu uyushma olti davlat (Belgiya, Niderlandiya, Lyuksemburg, Italiya, Fransiya va GFR) vakillari bo'lib, ularning asosiy maqsadi Yevropa umumiy bozorini tashkil qilish edi. Buning natijasida shu uyushmaga kiruvchi davlatlar orasida bo'xsonalar yo'q kilinib, bir – birlariga o'tayotgan mahsulotning miqdorlari chegarali ravishda belgilanib, shu mamlakatlardagi kapitallar ham ishchi kuchlari ham erkin holda o'tishligi to'g'risida kelishib olindi.

1972 yili bu uyushmada Buyuk Britaniya, Daniya, Irlandiya, 1981 yilda Gretsiya, 1986 yilda Ispaniya va Portugaliya davlatlari qo'shildi. 1995 yil arafasida esa YeES tarkibi 3 davlat (Avstraliya, Finlandiya va Shvetsiya) vakillari bilan tuldi. Uyushma tarkibiga kiruvchi davlatlar soni endilikda 15 taga yetdi. Yevropa mamlakatlarining iqtisodiy ushmasining doimiy idorasi - Yevropa kengashi (EC) hisoblanadi.

ES ning vazirlar kengashi markaziy va qonun chiqaruvchi idorasi hisoblanadi, har bir milliy hukumatdan bu kengash tarkibiga 1 tadan vakil yuborilgan.

Yevropa mamlakatlari uyushmasiga ko'mir va po'lat bo'yicha Yevropa birlashmasi (EOUC) ham kiradi.

Yevropa mamlakatlarining uyushmasi o'zlarining EN 29000 raqamli standartlariga ega, bo'lar esa ISO tomonidan tayyorlangan ISO 9000 raqamli standartlariga mos keladi.

Standartlashtirish bo'yicha Yevropa qo'mitasi (CEN) va elektrotexnika sohasidagi standartlashtirish Yevropa qo'mitalari (CENELEK) tomonidan yaratilgan standartlar e'tiborga sazovordir, ular yaratgan 7 ta asos bo'luvchi 45000 raqamli standartlarni ko'rsatish kifoyadir (EN 45001 – EN 45003 – EN 45011 – EN 45014 kabilardir), bu standartlar sinov laboratoriyalarini sertifikatlashtirish.

Sifatga e'tiborni kuchaytiradigan ba'zi omillarni ta'kidlaydigan bo'lsak, avvalambor bu, Yevropa bozorining narx raqobati kuchli bo'lgan sifatli mahsulotlarni ko'payishi yaqqaol ko'zga tashlanadi. Bu esa o'z navbatida sifatli mahsulot ishlab chiqarilishiga asos soladi. Umumiy bozorni tashkil qilish – ularning raqobatlashishi keyinchalik rivojlanishi uchun zaruriy, lekin yetarli bo'lmagan omil, shuning uchun yangi yo'nalishlarni izlash davom etmoqda. Izlanishlar shuni ko'rsatayaptiki ba'zi Yaponiya va Amerika davlatlari kompaniyalari bu yo'nalishlarda Yevropaliklardan o'zib ketgan.

F.Krosbi assotsiatsiyasining izlanishlariga asoslanadigan bo'lsak bir nechta, dunyo miqyosida tanilgan firmalar tekshirilganda Amerika va Yevropadagi sifatning raqobatlashishdagi roli har xilligi aniqlandi. Bu talabga Farbiy Yevropaning 34%, AQSHning va Tinch Okeani regionlarining 53%

kompaniyalari javob beradi. Sifat tizimlarining TQM kontsepsiyasidan Yevropa firmalarining 30%i foydalanadi.

Amerika Federal institutining statistik ma'lumotlari bo'yicha dunyoning 2800 ishlab chiqarish firmalari va tsexlarining 70% TQMga moslashgan. Sifatni boshqarish bo'yicha Yevropa fondi (EFQM) mutaxassislari tadqiqotlariga qaraganda mahsulotning past sifatli bo'lganligi sababli talabgorlarning mahsulotdan voz kechishi mahsulotning tan narxi bo'yicha Yaponiyada 12%gacha, Yevropada esa 25% gacha zarar keltirishi aniqlangan.

Sifat bo'yicha Yevropa siyosati quyidagi asosiy tamoyillarga suyanan holda ish yuritadi:

- kooperatsiya va bir-birini to'ldirish tamoyili;
- asosli yondashish;
- ijtimoiylik tamoyili;
- strukturalash tamoyili;
- yangi sifat kontsepsiyalarini qo'llash.

Kooperatsiya tamoyillari va bir-birini to'ldirish shunga olib boradiki, agar sifat siyosati milliy, regional va xalqaro saviyadagi talablarga javob bermasa, ishonch qozongan, samarali, qonuniy va texnikaviy bir muhit yaratilmasa ichki bozorning davomiyligi va intensivligini kafolatlay olmaydi.

Asosli yondashuv shunga tayanganki, sifat siyosati ishlab chiqarish siyosatining asosiy strategik elementlaridan biri hisoblanishi ayrim sohada emas, balki keng ko'lamda raqobatbardoshlikni ta'minlaydi.

Ijtimoiylik tamoyili. Bu yo'nalishda har xil milliy madaniyatlarning yumshoq integratsiyasi zarur. Shu bilan birga boshqaruvchi va ijro etuvchilar zvenosining bir-birini tushunishini ta'minlaydigan ishlab chiqarish atmosferasini yaxshilash. Umumiy maqsad – birlashgan Yevropadagi insonlar hayotiga aloqador bo'lgan sifatni yaxshilash.

Strukturalash tamoyili sifat infrastrukturasi barcha elementlari orasidagi hamkorlik va Yevropa iqtisodiyoti talablariga javob berish maqsadida ularning kompaniyalar bilan hamkorligiga qaratilgan.

Yangi sifat kontsepsiyasining qo'llanishi sifatga yondashishning o'zgarishini ta'kidlaydi. Firmalarni boshqarish strategiyasining yangi falsafasini shakllantirish va iste'molchilarning talablarini yanada to'laroq qondirish maqsadida kompaniyaning butun faoliyat tarmoqlarining ish qobiliyatini yaxshilash va takomillashtirish lozim bo'lib, bunda har bir tarmoq ichidagi munosabat va ular orasida «etkazuvchi – mijoz» printsipiga asoslangan holda ish yuritiladi.

Yuqoridagi tamoyillar va maqsadlarga ko'ra Yevropa sifat dasturi tuzilgan (EQP) bo'lib, bu dasturning asosiy maqsadi: ES iqtisodiyotining butun kuchini birlashtirish; mahsulotlar va xizmatlarning sifatini oshirish orqali raqobatdoshlikni oshirishga yo'naltirish, ishlab chiqarish tashkilotlarining ishini mukammallashtirish.

Dastur besh qismdan iborat:

- Sifatni oshirish va buni muhim va zururligini asoslab berish;
- Sifatni oshirish yo'llari va usullarini ishlab chiqish, rivojlantirish va namoyish etish;
- "Sifat infratuzilmasi" ning rolini oshirish;
- Ta'lim va malaka oshirish masalalari;
- Strukturaviy muvofiqlashtirish.

Ushbu dasturning birinchi qismiga qo'yilgan masalalar quyidagilardan iborat:

- Ichki bozordagi mahsulotlarning yuqori sifatini ta'minlovchi informatsiyalarni ishlab chiqaruvchi tashkilot rahbarlariga yetkazish;
- Jamiyat doiralarda va to'g'ridan-to'g'ri iste'molchilar orasida sifatga to'liq izoh bera oladigan ruhda keng reklama kompaniyalarini olib borish;
- Bu borada muayyan muvaffaqiyatlarga erishgan firmalarni Yevropa sifat mukofoti bilan taqdirlash uchun zarur choralarni ishlab chiqish va tadbiq etish;
- Boshqaruvchi va buyurtmachi orasidagi hamkorlik aloqalarini rivojlantirish;
- Yevropa mahsulot va xizmatlar raqobatbardoshligiga ta'sir qiluvchi sifat ko'rsatkichlari va mezonlarini o'rganish;
- Iste'molchiga yetkaziladigan mahsulot haqidagi barcha ma'lumotlarni tegishli va belgilangan tartibda markalash, shtrixli kodlash yoki maxsus simvollar orqali ifodalash.

Ikkinchi qismning vazifasi mahsulot sifatini yaxshilashda kompaniyalarga zamonaviy ilg'or texnologiyalarni ishlatishda hamkorlik qilish.

Bu qismda quyidagi vazifalar qo'yilgan:

- ES ichida ilg'or tajribani sifat boshqaruvlariga yoyish va o'zaro usullar almashtirishni ta'minlash;
- Yangi texnologiyalarni kiritish jarayonini boshqarish maqsadida mintaqaviy va milliy saviyadagi tajriba almashish amallarini tashkillashtirish.

Uchinchi yo'nalish ES yagona bozorini boshqarishga salbiy ta'sir qiladigan sifat infrastrukturasiga ta'sir qilish va uni ijobiy tomonga o'zgartirishga qaratilgan. Bu quyidagilardan iborat:

- Tashkil etuvchi sifat infratuzilmasi va manfaatdor kompaniyalar orasidagi aloqani rivojlantirish, xususan, sinash, sertifikatlashtirish va akkreditlash tizimida Yevropa tashkilotlarining rolini oshirish;
- A'zo-mamlakatlar orasidagi ma'lumot almashtirishni kengaytirish;
- Sinov laboratoriyalari orasidagi hamkorlikni rivojlantirish va mahsulotni sertifikatlashtirish idoralari bilan hamjihatligini ta'minlash.

Sifat siyosati kabi uning dasturi ham mahsulot sifatini ta'minlash jarayonida band bo'lgan xodimlarning mutaxassislik darajasiga katta e'tibor beradi.

To'rtinchi qismning asosiy vazifasi sifat boshqaruvi jarayonlarida ishtirok etuvchi inson faktorlari boshdan-oyoq, yuqori zvenodagi boshqaruvchilardan

past zveno ishchilarigacha o'qitish bilan mehnat samaradorligini oshirish maqsadida qo'yidagi masalalar e'tiborga loyiq:

- O'quv programmasini ishlab chiqish, ishchi sifat masalalari bilan bog'liq bo'lgan firma personali, davlat va boshqa tashkilot ishlarini rag'batlantirish tizimini yaratish;

- Sifat boshqaruvi bo'yicha mutaxassislarni sertifikatlashtirish tizimini yaratish;

- Milliy va mintaqaviy saviyadagi tegishli tashkilotlar orasida ekspertlar tayyorlashni rivojlantirish.

Beshinchi qismning asosiy vazifasi «Sifat infratuzulmasi rolini oshirish va mustahkamlash uchun Yevropa Sifat Partiyasi»ni tayyorlashdan iborat. Buning uchun ES standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya tashkilotlari Yevropadagi sifat muammolari bilan bog'liq bo'lgan boshqa tashkilotlar bilan hamjihatlikni ta'minlash masalalariga alohida ahamiyat beradi.

Shu bilan bir qatorda sinov markazlarining ishini boshqaruvchi milliy idoralarni qo'llab-quvvatlash ham alohida o'rin egallaydi. Bundan asosiy maqsad inson atrof muhitga zarari tegmasligi sharti bilan sifatni oshirish uchun qo'llanadigan usullarini birlashtirishdan iboratdir.

Shu tarzda ES sifat dasturi Yevropa Ittifoqining mahsulot va xizmatlar bo'yicha jahon bozorida o'zining mavqeini kuchaytirishga, sifat bo'yicha raqobatdoshlik ustivorligini ta'minlashga, qaratganligidan dalolat beradi deyishimiz ham mumkin.

Dasturni bajarishda amaliy ishlar sifat tizimini sertifikatlashtirish bilan bog'liq.

### **Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi sertifikatlashtirish faoliyati.**



MDH da sertifikatlashtirish faoliyati MDH davlatlarida 1992 yilda imzolangan standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish sohasidagi siyosiy kelishuvni yuritish to'g'risidagi Kelishuvga asosan sertifikatlashtirish bo'yicha faoliyat olib boriladi.

Davlatlar Kelishuvi nizom asosida hamkorlik – Kelshuv qatnashchilari milliy sertifikatlashtirish tizimini ISO/IES qo'llanmalari asosida shakllantiradi va Ushbu sohadagi usullar bilan boyitib borishadi.

### **5.2. Chet –el davlatlarida sertifikatlashtirish tizimlari va ularning faoliyati**

Butun dunyoda mahsulotning sifati, xavfsizligi nazorat tekshiruv xizmatlari tomonidan olib boriladi. Xavfsizlikni nazorat qilish usullari bir qancha usuliyatlarga asoslanib ko'pgina idora va tashkilotlar orqali amalga oshiriladi. Davlat tekshiruvlari asosan standart talablari to'g'ri bajarilganligi, sanitariya-gigiena qoidalari bajarilganligi ustidan nazoratni va boshqa

ko'rsatkichlarni tekshirishlar esa iste'molchilar huquqlarini himoya qilish tashkilotlari tomonidan olib boriladi.

Davlat nazorat idoralari umumiy tekshiruvlarni bajarishmay, faqatgina nomuvofiq mahsulotlar bo'yicha huquqiy choralar ko'rishadi. Ko'pgina davlatlarning qonunlari mahsulotlarning talablarga javob berishi to'g'risida alohida texnik reglamentlardan iborat.

Yevropa davlatlari ma'lumotlariga ko'ra Fransiya standartlashtirish assotsiatsiyasida (AFNOR) va Yevropa assotsiatsiyasida (EACT) 5000 dan ortiq nomdagi mahsulotlar sertifikatlashtirilib, sertifikatlashtirish bo'yicha 300 ta tizim faoliyat olib boradi, bu ishda 7000 dan ortiq sertifikatlashtirish idoralari faoliyat ko'rsatadi.

Sertifikatlashtirish azaldan sanoatda va rivojlangan davlatlarda foydalanilgan. Bu esa o'z navbatida ushbu davlatlar bozorida nomuvofiq va standart talablariga, me'yoriy texnik hujjatlarga javob bermaydigan mahsulotlarining paydo bo'lishidan himoya qilgan.

Bitta mahsulotga har xil standart va texnik me'yorlar belgilanishi jahon bozorida xalqaro savdo-sotiqqa sun'iy to'siqni vujudga keltiradi. SHuning uchun sertifikatlashtirish, teng hamkorlik bilan standartning uyg'unligini va sertifikatlashtirishning qoidalariga mos kelishligi savdo-sotiqda hamkorlik qilishda muhim o'rin tutadi.

Sertifikatlashtirish idoralaridan tashqari bir qancha davlatlarda bojxona chegaralarida alohida Davlat xizmat ko'rsatish idoralari joylashgan bo'lib, ular hududga kirib kelayotgan mahsulotlarning (veterinar xayvonlar, usimliklar, oziq-ovqat mahsulotlari va tez buziladigan mahsulotlar) talablarga javob berishini ta'minlash bo'yicha ish olib borishadi.

Keyingi bandlarda ba'zi bir davlatlarda mavjud bo'lgan shunday xavfsizlik xizmatlari haqida ma'lumotlar keltirilmoqda.

### **Amerika Qo'shma Shtatlari sertifikatlashtirish faoliyati**

AQSHda iste'molchilarning huquqini muhofaza qilish qonuni asosida ish yuritiladi. Masalan, u yerda «Milliy transport va avtomobillarning xavfsizligi», «Pestitsidlar va rodentsidlar» haqida qonunlar mavjuddir.

AQSHning Federal hukumati sertifikatlashtirish bo'yicha uchta asosiy darajadagi dasturlarni qabul qilib tasdiqlashgan.

Birinchi darajali dastur majburiy sertifikatlashtirilgan mahsulot uchun tayyorlangan bo'lib, bularning iste'molchi uchun sog'liqqa ziyon keltirilishi mumkin bo'lgan hollarda ishlatilishi mumkin. Bu sertifikatlashtirish dasturi aviataxnika, kemasozlikda, avtomobilsozlikda, konteynerlarda va truboprovodlardagi faoliyatlar kiradi.

Ikkinchi darajali dastur bu Davlat mudofaa departamentlari, transport, savdo-sotiq, elektrofikatsiya orqali mahsulotni sertifikatlashtirish ko'zda tutiladi.

Uchinchi darajali dastur mahsulot sifati, narxi va uning kelib chiqish jarayonlari ko'zda tutiladi.

Bu sertifikatlashtirish dasturlari ixtiyoriy ravishda ishlatiladi.

AQSHda alohida Qonun asosida belgilangan sertifikatlashtirish milliy boshqarmasi mavjud emas. Amerika milliy standart texnologiyalar instituti (NIST) qoshida sertifikatlashtirish komiteti ish olib boradi va sertifikatlashtirish qoidalarini ishlab chiqadi, uning reestrini olib boradi va muvofiqlikni tasdiqlash faoliyati bilan shug'ullanadi, hamda shu bilan birga sertifikatlashtirish idoralarining faoliyatini nazorat qilish faoliyati bilan shug'ullanadi.

Sertifikatlashtirishning me'yoriy bazasi bo'lmish standartlarni quyidagi tashkilotlar ishlab chiqishadi:



Amerika materiallarni sinash bo'yicha jamiyati (ASTM) – keng ko'lamdagi iste'mol tovarlari uchun;



Elektr qurilmalarini tayyorlash milliy assotsiatsiyasi (NEMA) – elektr qurilmalari va elektr texnikalari uchun;



Ko'p ehtiyojdagi tovarlarning xavfsizligi bo'yicha Kengash (CPSC) – ko'p ehtiyojdagi tovarlar uchun;



Atrof-muhitni himoyalash bo'yicha Federal agentligi (ERA) – ichki yonuv dvigatellari, yer osti, suv va havo transportlari va hokazo turli xil ishlab chiqarishni sertifikatlashtirish uchun;



Texnologiya va standartlar milliy instituti (NIST) – majburiy standartlarni ishlab chiquvchi standartlashtirish bo'yicha hukumat idorasi.

### Angliya sertifikatlashtirish faoliyati



Buyuk Britaniyada bir nechta milliy sertifikatlashtirish tizimi mavjud, ulardan eng kattasi — Britaniya standartlari instituti — BSI (British Standardization Institution). Bu yerda sertifikatlashtirish buyumlarni Britaniya standartlari institutida keltirilgan muvofiqlik belgisi va Britaniya standartlari talablariga muvofiqligini tasdiqlash bilan amalga oshiriladi.

Ushbu tizimda sertifikatlangan mahsulotlar uchun Britaniya standartlarining maxsus belgisi ta'sisi etilgan, ro'yxatdan o'tgan va savdo belgisi sifatida qonun bilan himoyalangan.

Buyuk Britaniyada sertifikatlashtirish asosan ixtiyoriy bo'lib, hukumat qarorlari qo'llaniladigan standartlarni talab qiladigan joylar bo'ndan mustasno. Masalan, mahsulot xavfsizligi talablariga ta'lluqli standartlar. Avtomobil xavfsizlik kamarlari uchun BS 3254 standarti. Bunday xolda, muvofiqlik belgisi xavfsizlik yorlig'i deyiladi.

Tizimda sertifikatlashtirish ishlarini boshqarish QUAD Sifat kafolati bo'limi tomonidan amalga oshiriladi. Bu funktsiyalarni sanoat, savdo, iste'molchi tashkilotlar hukumat vakillari bo'lgan BSI Sifat nazorati bo'yicha kengashning ko'rsatmalariga binoan amalga oshiriladi.

British Standardization Institution (BSI) — Britaniya standartlari instituti.

BSI guruhi 1901 yilda po'lat standartlarni o'rnatgan muhandislar qo'mitasi sifatida o'z faoliyatini boshlagan. Ushbu standartlarni ingliz sanoatchilari tomonidan yanada yaxshi va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish uchun ishlatilgan. BSI — Xalqaro Standartlashtirish Tashkiloti (ISO) ning a'zosi hisoblanadi.

BSI guruhi xodimlari tarkibida 2274 kishi ishlaydi. Har yili 2000 dan ortiq BSI standartlari chop etiladi.

BSI guruh faoliyatiga quyidagilar kiradi:

- Menejment tizimlarida xizmat o'rsatish;
- baholash va sertifikatlashtirish xizmatlari;
- mahsulotni sertifikatlash;
- Menejment tizimlarini o'qitish;
- standartlar va nashrlar;
- CE Markirovkalash.

Britaniya Standartlari Instituti zamonaviy iqtisodiyotning intellektual mulkidan shaxsiy himoya tizimining texnik spetsifikasigacha bo'lgan barcha aspektlarini qamrab oluvchi dunyoning eng yirik standartlarini ta'minlovchi provayderi hisoblanadi. Britaniya standartlar markazi Londonda joylashgan va boshqa mamlakatlarning milliy standartlar institutlari bilan keng aloqaga ega.

### **Fransiya sertifikatlashtirish faoliyati**

Fransiyada ilk bora 1938 yil sertifikatlashtirish haqidagi qonun qabul qilingan. Bu qonun milliy standart belgisi NF, hozirgacha o'zgartirish kiritilgan holda ishlatilmoqda. AFNOR zimmasiga 1941 yilda qabul kilingan dekret asosida NF belgisi maqomiga egaligi va mamlakatda sertifikatlashtirish faoliyati tizimi yuklatilgan.

Fransiyada NF belgisi milliy standartlarga mos eng birinchi sertifikatlashtirish muvofiqlik belgisidir. Ushbu belgi shaharda va chet davlatlarda keng tarqalgan va qo'llanilab kelinmoqda.

Mas'uliyatsiz bosilgan har bir qadam jazoga tortilishi mumkin, bu choralar oddiy ogohlantirishdan boshlanib yukoridagi belgini kullaniishiga berilgan litsenziyasidan mahrum qilinishgacha borib yetadi. AFNOR tashkiloti har bir noto'g'ri berilgan reklama, tovlamachilik, belgini noto'g'ri ishlatilganida ham ishlab chiqaruvchilarni yoki sotuvchilarni qonuniy jazoga tortishi mumkin. AFNOR tashkilotining sertifikatlashtirish tizimi uchunchi tomon sifatida faoliyat ko'rsatadi, hamda korxona sifat tizimini va mahsulot namunasini sinash faoliyatini olib boradi.

**AFNI** Standartlashtirish bo'yicha Frantsuz assotsiatsiyasi  
(AFNOR) – sertifikatlashtirish bo'yicha ishlarini va faoliyatni  
amalg'a oshiradi.

Sertifikatlashtirishning tashkiliy tuzulishi va tarmoq standartlashtirish tizimi bilan milliy standartlar talablariga muvofiq reja asosida doimiy o'zaro faoliyat olib borib yangi standart va me'yorlarni ishlab chiqadi.

AFNOR, sertifikatlashtirish faoliyatini davlat idorasi sifatida va quyidagi tarmoqlar miqyosida boshqaradi: Frantsuz tashqi savdo markazi (CNCE), Texnik reglamentlar va me'yorlar to'g'risidagi ma'lumotlar markazi (CINR), Elektrotexniklar Kengashi (UTE).

### **Germaniyada sertifikatlashtirish faoliyati**

Germaniyada sertifikatlashtirishning asosi bo'lib Federal hokimiyat miq'yosida qabul qilingan qonunlar xizmat ko'rsatadi. Bular o'z ichiga sog'liqni himoya qilish, tabiatni muhofaza qilish, mehnat xavfsizligini, iqtisodiyot resurslarini, iste'molchilarning huquqlarini muhofaza qilishga yo'naltirilgan qonunlarni qamrab oladi. Bu qonunlarga asosan 1968 yilda qabul qilingan «Jihozlarning xavfsizligini ta'minlash» qonuni kiritilib, bu konunning asosi bo'lib tabiatni muhofaza qilish qonunlari xizmat qilgan.

Ishlab chiqaruvchi yoki chetdan mahsulot olib kiruvchining mahsuloti texnik nazoratdan va federal hokimiyat tarafidan tekshirilgan bo'lsa, u tekshirilganlik «xavfsizlik belgisi»ni qo'yishi mumkin bo'lgan. Sertifikatlashtirish bo'yicha Germaniyada faoliyat olib boradigan asosiy yettita tizim mavjud bo'lib, ularning doirasida 400 dan ortiq boshqarmalar ish yuritadilar. Mahsulotlarni sertifikatlashtirish bo'yicha eng faol ish olib boruvchi tashkilot sifatida DIN standartlariga muvofiqligini tekshirish bo'yicha ish olib boradigan Germaniya instituti (DIN) bo'lib hisoblanadi. Mahsulotlar ushbu institut tizimidagi sertifikatlashtirish tashkilotidan o'tgandan so'ng unga DIN belgisi qo'yilishiga ruxsat beriladi, bu belgi gaz, suv apparatlaridan tashqari barcha mahsulotlarga ishlatiladi.

Elektr tarmoqlarini sertifikatlashtirish Germaniya elektrotexniklar kengashi (VDE) orqali bajariladi. Ilmiy tekshirish institutlarida va sinov laboratoriyalarida mahsulotni nazorat qilish ishlari olib boriladi.

Germaniyada umummilliy sertifikatlashtirish tizimiga quyidagi tizimlar kiradi:

**A – reglamentlarga muvofiq sertifikatlashtirish tizimi;**



**A1 - DIN standartlariga muvofiq sertifikatlashtirish tizimi** barcha turdagi mahsulotlarni/buyumlarni/ qamrab olib, DIN standartida o'rnatilgan talablariga muvofiqligiga solishtiriladi. Uga Germaniya standartlashtirish instituti rahbarlik qiladi. DIN standarti talablariga muvofiq buyumlar DIN GEPRUFT belgisi bilan tang'alanadi;



A2 - VDE sertifikatlashtirish tizimi. Bu tizim (VDE) elektrotexniklar Kengashi bo'lib, Sinov va sertifikatlashtirish institutini (PZI) qo'llab qo'vvatlaydi va buyumlar VDE belgisi bilan quyiladi;



A3 - DVGW sertifikatlashtirish tizimi. Bu sertifikatlashtirish tizimi gaz va suv ta'minoti bo'yicha firma Assotsiatsiyalaridir. Germaniyaning bozorlariga yetkazilib berilayotgan barcha gaz qurilmalari DVGW muvofiqlik belgisi bo'lishi lozim;



V - Germaniya sifat kafolati va RAL tamg'alash instituti sertifikatlashtirish tizimi. Bu tizimning qo'llanish sohasi qishloq xo'jaligi va qurilish materiallari uchun ishlatiladi va RAL sertifikatlashtirilgan mahsulotlarga muvofiqlik belgisi qo'yiladi;



S - GS belgisi bilan sertifikatlashtirish tizimi, Asbob-uskunalar xavfsizligi to'g'risidagi Qonun talablariga muvofiq buyumlar sertifikatlanadi;

D - qurilish konsruksiyalarini federal me'yorlariga muvofiqligini nazorati uchun tizim;

E - etalon va o'lchash vositalarini sertifikatlashtirish tizimi. Metrologiya sohasida Federal idora bo'lib Federal fizika-texnika instituti hisoblanadi;

F - Germaniya sanoat qonunchiligining 24 bo'limiga muvofiq sertifikatlashtirish tizimi. Bu tizim bug' qozonlar, yuqori bosimli idishlar, yonuvchi suyuqliklarni tashish, portlashdan himoyalangan elektr qurilmalari va ko'tarish qurilmalarini sertifikatlashtirish bilan shug'ullanadi.



Sifat tizimini sertifikatlashtirish bo'yicha jamiyat (DQC). Germaniyada sifat tizimini sertifikatlashtirish bo'yicha Amaliy ishlarni olib boradi.

Sifat tizimini sertifikatlashtirish bo'yicha DQS jamiyati faoliyat olib borib, u firma va kompaniyalarning majburiy bo'lmagan holda ya'ni ixtiyoriy ravishda murojaatlarini qabul qiladi. Bundan tashqari RW TUV va bir necha xalqaro miq'yosda tanilgan Germaniya kompaniyalari ham sertifikatlashtirish ishlari bilan shug'ullanishadi.

### **Yaponiya sertifikatlashtirish tizimi faoliyati**

Yaponiyada asosan ixtiyoriy sertifikatlashtirish ishlari mavjud bo'lib, hozirgi bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqib, raqobat tufayli majburiy sertifikatlashtirishga aylangan. Mahsulotlarni ixtiyoriy sertifikatlashtirish bilan birga ularning turli tekshiruvlari ham olib boriladi. Mahsulot yoki xizmatlarni sertifikatlashtirish bo'yicha 25 dan ortiq qonunlar mavjud bo'lib, ularning ba'zilari faqatgina mahsulotlarni tekshiruvlarini olib borish faoliyatiga qaratilgan.

Standartlarga muvofiqligini kafolatlovchi, hamda sertifikatlashtirish masalalari bo'yicha eng taniqli tashkilotlardan biri Yaponiya sanoat standartlari komiteti (JISC) bo'lib, u tomonidan ishlab chiqilgan standartlar qator vazirliklar tomonidan (qishloq xo'jalik, tashqi savdo va sanoat, o'rmonchilik, baliqchilik, qurilish, aloqa xizmati va maoriflarda) qabul qilingan. Oziq-ovqat, qishloq xo'jalik va o'rmonchilik mahsulotlari uchun JAS standartlari talablari asosida sertifikatlashtirishda ishlari olib boriladi. Yaponiyada qishloq xo'jalik assotsiatsiyasi tomonidan ham standartlar ishlab chiqilib, u qishloq xo'jalik va o'rmonchilik mahsulotlarini standartlashtirish va tamg'alashga mo'ljallangan.

Baliqchilik va o'rmonchilik xo'jaliklarida nazoratni ushbu vazirlik tomonidan ro'yxatga olingan mustaqil tashkilot olib boradi.

Mahsulotlarga qo'yilgan VCCI belgisi mahsulotning elektromagnit moslashuvchanligini bildiradi. Ushbu belgini olish va uni mahsulotlar yorlig'iga qo'llash ixtiyoriy sanaladi.

SG – belgisi 50 dan ortiq turdagi mahsulot va tovarlar uchun qo'llanilishi mumkin bo'lib, bu belgi ularning xavfsizligi haqidagi kafolat belgisi hisoblanadi, T – belgisi mamlakat ichki bozor savdosi va sanoat vazirligi tomonidan belgilangan bo'lib, import mahsulotlar ya'ni elektrotexnika mahsulotlarining xavfsizligi belgisini bildiradi.



Yaponiyada uchta shakldagi sertifikatlashtirish amal qilinadi: majburiy sertifikatlashtirish, qonuniy talablarga muvofiqligini tasdiqlash, milliy standartlarga muvofiq ixtiyoriy sertifikatlashtirish.

Majburiy sertifikatlashtirishni hukumat tasarrufidagi idoralar va ixtiyoriy sertifikatlashtirishni xususiy idoralar shug'ullanishadi.

Yaponiya qonunlarida turli xil mahsulotlar va turli toifadagi tavsiflari hamda xavfsizliklarini belgilanadi.

### **Xitoy sertifikatlashtirish tizimi**

Qonunchilik va standartlar Xitoy bozoriga kirishning poydevoridir. Standartlar, xususan, milliy majburiy standartlar ham mahsulotni bozorda joylashtirishdan so'ng nazorat qilish bo'yicha qonunchilikni kuchaytirish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Mahsulotni majburiy va ixtiyoriy sertifikatlashtirish

Xitoyda, inson, hayvonlar va o'simliklar sog'lig'i va xavfsizligi, shuningdek atrof muhit va ijtimoiy xavfsizlik uchun xavfli bo'lib hisoblangan mahsulotlarni majburiy sertifikatlashtirish tizimi joriy etilgan.

Davlat kengashi tomonidan ta'sis qilingan Xitoy Xalq Respublikasining sertifikatlashtirish va akkreditlash boshqarmasi mamlakatdagi sertifikatlashtirish va akkreditlash faoliyati uchun mas'ul idora hisoblanadi.

Sifat ustidan nazorat, inspeksiya va karantin bo'yicha umumiy boshqaruv mahsulotni majburiy sertifikatlashtirishga doir milliy qoidalar va talablarni

belgilab, Majburiy sertifikatlanishi lozim bo'lgan mahsulotlar ro'yxatini tasdiqlaydi.

Sertifikatlashtirish va akkreditlash boshqarmasi Xitoyda mahsulotlarni majburiy sertifikatlashtirish tizimini boshqaradi, tashkil etadi va joriy qiladi. Ro'yxatda ko'rsatilgan barcha mahsulotlar tegishli organda sertifikatlanishi lozim.

Xitoy Xalq Respublikasida Majburiy sertifikatlanishi lozim<sup>1</sup>.

Ro'yxatda ko'rsatilgan mahsulotlar quyidagi alohida modellar va sxemalar bo'yicha sertifikatlanadi:

- konstruktsiya (tuzilish)ni baholash;
- turni sinash;
- namunalarni tekshirish yoki ishlab chiqarish joyida nazorat qilish;
- namunalarni tekshirish yoki bozorda nazorat qilish;
- kompaniyaning sifatni ta'minlash tizimini auditdan o'tkazish;
- keyinchalik inspektsiya qilish.

Mahsulotni sertifikatlashtirish modeli mahsulot tavsifi, inson sog'lig'i, atrof muhit va ijtimoiy xavfsizlik uchun potentsial xavf-xatarlar, shuningdek mahsulotning hayotiy tsikli va boshqa kabi integratsiya qilingan ko'rsatkichlar bo'yicha belgilanadi.

CCC – Ro'yxatda ko'rsatilib, bozorda joylashtirish, import qilish va qo'llash uchun ruxsat etilgan mahsulotga qo'yiladigan Xitoyning majburiy sertifikatlashtirish belgisi (China Compulsory Certification).

Mahsulotni majburiy sertifikatlashtirishdan tashqari Xitoyda mahsulotni ixtiyoriy sertifikatlashtirish amal qiladi, va u uchun Xitoy sertifikatlashtirish va sifat markazi mas'uldir.

Ixtiyoriy sertifikatlashtirish belgisi – CQC. Mahsulot, sifat, xavfsizlik, atrof muhit va ishchi tavsiflarga doir talablarga muvofiqligi bo'yicha tekshiriladi. CQC belgisi 500 dan ortiq mahsulot turlariga qo'yiladi.

Xitoyga mahsulot olib kirish. Ekspertiza va karantin bo'yicha idoralarning talablariga binoan Xitoyga import qilinadigan bir qator mahsulotlar sertifikatlanishi lozim. Ushbu sertifikatlarni taqdim etuvchi organlar: Kvotalash va litsenziyalash ishlari bo'yicha boshqarma; provintsial darajasidagi tashqi savdo va iqtisodiy hamkorlik idoralari, Xaynan, Guychjou, Tibet va Ninsya-Xueydan tashqari; Shenyang, Dalian, Guanchjou, Sian shaharlarining tashqi savdo va iqtisodiy hamkorlik idoralari.

Xitoyga yog'ochli o'ramda mahsulot olib kirishda, o'ramga maxsus ishlov berilib, unda hech qanday zararkunandalar topilmaganini tasdiqlovchi fumigatsiya sertifikati taqdim etilishi zarur.

Xitoyga oziq-ovqat mahsulotlarini olib kirishda, majburiy ravishda etiketka sertifikatlanishi lozim.

---

<sup>1</sup> Xitoy Xalq Respublikasida Majburiy sertifikatlanishi lozim bo'lgan mahsulotlar ro'yxati quyidagi manzil bo'yicha joylashtirilgan: <http://www.cqc.com.cn/english/ProductCertification/CCC/CertificationScope/webinfo/2011/08/13/12736587034722.htm>

Ushbu sertifikatni rasmiylashtirish uchun quyidagi hujjatlar kerak bo'ladi:

1. Food Industry Association kabi assotsiatsiya yoki ma'muriy organlar tomonidan taqdim etilgan, ishlab chiqaruvchi mamlakatda erkin ishlab chiqarish va sotish to'g'risidagi sertifikat hamda Barcha turdagi mahsulotlarga yagona sertifikat (ikki nusxada).

2. Etiketka (har bir mahsulot uchun 8 dona). Ulardan 2 tovar o'ramida berilishi, 4 - A4 formatli (21 sm\*29.7 sm) varaqda rangli ko'rinishda chop etilishi kerak.

3. AQSIQ bo'yicha testdan o'tkazish uchun ochilmagan o'ramdagi mahsulot namunalari (har bir mahsulotdan 1500 gramm)

4. Ishlab chiqaruvchi-korxonaning muhri bilan tasdiqlangan, ishlab chiqarish uchun biznes litsenziyaning ikki nusxasi.

Xitoy qonuni tomonidan alohida har bir etiketkani ro'yxatga olish uchun stavka belgilangan, u 2300 RMB ga tengdir. Sertifikatlashtirish muddatlari – 60 kalendar kun.

2001 yilning dekabr oyida Xitoyning sifat ustidan nazorat, inspeksiya va karantin buyicha bosh davlat boshqarmasi (*State General Administration of Quality Supervision, Inspection and Quarantine of the People's Republic of China*) Mahsulotni majburiy sertifikatlashtirish qoidalarini (*Regulations for Compulsory Product Certification*) nashr etdi. Mahsulotni majburiy sertifikatlashtirish tizimi dastlab ishlab chiqilgan Tovar inspeksiyasining Sifatli litsenziyalash tizimi hamda Elektron asbob-uskunalar uchun mahsulot xavfsizligini sertifikatlashtirish tizimining o'rini egallamoqda.

Xitoyning Mahsulotni majburiy sertifikatlashtirish tizimi (*China Compulsory Product Certification*) qisqartirilgan holda CCC yoki 3C deb nomlanadi. Bu hamma joyda xalqaro tashkilotlar tomonidan qabul qilinib, qonun bilan belgilangan, iste'molchilarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilish hamda shaxsiy xavfsizlik va mol-mulk xavfsizligini ta'minlashning asosiy yo'li bo'lib hisoblanuvchi mahsulot xavfsizligini majburiy sertifikatlashtirish tizimi.

Mahsulotni majburiy sertifikatlashtirish, 20 toifaga taqsimlangan 135 turdagi mahsulotga taalluqli, jumladan maishiy texnika, motorli transport vositalari, mototsikllar, tibbiy jihozlar, kabellar, simlar va h.k. CQC CCC katalogining 17 toifasi bo'yicha mahsulotni majburiy sertifikatlashtirish ishlarini amalga oshiradi.

Hozirgi vaqtda Xitoy sifatni sertifikatlashtirish markazi guvoohnoma rasmiylashtirish uchun berilgan arizalarni Internet orqali yoki yozma shaklda qabul qiladi. Internet orqali (birinchi marta) ariza berish uchun [www.cqc.com.cn](http://www.cqc.com.cn) veb-saytida yangi foydalanuvchi sifatida ruyxatdan o'tish lozim.

Keyingi so'roqni osonlashtirish uchun ruyxatdan o'tishda kerak bo'lgan barcha batafsil ma'lumotlarni diqqatlik bilan to'ldirish zarur. Ro'yxatdan muvaffaqiyatli o'tgandan so'ng tizim kerakli ma'lumotlarni umumiy qabul qilingan hujjatlar, ariza shakllari va b. ko'rinishida taqdim etadi.

Yangi ariza berish – ariza shakli oldindan to'ldirilishi mumkin:

1. CCC sertifikatini ham xitoy, ham ingliz tilida rasmiylashtirilishi mumkin; arizani xitoy tilida to'ldiruvchi chet elliklar hamda shaklini ingliz tilida to'ldiruvchi xitoyliklar yuridik tasdiqlangan tarjimaga ega bo'lishi kerak.

2. CCC+CB yoki CQC+CBga ariza berishda arizachi i [www.cqc.com.cn](http://www.cqc.com.cn) veb-saytida kkita shaklini to'ldirishi mumkin.

3. Har xil tavsiflarga ega bo'lgan bir turdagi mahsulotni bitta jadvalga kiritish uchun barcha turdagi mahsulotlarning tasniflanishi bilan astoydil tanishish kerak.

4. Bir turdagi mahsulotni har xil savdo markalari ostida yoki har xil turdagi mahsulotlarni har xil markalar ostida bitta shaklga kiritishda ushbu savdo markalari ro'yxatga olinganligiga e'tibor qaratish lozim.

5. Ko'p funktsiyali mahsulotni sertifikatlashtirishda mahsulot turi mahsulotning asosiy funktsiyasini sinash standarti bo'yicha belgilanishi kerak.

6. Dastlabki ariza berishda korxona tekshirilganligi to'g'risidagi qayd bo'lishi zarur. «Dastlabki \_\_\_\_\_ ariza» grafasini tanlab, «izohlar» grafasiga korxonani tekshirish uchun mo'ljallangan sanani yozib qo'yish kerak.

7. Takroriy ariza berilganda «takroriy ariza» grafasini tanlab, izohlarga korxonaning seriya raqamini yozib qo'yish kerak.

8. Mahsulotni o'zgartirish uchun ariza berishda: oldingi sertifikat sonini belgilash va yangisini olganda avvalgisini qaytarish zarur.

9. Ishlab chiqariladigan mahsulot allaqachon sertifikatlashtirilgan mahsulot tegishli bo'lgan toifaga taalluqli bo'lsa u uchun ariza berilishi mumkin.

Arizachi yuridik shaxs (ishlab chiqaruvchi) nomidan ariza bergan holda uni aniqlab ko'rsatishi kerak. Yozma ariza berilganda Xitoy sifatini sertifikatlashtirish markazi barcha ma'lumotlarni [www.cqc.com.cn](http://www.cqc.com.cn) veb-saytida joylashtiradi va arizani to'g'ridan-to'g'ri yoki faks orqali to'ldirish uchun kerakli hujjatlar ro'yxatini taqdim etgan holda arizachiga foydalanuvchi nom va parolini ma'lum qiladi.

### **Rossiya Federatsiyasida sertifikatlashtirish milliy tizimini yaratilishi**

Rossiya davlat standartining sertifikatlashtirish va akkreditlash tizimlarini tashkil etish bo'yicha Butunrossiya standartlashtirish ilmiy tadqiqot instituti (Всероссийский научно-исследовательский институт стандартизации – ВНИИС) bosh tashkilot bo'lib hisoblanadi.

ВНИИС dunyodagi sertifikatlashtirish sohasidagi ilg'or tajribalarni mujassamlashtirib, Rossiyani dunyo bozorida mahsulot savdo sotig'i bo'yicha teng huquq bilan qatnashishiga asos solmoqda.

Institut Rossiya davlat standarti (Rosdavstandart) tashkilotining akkreditlash sohasi bo'yicha vakolatli tashkiloti hisoblanib, shunga asoslangan holda u akkreditlangan sertifikatlashtirish idoralari va sinov laboratoriyalarining ustidan nazoratni ham amalga oshiradi.

Bu tashkilot tomonidan korxonalarni sertifikatlashtirish sohasiga taalluqli yetarli axborot va uslubiy materiallar bilan ta'minlash, malaka oshirish maqsadida sanoat xodimlari uchun maxsus o'quv kurslari tashkil qilinib, shu bilan birga ularga bu sohalar bo'yicha turli maslahat xizmatlari ko'rsatilmoqda.

Rossiyada sertifikatlashtirish tizimi "TOCT" sertifikatlashtirish tizimi" deb yuritiladi. Bu ochiq tizim bo'lib, har bir tashkilot yoki korxona, agar uning qoidalari bilan rozi bo'lsa va ularga amal qilsa, unga kira olishi mumkin.

"TOCT" tizimiga asos qilib, ISO va MEKlarning me'yoriy hujjatlari, shuningdek EN 45000 seriyali Yevropa norma (standart)lari olingan. Tizimning asosiy qonun-qoidalari, tuzilishi va tartiblari 1991 yilda davlat standartlari tomonidan belgilangan.

Rossiyada sertifikatlashtirishni maxsus akkreditlangan Idoralar, sinov laboratoriyalari amalga oshiradi.

Sertifikatlashtirishni o'tkazish bilan bog'liq barcha harajatlar murojaat qilgan tomon hisobidan bo'ladi.

Harajatlarni to'lash yo'li har xil bo'lishi mumkin: sertifikatlashtirish xizmati uchun bir yo'la to'lash orqali, hamda sertifikatlashtiriluvchi mahsulot (sifat tizimlari) ni nazorati uchun vaqti-vaqti bilan yoki muvofiqlik belgisidan foydalanganligi uchun to'lash orqali.

Etakchi mamlakatlarning amaliy tajribalarini qo'llagan holda, quyidagi xizmatlar uchun bir yo'la haq to'lash qabul qilingan:

- talabnomalar va boshqa sertifikatlashtirish bo'yicha taqdim etilgan hujjatlarni ekspertizalari uchun;
- mahsulot sinovlarini o'tkazish uchun;
- sifat tizimlarini baholash va (yoki) sertifikatlashtiriluvchi mahsulot chiqaradigan korxonani attestatlash uchun;
- muvofiqlik sertifikatini berish haqidagi qaror qabul qilinganligi, uni rasmiylashtirish va ro'yxatdan o'tkazish uchun.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligini (MDX) tashkil qilinishi munosabati bilan sobiq Ittifoqdagi standartlarning ishlatishni chegaralash muddatlari 1992 yildan bekor kilinishiga kelishilgan. Shu maqsadda ilgari ba'zi standartlar hozirda ham o'z kuchlarini yo'qotgani yo'q.

Rossiya davlat standarti qumitasi va BHHIC ko'pgina, dunyoda obro'li, sertifikatlashtirish bo'yicha tan olingan mamlakatlar tizimlari bilan aloqalarni yaxshilash yo'lida ish olib bormoqdalar. Ular bu sohadagi ishlarini rivojlantirish bilan bir qatorda, mamlakatdagi ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sertifikatlashtirilishini boshqa mamlakatlarda tan olishligiga harakat qilmoqdalar. Shu maqsadda BHHIC sifat tizimlarini sertifikatlashtirish bo'yicha juda ko'p chet el davlat tashkilotlari va xalqaro darajada tan olingan tashkilotlar bilan o'zaro aloqada ishlash bo'yicha bitimlari mavjud.

Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish sohalarida bir - birining ish natijalarini tan olish maqsadida Buyuk Britaniya, Fransiya,

Shvetsariya, Kanada va boshqa mamlakatlar bilan ham ikki tomonlama kelishuv imzolangan bo'lib, bunga ko'ra quyidagilar ko'zda tutilgan:

- sertifikatlashtirish bo'yicha ekspert-auditorlar tayyorlovchi yagona maktab yaratish;

- sertifikatlashtirish maqsadida o'tkaziladigan baholash auditlarida birgalikda tekshiruv o'tkazish;

- sifat tizimlarini sertifikatlashtirish idorasining "sifat tizimlarini sertifikatlashtirishda javobgar bo'lgan sertifikatlashtirish idoralari uchun umumiy mezonlar" ISO/IEC 65 raqamli me'yoriy hujjatga muvofiq alohida tashkilotni tuzish bo'yicha ish boshlash.

Bundan tashqari metrologiya, standartlashtirish, akkreditlash masalalari va bu soha uchun mutaxassislar tayyorlash va boshqa shunga o'xshash masalalar ham shu kelishuvlarda ko'zda tutilgan.

Yuqoridagi qayd qilingan uchta masalalardan bugungi kunda ikkitasi to'liq amalga joriy qilingan.

Bu kelishuvlar doirasida muntazam ravishda ekspert-auditorlarni tayyorlash ishlari olib borilmoqda, hamkorlikda tayyorlangan sertifikatlashtirish bo'yicha mutaxassislarning hammasi o'qish yakuniga qarab Rosdavstandart qarori bilan ekspert-auditor sifatida ro'yxatga olindi.

Rossiyada sertifikatlashtirish milliy tizimining vujudga kelishini turli tizimlar majmui holida yoki aniq mahsulot bo'yicha sertifikatlashtirishda yoxud majburiy va ixtiyoriy tus olgan sinovlarning turlari bo'yicha ifodalash mumkin.

Hozirgi vaqtda "Iste'molchi xuquqlarini himoyasi haqida" Qonuniga binoan havfsizlik va ekologik parametrlar bo'yicha mahsulotning sertifikatlashtirish tizimlari yanada takomillashtirilmoqda.

Rossiya Federatsiyasida sertifikatlashtirish tizimlari to'rtta darajadagi idoralardan iborat.

Birinchi darajadagi idoraga Rossiya Federatsiyasining sertifikatlashtirish milliy idorasi kiradi. U Rosdavstandarti bo'lib, sertifikatlashtirish bo'yicha respublikada tashkiliy ishlarni boshqaradi va xalqaro hamkorlikni ta'minlaydi. Uning vazifasiga quyidagilar kiradi:

- mahsulot (xizmat)ning sertifikatlashtirilishini Rossiya hududida o'tkazishning umumiy qonun-qoidalarini belgilash;

- xalqaro va mintaqaviy sertifikatlashtirish tizimlariga qo'shilish va sertifikatlashtirish natijalarini o'zaro tan olish haqida qaror qabul qilish;

- lozim topilgan hollarda Rossiya Federatsiyasining tashqi mamlakatlar bilan o'zaro munosabatlarida va xalqaro tashkilotlarda vakolatxonasiga ega bo'lish.

Ikkinchi darajadagi idoralar - bular qonunda ko'rsatilgan bo'ladi yoki hukumat Qarorlari bilan davlat tashkilotlariga yuklatiladi va buni markaziy sertifikatlashtirish tizimlarining idoralari deb ataladi.

Uchinchi darajadagi idoralarga aniq mahsulotni sertifikatlashtirish idoralari kiradi. Bular akkreditlanish doirasiga qarab sertifikatlashtirishni o'tkazuvchi korxonalar, tashkilotlar va muassasalardir.

To'rtinchi darajadagi idoralarga akkreditlangan sinov laboratoriyalari kiradi. Akkreditlanishi doirasiga qarab, aniq sinovlar yoki ularning aniq xillarini qonuniy ravishda amalga oshiradi.

Mahsulotning sertifikatlashtirilishi natijasida so'rovchiga sertifikat, hamda litsenziya kelishuviga asosan aniq namuna uchun muvofiqlik belgisini ishlatish xuquqi beriladi.

Sertifikatlashtirish sohasidagi hamma ishlar kelishilgan holda manfaatdor bo'lgan tomonlarga yetkazilishi shart. Faqat tijorat sirlarini tashkil etuvchi xabarlar bundan mustasno hisoblanadi.

### **Nazorat savollari**

1. Birinchi standartlashtirish milliy tashkiloti qachon va qayerda tashkil qilingan?

2. Hozirgi Xalqaro standartlashtirish tashkiloti ISO (International Standards Organization) qachon tashkil etilgan.

3. ISO ning tuzilishidan ko'zda tutilgan asosiy maqsad nima?

4. Xalqaro elektrotexnika komissiyasi qachon tashkil etilgan?

5. ISO va IEC faoliyatlari bo'yicha qaysi soxalarda ish olib boradi?

6. Xalqaro va milliy darajada korxona sifat tizimlariga talablarni belgilovchi qanday standartlarni bilasiz?

7. Xorijiy davlatlarda sertifikatlashtirish faoliyati qanday olib boriladi?

8. ISO 9000, ISO 9001 va ISO 9004 xalqaro standartlarning nima maqsadlarda qo'llaniladi?

9. ISO 9001 standarti qanday bo'limlardan iborat?

### **1-Modul bo'yicha o'z-o'zini tekshirish, nazorat va test savollari**

1. «Talab» daganda nima tushuniladi?

A) Qandaydir majburiy bo'lgan yoki ixtiyoriy kutilgan va o'rnatilgan ehtiyoj yoki kutilmalar

B) Qandaydir majburiy bo'lgan va o'rnatilgan ehtiyojlar

C) Qandaydir oddiy kutilgan yoki o'rnatilgan me'yorlar

D) Qandaydir kutilayotgan yoki o'rnatilgan ehtiyoj

2. Tashkilot deganda nima tushuniladi:

A) Ishchilar guruhi va u zaruriy vosita bilan majburiyati, vakolati va o'zaro alokalari taqsimlangan

B) Ishlarni o'zicha bajaruvchi va mamuriyati mavjud kompaniya, korporatsiya, firma yoki korxona, muassasa, yoki ularning bo'linmalari yoki birlashmalari

C) Bino, qurilma, ishchilar va xizmat ta'minlash majmuasi

D) Ishchilar o'rtasida javobgarlik, vaklotlar va o'zaro aloqadorlikning taqsimlanishi

3. Sertifikatlashtirish so'zi qandey ma'noni anglatadi?

- A) me'yor, andoza, me'yorga keltirish
- B) tan olish, ishonch bildirish, tekshirib ko'rish
- C) guvohlik berish, qayd yoki shahodat etish, ishonch bildirish
- D) sinob ko'rish, ro'yxatdan o'tkazish, qayd etish

4. Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasida Sertifikatlashtirish sohasidagi asos soluvchi hujjat

- A) "Mahsulot va xizmatlarini sertifikatlashtirish to'g'risida"gi Qonun
- B) "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida"ga Qonun
- C) "Iste'molchilarning huquqlarini himo qilish tzo'g'risida"gi Qonun
- D) O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi

5. .... deganda talab etilgan ishonchlilik bilan mahsulotning muayyan standartga yoki texnikaviy hujjatga muvofiqligini tasdiqlaydigan faoliyat tushuniladi.

- A) snadartlashtirish
- B) sertifikatlashtirish
- C) muvofiqlikni baxolash
- D) akkreditlash

6. Sertifikatlashtirish jarayoni, shunday uslubki.....

A) talab etilgan ishonchlilik bilan mahsulotning muayyan standartga yoki texnikaviy hujjatga muvofiqligini tasdiqlaydigan faoliyat tushuniladi.

B) deganda uchinchi tomon tarafidan "sinov laboratoriyasining bayonoti" tushunilib, ma'lum namuna mahsulotga bo'lgan talablarni belgilovchi ma'lum standartlar yoki boshqa hujjatlar bilan muvofiq ekanligini bayon etishiga aytiladi.

C) muvofiqlikning sertifikatlashtirish faoliyatini o'tkazish uchun ish tartibi qoidalariga va boshqarishiga ega bo'lgan tizimdir.

D) unda vositachi hisoblanmish – uchinchi tomon yozma ravishda guvohlik bildirib, mahsulot, jarayon yoki xizmatni qo'yilgan talablar darajasiga mosligini e'tirof qiladi.

7. "Mahsulot va xizmatlarini sertifikatlashtirish to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qachon qabul qilingan?

- A) 1993-yil 28-dekabrda
- B) 2009-yil 23-aprelda
- C) 1992-yil 2-martda
- D) 1994-yil 28- fevralda

8. Sertifikatlashtirish maqsadida sinovlar qayerlarda o'tkaziladi?

- A) muayyan sinovlarni o'tkazishga akkreditlangan sinov laboratoriyalarida
- B) ixtiyoriy sinov laboratoriyalarida
- C) sertifikatlashtirish idoralarida
- D) talabgor korxonaning ishlab chiqarish sharoitlarida

9. Sertifikatlashtirishning nechta turi mavjud?

- A) 9
- B) 4
- C) 2
- D) 3

10. Ixtiyoriy sertifikatlashtirish ob'ektlari:

- A) ekologiyani boshqarish tizimlari
- B) yengil avtomobillar
- C) chakana savdo xizmatlari
- D) bekor vaqtda va ermak uchun mahsulotlar

11. Majburiy muvofiqlikni tasdiqlash ob'ektlari:

- A) O'zRes hududida ishlab chiqarilayotgan va muomaladagi mahsulotlari
- B) O'zRes hududida ishlab chiqarilgan mahsulotlar
- C) sifatni boshqarish tizimlari
- D) xodimlar

12. Savdoda texnik to'siqlar deganda nimalar qabul qilingan?

- A) Muvofiqlik sertifikatini va sinov bayonnomalarini tan olmasligi
- B) Bojxona jarayonlarining qiyinligi
- C) Eksport qilishda transport xaratchatlari
- D) Mahsulot (xizmat)ga texnik shartlarni tan olinmasligi

## **2 - Modul. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SERTIFIKTLASHTIRISH FAOLIYATI**

### **6-mavzu. O'zbekiston Respublikasida sertifikatlashtirish faoliyati**

#### **6.1. O'zbekiston Respublikasining milliy sertifikatlashtirish tizimi**

#### **6.2. Sertifikatlashtirishni o'tkazish bosqichlari**

##### **6.1. O'zbekiston Respublikasining milliy sertifikatlashtirish tizimi**

O'zbekiston Respublikasida sertifikatlashtirish tizimining quyidagi sertifikatlashtirish turlari amalga oshiriladi:

- Majburiy sertifikatlashtirish;
- Ixtiyoriy sertifikatlashtirish;

**Majburiy** sertifikatlashtirishga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan maxsus ro'yxatga kiritilgan, ishlab chiqariladigan, olib kiriladigan va olib chiqiladigan, sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan mahsulotlar kiradi.

Yuqoridagi ro'yxatga, fuqarolarning hayoti, sog'lig'i va mulkining xavfsizligini, atrof muhitni muhofaza qilish, o'zaroalmashinuvchanlik va moslashuvchanlikni ta'minlash bo'yicha me'yoriy hujjatlarda talablari belgilangan, mahsulotlar yoki xizmatlar kiritiladi. Bu ro'yxatdan tashkari Oliy Majlis tomonidan qabul kilinadigan Qonunlarga asosan, Prezident farmonlariga asosan ma'lum xizmatlar va mahsulotlar uchun ham xudi shunday talablar qo'yilishi mumkin.

**Ixtiyoriy** sertifikatlashtirishga O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezident farmonlari, hamda hukumat qarorlariga asosan ro'yxatga kiritilmagan xizmatlar yoki mahsulotlar kirishi mumkin, bu vaqtda ishlab chiqaruvchi, yetkazib beruvchi yoki iste'molchilar (keyinchalik - so'rovchi) tashabbusi bilan ixtiyoriy tartibda sertifikatlashtirish o'tkaziladi.

##### **6.2. Sertifikatlashtirishni o'tkazish bosqichlari**

Milliy sertifikatlash tizimi doirasida sertifikatlashtirish ishlari so'rovchi tomonidan tanlangan sertifikatlashtirish sxemasi bo'yicha aniqlangan tizim doirasida olib boriladi. Sertifikatlashtirish tartibi va uning o'rnatilgan qoidalari mavjud bo'lib, sertifikatlashtirishning asosiy bosqichlari sertifikatlashtirish ob'ekti va turlariga bog'liq bo'lmagan o'zgarmas jarayon deb hisoblash mumkin. Odatda qabul qilingan va sertifikatlashtirish jarayonining umumiy sxemasi 6.2.1-rasmda keltirilgan.

Buni quyidagi beshta asosiy bosqichga bo'lishimiz mumkin:

1. Sertifikatlashtirishga ariza
2. Sertifikatlashtirish bo'yicha qaror qabul qilish
3. Sertifikatlashtirish ob'ektni muvafiqligini o'rnatilgan talablar bilan baholash

4. Muvofiqlikni baholash natijalarini tahlili va uni rasmiylashtirish

5. Sertifikatlashtirish ob'ekti ustidan inspeksiya nazorat.

### **Sertifikatlashtirish**

O'zbekistonda mahsulotlarni sertifikatlash tartibi – muvofiqlikni tasdiqlashning rasmiy shaklidir. Sertifikatlashtirish muvofiqlik sertifikatining yoki muvofiqlik deklaratsiyasini rasmiylashtirishni o'z ichiga oladi. Ba'zi holatlarda xabarnoma beriladi. Mahsulotlarni sertifikatsiyalashtirish normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini tasdiqlash maqsadida o'tkaziladi.

### **Muvofiqlik sertifikati nima?**

Muvofiqlik sertifikati – sertifikatlashtirilgan mahsulotning qo'yilgan talablarga muvofiqligini tasdiqlaydigan, sertifikatlash tizimi qoidalariga muvofiq tayyorlangan hujjat.

### **Qaysi hollarda majburiy sertifikatlashtirish amalga oshiriladi?**

O'zbekistonda ishlab chiqarilgan va chetdan olib kelingan majburiy tartibda sertifikatlanadigan mahsulotlar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 28 apreldagi 122-sonli "Sertifikatlashtirish tartibotlarini va sifat menejmenti tizimlarini joriy etishni takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 6 iyuldagi 318-sonli "Mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibotini soddalashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi qarori bilan tasdiqlangan. -

Ushbu ro'yxatda mahsulotlar tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasiga (TN TIF - Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi)<sup>2</sup> muvofiq kiritilgan.

Ushbu ro'yxat sog'liqni saqlash va iste'mol manfaatlarini himoya qilish sohasidagi yangi qonun hujjatlari qabul qilinganligi munosabati bilan har yili vao'zgarishlar kiritilgan vaqtdlarda yangilanadi.

### **Ixtiyoriy sertifikatlashtirish nima?**

Ixtiyoriy sertifikatlashtirish harqanday mahsulotning normativ hujjatlar talablariga muvofiq ekanligini

Tasdiqlash uchun yuridik va jismoniy shaxsning tashabbusi bilan o'tqaziladi. Bunda ixtiyoriy sertifikatlashtirishni "O'zstandart" agentligi tomonidan akkreditatsiya qilingan yuridik shaxslar amalga oshirishi mumkin.

Mahsulotlarni ixtiyoriy sertifikatlashtirish majburiy tartibda sertifikatlanadigan mahsulotlar ro'yxatiga kirmagan tovarlarga nisbatan amalga oshiriladi.

Ixtiyoriy sertifikatlashtirish tartibi majburiy sertifikatlashtirish tartibikabi amalga oshiriladi: birinchi navbatda mahsulot laboratoriya sharoitida

---

<sup>2</sup> Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (TIF TN) – bojxona va tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari uchun yaratilgan tovarlarning tasnifi. Klassifikatorming mohiyati shundaki, har bir mahsulot yoki mahsulot guruhi o'ziga xos kod bilan belgilanadi va bojxona to'lovi qo'llaniladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning 28.12.2017 yildagi PQ-3448-son qarori bilan Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasining 2017 yilgi versiyasi amalga kiritildi.

tekshiriladi, undan keyin yakuniy hujjati taqdim etiladi. Sertifikat 1 yildan 3 yilgacha muddatga beriladi.

Mahsulotni ixtiyoriy sertifikatlashtirishning bozor munosabatlari sharoitida bir qator afzalliklari bor:

- mahsulot iste'molchilarning o'ziga xos talablariga javob berishiga ishonch hosil qilishiga yordam beradi;
- tashqi va ichki bozorlarda mahsulot sifatiga bo'lgan ishonch shakllanadi;
- iste'molchilarga kerakli mahsulotni tanlashni osonlashtiradi;
- mahsulot sifatiga tegishli ma'lumot olish uchun iste'molchiga kafolat beradi;

- uzoq muddatli muvaffaqiyat garovi hamda ishlab chiqaruvchilarning sertifikatsiz mahsulot ishlab chiqaruvchilar bilan raqobatida ko'maklashish imkonini beradi;


- import qilinayotgan sifatsiz mahsulotlarning oqimini to'xtatadi;
- ilmiy-texnik hujjatlarga eng zamonaviy talablar qo'yish orqali ularning sifatini yaxshilaydi;

- ishlab chiqarishning tashkiliy va texnik darajasini oshirish uchun qo'shimcha mablag'larni jalb qilishga ko'maklashadi.

Muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish uchun zarur bo'lgan hujjatlar.

Import qilinadigan mahsulotlarni sertifikatlashtirish uchun:

- murojaat varaqasini to'ldirish;
- mahsulot uchun me'yoriy hujjat (agar mavjud bo'lsa) nusxasi;
- mahsulotning markirovka na'munasi (mahsulot haqidagi ma'lumot);
- Mahsulot yuk hujjatlari O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga kirgan belgisi bilan;
- Sanitar epidemiologik xulosa nusxasi (mahsulot turidan kelib chiqib).



### 6.2.1-rasm. Sertifikatlashtirishning asosiy bosqichlari.

Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni sertifikatlashtirish uchun:

- murojaat varaqasini to'ldirish;
- mahsulot uchun me'yoriy hujjat (agar mavjud bo'lsa) nusxasi;
- mahsulotning markirovka na'munasi (mahsulot haqidagi ma'lumot);
- Sanitar epidemiologik xulosa nusxasi (mahsulot turidan kelib chiqib);

Mahsulotlarning sertifikatlashtirish o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- Sertifikatlashtirish uchun talabnoma berish;
- Taqdim etilgan normativ hujjatlar va boshqalarning tahlil etilishi;
- Talabnoma asosida qaror qabul qilish;
- Identifikatsiya, namunalar tanlab olish;

- Sinov dasturini maxsulotning normativ hujjatlari asosida tayyorlash;
- Mahsulot ishlab chiqarish jarayonini tekshirish (№3 va №4 sxemalar uchun);

Namunalarni sinov laboratoriyasida tekshirish.

O'zbekistonda mahsulotlarni sertifikatlash tartibi — muvofiqlikni tasdiqlashning rasmiy shaklidir. Sertifikatlashtirish muvofiqlik sertifikatining yoki muvofiqlik deklaratsiyasini rasmiylashtirishni o'z ichiga oladi. Ba'zi holatlarda xabarnoma beriladi. Mahsulotlarni sertifikatsiyalashtirish normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini tasdiqlash maqsadida o'tkaziladi.

### **Mahsulotni sinash**

Sinov Laboratoriyasining vazifasi bir va undan ortiq mahsulotni analiz qilishdan iborat. Ushbu jarayonning eng muhim talabi O'zbekiston Respublikasining Milliy Akreditatsiya Tizimida rasmiy ro'yhatdan o'tgan bo'lishidir.

### **Sinov nima?**

Sinov bu belgilangan protsedura asosida mahsulot, proses yoki xizmatning bir va undan ko'p xarakteristikasini aniqlaydigan texnik jarayon.

Protsedura faoliyatlar yoki jarayonning amalga oshirish uslubi.

Asosiy sinov bosqichlari.

Sinov oldi tayyorgarlik jarayonlari va sinovlar quyidagi tartib boyicha amalga oshiriladi:

- Test so'rovining tahlili;
- Sinov rejasini ishlab chiqish;
- Sinov uskunalarini tayyorlash;
- Namuna olish va namunalarni saqlash;
- Sinovdan o'tkazish;
- Sinov ma'lumotlarini yozib borish;
- Sinov natijalarini aniqligini tahlil qilish va ma'lumotlarni muhokama qilish.

### **Test Hisoboti**

Test Hisoboti bu rasman tasdiqlangan laboratoriya tomonidan beriladigan hujjat bo'lib unda o'tqazilgan sinov natijalari bildiriladi.

Mahsulotlarning kamchiliklari va muvofiq standard talablariga (TOCT, texnik jihatdan tartibga solish, xususiyatlari va boshqa meyor hujjatlar) javob berishi turli xil asbob-uskuna va jihozlar orqali sinovdan o'tqaziladi. Testni yakunlab, mas'ul laboratoriya mutaxassislari mahsulotning mavjud meyorlarga javob berishi yoki bermasligi bo'yicha test hisobotini tayyorlashadi. Test Hisoboti sertifikatlashtirish markaziga yoki ariza beruvchiga yuboriladi. Hujjatning bir nusxasi laboratoriyada eng kamida 3 yil saqlanadi.

Laboratoriya sinov natijalari ham mijozga ham shu test sinovini otkazgan va test hisobotini tayyorlagan laboratoriyaga bir xilda tegishli.

Agar sinov natijalari e'lon qilinishi talab qilinsa, ikkala tomonning roziligi bilan amalga oshiriladi. Tahlil jarayonida oshkor qilingan ma'lumot ishonchlidir.

Test bayonoti quyidagi hollarda talab qilinadi:

- mahsulotning sertifikat sinov uchun;
- mahsulotlarning meyoriy hujjatlarga javob bera olishini aniqlash uchun davriy testlari;
- qabul qilingan testlar.

Sertifikatlashtirish organi test hisobotiga asoslanib qaror qabul qiladi. Ushbu ikki (yoki undan ko'p) hujjatlar sertifikat berilishi uchun asosiy sanaladi. Agar sertifikatlashtirishning turli qismlaridagi xavfsizlikni kuchga kiritish uchun tahlil talab qilingan bo'lsa, akkreditatsiyadan o'tgan ko'plab laboratoriyalarda tahlil o'tkazilishi mumkin va test bayonoti har bir shunday laboratoriya tomonidan tayyorlanadi.

### **Nazorat savollari**

1. O'zbekiston Respublikasida sertifikatlashtirish tizimida qaysi sertifikatlashtirish turlari amalga oshiriladi?
2. Muvofiqlik sertifikati nima?
3. Qaysi hollarda majburiy sertifikatlashtirish amalga oshiriladi?
4. Iqtisodiyotda mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirishning o'rnini va ahamiyatini nimalaridan iborat?
5. Sertifikatlashtirishning qonuniy va me'yoriy ta'minotini tushuntiring.
6. Sertifikatlashtirishning qonuniy faoliyati maqsad va vazifalarini tushuntiring.
7. Import mahsulotlarga muvofiqlik sertifikatini tan olinishiga kimga huquq berilgan?
8. Sertifikatlashtirishda sinov jarayonini tushuntirib bering

### **7-mavzu. Sertifikatlashtirish milliy tizimida qatnashuvchi idoralar**

- 7.1. Sertifikatlashtirish milliy tizimining tashkiliy tuzilmasi.
- 7.2. Sertifikatlashtirishda qatnashuvchi idoralarning vazifalari.
- 7.3. Sertifikatlashtirish ob'ektlari va sub'ektlari.

#### **7.1. Sertifikatlashtirish milliy tizimining tashkiliy tuzilmasi.**

O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi ("O'zstandart" agentligi) O'zbekiston Respublikasining milliy sertifikatlashtirish organidir.

"O'zstandart" agentligi, akkreditatsiya qilingan sertifikatlashtirish organlari, sinov laboratoriyalari (markazlari), sertifikatlashtirish bo'yicha inspeksiya organlari, sifat bo'yicha ekspert-auditorlar, muvofiqlikni baholash faoliyatida ishtirok etadigan xodimlar, shuningdek mahsulotlari

sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar sertifikatlashtirish milliy tizimining tashkiliy tuzilmasida ishtirok etuvchilar xisoblanadi.



Mustaqillik yillaridan bugungi kungacha tizim faoliyatini takomillashtirish bo'yicha davlatimiz rahbari va hukumatimiz tomonidan bir qator qarorlar qabul qilingan. Jumladan, davlatimiz rahbari tomonidan 2017 yil 28 apreldagi "O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2935 sonli hamda 2018 yil 12 dekabrda "Texnik jixatdan tartibga solish, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya tizimlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4059 sonli qarorlari asosida Vazirlar Maxkamasining 2019 yil 24 aprelda "O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi №348-sonli qarori qabul qilingan.

Ushbu qarorlar standartlashtirish, metrologiya va mahsulotlar hamda xizmatlarni sertifikatlashtirish tizimini yanada takomillashtirish, uning zamonaviy xalqaro normalar va talablarga muvofiqligini ta'minlash, shuningdek xalqaro standartlardan foydalanish asosida mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish kabi bir qator vazifalarni bajarish maqsadida qabul qilindi. Qarorga binoan O'zbekiston standartlashtirish,

metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi ("O'zstandart" agentligi) ning takomillashgan tashkiliy tuzilmasi va markaziy boshqaruv apparati belgilandi.

O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi sertifikatlashtirish bo'yicha milliy idora bo'lib hisoblanadi.

Sertifikatlashtirish milliy idorasi – «O'zstandart» agentligi O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- O'z SMT ning yagona qoida va tadbirlarini, ularga rioya etilishi ustidan nazoratni, sertifikatlashtirish natijalari bo'yicha hujjatlarni ro'yxatga olishni, respublika va xorijiy iste'molchilarni ma'lumot bilan ta'minlashni belgilaydi;

- Muvofiqlik belgisini va uni qo'llash qoidalarini belgilaydi;

- O'z SMT ni mukammallashtirish bo'yicha dastur loyihalarini tuzadi va ularni Hukumat muhokamasiga taqdim etadi;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda xalqaro sertifikatlashtirish tizimlariga qo'shilish haqida qaror qabul qiladi, shuningdek, sertifikatlashtirish natijalarini o'zaro tan olish haqida bitimlar tuzadi;

- O'zbekiston Respublikasini boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan sertifikatlashtirish masalalari bo'yicha o'zaro munosabatlarda vakili bo'ladi;

- Majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan mahsulotlar va xizmatlar ro'yxatini tuzadi va olib boradi;

- Respublikada sertifikatlashtirish ishlarini tashkil qiladi va muvofiqlashtiradi hamda ularni o'tkazilishining to'g'riligi ustidan inspeksion nazoratni amalga oshiradi;

- Bir turdagi mahsulotlarni, sifat tizimlari va ishlab chiqarishlarni, sertifikatlashtirish bo'yicha idoralarni va sinash laboratoriyalarini (markazlarini) akkreditlaydi;

- Ekspert-auditorlarni attestatlaydi va ularning faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi;

- O'z SMT Davlat reestrini olib boradi;

- Mahsulotlarni sertifikatlashtirish, sertifikatlash-tirish bo'yicha idoralarni va sinash laboratoriyalarini (markazlarini) akkreditlash bo'yicha ishlarga haq to'lash shakli va tartibini belgilaydi;

- O'z SMT qoidalarini buzganligi uchun muvofiqlik sertifikatlari va muvofiqlik belgilarining amalini bekor qiladi va to'xtatadi, sertifikatlashtirish bo'yicha idoralarni va sinash laboratoriyalari (markazlari)ni akkreditlangani haqida guvohnomani bekor qiladi;

- Sertifikatlashtirish va akkreditlash natijalari bo'yicha appelyatsiyalarni ko'rib chiqadi;

- O'z SMT davlat reestri asosida sertifikatlashtirish bo'yicha ma'lumotlarni chop etadi va manfaatdor tomonlarning undan bema'lol foydalanishlarini ta'minlaydi.

## **7.2. Sertifikatlashtirishda qatnashuvchi idoralarning vazifalari.**

### **Bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish idoralari**

Bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish bo'yicha akkreditlagan idoralar quyidagi vazifalarni amalga oshirishadilar:

Muayyan turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibini ishlab chiqadi;

- bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish (BMC) tizimida sertifikatlashtirilishi kerak bo'lgan muayyan turdagi mahsulotlarni aniqlashda ishtirok etish;

- Muayyan turdagi mahsulotni sertifikatlashtirishi o'tkaziladigan me'yoriy hujjatlar fondini aniqlash va yuritish;

- Sertifikatlashtirishni tashkil qilish va o'tkazish;

- Muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish, berish va tan olish;

- Sertifikatlashtirilgan mahsulotlarning reestrini yuritish;

- Berilgan mahsulotni sertifikatlashtirish natijalari haqida ma'lumot berish;

- O'z DST 51-032 standartida o'rnatilgan tartib asosida sertifikatlashtirish ishlarining mehnat sarfi va qiymatining hisob-kitob me'yorlarini aniqlash;

- Sertifikatlashtirilgan mahsulot ustidan inspeksion nazorat o'tkazish.

Mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, O'z SMT qoidalarini bajarayotgan va O'z DST 5.2 standarti talablariga javob beruvchi tashkilotlar sertifikatlashtirish bo'yicha idoralar sifatida akkreditlanishi ham mumkin.

### **Akkreditlangan sinash laboratoriyalari**

Akkreditlangan sinash laboratoriyalari (markazlari) O'z SMTda quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshirishadi:

- Mahsulotni sertifikatlashtirish bo'yicha sinovlarni o'tkazish va sinov dalolatnomalarini berish;

- Sertifikatlashtirilgan mahsulot namunalari, agar bu sertifikatlashtirish tartibida nazarda tutilgan bo'lsa, inspeksion (tekshirish) sinovlarini o'tkazish;

- Sifat tizimlari va ishlab chiqarishlarni sertifikatlashtirishda (sinovlarni o'tkazishning to'g'riligi borasida) ishtirok etish;


Sinash laboratoriyalari (markazlari) sifatida «O'z standart» agentligi va uni hududiy idoralarning laboratoriyalari, ilmiy-tekshirish va konstruktorlik tashkilotlarining sinov markazlari, boshqa laboratoriyalar va mulkchilik ixtiyoriy shaklidagi markazlar akkreditlanishi mumkin. Sinov laboratoriyaning tashkiliy tuzilmasi 7.2.1-rasmda "Sinov markazi" MCHJ (misolida) keltirilgan.

### **Sifat tizimlari va ishlab chiqarishlarni sertifikatlashtirish idoralari**

Sifat tizimlari va ishlab chiqarishlarni sertifikatlashtirish bo'yicha akkreditlangan idoralar quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshirishadi:

- Sifat tizimlarini dastlabki baholashini o'tkazadi va sertifikatlashtirishni o'tkazish uchun kontraktlar tuzadilar;

- ishlab chiqarishlarni sertifikatlashtirish usuliyatlarini va sifat tizimlarini tekshirish dasturlarini ishlab chiqadilar;
- sifat tizimi yoki ishlab chiqarishning auditini o'tkazadi;
- sifat tizimi yoki ishlab chiqarish sertifikatlarini rasmiylashtiradi, sertifikatni beradi va tan oladilar;
- sertifikatlashtirilgan sifat tizimlari va ishlab chiqarishlar ustidan inspeksion nazoratni amalga oshiradilar;
- sertifikatlashtirish natijalari haqida ma'lumot beradilar.



**7.2.1-rasm. Sinov laboratoriyasining tashkiliy sxemasi  
“Sinov Markazi” MChJ (misolida)**

Sifat tizimlari va ishlab chiqarishlarni sertifikatlashtirish bo'yicha idoralar sifatida «O'zstandart» agentligining hududiy idoralari, Standartlar instituti, bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish bo'yicha idoralar va boshqa ishlab chiqaruvchi va iste'molchilarga tobe bo'lmagan va belgilangan talablarga javob beradigan boshqa tashkilotlar akkreditlanishi mumkin.

### **Nazorat idoralari**

O'z SMTda Nazorat idoralari quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshiradilar:

- Sertifikatlashtirilgan mahsulot va sertifikatlashtirish qoidalariga rioya qilish ustidan nazorat o'tkazish;
- Sertifikatlashtirish bo'yicha idoralari va sinash laboratoriyalari (markazlari) ustidan nazorat o'tkazish;
- Buyurtmachilarning buyurtmalariga muvofiq ob'ektlarni tahlil qilish va baholash hamda to'g'rilovchi tadbirlarini nazorat qilish;

- Nazorat natijalari bo'yicha appelyatsiyalarni ko'rib chiqish.

Bunday idoralar sifatida "O'zstandart" agentligining maxsus vakolatiga ega bo'lgan tashkilotlari, boshqarishning boshqa davlat idoralari, shuningdek, sertifikatlashtirish bo'yicha idoralarning bo'limlari va O'z DSt 5.4 standartida o'atilgan talablarga javob beruvchi boshqa tashkilotlar akkreditlanishi mumkin.

### 7.3. Sertifikatlashtirish ob'ektlari va sub'ektlari.

O'zbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish milliy tizimida sertifikatlashtirishning quyidagi ob'ektlari mavjud:

- Mahsulotlar;
- Jarayonlar;
- Sifat tizimlari va ishlab chiqarishlar;
- Xizmatlar;
- Xodimlar.

O'zbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish milliy tizimida sertifikatlashtirishda quyidagi sub'ektlari mavjud:

- Bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish bo'yicha idoralari;
- Sifat tizimlari va ishlab chiqarishlarni sertifikatlashtirish idoralari;
- Sinov laboratoriyalari;
- Ekspert-auditorlar.

O'zbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish milliy tizimida sertifikatlashtirish ob'ektlari va sub'ektlari O'z DSt 5.0-98 O'z SMT. Asosiy qoidalar standartiga muvofiq ro'yxatga olinadi. Ushbu standartga asosan O'z SMT da quyidagi Reestrlarni yuritish amalga oshiriladi:

- Bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish bo'yicha akkreditlangan idoralar;
- Sifat tizimlari va ishlab chiqarishlarni sertifikatlashtirish bo'yicha akkreditlangan idoralari;
- Akkreditlangan sinov laboratoriyalari (markazlari);
- Attestatlangan ekspert-auditorlar;
- Sertifikatlashtirilgan mahsulotlar;
- Sertifikatlashtirilgan sifat tizimlari va ishlab chiqarishlar;
- Bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirishning ro'yxatga olingan tizimlari.

O'z SMT Davlat reestrini yuritish qoidalari O'z RH 51-021 O'z SMT. Davlat reestrini olib borish tartibi rahbariy hujjatida belgilangan. Sertifikatlashtirish bo'yicha milliy idora davlat reestrining me'yorlarini, shuningdek, sertifikatlashtirish bo'yicha idoralar va tizimning boshqa ishtirokchilaridan olingan axborotlarni nashr qilib boriladi.

Sertifikatlashtirish, akkreditlash va tekshirish o'tkazish bo'yicha harajatlarni O'z RH 51-032 O'z SMT. Ishlar haqini to'lash tartibi rahbariy hujjatida o'atilgan tartib bo'yicha shartnoma orqali so'rovchilar to'lashadi.

## **Nazorat savollari**

1. O'zbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish milliy tizimi tashkiliy tuzilmasini tushuntiring.
2. Sertifikatlashtirish idoralarining vazifalarini nimalardan iborat?
3. Sertifikatlashtirish idoralarining faoliyati va vazifalari nimalardan iborat?
4. Sertifikatlashtirish milliy idorasi – «O'zstandart» agentligi O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq qaysi vazifalarni amalga oshiradi?
5. Sertifikatlashtirish idoralarini akkreditlash va ularga qo'yilgan talablarni tushuntiring.

## **8-mavzu. O'zbekiston Respublikasida maxsulotlarni sertifikatlashtirish tartibi**

### **8.1. Maxsulotlarni sertifikatlashtirish qoidalari va tartibi.**

#### **8.1. Maxsulotlarni sertifikatlashtirish qoidalari va tartibi.**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 6-iyuldagi 318-sonli "Mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibotini soddalashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorining 6-bandiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish Milliy tizimida respublikada ishlab chiqariladigan va chetdan keltiriladigan mahsulotni sertifikatlashtirishga tayyorlash va o'tkazishga umumiy talablarni belgilash maqsadida sertifikatlashtirish qoidalari va tartibi ishlab chiqilgan. Ushbu tartib-qoidalar "O'zstandart" agentligining 2005 yil 25 fevraldagi №59-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan hamda Adliya Vazirligi tomonidan 2005 yil 18-martda №1458 son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan. Mahsulotlarni, shu jumladan dasturiy va boshqa ilmiy-texnikaviy mahsulotlarni sertifikatlash mazkur me'yoriy xujjatda keltirilgan qoidalarga muvofiq amalga oshiriladi.

Mahsulotlarni sertifikatlashni tashkil qilish va o'tkazish ishlari belgilangan tartibda akkreditsiya qilingan sertifikatlashtirish organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Bojxona rasmiylashtiruvida O'zbekiston Respublikasi bojxona organi muvofiqlik sertifikatining amal qilish muddatini, shuningdek, muvofiqlik sertifikatida ko'rsatilgan tovarning nomini haqiqatda olib kelingan tovarning nomi bilan tekshiradi.

Sertifikatlashning alohida sxemalari mahsulotlarni sertifikatlash bo'yicha tegishli qoidalarida va mahsulotlarga talablarni o'z ichiga olgan boshqa normativ hujjatlarda belgilanadi. Bunda tekshirishlar hajmiga qarab sertifikatlashtirish sxemasining murakkabligi, mahsulotning xavfsizlik darajasiga bog'liq holda aniqlanadi. O'zbekiston sertifikatlashtirish milliy tizimida qo'llaniladigan, sertifikatlashning tavsiya etiladigan sxemalari 8.1-jadvalda keltirilgan.

Har bir muayyan holatda sertifikatlashtirish organlari arizachining taklifini, yetkazib beriladigan mahsulot hajmi va muddatini, sinash usullarini, ishlab chiqarishning o'ziga xos xususiyatlarini va uning barqarorligining buzilish xavfi mavjudligini, shuningdek mazkur mahsulotning iste'molchilar uchun potensial xavfini hisobga olgan holda sertifikatlash sxemasini tanlaydi.

Sertifikatlashtirishda, mahsulot muvofiqligini tasdiqlanishi lozim bo'lgan xususiyatlar (ko'rsatkichlar) ro'yxati, tekshirish va sinash usullari keltirilgan, sertifikatlashtiriladigan mahsulotga me'yoriy hujjatlar (MH)da belgilangan talablarga mos ekanligi tasdiqlanadi.

MHda sertifikatlashtirish sinovlari to'g'risida bo'lim keltirilmagan yoki davlatlararo standartlarni qo'llanishi ko'rsatilmagan bo'lsa, u holda sertifikatlashtirish organlari me'yoriy hujjatda yoki xalqaro standartlarda ko'rsatilgan tavsiflar majmuidan birinchi navbatda xavfsizlik bo'yicha talablarni belgilovchi ko'rsatkichlarni tanlaydi. Sertifikatlashtirishda, muayyan mahsulot uchun MHdan tashqari, mahsulotning majburiy talablarini belgilovchi me'yoriy-huquqiy hujjatlarga va boshqa rasmiy nashr etilgan MH larga ham amal qilish lozim.

Mahsulot sinovlarini o'tkazishda, takrorlashga yo'l qo'ymaslik maqsadida, akkreditlangan sinov laboratoriyalari boshqa akkreditlangan sinov laboratoriyalarida o'tkazilgan sinov natijalarini o'zaro tan olishlari lozim.

Sertifikatlashtirish ishlariga haq to'lash, arizachi tomonidan muvofiqlikni baholash ishlari natijalaridan qat'iy nazar, qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Bunda, sertifikatlashtirish ishlari to'lov oldindan amalga oshirilgandan so'ng bajariladi.

### **Sertifikatlashtirishni o'tkazish tartibi**

O'z SMTda mahsulotlarni sertifikatlash quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- sertifikatlashtirish organlariga sertifikatlash yuzasidan ariza berish va uni ko'rib chiqish;
- taqdim etilgan mahsulot MH va arizaga ilova qilgan boshqa hujjatlarni tahlil qilish;
- ariza bo'yicha qaror qabul qilish;
- sinov dasturini tayyorlash va tasdiqlash (6 va 9-sxemalardan tashqari);
- namunalarni identifikatsiya qilish, tanlab olish va laboratoriyaga yetkazish (6 va 9-sxemalardan tashqari);
- namunalarni akkreditlangan sinov laboratoriyada sinovdan o'tkazish (6 va 9-sxemalardan tashqari);
- mahsulotni ishlab chiqarish sharoitlarini baholash (sertifikatlashning 3, 4 va 5-sxemalari uchun);
- sifat tizimini baholash (5 va 6-sxemalari uchun);
- mahsulotning muvofiqligini deklaratsiyalash (9-sxema);
- olingan natijalarni tahlil qilish, muvofiqlik sertifikatini berish yoki uni berishni rad etish;

- muvofiqlik sertifikatini O'zR SMT Davlat reyestrda ro'yxatga olish.

Taqdim etilgan mahsulot uchun MHda sanitariya-epidemiologiya, veterinariya, fitosanitariya yoki ekologik talablar mavjud bo'lganda, sertifikatlashtirish organlari sanitariya-epidemiologiya va veterinariya ekspertizalarini, fitosanitariya nazorati yoki ekologik ekspertizadan o'tkazish zarurligini aniqlaydi. Mazkur amallar sertifikatlashtirish sinovlari bilan bir vaqtning o'zida o'tkazilishi mumkin va arizachiga muvofiqlik sertifikatini berishdan avval, bu amallar tegishli hujjatlarni taqdim etilishi bilan tugallanishi lozim.

Sertifikatlashtirish organlari tadbirkorlik subyektlarining yozma arizasiga muvofiq, sertifikatlashtirishni o'tkazishda davlat sanitariya nazorati idoralaridan, davlat veterinariya nazorati idoralaridan va o'simliklar karantini bo'yicha davlat idoralaridan, shuningdek tabiatni muhofaza qilish davlat idoralaridan barcha zarur xulosalarni olishga oid agentlik xizmatlarini ko'rsatishga haqlidir. Bunda namunalarni to'g'ri tanlab olinganligi va ularni tegishli davlat idoralariga taqdim etilishida javobgarlik sertifikatlashtirish organlariga yuklatiladi.

Sertifikatlashtirish organi arizachining talabiga muvofiq, quyidagi axborotlarni tayyorlashi va taqdim etishi lozim:

- majburiy tartibda sertifikatlanadigan mahsulot turlari ro'yxati yoki bu ro'yxatdan ko'chirma;

- sertifikatlashtirish organlarining akkreditatsiya doirasi bo'yicha mahsulotni sertifikatlashtirish qoidalari;

- sertifikatlashtirish xizmatlari bo'yicha xizmatlariga haq to'lash preyskuranti (tariflari);

"O'zstandart" agentligi tomonidan berilgan akkreditatsiya guvohnomasi.

Mahsulotni O'z SMTda sertifikatlashtirishni o'tkazish uchun arizachi tegishli sertifikatlashtirish organiga ariza yuboradi.

Arizachi mahsulotni sertifikatlashtirish organi va sertifikatlash qoidalari to'g'risida ma'lumotga ega bo'lmagan taqdirda, bu to'g'risidagi ma'lumotlarni sertifikatlashtirish bo'yicha Milliy idoradan yoki uning hududiy idorasidan olishi mumkin.

Chetdan keltiriladigan mahsulotni sertifikatlashtirishda quyidagi hujjatlar taqdim etilishi lozim:

- ishlab chiqariladigan mahsulotga me'yoriy hujjat nusxasi (amalda bor bo'lgan taqdirda);

- mahsulot yorlig'idan namuna yoki mahsulot to'g'risida ma'lumot;

- mahsulotning O'zbekiston Respublikasi bo'yxonasi hududiga kelganligi to'g'risidagi belgi qo'yilgan tovarga qo'shib jo'natiladigan hujjat nusxasi (tovar-transport yuk xati, invoys, hisob-faktura);

- amalda bor bo'lgan taqdirda, davlat sanitariya nazorati idorasining laboratoriyasida o'tkazilgan sinovlarning natijalarini o'z ichiga olgan sanitariya-epidemiologiya xulosasi va sinov bayonnomalari, MHda belgilangan boshqa talablar (veterinariya va fitosanitariya xulosalari, ekologik ekspertiza);

- olib kirilayotgan mahsulotning aniq hajmi (soni) ko'rsatilgan tashqi savdo shartnomasi (kontrakti) va mahsulotni yetkazib beruvchi hamda qabul qiluvchi o'rtasida tuzilgan kelishuv(lar) nusxasi (mahsulotlarni 7A sxemasi asosida sertifikatlashtirilganda).

Agar arizachi ayni vaqtda sanitariya-epidemiologiya xulosasini va muvofiqlik sertifikatini olishga ariza bergan bo'lsa, bunday holda sanitariya-epidemiologiya xulosasining nusxasi uni belgilangan tartibda rasmiylashtirgandan keyin beriladi.

Majburiy tartibda sertifikatlashtiriladigan, chetdan keltirilgan mahsulotga respublikada MH mavjud bo'lmagan taqdirda, sifat ko'rsatkichlari va xavfsizlik bo'yicha sertifikatlash sinovlari o'xshash turdagi mahsulotga bo'lgan talablarga muvofiq amalga oshiriladi.

Arizachi tomonidan chetdan keltirilgan mahsulotga zarur bo'lgan MH yoki xavfsizlik bo'yicha texnik tavsiflar taqdim etilmasa, mazkur mahsulotni sertifikatlash o'xshash turdagi mahsulot hujjatlari bo'yicha yoki identifikatsiya qilish orqali sanitariya-epidemiologiya xulosasi asosida amalga oshiriladi.

MHga ega bo'lmagan, sanitariya-epidemiologiya xulosasi talab etilmaydigan, shuningdek, sinovlarni amalga oshirish uchun akkreditlangan sinov laboratoriya mavjud bo'lmagan taqdirda mahsulotlarni sertifikatlash identifikatsiya yo'li bilan o'tkaziladi.

Ishlab chiqariladigan mahsulotni sertifikatlash uchun quyidagi hujjatlar taqdim etishi lozim:

- ishlab chiqariladigan mahsulotga MH nusxasi;
- mahsulot yorlig'ining namunasi (mahsulot to'g'risida axborot);
- amalda bor bo'lgan taqdirda, davlat sanitariya nazorati idorasining laboratoriyasida o'tkaziladigan sinovlarning natijalarini o'z ichiga olgan sanitariya-epidemiologiya xulosasi va MH da belgilangan boshqa talablar to'g'risidagi ma'lumotlar (veterinariya va fitosanitariya xulosalari, ekologik ekspertiza).

Agar arizachi ayni vaqtda sanitariya-epidemiologiya xulosasi va muvofiqlik sertifikatni olishga ariza taqdim etgan bo'lsa, bunday holda sinov bayonnomalari bilan sanitariya-epidemiologiya xulosasi nusxasi uni belgilangan tartibda rasmiylashtirgandan so'ng beriladi.

Arizada ko'rsatilgan mahsulotni sertifikatlash uchun ariza berilgan paytda akkreditlangan sertifikatlashtirish organi mavjud bo'lmagan taqdirda, ariza sertifikatlashtirish bo'yicha Milliy idoraga yoki uning hududiy organiga sertifikatlash ishlarini tashkil etish va sertifikatlash sinovlari o'tkaziladigan akkreditlangan sinov laboratoriyalarni aniqlash uchun yuboriladi.

Ariza berilgandan so'ng sertifikatlashtirish organi uni ko'rib chiqib, taqdim etilgan hujjatlarni tahlil qiladi va arizani olgandan keyin ikki kundan kechiktirmay, arizachiga mahsulotlarni sertifikatlashning belgilangan tartibiga asoslanadigan sertifikatlashtirishning barcha asosiy shartlari, shu jumladan sertifikatlashtirish sxemasi va sertifikatlashtirishni amalga oshirish uchun MH,

sinovlarni o'tkazadigan akkreditlangan sinov laboratoriyasi ko'rsatilgan qarorni ma'lum qiladi.

Mahsulotga (transport vositalaridan tashqari) muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish va berish muddati barcha zarur bo'lgan hujjatlarni taqdim etilgan paytdan boshlab (sinov bayonnomalari, ishlab chiqarishni baholash dalolatnomasi, sanitariya-epidemiologiya, veterinariya, fitosanitariya, xulosalarni yoki ekologik ekspertizani) uch ish kunidan oshmasligi kerak.

Sertifikatlashtirishda MFHning barcha talablarini tekshirish zarurligini sertifikatlashtirish organi har bir muayyan holda, o'zidagi qo'shimcha hujjatlarni (sifat tizimiga yoki ishlab chiqarishga sertifikat, vakolatli tashkilotlarda o'tkazilgan sinov bayonnomalari, sanitariya-epidemiologiya, veterinariya, fitosanitariya xulosalari, ekologik ekspertiza, yetkazib beruvchining texnik hujjatlari va boshqalar)ni hisobga olib aniqlaydi. Bunda, sanitariya-epidemiologiya xulosalarini sertifikatlashtirish organiga taqdim etishda, unga davlat sanitariya nazorati idorasida bajarilgan sinov bayonnomalari bilan birga berilishi lozim.

Agar qo'shimcha hujjatlarda akkreditlangan sinov laboratoriyada muayyan ko'rsatkichlar bo'yicha o'tkazilgan sinovlarning natijalari mavjud bo'lsa, u holda sertifikatlashtirish organi bu natijalardan qo'shimcha sinovlarsiz muvofiqlikni baholashda foydalanishi mumkin. Bunda sinovlarning o'tkazilgan vaqti hisobga olinib, ushbu muddat mahsulot MH bo'yicha yaroqlilik muddatidan oshmasligi kerak.

Sertifikatlashtirishni o'tkazish uchun mahsulot namunalari tanlab olish va identifikatsiya qilish ariza berilgandan ikki kundan kechiktirilmagan muddatda sertifikatlashtirish organi tomonidan joyiga chiqqan holda amalga oshiriladi. Namunalarning miqdori, tanlab olish, identifikatsiya qilish va saqlash tartibi majburiy tartibda sertifikatlanadigan mahsulotning MHda, shu jumladan sinash metodlarida belgilanadi.

Sertifikatlashtirishga taqdim etilgan mahsulot namunalari tanlab olishda identifikatsiya qilish amali, mahsulotni sertifikatlash qoidalariga muvofiq namunalarni identifikatsiya qilish va tanlab olish dalolatnomasini rasmiylashtirgan holda amalga oshiriladi.

Agar identifikatsiya natijalariga ko'ra arizachi tomonidan taqdim etilgan namunalar MH talablariga nomuvofiq yoki sertifikatlashtiriladigan mahsulot turi belgilangan namunada emasligi ma'lum bo'lsa, namunalar tanlab olinmaydi va arizachiga asoslangan rad javobi beriladi.

Ishlab chiqariladigan mahsulot namunalari tanlab olish va identifikatsiya qilish dalolatnomasi ikki nusxada rasmiylashtiriladi va ularning bittasi arizachiga beriladi.

Bojxona saqlanayotgan import tovarlarni sertifikatlashtirish uchun namunalarni tanlab olish sertifikatlashtirish organi tomonidan, bojxona organining mansabdor shaxsi va tovar egasi yoki uning vakili ishtirokida o'tkaziladi. Bunda sertifikatlashtirish organi vakili tomonidan namunalarni

identifikatsiya qilish va tanlab olish to'g'risidagi dalolatnoma uch nusxada tuziladi va ikkinchi nusxasini bojxona idorasiga taqdim etiladi.

Arizachi, shuningdek sertifikatlashtirish organiga mahsulotni yaratish va ishlab chiqarishni tashkil etishda o'tkazilgan sinov bayonnomalarini yoki O'zbekiston Respublikasining akkreditlash tizimidan akkreditlangan yoki tan olingan mahalliy yoki xorijdagi sinov laboratoriyalari tomonidan amalga oshirilgan sinovlar to'g'risidagi hujjatlarini taqdim etishi mumkin.

Namunalarning sinovi sifati va natijalarning haqqoniyligiga, shuningdek, sinov bayonnomalarining saqlanishiga sinovlarni amalga oshirgan akkreditlangan sinov laboratoriya mas'ul hisoblanadi. Sinov bayonnomalari sinovlarni bajarish bo'yicha vakolatli mutaxassislar tomonidan imzolanadi va akkreditlangan sinov laboratoriya rahbari tomonidan tasdiqlanadi. Sinov bayonnomalari arizachiga va sertifikatlashtirish organiga taqdim etiladi. Agar mahsulotning sinovlari alohida parametrlar bo'yicha turli akkreditlangan sinov laboratoriyada o'tkazilgan bo'lsa, u holda mahsulotning belgilangan talablarga muvofiqligi bo'yicha sinov natijalarining ijobiyligi, barcha ijobiy bayonnomalarning mavjudligi hisoblanadi.

Sinovlarning salbiy natijalari, shuningdek hujjatlar to'plami to'liq taqdim etilmagan taqdirda, sertifikatlashtirish organi arizachiga qonunchilikning aniq normalarini ko'rsatgan holda muvofiqlik sertifikatini berishni rad etganligi to'g'risida xulosa beradi.

Agar chetdan keltirilgan mahsulotning sifat va xavfsizlik talablari tasdiqlanmagan taqdirda sertifikatlashtirish organi rasmiy ravishda murojaatchiga va Davlat bojxona qo'mitasiga ushbu tovarni nomuvofiq ekanligi to'g'risida xulosa taqdim etadi.

Sinash davrida butunlay yoki qisman buzilgan, shuningdek sinash davrida buzilmagan mahsulot bo'yicha hisobdan chiqarilganligi (qaytarib berilganligi) to'g'risidagi dalolatnoma murojaatchi (yoki uning vakili) ishtirokida tuziladi.

Ishlab chiqarish sharoitlarini o'rganish muddati namunalar tanlab olingan paytdan boshlab 10 kundan oshmasligi kerak. Ishlab chiqarish sharoitlarini o'rganish to'g'risidagi ma'lumotlar muvofiqlik sertifikatida keltiriladi.

Sertifikatlash organi sinov bayonnoma(lari), ishlab chiqarish sharoitlarini baholash va arizachi tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni ko'rib chiqqandan keyin, muvofiqlik sertifikatini beradi yoki berishni rad etadi.

Muvofiqlik sertifikati blanki raqamlangan, himoya qilish darajasiga ega, javobgarligi belgilangan hujjat hisoblanadi. Muvofiqlik sertifikati blanki 8.1-ilovaga muvofiq tayyorlanadi va "O'zstandart" agentligi tomonidan beriladi.

Muvofiqlik sertifikati:

- chetdan keltirilgan mahsulotga — mahsulotning yaroqlilik muddatiga;
- bitta tashqi savdo shartnomasi (kontrakti) doirasida chetdan keltirilgan mahsulotga — bir kalendar yilidan oshmagan muddatga;
- seriyalab ishlab chiqariladigan mahsulotga esa — 3 yil muddatga beriladi.

Muvofiqlik sertifikatini bir xil nomdagi yoki o'xshash mahsulotlar guruhiga beriladi va uning amal qilishi haqiqatda O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kiritilgan mahsulotlarning miqdoriga taalluqli bo'ladi, lekin muvofiqlik sertifikatida ko'rsatilgan miqdordan ko'p emas (bunda, bitta tashqi savdo shartnomasi (kontrakti) doirasida — mahsulotning modeli, turi, artikuli va (yoki) boshqa identifikatsiya belgilarini ko'rsatgan xolda shartnoma bo'yicha chetdan keltirilgan mahsulotning hajmi (soni)).

Berilgan muvofiqlik sertifikatini asosida, belgilangan sertifikatlashtirish sxemasini hisobga olgan holda, arizachiga muvofiqlik sertifikatini qo'llash va muvofiqlik belgisidan foydalanish huquqini berish to'g'risida bitim tuziladi. Mazkur bitimda sertifikatlashtirilgan mahsulotni muvofiqlik belgisi bilan tamg'alash usuli va inspeksiya nazoratining shartlari kelishib olingan bo'lishi kerak.

Muvofiqlik sertifikatini amalda bo'lgan davrda ishlab chiqarilgan mahsulot sertifikatlashtirilgan deb hisoblanadi va qayta sertifikatlashtirilmaydi. Mahsulot sertifikatlashtirilganligini tasdiqlovchi asos sifatida muvofiqlik belgisi va mahsulotga qo'shib yuboriladigan va ekspluatatsiya hujjatlardagi ishlab chiqarish sanasi xizmat qiladi.

Ishlab chiqarilayotgan mahsulotga berilgan muvofiqlik sertifikatining amal qilish muddati tugashidan kamida bir oy oldin, arizachi ishlab chiqarilayotgan mahsulotni qayta sertifikatlashtirish maqsadida sertifikatlash organiga ariza berish huquqiga ega. Bunda sertifikatlash organi inspeksiya nazoratining natijalarini hisobga olib, sertifikatlashtirish sxemasini o'zgartirishi *mumkin*.

Seriya ishlab chiqariladigan mahsulotga muvofiqlik sertifikatini bergan sertifikatlash organi bir yilda kamida bir marotaba mahsulotning sertifikatlashtirishda belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlash maqsadida, sertifikatlashtirilgan mahsulot ustidan inspeksiya nazoratini o'tkazadi. Inspeksiya nazoratida sertifikatlashtirishning sxemasiga qarab, mahsulotning sinovi va/yoki ishlab chiqarish sharoitlarini baholash amalga oshiriladi. Inspeksiya nazorati natijalari bo'yicha muvofiqlik sertifikatining amal qilishi va muvofiqlik belgisini qo'llash tasdiqlanishi, to'xtatilishi yoki bekor qilinishi *mumkin*.

Sertifikatlash organi sertifikatning amal qilishini to'xtatilganligi yoki bekor qilinganligi va muvofiqlik belgisining arizachi tomonidan qo'llanilishi to'g'risida tayyorlovchini va SMI'ni xabardor qilishi shart.

SMI tegishli davlat boshqaruv idoralariga va ommaviy axborot vositalariga bekor qilingan sertifikatlar to'g'risida ma'lumot berish zarurligini aniqlaydi.

### **Sertifikatlashtirish sxemalarini qo'llanilishi**

1-sxema mahsulot turini sertifikatlashtirishda qo'llaniladi va mahsulotni majburiy ko'rsatkichlari birinchi navbatda xavfsizlik bo'yicha akkreditlangan

sinov laboratoriyada sinashni nazarda tutadi. Mazkur sxema mahsulotga aniq MH mavjud bo'lmagan taqdirda ham qo'llaniladi.

2- sxema mahsulot turini sertifikatlashda qo'llaniladi va mahsulotni majburiy ko'rsatkichlari bo'yicha akkreditlangan sinov laboratoriyada sinashni nazarda tutadi. Mazkur sxema savdo nuqtalaridan (iste'molchidan) olingan namunalarni sinovlardan o'tkazish yo'li bilan mahsulotni inspeksiya nazoratidan o'tkazishni nazarda tutadi.

3-sxema ishlab chiqariladigan mahsulotni sertifikatlashtirishda qo'llaniladi va majburiy ko'rsatkichlarni tekshirish uchun mahsulotni akkreditlangan sinov laboratoriyada sinashni va ishlab chiqarishni baholashni nazarda tutadi. Mazkur sxemada korxonada mahsulotlarni sinovlardan o'tkazish yo'li bilan mahsulotni inspeksiya nazoratidan o'tkazishni nazarda tutadi.

4-sxema ishlab chiqariladigan mahsulotni sertifikatlashtirishda qo'llaniladi va majburiy ko'rsatkichlarni tekshirish uchun mahsulotni akkreditlangan sinov laboratoriyada sinashni va ishlab chiqarish sharoitlarini baholashni nazarda tutadi.

Mazkur sxemada, savdo nuqtasidan (iste'molchidan) yoki ishlab chiqarishdan olingan namunalarni sinovlardan o'tkazish yo'li bilan mahsulotni, inspeksiya nazoratini o'tkazish nazarda tutilgan.

5-sxema ishlab chiqariladigan mahsulotni sertifikatlashtirishda qo'llaniladi va majburiy ko'rsatkichlarni tekshirish uchun mahsulotni akkreditlangan sinov laboratoriyada sinashni va ishlab chiqarish sharoitlarini baholashni yoki sifat tizimini baholashni nazarda tutadi. Mazkur sxemada mahsulotni sinovlardan o'tkazish va ishlab chiqarishni tekshirish (yoki sifat tizimini baholash) yo'li bilan inspeksiya nazoratini o'tkazish nazarda tutilgan.

6-sxema sifat tizimini sertifikatlashtirishda qo'llaniladi va uni baholashni hamda keyinchalik inspeksiya nazoratini o'tkazishni nazarda tutadi.

7-sxema mahsulot to'pining sertifikatlashtirishda qo'llaniladi va mahsulotni sinashni nazarda tutadi.

7A-sxema bitta tashqi savdo shartnomasi (kontrakti) doirasida keltirilgan mahsulotni (transport vositalaridan tashqari) sertifikatlashtirishda qo'llaniladi va mahsulotni akkreditlangan sinov laboratoriyada majburiy ko'rsatkichlar bo'yicha sinashni nazarda tutadi.

8-sxema har bir mahsulotni (buyum) sertifikatlashtirishda qo'llaniladi.

9-sxema mahsulotni sertifikatlashtirishda qo'llaniladi va mahsulotning xavfsizlik talablariga muvofiqligini deklaratsiya qilishni nazarda tutadi.

| Sxema<br>raqami | Akkreditatlangan sinov<br>laboratoriyalarining<br>sinovi yoki muvofiqlikni<br>baholashning boshqa<br>dalili | Ishlab chiqarish<br>sharoitlarini<br>baholash yoki sifat<br>tizimini baholash | Sertifikatlangan<br>mahsulot ustidan<br>inspeksiya nazorati<br>(Sifat tizimini)               |
|-----------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1.              | Mahsulot turining sinovi                                                                                    | —                                                                             | —                                                                                             |
| 2.              | Mahsulot turini sinovdan<br>o'tkazish                                                                       | —                                                                             | Savdodan<br>(iste'molchidan) olingan<br>namunalarning sinovi                                  |
| 3.              | Mahsulot turini sinovdan<br>o'tkazish                                                                       | Ishlab chiqarishni<br>baholash                                                | Ishlab chiqaruvchidan<br>olingan namunalarni<br>sinash                                        |
| 4.              | Mahsulot turini sinovdan<br>o'tkazish                                                                       | Ishlab chiqarishni<br>baholash                                                | Savdo (iste'molchidan)<br>va ishlab chiqarishdan<br>olingan namunalarni<br>sinovdan o'tkazish |
| 5.              | Mahsulot turini sinovdan<br>o'tkazish                                                                       | Ishlab chiqarishni<br>baholash yoki sifat<br>tizimini baholash                | Namuna sinovi va sifat<br>tizimini baholash (ishlab<br>chiqarishni o'rganish)                 |
| 6.              | —                                                                                                           | Sifat tizimini<br>baholash                                                    | Boshqaruv tizimining<br>holatini baholash                                                     |
| 7.              | Mahsulot to'pini sinovdan<br>o'tkazish                                                                      | —                                                                             | —                                                                                             |
| 7A.             | Mahsulot to'pini sinovdan<br>o'tkazish                                                                      | —                                                                             | —                                                                                             |
| 8.              | Har bir namunani sinash                                                                                     | —                                                                             | —                                                                                             |
| 9.              | Muvofiqlik bo'yicha<br>deklaratsiya va unga ilova<br>qilingan hujjatlarni ko'rib<br>chiqish                 | —                                                                             | —                                                                                             |

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SERTIFIKATLASHTIRISH MILLIY TIZIMI**  
(Sertifikatlashtirish idorasi nomi, manzili, Davlat reestrtdagi raqami)

№

**MUVOFIQLIK SERTIFIKATI**

(milliy muvofiqlik belgisi)

Davlat reestrtda  
ro'yxatga olingan  
Amal qilish muddati

yildan son bilan

yilgacha

TIF TN kodi

(ma'lumot uchun)

(tashkilot nomi, ishlab chiqaruvchi  
mamlakat)

Ushbu sertifikat tegishli ravishda  
identifikatsiyalangan mahsulot:

(nomi, turi, xili,  
rusumi)

(miqdori yoki seriyali ishlab chiqarilishi)

normativ hujjat talablariga muvofiqligini tasdiqlaydi.

Sertifikatlashtirish sxemasi:

Murojaatchi (ishlab  
chiqaruvchi, sotuvchi):

(keraklisi tagiga chizilsin)

(amaldagi va yuridik  
manzili)

Sertifikat quyidagilarga asosan beriladi:

a) hujjatlar

b) namunalar sinovi

v) ishlab chiqarishni tekshirish dalolatnomasi

Inspeksion nazoratni davriylik bilan amalga  
oshiradi.

Alohida yozuvlar.

Muvofiqlik belgisi qo'yiladi:

Sertifikatlashtirish organi

(imzo)

(F.I.Sh.)

rahbari

Ekspert

(imzo)

(F.I.Sh.)

**Nazorat savollari**

1. Muvofiqlik sertifikatlar qancha muddatga beriladi
2. Sertifikatlashtirishning nechta sxemasi mavjud?
3. 8- sxemaning ma'nosi nima?
4. Sifat tizimini baholash qaysi sxemalar orqali amalga oshiriladi?

## **9-mavzu. Muvofiqlikni tasdiqlash va baholash uchun mahsulotni sinash**

9.1. Sertifikatlashtirishda mahsulotni sinash.

9.2. Sertifikatlashtirish natijalarini rasmiylashtirish.

9.3. Sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni davlat ro'yxatiga olish.

### **9.1. Sertifikatlashtirishda mahsulotni sinash.**

Amaldagi hamma sertifikatlashtirish tartibida mahsulotning nazoratli sinovlarini o'tkazishga asoslangan, uning belgilangan me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiqligi aniqlanadi. Tizim qoidalariga binoan sinovlarning korxonani o'zida mahsulotni tayyorlash jarayonida hamda iste'molchiga yuborishdan oldin o'tkaziladi. Bundan tashqari odatda sertifikatlashtirish doirasida sertifikatlashtirilgan mahsulotning sifatini barqarorligi uchun nazoratli tekshiruvni vaqti-vaqti bilan o'tkaziladi.

Sertifikatlashtirish uchun o'tkaziladigan sinovlar tartibi (9.1.1-rasm), ba'zan uni sertifikatlashtirish sinovlari ham deb atalib, amaliy har qanday sinovlarga xos bo'lgan, mahsulotning sanoatda, ishlab chiqarishda ko'p yillar ichida shakllangan umumiy qoidalariga bo'ysunadi. Lekin sertifikatlashtirish sinovlarini tashkil qilish va o'tkazish uslubi o'ziga xos xususiyatlariga ega.

Har bir sinov va uning natijalari uchunchi tomon tarafidan sertifikatlashtirish uchun ishlatilishi ko'zda tutilib, faqat sertifikatlashtirish idorasi tomonidan mahsulotning sinovlarini o'tkazish uchun xuquqli akkreditlangan sinov laboratoriyalarida yoki uning tashkilotlarida o'tkaziladi.

Sinovlarni o'tkazish va uni tartibi xalkaro yoki milliy sertifikatlashtirish tizimlarining qoidalarida to'liq va aniq qilib belgilangan.


Sertifikatlashtirish tartibiga qarab, ushbu mahsulotning bir turdagi nusxasi, to'dadan tanlanmasi yoki mahsulotning nusxasi sinovlardan o'tishi mumkin. Mahsulotning tavsiflari va parametrlari, ularga bo'lgan talablar me'yoriy hujjatlarda berilgan bo'ladi. SHuning uchun ularni aniq va ishonchlilik bilan sinovlar va o'lchashlar natijasida aniqlash imkonini beradi.

### **9.2. Sertifikatlashtirish natijalarini rasmiylashtirish.**

Mahsulot yoki buyum ma'lum tekshiruvdan o'tganligini, tekshiruvning xaqqoniyligini yoki sertifikatlashtirish idorasi tomonidan tekshirilganligini isbotlaydigan dalil - tamg'a, etiketka, sertifikat, ilova qilib yuboriladigan ro'yxat, sertifikatlashtirilgan mahsulotlar ro'yxati yoki korxona tayyorlovchilarning ro'yxati hisoblanadi.

Muvofiqlik sertifikatini sertifikatlashtirish idorasi yoki uning nomidan akkreditlangan idora tomonidan berilishi mumkin. ISO ta'rifiga binoan:

**Muvofiqlik sertifikati** - "Tegishli belgilangan mahsulot, jarayon yoki xizmatlarning ma'lum standartga yoki boshqa me'yoriy hujjatga mos kelishiga ishoniradigan va sertifikatlashtirish tizimi qoidalari asosida tashkil etilgan hujjat"dir.



**9.1.1-rasm. Laboratoriyada sertifikatlashtirish sinov jarayonlarining tuzilishi**

**Muvofiqlik belgisi** deganda ushbu mahsulot, jarayon yoki xizmat ma'lum standartga yoki boshqa me'yoriy hujjatga mos kelishini kafolatlovchi sertifikatlashtirish tizimi qoidalari asosida berilgan yoki ishlatiladigan va ma'lum tartibda himoya qilinadigan belgi tushuniladi.

Muvofiqlik belgisini faqat mahsulotning hamma tavsiflarini belgilangan standart bo'yicha qamrab olgan bo'lgan hollardagina ishlatish tavsiya etiladi.

Sertifikatni, ham mahsulot standartlarining to'liq texnikaviy talablariga, ham alohida talablarni belgilovchi standartlar asosida berilishi mumkin.

Sertifikat berish tartibi va (yoki) muvofiqlik belgisini qo'yish, hamda uni amalda to'xtatish yoki bekor qilish, standart shakli va muvofiqlik belgisining ramzi, sertifikatlashtiriluvchi hujjatlarda belgilanadi va mahsulotning ushbu turini sertifikatlashtirish qoidasida ko'rsatiladi.

Sertifikatda qayd etiladigan ma'lumotlar quyidagilardan iborat:

- sertifikatlashtirish idorasining nomi va manzili;
- tayyorlovchining nomi va manzili;
- mahsulotni va uning to'ldasini belgilanishi, seriya raqami, sertifikatlashtirishga tegishli bo'lgan model yoki mahsulot turi;
- tegishli standartga havola;
- vakil-shaxsning imzosi va vazifasi.

Quyidagi keltirilgan hollarda sertifikat bekor qilinishi mumkin:

- agar mahsulot (buyum, mol) ning tarkibiga yoki uni ishlab chiqarish texnologiyasiga o'zgartirishlar kiritilsa, bu esa o'z navbatida sertifikatlashtirish bo'yicha qilinayotgan tekshiruvda uning tavsiflariga o'zgarishlar olib kelsa, hamda shu mahsulot namunalari sinovlari qo'shimcha bayonnomadagi standart talablariga mosligi tasdiqlanmasa;

- ishlab chiqarish texnologiyasining buzilishi va korxona-tayyorlovchi mahsulotining sifati pasaysa yoki material bilan ta'minlovchi tomonidan komplektlash detallari, yig'ish qismi tegishli standartlar talablarini buzilishiga olib kelsa.

Sertifikatlashtirish natijalarini, Tizim idorasi tomonidan sertifikatlashtirish ishlari to'g'risidagi ma'lumotlarni har doim chop etilishi lozim. Bu ma'lumotlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- sertifikatlashtirilgan mahsulot ro'yxati;
- akkreditlangan sinov tashkilotlarining ro'yxati;
- attestatlangan korxonalaridagi sertifikatlashtirilgan mahsulot ro'yxati;
- sertifikatlashtirish hujjatlarining ro'yxati.

Bu ro'yxatlarni sertifikatlashtirish milliy idorasi bo'yicha qilinadigan ishlarda qatnashuvchi vazirliklarga yuboriladi.

### **9.3. Sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni davlat ro'yxatiga olish.**

Iste'molchilarni muayyan mahsulot sertifikatlashtirilganli to'g'risida, uni ishlatilishida sertifikat yoki uning nusxasi hamda muvofiqlik belgisi bilan xabardor qilishni amalga oshiriladi.

XX. XXX. XX. XXX. XXXXX

Ro'yxatga olingan ob'ektni tartib raqami

Akkreditlashtirish idorasi yoki sertifikatlashtirish  
idorasi kodi

Ro'yxatga olingan ob'ekt kodi

Muvofiqlikni baholash tizimini harfli belgilanishi

O'zbekiston Respublikasiining belgisi

### **9.3.1-rasm. Davlat reestrda ro'yxatga olish raqamining umumiy tuzilishi.**

**Muvofiqlik sertifikati** – bu kerakli ishonchlilik bilan mahsulot yoki xizmat, identifikatsiyalangan shaklda muayyan standart yoki boshqa me'yoriy hujjatlarga muvofiqligini bildirishini, ta'minlovchi sertifikatlashtirish milliy tizimi qoidalariga bo'yicha berilgan hujjat. Sertifikat standartning barcha talablariga, hamda alohida bo'limi yoki hujjatning o'zida aniq bayon qilingan mahsulotning muayyan tavsifiga, aloqador bo'lishi mumkin. Sertifikatda taqdim qilayotgan ma'lumot, sinov, ishlab chiqarishni baholash va boshqa tekshiruv natijalari bilan uni solishtirish imkoniyatini ta'minlab, u nima asosida berilganligini mu'lum qiladi.

Har bir sertifikat davlat reestrda rasmiy ro'yxatga olinishi shart. Sertifikatlashtirish bo'yicha idora dastlabki ro'yxatga olinishini individual indentifikatsion raqami bo'lmish va qat'iy hisobot hujjatlari bo'lib hisoblangan, sertifikat blankasini to'ldirish vaqtida o'tkazadi. Sertifikatlarni yakuniy ro'yxatga olishni, sertifikatlashtirish bo'yicha idora kundalik taqdim qilayotgan hujjatlar asosida sertifikatlashtirish milliy idorasi o'tkazadi. Sertifikatda davlat reestri bo'yicha tarkib topgan ro'yxat raqami sertifikatlashtirish bo'yicha idora va arizachi haqidagi qo'shimcha ma'lumotlarni beradi. Ob'ektlarni baholash va muvofiqlikni tasdiqlashni ro'yxatga olish umumiy tartibi O'z RH 51-021:2004 da belgilangan. Davlat reestri bo'yicha baholangan ob'ektlarni ro'yxat raqami tuzilmasi 9.3.1-rasmda keltirilgan.

Shuningdek, ob'ektlarni ro'yxatga olish kodlari ro'yxati O'z RH 51-021:2004 belgilangan va u 9.3.1-jadvalda keltirilgan.

Muvofiqlik sertifikatlarining ro'yxat raqamidan sertifikatlashtirish bo'yicha idora kodi sifatida, sertifikatlashtirishni o'tkazgan, sertifikatlashtirish

bo'yicha idoraning akkreditlash haqidagi shahodatnoma tartib raqami qo'llaniladi.

Milliy akkreditlashtirish bo'yicha idora kodida MAI davlat tilida akkreditlashtirish milliy idora bosh harflari bo'yicha belgisi mavjud.

SHunga o'xshash sertifikatlashtirish bo'yicha milliy idora SMI, milliy sertifikatlashtirish tizimi SMT, akkreditlashtirish milliy tizimi AMT belgilanadi.

### Ob'yektlarni ro'yxatga olish kodlari ro'yxati

9.3.1-jadval

| №  | Ro'yxatga olinadigan ob'yektni nomlanishi                                                           | Kod |
|----|-----------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| 1  | Mahsulotlarga sertifikat                                                                            | 01  |
| 2  | Xizmatlarga sertifikat                                                                              | 02  |
| 3  | Xorijiy sertifikatlar                                                                               | 03  |
| 4  | Menejment tizimiga sertifikat                                                                       | 04  |
| 5  | Menejment tizimlarini sertifikatlashtirish idoralarining akkreditlanganligi to'g'risidagi guvohnoma | 05  |
| 6  | Mahsulotlarni sertifikatlashtirish idoralarining akkreditlanganligi to'g'risidagi guvohnoma         | 06  |
| 7  | Laboratoriyalarni (markaz) akkreditlanganligi to'g'risidagi guvohnoma                               | 07  |
| 8  | Sifat bo'yicha eksperta-auditorlarni attestatlash                                                   | 08  |
| 9  | Transport vositalarining turini maqullash                                                           | 09  |
| 10 | Xorijiy davlatlardi attestanlangan sifat bo'yicha ekspert-auditorlarning attestati                  | 10  |
| 11 | Nazorat (inspeksiya) idoralarini akkreditlanganligi to'g'risida guvohnoma                           | 11  |
| 12 | Bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish tizimini ro'yxatga olish guvohnomasi                 | 12  |
| 13 | Xodimlarning layoqatligi sertifikati                                                                | 13  |
| 14 | Muvofiqlik to'g'risidagi deklaratsiya                                                               | 14  |
| 15 | Eksperta-metrologlar attestati                                                                      | 15  |
| 16 | Putur yetkazmasdan nazorat sohasidagi xodimlarning layoqatligi sertifikati                          | 16  |

Quyida sertifikatlashtirilgan mahsulotlar, sifat tizimi va xizmatlarga sertifikatlarni ro'yxatga olingan raqamlari hamda akkreditatsiya guvohnomalar ro'yxat raqamlariga misollar keltirilgan.

**UZ. SMT. 01. 129. 00022** (sertifikatlashtirish idorasi mahsulotga bergan muvofiqlik sertifikati ro'yxat raqami)

**UZ. SMT. 04. 001. 00011** (sertifikatlashtirish idorasi menejment tizimiga bergan muvofiqlik sertifikati ro'yxat raqami)

**UZ. SMT. 02. SML 00011** (Sertifikatlashtirish milliy idorasi xizmatga bergan muvofiqlik sertifikat ro'yxat raqami)

**UZ. AMT. 07. MAL 043** (Akkreditlashtirish milliy idorasi laboratoriyani, akkreditlashtirish haqidagi bergan guvohnomani ro'yxat raqami).

Sertifikatlashtirish idoralari berilgan, bekor qilingan sertifikatlar hisobi to'g'risida va sertifikatlashtirish faoliyati haqidagi, ma'lumotlarni Sertifikatlashtirish milliy idorasiga taqdim qiladi. Ular o'zining faoliyati va berilgan sertifikatlar haqida qiziquvchi tashkilotlarni xabardor qilishi mumkin.

Har bir ob'ektni ro'yxatga olish vaqtida 9.3.2 - jadvalda keltirilgan ma'lumot kartasini to'ldirish tavsiya etiladi.

**Ro'yxatga olingan ob'ektlar to'g'risida ma'lumotlarni qayd qilish kartochkasida yozish misoli misoli**

9.3.2 - jadval

| №  | Yozuvlarning nomlanishi                                                                        | Misol                                                                                              |
|----|------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1  | Davlat reestri bo'yicha ro'yxatga olish raqami                                                 | UZ.AMT.06.MAL055                                                                                   |
| 2  | Blankani qayd qilish raqami                                                                    | —                                                                                                  |
| 3  | Ro'yxatga olingan sanasi                                                                       | 21.11.2020                                                                                         |
| 4  | Amal qilish muddati                                                                            | 3 yil                                                                                              |
| 5  | Tashkilotning nomlanishi (to'liq)                                                              | «Uzbek quality center»<br>Sertifikatlashtirish idorasi<br>o'zbekiston-amerika qo'shma<br>korxonasi |
| 6  | Tashkilotning nomlanishi (qisqacha)                                                            | «Uzbek quality center» SI                                                                          |
| 7  | Mahkamaga qarashlilik (mavjud bo'lganda)                                                       | —                                                                                                  |
| 8  | Manzil                                                                                         | Andijon viloyati, Boburshox<br>ko'chasi ko'chasi, 26                                               |
| 9  | Telefon                                                                                        | 100-01-01                                                                                          |
| 10 | Elektron manzil                                                                                | uqs@yandex.ru                                                                                      |
| 11 | Rahbar F.I.SH. (arizachi)                                                                      | Aliyev Sh.Sh.                                                                                      |
| 12 | Ob'ektning nomlanishi (SI, SL, menejment tizimi, xodim, mahsulot, ...)                         | Sertifikatlashtirish bo'yicha idora                                                                |
| 13 | Qo'llanish sohasi/akkreditatsiya                                                               | mashinasozlik, elektronika va<br>qurilish mahsulotlari                                             |
| 14 | Sertifikatlash/akkreditlash o'tkazishda, me'yoriy hujjatlarga muvofiqligi to'g'risida ma'lumot | O'z DSt 5.2                                                                                        |
| 15 | IN o'tkazishning davriyligi                                                                    | 12 oyda 1 marta                                                                                    |
| 16 | Akkreditlashtirish (sertifikatlashtirish) idorasining qarori sanasi                            | 17.07.2000 yildagi akkreditlash<br>to'g'risida qaror.                                              |
| 17 | Akkreditlash, sertifikat to'g'risidagi                                                         | Akkreditatsiya Kengashi nazorat                                                                    |

|    |                                                                                    |                                                                         |
|----|------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------|
|    | guvohnomani tasdiqlash, faoliyatni to'xtatish yoki bekor qilish haqida ma'lumotlar | dalolatnomasiga asosan 20.07.2006 yildagi № 35 qarori bilan tasdiqlagan |
| 18 | Davlat reestridan chiqarish                                                        |                                                                         |

O'zstandart Agentligi sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni reestrini boshqa ob'ektlarni ro'yxatga olish, bekor qilingan sertifikatlar to'g'risida ma'lumotlar bo'yicha umumiy ro'yxatga olishni ishlarini olib boradi. Masalan, akkreditlangan sertifikatlashtirish idoralar va laboratoriyalar sifat bo'yicha ekspert-auditorlarni attestatlanganligi O'zstandart Agentligining rasmiy saytida chop etiladi.

Arizachi mahsulotini reklama qilishda, mavjud muvofiqlik sertifikati va muvofiqlik belgisini, hamda sertifikatlashtirilgan sifat menejmenti tizimini yoki ishlab chiqarishni reklama qilish huquqiga ega.

Majburiy sertifikatlashtirishda turgan mahsulotni, lekin, u muvofiqlik sertifikatiga ega bo'lmasa, reklama qilish qat'iy tanqiqlanadi.

### Nazorat savollari

1. Mahsulot sifati va raqobatbardoshligini tushuntiring.
2. Mahsulot, xizmat, jarayon va ishlarning sifatiga ta'sir etuvchi omillar nimalardan iborat?
3. Sertifikatlashtirishda sinov jarayonini tushuntirib bering
4. Sertifikatlashtirishda sinovlar qanday amalga oshiriladi.
5. Sinov laboratoriyalari va sertifikatlashtirish idoralariga qo'yilgan asosiy talablar.
6. Sinov laboratoriyalari va sertifikatlashtirish idoralarining vazifalarini ayting.
7. Sinov laboratoriyasida sinovlarni o'tkazish tartibini tushuntiring.
8. Mahsulot va xizmatlarini sertifikatlashtirishda qaysi sxemalardan foydalaniladi?
9. Muvofiqlik sertifikati nima?
10. Sertifikatlashtirish sub'ektlariga kimlar kiradi?

### 2-Modul bo'yicha o'z-o'zini tekshirish, nazorat va test savollari

1. Vazirlar Mahkamasining «Mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibotini soddalashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» gi Qarori qachon qabul qilingan?

- A) 1993-yil 28-dekabrda
- B) 2004-yil 6-iyulda
- C) 2013-yil 23-aprelda
- D) 1996-yil 26-aprelda

2. Qanday laboratoriyalar sertifikatatsion sinovlarni o'tkazish va uning natijasi bo'yicha bayonnoma berish uchun munosib bo'lishi mumkin?

A) Texnik kompetentlikka yoki texnik kompetentlikka va mustaqillikka akkreditlangan

B) Attestatlangan ishlab chiqarish laboratoriyasi

C) Istalgan laboratoriya

D) Faqat texnik kompetentlikka akkreditlangan laboratoriya

3. Qanday xolatda sinov bayonnomasi berilganidan so'ng unga o'zgartirish kiritiladi?

A) Qo'shimcha hujjat va ilovalar ko'rinishida

B) Qo'shimcha hujjat ko'rinishida

C) Bayonnomaga o'zgartirish ko'rinishida

D) Bayonnomada to'g'rilash kiritish ko'rinishida

4. Qanday hujjatlar sertifikatlashtirish bo'yicha idora faoliyati huquqini beradi?

A) Hokimiyat bilan kelishilgan nizom

B) O'z. Res. Vazirlar Mahkamasi beradigan litsenziya

C) Sertifikatlashtirish idorasi haqida nizom, akkreditatsiya guvohnomasi va akkreditlashtirish idorasi bilan litsenziya shartnomasi

D) Faqat «O'zstandart» agentiligi bergan akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnoma

5. Kim sertifikatlashtirilmagan mahsulotni ishlab chiqarishdan to'xtatish va uni foydalanish holatida jarima solish huquqiga ega?

A) Soliq inspeksiyasi

B) Sertifikatlashtirish idorasi rahbari

C) Militsiya idorasi xodimlari

D) Standartlar ustida nazorat olib boruvchi bosh davlat inspektori

6. Laboratoriya o'zining faoliyatida sinov usullari va o'lchash usullarini foydalanishi lozim bo'ladi:

A) Akkreditatsiya sohasiga tegishli bo'lsa

B) Metrologik me'yorlariga javob beruvchi ba'zilarini

C) Metrologik me'yorlarga va uning faoliyat doirasiga muvofiq ba'zilarini

D) Uning faoliyat doirasiga muvofiq ba'zilarini

7. Mahsulot (buyum) mashina qurilmalari seriyali ishlab chiqarishda qanday sinash o'tkaziladi?

A) Davriy va qabul qilish

B) Qabul qilish va qabulni topshirish

C) Qabulni topshirish va davriy

D) Bir tipdagi (namunaviy), kvalifikatsion

8. Mahsulot namunalarini (proba sinash) sinash uchun qancha miqdorda tanlanadi?

- A) Tekshirilayotgan mahsulot hajmidan 5% kam emas
- B) Tekshirilayotgan mahsulot hajmiga bog'liq ixtiyoriy
- C) Me'yoriy hujjatlarda ko'zda tutilgani bo'yicha
- D) Tekshirilayotgan mahsulot hajmidan 10% kam emas

9. MDH mamlakatlaridan import qilinayotgan sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni dalillaridan kelib chiqib, uni kim tan oladi?

A) Bir turdagi mahsulotni sertifikatlashtirish bo'yicha idora MDH mamlakatlari sertifikatini tan olishni amalga oshiriladi

B) Bojxona idoralari MDH mamlakatlari sertifikatini tan olishni amaga oshiradi

C) Import qilinayotgan mahsulotlar qarshiliklarga uchramasdan O'zbekiston bozorlariga kirib kelishida eksportchi davlatning sertifikati mavjud bo'lib, agarda ushbu mamlakat MDH mamlakatlari a'zosi hisoblansa va o'zaro tan olish to'g'risidagi kelishuv imzolangan bo'lsa

D) Sertifikatlashtirish milliy idorasi

10. Sertifikatlashtirilgan mahsulot va xizmatlar ustidan inspeksion nazoratni kim o'tkazadi?

A) «O'zstandart» agentiligi

B) Sertifikatlashtirish idorasi topshiriqlarni nazorat qilish bo'yicha akkreditlangan idora

C) Mahsulot va xizmatni sertifikatlashtirayotgan idora

D) Akkreditlashtirish idorasi

11. Sertifikatlashtirilgan mahsulot ustidan inspeksion nazoratni o'tkazish huquqi kimga berilgan?

A) Mahsulotni sertifikatlashtirayotgan idora

B) Sertifikatlashtirish idorasi topshiriqlarni nazorat qilish bo'yicha akkreditlangan idora

C) «O'zstandart» agentiligi

D) Miliy sertifikatlashtirish idorasi

12. Sertifikatlashtirilmagan mahsulotni ishlab chiqarishdan to'xtatish va uni foydalanish holatida jarima solish huquqi kimga berilgan?

A) Sinov laboratoriyasi rahbari

B) Sertifikatlashtirish idorasi rahbari

C) Militsiya idorasi xodimlari

D) Standartlar ustida nazorat olib boruvchi bosh davlat inspektori

13. Sertifikatlashtirish murojaatchisi (arizachi) tanlangan mahsulot namunasini sinashda qatnashish huquqi bormi?

- A) Ha
- B) Yo'q
- C) Ha, agarda bu shartnomada ko'zda tutilsa
- D) Ha, agarda laboratoriya boshlig'i ruxsat etsa

14. Sertifikatlashtirishda rasmiylashtirilgan hujjatlar qancha muddatda saqlanadi?

- A) Hujjatlar 5 yildan kam bo'lmagan muddatda
- B) Hujjatlar sertifikat barcha amal qilish muddati davomida saqlanadi
- C) Hujjatlar 3 yildan kam bo'lmagan muddatda saqlanadi
- D) Hujjatlar sertifikat amal qilish muddati davomida saqlanadi, lekin bir yildan kam emas saqlanadi

15. Sertifikatlashtirish sinovlarni o'tkazish va uning natijasi bo'yicha bayonnoma berish uchun kanday laboratoriyalar munosib bo'lishi mumkin?

- A) Istalgan laboratoriya
- B) Texnik kompetentlikka yoki texnik kompetentlikka va mustaqillikka akkreditlangan
- C) Attestatlangan ishlab chiqarish laboratoriyasi
- D) Faqat texnik kompetentlikka akkreditlangan laboratoriya

### 3 - Modul. SERTIFIKATLASHTIRISH

#### 10-mavzu. Xizmatlarni sertifikatlashtirish

##### 10.1. Xizmatlarni sertifikatlashtirish tartibi

##### 10.2. Xizmatlarni sertifikatlashtirish sxemalari

##### 10.3. Xizmatlarni baxolash usullari

#### 10.1. Xizmatlarni sertifikatlashtirish tartibi

**Xizmat** - yetkazib beruvchi va iste'molchining o'zaro hamkorligida amalga oshirilgan kamida bitta harakat natijasidir. Xizmatlar odatda nomoddiy bo'ladi. Xizmat ko'rsatish quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

- iste'molchi yetkazib bergan moddiy mahsulot ustida bajarilgan faoliyat (masalan, ta'mir talab avtomobil);

- iste'molchi yetkazib bergan nomoddiy mahsulot ustida bajarilgan faoliyat (masalan, soliq miqdorini aniqlash uchun zarur bo'lgan daromad to'g'risida ariza);

- nomoddiy mahsulotni berish (masalan, bilimlarni berish ma'nosidagi axborot);

- iste'molchilar uchun qulay sharoitlarni yaratib berish (masalan, mehmonxonalarda va oshxonalarda).

Xizmatlarni sertifikatlashtirish xizmatlarni sertifikatlashtirish bo'yicha akkreditlangan idoralar tomonidan ularning akkreditatsiya sohasi doirasida amalga oshiriladi.

Sertifikatlashtirishda xizmatlarning tavsiflari tekshiriladi va quyidagi tekshirish usullaridan foydalaniladi:

- xizmatlarni identifikatsiyalashni o'tkazish hamda uning me'yoriy va texnikaviy hujjatlarga muvofiq tasnifiy guruhga xosligi tekshirish;

- ushbu xizmatni tartiblashtiruvchi me'yoriy hujjatlarda o'rnatilgan, atrof-muhit, iste'molchilarning mol-mulki va hayoti hamda sog'lig'i uchun xavfsiz va uning sifatini ta'minlashga yo'naltirilgan talablarga xizmatlarning muvofiqligini to'liq va ishonarliligini tasdiqlash.

Xizmatlarni sertifikatlashtirish quyidagi bosqichlardan iborat:

- sertifikatlashtirishga arizani taqdim qilish;


- arizani ko'rib chiqish va ariza bo'yicha qaror qabul qilish;

- o'rnatilgan talablarga xizmatning muvofiqligini baholash;

- muvofiqlik sertifikatini berish (berishni bekor qilish) to'g'risidagi qarorni qabul qilish;

- muvofiqlik belgisini qo'llashga ruxsat va muvofiqlik sertifikatini berish

- sertifikatlashtirilgan xizmat ustidan inspeksiya nazorati.



Xizmatlarni sertifikatlashtirish uchun arizachi (xizmatni bajaruvchi) akkreditlangan sertifikatlashtirish idorasiga sertifikatlashtirishni o'tkazish uchun ariza bilan xususan, ariza bo'yicha qaror qabul qilish va sertifikatlashtirishni o'tkazish imkoniyatlarini o'rnatuvchi va uni ekspertiza qilish uchun zaruriy hujjatlarni ilova qilgan holda taqdim etadi (ushbu ma'lumotlar anketa-so'rovnoma ko'rinishida bo'lishi mumkin).

Ariza shakli sertifikatlashtirish milliy tizimi qoidalariga muvofiq bo'lishi lozim.

Akkreditlangan sertifikatlashtirish idorasi mavjud bo'lmagan taqdirda arizachi arizani sertifikatlashtirishni o'tkazish to'g'risida qarorni qabul qilish uchun sertifikatlashtirish milliy idorasiga taqdim etadi.

Bir qancha sertifikatlashtirish idoralari bo'lgan holatlarda arizachi ixtiyoriy ravishda ulardan biriga ariza berishi mumkin.

Xizmatlarni sertifikatlashtirish idorasi sertifikatlashtirishni o'tkazish imkoniyatlari mavjudligini aniqlash maqsadida arizani ko'rib chiqadi va ro'yxatga oladi.

Arizani ko'rib chiqish natijalari bo'yicha xizmatlarni sertifikatlashtirish idorasi ariza bo'yicha qaror qabul qiladi va arizachiga rasmiy ravishda xabar beradi. Agarda ijobiy holatda bo'lsa, sertifikatlashtirishni o'tkazish bo'yicha xizmatning nomi va kodi, me'yoriy hujjatlari, sertifikatlashtirish sxemalarini ko'rsatadi. Agarda salbiy bo'lgan holatda uning sabablari ko'rsatiladi.

## 10.2. Xizmatlarni sertifikatlashtirish sxemalari

Arizachi sertifikatlashtirish arizasida Qoidada ko'zda tutilgan sertifikatlashtirish sxemalaridan birini ko'rsatish huquqiga ega bo'lib,

sertifikatlashtirish sxemasini tanlashda muayyan turdagi ko'rsatiladigan xizmatning o'ziga xosligini, arizachi (xizmat ko'rsatuvchi) sertifikatlashtirish bo'yicha ishlarni olib borishga xarajat imkoniyatlarini hisobga olish lozim.

Arizani ekspertiza qilish jarayonida nomuvofiqliklar aniqlangan holatlarda arizachining tashkiliy-texnikaviy imkoniyatlarini hisobga olib xizmatlarni sertifikatlashtirish idorasi tanlangan sertifikatlashtirish sxemasi talablari va qo'llash sharoitlarini ushbu sxema bo'yicha sertifikatlashtirishni o'tkazishni batafsil asoslashi yoki boshqa sertifikatlashtirish sxemasini taklif qilishi lozim.

Xizmatlar muvofiqligini baholash jarayoni 10.2.1 – jadvalda keltirilgan sertifikatlashtirish sxemalariga muvofiq o'taziladi.

**Xizmatlarni ixtiyoriy sertifikatlashtirish tizimida qo'llaniladigan  
xizmatlarni sertifikatlashtirish sxemalari**

10.2.1 – jadval

| <b>Sxema<br/>raqami</b> | <b>Xizmat ko'rsatish<br/>sifatini baholash</b>                 | <b>Xizmat natijalarini<br/>(sinash) tekshirish</b>          | <b>Sertifikatlangan<br/>xizmatlarning<br/>inspeksiya nazorati</b>    |
|-------------------------|----------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------|
| 1.                      | Xizmatlarni bajarish<br>tavsiflarini baholash                  | Xizmat va ishlarning<br>natijalarini (sinash)<br>tekshirish | Xizmat va ishlarning<br>bajarish mahoratini<br>nazorat qilish        |
| 2.                      | Xizmat ko'rsatish,<br>ishlarni bajarish<br>jarayonini baholash | -                                                           | Xizmat ko'rsatish,<br>ishlarni bajarish<br>jarayonini nazorat qilish |
| 3.                      | Ishlab chiqarish<br>holatini tahlil qilish                     | -                                                           | Ishlab chiqarish holatini<br>nazorat qilish                          |
| 4.                      | Tashkilot (korxonani)<br>baholash<br>(attesatsiyalash)         | -                                                           | O'rnatilgan talablarga<br>muvofiqligini nazorat<br>qilish            |
| 5.                      | Sifat tizimini baholash                                        | -                                                           | Sifat tizimini nazorat<br>qilish                                     |

1-sxema bo'yicha sertifikatlashtirishda xizmat va ishlarning bajarish mohirligi baholanadi va inspeksiya nazoratida ular nazorat qilinadi.

2-sxema sertifikatlashtirishda bo'yicha xizmat ko'rsatish va ishlarni bajarish jarayoni baholanib, xizmat va ishlarning natijalari tekshiriladi (sinaladi). Inspeksiya nazoratida xizmat ko'rsatish, ishlarni bajarish jarayonlari nazorat qilinadi.

3-sxema bo'yicha sertifikatlashtirishda ishlab chiqarish holati tahlil qilinadi shuningdek, inspeksiya nazoratida xizmat va ishlarning natijalari tekshiriladi (sinaladi).

4-sxema bo'yicha sertifikatlashtirishda tashkilot (korxona) baholanadi – milliy standartlarda o'rnatilgan talablarga xizmatlar va ishlarni bajarish muvofiqligi nazorat qilinadi.

5-sxema bo'yicha sertifikatlashtirishda sifat tizimi baholanadi va inspektsiya nazoratida ularni nazorat qilinadi, xizmatlar va ishlarning natijalari tekshiriladi (sinaladi).

### 10.3. Xizmatlarni baholash usullari

Xizmatlarning muvofiqligini baholash xizmatlarni sertifikatlashtirish idorasi tomonidan me'yoriy hujjatlarning talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

Xizmatlarni sertifikatlashtirish idorasi baholash jarayonida sertifikatlashtirish bo'yicha ishlardan tashqari sertifikatlashtirilayotgan xizmatga o'rnatilgan talablarga muvofiqligini tasdiqlovchi hujjatlardan foydalanishi mumkin, jumladan, quyidagilar:

- ijtimoiy va ekspert baholash natijalari;
- tekshirish dalolatnomalari;
- sertifikatlar;
- xizmatlarning xavfsizligi va sifati ustidan tekshruv va nazoratni amalga oshiruvchi davlat nazorat organlari yoki uning hududiy organlarining xulosalari;
- iste'molchilar jamiyati uyushmasi va ularning assotsiatsiyasi va kengashlarining fikr va xulosalari;
- me'yoriy hujjatlarning talablariga muvofiq xizmat ko'rsatuvchi foydalanayotgan texnikaviy hujjatlarning tahlil (ekspertiza) natijalari.

Xizmatlarni bajaruvchilar foydalanayotgan va sertifikatlashtirishda tekshirilayotgan tavsiflarga ta'sir qiluvchi texnikaviy hujjatlar me'yoriy hujjatlarning talablariga muvofiq tahlil qilinadi.

O'zbekiston Respublikasining qonunchilik va qonun osti hujjatlari talablariga muvofiq xizmatlar tekshirish (nazorat)dan o'tkazilib, ushbu xizmat uchun davlat boshqaruv va ijroya organlari bergan hujjatlar (yong'in xavfsizligi xulosasi, ekologiya bo'yicha xulosa, sanitar-epidemiologiya xulosalari va h.k.) ning mavjudligi tekshiriladi. Muvofiqlik sertifikatida yuqorida aytilgan hujjatlarga havolalar qilinishi lozim.

Jarayonning murakkabligiga bog'liq holda quyidagilar baholanadi:

- jarayonga talablarni belgilovchi hujjatlarning to'liqligi va dolzarblikka qayta ko'rilganligi;
- zaruriy qurilmalar, vositalar, jihozlar, o'lchash (sinash, nazorat) vositalari, materiallar, binolar va h.k. bilan ta'minlanganligi hamda ularning o'rnatilgan talablarga muvofiqligi;
- metrologik, uslubiy, tashkiliy, dasturiy, axborot, moddiy, huquqiy, texnikaviy va boshqa ta'minotlari;
- jarayonning xavfsizligi va barqarorligi;
- ishlab chiqarish xodimlari va xizmatchilarning xizmatlarni va ishlarni bajarishdagi kasbiy layoqatligi.

Sifat tizimini baholashni me'yoriy hujjatlari talablariga muvofiq sifat tizimini sertifikatlashtirish bo'yicha ekspertlar o'tkazadi. Sifat tizimiga sertifikat mavjud bo'lsa, uni xizmatlarni sertifikatlashtirishda hisobga olish lozim.

Xizmat ko'rsatishni baholash sertifikatlashtirish sxemalariga bog'liq holda quyidagilarni qamrab oladi:

- xizmat va ishlarni bajarish mohirligini baholash;
- xizmat ko'rsatish va ishlarni bajarish jarayonlarini baholash;
- ishlab chiqarish holatining tahlili;
- tashkilotni (korxonani) – xizmat va ishlar bajarilishini baholash;
- sifat tizimini baholash.

Muayyan turdagi xizmatlarni sertifikatlashtirishni amalga oshirishda muvofiqlik uchun hujjatlar ro'yxati mos ravishda MHlarda keltirilgan.

Moddiy xizmat natijalarini sinash akkreditlangan sinov laboratoriyalarida yoki arizachining o'Ichash vositalari va texnologik qurilmalaridan foydalanish bilan birgalikda amalga oshiriladi. Namunalarni tanlash akkreditlangan sinov laboratoriyasi vakili shtirokida yoki ushbu xizmatni sertifikatlashtirish bo'yicha ekspertning topshirig'iga ko'ra amalga oshiriladi. Mahsulotdan namunani olish namunalarni tanlash dalolatnomasi bilan rasmiylashtiriladi.

Agarda bu guruhdagi xizmatni sertifikatlashtirish tartibida ko'zda tutilgan bo'lsa, xizmatlarni sertikatlashtirish bo'yicha idoraning ekspertiga namunani tanlash ruxsat etiladi. Sertifikatlashtirishni o'tkazishda tekshirish va baholash natijalari qayd etilgan (dalolatnomalar, bayonnomalar) rasmiy hujjatlar, va sertifikatlashtirish natijalari bo'yicha asoslangan qarorni qabul qilish rasmiylashtiriladi. Xizmatlarni baholash natijalari "Xizmat ko'rsatishni baholash dalolatnomasi" ko'rinishida taqdim etiladi.

Xizmatlarni sertifikatlashtirish idorasi o'rnatilgan talablarga xizmatlarning muvofiqligini tasdiqlovchi dalolatnomalarni, bayonnomalarni va boshqa hujjatlarni tahlili asosida muvofiqlik sertifikatini berish to'g'risidagi qarorni qabul qiladi.

Xizmatlarni sertifikatlashtirish idorasining qarori ijobiy bo'lgan holatlarda muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirib, uni davlat reestida ro'yxatga oladi va arizachiga sertifikatni taqdim etadi. Xizmatlarni sertifikatlashtirish idorasi sertifikatlashtirish natijalarini va sertifikatlashtirilayotgan xizmatning MHni amal qilish muddatini hisobga olib, 3 yildan ko'p bo'lmagan muddatda sertifikatni amal qilish muddatini belgilaydi. Sertifikatlashtirish idorasi arizachiga muvofiqlik sertifikati bilan birga muvofiqlik belgisidan foydalanishga ruxsat beradi.

Agarda natijalar salbiy bo'lgan holda bekor qilish sabablarini ko'rsatib, muvofiqlik sertifikatni bekor qilish to'g'risidagi qarorni rasmiylashtiradi va uni arizachiga taqdim etadi.

#### **Nazorat savollari**

1. Xizmatlarni baholash qanday amalga oshiriladi?
2. Xizmatlarni baholash tartibini tushuntiring.
3. Xizmatlarni sertifikatlashtirish tartibini tushuntiring.
4. Xizmatlarning muvofiqligini baholash nima degani?

5. Sertifikatlashtirilgan xizmatlarning nazorat yo'sinidagi tekshiruvi (inspektsiya nazorati) nima degani?

### **11-mavzu. Sertifikatlashtirilgan ob'ektlarni inspeksion**

11.1. Sertifikatlangan mahsulotni inspeksion nazorati

11.2 Sertifikatlangan xizmat, jarayon, sifat tizimi va xodimlarni inspeksion nazoratini o'tkazish

#### **11.1. Sertifikatlangan mahsulotni inspeksion nazorati**

Seriya*li* ishlab chiqarilayotgan mahsulotga sertifikat beruvchi sertifikatlashtirish idorasi, yilida bir martadan kam bo'lmagan, sertifikatlashtirishda o'rnatilgan talablarga muvofiqqligini tasdiqlash maqsadida sertifikatlangan mahsulotni inspektsiya nazoratini o'tkazadi. Inspektsiya nazorati sertifikatlashtirish sxemasi, mahsulot sinovini o'tkazish va/yoki ishlab chiqarishni kuzatishga bog'liq bo'ladi.

Inspektsiya nazoratiga umumiy talablar 2005 yil 6 aprelda Adliya vazirligida ro'yxatga olingan №1464 "Sertifikatlashtirilgan mahsulot va xizmatlar inspektsiya nazorat o'tkazish qoidalar*i*"da belgilab qo'yilgan. Bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish idorasi protsedura hujjatida muayyan tartibda inspektsiya nazoratini o'tkazish belgilangan.

Inspektsiya nazoratining maqsadi sertifikatlashtirilgan mahsulot me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiqqligini tasdiqlashdan iboratdir.

Inspeksion nazorat sertifikatlashtirish idorasining hodimlari tomonidan amalga oshiriladi. Muvofiqlik sertifikati amal qilish muddati ichida sertifikatlashtirish sxemasiga asosida inspeksion nazorat o'tkaziladi.

Mahsulot normativ hujjatlarda ko'rsatilgan talablarga javob berib kelayotganini tasdiqlash maqsadida inspeksion nazorat o'tkaziladi. Inspeksion nazorat bir yilda bir martadan kam bo'lmagan oraliqda, rejalashtirilgan grafik asosida va rejalashtirilmagan hollarda o'tkaziladi. Xususan, namunalar sinov laboratoriyasiga olinadi va boshqa turdagi tekshiruvlar mahsulotni normativ hujjatlarga mos kelishini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Inspeksion nazorat rejalashtirilgan va rejalashtirilmagan holda o'tqazilishi mumkin.

Rejalashtirilgan inspeksion nazorat muvofiqlik sertifikati berilgandan so'ng, kamida 6 oy muddatdan keyin o'tkaziladi. Keyingi inspeksion nazoratlar ko'rikdan so'ng 12 oy ichida o'tkaziladi.

Inspektsion nazorat o'tkazishning ketma ketligi, mahsulotning potentsial xavfliligi, ishlab chiqarishning hajmi, tashkilotda SMTni joriy etganlik va boshqa faktorlaridan kelib chiqadi.

Inspektsion nazorat 5 bosqichdan iborat

Birinchi bosqich – inspeksion komissiya va uning rahbarini tuzishdan iborat. Inspektsion nazoratning o'tkazish rejasini komissiya raisi tuzadi va ishlab chiqaruvchi bilan vaqtini kelishadi;

Ikkinchi bosqich – sertifikatlashtirilgan mahsulotning kirish ma'lumotlarini ko'rib chiqish jarayonini o'z ichiga oladi;

Uchinchi bosqich – komissiya a'zolarining ishlab chiqarish ob'ektiga borib, sifatlil mahsulot ishlab chiqarish shartlarini bajarilayotganini aniqlash maqsadida o'tkaziladi;

To'rtinchi bosqich – sinov dasturiga asosan ishlab chiqarishdan olingan namunalarni sinash va tahlil qilishdan iborat;

Beshinchi bosqich – Nazorat natijalari asosida akt tuzilib, unda mahsulotning sinov natijalari, ko'rik va ishlab chiqarish jarayoni to'g'risida xulosa yozib o'tiladi.

Inspeksion nazorat natijalari asosida akt tuziladi. Aktning bir nusxasi ishlab chiqaruvchiga yuboriladi, ikkinchi nusxasi sertifikatlashtirish idorasida 3 yil davomida saqlanadi. Inspeksion nazorat natijalariga ko'ra sertifikatlashtirish idorasi raxbari 3 kun ichida muvofiqlik sertifikatini tasdiqlash, to'xtatib turish yoki bekor qilish haqida qaror qabul qiladi.

Muvofiqlik sertifikatini to'xtatib turish. Inspeksion nazorat vaqtida hatolik aniqlansa va shu bilan birga korrektlash ishlarida bartaraf etsa bo'ladigan hollarda, sertifikatlashtirish raxbari tomonidan muvofiqlik sertifikatini to'xtatib turish haqida qaror qabul qilinadi.

Muvofiqlik sertifikatini bekor qilish. Inspeksion nazorat davomida normativ va texnologik hujjatlarga asosan qo'pol hatolikka yo'l qo'yilganligi, ularni bartaraf eta olmasligi, litsenzion shartnoma talablari bajarilmay kelganligi aniqlansa, sertifikatlashtirish idorasi raxbari tomonidan muvofiqlik sertifikatini bekor qilinadi.

Inspeksiya nazorati vaqtida Muvofiqlik sertifikatini ishlab chiqaruvchi bilan kelishilgan holda va quyidagi hollarda to'htatilib turiladi:

Guvohnoma berilgan mahsulotlarning ishlab chiqarilishi uchun kerakli hom-ashyolarning mavjud bo'lmaganida.

Ishlab chiqarish mavsumiy bo'lganda yoki sertifikatsiyalangan ishlab chiqarish ishlab chiqaruvchi tomonidan ma'lum sabablarga ko'ra to'htatilganda.

Me'yori hujjatlarning talablariga bo'ysunmaydigan (3 tadan ortiq) holat aniqlansa yoki ko'p miqdordagi mahsulotlar ustida sinov holatlari o'tkazilganda me'yori hujjatlarning talablari aniq mos kelmaganda

Mahsulot me'yoriy hujjatlar talablarini qondirmasa va boshqa hollarda.

Rejalashtirilmagan inspeksion nazorat quyidagi hollarda o'tkaziladi:

- Iste'molchi, ijro etuvchi hokimiyat, iste'molchilar birlashmalari va boshqalar tomonidan sertifikatlashtirilgan mahsulot ustidan kelib tushgan e'tirozlar asosida

- ishlab chiqaruvchining surovnomasiga asosan, ishlab chiqarish jarayoni o'zgarganligi, sertifikatlashtirilgan mahsulotlar doirasini o'zgartirish maqsadida.

Inspeksiya nazorati hajmini SI mahsulotni sinash, avvalgi o'tkazilgan inspeksiya nazorati natijalari va attestatlangan yoki akkreditlangan sinov ishlab

chiqarish laboratoriyalari natijalari mehnat hajmidan kelib chiqib har bir muayyan holatlarda aniklaydi.

Inspeksiya nazorati davriyligini muvofiqlik belgisidan foydalanish va muvofiqlik sertifikatini qo'llash huquqini to'xtatish to'g'risidagi kelishuvda rejada o'rnatilgan tartibda, SI bilan tayyorlovchi quyidagilarni hisobga olib kelishuv tuzadi:

- muayyan mahsulotning o'ziga xos xususiyati;
- sertifikatlashtirilayotgan mahsulot hajmi va ishlab chiqarish davomiyligi;
- sifat tizimiga sertifikatning mavjudligi.

Inspeksiya nazoratini o'tkazish uchun muvofiqlik sertifikatini berishgacha sertifikat egasi bilan sertifikatlashtirish idorasi tuzayotgan kelishuv asos bo'lib hisoblanadi. Kelishuvda ish turlari, o'tkazish muddati va inspeksiya nazorati bo'yicha ishlariga to'lov shartlari o'rnatiladi.

Inspeksiya nazorati sertifikatlashtirish, qonuniy aktlar va sertifikatlashtirish bo'yicha bajariladigan ishlar tartibi va asoslarini, standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish sohalaridagi me'yoriy hujjatlari bo'yicha maxsus tayyorlangan mutaxassislar (sifat bo'yicha ekspert-auditorlar) amalga oshiradi. Inspeksiya nazoratida zaruriyat bo'lganda boshqa tashkilot vakillari shu tashkilot yoki bevosita uning mutaxassisi bilan sertifikatlashtirish idorasi o'rtasida tuzilgan o'zaro shartnoma asosida qatnashishi qabul qilinadi. Sertifikatlashtirish idorasi topshirig'i bo'yicha akkreditlangan nazorat idorasi jalb qilinishi mumkin.

Inspeksiya nazorati sertifikatlashtirish idorasi rahbari tomonidan tasdiqlangan dasturga muvofiq o'tkaziladi. Inspeksiya nazorati dasturi maqsad va ob'ekt, inspeksiya nazoratini o'tkazish bo'yicha ishlar tartibi va hajmidan tarkib topgan bo'lishi shart.

Sertifikatlashtirish idorasi rahbari bir nusxa buyruq va inspeksiya nazorat o'tkazish dasturlarini tayyorlovchiga ularni olganligi haqida imzo bilan topshiradi.

Inspeksiya nazorati tayyorlovchidan, tayyorlovchi vakili qatnashmaganda va/yoki savdo sohasidan (iste'molchidan) sertifikatlashtirishning 2 va 4 sxemalarida namuna tanlab olish bilan boshlanadi. Mahsulot namunasini tanlash va identifikatsiyalashda dalolatnoma rasmiylashtiriladi.

Tayyorlovchi mahsulotini sinash va tanlashda qatnashish huquqiga ega.

Sinash, uni tanlash tartibi, identifikatsiyalash va sinash hamda namuna miqdori mahsulot MH talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

Mahsulot namunasini sinashni mustaqil akkreditlangan laboratoriyalar, hoh u sertifikatlashtirilayotgan mahsulot tayyorlovchisining texnik layoqatligiga akkreditlangan sinov laboratoriyasi, inspeksiya nazorati komissiyasi qatnashuvi bilan o'tkazadi. Sinov natijalari bayonnomada rasmiylashtiriladi.

Ishlab chiqarishni kuzatishda inspeksiya nazorati 3 va 5 sxemalar bo'yicha xuddi shu tartibda sertifikatсион kuzatuv sifatida o'tkaziladi. Tekshirishning asosiy ob'ektlari quyidagilar bo'ladi:

- mahsulotga me'yoriy hujjat, sinash usuli va ishlab chiqarish texnologiyasi;

- sertifikatlashtirilgan mahsulot;

- ishlab chiqarish va sifat tizimi;

- texnologik qurilmalar, o'lchash va sinash vositalari;

- savdo tashkilotida va korxona-tayyorlovchida sertifikatlashtirilgan mahsulotni saqlash muddati va shartlari;

- qadoqlash, tashish;

- ilova qilingan hujjatlar;

- muvofiqlik belgisi bilan tamg'alash.

Ishlab chiqarishni kuzatish tasdiqlangan dasturga muvofiq o'tkaziladi. Tashkilotda inspeksiya nazorati o'tkazish jarayonida, zaruriyat bo'lganda komissiya dasturdagi nazarda tutilmagan korxona ishlab chiqarayotgan mahsulot sifatiga bog'liq bo'lgan ob'ekt yoki jarayonlarni tekshirishi mumkin.

Tekshirishga rioya qilish shartlari muvofiqlik belgisini qo'llash huquqi sertifikatlar nusxasida qo'llanilishini tekshirish bilan boshlanadi, shuningdek, mahsulotga, idishga, qadoqlashda va ilova qilinayotgan hujjatlarda muvofiqlik belgisini mavjudligi va to'g'ri qo'yilganligi tekshiriladi. Tekshirish korxona-tayyorlovchida va (yoki) savdo tashkilotlarida, agarda bu sertifikatlashtirish sxemasida belgilangan bo'lsa o'tkaziladi. Belgini tekshirish muvofiqlik sertifikati va konstruktorlik hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

5 yoki 6 sxema bo'yicha mahsulotni sertifikatlashtirishda sifat tizimiga sertifikatni mavjudligi qarab chiqilishida sertifikatlashtirish idorasi, sifat tizimini tekshirish to'g'risidagi hisobotning bir nusxasini sifat menejmenti tizimi bo'yicha sertifikatlashtirishni amalga oshirgan idoraga beradi.

Ishlab chiqarishni tekshirish natijalari salbiy bo'lsa, komissiya korxonaga aniqlangan nomuvofiqlikni bartaraf qilishni kuzatuv dalolatnomasida ko'rsatib yoki bayonnomalar ko'rinishida rasmiylashtirib taklif qiladi.

Inspeksiya nazoratini agar muvofiqlikni yoki o'rnatilgan talablarga ishlab chiqarish va/yoki nomuvofiq mahsulot xolisona isbotlash o'rnatilgan bo'lsa tugallandi deb hisoblash mumkin.

Baholash tekshirish natijalari (tekshiruvchi va tershirilayotgan) bo'yicha qaror qabul qilishda tomonlarda ishonchsizlik va qiyinchiliklar tug'dirmaydigan bo'lishi kerak. Baholash sertifikatlanayotgan mahsulotni muvofiqligini me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiq aniq ifodalanmaganlik (mujmallik) va ikki fikrli izohlar bo'lishligidan xolis bo'lishi lozim.

Inspeksiya nazorati natijalari bo'yicha komissiya ixtiyoriy shaklda va ikki nusxada dalolatnoma tuzib, ulardan bir nusxasi tayyorlovchiga beriladi hamda ikkinchi nusxasi esa sertifikatlashtirish idorasiga jo'natiladi.

Inspeksiya nazorati dalolatnomasini komissiyaning barcha a'zolari va tayyorlovchi imzolaydi, ayni paytda inspeksiya nazorati natijalariga noroziliklar bo'lgan holatlarda o'zining fikrini kiritishi mumkin. Dalolatnomada tayyorlovchi haqidagi, sertifikatlashtirilayotgan mahsulotni MH talablariga muvofiqligi dalillari, ishlab chiqarishni metrologik ta'minoti va texnologik jarayonlar talablariga rioya qilinishi hamda xulosalar to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi.

Inspeksiya nazorati natijalari bo'yicha 3 kun davomida sanasi ko'satilgan inspeksiya nazorati dalolatnoma tuzilib, muvofiqlik sertifikatini tasdiqlash, to'xtatish yoki bekor qilish to'g'risida qaror qabul qilinadi. Qarorning bir nusxasi qaror qabul qilingandan so'ng uch kundan ko'p bo'lmagan muddatda tayyorlovchiga jo'natiladi.

Muvofiqlik sertifikatini to'xtatish holatlarida qarorda aniqlangan kamchiliklar bo'yicha to'g'rilovchi amallarni qabul qilish uchun muddati ko'rsatiladi.

Muvofiqlik sertifikatini bekor qilish haqida qaror qabul qilingan holatlarda sertifikatlashtirish idorasi bu to'g'risidagi ma'lumotni uch kundan kam bo'lmagan muddatda "O'zstandart" agentligiga, soliq va bojxona idoralariga va zaruriyat bo'lganda ommaviy axborot vositalariga jo'natadi.

Muvofiqlik sertifikatini bekor qilish O'zbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish milliy tizimining reestridan uni istesno qilish vaqti bilan amalga oshadi. Bekor qilingan muvofiqlik sertifikati muvofiq jurnalda quyidagi ma'lumotlar aks topgan yozuvlarni olib borish bilan yo'q qilinadi:

- bekor qilish haqida qaror sanasi va raqami;
- mahsulot nomi;
- tayyorlovchi nomi;
- muvofiqlik sertifikatini Davlat reestri bo'yicha raqami va tartib raqami;
- yo'qotish sanasi.

Majburiy sertifikatlashtirishda turgan mahsulot sertifikati bekor qilinganidan so'ng, bu mahsulotni sotishni to'xtatish bilan savdo sohasidan bekor qilingan sertifikat nusxasi muomaladan chiqarilishi shart.

Qiziquvchi tomonlar qabul qilingin qarorga norozi bo'lgan holatlarda "O'zstandart" agentligining Apellyatsiya kengashiga yoki bevosita sudga murojaat qilish huquqiga ega. "O'zstandart" agentligining Apellyatsiya kengashi qarori yuzasidan o'rnatilgan qonunchilik tartibida sudga shikoyat qilinishi mumkin.

## **11.2. Sertifikatlangan xizmat, jarayon, sifat tizimi va xodimlarni inspeksion nazoratini o'tkazish**

Inspeksiya nazoratini muvofiqlik sertifikatini beruvchi xizmatlarni sertifikatlashtirish idorasi sertifikatlashtirishda tasdiqlangan, sertifikatlashtirilgan xizmatlarni talablarga muvofiqligini o'rnatish maqsadida, sertifikatni amal qilish davomida amalga oshiradi.

Muvofiqlik sertifikatini beruvchi xizmatlarni sertifikatlashtirish idorasining faoliyati to'xtalgan holatlarda sertifikatlashtirilgan xizmatlar ustidan inspeksiya nazorati o'tkazish to'g'risidagi masalalarni hal qilish sertifikatlashtirish milliy idorasi tomonidan hal qilinadi.

Inspeksiya nazorati rejali va rejadan tashqari tekshiruv shakllarida amalga oshirilib, o'zida quyidagi ishlarni qamrab oladi:

- sertifikatlashtirilgan xizmatlarning sifati va xavfsizligi to'g'risidagi tushgan ma'lumotlarni tahlil qilish;
- inspeksiya nazorati dasturini ishlab chiqish;
- inspeksiya nazoratini o'tkazish uchun komissiyani tuzish;
- inspeksiya tekshiruvini o'tkazish;
- qaror qabul qilish va natijalarni rasmiylashtirish.

Rejali inspeksiya nazorati o'tkazishning davriyligi va hajmini xizmatlarni sertifikatlashtirish idorasi sertifikatlashtirish natijalari yoki oldin o'tkazilgan inspeksiya nazorati natijalari, xizmatlarning xavflilik darajasi, uning sifatini barqarorligi, tekshirishni o'tkazish xarajatlari va sertifikatlashtirish sxemasiga bog'liq holda, ammo yilida bir martadan kam bo'lmagan holda belgilaydi.

Rejadan tashqari inspeksiya nazorati quyidagi holatlarda o'tkaziladi:

- iste'molchilar, xizmatlarni xavfsizligi va sifati ustidan nazorat o'tkazuvchi ijroya hukumat organlari, iste'molchilar uyushmasi jamiyatidan sertifikatlangan xizmatlar sifatiga shikoyatlar to'g'risida ma'lumotlar kelib tushganda;

- turli avariya va boshqa noxushliklar sabablarni tekshirish natijalari hamda davlat texnik ko'rigini o'tkazish natijalari bo'yicha vakolatli organlardan ma'lumotlar olinganda;

- muvofiqlik sertifikatining amal qilish shartlari va sertifikatlashtirish talablariga aloqador faoliyatlarga o'zgarishi sabablari bo'yicha arizachining murojaatiga ko'ra inspeksiya nazoratini o'tkazish so'ralsa.

Inspeksiya nazorati natijalari berilgan muvofiqlik sertifikatini amal qilinishi (to'xtatish, bekor qilinishi)ni tasdiqlash to'g'risidagi xulosalardan iborat bo'lgan dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi. Bunda dalolatnomada qo'llanilayotgan sertifikatlashtirish sxemasidagi sertifikatlashtirishga muvofiq tanlanma tekshirish natijalari qayd etiladi.

O'rnatilgan talablarga xizmatlar nomuvofiq bo'lgan holatlarda sertifikatlashtirish idorasi inspeksiya nazoratini o'tkazishni bekor qiladi va muvofiqlik belgisini qo'llashga ruxsatni hamda muvofiqlik sertifikatini amal qilishini bekor qiladi.

Ushbu ma'lumotlar huddiy davlat nazorat va tekshiruv organlariga hamda sertifikatlashtirish milliy idorasiga ushbu xizmatlarni amalga oshirishni oldini olish bo'yicha zaruriy chora-tadbirlarni qabul qilish uchun taqdim etiladi.

Muvofiqlik sertifikatini to'xtatish to'g'risidagi qaror qabul qilingan holatlarda agarda xizmat ko'rsatuvchi ishlab chiqqan to'g'rilovchi amallarni sertifikatlashtirish idorasi bilan kelishilgan bo'lsa, aniqlangan nomuvofiqliklarni

sababini bartaraf qilish imkoniyatlari va muddatlarini o'ratish yo'li bilan chora-tadbirlar ishlab chiqiladi.

Sertifikatlashtirish idorasi to'g'rilovchi chora-tadbirlarni tekshirish vaqtida:

- muvofiqlik sertifikatini va muvofiqlik belgisini qo'llashga ruxsatni bekor qiladi;

- to'g'rilovchi chora-tadbirlarni bajarish muddatini belgilaydi;

- to'g'rilovchi chora-tadbirlarning bajarilishini tekshiradi.

Barcha natijalar ijobiy bo'lgan holatlarda sertifikatlashtirish idorasi sertifikatni qayta tiklash to'g'risidagi qarorni qabul qiladi.

### **Nazorat savollari**

1. Inspeksion nazorat to'g'risida tushunchalar berining.

2. Sertifikatlashtirishda inspeksion nazorat (nazorat yo'sinidagi tekshiruv)ning vazifasi nimadan iborat?

3. Sertifikatlashtirilgan mahsulotlar inspeksion nazoratni o'tkazish maqsadi.

4. Sertifikatlashtirilgan ob'ektlar ustidan inspeksion nazoratni o'tkazish.

5. Sertifikatlashtirilgan maxsulot ustidan inspeksiya nazoratini kim amalga oshiradi?

6. Majburiy sertifikatlashtirish qoidalari bajarilishi tekshiruvini kim amalga oshiradi?

7. Standart talablari bajarilishi ustidan davlat nazoratchisi sertifikatlashtirish ishlarini o'tkaza oladimi?

8. Kim sertifikatlashtirilgan maxsulot ustidan inspeksion nazoratni amalga oshirish huquqiga ega?

9. Kim akkreditlangan sertifikatlashtirish idoralari va sinov laboratoriyalari ustidan inspeksion nazoratni amalga oshiradi?

10. Inspeksion nazorat bo'yicha tekshiruvni kim boshqaradi?

## **12-mavzu. O'zbekiston Respublikasi akkreditlashtirish milliy tizimining asosiy qoidalari**

12.1. Akkreditlashtirish.

12.2. Akkreditlashtirish tizimining tashkiliy tuzilmasi.

### **12.1. Akkreditlashtirish.**

O'zbekiston Respublikasida akkreditlashtirish tizimini ishlab chiqishdan maqsad mahalliy mahsulotlar, xizmatlar yoki jarayonlarning muvofiqligini tasdiqlovchi sertifikatlar va boshqa hujjatlarni xalqaro tan olinishi uchun shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Bu shart-sharoitlar O'zbekiston Respublikasining xalqaro akkreditlashtirish tizimi (ILAC, IAF) ga qo'shilishi va tan olish

bo'yicha kelishuv tuzishda asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Tan olish xorijiy akkreditlashtirish tizimlari, bu tizimning xilma xil qiymatligini hisobga olgan holda akkreditlashtirish milliy tizimiga ishonishga asoslangan. Bunda sinov natijalari muvofiqligi va sertifikatlangan mahsulot sifati ko'rsatkichining barqarorligi muvofiqlikni tasdiqlash bo'yicha reglamentlangan xalqaro standartlarga muvofiq akkreditlangan sertifikatlashtirish va nazorat idoralari, sinash, kalibrlash (qiyoslash) laboratoriyalari faoliyatlarining layoqatliligi bilan kafolatlanishi ko'zda tutilgan.

O'zbekistonda mustaqil akkreditlashtirish milliy tizimi 1998 yilda yaratildi. Tizimni yaratish akkreditlash yo'li bilan tashkilotlar muvofiqligini baholash sohasida davlatning o'rini kuchaytirishni yo'lga qo'yadi. Akkreditlash muvofiqlikni tasdiqlash sohasida o'zining layoqatliligi bahosini olishni ixtiyoriy istovchi sub'ektlar munosabatida amalga oshiriladi.


Akkreditlash tizimi – akkreditlashni amalga oshirish uchun protsedura va boshqaruvning o'z qoidalariga ega bo'lgan tizim.

Tizimning me'yoriy asosi (bazasi) sifatida quyidagilar amal qiladi:

- Xalqaro standartlar (12.1.1-rasm.);

- “Muvofiqlikni baholash to'g'risida”gi qonun. Ushbu qonun Qonunchilik palatasi tomonidan 2013 yil 6 iyunda qabul qilingan va Senat tomonidan 2013 yil 22 avgustda ma'qullangan. Ushbu “Muvofiqlikni baholash to'g'risida”gi qonun xukumat tomonidan 2013 yil 4 oktyabrda qabul qilingan;

- “Sertifikatlashtirish sohasidagi nazorat idoralari, bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish bo'yicha idoralar, sinov (o'lchash) laboratoriyalar (markazlar)ni akkreditlash qoidalari”.



**12.1.1-rasm. Sertifikatlashtirish va muvofiqlikni baholash sohasidagi xalqaro me'yoriy hujjatlar.**

Tizimda “akkreditatsiya” atamasi “o'rnatilgan talablarga mahsulotlar, xizmatlar, xodimlar va sifat tizimining muvofiqlikni baholash va tasdiqlash bo'yicha muayyan ishlarni bajarish uchun huquqiga egaligini rasman tan olish” deb ta'riflangan.

Akkreditlashtiruvchi idora bu "o'ratilgan talablarga mahsulotlar, xizmatlar, xodimlar va sifat tizimining muvofiqlikni baholash va tasdiqlash bo'yicha faoliyatni amalga oshirish uchun rasmiy vakolat beruvchi, davlat boshqaruv idora". O'zbekiston Respublikasida akkreditlashtirish idorasi sifatida O'zstandart Agentligi vakolatlangan.

Akkreditlashtirish bo'yicha Kengash bu "o'tkazilgan akkreditlash natijalari bo'yicha qaror qabul qiluvchi milliy akkreditlash tizimining rahbariy idorasi".

Akkreditlash sohasi, bu "muvofiqlikni tasdiqlash bo'yicha aniqlangan faoliyat sohasida muayyan ishlarni, ya'ni akkreditlashga taqdim qilingan va berilgan arizani bajarish".

Tizim quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- milliy darajada tizimni tan olish;
- o'zining qoida va protseduralirining mavjudligi;
- akkreditlashtirish ob'ektlarining ishchi holati masalalari va xorijiy va xalqaro akkreditlash tizimlari bilan minosabatlarni rivojlantirish bo'yicha tizimini takomillashtirish;
- tizimda barcha yuridik va jismoniy shaxslarni qatnashishiga imkoniyatlar mavjudligi;
- tizim a'zolarining layoqatlilikini xodimlar yetarli malakasi, ularni vakolatlari va texnikaviy vositalar bilan ta'minlash;
- akkreditlash natijalari va protseduralari xolisligi, adolatsiz qarorlar va kamsitishlar (haq-huquqlarini chegaralash) mavjud emasligi;
- tizimda o'ratilgan qatnashchilar yoki barcha qiziquvchilarga munosabati bo'yicha tayyorligi;
- akkreditlash natijalarini yuridik yoki jismoniy shaxslar ta'sirlaridan mustaqilligi;
- qarorlarni qabul qilish va ushbu tamoyillarga rioya qilish uchun tizimda rahbarlarning javobgarligi;
- tizim tuzilmasining ma'qulligi va akkreditlash protseduralari xarajatlarini kamaytirish;
- akkreditlash ob'ektlari haqidagi, tijorat qiziqishiga taaluqli ma'lumotlarning maxfiyligi;
- akkreditlashtirishning barcha qatnashchilari uchun tekshirish va baholash usullari ochiqligi va maqbulligi.

Tizim xalqaro akkreditlashtirish tizimlari bilan kelishuv asosida o'zaro faoliyat olib boradi.

Akkreditlashtirishning maqsadlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- mahalliy mahsulotlar, xizmatlar va jarayonlar xavfsizligi, sifati va raqobatbardoshligini oshirish;
- xalqaro kelishuvlarda texnikaviy to'siqlarni bartaraf etish;
- sinov laboratoriyalari, qiyoslash va kalibrlash bo'yicha laboratoriyalar, nazorat va sertifikatlashtirish bo'yicha idoralar, metrologik xizmatlar va

standartlashtirish bo'yicha xizmatlar faoliyatlari natijalarini xalqaro tan olinishini ta'minlash va texnikaviy layoqatligini oshirish.

Akkreditlashtirish vazifalari bo'lib me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiq jismoniy shaxslar va tashkilotlar faoliyatini huquqiy rasman tasdiqlash hisoblanadi.

Tizimda akkreditlashtirish ob'ektlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- sinov laboratoriyalari;
- qiyoslash va kalibrlash laboratoriyalari;
- mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish bo'yicha idoralar;
- menejment tizimlarini sertifikatlashtirish bo'yicha idoralar;
- tekshiruv (nazorat) idoralari;
- yuklash oldi inspeksiyasi bo'yicha maslahat firmalar;
- sifat bo'yicha ekspert-auditorlar.

Majburiy akkreditlashtirish ob'ektlariga, qonunchilik faoliyatida amalga oshiriluvchi boshqariladigan sohalar kiradi.

Sertifikatlashtirish, standartlashtirish, metrologiya, sinash, nazorat, kalibrovka (qiyoslash) sohalarida o'zining faoliyati natijalarini xalqaro tizim darajasida va Tizim qoidalari bo'yicha ixtiyoriy tartibda akkreditlangan kelishuvlar bo'yicha tan olinishga erishuvchi ob'ektlar bo'lishi mumkin.

Birga qo'shiluvchi faoliyatlar, ikki va undan ortiq akkreditatsiya sohalar, ushbu sohalar bo'yicha ob'ektlarning barchasi akkreditlanishi lozim. Bunda akkreditlash bir vaqtini o'zida barcha talab qilingan sohalar yoki akkreditlash tartibiga qo'shimcha sohalar, bosqichma-bosqich o'tkazilishi mumkin.

## **12.2. Akkreditlashtirish tizimining tashkiliy tuzilmasi.**

O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi ("O'zstandart" agentligi) - O'zbekiston Respublikasining akkreditatsiya bo'yicha Milliy organi hisoblanadi.

Akkreditlashtirish milliy tizimi tuzilmasiga quyidagilar kiradi:

- akkreditlashtirish bo'yicha kengash;
- akkreditlashtirish bo'yicha idora (O'zstandart Agentligi "Akkreditatsiya markazi" DUK);
- ilmiy-uslubiy markaz (Standartlar instituti);
- akkreditlashtirish ob'ektlari;
- akkreditatsiya bo'yicha ekspert-auditorlar (baholovchilar).

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Muvofiqlikni baholash organlarini akkreditatsiyadan o'tkazish sohasidagi ishlarni takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2019 yil 24 aprelidagi 349-sonli qaroriga asosan akkreditatsiya bo'yicha ishlarni olib borish "Akkreditatsiya markazi" DUK (Akkreditatsiya markazi)ga yuklatilgan.



**12.2.1-rasm. Akkreditlashtirish milliy tizimining tashkilish sxemasi.**

Akkreditatsiya markazining ustuvor vazifalari va faoliyat yo'nalishlari:

- muvofiqlikni baholash organlarini akkreditatsiyadan o'tkazishda akkreditatsiya jarayonining betarafligi va xolisligini ta'minlagan holda manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik;
- Akkreditatsiya bo'yicha Osiyo-Tinch okeani hamkorligiga (ARAC), Laboratoriyalar akkreditatsiyasi bo'yicha xalqaro tashkilotga (ILAC) va Akkreditatsiya bo'yicha xalqaro forumga (IAF) to'laqonli a'zo sifatida kirish;
- akkreditatsiya milliy tizimini xalqaro normalar va mezonlarga muvofiq doimiy ravishda rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash, ISO/IEC 17011 xalqaro standarti talablariga rioya qilish;
- akkreditatsiya tartib-taomillariga taalluqli zarur axborotni, shu jumladan, o'zining rasmiy veb-sayt orqali erkin olish imkoniyatini yaratish;
- O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari asosida akkreditatsiya bo'yicha ishlar natijalarining xorijiy mamlakatlar tomonidan e'tirof etilishini ta'minlash yuzasidan zarur choralar ko'rish;
- akkreditatsiyadan o'tkazilgan tashkilotlar va ularning akkreditatsiya sohasi to'g'risidagi ma'lumotlar bazasining shakllantirilishi va dolzarb holatda saqlanishini, shuningdek, tegishli axborotning maxfiyligiga rioya qilgan holda jamoatchilikning ulardan foydalanishini ta'minlash.

Akkreditatsiya markaziga berilgan huquqlar:

• akkreditatsiya sohasida idoralararo xususiyatga ega, shu jumladan, xorijda akkreditatsiya ishlari natijalari e'tirof etilishini ta'minlashga qaratilgan xalqaro shartnomalarni belgilangan tartibda tuzish;


• ISO/IEC 17000 xalqaro standartlariga, shuningdek, Akkreditatsiya bo'yicha Osiyo-Tinch okeani hamkorligi (ARAC), Laboratoriyalar akkreditatsiyasi bo'yicha xalqaro tashkilot (ILAC) va Akkreditatsiya bo'yicha xalqaro forum (IAF) talablari va tavsiyalariga muvofiq akkreditatsiya tartibotlari bo'yicha qoidalar, yo'riqnomalar va nizomlar ishlab chiqish va tasdiqlash;

• treninglar, seminarlar o'tkazish va baholovchilar, texnik ekspertlar, shuningdek, muvofiqlikni baholash sohasida ishtirok etuvchi mutaxassislar malakasini baholash;

• o'z xizmat vazifalarini vijdonan va samarali bajaryotgan xodimlarga o'z mablag'lari hisobidan lavozim maoshining ikki baravari miqdorigacha bo'lgan miqdorda har oylik ustamalar to'lash;

• eng yaxshi amaliyotlarga muvofiq vazifalarni sifatli bajarish maqsadida mustaqil maslahatchilar va ekspertlarni, shu jumladan xorijiy maslahatchilar va ekspertlarni shartnoma asosida jalb qilish;

• Akkreditatsiya markazining tuzilmasini, xodimlarining shtatdagi soni va ish haqi miqdorlarini mustaqil tasdiqlash.



Akkreditatsiya milliy tizimini rivojlantirishning strategik yo'nalishlarini belgilab berishi va Akkreditatsiya markazi ushbu yo'nalishlarga erishishi yuzasidan monitoring olib borishi uchun Akkreditatsiya markazi, O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi va boshqa manfaatdor vazirliklar, idoralar, nodavlat tashkilotlar vakillari, tadbirkorlik sub'ektlari va jismoniy shaxslar ishtirokida Akkreditatsiya bo'yicha kengashi tashkil etilgan.

Akkreditatsiya kengashining a'zolari:

- "Akkreditatsiya markazi" DUK;
- Hukumat;
- O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi;
- O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi;
- O'zbekiston Respublikasi iste'molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyatlari federatsiyasi;
- muvofiqlikni baholash organlari;
- laboratoriya birlashmalari;
- ilmiy tashkilotlar;
- nodavlat notijorat tashkilotlari;
- xo'jalik yurituvchi subyektlar vakillari hisoblanishadi.

Akkreditatsiya kengashi jamoaviy maslahatchi organ bo'lib, uning asosiy vazifalari O'zbekiston Respublikasi Milliy akkreditatsiya tizimining strategik yo'nalishlarini ishlab chiqishda ishtirok etish, Akkreditatsiya markazi faoliyatini kuzatib borish va o'z faoliyatida betaraflik va xolislik prinsiplariga rioya qilish hisoblanadi.

Bundan tashqari, Kengashning vazifalariga strategik sohalarida Milliy akkreditatsiya tizimining yutuqlarini o'rganish, xususan, akkreditatsiya natijalarini xalqaro darajada tan olinishi faoliyatini o'rganish va uning doimiy rivojlanishi va takomillashuviga ko'maklashish kiradi.

Kengash o'zining davriy yig'lishini yig'adi va umumiy tashkilot bo'lib hisoblanadi. Tashkilotning yig'ilishni tayyorlash, qabul qilingan qarorlarni bajarilish masalalari bo'yicha doimiy ishlar uchun kengashning kotibiyati yaratilgan.

Kengash qarorni qabul qilish va bajarish uchun kelishmovchiliklar bo'yicha ishchi guruh va apellyatsiya bo'yicha komissiya tuzadi.

Zaruriyat bo'lganda tizimda bir nechta akkreditlashtirish bo'yicha idoralar tuziladi.

Akkreditlashtirish bo'yicha idora quyidagi yo'nalishlar bo'yicha faoliyatni amalga oshiradi:

- akkreditlashtirishni o'tkazish uchun boshqaruv va protsedura qoidalarini o'rnatadi;
- akkreditlashtirish bilan navbatdagi inspeksion nazoratini o'tkazadi;
- akkreditlangan ob'ektlar, ya'ni nomi, ob'ekt rahbari va manzili, akkreditatsiya sohasi va akkreditatsiya attestatining amal qilish muddati to'g'risidagi ma'lumotlardan tarkib topgan reestrini yuritadi;

- xorijiy akkreditlangan sinov laboratoriyalari, sertifikatlashtirish va nazorat idoralari, kelishuv doirasidagi O'zbekiston Respublikasida tan olingan muvofiqlik sertifikati va sinov bayonnomalari ro'yxatini yuritadi;

- akkreditlashtirish masalalari bo'yicha milliy tizimlar va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni amalga oshiradi;

O'zbekiston Respublikasida akkreditlashtirish natijalari haqida qiziquvchi tashkilotlar va xalqaro akkreditlashtirish tizimlarni xabardor qiladi va tizim hujjatlarini aktualligini (dolzarbligini) ta'minlaydi.

Ilmiy-uslubiy markaz tizimda quyidagi vazifalarni bajaradi:

- tizimning me'yoriy bazasini ishlab chiqadi va takomillashtiradi;

- ularni akkreditlashtirish maqsadi uchun tashkilot hujjatlarini ekspertizadan o'tkazadi;

- akkreditlashtirish bo'yicha idora topshirig'i bo'yicha akkreditlangan ob'ektlarni faoliyatini inspeksion nazorati va qayta akkreditlashtirishda, akkreditatsiya bo'yicha komissiya ishlarida qatnashadi;

- akkreditlashtirish bo'yicha ekspert-auditorlarni tayyorlash va qayta tayyorlash;

- qiziquvchi tashkilotlar va shaxslarga akkreditlashtirish tartibi, mezonlari va qoidalari bo'yicha maslahat beradi.

Akkreditlashtirish tizimida akkreditlashtirishga hohish istagini bildirgan tashkilot va shaxslar (akkreditlashtirish ob'ektlari):

- talab etilgan akkreditlashtirish sohasiga muvofiq aniqlangan ish turlarini bajarishga tayyorgarligini ta'minlaydi;

- akkreditlashtirish idoralari va akkreditlashtirish jarayonida tizimning boshqa qatnashchilari bilan o'zaro faoliyatda akkreditlashtirishga ariza beradi;

- o'rnatilgan tartibga muvofiq akkreditlashtirish bo'yicha ishlarga (uning natijalaridan mustaqil) to'lovlarni bajaradi.

Akkreditlangan tashkilot va shaxslar:

- o'rnatilgan qoidalar bo'yicha akkreditatsiya sohasiga muvofiq qat'iy rioya qilgan holda ishlarni bajaradi;

- akkreditatsiya shartlarini buzgan holatlarda muvofiqlikni tasdiqlash bo'yicha faoliyati to'xtatiladi yoki tugatiladi yoki akkreditatsiya attestati to'xtatiladi yoki bekor qilinadi;

- o'rnatilgan talablarga (shuningdek sifat tizimi) muvofiq tashkilot qo'llab-quvvatlaydi;

- akkreditlashtirish sohasidagi o'ziga xos ishlarni bajarishda tashkiliy tuzilmasi, texnikaviy qurilmalari va boshqa shartlarning o'zgarishi haqida faoliyati to'g'risida ma'lumotlarni akkreditlovchi idoraga taqdim etadi;

- akkreditlashtiruvchi idoraning inspeksion nazorati faoliyati va muvofiq to'g'rilovchi amallarni qabul qilishda zaruriy sharoitlarni yaratadi.

## Nazorat savollari

1. "Akkreditlash, akkreditlash tizimi" tushunchasi deganda nimani tushunish mumkin?

2. Akkreditlashtirish va muvofiqlikni baholash deganda nimani tushunasiz?

3. Akkreditlashtirish qoidasi va tartibini tushuntiring.

4. Akkreditlashtirish milliy tizimini tuzilmasini aytib bering.

5. Akkreditlashtirish milliy tizimini tushuntiring.

6. Akkreditlashtirish nima va uning tamoyillarini ayting?

7. Akkreditlashtirish ob'ektlari nimalar?

8. Akkreditlashtirishning maqsad va vazifalari.

### 13-mavzu. O'zbekiston Respublikasining "Muvofiqlikni baholash to'g'risida"gi qonun

13.1. O'zbekiston Respublikasi "Muvofiqlikni baholash to'g'risida"gi qonun

#### 13.1. O'zbekiston Respublikasi "Muvofiqlikni baholash to'g'risida"gi qonun

O'zbekiston Respublikasi muvofiqlikni baholash tizimida qonuniy asos sifatida "Muvofiqlikni baholash to'g'risida"gi qonun amal qiladi. Ushbu "Muvofiqlikni baholash to'g'risida"gi qonun Qonunchilik palatasi tomonidan 2013 yil 6 iyunda qabul qilingan va Senat tomonidan 2013 yil 22 avgustda ma'qullangan. Ushbu "Muvofiqlikni baholash to'g'risida"gi qonun xukumat tomonidan 2013 yil 4 oktyabrda qabul qilingan. Qonunning maqsadi muvofiqlikni baholash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdir.

Qonun 4 bob, 33 moddadan iborat.


| Bob mazmuni                   | Moddalar                                                      |
|-------------------------------|---------------------------------------------------------------|
| <b>1-BOB. Umumiy qoidalar</b> | 1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi                              |
|                               | 2-modda. Muvofiqlikni baholash to'g'risidagi qonun hujjatlari |
|                               | 3-modda. Asosiy tushunchalar                                  |
|                               | 4-modda. Muvofiqlikni baholashning asosiy vazifalari          |
|                               | 5-modda. Muvofiqlikni baholashning asosiy printsiplari        |
|                               | 6-modda. Muvofiqlikni baholash ob'ektlari                     |
|                               | 7-modda. Muvofiqlikni baholashni amalga oshirish              |
|                               | 8-modda. Akkreditatsiyani amalga oshirish                     |
|                               | 9-modda. Muvofiqlikni deklaratsiyalash                        |
|                               | 10-modda. Inspeksiya nazoratini amalga oshirish               |

|                                                                                                   |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                   |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|                                                                                                   | 11-modda. Sertifikatlashtirishni, yukni ortishdan oldin va (yoki) yukni tushirish vaqtidagi inspeksiyaning, mahsulot sinovini, sanitariya-epidemiologiya, veterinariya, veterinariya-sanitariya, fitosanitariya xulosalarini yoki ekologik ekspertizani amalga oshirish                                                                                                                           |
|                                                                                                   | 12-modda. Muvofiqlikni tasdiqlashni amalga oshirish                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                               |
|                                                                                                   | 13-modda. Muvofiqlikni baholash qoidalarini va tartib-taomili                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                     |
|                                                                                                   | 14-modda. Muvofiqlikni baholash natijalarini tan olish                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                            |
| <b>2-bob.<br/>Muvofiqlikni<br/>baholash<br/>sohasini davlat<br/>tomonidan<br/>tartibga solish</b> | 15-modda. Muvofiqlikni baholash sohasini davlat tomonidan tartibga solishni amalga oshiruvchi organlar                                                                                                                                                                                                                                                                                            |
|                                                                                                   | 16-modda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining muvofiqlikni baholash sohasidagi vakolatlari                                                                                                                                                                                                                                                                                            |
|                                                                                                   | 17-modda. O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligining, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining, O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligining, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasining, boshqa davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining muvofiqlikni baholash sohasidagi vakolatlari |
|                                                                                                   | 18-modda. Muvofiqlikni baholash organlarining huquqlari                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                           |
|                                                                                                   | 19-modda. Muvofiqlikni baholash organlarining majburiyatlari                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                      |
| <b>3-bob.<br/>Akkreditatsiya</b>                                                                  | 20-modda. Milliy akkreditatsiya organi                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                            |
|                                                                                                   | 21-modda. Akkreditatsiya shartlari                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                |
|                                                                                                   | 22-modda. Akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnoma                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                  |
|                                                                                                   | 23-modda. Milliy akkreditatsiya tizimining belgisi                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                |
|                                                                                                   | 24-modda. Akkreditatsiya sohasini o'zgartirish                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                    |
|                                                                                                   | 25-modda. Akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnomaning amal qilishini to'xtatib turish                                                                                                                                                                                                                                                                                                              |
|                                                                                                   | 26-modda. Akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnomaning amal qilishini tugatish                                                                                                                                                                                                                                                                                                                      |
|                                                                                                   | 27-modda. Akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnomani bekor qilish                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                   |
| <b>4-bob.<br/>Yakunlovchi<br/>qoidalar</b>                                                        | 28-modda. Muvofiqlikni baholashga doir ishlarni moliyalashtirish                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                  |
|                                                                                                   | 29-modda. Muvofiqlikni baholash organlarining birlashmalari                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                       |
|                                                                                                   | 30-modda. Nizolarni hal etish                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                     |
|                                                                                                   | 31-modda. Muvofiqlikni baholash to'g'risidagi qonun                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                               |

|  |                                                              |
|--|--------------------------------------------------------------|
|  | hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik                     |
|  | 32-modda. Qonun hujjatlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirish |
|  | 33-modda. Ushbu Qonunning kuchga kirishi                     |

### Muvofiqlikni tasdiqlash sohasidagi tushunchalar

Muvofiqlikni baholash mahsulot, jarayon, tizimga nisbatan o'rnatilgan talablarni shaxslar yoki idoralar tomonidan baholashni amalga oshirishni bajarilishini tasdiqlash zaruriyati bilan bog'liqdir. Muvofiqlikni tasdiqlash mahsulot, jarayon, tizim, shaxslar yoki idoralarni xalqaro, hududiy yoki milliy standartlarga tegishli me'yoriy hujjatlarga muvofiq bayon qilingan talablarning bajarilishini kafolatlashda xizmat qiladi (13.1.1-rasm).



13.1.1- rasm. Muvofiqlik atamasi bilan bog'liq tushunchalar sxemasi.

Xalqaro standartlarni hamma tomonlama uyg'unlashtirish va darajali tan olinishi savdoda texnik to'siqlarni bartaraf etish va raqobatni rivojlantirishning samarali vositalaridan biridir. Fan-texnikaning shiddatli rivojlanishi, ishlab chiqarish va iqtisodiy tizimlarini yagona iqtisodiy siyosat asosida o'zaro bog'langan holda rivojlanishi hamda xalqaro savdo-sotiqni kengaytirishda muvofiqlikni baholash tizimi va bajariladigan jarayonlarni bixilllashtirish zaruriyati yuzaga kelmoqda. SHuni tasdiqlab o'tish kerakki, barcha tizimlar va muvofiqlikni baholash jarayonlarida barcha qiziquvchi tomonlarni jalb qilish, ochiq-oydinlik va savdoda ortiqcha to'siqlarni yaratmaslik, haq-huquqlarini cheklamasligini ko'zda tutib maqsadli harakat qilinishi kerak. SHu maqsadda dunyo bo'yicha tan olingan standartlashtirish bo'yicha xalqaro tashkiloti barcha mamlakatlar, ya'ni rivojlanayotgan davlatlar uchun ham muvofiqlikni baholash tizimida qator xalqaro standartlarni amaliy aniqlab bergan.

Muvofiqlikni baholashning asosiy tamoyillari ISO/IEC 60 xalqaro qo'llanmasida keltirilgan. Muvofiqlikni baholash faoliyatida qatnashuvchi barcha tashkilotlar jumladan, muvofiqlikni baholash va akkreditlashtirish bo'yicha idoralar quyidagi shartlarni bajarishlari lozim:

- xalqaro standartlar va ISO/IEC qo'llanmalariga asoslanib o'z faoliyatlarini olib borishi;

- o'zining texnik layoqatligini saqlab turish, ya'ni muvofiqlikni baholash natijalarining tan olinishini soddalashtirish va mahsulot, jarayon, tizim, shaxs yoki idoralarni o'rnatilgan talablarga muvofiqligini yetarli darajada kafolatlashi;

- barcha maxfiy ma'lumotlarni himoyalashi;

- o'z faoliyatini kasbiy halollik bilan amalga oshirishi, odob-axloq tamoyillariga rioya qilish va karnsitmaslikka qaratilgan tarzda va tomonlarni barcha nizolaridan o'zini chetga olishi;

- adolatli va samarali tarzda tezkorlik bilan ishlashi, talabnomani ko'rib chiqishi va baholashni bajarishi;

- shikoyat yoki apellyatsiya holatlarini ko'rib chiqishda adolatli va samarali tarzda, tezkorlik bilan to'g'rilovchi amallarni amalga oshirishi zarur;

- muvofiqlikni baholash, muvofiqlik guvohnomasini berish haqidagi tasdiqlovchi qaror yoki uni rad etilishi, bekor qilish, to'xtatish va faoliyatga chek qo'yish bo'yicha faoliyatlari haqidagi yozuvlarni yuritish hamda saqlashi;

- barcha arizachilarga taklif etilayotgan xizmatlar va uning uchun to'lov shartlari to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim qilishga tayyorligi hamda beriladigan sertifikatlar, akkreditlash sohasi va hokazolar to'g'risida ma'lumotlar mavjudligi;

- o'zining layoqatligini muvofiq mexanizmlardan (masalan, akkreditlash, ekspert baholash) foydalanish yo'li bilan namoyish qilishi;

- muvofiqlikni baholash jarayoni haqida muvofiq hujjatlashtirilgan ko'rsatma bilan hisobotni, zaruriyat bo'lsa, aniqlangan nomuvofiqliklarni yoki talab qilingan to'g'rilovchi amallarni arizachiga taqdim etishi;

- muvofiqlik belgisidan foydalanilgan holatlarda bu belgi bilan bog'liq bo'lgan noto'g'ri foydalanishlardan himoya qilish uchun qo'llash qoidolari yoki shartlarini ta'minlashi;

- rivojlanayotgan mamlakatlar ishtiroki bilan bog'liq bo'lgan muammolarni va rivojlangan mamlakatlar faoliyati natijalaridan foydalanishni hisobga olish.

Asos soluvchi ISO/IEC 17000 xalqaro standarti bo'yicha muvofiqlikni baholash bu "mahsulot, jarayon, tizim, shaxs yoki idoralarga berilgan talablarni bajarilishini asoslash yoki isbotlash" deb ifodalangan. Bunda muvofiqlikni baholash deganda, shunday faoliyat turlari ya'ni sinov, nazorat, muvofiqlikni tasdiqlash hamda muvofiqlikni baholash bo'yicha akkreditlangan idoralar tushuniladi. Sinov laboratoriyalari, sertifikatlashtirish bo'yicha idoralar va nazorat idoralari hamda muvofiqlikni baholash bo'yicha idoralarni akkreditlashda idoralarning muvofiqlikni baholash bo'yicha amalga oshirilayotgan faoliyatlari muvofiqlashtiriladi. "Muvofiqlikni tasdiqlash" jarayoni "arizani, ob'ektni tekshiruvdan so'ng belgilangan talablarni bajarishini isbotlanganligi to'g'risidagi qaror qabul qilinganligi asosida (sertifikat ko'rinishida rasmiy hujjat yoki muvofiqligi to'g'risida deklaratsiya) berish" sifatida ifodalangan jarayondir.

ISO/IEC 17000 standarti bo'yicha akkreditatsiya bu "muvofiqlikni tasdiqlovchi uchinchi tomon, muvofiqlikni baholash bo'yicha idoraga tegishli bo'lib, muvofiqlikni baholash bo'yicha muayyan topshiriqlarni bajarish uchun uning layoqatligini rasmiy isbotlashda xizmat qiladi".

Mahsulot atamasi "jarayon natijasi" sifatida ifoda etiladi. Buning uchun mahsulot xavfsiz bo'lib va yaxshi sifatga ega bo'lishi va shuni unutmazlik kerakki, u qandaydir talablarga muvofiq bo'lishi va bu muvofiqlikning ishonchli isbotlashni qandaydir ifodasini ta'minlanishi shart. O'z DSt ISO 9000:2015 standarti mahsulotlarning asosiy to'rt turini ifoda etadi: qurilmalar, qayta ishlanadigan materiallar, xizmatlar va dasturiy ta'minot. "Muvofiq" so'zi esa "o'rnatilgan talablarni bajarilishi" ma'nosini anglatadi. Mahsulotlarga birinchi navbatda xavfsizlik bo'yicha reglamentlarda hamda hukumat tomonidan tasdiqlangan reglamentlar bilan uyg'unlashgan me'yoriy hujjat (standart, texnik shart)larda talablar o'rnatilgan.

Muvofiqlikni tasdiqlashda ikkita asosiy yondashuv mavjud bo'lib, bular mahsulotlarni sertifikatlashtirish va deklaratsiya qilinishidir. Muvofiqlik haqidagi deklaratsiyani taqdim qilish yoki sertifikatni berish muvofiqlikni tasdiqlashning natijalari bo'lib hisoblanadi. Muvofiqlikni tasdiqlashni iste'molchilar ham amalga oshirishlari mumkin lekin, bunda rasmiy hujjat to'ldirilmaydi.

Sertifikatlashtirish deganda "mahsulot, jarayon, tizim yoki xodimlarning berilgan talablarga muvofiqligini yozma ravishda tasdiqlovchi uchinchi tomon yordamidagi jarayon" tushuniladi. Sertifikatlashtirish mos ravishda barcha ob'ektlar muvofiqligini baholashni istesno qilish uchun xuddi muvofiqlikni baholash bo'yicha idoralarda ba'zi hollarda "akkreditlash" atamasi ham qo'llaniladi.

Deklaratsiyalash vaqtida mahsulot muvofiqligini tasdiqlashni ishlab chiqaruvchining o'zi yoki uning rasmiy vakillari (etkazib beruvchilari) ham amalga oshirishadi.


Uchinchi tomon, bu mahsulotni baholash va sinashga layoqatli idora bo'lib, u yetkazib beruvchilardan (birinchi tomon) va iste'molchilardan (ikkinchi tomon) ham mustaqil bo'lishi lozim.

Bunda muvofiqlikni sertifikatlashtirish deganda "mahsulotni muayyan me'yoriy hujjatga muvofiq kerakli ishonchlilik bilan ta'minlangan hamda identifikatsiyalangan tarzda tasdiqlovchi va sertifikatlashtirish qoidalari bo'yicha berilgan hujjat" tushuniladi. Deklaratsiya esa yetkazib beruvchi muvofiqlik to'g'risidagi – ushbu "etkazib berilayotgan mahsulotni muayyan me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiqligini (yaratilganligini javobgarlik bilan isbotlash) yozma ravishda kafolatlash" tushuniladi.

Sertifikat yoki deklaratsiya me'yoriy hujjatlarning barcha talablariga nisbatan nisbiy bo'lishi hamda uning alohida bo'limi yoki mahsulotning muayyan tavsiflari hujjatning o'zida aniq qilib aytib o'tilgan bo'ladi. Sertifikatga yoki deklaratsiyaga taqdim qilinayotgan ma'lumotlar, muvofiqlikni

baholash natijalari bilan uni solishtirish, yuzaga kelgan asoslashni bu hujjatlarda rasmiylashtirish imkoniyatlarini ta'minlash lozim.

Muvofiqlikni baholashni belgilangan talablarga muvofiqlik darajasi hamda bunga aloqador faoliyat turlarini sinash, o'lchash, nazorat va audit sifatida muntazam (doimiy suratda) tekshirish deb hisoblash mumkin (13.1.2-rasm).



13.1.2- rasm. Mahsulot muvofiqligini baholash tuzilmasi:

SI – sertifikatlashtirish idorasi; SL – sinov laboratoriyasi; SM – sinov markazi.

### Muvofiqlikni baholash bo'yicha xalqaro va xorijiy tajribalar

Dunyo amaliyotida mahsulotlar, jarayonlar, xizmatlar xavfsizligini ko'plab nazorat usullari va jarayonlarini turli xil idoralar (tashkilotlar) bajaradi. Bu mahsulot xavfsizligi va sifati nazorati bo'yicha faoliyatni buyurtma mahsulot qabul qilish va mahkamaviy tekshiruv, sanitar-gigienik nazorat davlat idoralari, standartlarga rioya qilish ustidan davlat nazoratlarini milliy iste'molchi tashkilotlar bajaradi. Muvofiqlikni tasdiqlashning umumiy ko'rinishi 13.1.3-rasmda keltirilgan. Ushbu rasm muvofiqlikni baholash tizimida qanday faoliyat turlarini akkreditlashtirish mavjudligini anglatadi.

Deklaratsiyani qabul qilish uchun deklarantni akkreditlash talab qilinmaydi. Ayni vaqtda deklaratsiya asosining qoidasi sifatida baholash natijasi kiradi, ya'ni akkreditatsiya talab qiluvchi masalan, sertifikatlashtirilgan sifat menejmenti tizimi yoki mahsulotni sinashda akkreditlangan laboratoriyalar

bo'lishadi. Ro'yxatga olish jarayoni deganda muvofiqlik reestriga baholash ob'ektini ro'yxatga kiritish tushuniladi. Masalan, akkreditlovchi idora chop etayotgan sertifikatlashtirilgan mahsulotlar reestri bo'lib milliy sertifikatlashtirish idorasi va bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish idorasi yoki akkreditlangan laboratoriyalar reestrlari hisoblanadi.

Barcha rivojlangan davlatlar uchun mahsulotlar, jarayonlar va xizmatlar xavfsizligi nazoratiga quyidagicha yondashuv tavsiflanadi.

Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni xavfsizligi uchun mas'uliyatli xususiy biznes an'alarining murakkab rivojlanishi va xavfsizligi, uni tekshirish, sinash va yaroqsiz qilish sohasida taraqqiy etgan yaxshi qonunchilik mavjud bo'lishini ishlab chiqaruvchilar umid qilishadi. Davlat nazorat idoralari yalpi tekshiruvni o'tkazishmaydi, balki faqat adolatsiz ishlab chiqaruvchilar munosabatlari bo'yicha sotuvchi tomonlar yoki uning vakili murojaat qilganida sud tartibida kerakli choralarini qabul qiladi.


Xalqaro talablarga muvofiq muvofiqlikni baholash bo'yicha organlar (sertifikatlashtirish organlari, sinov va kalibrlash laboratoriyalari, inspeksiya organlari) akkreditatsiyadan o'tkaziladi.

Muvofiqlikni baholash bo'yicha organlarni akkreditatsiyalash Akkreditatsiya bo'yicha organ tomonidan amalga oshiriladi.

ISO/IEC 17000 "Muvofiqlikni baholash. Lug'at va umumiy printsiplar" standartiga muvofiq, akkreditatsiyalash - muvofiqlikni baholashga tegishli bo'lgan, muvofiqlikni baholash bo'yicha muayyan vazifalarni bajarish uchun uning kompetentligining rasmiy isboti bo'lib xizmat qiluvchi, uchinchi taraf tomonidan muvofiqlikni tasdiqlashdir (13.1.4-rasm).

Boshqacha qilib aytganda, akkreditatsiyalash - Akkreditatsiya bo'yicha organ tomonidan Muvofiqlikni baholash bo'yicha organni belgilangan talablarga muvofiqligini baholash va ijobiy hollarda uning belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlash jarayonidir.

Muvofiqlikni baholash bo'yicha organlarga qo'yilgan talablar Standartlashtirish bo'yicha xalqaro tashkilot (ISO)ning tegishli standartlarida belgilangan. Masalan, mahsulotlarni sertifikatlashtirish organlariga qo'yilgan talablar ISO/IEC 65, sinov va kalibrlash laboratoriyalariga qo'yilgan talablar ISO/IEC 17025, inspeksiya organlariga qo'yilgan talablar ISO/IEC 17020 standartlarida belgilangan. Akkreditatsiya bo'yicha organlarga qo'yilgan talablar esa ISO/IEC 17011 standartida belgilangan.



### 13.1.3-rasm. Muvofiqlikni tasdiqlash turlari.

Akkreditatsiya bo'yicha organ muvofiqlikni baholash bo'yicha organlarning vakolatini baholaydi. Akkreditatsiya bo'yicha organ akkreditlangan muvofiqlikni baholash bo'yicha organlarning muvofiqlikni baholash natijalarini xalqaro miqyosda tan olish yo'li bilan savdoga ko'maklashishi mumkin. Bunday baholash, agar bir xil mezonlar bo'yicha o'tkazilgan va Akkreditatsiya bo'yicha organ bilan o'zaro tan olish bitimiga a'zo bo'lsa, nufuzli bo'ladi.

Majburiy muvofiqlikni tasdiqlash sertifikatlashtirish va sinash hamda texnik shartlarga global yondoshish va standartlarni texnikaviy uyg'unligiga Yangicha yondashuv doirasida ishlatiladi.

Muvofiqlikni baholashga Yangicha yondashuvning asosiy tamoyillari quyidagilar hisoblanadi.

- mahsulotga majburiy talablari (xavfsizlik talablari) direktivlarda (qonuniy aktlarda) o'rnatiladi. Ularda muvofiqlikni baholash uchun qo'llaniladigan jarayonlar ko'rsatilishi lozim;

- mahsulotga muayyan talablar ixtiyoriy statusiga ega bo'lib, u standartlarda o'rnatiladi. Standartlar direktivalar talablariga uyg'unlashgan qoida sifatida bo'ladi;

- mahsulot uyg'unlashgan standartlarga muvofiq yaratilgan bo'lsa, uni direktivalar talablariga muvofiq deb hisoblash mumkin;

- mahsulot muvofiqligini tasdiqlash jarayoni uyg'unlashgan standartlarga asoslanadi;


- agar tayyorlovchi uyg'unlashgan standartlardan foydalanishni xohlamasa, unda uchinchi tomon yordami bilan, u, mahsulotni direktivalar talablariga muvofiqligini isbotlashga majbur.

|            |                                                  |
|------------|--------------------------------------------------|
| ISO/IEC 65 | Mahsulotlarni sertifikatlashtirish idoralari     |
| ISO/IEC    | Sinov va kalibrlash laboratoriyalari             |
| ISO/IEC    | Inspeksiya organlari                             |
| ISO/IEC    | Sifat tizimlarini sertifikatlashtirish idoralari |
| ISO/IEC    | Xodimlarni sertifikatlashtirish idoralari        |

**13.1.4- rasm. Sertifikatlashtirish va muvofiqlikni baholash sohasidagi xalqaro me'yoriy hujjatlar.**

Global yondashuv quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- mahsulot muvofiqligini baholashning natijalari teng qiymatligi inobatga olinib bir qancha jarayonlaridan foydalaniladi;
- jarayonlar yo loyihalashga yoki ishlab chiqarishga yoki u boshqaga taalluqli modullardan tarkib topadi;
- baholash jarayonlarini tayyorlovchi taqdim qiladi, direktivada o'rnatilgan qatoridan tanlanadi;
- baholash natijasi ko'rilayotgan mahsulot yoki ishlab chiqarish (sifat menejmenti tizimi) nazorati teng qiymatli sifatida qaraladi.
- muvofiqlikni baholash jarayoni direktiva talablariga bog'liq bo'lib, uchinchi tomon bo'luvchi akkreditlangan (yoki vakolatli) idora va tayyorlovchi (birinchi tomon) amalga oshiradi.



**13.1.5- rasm. Majburiy muvofiqlikni tasdiqlash shaklini tanlashga umumiy yondashuv.**

Muvofiqlikni baholash natijasi bo'lib deklaratsiya muvofiqligi va SE belgisi bilan mahsulotni tamg' alash hisoblanadi (13.1.6-rasm).



**13.1.6-rasm. SE belgisining chizmasi va tashqi ko'rinishi.**

Ikkala yondashuv ham keng miqyosda mahsulotlarni erkin aylanishi va ularning xavfsizligini kerakli darajada ta'minlashda ES shartlarini yaratishga yo'naltirilgan. Bunda Yangicha yondashuv asosan mahsulotlarga talablarni aniqlovchi yagona umumYevropa me'yoriy bazasini yaratish va bu talablarga mahsulot muvofiqligini baholash qismida Yangicha yondashuv qoidalarini Global rivojlanishi nazarda tutiladi.

Yangicha va Global yondashuvlar mahsulot talablariga va uni muvofiqligini baholash protseduralariga yagonaligini ta'minlash Yevropa direktivalari orqali amalga oshiriladi.

Texnikaviy uyg'unlik bo'yicha direktivalarni qo'llash uchun mo'ljallangan SE tamg'alashni qo'llash va qo'yish qoidalari va muvofiqlikni baholashning turli xil fazalari modullari bo'yicha ES Kengashining 1993 yil 22 iyuldagi 93/465/EES qarori modulli yondashuvni qo'llash o'rnatuvchi, muvofiqlikni tasdiqlash bo'yicha ES asos soluvchi hujjatlari bo'lib hisoblanadi.

Qarorda muvofiqlikni tasdiqlash protsedurasini (modullari) tarkibi, texnikaviy uyg'unlik bo'yicha direktivalar ishlab chiqishda ularni mezonlarini tanlash hamda loyihalashtirish, tayyorlash, bozorga chiqarish va ekspluatatsiya qilish yoki mahsulotga qo'llashga taalluqli qonunchilikka muvofiq SE tamg'asini qo'yish qoidalari bo'yicha tavsiyalar tarkib topgan.

Mahsulot me'yoriy talablarga muvofiqligini tasdiqlashga modulli yondashuv quyidagi xususiyatlarni tavsiflaydi:

- muvofiqlikni tasdiqlash turli xil turdagi mahsulotlar uchun qo'llanuvchi "modullar" jarayonlariga bo'linuvchi jarayon sifatida;
- modullar yo loyihalashtirish bosqichida yoki uni ishlab chiqarish bosqichida, yoki ikkala bosqichlarda qo'llaniladi;
- sakkizta asosiy modullar va sakkizta turli xil muvofiqlikni tasdiqlash jarayonlari to'plami hamda ularning modifikatsiyasi bo'lishi mumkin;
- muvofiqlikni tasdiqlash mahsulot o'rnatilgan talablarga muvofiqligi (yoki nomuvofiqligi) to'g'risidagi qaror qabul qilish va SE muvofiqlik bilan tamg'alashni kiritish imkoniyati bilan tugallanadi;
- muvofiqlikni tasdiqlash jarayoni birinchi tomon (tayyorlovchi) yoki uchinchi tomon (akkreditlangan yoki vakolatli idora) qatnashuviga asoslanadi.


### Muvofiqlikni baholashning Yevropa modullari

13.1.1-jadval

| Modul | Bajaruvchilar                               | Tafsifi                                                                                            |
|-------|---------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------|
| A     | Ishlab chiqaruvchi                          | - Texnik faylda xususiy isbotlari o'tkaziladi. Muvofiqlik to'g'risida Deklaratsiya qabul qilinadi. |
| B     | Vakolatli idora                             | - Texnikaviy hujjatlar ko'rib chiqiladi. Mahsulot namunasi sinalladi. Sertifikat beriladi.         |
| C     | V moduli bajarib bo'lganidan so'ng tegishli |                                                                                                    |
|       | Ishlab chiqaruvchi                          | - Muvofiqlik to'g'risida Deklaratsiya qabul qilinadi.                                              |
| D     | V moduli bajarib bo'lganidan so'ng tegishli |                                                                                                    |
|       | Vakolatli idora                             | - Ishlab chiqarish bosqichlarida sifat tizmi baholanadi.                                           |
|       | Ishlab chiqaruvchi                          | - Muvofiqlik to'g'risida Deklaratsiya qabul                                                        |

|   |                                             |                                                                                                                                    |
|---|---------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|   |                                             | qilinadi.                                                                                                                          |
|   | Vakolatli idora                             | - Sifat tizimi bo'yicha tekshiruv amalga oshiriladi.                                                                               |
| E | V moduli bajarib bo'lganidan so'ng tegishli |                                                                                                                                    |
|   | Vakolatli idora                             | - Tekshirish va sinash bosqichlarida sifat tizimi baholanadi (E).                                                                  |
|   | Ishlab chiqaruvchi                          | - Muvofiqlik to'g'risida Deklaratsiya qabul qilinadi.                                                                              |
|   | Vakolatli idora                             | - Sifat tizimi bo'yicha tekshiruv amalga oshiriladi.                                                                               |
| F | V moduli bajarib bo'lganidan so'ng tegishli |                                                                                                                                    |
|   | Vakolatli idora                             | - Ishlab chiqarilayotgan mahsulot partiyasini tekshirish amalga oshiriladi. Tekshirilgan partiyaga muvofiqlik sertifikat beriladi. |
|   | Ishlab chiqaruvchi                          | - Muvofiqlik to'g'risida Deklaratsiya qabul qilinadi.                                                                              |
| G | Vakolatli idora                             | - Har bir mahsulot sinovdan o'tkaziladi. Sinalgan mahsulotlar munosabat haqida sertifikat beriladi.                                |
|   | Ishlab chiqaruvchi                          | - Muvofiqlik to'g'risida Deklaratsiya qabul qilinadi.                                                                              |
| H | Vakolatli idora                             | - Loyihalashtirish va ishlab chiqarish bosqichlarida sifat tizimi baholanadi.                                                      |
|   | Ishlab chiqaruvchi                          | - Muvofiqlik to'g'risida Deklaratsiya qabul qilinadi.                                                                              |
|   | Vakolatli idora                             | - Sifat tizimi bo'yicha tekshiruv amalga oshiriladi.                                                                               |

Mahsulot muvofiqligini baholash uning hayotiy davrining turli xil bosqichlarda modullari o'zaro aloqadorlik sxemasi 13.1.7-rasmda keltirilgan.



### 13.1.7- rasn. Modulli yondashuv asosida muvofiqlikni baholashning o'zaro aloqadorlik namunaviy tuzilmasi.

Asosiy va bir qancha modifikatsiyalangan muvofiqlikni tasdiqlash modullari va ularning tavsiflari quyidagi 13.1.1-jadvalda keltirilgan. Jadvaldan ko'rinib turibdiki, muvofiqlikni tasdiqlash jarayonlari asosini A, B, C, D, E, F, H, modullari tashkil qiladi, ya'ni modifikatsiyasi zarur bo'lganda turli xilini birga qo'shish va hosil qilish bilan foydalanish mumkin.

Demak, A, C, H modullari muayyan direktivni ishlab chiqishda qo'shimcha qoidalar bilan yordamchi talablar bo'lishi mumkin.

C moduli B moduli bilan birga qo'llash uchun mo'ljallangan.

D, E, F modullari B moduli bilan qoida sifatida qo'llanilib, odatda o'ziga xos holatlarda ular alohida qo'llanilishi mumkin.

13.1.1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, deyarli barcha modullar sertifikatlashtiruvchi idora yoki vakolatli idora isbotlash bazasini ta'minlashda

ishtirok etishi nazarda tutilgan. Ko'proq bu modullar dastlab (A va S modullar) uchinchi tomon ishtirok etishi mo'ljallanmagan bo'lsada va keyinchalik bularda ishtirok etishi bilan takomillashtirildi. Bundan tashqari bir necha modullar doirasida masalan, B, F modullarda mahsulot sertifikatini vakolatli idoralar berishi, ya'ni muvofiqlik to'g'risida deklaratsiya qabul qilishda tayyorlovchi foydalanadigan isbotlovchi bazasi kiritildi.

Modullarning (D, H modullari) muhim elementlari bo'lib ISO 9001 standarti talablari bo'yicha ta'minotchi sifat menejmenti tizimini sertifikatlashtirishi yoki muvofiqlikni baholash protsedurasi xizmat qiladi. Bunda chiquvchi hujjatlar tarkibiga kiruvchi isbotlovchi asoslar bo'lib mahsulot muvofiqligiga qo'llaniluvchi, ya'ni baholashda turuvchi sifat tizimi sertifikat yoki baholash dalolatnomalari xizmat qiladi.

U yoki bu holatlarda ham tayyorlovchidan texnikaviy hujjatlar to'plamini tayyorlash talab etiladi. Texnikaviy hujjatlarda mahsulotni ishlab chiqarish va loyihalashtirish bosqichlari haqida ma'lumotlar kiritiladi.

### **Muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish va berish tartibi**

Muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish sertifikatlash idoralari tomonidan amalga oshiriladi.

Sertifikatlashtirish idorasini tanlash arizachi tomonidan mustaqil amalga oshiriladi.

Ariza beruvchi istalgan vaqtda, sertifikatlashtirish idoralari esa arizachining birinchi talabi asosida quyidagi hujjatlarni taqdim etishi shart:

a) majburiy tarzda sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan mahsulot turlarining ro'yxati yoki ro'yxatdan ko'chirma;

b) Idora sertifikatlashtirish doirasiga taalluqli bo'lgan mahsulotni sertifikatlash qoidalari;

v) sertifikatlashtirish bo'yicha xizmatlar narxlari (tariflari) preyskuranti;

g) davlat vakolatli organida akkreditatsiya qilinganlikni tasdiqlovchi hujjat.

Sertifikatlashtirish idorasi, ko'rsatib o'tilgan hujjatlar nusxalarini taqdim etganda ularning nusxalarini tayyorlash uchun ketgan harajatlarnigina so'rovchidan undirishga haqli.

Ishlab chiqarilayotgan mahsulotga muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish uchun ariza beruvchi sertifikatlashtirish idorasiga ariza bilan murojaat qiladi. Arizaga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

- ishlab chiqarilayotgan mahsulotga me'yoriy hujjat nusxasi;
- mahsulotni yorliqlash namunasi (mahsulot to'g'risida axborot);
- gigienik sertifikat nusxasi.

Ariza beruvchi tomonidan ayni bir vaqtda gigienik sertifikat va muvofiqlik sertifikati olishga ariza berilgan taqdirda gigienik sertifikat nusxasi talab etilmaydi.

Chetdan olib kelinayotgan mahsulotni sertifikatlashtirish uchun quyidagilar taqdim etiladi:

- ishlab chiqarilayotgan mahsulotga me'yoriy hujjat nusxasi (u mavjud bo'lganda);

- mahsulotni yoriklash namunasi (mahsulot to'g'risida axborot);

- bojxona hududiga yetib kelganligi to'g'risida belgi qo'yilgan ilova hujjat (tovar-transport yuk xati, inyoys, schyot-faktura) lar nusxasi.

Ariza nazarda tutilgan taqdirda, sertifikatlashtirish idorasi sertifikatlashtirish ishlarini gigienik sertifikat (veterinariya va fitosanitariya xulosalari) nusxalarini olish muddatini hisobga olgan holda kechiktirib boshlashi mumkin.

Bu holda sertifikatlashtirish idorasi muvofiqlik sertifikatini faqat ariza beruvchi tomonidan ijobiy natijalarga ega bo'lgan hujjatlarning barcha zarur nusxalari taqdim etilgandan keyin berishga haqlidir.

Sertifikatlashtirish idorasi ariza berilgan kundan boshlab ikki kun muddatda joyiga borib sertifikatlash sinovlarini o'tkazish uchun mahsulot namunalari tanlab oladi va identifikatsiya qiladi.

Namunalar soni, tanlab olish tartibi, identifikatsiya qilish va saqlash qoidalari mahsulotga berilgan me'yoriy hujjatlarda belgilanadi.

Ariza beruvchi o'z mahsulotining tanlab olinishida va sinovlarida qatnashish huquqiga ega. Namunalarning saqlanishi, sifati va sinovlarining ishonchiligi uchun sinov o'tkazishga taqdim qilingan laboratoriya (markaz) javobgar hisoblanadi. Sinovlar bo'yicha bayonnomalarini mas'ul mutaxassislar imzolaydi va laboratoriya rahbari tasdiqlaydi.

Ariza beruvchi sertifikatlashtirish idorasiga akkreditatsiya qilingan laboratoriyalardagi mahsulot sinovlari bo'yicha qo'shimcha hujjatlarni taqdim etishi mumkin. Agar mahsulotni alohida ko'rsatkichlari bo'yicha sinovlar turli sinov laboratoriyalarida o'tkazilgan bo'lsa, u holda sinovlarning ijobiy natijalari bilan birga barcha zarur bayonnomalarning mavjudligi mahsulotning belgilangan talablarga muvofiqligining ijobiy bahosi hisoblanadi.

Respublikaga chetdan keltiriladigan, majburiy tartibda sertifikatlanishi kerak bo'lgan mahsulotga me'yoriy hujjat mavjud bo'lmaganda, sifat va xavfsizlik bo'yicha sertifikatlashtirish sinovlari mahsulotning ana shunday turlari talablariga muvofiqligi yuzasidan amalga oshiriladi.

Arizachi tomonidan chetdan olib kelinayotgan mahsulotga zarur me'yoriy hujjat yoki texnik tasnifnomalar taqdim etilmagan taqdirda, mazkur mahsulotni sertifikatlash mahsulotning ana shunday turlariga hujjatlar bo'yicha yoki gigienik sertifikat asosida, uni identifikatsiya qilgan holda amalga oshiriladi (ozuq-ovqat mahsulotiga va ozuq-ovqatga qo'shiladigan qo'shimcha mahsulot uchun).

Laboratoriya sinovlarining salbiy natijalari, shuningdek hujjatlarning to'liq bo'lmagan komplektini taqdim etish muvofiqlik sertifikati berishni rad etish uchun asos hisoblanadi, bu to'g'rida sertifikatlashtirish idorasi ariza

beruvchiga aniq qonunchilik normalarini ko'rsatgan holda yozma ravishda xabar qiladi.

Xulosa berishni rad etganlik yuzasidan ariza beruvchi belgilangan tartibda shikoyat qilishi mumkin.

Sertifikatlashtirish idorasi taqdim etilgan hujjatlar va sinovlarning ijobiy natijalari asosida ikki ish kuni mobaynida muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtiradi.

Muvofiqlik sertifikati chetdan olib kelinayotgan mahsulotlarga mahsulot yaroqliligining kafolatli muddatiga, ko'plab ishlab chiqariladigan mahsulot uchun esa - 3 yilga beriladi.

Ko'plab ishlab chiqariladigan mahsulotga muvofiqlik sertifikati berish uchun sertifikatlashtirish idorasi ariza beruvchidan mahsulotni ko'plab ishlab chiqarish uchun shart-sharoitlar mavjudligini aniqlash maqsadida mahsulot ishlab chiqariladigan ob'ektlarni belgilangan tartibda tekshiradi. Tekshirish natijalari bo'yicha dalolatnoma rasmiylashtiriladi, undan muvofiqlik sertifikati berish to'g'risida qaror qabul qilishda foydalaniladi.

O'tkazilgan tekshirishlar natijalari to'g'risidagi ma'lumotlar muvofiqlik sertifikatida keltiriladi.

Tekshirishni o'tkazish muddati, ishlab chiqarishning shakli va toifalariga ko'ra, sinovlar uchun namunalar tanlab olingan vaqtdan boshlab 10 ish kunidan oshmasligi kerak. Tekshirish o'tkazilganligi uchun to'lov amalda sarflangan vaqt bo'yicha va belgilangan tartibda tasdiqlangan xarajatlar kalkulyatsiyasiga binoan undiriladi.

Muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish va berish muddati sertifikatlashtirish idorasi tomonidan sinovlar natijalari olingan vaqtdan boshlab 5 ish kunidan oshmasligi kerak.

Ko'plab ishlab chiqariladigan mahsulot uchun muvofiqlik sertifikati bergan sertifikatlashtirish idorasi har yili kamida bir marta, mahsulotning sertifikatlashtirishda belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlash maqsadida, sertifikatlashtirilgan mahsulotni inspeksiya nazorati tekshiruvini o'tkazadi.

Inspeksiya nazorati natijalari bo'yicha muvofiqlik sertifikatining amal qilishi tasdiqlanishi yoki to'xtatib turilishi yoxud belgilangan tartibda bekor qilinishi mumkin.

Laboratoriya sinovlarini o'tkazganlik, sertifikatni rasmiylashtirganlik va berganlik uchun to'lov tartibi, litsenziya ajratmalari miqdorlari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda "O'zstandart" agentligining yo'riqnomasi hujjatlari asosida belgilanadi.

### **Nazorat savollari**

1. Muvofiqlik beligisi nima degani?
2. Muvofiqlik sertifikatiga ta'rif bering.
3. Muvofiqlikni baholashning qanday ko'rinishlari mavjud?
4. Muvofiqlik sertifikatlarining o'zaro tan olinishini tushuntiring.

5. Muvofiqlikni baholash ob'ekti nima?
6. Muvofiqlikni baholashda xalqaro kelishuvlar haqida tushuncha bering.
7. Muvofiqlikni baholash deganda nimani tushunasiz?
8. Muvofiqlikni baholash sub'ektlariga kimlar kiradi?
9. Muvofiqlikni baholash ob'ektlariga nimalar kiradi?
10. Global yondashuv nimani nazarda tutadi?
11. Yangicha yondashuvning asosiy talablari nimani nazarda tutadi?
12. Muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish kim tomonidan amalga oshiriladi?
13. Chetdan olib kelinayotgan mahsulotni sertifikatlashtirish uchun nimalar taqdim etiladi?

## **14-mavzu. O'zbekiston Respublikasida akkreditlashtirish tartibi asosiy qoidalari**

### **14.1. Akkreditlashtirish tartibi.**

### **14.2. Inspeksion nazorat.**

#### **14.1. Akkreditlashtirish tartibi.**

Akkreditlashtirish tizimi talabiga javob beruvchi har qanday tashkilot (ob'ekt) akkreditlanishi mumkin. Buning uchun akkreditlashtirish ob'ekti quyidagilarga majbur:

- akkreditlashtirish tizimi me'yoriy hujjatlarida bayon etilgan mezonlarga muvofiq bo'lishi;
- uning faoliyatini baholashni o'tkazish uchun barcha joylarga va xodimlarga ruxsat etilgan, o'ziga xos hujjatlarni taqdim etish, shuningdek, apellyatsiyani ko'rib chiqish va akkreditlangan idoralar faoliyati uchun nazoratida sharoitlarni ta'minlashi;
- uning akkreditatsiya sohasidagi o'rnatilgan faqat shu faoliyatni amalga oshirishi;
- akkreditatsiya sohasida o'rnatilgan faoliyatga kirmagan faoliyat haqida reklama maqsadida ommaviy axborot vositalariga xabar bermaslik;
- sertifikatlashtirish va nazorat qoidalariga aniq rioya qilish;
- bekor qilingan akkreditatsiya yoki to'xtatilgandan so'ng akkreditlashtirish idorasi talabi bo'yicha akkreditlangan hujjatlarni qaytarishi va akkreditatsiyaga havola qilingan o'zining faoliyatidan tarkib topgan reklamasini tugatishi.

SHuningdek akkreditatsiya ob'ekti akkreditlashtirish ob'ektiga isbotlashi lozim, negaki u:

- uning ishlari natijalariga aks etgan har qanday unga savdo, moliyaviy ta'sir etilishidan ozodligini;
- bajariladigan ishlar tavsifiga javob beruvchi sifat tizimi mavjudligini;
- yetarli tajribali va o'qigan xodimlardan foydalanishini;

- ishlarni o'tkazish uchun yaroqli bo'lgan inshoot (bino), texnikaviy qurilmalar va ularga doimiy xizmatlarni amalga oshirishning mavjudligini;

- akkreditatsiya sohasida aniqlangan ishlar uchun me'yoriy hujjatlar fondining mavjudligi va bu hujjatlarni aktuallashtirishni o'tkazishi hamda yo'riqnomaga va protseduralarga hujjatlar ishlab chiqadi;

- muvofiqlik sertifikatini berish xolisligini tasdiqlovchi hisob-kitob va qat'iy ravishda blankalar, hisobotlar va boshqa materiallarni saqlash tizimi mavjudligi;

- ishlar jarayonida olingan, ma'lumotlar maxfiyligini kafolatlaydi.

Endi akkreditlashtirish bo'yicha ishlar bosqichini ko'rib chiqamiz. U quyidagi tartibda o'tkaziladi:

- akkreditlashtirishga ariza berish, ariza bo'yicha dastlabki ko'rib chiqish va qaror qabul qilish, ekspertizani o'tkazish to'g'risida shartnoma tuzish, o'tkazilgan ekspertizalar uchun arizachi to'lovlarni amalga oshiradi;

- ekspertiza hujjatlar to'plami ekspertizalar dalolatnomalari bilan rasmiylashtirilib, baholashni o'tkazish va tayyorlash to'g'risida shartnoma tuziladi, akkreditlashtirish haqida qaror loyihasi tayyorlanadi, baholashni o'tkazish uchun arizachi to'lovlarni amalga oshiradi;

- akkreditlashtirish ob'ektini baholashga tayyorlash (komissiyani belgilash, buyruq chiqarish, joyida baholash dasturlarini ishlab chiqish);

- dalolatnomani rasmiylashtirish joyida arizachini baholash;

- materiallar tahlili hujjatlar ekspertizasi, joyida baholash natijalari, arizachi bajargan to'g'rilovchi amallar samaradorligi, qaror loyihasini tayyorlash;

- Kengashda baholash va ekspertiza materiallarini ko'rib chiqish, hamda akkreditatsiya haqida qaror qabul qilinadi yoki akkreditatsiyani bekor qilinadi;

- akkreditatsiya haqida guvohnomani berish, rasmiylashtirish, ro'yxatga olish va arizachi to'lovlarni amalga oshiradi.

Akkreditlashtirishning har bir navbatdagi bosqichi oldingi bosqich ijobiy natijalarda bo'lganida bajariladi. Arizachi akkreditlashtirish bo'yicha ishlarga to'lovlarni har bir bosqich bo'yicha alohida amalga oshiradi. Arizachi tuzilgan shartnomaga muvofiq, akkreditlashtirish bo'yicha o'tkazilgan ishlarga aloqador xarajatlarni uning natijalaridan mustaqil holatda to'lashga majbur.

Akkreditlashtirishni o'tkazish muddati akkreditlashtirish ob'ektining tayyorligiga bog'liq, ammo akkreditatsiyaga ariza ro'yxatga olingan kundan boshlab olti oydan oshmasligi lozim.

Akkreditlashtirishni o'tkazish. Akkreditlashtirish milliy tizimi doirasida muvofiqlikni tasdiqlash sohasida o'zining layoqatligini tan olinishini istagini bildiruvchi akkreditatsiya arizachisi, tizim qoidalarida o'rnatilgan shakl bo'yicha akkreditlashtirishga ariza va zaruriy hujjatlarni akkreditlashtirish idorasiga jo'natadi. Bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish idorasi va nazorat idorasini akkreditlashtirish arizasiga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

- ta'sis etuvchi hujjatlar nusxasi;

- akkreditatsiya sohasi loyihasi;
- bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish bo'yicha idora yoki nazorat idorasi to'g'risidagi Nizom loyihasi;
- muvofiqlikni tasdiqlash bo'yicha ishlarni o'tkazishni tavsiflovchi sifat bo'yicha qo'llanmasi;
- sifat menejmenti tizimi protseduralari.

Laboratoriyalarni akkreditlashtirish arizasiga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

- ta'sis etuvchi hujjatlar nusxasi (agar u yuridik shaxs bo'lib hisoblangan holatlarda);
- sinov (o'lchash) laboratoriyasi (markaz) to'g'risidagi Nizom loyihasi;
- akkreditatsiya sohasi loyihasi;
- laboratoriya pasporti loyihasi;
- sifat menejmenti tizimi protseduralaridan tarkib topgan sifat bo'yicha qo'llanma.

Akkreditlashtirishga taqdim etilayotgan hujjatlar va arizani ko'rib chiqish natijalari bo'yicha akkreditlashtirish bo'yicha ishlarni o'tkazilishi to'g'risida rasmiy qaror qabul qilinadi. Qarorni qabul qilish muddati ariza ro'yxatga olingan kundan boshlab 3 kun.

Ariza bo'yicha ijobiy qaror qabul qilgandan so'ng, akkreditlashtiruvchi idora hujjatlari ekspertizadan o'tkazilishini ta'minlaydi. Ekspertizani ekspertiza bo'yicha xizmatlarga to'lovdan so'ng akkreditlashtiruvchi idora, yoki uning toshirig'i bo'yicha Standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish ilmiy-tadqiqot instituti sifat bo'yicha ekspert-auditorlari yoki boshqa sifat bo'yicha ekspert-auditorlar amalga oshiradi. Ekspertiza, ariza bo'yicha qaror qabul qilingan kundan boshlab bir oydan oshmagan muddatda o'tkaziladi. Sifat bo'yicha ekspert-auditorlar bergan xulosalar bo'yicha ekspertiza natijalari rasmiylashtiriladi.

Ekspertiza natijalari salbiy bo'lsa, akkreditlashtiruvchi idora uni akkreditlashtirish mezonlariga nomuvofiqligi sababi bo'yicha akkreditlashtirishni bera olmasligi haqida arizachini xabardor qiladi va aniqlangan tuzatishlarni bartaraf etish uchun (30 kundan ko'p bo'lmagan) muddat beradi. Akkreditlashtirishni bekor qilish haqidagi xabardor qilish arizachiga rasmiy shaklda, bekor qilish sababi va arizachi ko'rsatilgan sabablarni bartaraf qilish muddati va qayta ko'rib chiqish uchun hujjatlarni taqdim qilishi bildiriladi.

Arizachi akkreditlashtirishni bekor qilish uchun asos bo'lib xizmat qiluvchi kamchiliklarni bartaraf qilgan holatlarida, hujjatlarni qayta ko'rib chiqish arizachidan ariza va barcha zaruriy hujjatlar olingan kundan boshlab o'n kundan oshmagan muddatda amalga oshiriladi. Arizani qayta ko'rib chiqish uchun to'lovlar undirilmaydi. Akkreditlashtirishda bekor qilish haqidagi ma'lum qilinayotgan arizada ko'rsatilgan muddati tugashi bo'yicha yangidan berilgan deb hisoblash mumkin.

Ekspertiza natijalari ijobiy bo'lganda akkreditlash ob'ektini joyida baholash uchun komissiya tuziladi. Akkreditlashtiruvchi idora rahbari buyrug'i bilan Komissiya tayinlanadi. Buyruqda komissiya tarkibi, maqsadi, kuni va joyida baholash o'tkazish muddatidan tarkib topadi. Komissiya raisi sifat bo'yicha ekspert-auditor lo vazimiga akkreditlangan bo'lishi shart. Komissiyani tuzishda holisona baholashni o'tkazish uchun zaruriy bilim, ko'nikma va layoqatliligi hisobga olinadi. Komissiyada zaruriyat bo'lgan holatlarda ya'ni komissiyaga ekspert-auditor rahbarligi ostida ishlovchi texnikaviy ekspertlarni jalb qilish mumkin.

Komissiya rahbari ob'ektlar va baholash mezonlari tarkib topgan Baholash rejasini ishlab chiqadi va akkreditlashtiruvchi idora rahbari yoki bunga vakolatli shaxs tomonidan tasdiqlanadi. Buyruq va baholash rejasini baholashni o'tkazishgacha tanishish uchun arizachiga taqdim etiladi.

Joyida akkreditlash ob'ektini baholashda arizaga taqdim etilgan ob'ektning haqiqiy holatini hujjatlarga muvofiqligi va talabgorning vazifalarni bajarish layoqatlari tekshiriladi. Komissiya akkreditlash ob'ektning muvofiqligini o'rnatilgan akkreditlashtirish mezonlariga bilan baholash rejasiga muvofiq o'tkazadi. Baholashning davomiyligi bir oydan oshmasligi lozim. Akkreditlash ob'ektini joyida baholash natijalari akkreditlashtirish qoidalarida o'rnatilgan shakl bo'yicha dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi. Dalolatnomaga komissiyaning barcha a'zolari imzo chekadilar. Komissiya xulosasi bilan komissiya a'zolaridan qandaydir kelishmovchiliklar bo'lgan holatlarda, yozma ravishda e'tirozlar ya'ni baholash dalolatnomasiga ilova qilinib berilishi mumkin.

Akkreditlashtiruvchi idora arizachi tomonidan taqdim qilingan hujjatlar ekspertizasining natijalarini tahlil qilib, baholash dalolatnomasi, dalolatnoma bo'yicha fikr va xulosalar, arizachi taqdim qilgan fikrlar barchasi tekshirilganidan so'ng akkreditlash Kengashiga ko'rib chiqish uchun qaror loyihasini tayyorlaydi. Kengash 15 kundan ko'p bo'lmagan muddatda qaror loyihasini, hamda arizachi va komissiya taqdim qilgan hujjatlarni ko'rib chiqadi va akkreditlash haqida, yoki akkreditlashni bekor qilish haqida qaror qabul qiladi.

Kengash akkreditlashni bekor qilgan holatda akkreditlash ob'ektiga akkreditlashtirish talablari nomuvofiqligi va bildirilgan fikr-mulohazalarni bartaraf etishi uchun bir oy muddat beradi. Agarda qayta baholashda akkreditlashtirish talablari nomuvofiqligi va bildirilgan fikr-mulohazalari yana takrorlansa, Kengash akkreditlashtirishni bekor qilish haqida yakuniy qororni qabul qiladi.

Akkreditlash haqida guvohnoma (shahodatnoma). Akkreditlash haqida ijobiy qaror bo'lganda akkreditlashtiruvchi idora akkreditlashtirish Qoidalarida keltirilgan shakl bo'yicha akkreditlash haqidagi shahodatnomani arizachiga beradi. Akkreditlash haqidagi shahodatnoma O'zbekiston Respublikasi akkreditlashtirish milliy tizimi Davlat reestrda ro'yxatga olinadi. Akkreditlash

haqidagi shahodatnomaga akkreditlashtirish idorasi rahbari tasdiqlagan, akkreditlangan ob'ektning Nizomi, hamda akkreditlash sohasi ilova bo'lib hisoblanadi.

Akkreditlash sohasining har bir varag'i O'zstandart Agentligi akkreditlashtirish bo'limi boshlig'i va akkreditlangan idora rahbari imzolari va muhr bilan tasdiqlanadi. Akkreditlashtirish haqidagi shahodatnoma muddatsiz beriladi.

Akkredatlashtirish natijalari haqida xabardor qilish. Akkreditlashtirish idorasi guvohnoma berganidan so'ng akkreditlashtirish bo'yicha barcha zaruriy hujjatlarni arizachiga jamlab va akkreditlashtirish protsedurasi bo'yicha maxsus deloda va uni maxfiylik sharoitlarida saqlaydi. Har bir akkreditlangan ob'ektlar 3.5 – jadvalda keltirilgan misoldagi ma'lumot kartochkalarini yuritib borishadi. Kelgusida akkreditlangan ob'ektlar haqidagi umumiy ma'lumotlar O'zstandart Agentligi rasmiy saytida, davlat reestrda ro'yxat raqami ko'rsatilib ochiq chop etiladi va nashr etiladi.

Akkreditlangan sertifikatlashtirish bo'yicha idoralar va laboratoriyalar muvofiqlikni tasdiqlash hujjatlarida (muvofiqlik sertifikat va sinov bayonnomasi) o'zining akkreditatsiya sohasi bilan akkreditlashtirish haqidagi guvohnomasida keltirilgan ro'yxat raqamini ko'rsatadi. Agarda akkreditlangan idora muvofiqlikni baholash bo'yicha o'zining akkreditatsiya sohasidan tashqari qandaydir ishni bajarsa, unda chiquvchi hujjatlarida, u akkreditlanganligiga ilova qilishi shart emas.

Akkreditlashtirish haqidagi guvohnomani to'xtatish va bekor qilish. Akkreditlangan idoraning arizasi bo'yicha hamda №1472 da o'rnatilgan Qoidalar holatlarida akkreditlashtirish haqidagi guvohnomani to'xtatiladi va (yoki) bekor qilinadi. Akkreditlashtirish haqidagi guvohnoma bekor qilinganda akkreditlangan idoralar reestriga muvofiq yozuvlar kiritiladi. Uch ish kuni davomida reestrga o'zgartirish bilan muvofiq yozuvlar kiritilib, akkreditlashtirish haqidagi guvohnoma egasiga guvohnoma bekor qilinganligi haqida ma'lumot xati jo'natiladi. Guvohnoma bekor qilinganidan so'ng akkreditlashtirishga qayta ariza akkreditlashtirish talablari nomuvofiqliklari bartaraf etilganidan keyin berilishi mumkin. Bunda arizachi nomuvofiqliklarni bartaraf qilish bo'yicha qabul qilgan choralarni tasdiqlovchi xolisona hujjatlarni taqdim etadi.

Akkreditlangan sub'ektlar haqidagi ma'lumotlar O'zstandart Agentligining rasmiy jurnalida chop etiladi va saytida joylashtiriladi.

Akkreditlash sohasini kengaytirish. O'zining akkreditlash sohasiga talabgor akkreditlangan idoralar qo'shimcha akkreditlash sohasi uchun arizani akkreditlashtirish idorasiga yo'llashi mumkin. Arizada quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

- bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish bo'yicha idoralar va nazorat idoralari uchun: akkreditlash sohasi va sertifikatlashtirish bo'yicha ishlarini o'tkazish qoidalariga qo'shimchalar ilova qilinadi;

- laboratoriyalar uchun: akkreditlash sohasi va pasportiga qo'shimchalar qilinadi.

Akkreditlash sohasini kengaytirish arizani tahlil qilish va hujjatlarni ekspertizadan o'tkazish bilan boshlanib, o'rnatilgan akkreditlashtirish qoidalari tartibida o'tkaziladi.

Akkreditlash shartlarini o'zgartirish. Tashkilotlar qayta o'zgartirilgan holatlarda, masalan, nomi, joylashish joyi, yuridik shaxslarning pochta manzili o'zgarganda, akkreditlash ob'ekti bir hafta muddatda akkreditlashtiruvchi idorada ariza qayta ro'yxatga olinganidan so'ng, ilova qilingan muvofiq hujjatlarga asosan akkreditlashtiruvchi idora akkreditlash haqida guvohnomani qayta rasmiylashtiradi. Bu hujjatlar (notarial-tasdiqlangan Nizom nusxasi, oldin berilgan akkreditlash haqidagi original guvohnoma va Nizomga o'zgarishlar kiritilganli to'g'risida ro'yxatga olingan tasdiqlovchi hujjatlar) tashkilot o'zgarishini tasdiqlashi lozim. Ariza bilan hujjatlar paketini arizachi bevosita yoki pochta aloqasi vositalari orqali yetkazishadi. Guvohnomani qayta rasmiylashtirilgunicha akkreditatsiya ob'ekti oldingi berilgan guvohnoma asosida faoliyatini amalga oshiradi.

Ariza kelib tushganida akkreditlashtiruvchi idora taqdim qilingan hujjatlarni qonunchilikga muvofiq tekshiradi va yangi guvohnomani rasmiylashtirish haqidagi qarorni qabul qiladi va akkreditlashtiruvchi idora arizachiga ariza kelib tushgan kundan boshlab besh kun davomida yangi guvohnomani beradi.

Agarda arizachi oldingi akkreditlangan yuridik shaxs merosxo'ri bo'lib hisoblanganda, keyingi hujjatlarni ko'rib chiqish dastlabki sifatida o'tkaziladi.

Apellyatsiya. Agar akkreditlash ob'ekti akkreditlashtirishdan rad etilsa, yoki, u to'xtatilsa, yo bekor qilinsa, yoki asoslangan e'tirozlarni keltirib chiqaruvchi sharoitlardagi holatlarda, O'zstandart Agentligining Apellyatsiya kengashiga yoki o'rnatilgan qonunchilik tartibida bevosita sudga apellyatsiyaga berish huquqiga ega. Apellyatsiya kengashi qaroridan qonunchilikda o'rnatilgan tartibda sudga shikoyat qilishi mumkin.

Akkreditlash bo'yicha idora quyidagi ma'lumotlarni chop etadi yoki so'rovlar bo'yicha taqdim qiladi:

- tizimning asosiy qoidalari va majburiy akkreditlashtirish ob'ektlari ko'rsatilgan akkreditlashtirish tizimini yaratishda, milliy idora bajaruvchi huquqlari haqidagi ma'lumotlarni;

- akkreditlashtirish mezonlarini;

- akkreditlashtirishni o'tkazish tartibi;

- akkreditlangan tashkilotlarning huquq va majburiyatlari;

- akkreditlash sohasi ko'rsatilgan akkreditlangan tashkilotlarning ro'yxati;

- bekor qilingan akkreditatsiya attestatlari haqidagi ma'lumotlar;

- akkreditlashtirish tizimida ro'yxatga olingan sifat bo'yicha ekspert-auditorlarning ro'yxati.

Akkreditlash bo'yicha idoralar o'zining tizimidagi boshqa akkreditlashtiruvchi idoralar va boshqa davlatlarning akkreditlash idorlari bilan tajriba almashishda qatnashadi.

#### **14.2. Inspeksion nazorat.**

Akkreditlashtiruvchi idora (O'zstandart Agenligining inspeksion nazorat bo'limi) yilida bir marta akkreditlangan ob'ektlar faoliyatining inspeksion nazoratini o'tkazadi. Inspeksion nazoratni o'tkazishga talablar Adliya vazirligida 20.04.2005 yil №1472 sonli ro'yxatga olingan "Akkreditlangan sertifikatlashtirish bo'yicha idoralar va sinov laboratoriyalari (markazlar) faoliyatlarining inspeksion nazoratini o'tkazish qoidalari" da belgilangan.

Me'yoriy hujjatlar, sifat tizimining hujjatlashtirilgan protseduralari, akkreditatsiya sohasi hamda sertifikatlashtirish va sinash bo'yicha hujjatlar inspeksion nazorat ob'ektlari bo'lib hisoblanadi.

Inspeksion nazorat akkreditlashtiruvchi idora bilan tuzilgan kelishuvga muvofiq rejalashtirilgan tartibda amalga oshiriladi. Ushbu kelishuvga binoan akkreditlashtiruvchi idora rahbari har yili tasdiqlovchi, ob'ekt faoliyati inspeksion nazoratining yillik reja-grafigini tuziladi.

Sertifikatlashtirish bo'yicha idora faoliyatining rejadan tashqari inspeksion nazorati, sertifikatlashtirish protsedurasi bo'yicha arizachiga noqonuniy munosabatdagi faoliyati va muvofiqlik sertifikatini noqonuniy berishi va asoslanmagan dalillar to'g'risida rasmiy tasdiqlashi muayyan aniq dalillarda keltirilgan, shuningdek, arizachining tijorat sirlarini oshkora qiluvchi ma'lumotlar kelgan holatlarda o'tkaziladi.

Inspeksion nazoratni o'tkazish uchun akkreditlovchi idoraning ya'ni inspeksion nazoratni amalga oshiruvchi komissiya tarkibi va uni o'tkazishning aniq muddatini ko'rsatuvchi buyrug'i asos bo'lib hisoblanadi. Inspeksion nazoratni o'tkazish muddati o'ttiz kalendar kundan oshmasligi lozim.

Inspeksion nazoratni sifat bo'yicha ekspert-auditorlar amalga oshirishadi. Ob'ekt akkreditatsiya sohasiga bog'liqligidan komissiya tarkibiga inspeksion nazorati vaqtda ko'riladigan masalalar bo'yicha malakali mutaxassislarni (sinov turlari bo'yicha ekspretlar, tayyorlovchining vakillari, iste'molchilarni huquqlarini himoya qilish jamiyati, ilmiy-tadqiqot tashkilotlari) kiritish mumkin. Komissiya a'zolari maxfiylikni ta'minlash bo'yicha talablarga rioya qilishlari shart.

Inspeksion nazorat, akkreditlovchi idora rahbari tasdiqlagan dastur bo'yicha o'tkaziladi. Inspeksion nazorat dasturida tekshirish ob'ekti va maqsadi, inspeksion nazoratni o'tkazish bo'yicha ishlar tartibi va hajmi tarkib topgan bo'lishi shart.

Inspeksion nazorat boshlanishidan oldin Komissiya rahbari tekshirilayotgan tashkilot rahbarini inspeksion nazorat maqsadi va shartlari, komissiya a'zolari bilan tanishtirishi, hamda buyruq va dastumi bir nusxasini berishi va ular olganligini to'g'risida tilxat olishi shart.

Sertifikatlashtirish bo'yicha idora faoliyatining rejali inspeksion nazoratida quyidagilar tekshiriladi:

- baholashning mustaqilligi;
- laboratoriyalar bilan o'zaro faoliyati;
- tanlash dalolatnomasi va identifikatsiyasi mavjudligi hamda muvofiqligi, sinov bayonnomalari, sertifikatlashtirish bo'yicha ishlab chiqarish ko'rigi dalolatnomalari, sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni inspeksion nazoratining reja-grafigi;

- muvofiqlik sertifikatini berish to'g'risida qabul qilingan qarorlarni asoslanganligi, muvofiqlik sertifikatini to'g'ri rasmiylashtirilganligi, sertifikatlashtirish bo'yicha qaror qabul qilish uchun foydalanilgan MH lardagi ma'lumotlar va muvofiqlik sertifikatidagi ma'lumotlarning muvofiqligi;

- berilayotgan muvofiqlik sertifikatlarini ro'yxatga olinishi;
- muvofiqlik sertifikatlarining blanklarini qat'iy hisobi;
- arizachilarining da'vo, shikoyatlari tahlil va hisobi;
- akkreditlashtirish haqida guvohnoma;
- mahsulot va xizmatlarga MH ta'minlanganligi, ularni amal qilish muddati, ularga o'zgarishlarni o'z vaqtida kiritilishi;

- muvofiqlik sertifikati va belgisidan noto'g'ri qo'llanilganligi uchun sertifikatlangan mahsulot tayyorlovchisiga qo'llanilgan choralar;

- xodimlarning malakasi va layoqatligini muvofiqligi, bajaridigan vazifalari, xodimlarni attestatsiyalash va malakasini oshirishga taaluqli qabul qilingan faoliyati, lavozim va ishchi yo'riqnomalarning mavjudligi;

- sertifikatlashtirish bo'yicha idora faoliyati va shuningdek laboratoriya xizmatlari bilan aloqador ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlanishi;

- akkreditlashtirish idorasi, hamda uning qarorlarini bijarishda o'zaro faoliyati.

Laboratoriya faoliyatining rejali inspeksion nazoratida quyidagilar tekshiriladi:

- sinov (o'lchash)larni o'tkazishda mustaqillik va xolisonalik;
- akkreditlashtirish idorasi, sertifikatlashtirish bo'yicha idoralar va boshqa akkreditlangan sinov laboratoriyalari bilan o'zaro faoliyati va shuningdek, akkreditlashtiruvchi idoraning, laboratoriya faoliyati bilan aloqador qarorlarini bajarish;

- laboratoriya akkreditlashtirish sohasiga muvofiq, sinov bayonnomalarini mavjudligi va muvofiq rasmiylashtirilishi, to'liq va to'g'ri taqdim etilishi, ularni yuritish va saqlash tizimi;

- arizachilarning da'vo, shikoyatlari tahlili va hisoboti;
- akkreditlashtirish to'g'risidagi guvohnoma;
- mahsulotlarga MHLarni ta'minlanganligi, ularni amal qilish muddati, ularga o'zgarishlarni o'z vaqtida kiritilishi;

- xodimlarning malakasi va layoqatligini muvofiqligi, bajaridigan vazifalari, xodimlarni attestatsiyalash va malakasini oshirishga taaluqli qabul qilingan faoliyati, lavozim va ishchi yo'riqnomalarning mavjudligi;

- inshootning holati, inshootning mikroklimatik parametrlarini qurilish va sanitariya me'yorlari hamda qoidalari talablariga muvofiqligi;

- sinovlarning o'tkazish sharoitlarini muvofiqligi, laboratoriya akkreditlashtirish sohasi va sinov usullariga MHlarida o'rnatilgan xavfsizlik talablari va me'yorlariga ta'sir qiluvchi zararli ishlab chiqarish omillari va xavfli parametrlar;

- qiyoslangan o'lchov vositalari va attestatlangan sinov qurilmalari, boshqa texnikaviy vositalar shuningdek, davlat standart namunalari, boshqa toifadagi standart namunalar, attestatlangan aralashmalari, ularni metrologik ta'minlash maqsadida va sifat menejmenti tizimi protseduralari va sinov (o'lchash) usullari talablariga muvofiqligi holatlari;

- sinaladigan (o'lchanadigan) namunalar va yozuvlarni yuritish (talabnomani qabul qilish, tanlanma dalolatnomasi, ro'yxatga olish, namunalarni saqlash sharoitlari va utillashtirish) bilan murojaat qilishga talablarga rioya qilish;

- laboratoriya faoliyati bilan hamda u xizmatlaridan foydalanayotgan sertifikatlashtirish bo'yicha idora va nazorat idoralari bilan aloqador ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash;

- laboratoriyalararo solishtirish natijalari. Zaruriyat bo'lganda, agarda laboratoriyalararo solishtirish o'tkazilmasa, laboratoriya layoqatligini tasdiqlash maqsadida nazorat sinovi (o'lchashi) o'tkaziladi. Nazorat sinovi (o'lchash)ga yo'naltirilgan mahsulotlar turi, mahsulotlarning tekshiriladigan tavsiflari, namunani (proba) tanlash va tayyorlash, nazorat sinovi (o'lchash) dasturida o'rnatilgan tavsiflar qiymatining anonimligini ta'minlash.

Inspeksion nazorati vaqtida nomuvofiqliklar topilganda nomuvofiqlik to'g'risidagi bayonnoma rasmiylashtiriladi. Komissiya inspeksion nazorati natijalari bo'yicha akkreditatsiya mezonlariga ob'ektning muvofiqligi umumiy baholanishidan tarkib topgan, ikki nusxa dalolatnoma tuzadi, ulardan biri tekshirilayotgan sertifikatlashtirish bo'yicha idora yoki laboratoriya rahbariga topshiriladi va ikkinchisi akkreditlashurish idorasiga taqdim etish uchun komissiya rahbarida qoladi. Inspeksion nazorati dalolatnomasini komissiyaning barcha a'zolari va tekshirilgan ob'ekt rahbari imzolab ya'ni inspeksion nazorat natijalari bilan kelishmovchiliklar holatlarida o'zining fikrlarini bayon etishi mumkin.

Inspeksion nazorat natijalari bo'yicha 5 kun davomida inspeksion nazorat dalolatnomasi tuzilgan kun bilan akkreditlashtiruvchi idora akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnomani amal qilishini tasdiqlash, to'xtatish yoki bekor qilish to'g'risida qaror qabul qiladi.

Inspeksion nazorat natijalari ijobiy bo'lganda akkreditlashtirish haqidagi guvohnomasini tasdiqlash to'g'risidagi qaror qabul qilinadi.

Inspeksion nazorati vaqtida nomuvofiqliklar bartaraf etilmaganligi mavjud bo'lsa, lekin to'g'rilovchi amallar yo'li bilan ikki oydan ko'p bo'lmagan muddatda bartaraf qilinishi mumkin bo'lsa, akkreditlashtirish haqidagi guvohnomani amal qilinishini to'xtatish to'g'risidagi qarorni qabul qilmadi.

Akkreditlashtiruvchi idora ob'ekt nomuvofiqligi bo'yicha to'g'rilovchi amallarni bajarganidan so'ng, akkreditlashtirish haqidagi guvohnomani amal qilish muddatini to'xtatish to'g'risidagi qarorni qabul qiladi.

Akkreditatsiya sohasida intizomga rioya qilmaslik shuningdek, akkreditlashtiruvchi idoraning qarorida o'rnatilgan muddatlarda aniqlangan nomuvofiqliklar bo'yicha to'g'rilovchi amallarni bajarmaganlik holatlarida akkreditlashtirish haqidagi guvohnomani amal qilinishini bekor qilish haqidagi qaror qabul qilinadi.

Inspeksion nazorati natijalari bo'yicha akkreditlashtirish haqidagi guvohnomasi bekor qilingan sertifikatlashtirish bo'yicha idora yoki laboratoriya Davlat reestridan chiqariladi va akkreditlashtiruvchi idora bu to'g'risida qiziquvchi shaxslar va tashkilotlarni xabardor qiladi.

Inspeksion nazorat natijalari bo'yicha qabul qilingan qarorlar tekshirilgan ob'ektga qaror uch kun davomida jo'natiladi.

Inspeksion nazorat natijalari bilan kelishmovchiliklar bo'lgan holatlarda qiziquvchi tomon O'zstandart Agentligiga yoki bevosita sudga murojaat qilishi mumkin. O'zstandart Agentligi qaroridan o'rnatilgan qonunchilik tartibida sudga shikoyat qilinishi mumkin.

### **Nazorat savollari**

1. Akkreditatsiya nima va sinov laboratoriyalarini akkreditlashtirishni tushuntiring?
2. Akkreditlangan ob'ektlarning inspeksion nazoratini tushuntiring.
3. Akkreditlashtirish va muvofiqlikni baholash deganda nimani tushunasiz?
4. Akkreditlashtirish qoidasi va tartibini tushuntiring.
5. Akkreditlashtirish nima va uning tamoyillarini ayting?
6. Akkreditlashtirish ob'ektlari nimalar?
7. Akkreditlashtirish faoliyatining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
8. Akkreditlashtirishning umumiy tartibini aytib bering.
9. Sertifikatlashtirish va sinov laboratoriyalarini akkreditlashtirish tartibini ayting.

## **15-mavzu. Sinov laboratoriyalarini akkreditlash**

- 15.1. Sinov laboratoriyalarini tashkillashtirish, sinovlarni o'tkazish.
- 15.2. Sinov laboratoriyalarini akkreditlashtirishga tayyorlash bosqichlari
- 15.3. Maqsad va vazifalari (O'zDst ISO/IEC 17025)

### **15.1. Sinov laboratoriyalarini tashkillashtirish, sinovlarni o'tkazish.**

Har bir sertifikatlashtirish faoliyatida - mahsulot sinovini o'tkazishda, sertifikat berishda va sertifikatlashtirilgan mahsulot sifatining nazoratini ta'minlashda muhim tarkibiy qism sifatida akkreditlangan sinov laboratoriyalari hisoblanadi.

Ishlanmada va mahsulot ishlab chiqarishda uning sinovlarini, yaratilayotgan namunalar darajasining baholashini va iste'molchining talablariga mos keluvchanligini tekshirishini ishlab chiqaruvchi va tayyorlovchilar amalga oshiradi.

Sinov laboratoriyasining vazifasi bir va undan ortiq mahsulot sifat ko'rsatkichlarini taxlil qilishdan iborat. Ushbu jarayonning eng muhim talabi O'zbekiston Respublikasining Milliy Akkreditatsiya Tizimida rasmiy ro'yhatdan o'tgan bo'lishidir.

**Sinov** – bu belgilangan protsedura asosida mahsulot, proses yoki xizmatning bir va undan ko'p xarakteristikasini aniqlaydigan texnik jarayondir.

**Protsedura** – faoliyatlar yoki jarayonning amalga oshirish uslubi.

Sinov oldi tayyorgarlik jarayonlari va sinovlar quyidagi tartib bo'yicha amalga oshiriladi:

- Test so'rovining tahlili;
- Sinov rejasini ishlab chiqish;
- Sinov uskunalarini tayyorlash;
- Namuna olish va namunalarni saqlash;
- Sinovdan o'tkazish;
- Sinov ma'lumotlarini yozib borish;
- Sinov natijalarini aniqligini tahlil qilish va ma'lumotlarni muhokama qilish.

**Test hisoboti** – bu rasman tasdiqlangan laboratoriya tomonidan beriladigan hujjat bo'lib, unda o'tkazilgan sinov natijalarini bildiriladi.

Mahsulotlarning kamchiliklari va muvofiq standard talablariga (GOST, texnik jihatdan tartibga solish, xususiyatlari va boshqa me'yoriy hujjatlar) javob berishi turli xil asbob-uskuna va jihozlar orqali sinovdan o'tkazish orqali aniqlanadi. Testni yakunlab, mas'ul laboratoriya mutaxassislari mahsulotning mavjud me'yorlarga javob berishi yoki bermasligi bo'yicha test hisobotini tayyorlashadi. Test hisoboti sertifikatlashtirish markaziga yoki ariza beruvchiga yuboriladi. Hujjatning bir nusxasi laboratoriyada eng kamida 3 yil saqlanadi.

Laboratoriya sinov natijalari ham mijozga ham shu test sinovini o'tkazgan va test hisobotini tayyorlagan laboratoriyaga bir xilda tegishli.

Agar sinov natijalari e'lon qilinishi talab qilinsa, ikkala tomonning roziligi bilan amalga oshiriladi. Tahlil jarayonida oshkor qilingan ma'lumot ishonchlidir.

Test bayonoti quyidagi hollarda talab qilinadi:

- mahsulotning sertifikat sinov uchun;
- mahsulotlarning meyoriy hujjatlarga javob bera olishini aniqlash uchun

davriy testlar;

- qabul qilingan testlar.

Sertifikatlashtirish organi test hisobotiga asoslanib qaror qabul qiladi. Ushbu ikki (yoki undan ko'p) hujjatlar sertifikat berilishi uchun asosiy sanaladi. Agar sertifikatlashtirishning turli qismlaridagi xavfsizlikni kuchga kiritish uchun tahlil talab qilingan bo'lsa, akreditatsiyadan o'tgan ko'plab laboratoriyalarda tahlil o'tkazilishi mumkin va test bayonoti har bir shunday laboratoriya tomonidan tayyorlanadi.

Laboratoriya tomonidan o'tkaziladigan sinovlar to'g'riligi va ishonchligini quyidagi omillar bilan aniqlanadi:

- inson omillari;
- joylar va atrof muhit
- sinovlar va kalibrlashlar usullari hamda usulni validatlash
- jihozlar
- o'lchovlar kuzatuvchanligi
- namunalarni tanlash
- sinalayotgan buyumlarni ishlatish.

Xodimlar. Laboratoriya rahbariyati maxsus asbob-uskunalar bilan ishlaydigan, sinovlar va o'lchashlarni o'tkazadigan, sinovlar natijalarini baholaydigan va bayonnomalarni imzolaydiganlarni hammasining vakolatligini kafolatlashi kerak. Stajerlar ustidan muvofiq nazorat o'tkazish ta'minlangan bo'lishi kerak. O'ziga xos masalalar xodimlarni muvofiq bilimi, tayyorgarligi, tajribasi va mahoratini hisobga olgan holda buyurilishi kerak.

Ayrim texnik sohalarda (misol uchun, putur yetkazmaydigan tekshirish sohasida) ayrim topshiriqlarni bajarayotgan xodimlar shaxsiy sertifikatlashtirishdan o'tishi talab qilinishi mumkin. Xodimlarni sertifikatlashtirishga qo'yiladigan talablarni bajarilishiga laboratoriya javobgar bo'ladi. Xodimlarni sertifikatlashtirishga qo'yiladigan talablar aniq belgilangan bo'lishi, muayyan texnik soha uchun standartlarga kiritilgan bo'lishi yoki so'rovchi tomonidan qo'yilgan bo'lishi mumkin.

Sinovlar to'g'risidagi hisobotlar uchun javobgar xodimlar, tegishli malaka, tayyorgarlik, tajriba va qoniqarli bilimlardan tashqari quyidagilarga ega bo'lishi lozim:

- sinalayotgan buyumlar, materiallar, mahsulot va h.k. ni ishlab chiqarish texnologiyasi yoki ularni qo'llash usuli bo'yicha kerakli bilimlar;
- qonunchilikda va standartlarda mavjud bo'lgan asosiy talablarni bilish;

- tegishli buyumlar, materiallar va boshqa mahsulotlardan foydalanishga nisbatan aniqlangan og'ishlar ahamiyatligini tushunish.

Laboratoriya rahbariyati xodimlarni o'qitish ehtiyojlarini aniqlash va o'qitishni ta'minlash uchun siyosatini o'tkazishi va muvofiq protseduralariga ega bo'lishi kerak. O'qitish dasturi laboratoriyani kundagi va istiqboldagi masalalariga muvofiq kelishi kerak. O'tkazilayotgan o'qitishning samaradorligi baholanishi lozim.

Laboratoriya yollangan yoki shartnoma bo'yicha taklif qilingan xodimlardan foydalanishi lozim. Agar shartnoma bo'yicha taklif qilingan yoki texnik va professional yordam ko'rsatadigan xodimlardan foydalansa, laboratoriya uning kompetentligiga va laboratoriya menejment tizimiga muvofiq holda ishlashiga ishonch hosil qilishi kerak.

Laboratoriya sinovlar o'tkazishda qatnashayotgan rahbar, texnik va kasb xodimlari uchun o'tkazilayotgan ishlar tavsiflariga ega bo'lishi kerak.

Rahbariyat namunalar turlarini tanlab olishni, sinashlarni o'tkazish uchun, sinovlar bayonnomalarini tuzish uchun, fikr va sharhlarni tayyorlash uchun va asbob - uskunalarining aniq xillarini boshqarish uchun maxsus tanlab olingan xodimlariga vakolat berishi kerak. Laboratoriya barcha texnik xodimlar, jumladan shartnoma asosida ishlayotgan mutaxassislar vakolatlari, layoqatligi, kasbiy va bilim darajasi, o'qitilganligi, mahorati va tajribasi haqidagi yozuvlarni yuritishi kerak. Bu axborotdan doim foydalana olish imkoniyati bo'lishi hamda vakolatlari va kompetentligini tasdiqlash sanasini o'z ichiga olishi kerak.

Xonalar va atrof muhit sharoitlari. Sinovlar bajarish, shuningdek, energiya manbalari, yoritish va atrof-muhit (buning bilan chegaralanib qolmagan holda) sharoitlari sinovlar yoki o'lchashlarni to'g'ri o'tkazilishiga ko'maklashishi kerak.

Atrof-muhit sharoitlari noto'g'ri natijalarga olib kelmasligi yoki har qanday o'lchashlarning talab etilgan sifatiga noqulay ta'sir qilmasligini laboratoriya ta'minlashi kerak. Laboratoriyani asosiy xonalaridan tashqari o'tkaziladigan namunalarni tanlab olish, sinash va/yoki kalibrlash hollariga alohida e'tibor berish kerak. Sinovlar va kalibrlashlar natijalariga ta'sir etishi mumkin bo'lgan xonalar va atrof-muhit sharoitlariga qo'yiladigan talablar hujjatlashtirilgan bo'lishi kerak.

Muvofiq standart texnikaviy talablar, usuliyatlar va protseduralar talab qilganidek laboratoriya atrof-muhit sharoitlarini kuzatib borishi, tekshirishi va qayd qilishi lozim.

Muvofiq texnik faoliyatiga muvofiq ravishda, misol uchun biologik sterilligi, chang, elektromagnit xalaqitlar, radiatsiya, namlik, elektr ta'minoti, harorat, shovqin va titrash darajasiga kerakli e'tibor berish kerak. Agar atrof-muhit sharoitlari sinov va/yoki kalibrlashlar natijalariga xavf tug'dirsa sinovlar va o'lchashlar to'xtatib qo'yilishi kerak.

Bir-biriga mos kelmaydigan ishlar bajariladigan yondosh uchastkalar bir-biridan puxta ajratilgan bo'lishi kerak. O'zaro ifloslantirilishini oldini olish bo'yicha choralar ko'rilgan bo'lishi kerak.

Sinovlar yoki kalibrlash sifatiga ta'sir ko'rsa-tuvchi uchastkalarga kirish va ulardan foydalanish tekshirilishi kerak. Laboratoriya aniq vaziyatlar asosida tekshirish darajasini belgilab qo'yishi kerak.

Laboratoriyada tartib va tozalikni ta'minlash bo'yicha choralar ko'rilgan bo'lishi kerak. Lozim bo'lganda, mahsus protseduralar ishlab chiqilishi kerak.

Asbob-uskunalar. Laboratoriya sinovlarni (kichik namunalarni tanlab olish, sinash lozim bo'lgan buyumlarni tayyorlash, sinov ma'lumotlariga ishlov berish va tahlil qilish bilan birga) to'g'ri o'tkazilishi uchun kerak bo'lgan namunalarni tanlab olish, o'lchash va sinash uchun barcha sinash va o'lchash asbob-uskunalariga ega bo'lishi kerak. Laboratoriya, uning doimiy tekshiruvdan tashqari bo'lgan asbob-uskunani qo'llashga muhtoj bo'lgan hollarda, u ushbu standart talablari bajarilayotganligiga ishonch hosil qilishi kerak.

Sinovlarni o'tkazish va namunalarni tanlab olish uchun qo'llaniladigan asbob-uskunalar va ularning dasturiy ta'minoti talab etilgan aniqlikka erishishiga layoqatli bo'lishi va o'tkazilayotgan sinovlar yoki kalibrlashlarga tegishli texnik talablarga muvofiq kelishi kerak. Agar asboblarning asosiy parametrlari va tavsiflari natijalariga salmoqli ta'sir ko'rsatadigan bo'lsa, o'lchash dasturlari ushbu parametrlar va tavsiflar uchun ishlab chiqilgan bo'lishi kerak. Uni ishga tushirishdan oldin asbob-uskunalar (namunalar tanlab olish uchun qo'llaniladigan asbob-uskunani ham qo'shib hisoblab) uni laboratoriyada va muvofiq standartlarda amal qilayotgan texnik talablarga muvofiqligini aniqlash maqsadida tekshirilgan yoki kalibrlangan bo'lishi kerak. Uni qo'llashdan oldin tekshirish yoki kalibrlash kerak.

O'zbekiston Respublikasi hududida O'zbekiston Respublikasining «Metrologiya to'g'risida» gi qonun va o'lchashlar birliligini ta'minlash Davlat tizimining me'yoriy hujjatlari talablariga muvofiq holda kalibrlashdan tashqari boshqa o'lchash vositalarini baholash turlari ham qo'llaniladi, masalan, o'lchash vositalarini qo'llash yoki ularni yetkazishga bog'liq holda qiyoslash yoki metrologik attestatlash.

Sinovlar va kalibrlashlarni o'tkazish chog'ida qo'llaniladigan va natijaga ta'sir ko'rsatadigan asbob-uskunani har bir birligi va uni programmali ta'minoti, agarda bu amalga oshirilishi mumkin bo'lsa bir xilda identifikatlashtirilgan bo'lishi kerak.

Sinovlar yoki kalibrlashlar uchun ahamiyatli bo'lgan asbob-uskunaning har bir turi va uning programmali ta'minoti ro'yhatga olinishi lozim. Ro'yhatga olish ma'lumotlari kamida:

- asbob-uskunalarini har bir birligini va uning programmali ta'minotini;
- ishlab chiqaruvchining nomini, xilini identifikatsiyasi, seriyali raqami yoki boshqa noyob identifikatsiyasini;

- asbob-uskunalarini texnikaviy shartlarga muvofiqligi tekshiruvlarining natijalarini;

- agar o'rinli bo'lsa, berilgan onda uning joylashgan joyini;

- ishlab chiqaruvchining yo'riqnomalarini, ular bor bo'lganda yoki ularni turgan joyi haqidagi ma'lumotlarni;

- barcha sinovlar va kalibrlashlar, sozlashlar, qabul qilishlar sanalarini va keyingi kalibrlashning rejalashtirilgan sanasini, hisobotlarning natijalarini va nusxalarini;

- agar joiz bo'lsa xizmat ko'rsatish rejasini va o'tkazilgan xizmat ko'rsatishni;

- asbob-uskunaning har qanday shikastlari, buzilishlari, modifikatsiyalari yoki ta'mirlarini o'z ichiga olishi kerak.

Laboratoriyada o'lchash asbob-uskunalarini kerakligicha ishlashini va ifloslanishi yoki buzilishini oldini olish maqsadida ulardan xavfsiz foydalanish, transportda tashish, saqlash, qo'llash va rejali xizmat ko'rsatish bo'yicha protseduralar ro'yhatga olingan bo'lishi kerak.

*Izoh - Agarda sinovlarni o'tkazish yoki namunalar tanlab olish uchun laboratoriyaning asosiy hududida bo'lmagan o'lchash asbob-uskunalaridan foydalanilsa qo'shimcha protseduralar kerak bo'lib qolishi mumkin.*

Agar asbob-uskuna o'ta yuklanishga duchor qilingan yoki noto'g'ri qo'llanilgan, shubxali natijalar ko'rsatgan, nuqsonli bo'lgan yoki belgilangan chegaralardan chiqqan bo'lsa, u ishlatishdan chiqarib qo'yilishi kerak. Undan foydalanishni oldini olish uchun uni ajratib qo'yish yoki yorliq, bo'lmasa boshqa markalashni qo'llash bilan u ta'mirlangunicha, kalibrlanguncha yoki to'g'ri ishlashi bo'yicha sinalgunicha foydalanishga yaroqsizligini aniq ko'rsatib qo'yish kerak. Laboratoriya oldingi sinovlardagi nuqsonni yoki chetlanishning oqibatlarini o'rganishi hamda "Nomuvofiq ishlarni bajarish" protsedurasini ishlab chiqishi kerak.

Amalda bajarilishi mumkin bo'lsa, laboratoriya tekshiruvida bo'lgan barcha asbob-uskunalar markalangan, kodlangan yoki qandaydir boshqa tarzda identifikatlashtirilgan bo'lishi kerak.

Agar qandaydir sabab bo'yicha asbob-uskuna laboratoriyaning bevosita tekshiruvidan chetda qolgan bo'lsa, uni ishlatishga qaytarishdan oldin laboratoriya asbob-uskunani ishlashi tekshirilganligi va qoniqarli deb topilganligiga ishonch hosil qilishi kerak.

Agar kalibrlash vaqtida qator tuzatuvchi koeffitsientlarni kiritish talab etilsa, u holda laboratoriya ularning nusxalarining (masalan, kompyuterning dasturiy ta'minotida) tegishli dolzarblashtirilishini ta'minlovchi protseduralarga ega bo'lishi lozim.

Sinash yoki kalibrlash asbob-uskunalarini, jumladan, sinovlar yoki kalibrlashlar natijalarini nohaqiqiy qilib qo'yish mumkin bo'lgan apparat vositalari va dasturiy ta'minotni rostdashga yo'l qo'ymaslik lozim.

## 15.2. Sinov laboratoriyalarini akkreditlashtirishga tayyorlash bosqichlari

Qator mamlakatlarning qonunlarida mahsulotni xavfsizligi va atrof-muhitni asrash bo'yicha talablarning paydo bo'lishi bilan sinovlarni davlat idoralarining vakillari ishtirokida o'tkazilmoqda. Bunday tajriba sinovlarning milliy tizimini akkreditlanuvchi sinov laboratoriyalari bilan birga yaratilishiga olib keladi.

Laboratoriyalarni akkreditlash deganda sinov laboratoriyasining ma'lum sinovlar yoki sinovlarning muayyan xillarini amalga oshirish xuquqlarini rasmiy jihatdan tan olish tushuniladi.

Bunda sinov laboratoriyasining texnikaviy layoqatligi va holisligi yoki faqat layoqatligini tan olishning ifodalanishi ko'rilishi mumkin.

Laboratoriyaning attestatsiya deganda laboratoriyaning akkreditlash uchun belgilangan mezonlarga muvofiqligini aniqlash maqsadida sinov laboratoriyasini tekshirilishi tushuniladi.

Sertifikatlashtirish sinovlarini o'tkazish va akkreditlash uchun da'vogar bo'luvchi laboratoriyalarga muayyan talablar qo'yiladi va ularning bajarilishi sertifikatlashtirish idoralari tomonidan nazorat qilinadi.

Shunday talablar qatoriga quyidagilar kiradi:

- xodimlarning nazariy tayyorgarligi va amaliy ishdagi texnikaviy layoqatligi;

- sinov o'tkazish asbob-uskunalarining mavjudligi, o'lchash va boshqa vositalarni akkreditlash xuquqini olish uchun kerakli tekshiruv sinovlarini to'g'ri o'tkazishda moddiy-texnikaviy ta'minotining yetarli ekanligi;

- sertifikatlashtirish tavsiflari bo'yicha har bir aniqlash uchun tekshirilayotgan sinov uslublarini to'la tadbqiq qilish va buning natijasida sinov yakunlari qaytaruvchanligi va xaqqoniyligini ta'minlashligi;

- laboratoriyaning aniq va tashkiliy xaq-xuquqiy o'rni bo'lib, mahsulot ishlab chiqaruvchidan mustaqil hamda tijorat yoki boshqa majburiyatlarda bo'lmagan sinovlarning xaqqoniyligiga ta'sir o'tkaza olmaydigan bo'lishligi;

- sinovlarni o'tkazishda tizim sifatini ta'minlanilishini mavjudligi.

Sertifikatlashtirish idorasi tomonidan o'tkaziladigan akkreditlash bo'yicha sinov laboratoriyalarining bu talablarga qanday javob berishligi tekshiriladi va laboratoriyaning holati to'la-to'kis o'rganiladi.

Shu bilan birga sinov laboratoriyalarini akkreditlash (odatda "akkreditlash milliy tizimi" atamasi bilan ham ifodalanadi) tartibi va bajariladigan ishlari turli mamlakatlarda, ulardagi tizimlarni yuritish xususiyatlari bilan farqlanadi.

Hozirda sinov laboratoriyalarning akkreditlash milliy tizimini ko'pgina mamlakatlarda tuzilgan bo'lib, muayyan darajada yo'lga qo'yilgan.

AQSHda 1972 yilda o'tkazilgan ro'yxat ma'lumotlariga qaraganda davlat idoralari va xususiy tashkilotlar ixtiyorida bo'lgan 1800 ta tijorat sinov laboratoriyalari va ko'p miqdorda sinov laboratoriyalarini baholash tizimining borligi aniqlangan.

Masalan, savdo, energetika, mudofaa vazirliklari tomonidan sinov laboratoriyalarini tan olish tizimlari tashkil etilgan. Savdo vazirligi bo'yicha amalda bo'lgan, 1929 yildan beri AQShda beton, tsement, asfalt, kog'oz, kartonlar bilan sinov o'tkazuvchi laboratoriyalardan faqat bir necha yuz laboratoriyalar tan olingan xolos.

Sinovlarni tashkil qilish darajasini baholashni va ularning faoliyatini ishlab chiqilgan mezonlar asosida savdo vazirligining texnika bo'limi standartlarning milliy byurosi amalga oshiradi.

1900 yili Fransiya san'at va hunarmandlik maktabi qoshida sinovlar o'tkazish milliy laboratoriyasi paydo bo'ldi. 1978 yildan boshlab bu sinov laboratoriyasi sanoat vazirligi qoshidagi davlat muassasasiga aylantirildi, bu Fransiya milliy sinovlar tarmog'i (RNE)ning yaratilishiga poydevor bo'ldi.

RNE - sinov laboratoriyalarining yagona muvofiqlashtiruvchi birlashmasi bo'lib, yagona qoidalar va ish tartibi asosida sinovlar o'tkazishni ta'minlaydi. RNE ning asosiy vazifalaridan biri sinov laboratoriyalarini akkreditlash bilan bog'liq bo'lgan ishlarni amalga oshiradi.

1981 yili Buyuk Britaniya Hukumat qarori bilan milliy fizika laboratoriyasi qoshida sinov laboratoriyalarini akkreditlash milliy tizimi (NATLAC) tuzildi. Unga sinovlarni o'tkazish laboratoriyaning tayyorgarligini baholash va akkreditlash, bu sinovlarni sertifikat berish bilan o'tkazish, shuningdek akkreditlangan laboratoriyalar ro'yxatini nashr etirilishi topshirilgan.

Sinov laboratoriyalarining rejalarini amalga oshirish ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi.

Mamlakat ichidagi sinov o'tkazuvchi har qanday laboratoriya, agar u uchinchi tomon sifatida bo'lsa, milliy attestat olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Buyuk Britaniya akkreditlash rejasini Britaniya standartlashtirish bilimgoi tayyorlaydi. Laboratoriyani akkreditlash uchun buyurtmanoma shu bilimgoi nomiga topshiriladi. Buyurtmanoma bilan birga to'ldirilgan savolnoma (voprosnik), sinovlar sifatini ta'minlash bo'yicha qo'llanmaning nusxasi, sinovlar o'tkazishga davogar laboratoriyaning o'tkaziladigan sinov turlari to'g'risidagi ma'lumot qo'shib topshiriladi. Bu hujjatlarni olgandan so'ng bilimgoi akkreditlashni o'tkazuvchi ekspert guruhini tuzadi. Uning tarkibi sinov turlarining miqdoriga, hamda laboratoriyaning katta-kichikligiga bog'liq bo'ladi. Akkreditlashni bir kun ichida o'tkazish ko'zda tutiladi. Uning natijalariga qarab ekspert guruhi quyidagi 3 variantli xulosaga keladi:

- Laboratoriyaning kamchiliklari yo'q, u akkreditlanishi mumkin;
- Laboratoriyaning jiddiy bo'lmagan kamchiliklari bo'lib, ularni bir oy ichida yo'qotish sharti bilan akkreditlash mumkin;
- Laboratoriya jiddiy kamchiliklarga ega va uni akkreditlanishi tavsiya etilmaydi.

Akkreditlash haqida qaror qabul qilingandan so'ng laboratoriyaga attestat beriladi, unda akkreditlanuvchi mahsulotning nomi va sinovlar turi ko'rsatiladi.

Attestat kamida 10 yil muddatga mo'ljallanib, uni bilimgo' qoshidagi sifatini ta'minlash bo'yicha kengash beradi. SHuni aytish kerakki, bu akkreditlangan laboratoriya har yili kengash nomiga akkreditlanishi hamda muayyan vaqt oralig'ida kengash tomonidan o'tkaziladigan baholanishi va nazorati bilan bog'lik bo'lgan harajatlarni uning hisobiga o'tkazib turadi.

Laboratoriyani akkreditlash uchun quyidagilar lozim:

- akkreditlash uchun da'vogar bo'lgan sinov laboratoriyasining talabnomasini taqdim etish va ko'rib chiqish;
- taqdim etilgan akkreditlanish hujjatlarining ekspertizasi;
- akkreditlanuvchi laboratoriyani tekshirish bo'yicha komissiya tayinlash va uni o'tkazish muddatini aniqlash;
- akkreditlanuvchi laboratoriyani joyida attestatlash (tekshirish);
- laboratoriyani akkreditlanganligi haqida qaror qabul qilish;
- laboratoriyani akkreditlanganligi haqidagi attestatni rasmiylashtirish, ro'yhatdan o'tkazish va uni topshirish.

Sinov laboratoriyasini akkreditatsiyaga tayyorlash uchun quyidagi ko'rinishdagi ma'lumotlar taqdim qilinadi.

1- jadval

#### Sinov laboratoriyasining jihozlanganligi

| Mahsulotda aniqlanishi kerak bo'lgan xususiyatlar | Uskuna nomi, turi | Ishlab chiqaruvchi (mamlakat) | Asosiy texnik ko'rsatkichlar | Foydalanishga kiritilgan yili | Uskunaning attestatsiyalanganligi to'g'risida | Izoh |
|---------------------------------------------------|-------------------|-------------------------------|------------------------------|-------------------------------|-----------------------------------------------|------|
| 1                                                 | 2                 | 3                             | 4                            | 5                             | 6                                             | 7    |
|                                                   |                   |                               |                              |                               |                                               |      |

2-jadval

#### Analitik nazoratda standart namunalar bilan jixozlanganligi

| Qo'llanilayotgan standart namunalari | Namuna ning nomi va № | Attestatsiyalangan ko'rsatkichlar | Ko'rsatkichlar xatoligi | Yaroqlik muddati | Attestatsiyalash guvohnomasi | Qachon va kim tomonidan tasdiqlangan | Izoh |
|--------------------------------------|-----------------------|-----------------------------------|-------------------------|------------------|------------------------------|--------------------------------------|------|
| 1                                    | 2                     | 3                                 | 4                       | 5                | 6                            | 7                                    | 8    |
|                                      |                       |                                   |                         |                  |                              |                                      |      |

3- jadval

#### Bajarilayotgan ishlarga bo'lgan talablarni va ularni bajarish usullarini belgilovchi me'yoriy xujjatlar ro'yxati

| NX belgilanishi | NX nomi | O'zgartirishlar | Izoh |
|-----------------|---------|-----------------|------|
| 1               | 2       | 3               | 4    |
|                 |         |                 |      |

4-jadval

**Akkreditatsiyalash soxasi bo'yicha ishlarni amalga oshiruvchi  
xodimlar ro'yxati**

| FIO | Lovozimi | Ma'lumoti | O'tkaziladigan<br>ishlar | Attestatsiya-<br>langanligi<br>to'g'risida | Izoh |
|-----|----------|-----------|--------------------------|--------------------------------------------|------|
| 1   | 2        | 3         | 4                        | 5                                          | 6    |
|     |          |           |                          |                                            |      |

5-jadval

**Laboratoriya xonasi sharoitlari**

| Ishlab<br>chiqarish<br>xonasining<br>nomi | Maxsus<br>yoki<br>moslashtiril-<br>gan | May-<br>doni<br>m <sup>2</sup> | Tempe-<br>ratura<br>°C | Nam-<br>lik<br>% | Ish<br>joyining<br>yorug'ligi | Gazlan-<br>ganlik<br>darajasi<br>mg/m <sup>3</sup> | SHovqin<br>darajasi<br>norma,<br>ortiq emas |
|-------------------------------------------|----------------------------------------|--------------------------------|------------------------|------------------|-------------------------------|----------------------------------------------------|---------------------------------------------|
| 1                                         | 2                                      | 3                              | 4                      | 5                | 6                             | 7                                                  | 8                                           |
|                                           |                                        |                                |                        |                  |                               |                                                    |                                             |

Akkreditlangan laboratoriyalarda saqlanadigan hujjatlar quyidagilardan iborat bo'lishi kerak:

1. Xuquqiy hujjatlar:

- akkreditlangan sinov laboratoriyasi haqidagi nizom;
- sinov laboratoriyasining pasporti, akkreditlanganligi haqidagi attestat.

2. Tashkiliy-uslubiy hujjatlar:

O'z DST 5.3-92 "Sertifikatlashtirish milliy tizimi. Sinov laboratoriyalarini (markazlarni) akkreditlash. Asosiy qoidalar.

ISO, ISO/IEC Hujjatlari, EN-45000 raqamli, N-seriyali akkreditlashning tashkiliy va uslubiy masalalarini rejalashtiruvchi standartlar.

3. Tekshiriluvchi mahsulotga oid me'yoriy hujjatlar.

4. Tizimning sifatini ta'minlovchi hujjatlar:

Sifat bo'yicha qo'llanma va protsedura hujjatlari.

5. Sinash va o'lchash asbob-uskunaga doir hujjatlar:

- asbob-uskunalarini qayd etilgan (qayd daftari, kartalar, varaqlar, pasportlar va boshqalar) hamda quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oluvchi hujjatlar:

a) asbob-uskuna nomi va uning turi;

b) korxona-tayyorlovchi (firma), turi (markazi), korxona va inventar raqami;

v) asbob-uskuna ishlab chiqilgan, olingan va ishga tushgan vaqti;

g) sotib olingandagi holati (yangi, ishlatilgan, ta'mirdan keyin va boshqalar);

d) buzilganligi, ta'miri, texnika ko'rigi haqidagi ma'lumotlar;

e) attestatlash va tekshirish haqidagi ma'lumotlar;

- tekshiriluvchi asbob-uskuna va o'lchash vositalarining ishlashidagi va texnikaviy xizmat ko'rsatish haqidagi hujjatlar:

a) Har bir alohida sinaluvchi asbob-uskuna va o'lchash vositalari uchun pasport;

b) o'lchash vositalarida tekshiruv o'tkazish uslublari, hamda tekshiriluvchi asbob-uskunani attestatlash rejası va uslublari;

v) attestatlash tartibi va nostandart sinash va o'lchash uslublari ni tasdiqlash;

- o'lchash vositalarini tekshirishni hisobga oladigan va sinalayotgan asbob-uskunaning attestatlash haqidagi hujjatlar: sinaluvchi asbob-uskunaning va o'lchash vositalarini tekshirish grafigi;

- O'z DSt 5.0-92da qo'llanish sohasi, me'yoriy hujjatlarga ilova, sertifikatlashtirishda ishlatiladigan asosiy atamalar, umumiy qoidalar, sertifikatlashtirish milliy tizimining tashkiliy tuzilishi va vazifalari, sinov va sertifikatlashtirish sohalari bo'yicha xalqaro hamkorlik kabi masalalar yoritilgan hujjatlar.

6. Laboratoriya xodimlari haqidagi hujjatlar:

- laboratoriyada ishlaydiganlarning shaxsiy varaqalari;

- mansabiy yo'riqnomalari;

- laboratoriya xodimlarining attestatlash haqidagi materiallar.

7. Sinaluvchi buyum (mol) namunasining hujjatlari:

- sinaluvchi buyumlarni pasporti, ishlatish bo'yicha qo'llanma va texnikaviy tavsifi;

Bularning ichida yo'riqnomalar:

a) buyumlarning namunalarini belgilash tartibi;

b) namunalarni qabul qilishda ularning to'raligini (butligini) va ishga layoqatligini tekshirish tartibi;

v) buyum namunalari uchun hujjatlarning to'raligiga talablar;

g) namunalarning saqlanishini ta'minlaydigan tartibi;

d) buyurtmachiga buyum namunalarini qaytarish tartibi.

8. Sinovlar o'tkazish ma'lumotlarini ro'yxatlash tartibi uchun hujjatlar:

- sinovlarni o'tkazish: rejası va uslubi;

- ma'lumotlarni hisoblash tartibini o'z ichiga oluvchi hujjatlar, ishchi jurnallar, sinovlar va o'lchashlarning natijalarini o'z ichiga oluvchi, ishchi qayd daftarlar;

- sinovlar bayonnomasi, o'tkazilgan sinovlar haqidagi hisobot.

9. Xonalardagi sharoitni saqlash bo'yicha hujjatlar:

- ishlab chiqarish xonalaridagi tegishli tartibni ta'minlash bo'yicha yo'riqnomalar;

- xonalardagi holatni nazorat qiluvchi daftar; qayd daftari;

- asbob-uskunaning ishlashidagi hujjatlar;

- xonalar ichidagi muhitning kerakli sharoitini nazorat qiluvchi va ta'minlovchi asbob-uskunaning ishlashidagi hujjatlar.

10. Arxiv bo'yicha hujjatlar:

- arxiv tarmog'idagi ushbu o'lchashlar va sinovlar ma'lumoti, ishchi qayd daftarlarini, ma'lumotlarning hisob-kitobi, hisobotlar, namunalar haqidagi hujjatlar va boshqalarni yuritish tartibi haqidagi yo'riqnomalari.

### **15.3. Maqsad va vazifalari (O'zDSt ISO/IEC 17025)**

Sinov laboratoriyalarini akkreditatsiyalash – akkreditatsiya organi tomonidan tashkilotning ma'lum bir sohada muvofiqlikni baholashni amalga oshirish uchun vakolatini rasman e'tirof etishdir.

Akkreditatsiya – sinov laboratoriyalarining vakolatlarini tan olinganligi tog'risidagi hujjatidir.

Laboratoriyaning akkreditatsiyalashdan maqsadi:

- laboratoriya vakolatini tasdiqlash;
- ishlab chiqaruvchilar, sotuvchilar va xaridorlar akkreditatsiyalangan laboratoriyaga ishonchini ta'minlash;
- akkreditatsiyalangan laboratoriyalar faoliyati natijalarini tan olish uchun shart-sharoitlar yaratish.

Sinov laboratoriyalari O'zDSt ISO / IEC 17025:2019 xalqaro standarti talablari asosida sinov laboratoriyalari akkreditatsiyadan o'tkaziladi.

Laboratoriya akkreditatsiyadan o'tganligi to'g'risidagi guvohnoma quydagilarga kafolat beradi:

- mustaqildir va uning faoliyati natijalari bo'yicha qonuniy javobgar bo'lishi mumkin;
- o'z faoliyatida davomida sertifikatlangan usullardan foydalanadi;
- akkreditatsiya sohasiga kiritilgan barcha turdagi sinov uskunalarini va vositalardan foydalanadi;
- sinov uskunolari va o'lchov qurilmalari qiyoslash va kalibrlash o'z vaqtida amalga oshiriladi;
- namuna olish belgilangan tartibda amalga oshiriladi;
- sinovlar va o'lchovlar malakali xodimlar tomonidan amalga oshiriladi;
- laboratoriya xonalari belgilangan talablarga javob beradi;
- samarali sifat menejmenti tizimiga ega bo'ladi.

### **Nazorat savollari**

1. Sinov laboratoriyalari hujjatlari deganda nimalar inobatga olinadi?
2. Sinov laboratoriyalarini akkreditlash nima?
3. Sinov laboratoriyalarini akkreditlash bosqichlari?
4. Sinov laboratoriyalarini akkreditlash qaysi me'yoriy xujjat asosida bajariladi?
5. Akkreditlash haqida qaror qabul qilingandan so'ng laboratoriyaga qanday xujjat beriladi?

### **16-mavzu. Sertifikatlashtirish idoralariga bo'lgan umumiy talablar.**

#### **16.1. Sertifikatlashtirish idoralarini tashkillashtirish**

## 16.2. Sertifikatlashtirish idoralari vazifalari va faoliyati

### 16.1. Sertifikatlashtirish idoralari tashkillashtirish

Sertifikatlashtirish laboratoriyalarining o'ziga xosligi ularni xuquq doirasida tan olinishi maxsus tizimini talab etadi. Ularning akkreditatsiyasi o'zida sinov laboratoriyalarining akkreditatsiyasiga umumiy yondashishni sintez qiladi. SHuning uchun O'zbekiston Respublikasida 2014 yildan "O'zstandart" agentligi O'zbekiston Respublikasining akkreditatsiya bo'yicha Milliy organi xisoblanadi ( O'zRning "Muvofiqligiga baxo berish" qonuniga muvofiq) va amaldagi qonunga muvofiq quyidagi vazifalarni bajaradi:

- sinov va o'lov laboratoriyalarini, sertifikatatsiya qilish organlarini, nazorat organlarini, inspeksiya organlarini va ekspert auditorlarni akkreditatsiya o'tkazishning umumiy qoidalari va tartibini o'rnatadi;

- O'zbekiston Respublikasi akkreditatsiya Milliy tizimi boshqaruvini amalga oshiradi;

- O'zbekiston Respublikasini akkreditatsiya va o'zaro ishlarni tan olish bo'yicha xalqaro tashkilotlarda, boshqa davlatlar bilan munosabatlarda tanishtiradi;

- bir xil maxsulotlarni sertifikatatsiya qilish organlarini, sinov(markaz) laboratoriyalarini, sertifikatatsiya qilishni nazorat organlarini, xamda sifat bo'yicha ekspert-auditorlarni akkreditatsiya qiladi;

- Sertifikatsiya bo'yicha akkreditatsiyalangan Davlat reestrini, akkreditatsiyalangan sinov laboratoriyalarining Davlat reestrini, menedjment tizimini sertifikatatsiyalash Davlat organi reestrlarini olib boradi;

- Akkreditatsiyadan o'tgan sertifikatatsiya organlari va sinov laboratoriyalarini inspeksion nazoratini amalga oshiradi;

- Amaldagi qonunga muvofiq akkreditatsiya ishlarini o'tkazish "O'zstandart" agentligi markaziy apparatining akkreditatsiya va inspeksion nazorat boshqarmasi zimmasiga yuklatilgan.

"O'zstandart" agentligi sinov laboratoriyalarini akkreditatsiya qilish Xalqaro konferentsiyasi (ILAC) a'zosi xisoblanadi, bu esa akkreditatsiyadan o'tgan laboratoriyalarga xalqaro miqyosda tan olinishini bildiradi va eksport qilinayotgan tovarlar xaqidagi ma'lumotlarni xam tan olinishini anglatadi. Bu esa maxsulot tayyorlovchi va importyorni chiqimlarini ancha kamaytiradi, bunda boshqa davlatda maxsulotni qayta tekshiruvdan o'tkazishga xojat qolmaydi.

### 16.2. Sertifikatlashtirish idoralari vazifalari va faoliyati

Sertifikatlashtirish idoralarining majburiy xujjatlari quyidagilar xisoblanadi:

- ta'sis xujjatlarini nusxasi (agarda u yuridik shaxs bo'lsa);
- sertifikatlashtirish idoralarining (markaz)tartibi loyixasi;
- akkreditatsiya soxasi loyixasi;

- sertifikatlashtirish idoralarining pasporti;
- o'z ichiga sifat menedjmenti tizimini olgan sifat bo'yicha qo'llanma.

Sertifikatlashtirish idoralarining yuridik maqomini tasdiqlash uchun tashkilot nizomi va boshqa ta'sis xujjatlari ko'rsatiladi, agarda ular bor bo'lsa. Agarda laboratoriya tashkilotning mustaqil bir bo'linmasi bo'lsa, unda qo'shimcha yana tashkilotning oliy raxbari tomonidan uning maqomini belgilovchi xujjat keltiriladi. Sertifikatlashtirish idoralarining moliya va material resurslarni boshqarishdagi mustaqilligi xam xujjat bilan tasdiqlanishi shart.

Akkreditatsiyalangan sertifikatlashtirish idoralari o'z faoliyatini akkreditatsiya tartibi bo'yicha olib boradi. Tartib laboratoriyaning funksiyasi, xuquqi, majburiyati, javobgarligi va tashkiliy tuzilishi va uning faoliyatining boshqa aspektlarini belgilab beradi.

Akkreditatsiyaning ijobiy natijalariga ko'ra laboratoriya va akkreditatsiya o'tkazuvchi organ bilan shartnoma imzolanaadi, agarda u yuridik maqomga ega bo'lsa.

Sertifikatlashtirish idora akkreditatsiya soxasida ilova shaklida loyixa taqdim etadi, unda me'yoriy xujjatlarga asoslangan sinov turlari ko'rsatiladi.

Sertifikatlashtirish idoralarining texnik kompetentnostligini O'z DSt ISO/IEC 17025:2019 bo'limi orqali tasdiqlanishi uning pasportida belgilanishi shart. Sertifikatlashtirish idoralarining pasporti ilova S shaklida boshliq tomonidan tasdiqlanadi.

Sertifikatlashtirish idoralarining Sifat tizimi menedjmenti (STM) talablar asosida ishlab chiqiladi va sifat bo'yicha qo'llanma ko'rinishida rasmiylashtiriladi, tavsiyalar O'z DSt ISO/IEC 17025:2019 da keltirilgan. Sifat bo'yicha qo'llanma maxalliy mutaxassislar tomonidan ishlab chiqiladi va laboratoriya raxbari tomonidan tasdiqlanadi. Sifat bo'yicha qo'llanma o'z ichiga sifat soxasidagi siyosatni va unda jarayonlarni o'zaro xarakatlari yoritiladi.

Sifat bo'yicha qo'llanma va STM o'zlarida quyidagi tartibni oladi, ular O'z DSt ISO/IEC 17025:2019ning kerakli punktlarida keltirilgan

xujjatlarni boshqarish;

- so'rovlarni, rasmiy taklif va shartnomalarni ko'rib chiqish;

- xizmat va xaziralarni xarid qilish;

- e'tirozlar;

- o'rnatilgan talablarga javob bermaydigan sinov va kalibrovka ishlarini boshqarish;

- korrektsiyalovchi xarakatlar;

- ogoxlantiruvchi xarakatlar

- ma'lumotlarni qayd qilishni boshqarish;

- ichki tekshiruvlar;

- raxbariyat tomonidan taxlil;

- xodimlar;

- binolar va atrof muxit sharoiti;

- sinov va kalibrovka metodlari va validatsiya metodi;

- sinov uskunalari va o'lov vositalarini boshqarish;
- o'lovlarini kuzatilishi;
- **namunalarni tanlash;**
- sinov va kalibrovka qilinishi kerak bo'lgan jixozlar bilan ishlash;
- sinov va kalibrovka natijalari sifatini ta'minlash.

### **Nazorat savollari**

1. Sertifikatlashtirish idorasiga ta'rif berining.
2. Sertifikatlashtirish idorasining majburiyatlari nimadan iborat?
3. Akkreditatsiya soxasi nima?

### **17-mavzu. Ishlab chiqarishni sertifikatlashtirish**

- 17.1. Ishlab chiqarishni sertifikatlashtirish qoidalari
- 17.2. Ishlab chiqarishni sertifikatlashtirish tartibi
- 17.3. Sertifikatlashtirishda ishlab chiqarishni baholash va kuzatish

#### **17.1. Ishlab chiqarishni sertifikatlashtirish qoidalari**

Ishlab chiqarishni sertifikatlashtirish - sifat standartlarida va texnik reglamentlarda o'rnatilgan barcha talablarga mahsulotning muvofiqligini va mahsulotni tayyorlash shart-sharoitlarini hamda ishlab chiqarish jarayonlarining barqarorligini tasdiqlashdir.

O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarishni sertifikatlashtirishni o'tkazishga asoslar. O'zbekiston Respublikasida amaldagi majburiy sertifikatlashtirish qonunchiligiga muvofiq ishlab chiqarishni sertifikatlashtirish ko'zda tutilmagan bo'lib, ishlab chiqarishni sertifikatlashtirish sertifikatlashtirish milliy tizimida ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi. Ishlab chiqarishga sertifikatni olish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotning raqobatbardoshligini oshirish maqsadida ishlab chiqaruvchining hohoshi bo'yicha amalga oshiriladi.

Sifat uchun muvofiqlik sertifikatlari quyidagi turdagi ishlab chiqarishlarga berilishi mumkin:

- uzoq vaqt davomida bir turdagi mahsulotni ommaviy ishlab chiqarish;
- nomenklaturasi turg'un bo'lmagan donali mahsulotlarni yakka tartibda ishlab chiqarish;
- konveyerli turdagi uzluksiz keng miqyosda ishlab chiqarish;
- alohida turdagi mahsulotlarni seriyali ishlab chiqarish;
- qo'l mehnatiga asoslangan, donali ishlab chiqarish yoki kichik hunarmandchilik.

Ishlab chiqarishni sertifikatlashtirish qonunchilik hujjatlariga muvofiq va tasdiqlangan aniq tartib bo'yicha amalga oshiriladi. Ammo ishlab chiqarishni sertifikatlashtirishni o'tkazishda baholashning asosiy mezonini ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatining barqarorligini ta'minlash hisoblanadi.

Ishlab chiqarishni sertifikatlashtirish akkreditlangan sertifikatlashtirish idoralari tomonidan o'rnatilgan tartibda amalga oshiriladi. Ishlab chiqarishni sertifikatlashtirish jarayonida asosiy va eng muhim zvenosi sifatida ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatiga bevosita ta'sir etuvchi ishlab chiqarish va texnologik jarayonlari hamda ishlab chiqarish ustidan nazorat va barqarorligini ta'minlashni keltirish mumkin. Ishlab chiqarishni sertifikatlashtirishni o'tkazish uchun usul korxonaning turi u yoki bu xususiyatlaridan kelib chiqib alohida tartibda aniqlanadi.

Ishlab chiqarishni sertifikatlashtirish uchun asosiy ob'ektlar sifatida quyidagilar hisoblanadi:

- alohida texnologik jarayonlarning holati;
- ishlab chiqarish tizimining holati;
- korxonani boshqarish bo'yicha faoliyat;
- sifatli mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlash bo'yicha faoliyat;
- ishlab chiqarilgan mahsulotning sifati;
- ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sifatini ta'minlash uchun belgilangan me'yoriy hujjatlar, qoidalar, me'yorlar va chora-tadbirlar;
- mahsulotni sinash va texnikaviy nazorat tizimlari.

Ishlab chiqarishni sertifikatlashtirishda quyidagi to'rtta blok ob'ektlari baholanadi:

- tayyor mahsulot (uni iste'mol va realizatsiya qilish sohalarida sifatini baholash va aniqlangan nuqsonlarning sabablarini tahlili);
- texnologik tizimi (texnologik jarayonlar, yuklash-tushirish ishlari, saqlash, o'rnatish holatlari);
- texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash (qurilmalarga texnikaviy xizmat ko'rsatish va ta'mirlash, ekspluatatsiyasi, o'rnatish, nazorat-o'lchash asboblarning qiyoslanganligi);
- sinash va texnikaviy nazorat tizimlari (kirish nazorati, operatsion nazorat, qabul qilish nazorati; namunaviy, davriy sinovlar).

### **17.2. Ishlab chiqarishni sertifikatlashtirish tartibi**

Ishlab chiqarishni sertifikatlashtirish tartibidagi asosiy ishlar quyidagi bosqichlarga bo'linadi:

- ishlarni tashkillashtirish (sertifikatlashtirishdan oldingi bosqich);
- arizachi taqdim etgan dastlabki ma'lumotlarni ekspertizadan o'tkazish;
- tekshirish dasturini tuzish;
- ishlab chiqarishni tekshirish;
- sertifikatni rasmiylashtirish;
- sertifikatlangan ishlab chiqarish ustidan inspeksiya nazoratini o'tkazish.

Ishlab chiqarishni sertifikatlashtirish bosqichlarida bajariladigan ishlarning qisqacha tarkibi 17.2-jadvalda keltirilgan.

**Ishlab chiqarishni sertifikatlashtirishning asosiy bosqichlari**

17.2-jadval

| <b>Bosqichlarning nomi</b>                                                                                                                                | <b>Bosqichning tarkibi</b>                                                                                                                                                                                                                                | <b>Bajaruvchi</b>                                | <b>Bosqichning yakuni</b>                                                                                                                                                               |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1. Ishlab chiqarishni sertifikatlashtirishga deklaratsiya-arizani sertifikatlashtirish idorasiga taqdim etish                                             | Deklaratsiya-arizasini tahlil qilish                                                                                                                                                                                                                      | Tashkilot (arizachi)                             | Dastlabki ma'lumotlarni ekspertiza qilish qilish uchun ekspertni tayinlash                                                                                                              |
| 2. Dastlabki ma'lumotlarni ekspertiza qilish                                                                                                              | Realizatsiya qilinayotgan mahsulot sifati to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish, dastlabki ma'lumotlarni ekspertizadan o'tkazish, ishlab chiqarishni sertifikatlashtirishning keyinga bosqichini amalga oshirish uchun to'liqligini baholash | Sertifikatlashtirish idorasi (vakolatli ekspert) | Ishlab chiqarishni sertifikatlashtirish o'tkazishida ma'lumotlarning to'liqligi to'g'risida xulosani tuzish, ishlab chiqarishni sertifikatlashtirishni o'tkazish uchun shartnoma tuzish |
| 3. Ishlab chiqarishni tekshirish bo'yicha komissiyani shakllantirish                                                                                      | Bosh ekspertni tayinlash va komissiya tarkibini tasdiqlash                                                                                                                                                                                                | Sertifikatlashtirish idorasi (vakolatli ekspert) | Komissiya tarkibi to'g'risidagi buyruqni rasmiylashtirish                                                                                                                               |
| 4. Tekshirish ishchi dasturini tuzish (yoki namunaviy dasturlarni qabul qilish)                                                                           | Ishlab chiqarishni tekshirish va ob'ektlarini tartiblashtirish hamda qarorni qabul qilish qoidalarini                                                                                                                                                     | Sertifikatlashtirish idorasi (vakolatli ekspert) | Ishlab chiqarishni tekshirish dasturini qabul qilish                                                                                                                                    |
| 5. Ishlab chiqarishni tekshirish                                                                                                                          | Komissiyani shakllantirish, tekshirish rejasini tuzish, ishlab chiqarishni tekshirish, ishlab chiqarishni sertifikatlashtirish imkoniyatlarini to'g'risidagi qarorni qabul qilish                                                                         | Sertifikatlashtirish idorasi (vakolatli ekspert) | Ishlab chiqarishni tekshirish natijalari to'g'risidagi dalolatnomani tuzish                                                                                                             |
| 6. Ishlab chiqarishni tekshirish natijalari bo'yicha hujjatlarni rasmiylashtirish va sertifikatlashtirishga tavsiyalar to'g'risidagi qarorni qabul qilish | Sertifikatning loyihasini rasmiylashtirish                                                                                                                                                                                                                | Sertifikatlashtirish idorasi (vakolatli ekspert) | Ishlab chiqarishni tekshirish natijalari to'g'risidagi dalolatnomani jo'natish, Ro'yxatga olish texnikaviy markaziga                                                                    |

|                                                                                        |                                                                                                                             |                                                                                                         |                                                   |
|----------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------|
|                                                                                        |                                                                                                                             |                                                                                                         | sertifikat loyihagini<br>jo'natish                |
| 7. Ishlab chiqarishni<br>sertifikatlashtirish<br>to'g'risidagi qarorni<br>qabul qilish | Sertifikatni Reestrda<br>ro'yxatda olish<br>to'g'risidagi qarorni<br>qabul qilish                                           | Ro'yxatga olish<br>texnikaviy<br>markazi                                                                | Sertifikatni<br>arizachiga jo'natish              |
| 8. Sertifikatlangan<br>ishlab chiqarish<br>ustidan inspeksiya<br>nazorati              | Tekshirish dasturlariga<br>muvofig<br>tayyorlangan<br>mahsulot sifatining<br>barqarorligini teshirish<br>tartibini bajarish | Sertifikat-<br>lashtirish idorasi<br>(vakolati<br>ekspert),<br>Ro'yxatga olish<br>texnikaviy<br>markazi | Tekshirish<br>dalolatnomasini<br>rasmiylashtirish |

### 17.3. Sertifikatlashtirishda ishlab chiqarishni baholash va kuzatish

Ishlab chiqarish holatini baholash va tahlil qilish tanlangan sertifikatlashtirish sxemasi va sertifikatlanayotgan mahsulotning xususiyatini hisobga olib amalga oshiriladi. Muvofiqlik sertifikati berilgungacha baholash ishlab chiqarishni dastlabki tekshiruvi deb hisoblanib, muvofiqlik sertifikati berilganidan so'ng sertifikatlashtirilayotgan mahsulotni ishlab chiqarish turg'unligi sifatida o'tkaziladi.

Ishlab chiqarishni kuzatish bo'yicha ishlarini o'tkazish uchun komissiya yoki sertifikatlashtirish idorasining layoqatli xodimi sifat bo'yicha ekspert-auditor sifatida tayinlanadi. Ishlab chiqarish holati to'g'risida dastlabki ma'lumot olish zaruriyati bo'lganda tayyorlovchi-tashkilotga savolnoma jo'natiladi.

Ishlab chiqarishni tekshirish muayyan ob'ektni tekshirish va savollardan tarkib topgan dastur bo'yicha o'tkaziladi. Dastur ishlab chiqarilayotgan mahsulot turi va ishlab chiqarishning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib tuziladi. Ishlab chiqarishni tekshirish audit tarzida o'tkaziladi. Tekshiruv dasturi ishlab chiqaruvchilarga oldindan yetkaziladi.

#### Ishlab chiqarishni tekshirishning namunaviy dasturi

1. Korxona nomi \_\_\_\_\_
2. Komissiya raisi va a'zosi \_\_\_\_\_
3. Tekshirish sanasi \_\_\_\_\_
4. Tekshirish ob'ektlari:
  - tashkilot tashkiliy tuzilmasi, rahbarlik qilish vakolati va javobgarliklarni taqsimlanishi, bo'linmalar va bajaruvchi xodimlarning lavozim yo'riqnomalari;
  - O'zbekiston Sertifikatlashtirish milliy tizimi me'yoriy hujjatlari talablariga ishchi o'rinlarda zaruriy texnikaviy hujjatlarni mavjudligi va ishlab chiqarilayotgan mahsulotni konstruktorlik, texnologik va me'yoriy hujjatlari bilan muvofiq o'zgarishlarni tashkilot ta'minlanganligi;

- CHiqarilayotgan mahsulotlar hajmi va nomenklaturasi, sertifikatlashtirish masalarini tahlili;

- Muvofiqlik belgisini mahsulotni tamg'lashda va sertifikatda qo'llanilishi;

- Xom-ashyo, materiallar, komplektlovchi buyumlarni kirish nazorati va xarid qilish jarayoni;

- Ishlab chiqarish shartlari – harorat, namlik, yorug'lik, sanitar holati va boshqalarga muvofiq ta'minlanganligi;

- Texnologik qurilmalar, asbob-uskunalar, jihozlarni ta'mirlash va xizmat ko'rsatish;

- Ishlab chiqarishning metrologik ta'minoti, sinov qurilmalarini attestatlash, o'lchov vositalarini qiyoslanganligi va attestatlanganligi guvohnomalari;

- Mahsulot sifati va xavfsizligiga ta'sir etuvchi asosiy va maxsus ishlab chiqarish jarayonlari;

- Sinov laboratoriyalarini mavjudligi va holati;

- Sinov bayonnomalari operatsion nazorat qaydlari va TNB tayyor mahsulotni qabul qilish bayonnomalari hamda mahsulot sifati kirish nazorati jarayoni;

- Tayyor mahsulot ombori, mahsulotni qadoqlash tartibi, yuklash-tushirish ishlari va tashish;

- Xodimlar malakasini tasdiqlash va o'qitish jarayoni;

- To'g'rilovchi amallarni qabul va iste'molchilari e'tirozi tahlili hamda ro'yxatga olish jarayoni.

Tekshiruv davomida nomuvofiqliklar va kamchiliklar mavjud bo'lganda ular tekshiruv dalolatnomasida ro'yxatga olib borilishi shart. Arizachiga nomuvofiqliklarni bartaraf qilish va muvofiq to'g'rilovchi amallarni qabul qilish uchun vaqt beriladi. Tekshiruv dalolatnomasi barcha natijalar, jumladan, to'g'rilovchi amallarni bajarilishini tekshirish to'g'risida ma'lumotlarni arizachi sertifikatlashtirish idorasiga jo'natadi. Imzolangan nusxasi tashkilotda qoldiriladi, ya'ni qayerda tekshirish o'tkazilganligi to'g'risida ma'lumot sifatida foydalaniladi.

### **Nazorat savollari**

1. Ishlab chiqarishni sertifikatlashtirish nima degani?
2. Sifat uchun muvofiqlik sertifikatlari kaysi turdagi ishlab chiqarishlarga berilishi mumkin?
3. Ishlab chiqarishni sertifikatlashtirish uchun asosiy ob'ektlar nimalardan iborat?
4. Ishlab chiqarishni sertifikatlashtirish tartibi qanday bosqichlardan iborat?
5. Ishlab chiqarishni tekshirishning dasturida qanday ma'lumotlar keltiriladi?

## **18-mavzu. O'zbekiston Respublikasi Milliy sertifikatlashtirish tizimida ishlar va xizmatlarga xaq to'lash qoidalari**

18.1. O'zbekiston Respublikasi Milliy sertifikatlashtirish tizimida ishlar va xizmatlarga xaq to'lash qoidalari

### **18.1. O'zbekiston Respublikasi Milliy sertifikatlashtirish tizimida ishlar va xizmatlarga xaq to'lash qoidalari**

O'zbekiston Respublikasi Milliy sertifikatlashtirish tizimida ishlar va xizmatlarga xaq to'lash qoidalari Adliya vazirligi tomonidan 2013 yil 11 oktyabrda №2516 son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan Uzstandart agentligi bosh direktorining 2013 yil 18 sentyabrdagi 439-sonli buyrug'i bilan tartibga solinadi.

Muvofiqlikni baholash organlari va metrologik xizmatlari o'z faoliyatlarini akkreditatsiya qilinganlik to'g'risidagi guvohnomalar asosida amalga oshiradilar. O'zbekiston Respublikasi Milliy sertifikatlashtirish tizimidagi ishlar va xizmatlar narxi shartnoma asosida aniqlanadi.

Akkreditatsiya qilish va nazorat yo'sinidagi tekshiruv bo'yicha ishlar va xizmatlarning to'lovi. Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 14 oktyabrdagi 292-son qarori bilan tasdiqlangan Muvofiqlikni baholash organlarini va metrologik xizmatlarni akkreditatsiya qilish hamda inspeksiya nazoratidan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomning 14-bandiga muvofiq akkreditatsiya qilish ishlari uchun to'lov ariza beruvchi tomonidan bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Natijalaridan qat'i nazar, akkreditatsiya qilish bo'yicha ishlarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan barcha xarajatlar to'lanishi lozim.

"Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida"gi qonunning 5-moddasiga muvofiq "O'zstandart" agentligi o'z vazifalarining bir qismini mahsulotlarni sertifikatlashtirish organlariga va sinov laboratoriyalariga (akkreditatsiya ob'ekti) o'tkazishga haqlidir. Akkreditatsiya ob'ekti akkreditatsiya qilinganida va unga "O'zstandart" agentligi o'z vazifalarining bir qismini o'tkazganda "O'zstandart" agentligi va akkreditatsiya ob'ekti o'rtasida bitim tuziladi hamda unga muvofiq akkreditatsiya ob'ekti "O'zstandart" agentligiga bajarilgan ishlar va xizmatlar hajmidan ajratmalarni amalga oshiradi. Akkreditatsiya ob'ektlarining ajratmalar miqdori "O'zstandart" agentligi tomonidan o'tkazilgan ishlar va xizmatlarning hajmi va turiga bog'liq bo'ladi hamda umumiy tushum hajmining 5 foizidan oshmasligi kerak. Akkreditatsiya ob'ektlarining faoliyati ustidan nazorat yo'sinidagi tekshiruv o'tkazish uchun to'lov "O'zstandart" agentligi va akkreditatsiya ob'ekti o'rtasida tuzilgan bitimga asosan haqiqiy sarflarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Sertifikatlash, xorijiy muvofiqlik sertifikatlarini tan olish va deklaratsiyalash bo'yicha ishlar va xizmatlar to'lovi. Mahsulotlar, xizmatlar va sifat tizimlarini sertifikatlashtirishda haqiqiy sarflarni hisobga olgan holda Mahsulotlarni sertifikatlash qoidalarining 8-bandida ko'zda tutilgan sertifikatlashtirish bosqichlari to'lanishi lozim. Natijalaridan qat'i nazar, sertifikatlashtirish bo'yicha ishlar va xizmatlarni o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan barcha xarajatlar to'lanishi kerak. Sertifikatlangan mahsulot va sifat tizimining

nazorat yo'sinidagi tekshiruvini o'tkazish bo'yicha ishlar va xizmatlarning to'lovi, haqiqiy sarflardan kelib chiqib, muvofiqlik belgisini ishlatish huquqi bo'yicha bitim asosida amalga oshiriladi.

Xorijiy mamlakatlarning muvofiqlikni baholash organlari tomonidan berilgan muvofiqlik sertifikatlarini, muvofiqlik to'g'risidagi deklaratsiyalarni va sinov bayonnomalarini e'tirof etish bo'yicha ishlar va xizmatlarning to'lovi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 14 oktyabrda 292-son qarori bilan tasdiqlangan Muvofiqlikni baholash organlarini va metrologik xizmatlarni akkreditatsiya qilish hamda inspeksiya nazoratidan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom va Mahsulotlarni sertifikatlash qoidalariga muvofiq e'tirof etish jarayonini amalga oshirish bo'yicha haqiqiy sarflardan kelib chiqib amalga oshiriladi.

Deklaratsiyalash yo'li bilan mahsulotlarning belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlash bo'yicha ishlar va xizmatlar to'lovi Mahsulotning xavfsizlik talablariga muvofiqligini deklaratsiyalash tartibi to'g'risida nizomga muvofiq deklaratsiyalash yo'li bilan mahsulotlarning belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlash jarayonini amalga oshirish bo'yicha haqiqiy sarflardan kelib chiqib amalga oshiriladi.

Sertifikatlashtirish ishlar va xizmatlarining narxini shakllantirishda "O'zstandart" agentligining rentabellik me'yori "O'zstandart" agentligi tomonidan belgilanadi hamda 20 foizdan oshmasligi lozim.

Sertifikatlashtirish organlariga muvofiqlik belgisidan foydalanganlik uchun bir martalik to'lovlarni to'lash. Muvofiqlik belgisidan foydalanishni nazarda tutuvchi sxemalar bo'yicha amalga oshirilgan sertifikatlashtirishning natijalari ijobiy bo'lganda, mahsulotlarni sertifikatlashtirish organi bilan ishlab chiqaruvchi korxona (sertifikatsiyaga nomzod) o'rtasida bitim tuziladi, unga ko'ra bitimda belgilangan muddatlarda ishlab chiqaruvchi korxona muvofiqlik belgisidan foydalanganlik uchun sertifikatlashtirish organiga bir martalik to'lovni to'laydi. Bir martalik to'lov sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni sotishdan qo'shilgan qiymat va aksiz soliqlarini chegirib rejalashtirilgan tushumlardan kelib chiqqan holda, muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish kunidagi respublikada belgilangan eng kam ish haqidan kelib chiqib, 18.1.1-ilovada ko'rsatib o'tilgan miqdor asosida hisoblanadi.

18.1.1-ilova

Muvofiqlik belgisidan foydalanganlik uchun bir martalik to'lovning

#### **DIFFERENTIAL SHKALASI**

| T/r | Muvofiqlik belgisidan foydalanganlik uchun bir martalik to'lovni hisoblash uchun sertifikatlashtirilgan mahsulotning uch yildagi tushum hajmining shkalasi (QQS va aksiz soliqlar), mln so'mda | Eng kam ish haqining karrali miqdorlarida bir martalik to'lov stavkasi (har 10 mln so'mlik sertifikatlashtirilgan mahsulot tushim hajmiga) |
|-----|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1.  | 10 000 dan ko'p bo'lmagan                                                                                                                                                                      | 0,05                                                                                                                                       |
| 2.  | 10 000 dan yuqori                                                                                                                                                                              | 0,025                                                                                                                                      |

### Nazorat savollari

1. O'zbekiston Respublikasi Milliy sertifikatlashtirish tizimida ishlar va xizmatlarga xaq to'lash qoidalarini kim tomonidan tartibga solinadi?

2. Akkreditatsiya ob'ektlarining ajratmalar miqdori «O'zstandart» agentligi tomonidan o'tkazilgan ishlar va xizmatlarning hajmi va turiga bog'liq xolda qancha miqdorni tashkil etadi?

3. Sertifikatlashtirish ishlar va xizmatlarining narxini shakllantirishda «O'zstandart» agentligining rentabellik me'yori qancha miqdorda bo'lishi lozim?

4. Sertifikatlashtirish organlariga muvofiqlik belgisidan foydalanganlik uchun bir martalik to'lovlarni xisoblashda qanday xarajatlar chegirib tashlanib xisoblanadi?

5. Muvofiqlik belgisidan foydalanganlik uchun bir martalik to'lovni hisoblashda sertifikatlashtirilgan mahsulotning necha yillik tushum hajmi xisobga olinadi?

### 3-Modul bo'yicha o'z-o'zini tekshirish, nazorat va test savollari

1. Akkreditatsiya nima? Bu jarayon, biror bir nufuzli idora yordamida rasmiy tan olingan:

A) Akkreditlayotgan sub'ektlar akkreditlashtirish tizimining me'yoriy hujjatlari talablariga muvofiqligi

B) Akkreditlayotgan sub'ektlarning texnik kompetentligi

C) Huquqiy shaxs yoki muayyan ishini bajaruvchi idora

D) Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish uchun boshqaruv tizimi

2. Akkreditlangan laboratoriya uchun kim subpudratchi bo'lishi mumkin?

A) Sertifikatlashtirish idorasi

B) Attestatlangan sinov o'tkazash huquqiga ega korxona laboratoriyasi

C) Aynan shu turdagi sinovchi akkreditlangan laboratoriya

D) Istalgan attestatlangan laboratoriya

3. Akkreditlangan laboratoriyalarda qanday mahsulotlarni sinashga qabul qilish mumkin?

A) Tavsiflari va ko'rsatkichlarining tavsiflari mavjud mahsulot namunalari

B) Sinov usullari, tavsiflari, ko'rsatkichlarining tavsiflari mavjud mahsulot namunalari

C) Mahsulot tayyorlovchi vakili namunasini sinash, aniq identifikatsiyalangan mahsulot namunalari

D) Identifikatsiya jarayonisiz ixtoriy mahsulot

4. Akkreditlangan sertifikatlashtirish idoralari ustidan inspeksion nazorat o'tkazish davriyligini kim va qachon aniqlaydi?

A) Akkreditatsiya o'tkazishda akkreditatsiya idorasi aniqlaydi

B) Sertifikatlashtirish idoralari hisobotlarini tahlili natijalari bo'yicha Sertifikatlashtirish milliy idorasi o'rnatadi

C) Davlat nazorati o'tkazash yillik rejasini tuzishda «O'zstandart» agentligi aniqlaydi

D) SHu turdani faoliyat yurituvchi turdosh idora

5. Qanday maqsadlarda sinov laboratoriyasida ariza tahlili o'tkaziladi?

A) Buyurtmachi talablarini aniq tuzish va hujjatlashtirish

B) Laboratoriyaning talablarni bajarishda ruxsat etilgan resurslari va imkoniyatlari mavjudligi

C) Tanlangan me'yoriy hujjatga muvofiq mahsulotga talablar va sinov usullarini aniqlash

D) Buyurtmachi talabini aniqlash, laboratoriyaning imkoniyatlari va mahsulotga talablar va sinov usullarini aniqlash

6. Laboratoriya o'zining faoliyatida sinov usullari va o'lchash usullarini foydalanishi lozim bo'ladi:

A) Akkreditatsiya sohasiga tegishli bo'lsa

B) Metrologik me'yorlariga javob beruvchi ba'zilarini

C) Metrologik me'yorlarga va uning faoliyat doirasiga muvofiq ba'zilarini

D) Uning faoliyat doirasiga muvofiq ba'zilarini

7. Sertifikatlashtirish idorasi va Sinov laboratoriyalarida ichki auditni kim o'tkazadi?

A) SI va SL rahbari

B) Taklif etilgan ekspert-auditorlar

C) «O'zstandart» agentligi vakili

D) SI va SL ning maxsus o'qigan xodimi

8. Sertifikatlashtirish idorasi faoliyatini inspeksion nazorati natijalari salbiy bo'lgan holda akkreditlash idorasi quyidagi qarorni qabul qilishi mumkin:

A) Jarimga tortadi

B) Sertifikatlashtirish idorasi rahbari sifatida direktorni ishdan bo'shatadi

C) Akkreditatsiya sohasi qisqartiriladi

D) Sertifikatlashtirish idorasi faoliyati jihatidan tashkilotni tugatadi va nizomini bekor qiladi

9. Sertifikatlashtirish idorasida faoliyatida akkreditlangan laboratoriya zarurmi yoki majburiymi, yetishmaydimi yo uni attestatlash kerakmi?

A) Ha, bunda akkreditlangan laboratoriyalarda sertifikatlashtirish sinovlari o'tkaziladi

B) Yo'q, agar yuqori tashkilotning qarori mavjud bo'lsa

C) Yo'q, majburiy emas, protseduralar bir xil, hamda sertifikatlashtirish idorasi mustaqil bo'ladi

D) Zarur

10. Sertifikatsion sinovlar o'tkazish tomonlarning sinov laboratoriyalari (markazi)da ruxsat etiladimi?

A) Standartlashtirish va metrologiya boshqarmasi ruxsati bilangina ruxsat etiladi

B) Akkreditlangan laboratoriya (markaz)lardagina ruxsat etiladi

C) Attestanlangan laboratoriyalardagina ruxsat etiladi

D) SHartsiz ruxsat etiladi

11. Sinov laboratoriyalarini akkreditlash maqsadi:

A) Sertifikatlashtirish sinovini o'tkazish huquqi

B) Muvofiqlik sertifikatini berish huquqi

C) O'lchash vositalarini turini tasdiqlash huquqi

D) Istalgan turdagi sinovlarni o'tkazish huquqi

12. Akkreditlangan sinov laboratoriyalarida namuna turini sinash va sertifikatlangan muhsulot ustidan navbatdagi inspeksion nazoratda namuna sotuvchidan olib sinash yo'li bilan mahsulotlarni sertifikatlashtirish nazarda tutiladigan sxemasi:

A) 3 sxema

B) 1 sxema

C) 2 sxema

D) 8 sxema

13. Akkreditlangan sinov laboratoriyalarida namuna turini sinash va sertifikatlanayotgan muhsulot ishlab chiqarish holati tahlil sertifikatlangan mahsulot ustidan navbatdagi inspeksion nazoratda namuna ishlab chiqaruvchi namuna tayyor mahsulot omboridan olib sinash yo'li bilan mahsulotlarni sertifikatlashtirish nazarda tutiladigan sxemasi:

A) 3 sxema

B) 1 sxema

C) 9 sxema

D) 7 sxema

14. Akkreditlangan sinov laboratoriyalarida tayyor mahsulot partiyasidan tanlab olingan, tanlanma namuna sinash sinash yo'li bilan mahsulotlarni sertifikatlashtirish nazara tutiladigan sxemasi:

A) 5 sxema

B) 1 sxema

C) 6 sxema

D) 7 sxema

15. ... – akkreditlashni amalga oshirish uchun protsedura va boshqaruvning o'z qoidalariga ega bo'lgan tizim.

- A) inspeksion nazorat tizimi
- B) sertifikatlashtirish tizimi
- C) muvofiqlikni baxolash tizimi
- D) Akkreditlash tizimi

#### 4 - Modul. SIFAT MENEJMENTI TIZIMI

##### 19-mavzu. Sifat, mahsulot sifatini boshqarish

19.1. Sifat, mahsulot sifatini boshqarish, sifat menejmenti tizimining rivojlanish tarixi, mahsulot sifatini boshqarish, sifat sohasidagi asosiy atamalar va sifatga iste'molchilarning bo'lgan qishiqishi hamda sifat sohasida yondoshuvlar rivojlanishi tarixi, xalqaro miqyosidagi sifat tushunchalar, sifatni boshqarish tizimining paydo bo'lishi, rivojlanish tarixi

**19.1. Sifat, mahsulot sifatini boshqarish, sifat menejmenti tizimining rivojlanish tarixi, mahsulot sifatini boshqarish, sifat sohasidagi asosiy atamalar va sifatga iste'molchilarning bo'lgan qishiqishi hamda sifat sohasida yondoshuvlar rivojlanishi tarixi, xalqaro miqyosidagi sifat tushunchalar, sifatni boshqarish tizimining paydo bo'lishi, rivojlanish tarixi**

Sifat - ob'ektdan, uning real mavjudligidan ajratib bo'lmaydigan muhim belgilarni ifodalaydigan falsafiy kategoriyadir. Sifat - ob'ektni tarkibiy qismlarining o'zaro turg'un munosabatlarini aks ettiradi, bu munosabatlar bir ob'ektni ikkinchi ob'ektdan ajratib turadigan o'ziga xos tomonlarini anglatadi. [10]

Sifat kategoriyasi dastlab qadimiy grek faylasufi Aristotel tomonidan (eradan oldingi III asr) tahlil qilingan deb hisoblanadi. U sifatning o'zgaruvchanligini narsalarning holati, ularning qarama-qarshisiga ("yaxshi - yomon", "shirin - achchiq" va h.k...) aylanish qobiliyati deb tushungan.

Yangi davr falsafasida (XVI - XVII asrlar) **birlamchi va ikkilamchi sifatlar** tushunchasi shakllangan:

**Birlamchi sifatlar** - dastlab termin sifatida uni ingliz faylasufi Jon Lokk (XVI - XVII asrlarda) qo'llagan.

Jon Lokk narsa (predmet)larning matematik va mexanik xossalari (harakat, zichlik, o'tkazuvchanlik, o'tkazmaslik, zarralarning qo'shilishi, shakl, hajm kabilar)ni **birlamchi sifatlar**ga, qolgan boshqa sifat ko'rsatkichlari (rang, tovush, hid, ta'm - maza, issiq, sovuq kabilar)ni esa, **ikkilamchi sifatlar**ga kiritgan. Ikkilamchi sifatlar esa birlamchi sifatlarining sezgi organlarimizda aks etishidir deb hisoblagan.

Ma'lumki, sifat masalasiga ahamiyatning kuchayishi, asosan XIX asrdan boshlangan bo'lib, ishlab chiqaruvchilar o'z mahsuloti sifatini kafolatlash maqsadida **ularga tegishli tang'a bosishar** va bundan faxrlanar edilar. [10]


Hozirgi zamon sifat falsafasining shu kunga qadar rivojlanishini 4 ta bosqichga bo'lish mumkin:

Yaroqsiz mahsulotni ajratib olish bosqichi;

Sifatni rejalashtirish bosqichi;

Sifatni boshqarish bosqichi;

Sifatni doimiy yaxshilab borish bosqichi.



#### 19.1.1-rasm. Sifat falsafasining rivojlanish bosqichlari

Yaroqsiz mahsulotni ajratib olish bosqichi.

Bunday usul keng miqyosda XIX asrning 70-yillarida qo'llanilgan. Hunarmandlar mahsulot ishlab chiqarish jarayonida uni tayyorlash uchun mahsulot va uning tarkibiy qismlarini bir-biriga moslashtirib emas, balki tasodifiy, mos kelganini qo'llashni joriy etganlar. Ya'ni, buni o'zpoalmashuvchanlik deb hisoblash mumkin. Bunda turli kalibrlar, o'lchovlardan foydalanilgan. Mos kelmaganlari yaroqsiz (brak) sifatida ajratib tashlangan.

Jumladan, XX asr boshlarida AQSHdagi mashhur "Kadillak" hamda "Ford" avtomobillarini ishlab chiqaruvchi firmalarning asoschilari Genri Leland va Genri Ford bu usulni birinchilardan bo'lib ishlab chiqarish jarayoniga joriy etganlar. G. Leland avtomobilsozlikda birinchilardan bo'lib "o'tuvchi" va "o'tmaydigan" kalibrlarni yaratib, firmasi faoliyatida keng qo'llagan.

1908 yilda Buyuk Britaniya avtomotoklubi ekspertlari, avtomotoklub uchun yuborilgan "Kadillak" avtomobillari partiyasidan duch kelgan 3 ta avtomobilni ajratib olib, ularning agregat va qismlarini oxirgi muruvvatigacha sochib tashlaganlar. Barcha detallarni bir joyga to'plab, ularning asosiy qismini extiyot qismlar deb sotuvga chiqarilgan (yuborilgan) detallar bilan almashtirib, avtomobillarni kaytadan yig'ganlar.

Sifatni rejalashtirish bosqichi.

Mazkur bosqich oldingi asrning 60-yillari o'rtasida boshlangan bo'lib, asosan iste'molchilarning talablarini to'laroqqondirish uchun shakllantirila boshlangan. Mahsulot sifatini rejalashtirish bosqichlarining kelib chiqishi,

asosan jahon bozorida mahsulot va xizmatlarning rivojlanishi, bozordagi raqobatning keskin kuchayishi hamda iste'molchilarning manfaatlarini himoya qilish masalalari davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi bilan izohlanadi.

Sifatni boshqarish bosqichi.

Uning asosiy maqsadi oldingi bosqich shakllariga xos nomuvofiqliklarni, garchand butkul bartaraf etilmasa ham, lekin salmog'ini kamaytirish edi. 1924 yilning may oyida AQSHdagi **Bell Laboratories** ilmiy tadqiqot markazi xodimi, yosh injener-fizik **Valter Shuhart** tomonidan - sifatni boshqarishda statistik usullarga asoslangan nazorat kartalarini qo'llash taklif etilgan.

V. Shuhart - muxandislar, ekspertlar va menejerlarga asosiy e'tiborni alohida nomuvofiqliklar va nuqsonlardan jarayon variatsiyalariga (belgilangan rejimdan chetlanish holatlariga) qaratishlarini o'rgatgan.

Buning uchun ikki muhim holatni inobatga olish lozim:

Aybdorlarni izlash kerak emas, balki barcha aloqador shaxslarni jalb etgan holda nomuvofiqliklar sabablarini aniqlash va ularni bartaraf etish lozim;

Nomuvofiqliklar va nuqsonlar sababini jarayonlar variatsiyasi deb bilish lozim.

Shundan so'ng (1930 y.), mahsulotlar sifati bilan bog'liq bo'lgan muammolarni hal etishda butun jahon ishlab chiqarish amaliyoti **-ishchi, nazoratchi va menejerlar** birgalikda faoliyat ko'rsatishlari lozimligi g'oyasi ishlab chiqildi.

Sifatni doimiy yaxshilab borish bosqichi.

XX asrning ikkinchi yarmida rivojlangan mamlakatlar iqtisodiy hayotida, aholi (iste'molchi) ehtiyojlarini qondirish maqsadida mahsulot sifatini taminlash, talabchan raqobatchilik asosida ba'zi kompaniya (firma)larni **"sindirish"** (siqib chiqarish) omillaridan biri bo'lib qolgan edi.

Endi boshqaruvning asosiy tushunchalari va kategoriyalarini batafsilroq ko'rib chiqamiz.

**Boshqaruv** - keng tarqalgan, lekin umuman olganda nostandart atama bo'lib, turli axborot manbalarida **"boshqaruv"** atamasining turli - tuman ta'riflari mavjud.

Ilmiy - texnika taraqqiyoti urushdan keyingi yillarda xo'jalik boshqaruvi sohasida tub o'zgarishlarga olib keldi.

Bu o'zgarishlarning ob'ektiv zaruriyati ishlab chiqarishning juda jadal rivojlanishi va uning fan bilan aloqasi oshganligi, texnologik jarayonlarning murakkablashuvi, xodimlarning ilmiy - texnik, moddiy va madaniy darajasining oshganligi, elektron - hisoblash texnikalarini ishlab chiqarish va joriy etish sohasidagi muvaffaqiyatlar, boshqaruvga - iqtisodiyot, ruxshunoslik, sotsiologiya yutuqlarining joriy etilishi, axborot nazariyasi, operatsiyalar nazariyasi, qarorlar qabul qilish nazariyasi yutuqlari bilan belgilanadi. Boshqaruv (menejment)ga an'anaviy ilmiy yondashuv, boshqaruvchi (menejer)larni ularga bo'ysunadigan murakkab tashkilotlarni nazorat qilish, tahlil qilish hamda vaziyatni oldindan ko'ra bilishga o'rgatishni ko'zda tutadi.

Lekin rahbarlarning aksariyati uchun, ko'p hollarda oldindan bilib bo'lmaydigan, tushunarsiz, nazorat qilib bo'lmaydigan "ilmiy menejment"ning an'anaviy mexanizmi esa mahsuldor bo'lmay qolmoqda.

Bu 80-yillarda ma'lum darajada amerika boshqaruv nazariyasining inqiroziga olib keldi.

Hozirgi zamon olimlari va amaliyotchilari shunday usullarni yarata boshladilarki, ular yordamida murakkab tizimlarda ham noaniqliklar va sodir bo'ladigan o'zgarishlarni muvaffaqiyat bilan boshqara olish mumkin bo'ladi. Boshqaruvga yangicha yondashuvdan birinchilardan bo'lib amalda muvaffaqiyatli foydalanganlar yaponlar hisoblanadi.

Ular yirik firmalarni faollik bilan kichik firmalarga bo'lishni boshlaganlar. Ularga boshqaruv ierarxiyasini soddalashtirish - innovatsiya jarayonlarini tezlashtirish va ularning samaradorligini oshirish imkonini berdi.

Bularning barchasi tovarlar sifatining yaxshilanishi, ishlab chiqarish va ishlatish harajatlarning qisqarishi, yapon firmalarining jaxon bozoridagi mavqeini kuchayishiga olib keldi.

ISO XS bo'yicha umumiy sifat boshqaruvi (sifatni ma'muriy boshqarish) - bu umumiy boshqaruv funktsiyalarining sifat sohasidagi siyosatni, maqsad va mas'uliyatlarni belgilaydigan, shuningdek sifat tizimi doirasida sifatni rejalashtirish, sifatni boshqarish, sifatni ta'minlash va sifatni yaxshilash kabi vositalar yordamida uni amalga oshiradigan jihatlar demakdir.

### **Boshqaruv nazariyasida asosiy kategoriyalarning mazmuni.**

19.1.1- jadval.

| <b>Kategoriya</b>                          | <b>Kategoriyaning mazmuni</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                              |
|--------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>BM-<br/>boshqaruv<br/>maqsadi</b>       | Bu boshqaruv ob'ektining kelajakda erishilishi zarur bo'lgan istalgan, mumkin bo'lgan va zaruriy holati. Boshqaruv maqsadini anglash va ifodapash jarayoni maqsadni ko'yish deb ataladi; u boshqaruv jarayonining birinchi va eng muhim elementlaridan biri hisoblanadi.<br>Maqsadni ko'yish jarayoni prognoz va reja bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularning o'rtasida bo'ladi. Bosh BM boshqaruv tizimining kichik tizimlarida bajarilishi korxonaning chikish miqdoriy ko'rsatkichlari bilan qat'iy bog'liq bo'lgan maqsadli funktsiyalar shaklida tabaqalashtiriladi va aniqlashtiriladi. |
| <b>BF-<br/>boshqaruv<br/>funktsiyalari</b> | Bu o'ziga xos boshqaruv faoliyati "maydoni", boshqaruv sohasidagi mehnatni taqsimlash va ixshoslashtirish jarayonining mahsuli.                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                            |
| <b>BU-<br/>boshqaruv<br/>usullari</b>      | Bu boshqaruv obektining barqarorligini bir holatdan boshqa holatga o'tish jarayonida va belgilangan ishlatish doirasida saqlab turish maqsadida boshqaruv obektiga maqsadli ta'sir etish usullari. Boshqaruv maqsadiniig aniq ijrosi BU deb                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                |

|                                          |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                   |
|------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|                                          | ataladi.                                                                                                                                                                                                                                                                                                                          |
| <b>BQ-<br/>boshqaruv<br/>qonunlari</b>   | Bu hodisalarning boshqaruv fani tomonidan o'rganiladigan umumiy, muhim va zaruriy aloqasi. BQ ob'ektiv bo'lsa ham, ular iqtisodiyotning fundamental qonunlariga nisbatan nikkilamchi hisoblanadi. BQ boshqaruvning sub'ektiv omillariga nisbatan obektivligi fan va boshqaruv san'atining o'zaro munosabatlarini tartibga soladi. |
| <b>BT-<br/>boshqaruv<br/>tamoyillari</b> | Bu rahbarlar boshqaruvni amalga oshirayotganlarida rioya qiladigan asosiy koidalar, asosiy talablar, yetakchi g'oya; ular ob'ktiv boshqaruv qonunlaridan boshqaruv amaliyotida ongli foydalanishning asosiy shakllaridan biri hisoblanadi. BT - bu o'zini o'tmishda oqlagan boshqaruv tajribasini umumlashtirish.                 |

Sifatni boshqarish tushunchasi va mexanizmlariga to'xtalib o'tamiz.

**Mahsulot sifatni boshqarish mexanizmi** o'zaro bir - biri bilan bog'liq boshqaruv ob'ektlari va sub'ektlari majmui, mahsulot hayotsiklining turli bosqichlari va sifatni boshqarishning turli darajalarida foydalaniladigan boshqaruv tamoyillari, usullari va funktsiyalaridan iborat. U sifatni boshqarishning asosiy funktsiyalarini samarali amalga oshirishni ta'minlashi zarur, bular qatoriga eng avvalo quyidagilar kiradi:

- bozor ehtiyoqlarini, mahsulotning texnik darajasi va sifatini prognozlash;
- mahsulot sifatini ta'minlash (oshirish)ni rejalashtirish;
- mahsulot sifatiga talablarni me'yorlash va standartlashtirish;
- mahsulotni ishlab chiqish va ishlab chiqarishga ko'yish;
- ishlab chiqarishni texnologik tayyorlash;
- xom ashyo, materiallar, yarimfabrikatlar va butlovchi buyumlarni etkazib beruvchilar bilan ishlab chiqaruvchi korxonalar va mahsulotistemoilchilari o'rtasida mahsulot sifati bo'yicha o'zaro munosabatlarni tashkil etish;
- mahsulot hayot tsiklining barcha bosqichlarida mahsulot sifatining rejalashtirilgan darajasi barqaror bo'lishini ta'minlash;
- mahsulot sifatini nazorat qilish va sinash;
- ishlab chiqarish jarayonida braklarning oldini olish;
- mahsulot, texnologik jarayonlar, ish joylari, bajaruvchilar va boshqalarni ichki ishlab chiqarish attestatsiyasidan o'tkazish;
- mahsulot, ishlar, xizmatlar sifat va ishlab chiqarish tizimini sertifikatlash;
- erishilgan sifat darajasi uchun rag'batlantirish va javobgarlik;
- mahsulot sifati bo'yicha ichki ishlab chiqarish hisoboti va xisobga olish;
- mahsulot sifati o'zgarishini texnik - iqtisodiy tahlil qilish;

- mahsulot sifatini boshqarishni huquqiy ta'minlash;
- mahsulot sifatini boshqarishni axborot bilan ta'minlash;
- mahsulot sifatini moddiy - texnik ta'minlash;
- mahsulot sifatini metrologik ta'minlash;
- kadrlarni maxsus tayyorlash va malakasini oshirish;
- mahsulot sifatini ta'minlash (oshirish)ni rejalashtirish;
- mahsulot sifatini boshqarishni texnologik ta'minlash;
- mahsulot sifatini boshqarishni moliyaviy ta'minlash.

Mahsulot sifatini boshqarish mexanizmining ta'minlovchi kichik tizimlari o'z ichiga mahsulot sifatini boshqarishni xukukiy, axborot, moddiy - texnik, metrologik, kadrlar bilan, tashkiliy, texnologik va moliyaviy ta'minlash kichik tizimlarini oladi. Har qanday boshqaruvning mohiyati boshqaruv yechimlarini ishlab chiqish va ularni keyin muayyan boshqaruv ob'ektida amalga oshirishdan iboratdir.

Bugungi kunda bu maqsadlarga erishish maqsadida respublikamiz ishlab chiqarish korxona (tashkilot)lariga kirib kelgan 9000 - seriyali ISO xaqaro standartlari, GM (General MotorC) kompaniyasining GMS - Global Manufacturing System/Global Ishlab Chiqarish Tizimi hamda TOYOTA kompaniyasining TPS - Toyota Production System/Toyota Mahsulotlari Tizimi va boshqa tizimlar mahsulot ishlab chiqarishning texnologik jarayonlariga yangicha yondashuvni taqozo etadigan tartib - koidalar, ya'ni standart va tizimlarga taalluqli hujjatlarga muvofiq ravishda sifat sohasidagi siyosat - mahsulot sifatini ta'minlash, yaxshilash va boshqarishni o'z ichiga oladigan sifat tizimlaridan keng foydalanilmoqda.

Ushbu standart va tizimlardan foydalanishning afzalligi quyidagilardan iborat bo'lib, ular:

- bozor munosabatlariga yo'naltirilgan;
- yetakchi industrial davlatlar sanoatida boshqaruv (menejment)ni tashkil etishning ijobiy tajribasini to'plagan;
- sanoatning turli tarmoqlari korxonalari va faoliyatning turli sohalariga nisbatan qo'llanish uchun universal;
- deyarli barcha rivojlangan mamlakatlar tomonidan korxonalarining o'zaro foydali savdo - iqtisodiy munosabatlarni tashkil etishi uchun asos sifatida tan olingan.

Korxona (firma)larda sifatni - sifat sohasidagi siyosat asosida boshqarish.


70-80-yillarda ko'plab mamlakatlarning olim va mutahassislari faqat tayyor mahsulotni nazorat qilish yo'li bilan sifatni kafolatlash mumkin emas degan xulosaga kelishgan.

Biroq, ushbu muammoga bunday yondashuv, hozirgi paytdagi iste'molchilar talablarini mutlaqo qoniqtirmaydi.

Iste'molchiga mahsulotning barqaror ravishda yuqori sifatli va standartlar hamda kontrakt talablariga muvofiq bo'lish kafolatlarini ta'minlash uchun zarur bo'lgan tashkiliy va texnik tadbirlar majmui - **sifat tizimi** deb ataladi.

Ushbu tizimni ta'minlab bera oladigan sifat - **funksional sifat deb ataladi**. Xizmatlar ko'rsatishni ko'pincha mahsulot ishlab chiqarishga qarama - qarshi qo'yishadi, aslida esa unday emas.

Masalan, **texnik sifat** - bu avtomobilning sifati, bunda funksional sifat ushbu avtomobilning narxi juda baland emasligi, ya'ni uni sotib olish mumkinligi, uni ishlatishning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida axborot berilishi, xizmat ko'rsatish vaqtida firma xodimlarining xizmat ko'rsatish tezligi, e'tiboriligi va hayrihohligi, servis va utillashirish sifati va h.k.lar bilan belgilanishi mumkin. Sifat to'g'risida zamonaviy tasavvurning shakllanishiga ham to'xtalib o'tsak.



19.1.2 - rasm. Mahsulot sifatini boshqarish mexanizmi.

**«Sifat» tushunchasining dinamikasi**

| №  | Manba<br>(mualliflar)                                   | «Sifat» tushunchasining ifodalanishi                                                                                                                                                                                                                                                                                          |
|----|---------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1. | Aristotel,<br>eradan avvalgi<br>III asr                 | «Sifat - aynan predmetni boshqa predmetlardan ajratib turadigan xususiyatlar majmuidir». Mavjud turlarga ko'ra farqlanishi, « <b>yaxshi-yomon</b> » belgisi bo'yicha tabaqalashtirish.                                                                                                                                        |
| 2. | Kadimiy<br>Xitoyda                                      | Sifatni bildiruvchi ieroglif ikki element — «tenglik» va «pul»dan iborat, demak, sifat « <b>qimmat</b> » tushunchasi bilan bir xil.                                                                                                                                                                                           |
| 3. | Djon Lokk,<br>XVI-XVII<br>asrlar                        | Predmetga ob'ektiv ravishda xos bo'lgan asosiy xususiyatlar - o'lcham, shakl, massa va hokazo <b>sifatni</b> tashkil etadi.                                                                                                                                                                                                   |
| 4. | Georg Vilgelm<br>Fridrix Gegel,<br>XVII-XVIII<br>asrlar | Turmush bilan aynan o'xshash muayyanlik: nimadir, qachonki o'zining <b>sifatini</b> yo'qotganida, o'sha nimadir nima bo'lishdan to'xtaydi.                                                                                                                                                                                    |
| 5. | Frederik Teylor<br>XIX asr<br>20-yillar                 | Har bir buyumning sifatini boshqarishning izchil mexanizmini - yaratish. O'tkazadigan va o'tkazmaydigan kalibrlar - shablonlar (intervallar va qo'yimlar) shaklida mahsulot <b>sifatiga</b> talablarni belgilash.                                                                                                             |
| 6. | Valter SHuhart,<br>XX asr<br>20-yillar                  | <b>Sifat</b> - ikkita jihatga ega: ob'ektiv tavsiflar va sub'ektiv tomon (narsa qanchalik yaxshi). <b>Sifat</b> - statistik nazorat asosidagi uzluksiz texnologik o'zgarishlar tsikli bilan ta'minlanadi.                                                                                                                     |
| 7. | Edvarde<br>Deming<br>XX asr<br>40- 50-yillar            | Sotish va xizmatlar ko'rsatish sohasiga V. SHuhart tsiklini qo'llash va boshqarishda statistik usulni keng qo'llash (E.Demingning - PDCA "Plan (rejalashtirish) - Do (bajarish) - Shesk (nazorat) - Action (tuzatish)" tsiklini joriy etilishi, <b>sifatni boshqarishning 14 tamoyili</b> ).                                  |
| 8. | Jozef Juran,<br>XX asr 50-yillar                        | <b>Sifat</b> - foydalanish uchun (mo'ljallangan maqsadga muvofiqligi) yaroqlilik. Sub'ektiv tomoni - iste'molchini qanoatlantirish darajasi (sifatni amalga oshirish uchun ishlab chiqaruvchi istemolchi talablarini bilishi kerak). Sifat triadasi g'oyasini ishlab chiqqan, bu: <b>rejalashtirish- nazorat-yaxshilash</b> . |

|     |                                                           |                                                                                                                                                                                                                                                                                       |
|-----|-----------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 9.  | Kaori<br>Is(sh)ikava<br>XX asr<br>50-yillar               | <b>Sifat</b> - iste'molchilarni haqiqatan ham qoniqtiradigan xossa bo'lib, o'z ichiga sotishdan keyingi xizmat ko'rsatish, boshqarish sifati, kompaniya va inson hayotining sifatini qamraydi.                                                                                        |
| 10. | Armand<br>Feygenbaum,<br>XX asr<br>60-yillar              | <b>Sifat</b> - umumiy sifat nazorati bo'lib, u ishlab chiqarish, saqlab turish va yaxshilash bosqichlari, tushunchalar, «sifat harajatları» dan iborat.                                                                                                                               |
| 11. | Dj. Van<br>Ettinger, Dj.<br>Sittig<br>XX asr<br>60-yillar | <b>Sifat</b> - o'lchanadigan kattalik, demak, mahsulotga quyiladigan talablarga muvofiq emasligi qandaydir doimiy o'lchov, odatda bu pul birligi orqali ifodalashi mumkin. Sifat ko'rsatkichlarini o'lchash usullarini o'rgatadigan maxsus <b>kvalimetriya</b> fani ishlab chiqilgan. |
| 12. | Geniti Taguti<br>XX asr<br>70-yillar                      | <b>Tovarning sifati</b> jamiyatning shu tovarni ishlab chiqarish va undan foydalanish bilan bog'liq harajatlari majmuidir. Yo'qotishlar qanchalik kam bo'lsa, tovarning sifati shunchalik yuqori bo'ladi.                                                                             |
| 13. | DST 15467-79                                              | <b>Mahsulot sifati</b> -uning nimaga mo'ljallanganligiga muvofiq ravishda muayyan ehtiyojlarni qondirishga yaroqligini belgilovchi xossalari majmui.                                                                                                                                  |
| 14. | ISO 9000<br>halqaro<br>standarti                          | <b>Sifat</b> - buyumlar, xizmatlar va jarayonlarning belgilanganyoki kutilayotgan ehtiyojlarni qondirishini ta'minlovchi xossalari va tavsiflari majmui.                                                                                                                              |
| 15. | O'zDST<br>8402:1998<br>davlat standarti                   | <b>Sifat</b> - ob'ektning belgilangan va kutilayotgan ehtiyojlarni qondirish qobiliyatiga taalluqli tavsiflarning majmui.                                                                                                                                                             |

Standartlashtirish bo'yicha halqaro tashkilot amaliyotga kiritgan ISO 8462 - sonli standart o'z ichiga «sifatni ta'minlash», «sifatni boshqarish», «sifat spirali» kabi tushunchalarni olgan.[10]

Xalqaro miqyosda sifatga qo'yiladigan talablar ISO 9000 - seriyali standartlari bilan belgilangan. Bu standartlarning birinchi tahriri XX asrning 80-yillari oxirida qabulqilingan bo'lib, halqaro standartlashtirishning yangi darajaga ko'tarilganligini bildirgan edi.


Haqiqatan ham, haridorning sifat tushunchasi juda o'zgaruvchan - u tovarni unga bo'lgan o'ta zarur ehtiyojdan, uning yangiligi, urf bo'lganligi, reklamadan kelib chiqqan holda, uning tejamkorligi, ishonchligini hisobga olgan holda sotib oladi. Sifat to'g'risidagi tasavvur vaqt o'tishi bilan o'zgaradi, u ob'ekt to'g'risidagi axborot darajasi, ob'ekt tavsiflarini aniqlashning texnik vositalariga bog'liq bo'ladi.

Texnik baholashlarni o'tkazishda afzallik darajasini va miqdor xarakteristikalarini ifodalash uchun "sifat" atamasining faqat o'zidan alohida foydalanilmaydi; bu qiymatlarni ifodalash uchun iste'mol qiymatining umumlashtirilgan o'lchovi yoki sifat qo'shimchasi qo'llanilishi zarur.

#### **Sifat menejmenti tizimlari**

1. TQM -Total Quality Management/Cifatni umumiy boshqarish.
2. UQM -Universal Quality Management/Universal sifat menejmenti
3. QM -Quality Management/ Sifat menejmenti
4. MBQ -Management by Objectives/Maqсадlarini yoyish menejmenti
5. MBO -Management by Quality/ Sifatni yoyish menejmenti
6. TQC -Total Quality Sontrol/ Umumiy sifat nazorati (A. Feygenbug)
7. CWQC -Company-Wide Quality Sontrol/Butun tashkilotda sifat nazorati (K. Isikava)
8. QC -Quality Sireles/Cifat tugaraklari (G. Taguti)
9. QFD -Quality Function Deployment/Sifat funktsiyasini joylashtirish
10. ZD -Zero Defect/nol nuqson.
11. SQC -Statistical Quality Sontrol/ Statistik sifat nazorati
12. BIP/ БИП Саратовской системы бездефектного изготовления продукции /Nuqsonsiz mahsulot tayyorlash Saratov tizimi.
13. KANARSPI/ КАНАРСПИ -качество, надежность, ресурс с первых изделий/sifat, ishonch, birinchi mahsulot bilan resurs (Gorkiy tizimi)
14. NORM - научная организация работ по увеличению месторесурса (Автодизель) joyida resursni oshirish bo'yicha ishni ilmiy tashkil etish.
15. KS UKP (КС УКП) комплексная система управления качеством продукции/ Mahsulot sifatini kompleks boshqarish tizimi.
16. NOTPU - научная организация труда производства управления (Rubin motor qurish zavodi) Ishlab chiqarishni boshqarishda mehnatni ilmiy tashkil etish.

## Sifat menejmenti tizimlari



19.1.3 -rasm. Sifat tizimlarining rivojlanishi

### Nazorat savollari

1. Sifatni shakllantiruvchi elementlarni aytib bering?
2. Korxonada sifatni boshqarish tushunchasini yoritib bering?
3. Sifat soxasida qanday atamalarni bilasiz?
4. Sifat tushunchasini shakllanishida qanday tarixiy jarayonlar bo'lgan?
5. Sifat tushunchasining evolyutsiyasini tushuntiring?
6. Sifatni boshqarish tizimini rivojlanish tarixidan qanday ma'lumotlarni bilasiz?

### 20-mavzu. Sifat menejmenti tizimi to'g'risida ta'limot tarixi

#### 20.1 Sifatni boshqarishning xorijiy tajribalari

#### 20.2 Sifat menejment tizimi kontseptsiyasi va umumiy qoidalari

#### 20.1 Sifatni boshqarishning xorijiy tajribalari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobat muxitining borligi sifat muammolariga juda katta e'tiborni qaratishga majbur qiladi. Oxirgi yillarda juda ham ko'p korxonalarning rahbarlari sifatni boshqarish zaruriyatiga duch kelmoqda, chunki u bozor munosabatlari sharoitida raqobatbardoshlikka,

iste'molchining mahsulotga bo'lgan ishonchini o'rnatishda muhim vosita bo'lib xisoblanadi.

Bugungi kunda sifat boshqaruv tizimining umumiy tirof etilgan tasnifi korxonalarni strategik rivojlantirish muammolarini hal qilish uchun muhim rol o'ynamoqda. Sifat bo'yicha ish shakllari va usullari evolyutsiyasining har bir yangi bosqichi o'ziga xos xususiyatga ega bo'lsa-da, sifatni yaxshilash uchun ilgari mavjud bo'lgan usullarning doimiylikini saqlab qoladi.

Sifat boshqaruv tizimlarini rivojlantirish jarayoni uning dinamikasida, mukammal tendentsiyalarning rivojlanishida, shu jumladan sifat boshqaruvining yangi printsiplari va usullarining paydo bo'lishida namoyon bo'ladi. Sifat boshqaruv kontsepsiyalarini ishlab chiqish jarayonining ahamiyati shundan iboratki, bu tizimning allaqachon erishilgan sifat darajasining miqdoriy tekisligida qolishimizga imkon bermaydi, balki uning yanada rivojlangan shakllariga o'tishni talab qiladi. Shuning uchun sifat boshqaruv tizimlarining genezisi bozor iqtisodiyotining hozirgi sharoitiga mos keladigan sifat tizimi tushunchasini shakllantirish va ularni yanada rivojlantirishning sifat jihatidan yangi usullarini aniqlash imkonini beradi.

Biz sifat boshqaruv tizimlarini takomillashtirish jarayonini tsikli (belbog'li) shaklga ega, deb hisoblaymiz, buning natijasida sifat boshqaruvining yangi shakllari paydo bo'ladi. Ushbu uzluksiz jarayonda sub'ekt va boshqaruv ob'ektining o'zaro ta'siri, uning omillari, boshqaruvchi va boshqariladigan tizim, ular o'rtasidagi munosabatlar aks etadi. Doimiy takomillashtirishga e'tiborni yo'naltirish tashkilotga hamisha muvaffaqiyat keltiradi (ISO 9000:2015, 2.3.5). Takomillashtirish jarayonining muhim jihati "maqsad" tushunchasida ifodalanadi va resurslarni boshqarish harakatlariga ko'ra kirish oqimlarini o'zgartiradigan jarayon natijasini aniqlaydi.

Ichki va tashqi o'zgarishlar muhitida yangi imkoniyatlarni yaratish hozirdagi funktsiya darajasini saqlash nuqtaiy nazar bilan tashkilot uchun takomillashtirish juda muhimdir. Qo'yilgan maqsadlariga jarayon, mahsulot va tizimlarga mezonlar o'rnatish, baholash va tahlillash asosida ularni doimiy takomillashtirish bilan erishiladi.

Shunday qilib, sifat boshqaruv tizimida ob'ektning tabiati, ochiqlik darajasi va sub'ektning ishtirok etish o'lchovini retrospektiv tahlil qilmasdan sifat boshqaruv tizimlarini yanada rivojlantirish mumkin emas.

XIX-asrning oxirida standart sifat g'oyasi paydo bo'ldi, unda mahsulotlar bir-biriga o'rnatiladigan qismlardan emas, balki tasodifiy tanlangan partiyadan tanlab olindi. Ushbu yondashuvning afzalliklari darhol aniq bo'ldi. Ishlab chiqarishning yakuniy bosqichida monitoringning o'rni, qabul qilish va operatsion nazorati yordamida butun ishlab chiqarish jarayonida sifat darajasi kuzatiladi. Ishlab chiqilgan tashkiliy boshqaruv tizimining texnologiyasi ishlab chiqarish jarayonida texnik muammolarni aniqlash, bartaraf etish va jiddiy moliyaviy yo'qotishlarni kamaytirish imkonini berdi.

Mehnatni optimallashtirishning ushbu shaklini rivojlantirishga asosiy hissani Genri Ford<sup>3</sup> qo'shdi, u "yig'ish liniyasini amaliyotga joriy qildi, ishlab chiqarishdan mustaqil ravishda alohida texnik nazorat xizmatini yaratdi va ushbu komponentlar ishlab chiqarilgan sohalarda yig'ish nazoratini boshqarish tarkibiy qismlarini kirish nazorati o'miga joriy qildi".

G. Ford tajribasini ilmiy umumlashtirish va asoslash M. Viber, F. Teylorning ishlari edi [4]. F. Teylor deyarli birinchi bo'lib standart sifat tushunchasini bardoshlik maydonchalari yoki shablon qismlari ko'rinishida mahsulot sifatiga qo'yiladigan talablarga muvofiqligi tushunchasini kiritdi.

Teylor "ishlab chiqarish bu mexanizm. Ish ko'pchilik uchun yoqimsiz va ishchilar undan qochishga harakat qilishadi. Xodimning ritmi texnologik jarayonlar ritmiga mos kelishi kerak" deb hisoblar edi. Ford - Teylor tizimida mahsulot sifatini baholash iste'molchining fikrini hisobga olmasdan standart sifat tizimi orqali amalga oshirildi. Shuning uchun etkazib beruvchi va iste'molchi o'rtasidagi munosabatlar texnik sharoitlarda o'rnatilgan talablarga asoslandi.

XX asr mahsulot sifatini ta'minlashda asosiy rol boshqaruvchi zimmasiga yuklangan. Sanoat amaliyotida nazorat, rad etish ilmiy va texnologik jarayon yutuqlari ta'siri ostida ishlab chiqilgan va takomillashtirilgan turli usullar bilan amalga oshiriladi. Tashkiliy jihatdan sifatni boshqarish tizimi ishlab chiqarish jarayonining tuzilishiga mos keladi va uning talablariga javob beradi.

Agar xom ashyoni sotib olishdan tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha bo'lgan ishlab chiqarish jarayoni bitta korxonada amalga oshirilgan bo'lsa, iste'molchiga yuborilishidan oldin mahsulot sifatini qabul qilish nazorati amalga oshiriladi. Ishlab chiqarish texnologiyasi juda ko'p sonli operatsiyalardan iborat va murakkab bo'lishi mumkin. Bunday holda, qabul qilish nazorati jarayonlar bilan birlashtiriladi.

Xarid qilingan xom ashyolarni kirish nazorati muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Boshqarish tizimi quyidagi printsipga binoan qurilgan: nuqsonni aniqlash va ishlab chiqarish jarayonida nuqsonli mahsulotni olib tashlash imkon qadar erta amalga oshirilishi kerak. Buning sababi, nuqsonli mahsulotni keyinchalik qayta ishlash jiddiy yo'qotishlarga olib keladi va ishlab chiqarish xarajatlari asossiz ravishda oshadi.

Ford - Teylor sifat nazorati tizimi sifat bo'yicha ishlarni tashkil etishning evolyutsion rivojlanishidagi jiddiy qadam bo'ldi, bu ishlab chiqarish jarayonida insonning o'zini o'zi boshqarish darajasining pasayishi va uning nazorati orqali tizimning alohida elementi ichida sifat boshqaruvini amalga oshirishga olib keldi.

Tizimni tashkil etuvchi ko'plab elementlarning o'zaro ta'sirini uyg'unlashtirish bu mahsulotni ishlab chiqarish jarayonida mahsulotni nazorat

<sup>3</sup> Genri Ford 1863-1947 yillarda yashagan amerikalik sanoatchi, avtomobillar ishlab chiqaradigan zavod egasi, Teylor nazariyasini birinchi qatorida qo'llagan boshqaruvchi. 1903 yilda «Ford Motor Company» kompaniyasiga asos solgan. «Mening bayotim, mening muvaffaqiyatlarim» asari muallifi.

qilishning statistik usullaridan foydalanish hisoblanadi va XX asrning 20-yillarida boshlangan ilmiy sifat boshqaruvi bo'yicha ishlarni rivojlantirishning ikkinchi bosqichini tavsiflaydi. Ushbu tendentsiyaning asoschilaridan biri V. Shuxartning so'zlariga ko'ra, asosiy maqsad iste'molchilar faqat standartlarga mos keladigan yaroqli mahsulotlarni olishidir. Shuxart sifat tizimi tushunchasini korxona faoliyati, mehnatni tashkil qilish va boshqarishning kombinatsiyasi sifatida kiritdi va tizim tushunchasi doirasida nazorat kartalarini vositalar sifatida ishlab chiqishda mos mahsulotlarning rentabellik chegarasini aniqladi, bu esa jarayonlarning texnik muvofiqligini oshirdi.

W.E. Shuxart<sup>4</sup> PDCA tsiklining kontseptsiyasini taklif qildi, unda texnologik jarayonlarni takomillashtirish uchun texnik rejalashtirish faoliyati ta'minlanadi va texnik nazoratning ahamiyati sifat tizimining axborot xizmatiga aylanadi. Ushbu kontseptsiyani amalga oshirish, ba'zi modellarning ommaviy namoyon bo'lishi bilan statistik sifatni baholash tizimi bilan bog'liq usullarning paydo bo'lishiga olib keldi, bir omilning boshqasiga bog'liqligi kuzatildi. Ushbu usullar ishlab chiqaruvchining sa'y-harakatlarini yaroqsiz mahsulotlarni qanday topish va bartaraf etishga emas, balki texnologik jarayonda yaroqli mahsulotlarni ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga imkon berdi.

Sifatni nazorat qilishning statistik usullarining ma'nosi doimiy nazorat bilan taqqoslaganda uni amalga oshirish xarajatlarini sezilarli darajada pasaytirish, ikkinchi tomondan mahsulot sifatidagi tasodifiy o'zgarishlarni istisno qilishdir.

Sifatni nazorat qilishning statistik usullari nazorat operatsiyalariga sarf qilinadigan vaqtni qisqartirish va nazorat samaradorligini oshirishga yordam berdi. Biroq, statistik usullardan foydalanish sifat tizimini rivojlantirishning yagona sharti emas. Ushbu bayon sifatni rejalashtirishning zamonaviy kontseptsiyasining "maqsadlarni belgilash, sifat talablari va sifat tizimining elementlaridan foydalanish" hamda U. Shuxart tomonidan taklif qilingan PDCA tsikl kontseptsiyasining ta'rifi o'rtasidagi farq bilan izohlanadi.

Mahsulotni yaratish jarayonida sifat tizimining har bir elementiga maqsadli ravishda ta'sir qiladi va nafaqat uning yakuniy natijasini, nuqson sabablarini tahlil qilish, maqsadlar, sifat talablari, reja sifati va boshqalarni belgilash - bularning barchasi sifat boshqaruv kontseptsiyasi aniqlagandan so'ng mumkin bo'ldi.

Sifat bo'yicha ishlarni tashkil qilishning keyingi bosqichini "Umumiy sifat nazorati" (TQC) bosqichi deb ta'riflash mumkin va u 50-yillardan boshlab, Yaponiyada amerikalik professor U.E. Deming tomonidan taqdim etilgan.

Yaponiya hukumatining iltimosiga binoan Deming, taniqli statistik sifatida, 1950 yilda Yaponiyaga aholini ro'yxatga olish bo'yicha maslahatchi sifatida yuborilgan. Fursatdan foydalanib va yapon olimlarining iltimosiga

<sup>4</sup> Wolter Endryu Shuxart 1891-1967 yillarda yashagan, Butun dunyoda taniqli amerikalik Sifatni boshqarish nazariyasi bo'yicha konsultant va olim.

binoan Deming Yaponiya fani va muhandislari uyushmasida o'zining sifatli falsafasini aytib o'tdi.

Deming ta'limotining asosi "tarqoqlik" tushunchasi edi, shu munosabat bilan tarqoqlikning maxsus va umumiy sabablarini farqlashga alohida e'tibor berildi. Deming maxsus sabablarni operatorlar darajasida yo'q qilish mumkinligiga va tarqoqlikning keng tarqalgan sabablarini kompaniya rahbariyati darajasida ko'rib chiqish kerakligiga ishonadi, chunki ular jiddiy tizimli tekshiruv va og'ish sabablarini yo'q qilishni talab qildi.

Deming falsafasida iste'molchining roliga alohida e'tibor berildi. Deming ishlab chiqarish zanjirining eng muhim qismi iste'molchi ekanligini o'rgatdi. U mijozlarni to'liq qondirish muhimligini ta'kidladi. Deming ta'kidlaganidek, menejmentning ishchi kuchi, materiallar va vaqtni yo'qotishiga yo'l qo'ymaslik. Bu yuqori xarajatlarni keltirib chiqaradi va bozor ulushini yo'qotadi, chunki iste'molchi past sifatli va qimmatbaho tovarlar uchun pul to'lashni hohlamaydi.

Deming tomonidan taklif qilingan usul nafaqat ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirishga, balki butun sifat tizimini takomillashtirishga, "har tomonlama sifat boshqaruv tizimi" ga asoslangan edi. Deming falsafasi sifatning keng qamrovli tushunchasi va o'zgaruvchanlik mohiyatini tushunishga asoslangan.

Deming AQSH va G'arbiy Yevropa mamlakatlarida qabul qilingan boshqaruv va sifat tizimini to'liq o'zgartirish zarurligini ko'rsatdi. U bunday o'zgarishga yordam beradigan va o'z falsafasining asosiy elementlarini aks ettirishi mumkin bo'lgan menejment uchun 14 nuqtani taklif qildi:

1) doimiy maqsadlarga rioya qilish: mahsulot yoki xizmatni doimiy ravishda takomillashtirishni doimiy maqsadiga aylantirish;

2) yangi falsafani o'rganish: rahbariyat yangi falsafani o'rganishi va o'zgarishlarni amalga oshirish uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olishi kerak;

3) nazoratga tayanmaslik: sifatga erishish usuli sifatida ommaviy nazoratga bo'lgan ehtiyojni bartaraf etish;

4) biznesni faqat narx ko'rsatkichlari bo'yicha baholashni to'xtatish: biznesning muvaffaqiyatini faqat narx ko'rsatkichlari bo'yicha baholamaslik;

5) doimiy va uzluksiz yaxshilanish: har qanday jarayonni doimiy ravishda yaxshilashga harakat qiling;

6) kadrlar tayyorlash tizimini yaratish: kadrlar tayyorlashda zamonaviy usullaridan foydalanish;

7) odamlarni rag'batlantirish va eng yaxshi uskunalarni sotib olishga yo'naltirilgan etakchilik tizimini yaratish;

8) qo'rquvdan qutulish: qo'rquvni istisno qiladigan va muammoni to'g'ridan-to'g'ri va ochiq muhokama qilishga imkon beradigan ikki tomonlama aloqa tizimini yaratish;

9) to'siqlarni yo'q qilish: ma'muriy rahbariyat, bo'linmalar o'rtasidagi to'siqlar va g'ovlarni olib tashlash;

10) raqamlardan foydalanishdan qochish: raqamli kvotalarni belgilaydigan ish standartlarini istisno qilish;

11) shiorlardan qoching: shiorlar va chaqiriqlar faqat tizimli xarakterga ega bo'lgan va xodimlar tomonidan hal etilmaydigan muammolardan chalg'itadi;

12) ish malakasi bilan faxrlanishni tan olish uchun to'siqlarni olib tashlash: ishchilar va rahbarlarga o'z ishlarida g'ururlanishiga imkon bermaydigan to'siqlarni olib tashlash;

13) ta'lim va o'zini takomillashtirish tizimini yaratish: kuchli ta'lim dasturini yaratish va barchani o'zini takomillashtirishga undash;

14) yuqori rahbariyatning javobgarligini belgilash: sifatni doimiy ravishda yaxshilash va samaradorlikni oshirish uchun yuqori rahbariyatning doimiy javobgarligini aniq belgilash.

Ta'kidlash joizki, Demingning so'zlariga ko'ra, sifat tizimining barqaror rivojlanishi barcha tsikllarni amalga oshirishda mahsulot sifatini baholashda bir xillikka erishish orqali erishish mumkin. Ushbu jarayon yondashuvining asoschilaridan biri amerikalik olim A.Feygenbaum<sup>3</sup> bo'lib, u "Umumiy sifat nazorati" tizimi - talab qilinadigan sifat darajasini ta'minlash va uni butun ishlab chiqarish davrida saqlash kontseptsiyasini joriy qilgan.

Shuning uchun haqiqiy jarayon va sifat boshqaruv tizimi bir-biriga bog'liq bo'lgan nazorat qilish jarayonlarining murakkab to'plamidir. A.Feygenbaum tomonidan taklif etilgan "Umumiy sifat nazorati" tizimining ishlash mexanizmi quyidagi talablarga muvofiq amalga oshirildi:

- yangi mahsulotlarni loyihalashdan tortib ularning ishlashigacha bo'lgan barcha ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish;

- boshqaruv qarorlarining amaliy faoliyat bilan chambarchas bog'liqligi;

- dizayn, ishlab chiqarish va sifat nazorati jarayonlarining o'zaro bog'liqligi;

- ishlab chiqarish jarayonining dastlabki bosqichida sifat darajasini aniqlash.

XX asrning ikkinchi yarmida rivojlangan mamlakatlar iqtisodiy hayotida, aholi hayotiy ehtiyojlarini qondirish borasida mahsulot sifatini ta'minlash, talabchan raqobatchilik asosida kompaniyalarni siqib chiqarish (sindirish) omillaridan biri bo'lib qoldi. 1950 yillarda A.Feygenbaum yalpi (total) sifatni boshqarish (TQC - Total Quality Control) mazmun va mohiyatlarini shakllantirib, 1960 yillarda korxonani boshqarish sohasida yangi falsafa yaratilishiga asos soldi.

Feygenbaum tizimi boshqarish g'oyasiga asoslanib, unda sifat tizimining ishlashi uchun mas'uliyat faqat sifat boshqaruv funktsiyalarini bajaradigan maxsus ma'muriy organ zimmasiga yuklangan. Ichki boshqaruvdagi o'zgarishlar

<sup>3</sup> Armand V. Feygenbaum - butun jahonda mashhur bo'lgan amerikalik mutaxasss, kompleks sifatni boshqarish nazariyasining muallifi, Xalqaro sifat akademiyasi (XSA) akademigi va uning asoschilaridan biri, Sifat bo'yicha Amerika jamiyati (ASQ) faxrlı a'zosi hamda sobiq prezidenti.

natijasida tashkiliy tuzilma yanada zamonaviylashdi, sifatli ishlarning holati ko'tarildi.

Feigenbaum tomonidan taklif qilingan sifatni boshqarish tizimi nazariyasi ham diqqat e'tiboriga loyiqdir va unda nazorat boshqaruv vositasi sifatida ko'rib chiqilgan bo'lib, u standartlar va sifatli ma'lumotni uzatish uchun aloqa kanallari bilan ishlash bo'yicha harakatlarning izchil bajarilishini anglatadi.

Ammo Feigenbaum kontseptsiyasi sifat boshqaruv jarayonining (tsiklining) mohiyatini, nazorat ta'sirini kuchaytiradigan yoki zaiflashtiradigan sharoitlarni va sifat boshqaruv tizimini samarali ta'minlash usullarini tahlil qilmaydi.

Feygenbaum o'zining so'nggi ishida sifat tashkilotni ichki va jahon bozorlariga kirishga yetaklaydigan yagona va eng muhim kuchga aylanganligini ta'kidlaydi. Feygenbaum sifatni boshqarishning universal dasturlarini xarajatlarni tejash va profilaktika (oldini oluvchi), baholash, ichki va tashqi qobiliyatsizlik bilan bog'liq toifalarga bo'lish nuqtai nazaridan ko'rib chiqishni boshladi. Sifatni boshqarishning universal dasturlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish ichki va tashqi nosozliklar bilan bog'liq xarajatlarni kamaytiradi va mijozlarga yo'naltirilgan standartlar asosida ishlab chiqarish resurslaridan maqbul foydalanishga olib keladi.

Feygenbaum umumiy sifatni muvaffaqiyatga erishish uchun hal qiluvchi 10 nuqta shaklida aniqladi:

- 1) sifat - bu iste'molchi belgilaydigan narsa;
- 2) sifat kompaniyada yuz beradigan jarayonlar bilan belgilanadi;
- 3) sifat va xarajatlar qo'shilib, chegirib tashlanmaydi;
- 4) sifat fanatdan ham, jamoadan ham talab qiladi;
- 5) sifat - bu etakchilik usuli;
- 6) sifat va innovatsiya o'zaro bog'liq;
- 7) sifat - axloq;
- 8) sifat doimiy yaxshilanishni talab qiladi;
- 9) sifat - samaradorlikning eng tejamkor usuli bo'lib, eng kam sarmoyani talab qiladi;
- 10) sifat butun tizimga, iste'molchilarni etkazib beruvchilar bilan bog'laydigan butun tizimga qo'llaniladi

M.Juran<sup>6</sup>, Deming singari, 1950 yilda Yapon muhandislari va olimlari ittifoqi tomonidan Yaponiyaga taklif qilingan. U erda katta va o'rta pog'onadagi rahbarlar uchun seminarlar o'tkazdi. Uning nutqlarining mavzulari sifatni rejalashtirish va tashkil etish, shuningdek, kompaniyalarning yuqori menejerlarining sifat uchun javobgarligi va faoliyatni yaxshilash uchun maqsad va vazifalarni belgilash zarurligi.

---

<sup>6</sup> Djozef M.Djuran - sifat sohasida mashhur bo'lgan amerikalik mutaxassis. Xalqaro sifat akademiyasining akademigi. Uning "Sifatni boshqarish bo'yicha ma'lumotnoma" (Handbook for Quality Control) deb nomlangan kitobi 1951-yilda nashr etilgan.

Juran uchun sifat tasodifiy bo'lishi mumkin emasligi g'oyasi asos bo'lgan, uni rejalashtirish kerak. Juran sifatni rejalashtirish, sifat boshqaruvi va sifatni yaxshilashdan iborat bo'lgan "sifat uchligi" haqida gapirdi va kompaniyadagi sifatni rejalashtirishning asosiy elementlarini aniqladi:

- ✓ iste'molchilar va ularning ehtiyojlarini aniqlash;
- ✓ sifat sohasida maqbul maqsadlarni aniqlash;
- ✓ sifatni o'lchash tizimini yaratish;
- ✓ sohada sifat maqsadlariga javob beradigan jarayonlarni rejalashtirish;
- ✓ bozor ulushini kengaytirishda doimiy muvaffaqiyatlarga erishish;
- ✓ ma'muriyat va ishlab chiqarishdagi xatolarni kamaytirish.

Uning fikricha, butun sifat tizimini takomillashtirish bilan "sifatni doimiy ravishda yaxshilash" dasturi amalga oshirilishi mumkin. Juranning so'zlariga ko'ra, sifat "foydalanish yoki maqsadga muvofiqlik", va shunga muvofiqlik uchun xodimlar ehtiyoj to'g'risida xabardor bo'lish va sifatni oshirish uchun imkoniyatlarni yaratish juda muhimdir. Sifatni rejalashtirish jarayonining har bir bosqichida barcha ishlab chiqarish jarayonlariga o'tkaziladigan kirish (etkazib beruvchilar) va chiqish (iste'molchilar) oqimlari mavjud.

Juran sifatni yaxshilash dasturini ishlab chiqdi. U tashqi va ichki iste'molchilar bilan bir qatorda oxirgi iste'molchilarga ham e'tibor qaratdi. U har qanday funktsiyalarni bajarishda iste'molchining mavjudligi to'g'risida doimiy ravishda xabardor bo'lish muhimligini ta'kidladi. Deming singari, u sifat bilan bog'liq muammolarning aksariyati ishchi kuchining emas, balki rahbariyatning yomonligidan kelib chiqadi, deb hisoblaydi.

Hozirgi zamon olimlari va amaliyotchilari shunday usullarni yaratib boshladilarki, ular yordamida murakkab tizimlarda ham noaniqliklar va sodir bo'ladigan o'zgarishlarni muvaffaqiyat bilan boshqara olish mumkin bo'ladi. Boshqaruvga yangicha yondashuvdan birinchilardan bo'lib amalda muvaffaqiyatli foydalanganlar yaponlar hisoblanadi.

Ular yirik firmalarni faollik bilan kichik firmalarga bo'lishni boshlaganlar. Ularga boshqaruv ierarxiyasini soddalashtirish - innovatsiya jarayonlarini tezlashtirish va ularning samaradorligini oshirish imkonini berdi.

Bularning barchasi tovarlar sifatining yaxshilanishi, ishlab chiqarish va ishlatish harajatlarining qisqarishi, yapon firmalarining jaxon bozoridagi mavqeini kuchayishiga olib keldi.

Amaliyotda sifatni doimiy yaxshilash falsafasi Yaponiyada keng tarqalgan. Aynan Yaponiyaning sifat boshqaruv tizimi (TQC) boshqaruv subyektlarining maqsadli harakatlari yordamida tizimni takomillashtirishning doimiy, ongli ravishda tartibga solinadigan jarayoniga misoldir. Ushbu falsafa doirasida tashkilotning irodali ishtirokini rag'batlantirish uchun, yaponiyaning ilg'or kompaniyalari rivojlanish, madaniyati, shuningdek tizimni sifat boshqaruv usullari sifatida yangi "hamkorlikning korporativ madaniyati" tamoyillarini shakllantirdilar. Bunday korporativ madaniyatning o'ziga xos xususiyati - har qanday sifat masalalari bo'yicha ma'lumotni uzatishda xodimlar rahbariyat tomonidan kuchli aloqa mavjudligi.

Bugungi kunda ham dolzarb bo'lib turgan sifat boshqaruvi va mahsulot sifatini yaxshilash bo'yicha ishlarni tashkil etishda Yaponiya tajribasining eng xarakterli xususiyatlarini shakllantirishga harakat qilinmoqda.

Birinchidan, eng yaxshi amaliyotlar asosida sifat muammolarini hal qilishning uzoq muddatli muvaffaqiyatli natijalari. Buning boshlanishi – bu amaliyotda ilg'or ko'nikmalarni tayyorlash va egallashga asoslangan sifatni nazorat qilishning statistik usullaridan keng foydalanish. Ta'kidlash joizki, korxonalaridagi ichki standartlarini har 3-4 yilda bir marta qayta ko'rib chiqiladi, bu dunyoning boshqa hech bir davlatida qilinmagan. K. Ishikava<sup>7</sup>: "Eksperimental ma'lumotlarga asoslangan baho beradigan muhandislar, menejerlar statistik usullarni yoddan bilishlari kerak" deb ta'kidladi.

Ikkinchidan, iste'molchilarning mahsulot sifatiga bo'lgan talablarini o'rganish, raqobatchilarning mahsulotlari to'g'risida ma'lumot to'plash tizimini takomillashtirish bo'yicha izchil va doimiy ish olib borishi. Ushbu tamoyilni amalga oshirish bilan bir vaqtda, "keyingi operatsiyani bajaruvchini o'z iste'molchisi sifatida ko'rib chiqish" ish ritmi va tayyor mahsulotning yuqori sifatini ta'minlashga imkon berdi.

Uchinchidan, sifat boshqaruvida keng ishtirok etish istagi - yuqori rahbariyatdan tortib ishchilargacha, mamlakatni rivojlantirish milliy dasturini ishlab chiqishda sifat muammolarini kiritish.

To'rtinchidan, hatto yaxshi ishlaydigan sifat boshqaruv tizimi ham takomillashtirilmasa va muntazam tekshiruvlar o'tkazilmasa vaqt o'tishi bilan o'z samaradorligini yo'qotadi. Ichki audit bilan bir qatorda, mahsulotni boshqarishning barcha tsikllarida sifatni boshqarishning har xil usullari va vositalaridan foydalanish kerak.

Beshinchidan, sifatni to'g'ridan-to'g'ri masterlar (ish ustalari) va brigada boshliqlari tomonidan tashkillashtirish, sifatni yaxshilash va statistik usullarini takomillashtirish bo'yicha ishlarni tashkil qilishning ilg'or uslublariga o'rta pog'ona vakillarni tayyorlash.

Oldinchidan, ishchilarning jismoniy va intellektual salohiyatini sifat muammolarini hal qilishga yo'naltirish, sifat doiralari faoliyatiga tayanish, vaqtincha o'zaro bog'liq guruhlarini tashkil etish va o'zini o'zi boshqarish usulini joriy etish.

Yettinchidan, xodimlar uchun yuqori sifatli mahsulotni targ'ib qilish va obro'-e'tibor tizimini joriy etish, yaxshilanishlarni amalga oshirishda ish sifati va aloqa birligiga qaratilgan motivatsiya tizimini takomillashtirish.

Umuman olganda, sifat menejmenti bo'yicha Yaponiya tajribasi texnologiya va boshqaruv sohasidagi ilmiy ishlanmalarni keng joriy etilishi, barcha boshqarish operatsiyalarini yuqori darajada kompyuterlashtirish va "inson omili" dan maksimal darajada foydalanish bilan ta'vsiflanadi. Ushbu tizim butunlay mijozlarga yo'naltirilgan. Ta'kidlash joizki, yaponiyaliklar o'z

<sup>7</sup> Kaoru Ishikava 1915 - 1990 yillarda - sifat sohasida faoliyat olib borgan yaponiyalik mashhur mutaxassis.

amaliyotida mahalliy korxonalarining sifat sohasidagi ishlanmalaridan ham foydalanadilar.

Shunday qilib, Yaponiya TQC tizimi ishchilarga mafkuraviy ta'sir ko'rsatish vositasi sifatida sifat falsafasiga katta e'tibor beradi. Sharq falsafasi an'analari, etikasi, madaniyati tufayli korxona ichida axloqiy munosabatlar modelini imkoniyati paydo bo'ladi. Ushbu modelga muvofiq, funksiyalar, majburiyatlar zarur bo'lganda taqsimlanadi va o'zgartiriladi, xodimlarning istaklari va manfaatlari guruhning o'zaro ta'siri va hamkorligi jarayonida tashkilot manfaatlariga mos keladi. Bunday model, aniqrog'i harakatlar dasturi, tashkilotdagi faoliyatning barcha turlari jarayonining ob'ektiv xususiyatini ongli ravishda tartibga solish darajasini ko'tarishga majbur qiladi.

Yaponiyalik olim G. Taguchi<sup>8</sup> fikriga ko'ra, Yaponiyaning sifatni yaxshilash dasturi doimiy ravishda "statistik usullar asosida sifatni yaxshilashni rejalashtirish orqali mahsulot sifati ko'rsatkichlari va buyurtmachi tomonidan ko'rsatilgan xususiyatlar o'rtasidagi tafovutni (yo'qotishni) kamaytirishga" qaratilgan. Taguchi kontseptsiyasining asosiy g'oyasi yangi bozor mahsulotini ishlab chiqarish va ishlab chiqarish jarayonlarining samaradorligini baholash usullarini ishlab chiqish, shuningdek bozorda uning narxini pasaytirganda mahsulot sifatini yaxshilashdan iborat.

70-yillarning oxiriga kelib, TQC kamchiliklari aniqroq ko'rinishni boshladi, bu asosan mahsulotning butun hayoti davomida umumiy nazorat xarajatlari bilan bog'liq.

80 -yillarning boshlarida E. Deming "Inqirozni yengish" asarida TQC tizimining iste'molchi uchun ham, ishlab chiqaruvchi uchun ham kelajakdagi muammolarni oldindan ko'ra olmasliklarini ta'kidladi. Shuning uchun sifat boshqaruv tizimi nafaqat ishlab chiqarish jarayonlarining sifatini nazorat qilish, balki bozor sharoitida tashqi sharoitga ta'sirini sifatni rejalashtirish orqali ham tashkil qilishi kerakligi aniqlashdi.

Sifat boshqaruv tizimi ko'plab jarayonlarining tashqi muhit bilan o'zaro aloqasini tashkil etish va rejalashtirish uchun rag'batlantiruvchi omil, sifatni boshqarishning rasmiylashtirilgan ko'rsatkichlari sifatida ISO 9000 standartlarini ishlab chiqish edi, bu esa Sifatni umumiy boshqarish (TQM -Total Quality Management) shaklida ilmiy sifat boshqaruvini rivojlantirishning to'rtinchi bosqichini tavsiflaydi. Bu iste'molchilarning mahsulot sifatiga ishonchini uyg'otadigan rejalashtirish chora-tadbirlari tizimi.

Tashkilotning barcha jarayonlarida to'htovsiz sifatini oshirish, Yaponiya va AQSH kompaniyalarida joriy etilgan. TQM ning asosiy g'oyasi kompaniya mahsulot sifatigina ishlashi emas, ishini sifatli tashkil etishga, unda xodimlarni hisobga olishga qaratish.

TQM uchta asosiy omil bilan belgilanadi: sifatni strategik rejalashtirish, jarayonlarni boshqarish, sifatni doimiy takomillashtirish.

<sup>8</sup> Geniti Taguchi – sifat sohasida eng obro'li makofof sohibi yaponiyalik taniqli statistik. 1940 – yillarning oxirida mahsulot va ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish masalalarini o'rgangan.

TQM da quyidagi uchala asosni parallel doimiy takomillashtirish bilan biznesni yanada tez va samarali rivojlanishga erishiladi:

- -mahsulotlar sifati;
- -jarayonlarni sifatli tashkil etish;
- -xodimlar layoqati darajasi.

TQM da sifat quyidagi daraja bilan aniqlanadi:

- -iste'molchilar talablarni joriy etish darajasi;
- -kompaniyaning moliyaviy ko'rsatkichlari qiymatlari;
- -kompaniyaning xodimlarini o'z ishidan qanoatlanganlik darajasi.

TQM quyidagi 2 mexanizmni o'z ichiga oladi:

Quality Assurance (QA) -sifatni kafolatlash, zarur sifat darajasini saqlash va iste'molchiga mahsulot yoki xizmat sifatiga ishonchni ta'minlaydigan muayyan kafolatlarni berish.

Quality Improvements (QI) -sifatni doimiy oshirish, sifat darajasini na faqat saqlashni, balki yuksaltirish va mos ravishda kafolatlash darajasini oshirishni ta'minlash.

Ikki mexanizm: sifatni kafolatlash va sifatni doimiy oshirish, qaysiki «o'yinda doimo to'pni o'zida ushlab turish» bu esa biznesni rivojlanishi, doimiy takomillashtirishga olib keladi.

TQM g'oyasini taniqli kanadalik sifat bo'yicha mutaxassis Jorj Lazlo chuqur yoritgan.

TQM quyidagi printsiplarga asoslanadi:

- iste'molchiga yo'naltirilganlik;
- xodimlarni jalb etish, ularni qobiliyatidan foydalanish qaysiki tashkilot imkoniyatini oshiradi;
- biznes jarayonlari tizimiga sifat tizimiga yondashuv kabi bo'lishi;
- boshqarishga tizimli yondashuv;
- doimiy takomillashtirish.

Mahsulotni iste'molchilar bahosining yo'qligi uning o'rmini bosadigan sifat mezonini belgilashni talab qildi, unga muvofiqlik mahsulot sifatining darajasi hisoblanadi. Uni baholash mexanizmi standartlashtirish tizimi orqali amalga oshirildi. Ushbu tizimning asosi ishlab chiqarishning barcha darajalarida ishlarni qat'iy tartibga soluvchi standart hujjatdir. Sifatga erishish jarayoni "sifat halqasi" tushunchasi asosida ochiladi, unda sifat tizimining elementlari, tuzilmalari, bosqichlari tavsiflanadigan ISO standartlari ushbu jarayonning turli bosqichlariga ehtiyojlarni aniqlashdan qoniqishni baholashgacha to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladi.

Yakuniy mahsulot bu jarayonning natijasi bo'lib, resurslarni boshqarish va nazorat qilish harakatlariga bog'liq ravishda kirish oqimlarini chiqish oqimlariga o'zgartiradi, bu qo'shimcha sifat menejmenti funksiyalarini: rejalashtirish, ta'minlash, nazorat qilish, texnik xizmat ko'rsatish va sifatni oshirishni talab qiladi. TQM metodologiyasiga muvofiq jarayonlarning sifati beshta "M" sifatiga

qarab belgilanadi: men (odam), machine (mashina), material (material, xom ashyo), method (usul), milieu (muhit). Shuning uchun korxonada biznesni rejalashtirishning samaradorligi ko'p jihatdan ushbu jarayonlarni amalga oshirishda zarur bo'lgan resurslarning kombinatsiyasiga bog'liq.

TQM tizimida jarayon va resurslarni boshqarish xususiyatlari uch komponentning o'zaro bog'liqligida amalga oshiriladi:

- kalit tizim - bu umume'tirof etilgan matematik apparatga, statistik nazorat usullariga asoslangan usul va vositalardan foydalangan holda universal qism;

- texnik ta'minot tizimlari - xodimlarni ushbu vositalardan foydalanishni o'rgatish bo'yicha texnik dasturlar va ulardan to'g'ri foydalanishni o'z ichiga oladigan, korxoning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradigan birlashtirilgan qism;

- TQM tamoyillari va mazmunini uzluksiz rivojlantirish tizimlari - milliy xususiyatlar, mamlakatdagi iqtisodiy buyurtmalar va boshqalar ta'sir qiladigan alohida qism.

Uchta tizim o'rtasidagi uzluksiz almashinuv jarayonida sub'ekt va nazorat ob'ekti o'zaro ta'sir qiladi hamda sifat menejmenti tizimi rivojlanadi. Umumiy sifat boshqaruv kontsepsiyasining rivojlanishi atrof-muhitning o'z-o'zidan paydo bo'lishini diqqat markaziga aylantiradigan ongli ravishda tartibga solinadigan jarayonni tashkil etish usuliga aylandi. Sifatni doimiy ravishda yaxshilashga, ishlab chiqarish xarajatlarini minimallashtirishga va ishlab chiqarish tsiklini qisqartirishga yo'naltirilgan ushbu kompleks tizim uchta o'zaro bog'liq boshqaruv tizimiga asoslangan edi.

Sifatni umumiy brshqarish (TQM) bosqichi integratsiyalashgan tizim korxonalaridagi muammolarning aksariyati o'zlarida emas, balki ularni o'rab turgan muhitda ekanligiga olib keladi. Axborot hajmi va uning almashinuv vositalarining kengayishi atrof-muhit uni boshqarish qobiliyatiga qaraganda tezroq o'zgara boshlaganiga hissa qo'shdi. E.I. Morozovning fikriga ko'ra, atrof-muhit talablarining o'zgarishiga yagona maqbul javob uning o'zgarishi qobiliyatini oshirishdir. Korxona atrof-muhit bilan yaxshi moslashganda, atrof-muhitga nisbatan yuqori o'zgaruvchanlik darajasi va mahsulot sifatini boshqarish tizimining rivojlanishini ta'minlaganidagina yuqori samaraga erishadi.

Shunday qilib, rivojlanish amaliyotiga turli omillarning ta'sirini tushunish maqsadida xorijiy amaliyotda sifat boshqaruv tizimlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, bu biz erishgan tizimlar darajasining sifat darajasida bo'lishimizga imkon bermaydi, balki uning yanada rivojlangan shakllariga o'tishni talab qiladi.

Tashkilotning kelajakdagi rivojlanishi, sifat boshqaruv bo'yicha nazariy va amaliy ishlar sifat tushunchasini kengaytirish va chuqurlashtirish jarayoniga ta'sir qiladi: mahsulot, jarayon, tizim, korxona, biznes, mehnat, hayot sifati. Ushbu ishda biz sifatni tashkiliy hamkorlik tizimida boshqaruv ob'ekti sifatida, sifatni boshqarish tizimini takomillashtirish, tizim jarayonlarini o'zini o'zi

amalga oshirish va korxona bilan birgalikda rivojlantirish kontseptsiyasining bir qismi sifatida ko'rib chiqamiz.

Sifat boshqaruv tizimi deganda tashqi sharoitlarga, harakatlarning tashkiliy tuzilmalarini, faoliyat jarayonlarini, xodimlarning xulq-atvorini va hokazolarni samarali o'zgartirish usullari va vositalariga mos keladigan harakatlar majmui tushunilishi kerak. Boshqacha qilib aytganda, takomillashtirish o'z-o'zini rivojlantirish sifatida namoyon bo'ladi va tizimlilik uning eng muhim xususiyati hisoblanadi. Shu munosabat bilan, zamonaviy sifat boshqaruv tizimlari rivojlanishining asosiy xususiyatlarini ajratib ko'rsatish zarurati muallifning yondashuvi hisoblanadi.

- sifat boshqaruv tizimlari korxonaning tashqi sharoitlariga muvofiq o'z-o'zini bajaradigan, o'zgartiruvchi va tashkil etuvchi tizimlar sifatida qaraladi;
- sifat boshqaruv tizimlarining faoliyati korxonalarni boshqarish tizimi bilan rivojlanish jarayonida mustaqil omillar bilan belgilanadi;
- sifat boshqaruv tizimlari tashqi muhit bilan ma'lumot almashish jarayonini tashkil etish sifatini yaxshilashni ta'minlaydi.

Sifat boshqaruv tizimining samaradorligini, bizning fikrimizcha, o'z-o'zini tashkil etish darajasi, sifat jihatlarining xilma-xilligi va yuqoridagi xususiyatlarning o'z rivojlanishida o'zgarish dinamikasini hisobga olish qobiliyati bilan baholab, buning uchun zarur shart-sharoitlarni shakllantirish mumkin.

## **20.2 Sifat menejment tizimi kontseptsiyasi va umumiy qoidalari**

Yuqori sifatli mahsulot, xizmatlar, ishlar va jarayonlar raqobatbardoshlikning ko'proq ahamiyatga ega bo'lgan muhim tarkibiy qismi bo'lib hisoblanadi. Ular sotish hajmi va daromadni ko'payishiga asos bo'lib xizmat qilib, butun jamiyat va har bir insonning talablarini ko'proq qondirishga imkon beradi, hamda mamlakatning va har bir korxonaning obro'sini belgilaydi.

Sanoati rivojlangan mamlakatlarda firmalar raqobatchilikning judda qattiq sharoitida turadilar, bunda esa sifat menejmenti tizimi muvaffaqiyatli ta'sir etmoqda. Biroq, bunday bir qancha tizimlar ilgari mashhur bo'lgan mahalliy kompleks sifatni boshqarish tizimiga o'xshaydi.

Hozirgi vaqtda SMT tarkibi va mohiyati bir necha xalqaro standartlar bilan tartiblashtiriladi (masalan, ISO 9000 seriyali). Bu standartlar sifat menejment tizimi talablariga muvofiq ishlab chiqaruvchi shartnoma shartlarini bajarishi va sifati birqaror mahsulotlarni yetkazishga ishonchni ta'minladi. Chet elda, har bir mahsulot yetkazib beruvchining albatta o'zida sifat menejment tizimi mavjud bo'lishi majburiy qoidalardan biri bo'lib hisoblanadi. Mahalliy korxonalar xalqaro standartlar talablarni qondiradigan sifat menejmenti tizimisiz, chetlab o'tolmaydilar. SHunday ekan, xorijiy va mahalliy

iste'molchilar talablarini qondiruvchi, yuqori sifatli mahsulotni yartishning muhim shartlari sifatida sifat menejment tizimiga ko'proq e'tibor berish lozim.

Boshqarishda har doim qacda muvaffaqiyatni ta'minlash lozimligi va yakuniy natijada boshqaruvda barcha maqsadlarga erishilganlini aniqlashga ko'proq e'tibor berilish muhim yo'nalishlarni belgilaydi. Bunday yo'nalish bozor iqtisodiyoti sharoiti uchun sifat menejment tizimi bo'lib hisoblanib, bu yo'nalishni tezroq rivojlantirishda zamonaviy SMT yaratish lozim. Ko'p yillardan beri rivojlangan mamlakatlarda bozor iqtisodiyoti turi bilan umumiy sifatni boshqarish tizimi (TQM) nomlangan tizimga e'tiborni kuchayishi kuzatilmoqda. Bunday boshqarish faqatgina yirik sanoat korxonalarini qamrab olib, shuningdek, o'rta va kichik ishlab chiqarish korxonalarini, ayniqsa mahsulotni chet elga eksport qiluvchilarni ham qamrab olgan. Sifat menejmenti bo'yicha ishlarda minimum ikkita o'zaro bog'langan talablarini qondirish lozim:

- 1) iste'molchilarning talablarini;
- 2) ishlab chiqaruvchi - korxona ehtiyoji va qiziqishlarini.

Zamonaviy menejment uchun fundamental savollar qatorida "nima?", "qancha?", "kim?", "qanday?" sifatli mahsulot ishlab chiqarishi lozim, asosiy savol "qanday yondoshish" yordamida qilish mumkinligiga javob topish lozim.

Ko'proq sifat menejmentiga real yondashuv bozor sharoitida iste'molchilarning talablarini qondirishni, alohida korxonada sifat sohasida va mahsulot raqobatbardoshligi ta'minlashga, ham milliy xo'jalik miqyosida to'liqligi, tizimlilik bo'lib hisoblanadi. Mohiyatiga ko'ra integratsiyali yondashuv jarayonli va boshqa yondashuvlarni o'z ichiga oladi.

Vaqt o'tishi bilan doimo sifat menejmenti tizimi kontseptsiyasi rivojlandi, natijada umumiy sifatni boshqarish tizimi (TQM) zamonaviy kontseptsiyaga aylandi va o'z ichiga quyidagi tizimli tamoyillarni oladi:

– barcha xodimlarni va iste'molchilarni sifatni yaxshilashga maqsadli jalb etish;

– sifat menejmenti bo'yicha o'tkazilgan barcha ishlar, jarayon ko'rinishida barcha qatnashchilar tomonidan amalga oshirilishini mo'ljallash;

– barcha xodimlarni, sarmoyadorlarni va shaxsiy mulk egalari qiziqishlarini inobatga olish;

– sifat menejmentining barcha jarayonlarini tizimli takomillashtirish.

Umumiy sifat falsafasi qoidalariga asosan bozor munosobatlarga nisbatan dunyo qarashni yangicha boshqarish. Bu falsafada sertifikatlashtirishga muhim o'rln ajratilgan.

Shuni aytish lozimki, umumiy sifat menejmentining rivojlanish davri boshqaruvning yuqori zvenosidan kuchli e'tiborni talab qilib, har qanday korxonaning xodimlari ehtiyojini qondirish talabi oshirilib boradi. SHu munosabat bilan xodimlarni yuqori sifatli mehnat natijalarga o'z-o'zini motivatsiyalash keng rivojlanishi lozim bo'lib, o'ziga o'zi baho berishning turli usullardan foydalanishni talab qiladi (shuningdek, xalqaro, milliy va boshqa sifat sohasidagi mukofotlar asosida, masalan M. Boldridj mukofoti, sifat

bo'yicha Yevropa mukofotlari va boshqalar). Bularni barchasi ISO 9000, ISO 14000, QS-9000 seriyali va boshqa standartlarni keng joriy qilishga sabab bo'ladi.

Sifat menejmentining rivojlanishining ushbu davrida yangi tizimga o'tish, ta'minotchilar bilan o'zaro munosabatlar, kirish va qabul qilish sinovi va nazoratlarini minimumga kelishini tavsiflaydi. Bundan tashqari, "o'z vaqtida" mahsulotni yetkazib berish va kompleks innovatsion dasturlar tizimini hamma joylarda joriy qilish iste'molchilarning talablarini maksimal qondirishga yo'naltirilgan. Umumiy holatda zamonaviy umumiy sifatni boshqarish metodologiyasi — TQMni quyidagi xususiyatlar bilan belgilash kerak:

- sifat menejmenti va umumiy sifatni boshqarish tizimiga aylanishida ahamiyatli o'zgarishlarni vujudga keltirib, yangi avlod menejmentidek, innovatsion rivojlanish negizi asosida iqtisodiy muammolarni yechish;

- sifat menejmenti protsedurasidan keng foydalanish;

- sifat muammolarini yechishda keng ko'lamli instrumental usullarni ishlatish (masalan, instrumental nazorat va sifat menejmenti, sifatni rejalashtirish usuli, statistik sifatni boshqarish, strategik menejment va boshqalar).

Sifat menejmentni barcha ilmiy asoslangan tamoyillar negizi asosida amalga oshirish lozim va ularni umumiy, umum tizimli, maxsuslarga ajratish mumkin.

*Sifat menejmenti umum tizimli tamoyilini* ko'rib chiqqanda, aytish lozimki, asosan va umumiy (negizli, asos soladigan) boshlang'ich tamoyil bo'lib, bu sifat menejmentini tizim ko'rinishda tasavvur etish hioblanadi. Bundan kelib chiqadiki, sifat menejmenti - butun korxonani tizimli menejmentini cheklangan tarkibiy qismidir. Tabiiyki, sifat menejmenti tizimi o'zidan o'zi ishlay olmaydi, boshqa menejment tizimlar bilan o'zaro bog'langan va aloqadordir. SHuning uchun, sifat menejmentida oldindan umumiy xolisona menejment tamoyillaridan foydalaniladi (demokratik markazlashgan balanslash, modiy va ma'naviy rag'batlantirish, yakka boshchilik va jamoatchilik, delegatlik huquqiga ega bo'lish, menejmentga ishchilarni qiziqishi va faol ishtirok etishi, meros va x.k.)

Shular qatorida sifat menejmentiga asosiy ijtimoiy boshqarish tamoyillarni ishlatish maqsadga muvofiq va ularga quydagilar tegishli:

- 1) *maqsadga erishish* - munosib usul yoki tizim yordamida ko'zlangan maqsad amalga oshadi;

- 2) *bo'linish* - shakllanadigan tizim dekompozitsiyasiga erishish, tizimning tizim osti va elementlarga bo'linishi;

- 3) *ierarxiya* - ko'p darajali tizim tarkibi yordamida delegatlik huquqi hisobi bilan munosib boshqarish amalga oshadi (bo'lim, maydon-joy, tsex, brigada va x.k.);

- 4) *komplektik* erishilgan o'zaro bog'lanish vijudga kelgan tizim, element, mahsulotning tsiklik bosqichi, ierarxiya darajasi va kompleks tashkil etilgan

iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy, ishlab chiqarish va boshqa tadbirlar sifatni boshqarishda foydalaniladi;

5) *o'zaro bog'liqlik*, vujudga kelgan sifat menejmenti tizimi va boshqa menejment tizimlari bilan o'zaro bog'liqligi yordamida amalga oshadi (bir maqsadni o'rnatish boshqa munosobatlarga yoki o'zaro bog'langan bir necha tizimlar maqsadini o'zaro bog'liq jarayonlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish;

6) *tutashtirish (bog'lanish)* sifat menejmenti umumiy funktsiyalarni (boshqarish jarayonlarini tutashtirish) tizimda bajarilishini amalga oshirish, tizim osti va umumiy funktsional tsiklni to'liq elementi, shu jumladan, bashoratlash va rejalashtirish, tashkilot ishlarini tashkillashtirish, muvofiqlashtirish va hokazo;

7) *tizimlilik* sifat menejmentining barcha ishlarini bajarilishini uzoq vaqt davom etishini va harakatning davomiyligini doimo aniqlaydi.

8) *meros va namoyon bo'lishi*, tizimni yaratishda hamda takomillashtirishda va unga harakat qilinganda ilg'or mahalliy va chet el sifat menejmenti tizimi tajribasidan foydalanish bilan ifodalash mumkin;

9) *oson va tushunarli bo'lishi*, har bir ishchini, sifat menejmentiga faqatgina mahsulotga emas, balki butun korxonada raqobatbardoshlikni ta'minlashga aloqadorligini tushinish orqali erishiladi.

### **Nazorat savollari**

1. Sifat soxasidagi qaysi xorijiy olimlarni bilasiz?
2. Maqsadga erishish atamasiga ta'rif bering.
3. Sifat menejmentining rivojlanish tarixi xaqida nimalar bilasiz?
4. Tizimlilik tushunchasiga ta'rif bering.
5. TQM nima?

### **21-mavzu. ISO 9000 seriyali standartlar, xorijiy davlatlarda sifatni boshqarish tizimlari**

21.1. ISO 9000 seriyali standartlar, xorijiy davlatlarda sifati boshqarish tizimlari KANARSPI, BIP, NORM, KS UKP tizimlarning yaratilishi, mohiyati va farqli jihatlari, ISO tashkiloti va uning faoliyati ISO 9000 seriyali standartlarni ishlab chiqilish tarixi, ISO 9000 seriyasida xalqaro standartlar mohiyati.

#### **21.1. ISO 9000 seriyali standartlar, xorijiy davlatlarda sifati boshqarish tizimlari KANARSPI, BIP, NORM, KS UKP tizimlarning yaratilishi, mohiyati va farqli jihatlari, ISO tashkiloti va uning faoliyati ISO 9000 seriyali standartlarni ishlab chiqilish tarixi, ISO 9000 seriyasida xalqaro standartlar mohiyati.**

Mahaliy amaliyotda mahsulot sifatini yaxshilash bo'yicha ishlarni tashkillashtirishga tizimli yondashishning mujassamligini galma-gal tartibda ko'rib chiqamiz (21.1-jadval).

I. Birinchilardan bo'lib paydo bo'lgan Mahsulotni nuqsonsiz tayyorlash MNT (Бездефектного изготовления продукции – ВІР) ishlarini tashkillashtirishning saratov tizimi 1950 yillarda keng tarqalgan.

Tizimning maqsadi – texnik hujatlardan chetga chiqmasdan ishchilar mahsulot tayyorlash jarayonini ta'minlovchi ishlab chiqarish shart-sharoitlarini yaratish. Ishchilar mehnati sifatini miqdoriy baholash uchun qo'llaniladigan asosiy mezonlar mahsulot birinchi paydo bo'lishi bilan foizlarda partiya miqdoriga foizli nisbati sifatida texnik nazorat bo'limi TNB (отдел технического контроля – ОТК) tomonidan aniqlagan. Tayyorlangan mahsulotning umumiy miqdoriga birinchi paydo bo'lgan mahsulot bilan solishtirish qabul qilingan. Aniqlangan shkala bo'yicha ijrochilarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish mahsulotni topshirish foiziga bog'liq bo'lgan.

Mahsulotni nuqsonsiz tayyorlash MNT tizimini joriy etish quyidagi imkoniyatlarni bergan:

- texnologik operatsiyalarni qat'iy bajarilishini ta'minlagan;
- ishchilarning mehnati natijalari sifati uchun shaxsiy javbgarlini oshirgan;
- ishchilarning mehnati sifati uchun kengroq moddiy va ma'naviy xursandligidan yanada samarali foydalanish;
- mahsulot sifatini oshirish uchun harakatlarni kengroq bajarish uchun shart-sharoitlarni yaratilgan.

Ma'naviy rag'batlantirish "Oltin qo'l ustasi", "Sifat a'lochisi" va boshqa unvonlarning yuzaga kelishi bilan amalga oshirilgan. O'z vatida TNB vazifasining tanlanma nazorati o'z-o'zini nazorat asosiga o'zgartirilgan. Sifat bo'yicha doimiy faoliyat olib borgan komisiya yaratilib va rahbariyat o'rtasida "Sifat kuni" o'tkazilib aynan ishchilarga bog'liq bo'lmagan oxirgi nuqsonlar aniqlangan.

II. Saratov tizimining Lvov varianti – nuqsonsiz mehnat tizimi NMT (система бездефектного труда – SBT) birinchi marta 1960 yillarda Lvov shahrida Lvov telegraf apparaturalari zavodida ishlab chiqilgan va boshqa ko'plab korxonalarda joriy qilingan.

Tizimning maqsadi – korxonaning har bir ishchilarini va ishlab chiqarish jamoasining mehnati natijalari uchun rag'batlantirish va javobgarligini oshirish yo'li bilan yuqori chidamli va pishiq, a'lo sifatli mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlashdir.

Asosiy mezonlar mehnat sifatini tavsiflovchi va moddiy kengaytirish o'lchamlarini aniqlovchi ishlab chiqarish intizomini buzilishiga yo' qo'ymaslik ahamiyati va miqdorini (haftalik, oylik, choralik) hisoblash yo'li bilan vaqt oralig'ida o'rnatilgan har bir jamoa va korxonaning har bir ishchisi uchun hisoblanadigan mehnat sifati koeffitsienti bo'lib hisoblanadi. Tizimda ishlab chiqarish intizomining buzilishini asosiy turlari klassifikatori (tasniflagichi) ya'ni har bir nuqsonga muvofiq aniqlangan kamaytirish koeffitsienti o'rnatiladi. Mehnat sifatini maksimal baholash va maksimal rag'batlantirish o'lchami

hisobot davrida bitta intizomni buzgani uchun shu ishchilar va jamoa tomonidan o'rnatiladi.

Nuqsonsiz mehnat tizimi NMTni joriy etish quyidagi imkoniyatlarni bergan:

- har bir ishchi, har bir jamoaning mehnati sifatini miqdoriy baholash;
- har bir ishchi, har bir jamoa o'zining mehnati sifati uchun qiziqishi va javobgarligini oshishi;
- korxonaning barcha ishchilarining mehnati va ishlab chiqarish intizomini oshishi;
- korxonaning barcha ishchilari mahsulot sifatini oshirish uchun musobaqalarga jalb etilgan;
- brak va shikoyatlardan yo'qotishlarni kamayishi va ishlab chiqarish oshib borgan.

Lvov NMT shuningdek, Saratov MNT tizimi mahsulotni tayyorlash bosqichida asosiy vosita sifatida keng tarqalgan.

III. Sifat, chidamli, birinchi mahsulot bilan resurs SCHBMR (kachestvo, nadejnost, resurs s pervyx izdely - KANARSPI) tizimi birinchi bor 1957-1958 yillarda Gorkiy shahri (Nijny Novgorod) mashinasozlik korxonasida ishlab chiqilgan va joriy etilgan. Bu tizimda ishlab chiqarish texnologlari va konstruktorlik byuroning ishlarini texnikaviy tayyorgarligini mustahkamlash hisobiga mahsulotning chidamliligini oshirishga tayangan. Bunda mahsulot ekspluatatsiyasida aniqlangan nuqsonlar 60-80 % ulushga kamaygan. Uzel, detallar, tizimlar va buyumlarning tajriba namunalari yaratilib, tadqiqot sinovlari o'tkazilgan. Tajribaviy ishlab chiqarish, standartlashtirish va unifikatsiyalash, Konstruktorlik hujjatlarining yagona tizimi (ESKD), Ishlab chiqarishni texnologik tayyorlash yagona tizimi (ESTPP) sifatida umumtexnikaviy standartlar tizimi paydo bo'lishi bilan sezilarli ravishda rivojlangan.

KANARSPI tizimi uchun xarakterli jihat mahsulotni tayyorlash bosqichlari doirasiga kiruvchi tadqiqot va loyihalash bosqichlarida hamda ekspluatatsiya bosqichidagi ko'p turdagi ishlarni qamrab olishi bilan ajaliy turadi. Tajriba namunasini tayyorlashda tadqiqot va loyihalash bosqichlarida rad etishlar sababini aniqlash va ularni ishlab chiqarishdan oldin bartaraf etishga katta e'tibor qaratilgan.

Bu masalalarni hal etish marketing va modellash usullarini keng ko'lamda qo'llash, tezlashtirilgan sinovlar hamda ishlab chiqarishni texnologik tayyorlash jarayonida mahsulotni konstruktorlik va texnologik qayta ishlash, unifikatsiya koeffitsientini oshirish, tadqiqot va eksperiment bazasini rivojlantirish hisobiga amalga oshiriladi. Mahsulotni ekspluatatsiyasi natijalari mahsulotni va uni tayyorlash texnologiyasi takomillashtirish uchun aks aloqa tizim sifatida ko'riladi. KANARSPIda nuqsonsiz mehnat va mahsulotni nuqsonsiz tayyorlash tamoyillaridan keng foydalaniladi.

Gorkiy oblastining bir qator korxonalarida KANARSPI tizimini joriy etish orqali quyidagi imkoniyatlarga erishilgan:

- yangi mahsulotni berilgan sifat darajasigacha me'yoriga yetkazishning muddati 2 – 3 marta qisqargan;
- ishlab chiqarilayotgan mahsulotning mustahkamligi 1,5 – 2 marta oshib, resurslar 2 martaga oshgan;
- montaj-yig'ish ishlari tsikli va mashaqqati 1,3 – 3 martaga kamaygan.

Mahsulot sifatini boshqarish va mahsulot sifatini yaxshilashni rejalashtirish bo'yicha bu mezonlar hamda mahsulotning butun hayotiy tsikli bo'yicha sifatga e'tibor NORM tizimi rivojlantirdi.

IV. Motoresursni oshirish bo'yicha mehnatni ilmiy tashkil etish (MITE) tizimi (nauchnaya organizatsiya truda po uvelicheniyu motoresursa – sistema NORM) 1963-1964 yillarda birinchi marta YAroslov motor zavodida shlab chiqilgan va joriy etilgan

Tizimning maqsadi – ishlab chiqarilayotgan dvigatellarning mustahkamligi va chidamliligini oshirishdir.

NORM tizimining asosini motosotda ifodalangan birinchi kapital ta'mirgacha dvigatel resursi bo'lib hisoblanib, tizimda asosiy ko'rsatkich me'yor (limint)langan motoresurs, detallar va uzellarning mustahkamligi va chidamliligini oshirish asosida davriy oshirish va motoresurslar darajasini navatma-navbat va tizimli nazorat qilish tamoyili tashkil etadi. Tizimda bu ko'rsatkichlarning o'sib borishi rejalashtiriladi.

Tizimda ishlarni tashkillashtirish tsiklik (davriylik) tamoyili bo'yicha quriladi. Motoresurslarni oshirish bo'yicha har bir yangi tsikl oldin rejalashtirilgan darajada motoresurs ishlab chiqarishda erishilgandan so'ng boshlangan va quyidagilar o'zida tutilgan:

- uning haqiqatdagi darajasini aniqlash;
- me'yorlovchi (limintlovchi) motoresurslar, detallar va uzellarni aniqlash;
- motoresurslarni oshirishning optimal darajasini rejalashtirish;
- rejalashtirilgan motoresurs darajasini ta'minlash bo'yicha muhandislik takliflarini ishlab chiqish va tekshirish;
- ishlab chiqarishda yangi resurslar bilan dvigatelni o'zlashtirish bo'yicha konstruktorlik va texnologik kompleks chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish;
- tajriba-tadqiqotlik ishlari va konstruktorlik, texnologik kompleks chora-tadbirlarni o'tkazish;
- ishlab chiqarishda erishilgan resurslarni mustahkamlash;
- ekspluatatsiyada erishilgan darajani qo'llab-quvvatlash.

NORM tizimi ishlab chiqarish bosqichida o'zida BIP va SBT tizimlarining qoidalarini va loyihalashtirish bosqichida KANARSPI tizimining asosiy qoidalarini qamrab oladi.

V. Lvov oblastining ilg'or korxonalarida 1975 yilda mahsulot sifatini boshqarishning kompleks tizimi MSBKT (kompleksnaya sistema upravleniya kachestvom produktsii - KSUKP) tizimi paydo bo'lgan.

KSUKP tizimining maqsadi – fan va texnikaning yutuqlari va eng yaxshi xalqaro andozalarga muvofiq mahsulotni yaratishdir. 1978 yilda Gosstandart tomonidan mahsulot sifatini boshqarishning asosiy vazifalari tizimi ishlab chiqildi va tasdiqlandi. Korxonalarda KSUKP tizimini joriy etish quyidagilar bilan bog'liqlikda bo'ladi:

- ishlab chiqarishni metrologik ta'minotini rivojlantirishga olib keldi;
- nuqsonlarni ko'p pog'onali tahlili;
- sifatni statistik nazorat qilish;
- sifat guruhi yaratildi;
- sifat dasturlarini ishlab chiqish boshlandi;
- mahsulotni attestatsiyalash kiritildi;

- bosh va tayanch tashkilotlarning tarmog'i va mahsulot sifatini boshqarish sohasida mutaxassislarning malakasini oshirish bo'yicha muassasalar tarmog'i keng ko'lam topdi, oliy ta'lim muassasalarida mahsulot sifatini boshqarish va standartlashtirish o'quv dasturlari kiritildi.

KSUKP yordamida 1985 yil, o'n yil davomida quyidagilar qayd etildi:

- raqobatbardosh mahsulotni yaratish va muvaffaqiyatli amalga oshirishga erishildi;

- mahsulotni oliy sifat toifasining solishtirmasi 2 – 3 martaga oshdi;
- brak va shikoyatlardan yo'qotishlar keskin qisqardi;
- yangi mahsulotni ishlab chiqish va uni o'zlashtirish muddati 1,5 – 2

marotabaga kamaydi.

Shuningdek, ko'plab korxonalarda sifatni boshqarish tizimini yaratishda kompleksli tizimli yondashish tamoyillari asosida boshqaruv tizimlari shakllangan.

VI. Korxona ichida mahsulot sifatini boshqarish tizimi yaratishda u o'z atrofida ko'plab muammolarni qamrab olgan. Ko'plab korxonalarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sifatini oshirish bo'yicha vazifalarni hal etish foydalanilayotgan resurslarning samarasi bilan mujassam bog'liqlikni hosil qilgan. Bunday tizim sifatida dnepropetrovskiy mahsulot sifatini boshqarishning kompleks tizimi va foydalanilayotgan resurslar samarasi - MSBKT va FRS (KSUKP i EIR) paydo bo'lgan.

Keyinchalik ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning kompleks tizimi - ICHSOKT (KSPEP) va nihoyat birlashma va korxonalarni boshqarish tizimi (GOST 24525) yaratildi.

Mahalliy sifat tizimlari

| Tizimning nomi                                                                                                                              | Qisqartirish                        | Yaratilgan yili<br>va joyi  | Tizimning asosiy<br>mohiyati                                                           | Boshqarish mezonlari                                                                                                                                                        | Boshqarish ob'ekti                                                                                       | Qo'llanish sohasi                                                                   |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------|-----------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------|
| 1. Mahsulotni sifatsizlashtirish tizimi<br>(Система снижения качества продукции)                                                            | MNT (SHIT)                          | 1955 yil,<br>Saratov        | Texnologik<br>operatsiyalarni qat'iy<br>bajartirish                                    | Yagona:<br>me'yoriy texnikaviy hujjatlar<br>talablariga muvofiq bo'lgan<br>sifatning muvofiqligi.<br>Umumiy:<br>birinchi qo'yilishi bilan<br>mahsulotni qabul qilish foziti | Xususiy bajarilgan ish<br>sifati.<br>Alohida bajarilgan mehnat<br>sifati ergali jamoa mehnati<br>sifati. | Ishtirok chiqarish                                                                  |
| 2. Nuqsonsiz mehnat tizimi<br>(Система бездефектного труда)                                                                                 | NMT (CST)                           | 1961 yil,<br>Lvov           | Barcha ishchilar yuqori<br>darajada<br>operatsiyalarni<br>bajartirish                  | Yagona:<br>O'rnatilgan talablarga muvofiq<br>natijani sifatning muvofiqligi.<br>Umumiy:<br>Mehnat sifati ko'rsatkichi                                                       | Xususiy bajarilgan ish<br>sifati.<br>Alohida bajarilgan mehnat<br>sifati ergali jamoa mehnati<br>sifati. | Mahsulot hayotiy<br>tashkiloti ixtiyoriy<br>bo'lsa ham                              |
| 3. Sifat, chidamlilik, birinchi mahsulot<br>bilan raqam<br>(качество, надежность, ресурс<br>первого изделия)                                | SCHENR<br>(КАНАРСИП)                | 1958 yil,<br>Grodno         | Yuqori darajadagi<br>konstruksiya va ishlab<br>chiqarishni texnologik<br>tashkilotlash | O'rnatilgan talablarga birinchi<br>sanoat mahsulot sifatining<br>muvofiqligi                                                                                                | Mahsulot sifati va jamoa<br>mehnatining sifati.                                                          | Loyihalar + ishlab<br>chiqarish<br>texnologik<br>tashkilotlash, ishlab<br>chiqarish |
| 4. Mehnatni oshirish bo'yicha<br>mehnatni ilmiy tashkilotlash<br>(метод научной организации<br>труда по<br>повышению производительности)    | MITTE (HOPAG)                       | 1964 yil,<br>Yaroslavl      | Mahsulotning<br>texnikaviy darajasini<br>oshirish                                      | Pog'onali rejalashtirishda<br>rejalashtirilgan<br>motorlarining yaratilgan<br>darajasiga muvofiqligi                                                                        | Mahsulot sifati va jamoa<br>mehnatining sifati.                                                          | Mahsulot hayotiy<br>tashkiloti barcha<br>bo'lsa ham                                 |
| 5. Mahsulot sifati oshirish tizimi<br>(комплексная система управления<br>качеством продукции)                                               | MSBKT<br>(КСУКП)                    | 1975 yil,<br>Lvov           | Standartlashtirish<br>asosida sifati<br>bajartirish                                    | Mahsulot sifatining fan va<br>texnikaning yuqori yutuqlariga<br>muvofiqligi.                                                                                                | Mahsulot sifati va jamoa<br>mehnatining sifati.                                                          | Mahsulot hayotiy<br>tashkiloti barcha<br>bo'lsa ham                                 |
| 6. Mahsulot sifati oshirish tizimi<br>(комплексная система управления<br>качеством продукции и<br>эффективностью использования<br>ресурсов) | MSBKT va<br>FRS<br>(КСУКП и<br>ЭФП) | 1980 yil,<br>Dnepropetrovsk | Mahsulot sifati<br>bajartirish va samarali<br>ishlab chiqarish                         | Sifati oshirish hisobiga<br>erishilgan ishlab<br>chiqarishning samaradorligi                                                                                                | Mahsulot sifati,<br>korxonaning iqtisodiy<br>ko'rsatkichlari.                                            | Mahsulot hayotiy<br>tashkiloti barcha<br>bo'lsa ham                                 |
| 7. Ishlab chiqarish samaradorligini<br>oshirish tizimi<br>(Комплексная система повышения<br>эффективности производства)                     | ICHSOKT<br>(КСПИП)                  | 1980 yil,<br>Krasnodar      | Mahsulot sifati<br>bajartirish va samarali<br>ishlab chiqarish                         | Sifati oshirish hisobiga<br>erishilgan ishlab<br>chiqarishning samaradorligi.                                                                                               | Mahsulot sifati,<br>korxonaning iqtisodiy<br>ko'rsatkichlari.                                            | Mahsulot hayotiy<br>tashkiloti barcha<br>bo'lsa ham                                 |

Sifatni boshqarish sohasida UzStandart agentligining texnikaviy siyosati mahalliy mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarda ISO 9000 seriyali xalqaro standartlar talablariga muvofiq sifat tizimini joriy etish bo'yicha harakatlarni amalga oshirishdir.

ISO 9000 seriyali standartlar – sifat menejmenti tizimini yaratish bo'yicha xalqaro standartlar turkumi bo'lib hisoblanadi.

ISO 9000 turkumli standartlari asosini to'rtta standart tashkil etadi va bular quyidagilar:

ISO 9000 – standarti, atamalar va shu bilan birga sifat menejmenti kontseptsiyasi;

ISO 9000 standarti sifatni boshqarish bo'yicha standartlar tizimi yoki ISO 9000 standartlar oilasida qo'llaniladigan bir qancha fundamental atamalarni ta'riflab, standartlarni anglash uchun asos qilib olingan xolati bo'lib hisoblanadi.

ISO 9001 standarti sifatni boshqarish tizimiga, ya'ni mahsulot yaratishda sizning layoqatingizni namoyish qilishga imkon berish, qo'llanilayotgan me'yoriy hujjatlar va iste'molchilarni qondiruvchi talablarni o'rnatadi.

ISO 9004 standarti barcha qiziquvchi tomonlar kutishini va ehtiyojlarni bajarish shaklida, sifatni boshqarish tizimini doimiy yaxshilash bo'yicha qo'llanmani taqdim etadi. Bu qiziquvchi tomonlarga iste'molchi va so'ngi foydalanuvchilarni, korxona xodimlari rahbarlari va direktorlar, mulkdorlar va hissadorlar hamda jamiyat tushuniladi.

ISO 9001 va ISO 9004 standartlari juft standartlarni tashkil etib, iste'molchilarni qoniqtirishga harakat qilish va doimiy taraqqiyotni rivojlantirish, tashkilotdagi jarayonlar va uning faoliyati bilan zamonaviy sifatini boshqarishni o'zaro aloqasini o'rnatadi. ISO 9001 standarti sifatni boshqarish tizimi natijaviyligi bilan iste'molchilar talablarini qonidirishga ahamiyat berish, xaridorlar va ta'minotchilar bilan shartnoma tuzishda yoki sertifikatlashtirishda foydalanishga asosiy e'tiborni qaratadi. Bundan farqli o'laroq, ISO 9004 standartidan sertifikatlashtirishda foydalanish mumkin emas, unda talablar o'rnatilmagan, balki, tashkilot ishlarini yaxshilash bo'yicha qo'llanma tartibidir. ISO 9004 standartining ISO 9001 standartidan farqli jihati nafaqat natijaviylik, balki, samaradorlikni e'tirof etilishidir.

Ularga ISO 19011 atrof-muhitni boshqarish tizimi va sifat menejmenti tizimi auditini o'tkazish bo'yicha rahbariy qo'llanmani o'zida namoyon qiluvchi universal standartini ham qo'shish mumkin.

Bulardan ISO 9001:2008 «Sifat menejmenti tizimi. Talablar» bu turkumning eng asosiy standartidir.

ISO 9000 standartiga ko'ra sifatni boshqarish tizimlari – tashkilot yoki korxonaning sifat sohasidagi siyosati va maqsadlarini, shuningdek bu maqsadlarga erishish uchun zarur bo'lgan yo'nalishlarni belgilagan holda, tadbirlar ishlab chiqish, yetarli darajada resurslar bilan ta'minlanishi va rahbarlik qilish uchun boshqarish tizimidir. Umuman olganda, sifatni boshqarish tizimi – mahsulot yoki xizmatlar yakuniy natijasining sifatli bo'lishini ta'minlashga


yo'nalgan holda korxonaning barcha ishlab chiqarish faoliyatini o'rnatilgan tartib va talablar asosida muntazam boshqarishdir. Bu, eng avvalom bor, korxona ichida xodimlarni ishlashi va o'zaro aloqalari bo'yicha zarur hajmda hujjatlashtiriladigan (uslubiy qo'llanmalar, protseduralar, korxona yo'riqnomalari va h.k. ko'rinishda) va chuqur o'ylangan tartib va qoidalar yig'indisidir.

Tashkilot yoki korxonada ISO 9000 seriyali xalqaro sifat standartlari asosidagi SBT joriy qilish quyidagilarga imkon yaratadi:

- korxonani maqsadlari, boshqarish vositalari va usullarini sifatga yo'naltirish;

- ma'muriy boshqarish samaradorligi;
- ishlab chiqarish davomiyligini qisqartirish;
- korxona bo'linmalari orasida o'zaro aloqani yaxshilash;
- nomuvofiqliklarni oldini olishga e'tiborni qaratish;
- xarajatlarni kamaytirish;
- mahsulot tannarxini kamaytirish;
- ishlab chiqarish samaradorligini oshirish;
- mahsulot (xizmat) lar sifati va raqobatbardoshligini doimiy oshirish;
- tashkilot obro'-e'tiborini oshirish;
- ta'minotchilarni tanlash, baholash va nazorat qilish;
- o'zgarayotgan bozor sharoitlariga tezkor va samarali yondoshish;
- iste'molchilar uchun doimiy ishonchlilik kafolatini ta'minlash;
- iste'molchilarni qanoatlanish darajasini doimo tahlil qilish va oshirish.

#### ISO 9000 guruh standartlari



21.1.1-rasm. ISO 9000 guruh standartlari

## **Nazorat savollari**

1. Sifat tizimiga minimal talablarni o'rnatish uchun nechta guruhli korxona standartlariga bo'lingan?
2. Sifat tizimiga minimal talablarni o'rnatuvchi guruhli korxona standartlarini aytib bering.
3. ISO 9000 seriyali standartlarni qisqacha ta'riflab bering.
4. ISO 9000:2000 standartiga o'tish fazasini tushuntirib bering.

## **22-mavzu. Menejment tizimlarini sertifikatlashtirish idoralariga umumiy talablar (ISO/IEC 17021)**

22.1. Menejment tizimlarini sertifikatlashtirish idoralariga umumiy talablar

22.2. Sifat menejmenti tizimini sertifikatlashtirish idoralari va ularni tashkillashtirish

### **22.1. Menejment tizimlarini sertifikatlashtirish idoralariga umumiy talablar**

Sifat menejmenti tizimlari va ishlab chiqarishlarni sertifikatlashtirish bo'yicha idoralar sifatida "O'zstandart" agentligining hududiy idoralari, SSTJTSITL, bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish bo'yicha idoralar va boshqa ishlab chiqaruvchi va iste'molchilarga tobe bo'lmagan va belgilangan talablarga javob beradigan boshqa tashkilotlar O'z DSt ISO/IEC 17021:2009 standarti talablariga muvofiq akkreditlanishi mumkin.

Ushbu standartning tuzilmasi bo'yicha sertifikatlashtirish idorlari quyidagi talablarni bajarishi lozim:

4-bo'lim. Tamoyillar: umumiy qoidalar; xolisonalik; layoqatlilik; javobgarlik; ochiqlik; maxfiylik; shikoyatlarga javob berish tamoyillarini belgilaydi.

5-bo'lim. Umumiy talablar: huquqiy va shartnoma masalalari; xolisonalikni ta'minlash; majburiyat va moliyalashtirishga talablar;

6-bo'lim. Tuzilmasiga talablar: tashkiliy tuzilma va yuqori rahbariyat; xolisonalikni himoyalar bo'yicha Kengashga talablar;

7-bo'lim. Resurslarga talablar: rahbar va xodimlarning layoqatlilik; sertifikatlashtirish bo'yicha faoliyatda xodimlarni jalb etilishi; tashqi auditorlar va tashqi texnik ekspertlarni jalb qilish; xodimlar to'g'risidagi yozuvlar; bilvosita (chetki) tashkilotlarni jalb qilishga tegishli talablar;

8-bo'lim. Axborotlarga talablar: keng miqyosda foydalaniladigan axborotlar; sertifikatlashtirishga taluqli hujjatlar; sertifikatlangan tashkilotlarning ro'yxati; sertifikatga havolalar va belgilardan foydalanish; maxfiylik; sertifikatlashtirish idorasining mijozlar bilan o'zaro axborot almashinuviga talablar;

9-bo'lim. Jarayonlarga talablar: umumiy talablar; boshlang'ich audit va sertifikatlashtirish; nazorat bo'yicha faoliyat; qayta sertifikatlashtirish; maxsus auditlar; sertifikatlashtirish amal qilish sohasini qisqartirish, to'latish yoki bekor qilish; apellyatsiya; shikoyatlar; arizachilar va mijozlar to'g'risidagi yozuvlarga talablar;

10-bo'lim. Sertifikatlashtirish idorasi menejmenti tizimiga talabalar keltirilgan.

Menejment tizimlarini (MT) sertifikatlashtirish idoralariga, shuningdek, sifat menejmenti tizimini sertifikatlashtirish idoralari O'z DSt ISO/IEC 17021:2009 (ISO/IEC 17021:2006) va ISO/IEC 62 talablariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish milliy tizimida akkreditlangan sertifikatlashtirish idoralar sertifikatlashtirishni amalga oshiradi. Har bir akkreditlangan sertifikatlashtirish idoralari, akkreditlashtirish idorasi tomonidan tasdiqlagan faoliyati bo'yicha sertifikatlashtirish ro'yxati, ushbu idora uchun ruxsat etilgan akkreditatsiya sohasi bo'lishi shart. Sertifikatlashtirish faoliyatlari sohasining umumiy ro'yxati, ya'ni Xalqaro akkreditlashtirish bo'yicha forum IAF GD 2:2005 "ISO/IEC 62:1996 qo'llash bo'yicha tavsiyalar" aniqlangan bo'lib, u 22.1-jadvalda keltirilgan.

Menejment tizimlarini sertifikatlashtirish idoralari O'z DSt ISO/IEC 17021:2009 standarti talablariga muvofiq bo'lishi va ularda sifat tizimi ishlab chiqilgan bo'lishi lozim.

MT sohasida sertifikatlashtirish protsedurasi bo'yicha qaror qabul qiluvchi auditorlar malakasi O'z DSt ISO 19011 yoki O'z RH 51-014 ga muvofiq tasdiqlangan bo'lishlari lozim va ular O'z RH 51-21 bo'yicha davlat reestrda ro'yxatga olingan bo'lishlari shart.

MT sertifikatlashtirish "O'zstandart" agentligi tasdiqlagan menejment tizimlarini sertifikatlashtirish qoidalari va O'z DSt ISO 19011 hisobga olib menejment tizimlarini sertifikatlashtirish idoralari ishlab chiqqan protsedura hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi. Audit uchun zaruriy qo'shimcha talablar O'z DSt ISO 9001, ISO 14001, OHSAS 18001 va boshqa standartlarda belgilangan.

Sertifikatlashtirish idorasi va uning auditorlari hamda barcha mutaxassisilari, shuningdek, auditorlik guruhi ishida qatnashishga jalb qilingan subpudratchilar arizachi-tashkilotning auditi jarayonida olingan barcha ma'lumotlarni maxfiylikiga rioya etishi va mustaqil, layoqatli bo'lishi shart.

### **Tashkilotlarni faoliyat sohasi bo'yicha EA va NACE kodlari ro'yxati**

22.1-jadval

| A<br>Kod-<br>lari | Faoliyat sohasining nomlanishi                | NACE kodlari |
|-------------------|-----------------------------------------------|--------------|
|                   | Qishloq xo'jaligi va baliqchilik              | A,B          |
|                   | Kon va rudalarni qazib olishni ishlab chiqish | C            |

|                                                                                                  |                    |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------|
| Oziq-ovqat, salqin ichimlik va tamaki mahsulotlar                                                | DA                 |
| To'qimachilik va to'qimachilik mahsulotlar                                                       | DB                 |
| Charm va teri mahsulotlar                                                                        | DC                 |
| Yog'och va yog'och mahsulotlar                                                                   | DD                 |
| Sellyuloza, qog'oz va qog'oz mahsulotlar                                                         | DE 21              |
| Nashriyot kompaniyalar                                                                           | DE 22.1            |
| Tipografiya                                                                                      | DE 22.2,3          |
| Rafinatsiyalangan neft mahsulotlarini va koks ishlab chiqarish                                   | DF 23.1,2          |
| Atom energiyasi                                                                                  | DF 23.3            |
| Kimyoviy mahsulotlar va tola                                                                     | DG except 24.4     |
| Farmatsevtika preparatlari                                                                       | DG 24.4            |
| Rezina va plastmassa mahsulotlar                                                                 | DH                 |
| Nonmetalli mineral mahsulotlar                                                                   | DI except 26.5,6   |
| Beton, sement, so'ndirilgan ohak, qurilish gipsi va h.k.                                         | DI 26.5,6          |
| Metallar va metallardan olingan mahsulotlar                                                      | DJ                 |
| Mashinasozlik va qurilmalar                                                                      | DK                 |
| Elektrotexnik va optik qurilmalar                                                                | DL                 |
| Kemasozlik                                                                                       | DM 35.1            |
| Havo vositalari                                                                                  | DM 35.3            |
| Boshqa transport vositalari                                                                      | DM 34, 35.2,4,5    |
| Ishlab chiqarish (boshqa bandlarda ko'rsatilmagan)                                               | DN 36              |
| Chiqindilarni qayta ishlash (utilizatsiya)                                                       | DN 37              |
| Elektr ta'minoti                                                                                 | E 40.1             |
| Gaz ta'minoti                                                                                    | E 40.2             |
| Suv ta'minoti                                                                                    | E 41, 40.3         |
| Qurilish, konstruksiyalar                                                                        | F                  |
| Ulgunji va chakana savdo, mashinalarni ta'mirlash, mototsikllar, xo'jalik va shaxsiy mahsulotlar | G                  |
| Mehmonxonalar va restoranlar                                                                     | H                  |
| Tashishi, saqlash (omborlar) va kommunikatsiya                                                   | I                  |
| Moliyaviy ko'maklashish (yordam); ko'chmas mulk, ijara                                           | J, K 70, 71        |
| Informatsion texnologiyalar                                                                      | K 72               |
| Muhandislik xizmatlari                                                                           | K 73, 74.2         |
| Boshqa xizmatlar                                                                                 | K 74 except K 74.2 |
| Jamiyatrni boshqarish                                                                            | L                  |
| Ta'lim                                                                                           | M                  |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ishlar                                                             | N                  |
| Boshqa ijtimoiy ishlar                                                                           | O                  |

## 22.2. Sifat menejmenti tizimini sertifikatlashtirish idoralari va ularni tashkillashtirish

Menejment tizimini sertifikatlashtirish idoralari sertifikatlashtirish audit jarayoni quyidagi bosqichlarda amalga oshirish lozim:

- tekshirilayotgan tashkilot bilan boshlang'ich bog'lanishni o'rnatish;
- sertifikatlashtirishga arizani berish va ko'rib chiqish;
- ariza bo'yicha qaror qabul qilish;
- tashkilot hujjatlarini tahlil qilish;

- dastlabki audit (audit o'tkazish joyiga dastlabki kelib ko'rish);
- sertifikatlashtirishni o'tkazishga tayyorlash (joyida audit);
- sertifikatlashtirish auditi (joyida audit);
- kuzatishda olinganlarni tahlil qilish va audit natijalari bo'yicha xulosa tayyorlash, ro'yxatga olish va muvofiqlik sertifikatini berish;
- sertifikatlashtirilgan MT muvofiqlik sertifikati amal qilish muddati davomida inspeksion nazorati.

Sertifikatlashtirish idorasi bog'lanishni o'rnatishda arizachiga o'zining akkreditatsiya sohasi, sertifikatlashtirish protsedurasi, ariza shakli va yuridik manzillari haqida to'liq ma'lumotlarni taqdim qiladi. Bunda kelgusida sertifikatlashtirish protseduralari uchun zuriy bog'lanuvchi shaxs, tashkilot manzili, telefon, menejment tizimining qo'llanish sohasi, tashkilotning boshqa ma'lumotlari aniqlanib, belgilanadi.

MT sertifikatlashtirishga talabgor tashkilot, milliy tizimda akkreditlangan MT sertifikatlashtirish bo'yicha idoraga ariza jo'natadi. Ariza bo'yicha ijobiy qaror bo'lsa, arizachi-tashkilot sertifikatlashtirish bo'yicha idoraga sifat qo'llanmasi, majburiy hujjatlashtirilgan protseduralar, asosiy jarayonlar bo'yicha hujjatlar va sertifikatlashtirish bo'yicha idora so'rovi yoki arizachi-tashkilot qiziqishi bo'yicha boshqa hujjatlarni taqdim qilishi lozim.

Sertifikatlashtirish bo'yicha idoraga taqdim qilingan arizada MT qo'llanish sohasini va sertifikatlashtirish sohalari o'zining akkreditlash sohasi bilan muvofiqligini aniqlab aniq va ravshan tasdiqlashi lozim.

Tekshirilayotgan tashkilot hujjatlarni tahlil qilishni audit mezonlariga muvofiqligini aniqlash maqsadida o'tkazadi. Tahlil qilishda tashkilotning faoliyati turlari, o'lchami va murakkabligini hamda audit o'tkazish sohasi va maqsadlarini hisobga olinishi lozim.

Buyurtmachining talabi bo'yicha, maxfiylikka rioya qilish maqsadida, hujjatlar tahlili buyurtmachi auditi o'tkazilguncha joyida o'tkazilishi mumkin.

Alohida holatlarda, agarda audit o'tkazish natijalariga zarar keltirmasa hujjatlar tahlili audit o'tkazish davomida joyida o'tkazilishi mumkin.

Hujjatlar tahlilini, SI MT sertifikatlashtirish bo'yicha idora rahbari yoki auditorlar guruhi rahbari tayinlagan xodimlar amalga oshirishadi.

Dastlabki audit buyurtmachi tashilotda zaruriyat tug'ilganda masalan, auditni rejalashtirishda zuriy ma'lumotlarni olish uchun yoki agarda hujjatlar tahlili natijalari jiddiy nomuvofiqliklar mavjudligini ko'rsatsa, sertifikatlashtirish auditini o'tkazish imkoniyati to'g'risida xulosa chiqarish mumkin emas. Dastlabki audit korxonani sertifikatlashtirish auditga tayyorligini tekshirish uchun buyurtmachining hohishi bo'yicha ham o'tkazilishi mumkin.

Hujjatlar tahlili dastlabki audit natijalari ijobiy bo'lsa, auditorlar guruhi belgilanadi. Komissiya tarkibiga 22.1-jadvalda keltirilgan kodlar bo'yicha malakaga ega bo'lgan va sertifikatlashtirish bo'yicha idoraning akkreditlashtirish sohasiga muvofiq auditorlar va zaruriyat tug'ilgan holatlarda ekspertlar kiritiladi.

Auditorlar guruhi rahbari sertifikatlashtirish auditining rejasini ishlab chiqadi va tekshirilayotgan tashkilot bilan oldindan kelishib oladi. Guruh rahbari, komissiya a'zolarini tekshirish ob'ektlariga taqsimlaydi, ular oldindan audit uchun savolnoma tayyorlaydilar.

Xalqaro akkreditlashtirish bo'yicha forumi IAF GD 2:2005 «ISO/MEK 62:1996 qo'llash bo'yicha tavsiyalar»da tavsiya qilingan ekspert-auditorlar ish kuni miqdori bo'yicha adit hajmi aniqlanadi.

MT auditini o'tkazish texnologiyasi quyidagi jarayonlarni o'z ichiga oladi:

- mavjud hujjatlarni tekshirish;
- hujjatlarni boshqaruvchanligiga standartlarda o'rnatilganlarga muvofiqligi va ichki talablariga tekshirish;
- MT hujjatlari talablarini xodimlar bajarishini tekshirish;
- o'rnatilgan shaklda bayonnomalarga nomuvofiqliklarni va auditorlar hisobotlarini MT muvofiq dalillarni qayd etish.

Auditorlar guruhi rahbari audit kuzatuvida olinganlarga asosan audit haqida hisobot tayyorlaydi. Hisobot O'z DSt ISO 19011 talabiga muvofiq tayyorlanib va arizachiga kelishilgan muddatda berilishi lozim.

Yakuniy yig'ilishda auditorlik guruhi audit natijalari, shuningdek, aniqlangan nomuvofiqliklar va kelgusida sertifikatlashtirish bo'yicha idora va arizachi o'rtasidagi o'zaro faoliyatlar to'g'risida ma'lumot beradi.

Sertifikatlashtirish jarayonida yig'ilgan ma'lumot, MT SI sertifikatlashtirish bo'yicha, qarorni qabul qilishida asoslashga yetarli bo'lishi lozim.

Sertifikatlashtirish barcha ro'yxatga olingan nomuvofiqlik bayonnomalari bartaraf qilinmasdan va sertifikatlashtirish bo'yicha idora auditorlari (tashkilotlarni qatnashishi yoki boshqa yo'l bilan) tuzatish harakatlarni tekshirmasdan oldin tugatilishi mumkin emas.

Auditorlik guruhi qaror qabul qilish uchun audit mezonlariga muvofiq audit davomida yig'ilgan boshqa ma'lumotlarni va audit kuzatuvini tahlil qiladi va bu to'g'risida xulosa tayyorlaydi.

Arizachi-tashkilotga sertifikatni berish yoki bekor qilish to'g'risidagi qarorni sertifikatlashtirish idorasi, sertifikatlashtirish jarayonida yig'ilgan ma'lumotlar va sertifikatlashtirish faoliyatiga taaluqli, ixtiyoriy boshqa ma'lumotlar asosida qabul qiladi. Auditga qatnashishga qabul kilingan xodim, sertifikatlashtirish bo'yicha qarorni qabul qilishda qatnashishi shart emas.

Sertifikatlashtirish bo'yicha idora ijobiy xulosa bo'lgan holatda O'z RH 51-021ga muvofiq davlat reestri tizimiga kiritish va ro'yxatga olish uchun sertifikatlashtirish milliy idorasiga taqdim etadi va o'rnatilgan shaklda sertifikat rasmiylashtiradi. Sertifikatlashtirish idorasi ro'yxatga olganidan so'ng arizachiga sertifikat bilan birga muvofiqlik belgisini qo'llash va inspeksion nazoratini o'tkazish shartnomalarini beradi.

Sifat tizimlari va ishlab chiqarishlarni sertifikatlashtirish bo'yicha akkreditlangan idoralar quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshirishadi:

- Sifat tizimlarini dastlabki baholashini o'tkazadi va sertifikatlashtirishni o'tkazish uchun shartnomalar tuzadilar;
- ishlab chiqarishlarni sertifikatlashtirish usuliyatlarini va sifat tizimlarini tekshirish dasturlarini ishlab chiqadilar;
- sifat tizimi yoki ishlab chiqarishning auditini o'tkazadi;
- sifat tizimi yoki ishlab chiqarish sertifikatlarini rasmiylashtiradi, sertifikatni beradi va tan oladilar;
- sertifikatlashtirilgan sifat tizimlari va ishlab chiqarishlar ustidan inspeksion nazoratni amalga oshiradilar;
- sertifikatlashtirish natijalari haqida ma'lumot beradilar.

Sertifikatlashtirish bilan bog'liq bo'lgan faoliyatda faol qatnashuvchi shaxs bu ekspert - auditoridir. U odatda Sifat tizimlarini, ishlab chiqarishni va mahsulotni sertifikatlashtirishda sinov laboratoriyalarini akkreditlashda va boshqa ishlarda qatnashishi mumkin.

### **Nazorat savollari**

1. O'z DS ISO/IEC 17021:2009 standartini qisqacha tavsiflab bering.
2. ISO/IEC 17021:2009 ga ko'ra sertifikatlashtirish idoralariga qanday talablar qo'yiladi?
3. Meneyment tizimini sertifikatlashtirish idoralari sertifikatlashtirish auditi jarayoni qanday bosqichlarda amalga oshiriladi?
4. Ekspert-auditor kim?
5. Ekspert-auditor qanday talablarga javob berishi lozim?
6. O'zbekistonda ekspert-auditorlarning o'quv kurslari qaysi tashkilot tomonidan tashkillanadi?

## **23-mavzu. Sifat menejmenti tizimiga talablar**

### **23.1. Sifat menejmenti tizimining umumiy qoidalari**

#### **23.1. Sifat menejmenti tizimining umumiy qoidalari**

Tashkilot ISO 9001 (IATF 16949) xalqaro standartiga muvofiq sifat menejmenti tizimini ishlab chiqdi, hujjatlashtirdi, joriy etdi va uni ishchi holatda saqlash va doimiy takomillashtirish ishlarini amalga oshiradi.

Sifat menejmenti tizimini yaratishdan maqsad:

- iste'molchi, shuningdek korxona mahsulotiga qo'yilgan qonun va me'yoriy talablarni qanoatlantirish imkoniyatiga ega bo'lgan yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarish;
- iste'molchilarning o'sib borayotgan talablarini doimiy takomillashtirish tamoyillariga asoslangan jarayonlar va samarali tizim orqali qanoatlantirish;
- oldini oluvchi choralarni qo'llash bilan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nuqson va o'zgartirishlarni kamaytirish;

- doimiy takomillashtirish asosida samaradorlikka erishish va mahsulot yetkazish zanjiridan ortiqcha harajatlarni kamaytirish;

- korxona raqobatbardoshligini ta'minlash;
- xodimlar manfaatdorligini oshirish;
- barcha manfaatdor tomonlarni ishonchini oshirish.

Sifat menejmenti tizimi korxona boshqaruv tizimining ajralmas qismi bo'lib unda korxonaning barcha ko'lamida sifatni ta'minlashga qaratilgan talablar qo'yilgan.

Sifat menejmenti tizimi korxonaning tashkiliy tuzilmasi, jarayonlar, javobgarlik va huquqlar, hujjatlar majmuasi, ish uslublari, shuningdek ishlab chiqarilayotgan mahsulotni sifatini ta'minlash maqsadida zarur bo'ladigan resurslar va boshqalardan iborat.

Tashkilotda sifat menejmenti tizimini joriy qilishda ISO 9001 va IATF 16949 xalqaro standartlarining talablariga muvofiq quyidagilar amalga oshirildi:

- sifat menejmenti jarayonlari, ularning ketma-ketligi va o'zaro bog'liqligi aniqlandi;

- jarayonlar rahbarlari aniqlandi va ular o'z jarayonlari faoliyati to'g'risida davriy ravishda sifat bo'yicha rahbariyat vakiliga hisobotlar topshirilishi ta'minlanadigan bo'ldi.

Jarayonlarning to'la tavsifi, ya'ni kirish va chiqish ma'lumotlari, kerakli resurslar, natijaviylikni baholash mezon va usullari, jarayonni samarali faoliyatini ta'minlovchi uslublar mazkur qo'llanmada aks ettirilgan. Shuningdek jarayonlarning faoliyatini yoritish korxona standartlari, texnologiya me'yoriy talablari, nazorat standartlari va boshqalarda ko'rsatilgan.

Korxona o'zining tashkiliy tuzilmasi va ishlab chiqarish xususiyatidan kelib chiqib, SMT jarayonlarini quyidagi tarkibini aniqlaydi:

- SMTni boshqarish jarayoni
- rejalashtirish jarayoni;
- xarid jarayoni;
- texnologiya;
- ishlab chiqarish jarayoni;
- sotuv jarayoni;
- monitoring va o'lchashlar jarayoni;
- ishlab chiqarish mashina-jihozlariga texnik xizmat ko'rsatish jarayoni;
- xodimlarni boshqarish jarayoni;
- infratuzilmani boshqarish jarayoni;
- mehnat muhofazasi jarayoni.

Jarayonlarning natijaviyligini ta'minlash maqsadida monitoring va zarur hollarda o'lchash va sinash ishlari amalga oshiriladi. Agar jarayonda rejalashtirilgan natijalarga erishilmasa korxonaning "Tuzatuvchi va oldini oluvchi choralar" standartiga asosan tuzatuvchi va oldini oluvchi choralar ko'riladi.

Joriy qilingan sifat menejmenti tizimida mahsulot sifatiga ta'sir qiluvchi tashqi jarayonlar aniqlanmadi.

Sifat menejmenti tiziminining samarali ishlashi korxonaning har bir xodimiga uning vazifalarini aniq ishlab chiqish va yetkazish, hamda xodimlar o'zlariga qo'yilgan talablarni sifatli va to'la bajarishi orqali ta'minlanadi.

Amaldagi talablar o'zgarayotgan sharoitlarga doimiy ravishda muvofiqlash uchun tahlil qilib boriladi.

Jarayonlar samarali boshqarilishini ta'minlashda quyidagi hujjatlar ishlab chiqilib, aniqlangan:

- sifat siyosati;
- sifat ko'lam maqsadlari;
- sifat qo'llanmasi;
- korxona standartlari;
- nazorat standartlari;
- texnologik hujjatlar, ishchi yo'riqnomalar;
- lavozim yo'riqnomalari va layoqat talabnomalari;
- tashqi hujjatlar (ISO, GOST, davlat standartlari va boshqalar)

SMT hujjatlarini boshqarish maqsadida korxonada "Hujjatlarni boshqarish" standarti ishlab chiqiladi.

Ushbu standart quyidagi talablarni o'z ichiga oladi:

- hujjatlarni boshqarish bo'yicha javobgarlik va huquqlar;
- hujjatlarni ishlab chiqish, kelishish va tasdiqlash tartibi;
- hujjatlarni ishchi holatda saqlash;
- davriy ravishda hujjatlarni qayta ko'rib chiqish;
- hujjatlarga o'zgartirishlar kiritish tartibi;
- hujjatlarni «Kerakli hujjat, kerakli joyda va kerakli vaqtda» tamoyiliga

asosan tarqatish tartibi;

- eskirgan hujjatlarni yig'ib olish tartibi;
- tashqi hujjatlarni boshqarish tartibi.

Hujjatlar SMT ish faoliyatini ko'rsatuvchi asos hisoblanadi. SMT ga o'zgartirishlar kiritilayotganda SMT bo'yicha rahbariyat vakili uning to'raligini ta'minlashga javobgardir. SMT hujjatlari xodimlarni tizimning ishlashi haqida xabardor qiluvchi asosiy elementlardan biri hisoblanadi.

SMT hujjatlarini joriy qilish va ularga o'zgartirishlar kiritilganda tegishli xodimlar o'qitiladi. O'qitish natijalari rasmiylashtiriladi.

SMTni ISO 9001 va IATF 16949 xalqaro standartlari, iste'molchi va boshqa manfaatdor tomonlar talablariga muvofiqlik darajasini baholashda SMT bo'yicha rahbariyat vakili korxonada ichki auditlar o'tkazilishini ta'minlaydi. Ichki auditlarni rejalashtirish, tasdiqlatish va o'tkazish mas'uliyati SMT bo'yicha rahbariyat vakiliga yuklatilgan. SHuningdek u ichki auditlarni tashkil qilish, hujjatlashtirish, nazorat qilish va auditning samaradorligini ta'minlashni ham boshqaradi. Ichki auditlar korxonaning "Ichki auditni boshqarish" standarti

bo'yicha rejalashtiriladi va o'tkaziladi. Ushbu standart quyidagi talablarni o'z ichiga olgan:

- ichki auditlarni rejalashtirish va o'tkazishda jarayon/bo'limlar holati va ahamiyatini hisobga olish;

- ichki auditlarni rejalashtirish va o'tkazishda avvalgi audit natijalarini hisobga olish;

- audit o'tkazish usullari, ko'lam va mezonlarini aniqlash;

- auditorlarni tanlashda mustaqillik tamoyiliga amal qilish;

- auditorlarni malakasiga qo'yilgan talablar;

- audit natijalarini hujjatlashtirish tartibi;

- tuzatuvchi choralarni amalga oshirish va ularning natijasini tekshirish;

Aniqlangan va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nomuvofiqliklarni bartaraf qilish uchun korxonaning "Tuzatuvchi va oldini oluvchi choralar" standarti ishlab chiqiladi. Ushbu standart quyidagi talablarni o'z ichiga oladi:

- nomuvofiqliklarni tahlil qilish tartibi (shu jumladan, iste'molchilar e'tirozlari bo'yicha ham)

- nomuvofiqlikni bartaraf qilish bo'yicha ishlarni amalga oshirish;

- nomuvofiqlik sababini aniqlash;

- tuzatuvchi va oldini oluvchi choralarga zaruriyat borligini aniqlash;

- muammoning muhimligini aniqlash;

- tuzatuvchi va oldini oluvchi choralarni aniqlash va bajarish;

- bajarilgan choralarni samarasini tekshirish;

- yozuvlarni ro'yxatga olish.

Jarayon rahbarlari tuzatuvchi va oldini oluvchi choralarni amalga oshirishga mas'ul xisoblanadilar.

SMT jarayonlarini faoliyat natijalarini baholash uchun ularning rahbarlari tomonidan rahbariyat vakiliga bir yilda bir marotaba hisobot tayyorlanishi o'rnatilgan.

Jarayonlar rahbarlari ushbu hisobotni tayyorlashda rejalashtirilgan maqsadlar va natijalarga erishish darajasini tahlil qilishga oid yo'nalishlarni hisobga oladilar. Jarayonlar natijaviyligini baholash o'rnatilgan mezonlar bo'yicha amalga oshiriladi.

### **Nazorat savollari**

1. Sifat qo'llanmasi nima?

2. Tuzatuvchi va oldini oluvchi choralar nima?

3. Jarayon atamaliga tarif bering.

4. IATF 16949 nima?

5. Tuzatish nima?

## **24-mavzu. Sifat menejmenti tizimini sertifikatlashtirish**

24.1. ISO 9001 standarti talablari asosida sifat menejmenti tizimi tamoyillari.

24.2. Sifat tizimlarini sertifikatlashtirishning asosiy qoidalari (O'zRH 51-025), sifat tizimlarini sertifikatlashtirishni o'tkazish tartibi (O'zRH 51-027).

### **24.1. ISO 9001 standarti talablari asosida sifat menejmenti tizimi tamoyillari.**

Sifat menejmenti tizimi tamoyillari va ularning tavsiflari hamda ISO 9001 standarti talablari bilan bog'liqligi to'g'risida to'xtalib o'tmoqchimiz.

ISO 9000 xalqaro standarti sifat menejment tizimi asosiy tushincha, printsip va atamalarni, qaysiki universal tavsif va qo'llash mumkin bo'lgan:

-tashkilot, sifat menejmenti tizimini joriy etish orqali turqin muvoffaqiyatga intiluvchi;

-iste'molchi, tashkilotni talab etilgan mahsulotni yetkazishi va xizmat ko'rsatish xususiyatiga ishonch va uni talabi qanoatlanirish-ini hohlovchi;

-tashkilot, mahsulot yetkazish va xizmat ko'rsatish zanjiri talablarni bajarilishiga ishonchli bo'lishini hohlovchi;

-tashkilot va manfaatdor tomonlar sifat menejmenti tizimidagi yagona atamalarni qo'llash orqali, o'zaro tushinishni takomillashtirishga erishmoqchilar;

-tashkilot, ISO 9001 talablariga muvofiqqligini baholashni hohlovchi;

-kimki, sifat menejmenti ko'lamini baholash yoki maslahat berish, o'qitish olib boruvchilar;

-oilaga kiruvchi standartlarni ishlab chiquvchilar.

### **QMP 1-tamoyil Iste'molchini jalb etish**

**Mazmuni:** Sifat menejmentini asosiy e'tiborni iste'molchilar talablarini ta'minlash va ularni istaklarini ortig'i bilan bajarishga yo'naltirilgan (ISO 9000:2015, 2.3.1).

**Ma'qulligi:** Yuksak muvoffaqiyatga erishiladi, qachonki tashkilot iste'molchi-lar va boshqa manfaatdor tomonlar ishonchini egallasa va uni saqlasa.

Har qanday iste'molchi bilan aloqador jihatlar uni uchun katta imkoniyatlar eshigini ochib beradi.

Iste'molchi va boshqa manfaatdor tomonlarni bugungi va kelgusidagi ehtiyojlarini tushinishi tashkilotni mustahkam muvoffaqiyatga erishishiga olib keladi.

#### **Asosiy ustunligi:**

- iste'molchilar uchun qiymatni qaytarilishi;
- iste'molchilar qanoatlanishini qaytarilishi;
- iste'molchilar sodiqlikni qaytarilishi;
- takror buyurtmalar sonini qanoatlanishi;

- tashkilot obro'ni ortishi;
- xaridorlar geografiyasini kengayishi;
- bozordagi ulushi va foydasini ortishi.

#### **Imkoniyat choralari:**

- tashkilot kimga qiymat yaratish uchun bevosita va bilvosita bo'lgan iste'molchilarni aniqlashi;
- iste'molchilarni hozirdagi va kelgusidagi ehtiyojini aniqlashi;
- tashkilot maqsadlari bilan iste'molchining ehtiyoji va kutayotgan istagini bog'lashi;
- iste'molchini ehtiyoji va kutayotgan istagini tashkilotning barcha xodimlariga yetkazishi;
- iste'molchini ehtiyoji va kutayotgan istagini qanoatlantirish maqsadida mahsulot va xizmatni rejalashtirish, loyihalash, ishlab chiqarish, yetkazish va keyingi xizmat ko'rsatish aniqlashi;
- iste'molchini qanoatlanganligini, muvofiq amallar bajarilganligini monitoringi va o'lchashlarni olib borishi;
- manfaatdor tomonlarni ehtiyoji va istagiga aloqador, qaysiki iste'molchini qanoatlantirishga ta'sir etuvchi amallarni aniqlashi va bajarishi;
- mustahkam natijalarga erishish uchun xaridorlar bilan munosabatlarni faol boshqarishi.

### **QMP 2-tamoyil Yetakchilik**

**Mazmuni:** Tashkilot sifat doirasida qo'yilgan maqsadlarga erishishda xodimlarni jalb etishi, barcha darajadagi yetakchilar, yagona maqsadni ta'minlashi va takomillashtirish muhitni yaratishda yetakchi bo'lishlari lozim (ISO 9000:2015, 2.3.2).

**Ma'qulligi:** Yagona maqsadni ta'minlash va rivojlantirishga yo'naltirish, hamda xodimlarni jalb etishda, tashkilot o'zining strategiyasi, siyosati, jarayonlari bilan kelishga va maqsadlarga erishish uchun resurslarga ega bo'lishi.

Etakchilik - bu ma'muriy faoliyati bo'lmay, balki yetakchi yagona maqsad va unga erishishda xodimlarni yetaklashi va o'zni baxshida etishi lozim!

#### **Asosiy ustunligi:**

- tashkilotning sifat borasidagi maqsadlarga erishishda natijaviylik va samaradorlikni qaytarilishi;
- tashkilot jarayonlarni eng yaxshi muvofiqlashtirishi;
- tashkilot daraja va vazifalari o'rtasida xabardorlikni takomillashtirishi;
- tashkilotning rivojlantirish va takomillashtirish xususiyati, hamda uni xodimlarni zarur natijalarga erishish darajasini oshirishi.

#### **Imkoniyat choralari:**

- barcha xodimlarga tashkilotning missiyasi, uzoqni ko'ra olishi, strategiyasi, siyosati, yaqin maqsadlari va jarayonlarini yetkazishi;

- tashkilotning barcha darajasida umumiy qadriyatlar, rostgo'ylik va madaniyat (etika) printsiplarni yaratilishi va saqlanishi;
- ishonch va yakdillik muhitini yaratilishi;
- sifat natijalariga erishganlikda barcha xodimlarini qo'shgan xissaga muvofiq rag'batlantirilishi;
- barcha darajadagi yetakchilarni tashkilot xodimlari uchun ijobiy namuna bo'lishini ta'minlanishi;
- o'z javobgarliklarini amalga oshirishlari uchun xodimlarga zarur resurslar, tayyorgarlik va huquqlar berishi;
- xodimlarni qo'shgan hissasini o'z vaqtida e'tirof etilishi va rag'batlantirilishi.

### **QMP 3-tamoyil Xodimlarni jalb etish**

**Mazmuni:** Tashkilotning barcha darajasida xodimlarni malakasi, javobgarligi va huquqlarga ega bo'lishi, qiymat qo'shish va yaratuvchanlikni oshishiga olib keladi (ISO 9000:2015, 2.3.3).

**Ma'qulligi:** Tashkilotni natijaviy va samarali boshqarish uchun, barcha darajadagi xodimlarni jalb etishda, ularni shaxsiyatini hurmat qilish juda muhim.

E'tirof etish, huquq berish, xodimni ko'nikmasi-ni va bilimini ruvojlantirish tashkilotni maqsad-larga erishishida ular jalb etish usullari hisoblanadi.

Insonlar hamkorligi va ishtirokida ularning qobiliyatlaridan keng va unumli foydalanish tashkilotga samara keltiradi. Bunda ularni xohishini aqinlash va bajarish juda muhimdir!

#### **Asosiy ustunligi:**

- xodimlarni tashkilotning sifat bo'yicha maqsadlarini va ularga erishilganda rag'batlantirishi bilan qaytirilishini eng yaxshi tushunishi;
- o'z faoliyatni takomillashtirish bo'yicha xodimlarni ko'proq jalb etilishi;
- shaxsni rivojlanishi, tashabuskorligi va ijodkorligi uchun imkoniyatlarni kengayishi;
- xodimni qanoatlanishini oshirilishi;
- tashkilotda ishonch va hamkorlikni oshirilishi;
- tashkilotda korporativ madaniyat va umumiy qadriyatlarga e'tiborni oshirishi.

#### **Imkoniyat choralari:**

- xodimlar bilan munosabatlar uchun ularni qo'shadigan hissani ahamiyati tushunchasini shakllantirish;
- butun tashkilot bo'yicha hamjihatlik imkoniyati berishi;
- tajriba va bilim almashish, hamda ochiq munozara qilish imkoniyati berilishi;

- insonlarga ishdagi muammolarni ochish huquqlarini berilishi va tashabbusni qo'rqmasdan o'z zimmasiga olishi;
- insonlarni qo'shgan xissasiga ko'ra taqdirlash va e'tirof etish, ularni tajriba va rivojlanishini boyishi;
- vazifasini shaxsiy maqsadlarga erishish nuqtaiy nazar bilan o'z-o'zi baholash imkoniyatini berilishi ta'minlanishi;
- insonlarni qanoatlanganligini baholash uchun so'rovlar o'tkazish, ular bo'yicha natijalarni yetkazish va muvofiq choralar ko'rilishi.

#### **QMP 4-tamoyil Jarayonli yondashish**

**Mazmuni:** Faoliyatlar qachonki o'zaro bog'liq jarayonlar va vazifalar to'la tizimli yondashish va boshqarish asosida bo'lsa, muvofiq va kutilayotgan natijalarga erishish yanada natijaviy va samarali bo'ladi (ISO 9000:2015, 2.3.4).

**Ma'qulligi:** Sifat menejmenti tizimi o'zaro bog'liq jarayonlardan tuzilgan, Tizim natijalar asosida shakllanishi tushunish, tashkilot tizimi va uni ishini muvofiqlashtirishga olib keladi.

Tashkilot faoliyati va mavjud resurslariga jarayon sifatida qaralganda ko'tilgan natijalar samarali bo'ladi!

#### **Asosiy ustunligi:**

- asosiy jarayonlarga va takomillashtirish uchun butun imkoniyatini oshirishga qaratilishi;
- ishlab chiqarilgan tizimni jarayonlar bilan kelishilishi, muvofiq va ko'tilgan natijalarni berishi;
- jarayonlarni natijaviy boshqarish hisobiga (funktsiya) vazifa-larni muvofiqlashtirilishi, resurslardan samarali foydalanish va vazifalar o'rtasida to'siqlarni kamashtirilishi;
- tashkilot o'zni ishonchli, natijaviy va samaradorlik imkoniyatlarini manfaatdor tomonlarga ishontrishi.

#### **Imkoniyat choralari:**

- zarur natijalarga erishish uchun tizim va jarayonlar maqsad-larini aniqlanishi;
- jarayonlarni boshqarish uchun huquq, javobgarlik va hisobot berishni o'rnatilishi;
- choralarni amalga oshirishgacha resurslar bo'yicha chegarani aniq-lash va tashkilot imkoniyatini tushunish;
- jarayonlar bog'liqligini topish va har qanday jarayonlarni o'zgarishini butun tizimga ta'sirini tahlillash;
- tashkilotni sifat bo'yicha maqsadlariga natijaviy va samaraviy erishishi uchun jarayonlarni va ularni o'zaro bog'liqligini boshqarish;
- jarayonlarni zarur boshqarish va takomillashtirish, hamda butun tizim vazifasini baholash, monitoring va tahlillash uchun ma'lumotlar olishni qulayligini ta'minlash;

- qaysiki butun sifat menejmenti tizimi va jarayonlar natija-lariga ta'sir etuvchi xavflarni boshqarish.

### **QMP 5-tamoyil Doimiy takomillashtirish**

**Mazmuni:** Doimiy takomillashtirishga e'tiborni yo'naltirish tashkilotga hamisha muvaffaqiyat keltiradi (ISO 9000:2015, 2.3.5).

**Ma'qulligi:** Ichki va tashqi o'zgarishlar muhitida yangi imkoniyatlarni yaratish hozirdagi funktsiya darajasini saqlash nuqtaiy nazari bilan tashkilot uchun takomillashtirish hayotiy juda muhimdir.

Qo'yilgan maqsadlariga jarayon, mahsulot va tizimlarga mezonlar o'rnatish, baholash va tahlillash asosida ularni doimiy takomillashtirish bilan erishiladi.

Doimiy takomillashtirish bu- katta bo'lmagan, kichik-kichik ishonchli o'zgartish-lar bilan yuqoriga o'sishdir!

#### **Asosiy ustunligi:**

- jarayonlar vazifasini takomillashtirish, tashkilot imkoniyati va iste'molchilarni qanoatlantirishi oshirishi;

- tuzatuvchi va oldini oluvchi choralar bilan tub sababi izlanish va aniqlashga e'tiborni oshirishi;

- ichki va tashqi xavflar va imkoniyatlarni aniqlash va bartaraf etish xususiyatini takomillashtirishi;

- doimiy rivojlanish va uzluksiz takomillashtirish imkoniyat-larni yanada kengaytirish hisobotini olib borishi;

- takomillashtirish uchun to'plangan tajribalarni qo'llashni yanada kengaytirilishi;

- takomillashtirishni zamonaviy innovatsiyalarga yo'naltirilishi.

#### **Imkoniyat choralari:**

- tashkilotni barcha darajasida takomillashtirish bo'yicha qo'yilgan maqsadlarga intilishi;

- takomillashtirish bo'yicha maqsadlarni amalga oshirish uchun asosiy instrument va metodlarni qanday qo'llashni barcha daraja-dagi xodimlarga o'rgatishi va ularni ko'nikmalarni shakllantirishi;

- takomillashtirish bo'yicha loyihalarni muvoffaqiyatli harakat-lantirishi va yakunlash uchun xodimlarni malakasini ta'minlashi;

- butun tashkilotda takomillashtirish loyihalarni bajarish uchun jarayonlarni yoyish va rivojlantirish;

- takomillashtirish bo'yicha loyihalar, hamda ularni natijalari-ga erishish, kuzatish, auditni rejalashtirishi va tahlillashi;

- jarayon/mahsulot va xizmatlarni o'zgartirish yoki yangisini yaratishda takomillashtirishlarni hisobotlarni olib borishi;

- takomillashtirishlarni o'z vaqtida e'tirof etishi va mukofotlashi.

### **QMP 6-tamoyil Dalillarga asoslanib qarorlar qabul qilish**

**Mazmuni:** Natija va ma'lumotlarni baholash, hamda tahlillash asosida qarorlar qabul qilish bilan qo'yilgan maqsadlarga erishish ehtimolligi judayam yuqori (ISO 9000:2015, 2.3.6).

**Ma'qulligi:** Qarorlar qabul qilish jarayoni murakkab bo'lib, u o'zida doimo noma'lum noaniqlikni to'g'diradi. Qarorlar qabul qilish gohida turi kirish ma'lumotlari va manbaalariga, ularning qaysiki teng bo'lgan tushunchalariga asoslanadi. Qarorlar qabul qilish uchun bog'liq jarayonlar ta'siri va sabablarini, shuningdek yuzaga kelish mumkin bo'lgan oqibatlarni tushunish lozim.

Ma'lumot, natija va dalillarni tahlillash, haqqoniy va ishonchli qarorlar qabul qilishga olib keladi.

#### **Asosiy ustunligi:**

- qaror qabul qilib jarayonlarni takomillashtirilishi;
- maqsadga erishish xususiyati va jarayonlarni vazifalarni baholashni takomillashtirilishi;
- natijaviylik va samaradorlikni takomillashtirilishi;
- qaror va fikrlarni o'zgartirish, tekshirish va o'rganishlar uchun imkoniyatlarni kengaytirilishi;
- avvalgi qabul qilingan qarorlarni natijaviyligini namoyish etish imkoniyatini kengaytirilishi.

#### **Imkoniyat choralari:**

- tashkilot vazifalari natijalarni taqdim etish uchun muhim ko'rsatkichlarni o'rnatishi, monitoring va o'lchashlarni bajarishi;
- xodimlarga barcha zarur ma'lumotlarni qulay yetkazishni ta'minlashi;
- qaysiki mazkur ma'lumotlarni aniqligi, ishonchliligi va himoyalanganligini kafolatlashni ta'minlashi;
- natija va ma'lumotlarni muvofiq metodlarni foydalanish bilan baholash va tahlillashi;
- natijalarni baholash va tahlillash uchun qaysiki, xodimlarni muvofiq malaka darajasini kafolatlashni ta'minlashi;
- dalil, tajriba yuqoriligi va mulohozaga asoslanish bilan qaror qabul qilish va amalga oshirishi.

### **QMP 7-tamoyil O'zaro munosabat menejmenti**

**Mazmuni:** Tashkilot mustahkam muvoffaqiyatga erishishni ta'minlashi uchun manfaatdor tomonlar (masalan: yetkazuvchilar) bilan o'zaro munosabatlar-ni boshqarishi lozim (ISO 9000:2015, 2.3.7).

**Ma'qulligi:** Manfaatdor tomonlarni munosabati tashkilot faoliyatiga ta'sir etadi. Tashkilot mustahkam muvoffaqiyatga yuqori ehtimollik bilan erishadi, qachonki manfaatdor tomonlar bilan o'zini ta'sir etuvchi faoliyatini manfaatli munosabatda boshqara olsa.

Ayniqsa yetkazuvchi va hamkorlar bilan o'zaro munosabat menejmenti (m: narh, shartnoma, bilim, resurs, takomillashtirish, foyda olish va boshqalarda) juda ham ahamiyatli.

**Asosiy ustunligi:**

- tashkilot va manfaatdor tomonlar imkoniyat va chegaralarni hisobga olgan holda har bir tomon bilan bog'liq faoliyat natijalarni takomillashtirishi;
- manfaatdor tomonlarni umumiy qadiriya va maqsadlarni tushunishi;
- resurslarda birgalikda foydalanish hisobiga va malakani oshirish, hamda sifatga bog'liq xavflarni boshqarish bilan manfaatdor tomonlar uchun qiymat yaratish xususiyatini kengaytirishi;
- yetkazish zanjirini smarali boshqarish, qaysiki mahsulot va xizmat ko'rsatish jarayonlari oqimini turg'un ta'minlashi.

**Imkoniyat choralari:**

- manfaatdor tomonlar (qaysiki yetkazuvchi, hamkor, iste'molchi, xissador, investor, xodim va butun jamiyat) va ular bilan tashkilotni bog'liq jixatini aniqlashi;
- manfaatdor tomonlar bilan o'zaro bog'liqlikni aniqlashi, qaysiki boshqarish zarur bo'lganini;
- yaqin va uzoq manfaatdorlik tengligini hisobga olgan holda o'zaro bog'liqlikka yo'naltirishi;
- manfaatdor tomonlarga ahamiyatli bo'lgan ma'lumot, bilim va resurslarni to'plashi va taqdim etishi;
- qanchali bularni qo'llash, tashabbus bo'yicha takomillashtirish uchun manfaatdor tomonlar bilan qayta aloqalarni ta'minlashi va ish natijalarni baholashi;
- yetkazish zanjirini iste'molchi, tashkilot, yetkazuvchi, hamkor va boshqa manfaatdor tomonlar bilan birgalikda ishlab chiqishi va takomillashtirishi;
- yetkazuvchini takomillashtirish va uni muvoffaqiyatlarida o'z vaqtida e'tirof etishi va rag'batlantirishi.

**24.2. Sifat tizimlarini sertifikatlashtirishning asosiy qoidalari (O'zRH 51-025), sifat tizimlarini sertifikatlashtirishni o'tkazish tartibi (O'zRH 51-027).**

SMT sertifikatlashtirishda asosiy ishlar bosqichlari quyidagicha:

- 1- ishlarni tashkillashtirish;
- 2- tashkilot SMT hujjatlarini tahlil qilish;
- 3- "joyida audit"ga tayyorgarlik;
- 4- "joyida audit"ni o'tkazish va audit natijalari bo'yicha dalolatnomalarni tayyorlash;
- 5- sertifikatlashtirishni yakunlash, sertifikatni ro'yxatga kiritish va taqdim etish;
- 6- sertifikatlashtirilgan SMT inspeksion nazorati.

Sifat menejmenti tizimini sertifikatlashtirish natijasida tekshirilayotgan tashkilotni O'z DSt ISO 9001:2015 talablariga muvofiqlik darajasi va SMT natijaviyligi aniqlanadi.

Sertifikatlashtirishni o'tkazish sharoitiga qo'yiladigan talabalar:

- SMT sertifikatlashtirish bo'yicha ishlar ISO/IEC 62, O'z DSt ISO 19011 va sifat tizimini sertifikatlashtirish standarti, O'z DSt tizimida akkreditlangan sifat tizimini sertifikatlashtirish idoralari o'tkazadi.

- Sertifikatlashtirishni o'tkazish sharoitida SMT mavjud bo'lgan va rasmiy joriy qilingan hujjatlashtirilgan korxonalarda o'tkaziladi.

- SMT sertifikatlashtirish bo'yicha ishlarda sifat tizimini sertifikatlashtirish bo'yicha ekspertlar (auditorlar), ro'yxatga olingan sertifikatlashtirish bo'yicha xodimlar va zaruriy hollarda texnik ekspertlari jalb qilinadi.

- Buyurtmachi SMT qo'llanish sohasini aniqlab, murojaati va audit natijalari bo'yicha sertifikatlashtirish idorasi SMT sertifikatlashtirish sohasini aniqlaydi.

SMT sertifikatlashtirishda audit ob'ektlari sifatida quyidagilar hisoblanadi:

- SMT qo'llanish sohasi;
- iste'molchi talablariga mahsulot sifatini muvofiqligi va ushbu mahsulotga bo'lgan majburiy talablar;

- SMT da hujjatlashtirish O'z DSt ISO 9001:2015 talablarining to'liq va aniq mavjudligi;

- SMT jarayonlari funktsionalligi tizim hujjatlari talablarini bajarilishini haqqoniy munosabati va SMT natijaviyligini ta'minlash.

SMT qo'llanish sohasini tekshirishda SMT sertifikatlashtirishga murojaat bo'yicha sohasi tahlil qilinib, quyidagilar tekshiriladi:

- a) agarda arizada ko'rsatilgan bo'lsa barcha turdagi mahsulot va hayotiy davri jarayonlari SMT qamrab olishini;

Sertifikatlashtirishga arizada ko'rsatilgan istesnolar har bir turdagi mahsulotlar uchun tahlili o'tkaziladi. Ushbu istesnolar sifat bo'yicha qo'llanma bo'limlariga muvofiq mavjudligi to'liq asoslanishi lozim.

O'z DSt ISO 9001:2015 standartining 8 bo'limi talablariga noto'g'ri istesnolar SMT ga yoki istesnolar O'z DSt ISO 9001:2015 boshqa bo'limining talablariga nomuvofiq qaraladi.

SMT qo'llanish sohasini tahlil va tekshiruv sertifikatlashtirishning barcha jarayonlarida ko'rilishi ham mumkin.

Mahsulot sifatini o'rnatilgan talablarga muvofiqligini quyidagilar asosida baholanadi:

- tashkilot (O'z DSt ISO 9001 da (8.2, 8.3, 8.4, 8.5, 8.6 keltirilgan) mahsulotga taaluqli talablar haqida ma'lumotlar bajarilishi sharti;

- iste'molchilarni qoniqishiga bog'liq ma'lumotlarni tahlil natijalari (O'z DSt ISO 9001 da 8.2.1, keltirilgan; 8.2.3.1, keltirilgan b); 8.5.5, keltirilgan d); 9.1.2);

- mahsulot sifati haqida davlat nazorati tashkilotlari tasarufidagi tashkilotdan mahsulot sifati uchun olgan ma'lumotlar;

- O'z DSt ISO 9001 9.1 da ko'rsatilgan mahsulotni hayotiy davri va uning bosqichlarida o'lchash va monitoring ma'lumotlari.

**Sifat menejmenti tizimini sertifikatlashtirishda asosiy ishlar bosqichlari quyidagicha:**

**1-bosqich. Sertifikatlashtirish ishlarini tashkillashtirish.**

Ishlarni boshlash uchun keltirilgan shakl bo'yicha rasmiy-xat yoki o'rnatilgan shakldagi murojaatnoma asosida buyurmachi sertifikatlashtirish idorasiga jo'natishdan boshlanadi.

Sertifikatlashtirish idorasi murojaat-xatni (murojatnomani) ro'yxatdan o'tkazib va tahlil qilinadi.

Sertifikatlashtirish idorasiga jo'natilgan murojaat-xatini yo'llash vaqtida sertifikatlashtirishni o'tkazish imkoniyatlarni sertifikatlashtirish murojaatida rasmiy ravishdagi blankada sertifikatlashtirish idorasiga jo'natadi.

Sertifikatlashtirish idorasi SMT sertifikatlashtirish xatini qabul qilganligi/qabul qilmaganligi haqidagi xulosani xat ko'rinishida buyurtmachiga javob beradi.

Sertifikatlashtirish idorasi o'tkazishni bekor qilgan hollarda salbiy xulosa uchun ham javob yo'llaydi.

**1.1. SMT sertifikatlashtirishni o'tkazishga shartnoma tuzish.** Ijobiy xulosa bilan qabul qilingan murojaatnoma SMT sertifikatlashtirish idorasi va buyurtmachi bilan shartnoma imzolaydi.

SHartnoma tuzilgandan so'ng sertifikatlashtirish idorasi sertifikatlashtirish o'tkazishda standartlashtirish bo'yicha tavsiyalarda keltirilgan, foydalanadigan ma'lumotlar va mehnat sarfini baholaydi.

Sertifikatlashtirish idorasi ishlari shartnomada ko'rib chiqilgan dastlabki to'lov ish boshlanishidan oldin sertifikatlashtirish idorasi hisobiga hamma summa to'langandan so'ng va audit natijalaridan, to'liq ish hajmiga bog'liq bo'lmagan tartibda olib boriladi. Ishlarga ikki bosqichli to'lov imkoniyati ruxsat etiladi.

**1.2 Buyurtmachiga hujjatlar majmuasini tayyorlash.** Sertifikatlashtirish idorasi shartnoma bo'yicha isharga to'lovdan so'ng buyurtmachiga SMT hujjatlari va dalillar ro'yxatni jo'natib, tekshirilayotgan tashkilot (buyurtmachi)ga majburiy tartibda hamda qo'shimcha hujjatlar (yozuvlar)ning ro'yxatini ham taqdim etadi.

Buyurtmachi sertifikatlashtirish idorasida murojaat blankasini to'ldirib, bir nusxasi (agarda murojaat-xati oldinroq jo'natilgan hollarda) va SMT hujjatlari hamda so'ralgan dalillarni qog'oz shaklida bir nusxasi (SMT hujjatlari

va dalillar ayrim qismlari elektron ko'rinishida bo'lishi ham mumkin) taqdim qiladi.

Olingan hujjatlar sertifikatlashtirish idorasida nazorat nusxasi sifatida qoldiriladi.

**1.3. Sertifikatlashtirish bo'yicha komissiya tuzish.** So'ralgan hujjatlar va dalillarni buyurtmachi taqdim etganidan so'ng sertifikatlashtirish idorasi rahbari tarqatib, sertifikatlashtirish bo'yicha komissiya tuzadi va komissiya raisini belgilaydi.

Komissiya bir yoki bir qancha ekspertlardan tuzilishi mumkin. Agarda auditda bitta ekspert mavjud bo'lsa, u komissiya raisi majburiyatini bajaradi.

Komissiya tarkibi va ishtirokchilarini aniqlashda quyidagilarni hisobga olish zarur:

- audit maqsadi, sohasi va mezonini;
- audit o'tkazish muddatini;
- tashkilot iqtisodiy faoliyati turi (turlari)ni;
- tekshirilayotgan tashkilotning ishlab chiqarish maydoni (filiallari) bilan turli xil joylashuvini;
- tekshirilayotgan tashkilot ishchilar sonini;
- auditni o'tkazishda mehnat sarfini;
- kelgusida audit maqsadi uchun komissiya layoqatini ta'minlash zaruriyatini;
- baholashni o'tkazishga qabul qilingan qonuniy va me'yoriy qonuniy aktlar, texnik reglamentlar talablarini;
- sertifikatlashtiriladigan tashkilotdan komissiya a'zolarini mustaqilligini ta'minlash;
- tekshirilayotgan tashkilot bilan komissiya a'zolarini natijali o'zaro faoliyati imkoniyatlarini;
- audit tilini.

Komissiyaning ko'p tomonlama layoqatligini tasdiqlash uchun quyidagilar zarur:

- kelgusidagi audit maqsadi uchun bilim va mahoratini identifikatlashtirish;
- ishlab chiqarish jarayonlari spetsifikatsiyasida maxsus bilimi, audit usuli va protsedurasini hamda ko'p tomonlama bilim saviya mezonlarini hisobga olgan holatda komissiya a'zolari tanlash.

Agarda komissiyada ekspertlar iqtisodiy faoliyatning aniq turlari bo'yicha mahoratga va zaruriy bilimga ega bo'lmasa, bu paytda komissiya texnik ekspertlarni komissiyaga qo'shishlari mumkin.

Komissiya tarkibiga tekshirilayotgan tashkilot vakilini, shuningdek sertifikatlashtirish natijalarida qiziquvchi tashkilot vakillarini kiritish mumkin emas.

Komissiya tarkibiga stajerlar, rahbar qo'l ostidagi ishchilar va komissiya raisi kuzatuvida kiritish mumkin.

Komissiya tarkibini sertifikatlashtirish idorasi rahbari tasdiqlaydi.

### **2-bosqich. Tashkilot SMT hujjatlarini tahlil qilish.**

Tekshirilayotgan tashkilot SMT hujjatlarining tahlili O'z DSt ISO 9001 talablariga tizim hujjatlari muvofiqligini aniqlash uchun o'tkaziladi.

Tekshirilayotgan tashkilot bilan sertifikatlashtirish idorasi kelishuvi bo'yicha zaruriyat bo'lganda o'zining vakillarini tekshirilayotgan tashkilot SMT bilan joyida dastlabki tanishuvga yoki noaniq (bahsli) masalalarni hal qilishga xizmat safariga yuborishi mumkin. Bunday xizmat safarlarini buyurtmachi bilan mavjud shartnomaga qo'shimcha kelishuvlar yoki qo'shimcha shartnoma shartlari kelishiladi.

Olingan hujjatlarni tahlili bilan bir vaqtda tekshirilayotgan tashkilotdan SMT sertifikatlashtirishga qabul qilingan, tashkilot mahsulot (xizmati) haqidagi qo'shimcha dalillarni yig'ish va tahlili qilishni komissiya tashkillashtiradi. Ma'lumot manbalari iste'molchilar, davlat tekshiruv va nazorat idoralari, iste'molchilar jamoasi, ustachilik kafolatlari, savdo tashkilotlari va boshqalar ma'lumot manbalari bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Tahlil SMT hujjatlarini dastlabki tekshiruvni to'g'risidagi hisobot rasmiy ravishda rasmiylashtirish bilan nihoyasiga yetkazilib, bunda aniqlangan hamda topilgan kamchiliklar SMT auditini "joyida" o'tkazish mumkin yoki mumkin emasligi xulosada keltiriladi.

Hisobot komissiya raisi va a'zolari imzolari bilan o'tkazilgan tahlil sertifikatlashtirish idorasi tekshirilayotgan tashkilotga kechiktirilmasdan "joyida" audit o'tazishdan ikki hafta oldin yuboriladi.

Hisobotda ko'rsatilgan nomuvofiqliklar bartaraf etilganidan so'ng buyurtmachi sertifikatlashtirish idorasiga qayta ishlangan hujjatlarni SMT baholash bo'yicha ishlarni jo'natishi mumkin. Hujjatlarni qayta tahlili bo'yicha bajarilgan ishlar shartnomaga qo'shimcha kelishuvlar hisobida keltirilishi mumkin.

### **3- bosqich. Auditga tayyorgarlik.**

**3.1. Tekshirilayotgan tashkilot (buyurtmachi) bilan dastlabki o'zaro faoliyat.** Tekshirilayotgan tashkilot bilan komissiya raisi dastlabki o'zaro faoliyat quyidagi maqsadda o'tkaziladi:

- teshirilayotgan tashkilot bilan ma'lumotlarni almashish yo'llarini aniqlash;

- kelishilgan tartibda muvofiq hujjatlarga ruxsatlar;

- ishlab chiqarish maydonlariga ekspertlar faoliyati xavfsizligini ta'minlash protsedurasini kelishish;

- tekshirilayotgan tashkilot vakillarini (shaxs, ekspertlarni kuzatuvchilarni), auditda qatnashuvchilarni qabul qilishni aniqlash.

**3.2. Audit rejasini ishlab chiqish.** Komissiya raisi quyidagilarni hisobga olib audit rejasini tayyorlaydi:

- audit maqsadini;

- auditga asosni;

- auditni o'tkazish grafigi va muddati komissiya tashkilot bilan umumiy tanishish va tekshirilayotgan tashkilot rahbari bilan dastlabki va oxirgi yig'ilish xulosasini;

- audit sohasi va tekshirilayotgan tashkilot SMT da qo'shilgan tarkibiy bo'linmalar identifikatsiyasi;

- tarkibiy tuzilmada o'tkazish kuni va audit qaerda o'tkazilishini;

- tekshirilayotgan SMT elementlarini;

- audit rejasi bajarilishi uchun majburiyatlarni komissiya a'zolariga identifikatsiyalash;

- teshirilayotgan tashkilot vakilarini identifikatsiyalash (shaxs, ekspertlarni kuzatish);

- maxfiylik talablarni.

Audit rejasi "joyida" audit bolanishigacha tekshirilayotgan tashkilotga dalil tariqasida berilishi shart.

Tekshirilayotgan tashkilotga barcha qarama-qarshiliklar audit boshlanishidan oldin komissiya raisi va tekshirilayotgan tashkilot rahbari tasarrufiga muvofiq kelishilishi shart.

Audit o'tkazish vaqtida komissiya raisi tekshirilayotgan tashkilot bilan kelishib audit rejasiga o'zgartirish kiritish huquqiga ega.

Bir turdagi mahsulotni ishlab chiqarish uchun bir necha ishlab chiqarish maydonlari (filiallari) mavjud bo'lsa tashkilotda audit o'tkazish asoslanadi.

**3.3. Komissiya a'zolari bilan majburiyatlarni taqsimlash.** Agarda komissiya bir nechta ekspertlardan tarkib topsa, komissiya raisi audit rejasiga rahbarlik qiladi, kelishish bo'yicha komissiya a'zolari bilan majburiyatlar tekshirilayotgan tashkilot SMT protsedurlari, jarayonlari, aniq bo'linmada va faoliyat turi o'zaro taqsimlanadi.

Audit rejasiga muvofiq ekspertlar va texnik ekspertlarning layoqati muvofiq majburiyatlar tashkilot faoliyati turlarini tekshirish zarurligini hisobga olib taqsimlanadi.

**3.4. Ishchi hujjatlarni tayyorlash.** Komissiya raisi rahbarligi ostida ekspertlar ishchi hujjatlarni tayyorlashni olib borishadi. Auditga tayyorlashda sertifikatlashtirish idorasi ishlab chiqqan namunaviy shakllardan foydalanish mumkin.

Ishchi hujjatlarda quyidagilarni hisobga olish shart:

- tarkibiy tuzilma faoliyatini tanlanma nazorat rejalar va tekshiruv savollari ro'yxati;

- nomuvofiqlikni blankasini ro'yxatga olish va ko'rib chiqish.

Sertifikatlashtirish idorasi audit tugaguncha audit bo'yicha barcha yozuvlar va hujjatlarni saqlanishini ta'minlashi shart.

**4-bosqich. Auditni o'tkazish va audit natijalari bo'yicha daloltnomalarni tayyorlash.**

**4.1. Dastlabki yig'ilish.** Dastlabki yig'ilish komissiya raisi rahbarligida komissiya a'zolari, rahbariyat va tekshirilayotgan tashkilotning yetakchi

mutaxassislari ishtirokida o'tkaziladi. Yig'ilish qatnashchilari ro'yxatga olingan bo'lishi shart.

Dastlabki yig'ilish maqsadi quyidagilar bo'lib hisoblanadi:

- audit rejasini ishlatish imkoniyatini tasdiqlash;
- audit protsedurasi va usullarini foydalanish qisqacha qamrab olinganligi;
- komissiya a'zolari va tekshirilayotgan tashkilot xodimlari o'zaro faoliyati protsedurasini rasmiy o'rnatish;

- kelib chiqadigan masalalarni muhokama qilish.

Dastlabki yig'ilish paytida komissiya raisi quyidagilarga majbur:

- qatnashchilarga audit o'tkazishda komissiya bilan ularga birlashtirilgan ishlarni tanishtirish;

- audit bo'yicha ishlarni o'tkazish grafigina e'lon qilish, oxirgi yig'ilish vaqti va kunini, auditga aloqador boshqa tadbirlarni hamda oraliq yig'ilishlarni tekshiruv komissiyasi va tekshirilayotgan tashkilot rahbariyatiga tanishtirish;

- audit protsedurasi va usuli bilan qisqacha tanishtirish;

- audit tanlanma tariqasida bo'lishi va baholash natijalari ehtimollik tavsifidan hol emasligini tashkilotga oldindan ma'lumot berish;

- audit ishi haqida xabardor qilish (zaruriyat tug'ilgan hollarda);

- audit olib borilish haqida ma'lumotlarni tekshirilayotgan tashkilotga xabar berishi tartibi to'g'risida;

- komissiyani konfidentsillik talablariga rioya qilishini tasdiqlash;

- komissiya a'zolari uchun xavfsizlik va sag'lig'ini saqlash talablarini ta'minlash tartibini tasdiqlash;

- sertifikatlashtirish natijalari bo'yicha qabul qilingan qaror va rioya qilish tartib qoidalarini to'g'risida oldindan ma'lumot berish;

- akt tuzish tartibi bilan tanishtirish;

- audit to'xtatilishi mumkin bo'lgan shartlar haqida ma'lumot berish;

- agarda aktda nomuvofiqlik bo'lgan holda sertifikatlashtirish idorasi keyingi faoliyatidagi masalalar to'g'risida tekshirilayotgan tashkilotga oldindan ma'lumot berish.

**4.2. SMT auditi.** Audit davomida komissiya raisi audit o'tishi haqidagi ma'lumotlarini tekshirilayotgan tashkilotga davriy ravishda berib boradi.

Komissiya a'zolari kuzatuv natijalarini baholash va ma'lumotlarni davriy almashinishi shart. Komissiya raisi zaruriyat tug'ilganda ekspertlar va texnik ekspertlarni bajaradigan ishlarini qaytadan taqsimlashi mumkin.

Komissiya raisi kundalik ish kuni oxirida komissiya a'zolariga ishchi yig'ilishni o'tkazishi lozim.

Audit davomida olingan bevosita mahsulot sifatiga talablarni buzilishi holatlar, ishlab chiqarish jarayoniga yoki ishlab chiqarish muhiti haqidagi dalillarni tekshirilayotgan tashkilot rahbariyatiga zudlik bilan guvohlik (dalil) tariqasida beriladi.

Agarda audit guvohligi (dalillarida) audit maqsadi istiqbolsizligi ko'rsatilsa, bu sabablar to'g'risida komissiya raisi sertifikatlashtirish idorasi va

tekshirilayotgan tashkilot rahbariyatiga kelgusidagi faoliyatni aniqlash uchun: audit rejasini to'g'rilash, audit ob'ekti va/yoki sohasini o'zgartirish yoki audit to'xtatiladi.

**4.3. Ma'lumotlarni ro'yxatga olish, yig'ish va tekshirish.** Komissiya audit ob'ekti va sohasiga aloqador, SMT jarayonlari va korxona tashkiliy bo'linmalari o'zaro faoliyat to'g'risidagi ma'lumotlarni mujassamlab ma'lumotlarni yig'adi va tekshiradi. Tekshirilgan ma'lumotlar faqat audit guvohligi bo'lishi mumkin.

Ma'lumot manbalari sifatida quyidagilardan foydalaniladi:

- tekshirilayotgan tashkilot ishchilari bilan intervyu o'tkazish;
- ishchi o'rinlarni holati, mehnat sharoiti va kodimlarning faoliyatlari ustidan ekspertning xususiy kuzatuv;
- iste'molchilardan aks aloqa ma'lumotlari;
- SMT hujjatlari, sifat sohasidagi siyosat va maqsad, sifat bo'yicha qo'llanma, sifat bo'yicha reja, tashkilot standartlari (hujjatlashtirilgan protseduralar), texnologik reglamentlar (texnologik jarayonlar), nizomlar, yo'riqnomalar va tashqi me'yoriy va texnik hujjatlar, shartnomalar va boshqa kabi hujjatlar.

- hujjatlar, SMT jarayonlari haqida ma'lumotlardan tarkib topgan (yozuvlar), ichki audit bo'yicha aktlar (hisobot), rahbariyat tomonidan tahlil hisobotlari, mahsulotni sinash bayonnomalari, sifat muammolari bo'yicha yig'ilish qarorlari, jarayonlar va mahsulotni o'lchash va monitoring natijalari bo'yicha ma'lumotlar, ishchi jurnallar, to'ldirilgan qaydnomalar, shakl va balkalar hamda boshqalar kabi hujjatlar;

- SMT ishchi holati natijaviyligi tahlili ma'lumotlarini ko'rib chiqish;
- yetkazuvchilar reytingi va baholash natijalari.

Yuqorida ko'rsatilgan manbalardan ma'lumotlar ob'ektiv, haqqoniy va to'g'riligi tekshirilgan bo'lishi shart.

**4.4. Audit xulosalarini (kuzatuvlarini) shakllantirish.** Audit ob'ekti bo'yicha tekshirilgan va olingan ma'lumotlar yoki audit guvohligi, audit (kuzatish)da olingan xulosalar uchun audit mezonlari bilan mos bo'lishi shart.

Audit xulosasida muvofiqlikni yoki tekshirilayotgan tashkilot SMT audit mezoniga nomuvofiqlikni ko'rsatish mumkin. Audit xulosasi og'ishlar imkoniyatini cheklashi va aloqdorligi bo'lishi mumkin. Bunda ular kuzatuvdek klassifikatsiyalanadi.

Komissiya a'zolari audit borishi bo'yicha alingan xulosalarni mustaqil tizimli ravishda tahlil qila borishi lozim.

Guvohliklar ko'rsatilgan joyni kuzatish, funktsiyasi, jarayon va talablari tekshirish o'tkazilgan bo'lishi bilan umumlashtirilgan bo'lishi shart. Nomuvofiqliklar kuzatilib va tasdiqlanib, ular audit guvohligida ro'yxatga olingan bo'lishi lozim.

**4.5. Xulosalarni klassifikatsiyalash va ro'yxatga olish.** SMT audit davomida audit ob'ektlari O'z DSt ISO 9001 talablaridan barcha og'ishlari

bartaraf qilinib va tashkilot SMT hujjatlari e'tibor bilan ko'rib chiqilib va klassifikatsiyalanadi va nomuvofiqlik darajasi ko'riladigan audit ob'ekti bog'liq bo'lmaganligini komissiya bilan kelishiladi.

Auditda qilingan xulosalar tekshirilayotgan tashkilot to'g'rilovchi amallar (nomuvofiqlik sababini bartaraf etish uchun), aniqlangan nomuvofiqliklar ketma-ketligining to'g'riligi, sertifikatlashtirish idorasi qabul qilgan qarorni berish to'g'risida, sertifikat faoliyatni bekor qilish yoki to'xtatish hamda sertifikatlashtirish sohasini kengaytirishlarni bajarish maqsadi bilan klassifikatsiyalanadi.

Bir jihatli bo'lmagan qaytariluvchan ko'p qiymatli nomuvofiqliklarning bir turi (SMT elementlari biri bilan bog'liqligi)ni ahamiyatli nomuvofiqlikga o'tkazish uchun asoslash taqozo etadi.

Komissiya raisi nomuvofiqlikni aniqlash mezoniga tushuncha bo'yicha oxirgi qarorni qabul qiladi.

Nomuvofiqlik va kamchiliklarni bartaraf o'rnatilgan shakllardagi blankalari ro'yxatga olinadi. Blankada to'g'rilashlar ruxsat etilmaydi.

Ro'yxatga olingan nomuvofiqlik va kamchiliklar tekshirilayotgan tashkilot rahbariyatiga rasmiy ravishda taqdim etiladi.

**4.6. Nomuvofiqlik va xabardorlashtirish (ogohlantirish) bilan olib boriladigan faoliyat.** Nomuvofiqlik va xabardorlashtirish (ogohlantirish) bilan olib boriladigan faoliyat quyidagi bosqichlaridan tarkib topgan:

- komissiya tekshirilayotgan tashkilot rahbariga ro'yxatga olingan nomuvofiqliklar va ma'lumotlarni, nomuvofiqlik va xabardorlashtirish (ogohlantirish)larni ro'yxatga olish vaqtida tashkilot ko'rib chiqishi va buni muhokama qilish imkoniyatini rasmiy ravishda taqdim qiladi;

- agarda tashkilot nomuvofiqlikni bartaraf etib va xabardorlashtirish (ogohlantirish)ni hisobga olsa, komissiya ish olib borish vaqtida dalillarni taqdim etsa, komissiya ushbu nomuvofiqlik yoki xabardorlashtirish (ogohlantirish)larni ro'yxatga olish varaqasiga muvofiq rasmiylashtirilsa bunday nomuvofiqlik yoki ma'lumotlarni yo'q deb qabul qiladi. Nomuvofiqlik va xabardorlashtirish (ogohlantirish)lar sonini dalolatnomada keltirilib, muvofiqlik sertifikati berish (bermaslik) haqida qabul qilingan qarorda hisobga olinadi;

- agarda nomuvofiqlik va xabardorlashtirish (ogohlantirish)larni komissiya isbotlasa, tekshirilayotgan tashkilot rahbari vakili nomuvofiqlik va xabardor qilish (ogohlantirish)larni ro'yxatga olish blankasida o'zining imzosini qo'yadi.

- tashkilot nomuvofiqlik va xabardorlashtirish (ogohlantirish)larni sababi tahlili qilib va to'g'rilovchi amallarni o'tkazishni rejalashtiradi;

- tekshirilayotgan tashkilotga sertifikatlashtirish auditi davomida to'g'rilovchi amallarni rejalashtirish qiyinchilik tug'dirayotgan bo'lsa, sertifikatlashtirish idorasi ko'rsatilgan ishlarni tugatish uchun qo'shimcha (yakuniy yig'ilish o'tkazish kunigacha) bir hafta muhlat taqdim etadi.

Sertifikatlashtirish idorasi rejaga e'tirozlarini tekshirilayotgan tashkilotga bildirib, bundan so'ng rejani shu haftada qayta ishlashni o'tkazadi.

Rejalashtirilgan to'g'rilovchi amallarni bajarish muddati rejadan chiqmasligi va aralashib ketmasligi lozim:

- bitta va undan ko'p bo'lgan ahamiyatli nomuvofiqliklar topilganda 12 hafta (yakuniy yig'ilish kunidan);

- faqat kam ahamiyatli nomuvofiqliklar va xabardorlashtirish (ogohlantirish)lar topilganda 5 hafta (yakuniy yig'ilish kunidan).

Agarda sertifikatlashtirish idorasiga to'g'rilovchi amallar rejasi taqdim qilinmasa, sertifikatlashtirish jarayoni to'xtalishi shart.

Sertifikatlashtirish jarayoni yangilash faqat sertifikatlashtirishga qayta ariza (talabnoma) berish bilan amalga oshirilishi mumkin.

#### **4.7. Audit natijalari bo'yicha dalolatnoma tayyorlash, tasdiqlash va dalolatnomada qayd etish yakuniy yig'ilishni o'tkazish.**

Audit natijalari bo'yicha dalolatnoma tayyorlash. Komissiya raisi audit natijalari bo'yicha dalolatnoma tarkibini va tayyorlash uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi.

Komissiya xulosaviy yig'ilishni o'tkazgunga qadar quyidagi ishlar o'tkaziladi:

- audit kuzatuv (xulosasi) tahlil qilinadi va ixtiyoriy turli ma'lumotlar audit davomida yig'ilib va uning maqsadlarga muvofiqligi ko'riladi;

- aniqlangan nomuvofiqlik va kuzatishlar tahlil qilinadi;

- tanlanma tavsifida audit ob'ektini e'tiborga olib, audit natijalari bo'yicha dalolatnomani rasmiylashtiradi;

- tashkilot SMT muvofiqlik sertifikatini berish (bermaslik) haqidagi qarorni qabul qilish uchun sertifikatlashtirish idorasiga tavsiya tayyorlaydi;

- navbatdagi faoliyatlarni muhokama qiladi (masalan, inspeksiya nazoratni o'tkazish).

Audit natijalari, xulosalar va tavsiyalarni K ilovada keltirilgan shaklga binoan komissiya dalolatnoma ko'rinishida rasmiylashtiradi.

Dalolatnoma tarkibi quyidagicha bo'lishi lozim:

- sertifikatlashtirish idorasi identifikatsiyasi;

- buyurtmachi-tashkilot identifikatsiyasi;

- audit maqsadi va sohasi;

- auditni o'tkazish uchun asos;

- auditni o'tkazish vaqti va joyi;

- sertifikatlashtirish bo'yicha komissiya tarkibi raisi va komissiya a'zolari bilan birga texnik ekspertlarni identifikatsiyalash;

- audit me'yoriy bazasini identifikatsiyasi;

- audit natijalari;

- komissiya xulosasi;

- dalolatnomada manzilni ko'rsatilishi.

Dalolatnomaga quyidagilar ilova qilinishi lozim:

- SMT audit rejasi;
- ro'yxatga nomuvofiqlik va kamchiliklar to'ldirilgan blanka;
- audit davomida bartaraf qilingan nomuvofiqliklarni tasdiqlovchi yozuvlar;

- turli bayonnomalar (ularning asli).

Dalolatnomaga quyidagilar ilova qilinishi mumkin:

- mahsulotni sinash bayonnomalari;
- belgilangan vaqt davomida mahsulot sifati haqidagi hisobotlar;
- belgilangan vaqt davomida tashkilotda ishlab chiqarish muhiti holati tahlili bo'yicha ma'lumotlar;

- SMT sertifikatlashtirishda komissiya olib borgan va bajargan ishlar, to'g'rilovchi amallar tahlili bo'yicha ma'lumotlar va boshqalar.

**4.5. Yakuniy yig'ilishni o'tkazish.** Yakuniy yig'ilish komissiya raisi rahbarligi ostida o'tkaziladi.

Yakuniy yig'ilishda tekshirilayotgan tashkilot rahbariyati, yetakchi mutaxassislari va komissiya a'zolari bo'lishlari shart. Yig'ilishda komissiya raisi yig'ilish qatnashchilariga audit natijalari, SMT auditi bo'yicha xulosani taqdim etadi.

Yig'ilishga audit natijalari bo'yicha dalolatnoma loyihasi tayyorlangan bo'lishi lozim.

**4.6. Audit natijalari bo'yicha dalolatnomani tasdiqlash va tarqatish.** Dalolatnoma komissiya raisi, komissiya a'zolari va tekshirilayotgan tashkilot rahbari yoki uning vakili imzolab tanishish uchun ularga taqdim qilinadi. Agarda boshqalar ko'rishmasa, dalolatnoma ikki nusxada, qoidalardagidek nashr qilinadi.

Dalolatnomaning bir nusxasi tekshirilayotgan tashkilot (buyurtmachi)ga, boshqalari esa sertifikatlashtirish idorasiga beriladi.

Dalolatnoma nusxalariga komissiya a'zolari va tekshirilayotgan tashkilot uchun muhim bo'lib, bunda komissiya a'zolari va tekshirilayotgan tashkilot maxfiylik talablariga qat'iy rioya etishlari lozim

**5-bosqich. Sertifikatlashtirishni yakunlash, sertifikatni ro'yxatga kiritish va taqdim etish.**

SMT sertifikatlashtirish barcha rejalashtirilgan to'g'rilovchi amallarni va ularni bajarilish natijalarini tekshirishni o'tkazmasdan tugatilishi mumkin emas.

Komissiya ishlarni agarda barcha ishlar bajarilgan bo'lsa, audit rejasini ko'rib chiqilishi, audit natijalari bo'yicha dalolatnoma tomonlar bilan to'ldirilib va imzolansa, komissiya to'g'rilovchi amallarni bajarilishi bo'yicha hisobot va rejasini taqdim qilgan bo'lsa tugatilgan deb hisoblashi mumkin. Auditga aloqador hujjatlarni saqlash yoki amaldagi qonunchilik, me'yoriy va shartnoma hamda sertifikatlashtirish idorasi hujjatlariga muvofiq bekor qilinadi. SMT sertifikatlashtirish bo'yicha hujjatlar sertifikatlashtirish idorasi hujjatlariga muvofiq o'rnatilgan qoidalarga asosan sertifikatlashtirish idorasida saqlanadi.

Sertifikatlashtirish idorasi rahbari va komissiya tekshirilayotgan tashkilot (buyurtmachi) bilan kelishmasdan boshqa ixtiyoriy tomonlarga audit natijalari bo'yicha dalolatnoma tarkibi, audit vaqtida olingan boshqa ma'lumotlar va hujjatlar tarkibini oshkor qilmasligi lozim.

SMT o'rnatilgan talablarga muvofiq/nomuvofqlik haqida qaror va sertifikat berish/bermaslik to'g'risidagi qarorlarni qabul qilish uchun mezonlar:

SMT o'rnatilgan talablarga muvofiq/nomuvofqlik haqida qaror va sertifikat berish/bermaslik to'g'risidagi qarorlarni qabul qilish uchun mezonlar tekshirilayotgan tashkilotda nomuvofqliklarning yo'qligi yoki to'g'rilovchi amallarni kelishilgan muddatda va sertifikatlashtirish idorasi ularning to'g'rilovchi amallar natijalari bajarilgan/bajarilmaganligi va qabul qilish/qabul qilmasligi bo'lib hisoblanadi.

SMT muvofqlik sertifikatini berish yoki bekor qilish to'g'risidagi sertifikatlashtirish idorasi rahbari to'g'rilovchi amallarni reja bo'yicha bajarish natijalari va dalolatnomani qarab chiqish asosida qaror qabul qiladi. Qarorni auditda qatnashishga qabul qilmagan shaxs qabul qilish lozim.

Sertifikat berish to'g'risidagi qaror faqat barcha ro'yxatga olingan nomuvofqliklar va ularni kelib chiqish sabablari, agarda to'g'rilovchi amallarni bajarilish natijalariga qarab chiqilganidan so'ng, va hokazolar bartaraf etilganidan keyin hamda tekshirilayotgan tashkilotning to'g'rilovchi amallarni o'tkazganligi to'g'risida sertifikatlashtirish idorasiga yozma hisobotidan so'ng qabul qilinishi mumkin.

SMT muvofqlik sertifikatini berishni bekor qilishni sertifikatlashtirish idorasi qayta shartnoma asosida qaytadan sertifikatlashtirish auditini o'tkazish imkoniyat to'g'risida xabardor qiladi.

**Sertifikatlashtirish audit natijalari bo'yicha to'g'rilovchi amallarni bajarish va nomuvofqliklarni bartaraf etilishini nazorati**

Sertifikatlashtirish idorasi o'rnatilgan nomuvofqliklar bo'yicha to'g'rilovchi amallarni bajarilishini tekshirilayotgan tashkilotning nomuvofqliklarni bartaraf etilganligi haqida yozma hisobotini olganidan keyin nazorat qilishi rejalashtiriladi.

Ahamiyatli nomuvofqliklar bo'yicha to'g'rilovchi amallarni bajarilishini tekshirilayotgan tashkilotga sertifikatlashtirish idorasining eksperti(lari) majburiy tashrif bilan nazorat qilinadi.

Kam ahamiyatli nomuvofqliklar bo'yicha to'g'rilovchi amallarni bajarilishi nazoratida, agarda to'g'rilovchi amallar tarkibi majburiy "joyida" tekshirishini talab etmasa, tekshirilayotgan tashkilotning rasmiy hisoboti ko'rib chiqilishiga ruxsat etiladi.

Audit vaqtida ekspert to'g'rilovchi amallarni bajarilishini nazorat qilish maqsadida haqiqatda bajarilgan va to'g'rilovchi amallarning natijaviyligini tekshiradi.

Agarda nomuvofqliklar bo'yicha to'g'rilovchi amallar ob'ektiv dalillarga muvofiq qoniqtirilmasa tashkilotning SMT baholash va audit natijasi salbiy

ta'sir qilib, sertifikatlashtirish idorasi sertifikat berishni bekor qilish haqida xabar beradi.

### **SMT muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish**

Sertifikatlashtirish idorasining ijobiy qarori bilan SMT muvofiqlik sertifikati o'rnatilgan shaklida rasmiylashtiriladi.

Sertifikatlashtirish idorasida sertifikatga ro'yxat raqami qo'yilib, keyin sertifikatlashtirish idorasi reestrda sertifikat ro'yxatga olinadi.

Sertifikat ilovasi ham bo'lishi mumkin. Sertifikatlashtirish idorasi rahbari sertifikatga ilovani rasmiylashtirish to'g'risida qaror qabul qiladi.

### **Nazorat savollari**

1. Sifat menejmenti tizimi ichki auditi qanday amalga oshiriladi?
2. Sifat menejmenti tizimi sertifikatlashtirish qanday amalga oshiriladi?
3. Sifat menejmenti tizimi tamoyillari
4. Sifat menejmenti tizimi hujjatlari nimalardan tashkil topgan?
5. Sifatni boshqarish tizimiga taaluqli qanday normativ hujjatlarni bilasiz?
6. Sifat menejmenti tizimini sertifikatlashtirish jarayonining qanday o'ziga xos xususiyatlari mavjud?

### **25-mavzu. Sifat menejmenti tizimini tekshirish**

25.1. Audit va audit turlari.

25.2. ISO 19011 xalqaro standarti.

25.3. Sifat tizimini ichki, tashqi, uchinchi tomon auditlari.

#### **25.1. Audit va audit turlari.**

**Audit (tekshiruv)** - auditga oid dalillarni olishning va auditning kelishilgan mezonlarining bajarilish darajasini belgilash maqsadida ularni ob'ektiv baholashning sistematik, mustaqil va hujjatlashtirilgan jarayondir.


Sifat, ekologik, kasbiy xavfsizlik va mehnatni muhofazasi, energetik va boshqa menejment tizimlarida ular qo'ygan talablarga muvofiqlikni aniqlash davriy ravishda ichki auditlari o'tkazilishi bilan ta'minlanadi. Auditlar o'tkazish jarayonni joriy etilgan tizimlarini aynan xalqaro standartlar qo'yilgan talablarga muvofiqligi va faoliyat natijaviyligining monitoringi va tekshirish mexanizmlaridan biri bo'lib, undan olingan natijalar yuqori rahbariyat tahliliga taqdim etish hisoblanadi.

Tashkilot rahbariyati menejmenti tizimlarini qanchalik darajada joriy etilganligi, faoliyati natijaviyligi, qacda nomuvofiqliklar borligini auditlarni davriy o'tkazish orqali baholaydi. Aniqlangan nomuvofiqlik tuzatish, tuzatuvchi va oldini oluvchi choralarni amalga oshirish orqali o'z jarayonlari yoki tizimlarini takomillashtirish imkoniyatlarini aniqlaydi.

ISO 9000:2015 xalqaro standartning 3.13.1 bandida auditga quyidagicha ta'rif berilgan:

Audit -audit mezonlariga muvofiqlik darajasini aniqlash uchun ob'ektiv dalillarni olish, ularni ob'ektiv baholashning tizimli, mustaqil va hujjatlashtirilgan jarayoni.

Auditning asosiy elementlari tekshirilayotgan ob'ekt uchun javobgar bo'lmagan xodimlar tomonidan jarayonlar faoliyatini muvofiqlik bajarilayotganni aniqlashni o'z ichiga oladi.



**25.1.1-rasm. Audit turlari**

## **25.2. ISO 19011 xalqaro standarti.**

Audit jarayonini tashkil qilish bo'yicha tavsiyalar ISO 19011 "Sifatni boshqarish tizimi va/yoki ekologik boshqarish tizimlari auditi bo'yicha tavsiyalar" standartida keltirilgan.

Ushbu tavsiyalar kasb xavfsizligi va mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimlari, oziq - ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda qaltisliklarni boshqarish (ISO 22000) va dengiz kemachiligi (ISM Code) tizimlarini tekshirishda qo'llaniladi, shuningdek boshqa boshqarish tizimlarini auditlarida qo'llanilishi mumkin.

ISO 19011:2002 xalqaro standartida quyida keltirilgan atamalar va ta'riflar qo'llaniladi.

Audit (tekshirish) – kelishilgan audit mezonlarini bajarilishi darajasini aniqlash maqsadida audit guvohliklarini olish va ularni ob'ektiv baholashni tizimli, mustaqil va hujjatlashtirilgan jarayoni.

Qayd qilib o'tishimiz joizki, ichki audit sifat tizimi jarayonlaridan biri hisoblanadi va uni boshqarish PDCA tsikliga (Rejalashtirish - Bajarish- Nazorat -To'g'rilash) muvofiq amalga oshirilishi kerak.

Audit mezonlari – siyosat, protseduralar yoki talablarni jamlanmasi.

Audit maqsadlariga qarab, audit mezonlari sifatida xalqaro standartlar, ichki me'yoriy hujjatlar (hujjatlashtirilgan protseduralar, ishchi yo'riqnomalar), rejalar, dasturlar, shartnomalar va tashkilot sifat tizimini boshqa hujjatlari qo'llanilishi mumkin.

*Izoh. Audit mezonlari audit guvohliklari solishtiriladigan talablar sifatida qo'llaniladi.*

Audit guvohliklari – audit mezonlari bilan bog'liq va tekshirilishi mumkin bo'lgan yozuvlar, faktlarni bayon qilinishi yoki boshqa ma'lumotlar (ya'ni, audit mobaynida yig'ilgan va tekshirilgan ma'lumotlar).

*Izoh. Audit guvohliklari sifat yoki miqdoriy bo'lishi mumkin.*

Audit kuzatuvlari – audit guvohliklarini audit mezonlariga muvofiq baholanishi natijalari.


Izoh. Audit kuzatuvlari audit mezonlariga muvofiqlik yoki nomuvofiqlikni, shuningdek yaxshilash imkoniyatlarini ko'rsatishi mumkin.

Audit natijalari bo'yicha xulosa – audit maqsadlari va auditni barcha kuzatuvlarini ko'rib chiqilgandan so'ng auditorlar guruhi tomonidan taqdim qilingan auditni chiqish ma'lumotlari.

25.2.1-rasmda audit natijalari bo'yicha xulosani chiqarish sxemasi ko'rsatilgan.

Shunday qilib, audit mobaynidan yig'ilgan ma'lumot, tekshirilgandan so'ng audit guvohligiga aylanadi.

Auditni barcha kuzatuvlari tahlili natijalari bo'yicha audit xulosa shakllanadi audita.



#### 25.2.1- rasm. Audit natijalari bo'yicha xulosani chiqarish.

Audit buyurtmachisi – audit o'tkazishga buyurtma bergan tashkilot yoki shaxs.

Izoh. Buyurtmachi sifatida tekshirilayotgan tashkilot yoki auditga buyurtma berish huquqiga ega bo'lgan istalgan tashkilot bulishi mumkin.

Ichki auditda auditni buyurtmachisi bo'lib tekshirilayotgan tashkilot rahbari hisoblanadi.

Tekshirilayotgan tashkilot – audit o'tkazilayotgan tashkilot.

Auditor – audit o'tkazish uchun tegishli layoqatga ega shaxs.

Auditorlar guruhi – audit o'tkazadigan, zaruriyat bo'lganda texnikaviy ekspertlar yordam berishi mumkin bo'lgan, bir yoki bir necha auditorlar.

1 izoh. Auditorlar guruhiga kiruvchi auditorlardan biri guruh rahbari qilib tayinlanadi.

2 izoh. Auditorlar guruhiga tayyorgarlikdan o'tayotgan auditorlar (stajerlar) kiritilishi mumkin.

Texnikaviy ekspert – auditorlar guruhiga maxsus bilim yoki tajriba tomonidan yordam beruvchi shaxs.

1 izoh. Maxsus bilim yoki tajriba – tekshirilishi kerak bo'lgan tashkilot, jarayon yoki faoliyatga taalluqli bo'lishi mumkin.

2 izoh. Texnikaviy ekspert auditorlar guruhida auditor sifatida ish olib bormaydi.

Audit dasturi – aniq muddatlarga rejalashtirilgan va aniq maqsadga erishi uchun yo'naltirilgan bir yoki bir necha auditlar yig'indisi.

Izoh. Auditlarni rejalashtirish, tashkil kilish va bajarish uchun zarur barcha faoliyatlar audit dasturiga kiritiladi.

Audit rejasi- faoliyat turlari va audit tadbirlarini bayoni. (Audit rejasi har bir aniq audit uchun tuziladi).

Audit hajmi - audit mazmuni va chegaralari.

Izoh. Hajm odatda tashkiliy birliklar joylashishi, faoliyat va jarayonlar, shuningdek qamrab olinadigan vaqt davrini o'z ichiga oladi.

### **25.3. Sifat tizimini ichki, tashqi, uchinchi tomon auditlari.**

Audit ichki (birinchi tomon) yoki tashqi (ikkinchi yoki uchinchi tomon) va mujassamlangan yoki birgalikda o'tkaziladigan auditlarga bo'lishi mumkin.

Ichki audit (birinchi tomoni audit) –bu tashkilot tomonidan o'zini-o'zi audit qilish bo'lib, ya'ni joriy etilgan o'z tizimlari, hujjatlari va faoliyatlari belgilangan talablarga muvofiqligiga ishonch hosil kilish maqsadida o'tkaziladiga ichki tekshirishdir.

Ichki auditlarni o'tkazishdan maqsad, menejment tizimlarini belgilangan talablarga muvofikligi, aynan joriy etilganligi va ularni yaroqlii holatda saqlanayotganligini aniqlashdan iboratdir.

Ichki audit yuqori rahbariyatga quyidagi ma'lumotlarni:

- buyruqlar, ko'rsatmalar va farmoyishlari bajarilayotganligi yoki bajarilmayot-ganligi haqida;

- tizimlar belgilangan darajada natijaviy yoki samaraviyligi yoki yo'qligi haqida;

- tizimlarning qacda nomuvofiqliklar borligi haqida ma'lumot beradi.

Ichki audit butun tashkilot bo'yicha "aloqadorlik, o'zaro bog'liklik"ni ta'minlashga imkon beradi va ularni doimiy takomillashtirishni aniqlaydi.

Tashkilot ichki auditorlar o'tkazish bilan o'zi uchun menejmenti tizimlari joriy etilgan xalqaro standartlar talablariga muvofiqligini namoyon qiladi. Ikkinchi tomon auditlari iste'molchini qanoatlanganligini, uchinchi tomon auditlarni o'tkazish bilan sertifikatlanganligini namoyish etadi va ro'yxatga olinganligi mavjudligi ko'rsatadi.

Ikkinchi tomon audit. Bu tashkilotni iste'molchi yoki uni nomidan tekshirilishi. Ikkinchi tomon auditini maqsadi - talablarini bajaralishi kafolatlanganligini va tizimni doimiy ravishda takomillashtirilayotganligi haqidaga ma'lumotlarni olish orqali iste'molchini ishonchini ta'minlashdan iboratdir.

Ikkinchi tomon auditorlari o'tkazish bilan mahsulot yetkazuvchi korxonaning menejment tizimining natijaviyligi, yaroqliligi va iste'molchini qanoatlantirishi aniqlanadi. Audit natijalari asosida kelajakdagi tijorat ko'rsatish qarorlari qabul qilinadi. Kafolatlangan ma'lumot olishda auditorlarni malakasi, layoqati, tegishli tayyorgarligi, tajribasi, mustaqilligi va boshqa talablarga muvofiqligi talab etiladi. Auditni qanday o'tkazilishi iste'molchi tashkilot talabidan kelib chiqiladi.

Uchinchi tomon audit. Tashqi mustaqil tashkilot (uchinchi tomon) tomonidan o'tkaziladigan tekshirish. Odatda, uchinchi tomon baholashi sertifikatlashtirish maqsadida o'tkaziladi.

Ikkinchi tomon audit kabi, uchinchi tomon audit auditor, shuningdek, tekshiriladigan tashkilotga ham alohida talablarni belgilaydi. Audit natijalari tizimi holatini aniq va haqqoniy ko'rsatishi uchun auditor o'z ishini ustasi va layoqatli bo'lishi kerak.

Audit mezonlari. Ichki auditlarni davriy o'tkazilishi quyidagilarga imkon beradi:

- menejment tizimlarini joriy etilgan xalqaro va tashkilot standartlari, yo'riqnomalar va boshqa hujjatlarda belgilangan talablarga muvofiqligini ta'minlash;

- yuqori rahbariyat va qiziquvchi tomonlarda menejment tizimlarini natijaviyligi bo'yicha ishonch hosil qilish: ichki audit, tizimlar jarayonlarini qanday faoliyat ko'rsatayotganligi to'g'risida xolisona ma'lumot taqdim qilgan holda, aks aloqani ta'minlaydi.

- tez muammolarni aniqlash: istalgan tizimlarni tekshirish vaqtida auditor tizimlardagi yoki jarayonlardagi muammolarni aniqlash imkoniyatiga ega;

- tuzatuvchi choralarini amalga oshirish uchun aks aloqani ta'minlash: ichki auditda talablarga nomuvofiqliklar aniqlasa ularni tub sabablarini bartaraf qilish uchun tuzatuvchi va oldini oluvchi choralar ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi;

- ichki auditlar ikkinchi va uchinchi tomon auditlar uchun muvofiqlashtirish mexanizmdir: tizimlarini joriy qilish va sertifikatlashtirishga tayyorlash vaqtida tizimlarni "ishga tushirish" yoki "oqsoqlanayotgan" joylarni aniqlash imkoniyatini beradi.

Auditlarni maqsadi – aybdorni izlash va jazolash emas, balki nomuvofiqlikni tub sababini bartaraf etishdir. Mazkur tushunchani tashkilotni barcha xodimlariga yetkazish va unga amal qilish xolisona ma'lumot olishga imkon berdi. Aybdorni izlash va jazolash asl ma'lumotlarni berkitish yoki noto'g'ri taqdim qilish, bunday holat bilan tizimlarni faoliyati haqida xolisona ma'lumotlar olinmay.

Menejment tizimlarining ichki auditi jarayonidan quyidagilar bo'lsa:

- rahbariyatning javobgarligi;
- tuzatish va oldini olish harakatlar;
- davriy audit (tekshiruv);
- ma'lumotlar tahlili;
- doimiy takomillashtirishlar o'rnatilgan bo'lsa, tashkilot menejmenti

tizimlari nafaqat natijaviylikka balki, samaradorlik erishadi.

Tashkilot menejment tizimlarini sertifikatlashtirish auditiga qadar joriy etgan xalqaro standartlar va ularga muvofiq aniqlangan hujjatlar (Siyosat, maqsadlar, tashkilot standartlari va boshqalar), shuning huquqiy va me'yoriy talablariga muvofiqlik bo'yicha faoliyati ichki auditlardan o'tkazgan va nomuvofiqlik daraja aniqlangan bo'lishi lozim.

Menejment tizimlarining ichki auditi quyidagi masalalarni hal etishda yordam beradi:

- faoliyat va uning natijaarini o'rnatilgan menejment tizimlari talablariga muvofiqligini tasdiqlash;
- aniqlangan nomuvofiqliklar sabablarini tahlil qilish va bartaraf etish;
- sifat muammolarini oldini olish;
- tuzatish harakatlarining bajarilishini tasdiqlash;
- menejmenti tizimlarining ishchi holati samaradorligini baholash;
- menejment tizimlari hujjatlarida o'rnatilgan maqsadlar, vazifalar va talablarni xodimlar tushunish darajasini o'rnatish;
- sifat menejmenti tizimlari va/yoki ekologik menejment tizimlarini hamda ularning alohida jarayonlarini kelgusida takomillashtirish yo'llarini aniqlash.

Ichki auditlarni o'tkazishni rejalashtirish jarayonlarni murakkabligi, holati va ahamiyati, shuningdek oldingi audit natijalar va e'tirozlarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Har bir audit o'tkaziladigan joy uchun alohida dastur, reja va savolnomalar yuqoridagilarni, ta'sir ko'rsatuvchi jarayonlar hisobga olgan holda tuzish maqsadga muvofiq bo'ladi.

ISO 9001:2015 xalqaro standartning 9.2 bandida ichki auditga quyidagi talablar qo'yilgan:

#### 9.2 Ichki audit

9.2.1 Tashkilot ma'lumotlar olish uchun davriy ravishda rejalashtirilgan auditlar o'tkazib turishi lozim, qaysiki sifat menejmenti tizimi:

a) muvofiqligi

1) tashkilot o'z sifat menejmenti tizimi talablarga;

2) mazkur standart talablariga;

b) vazifalarini bajarilishi va natijaviy joriy etilganlik.

9.2.2 Tashkilot lozim:

a) audit dasturlarini qullab quvvatlash, rejalashtirish va ishlab chiqish, shuningdek davriylik, rejalashtirish talablarga javobgarlik metodlari, va hisobotlar, qaysiki jarayonlarni tekshirish uchun tanlash muhimligi, o'zgarishlar, tashkilotga ta'sir va avvalgi audit natijalarini o'z ichiga olgan holda;

b) har bir audit uchun ko'lam(daira-oblast) va mezonlar o'rnatish;

c) auditorlarni tanlash va audit o'tkazishda haqqoniylik va xolisligini ta'minlash;

d) audit natijalarini tegishli rahbarlarga yetkazishni ta'minlash;

e) muvofiq tuzatish va tuzatuvchi choralarni bajarilishini asossiz paysalga solmaslik (to'xtatmaslik);

f) audit dasturini bajarilganligi va audit natijalarini isboti sifatida hujjatlashtirilgan ma'lumotlar holida saqlash.

O'z DSt IATF 16949:2019 xalqaro standartida ichki auditga talablar belgilashda ISO 9001:2015 ga nisbatan qo'yidagi qo'shimcha talablari qo'yadi:

9.2.2.1 Ichki auditlar dasturi.

Tashkilot ichki auditlar jarayoni hujjatlashtirilishi lozim. Audit jarayoni o'z ichiga ichki audit dasturlari ishlab chiqish va joriy etish, sifat menejmenti tizimi, ishlab chiqarish jarayonlari va mahsulot auditlari to'la qamrab olishi lozim.

Audit dasturlari xavlar o'sishi, ichki va tashqi auditlar ko'rsatkichlari, hamda jarayonlar ahamiyati asosida tuzilishi lozim.

Agar tashkilot dasturiy ta'minlashga javobgar bo'lsa, o'z audit dasturlarida dastur ta'minlashni ishlab chiqish uchun imkoniyat mavjudligini baholashi lozim.

Audit davriyligi tahlil qilinishi va agar qabul qilingan bo'lsa, jarayonlarda o'zgarishlar, ichki va tashqi nomuvofiqliklar yoki istemolchilardan e'tirzolar ta'sirida tuzatilishi lozim. Audit dasturini natijaviyligi yuqori rahbariyat tahlili doirasida ko'rib chiqilishi lozim.

9.2.2.2 Sifat menejmenti tizimi auditi.

Tashkilot barcha sifat menejmenti jarayonlarini, jarayonli yondashuvni qo'llagan xolda, mazkur standart talablariga muvofiqligini, tekshirish uchun har uch kalendar yil davrida, har yillik dastur asosida audit o'tkazishi lozim. Tashkilot bunday auditlarni o'tkazishda iste'molchining sifat menejment tizimiga qo'yilgan talablari va uni natijaviy joriy etilganligi tanlov asosida tekshirilishi lozim.

9.2.2.3 Ishlab chiqarish jarayonlari auditi

Tashkilot, jarayonlar auditiga yondashuv zaruratidan foydalanish bilan natijaviylik va samaradorlikni aniqlash uchun barcha ishlab chiqarish jarayonlari iste'molchi tomonidan o'rnatilgan talablarga muvofiqligini tekshirish uchun har uch kalendar yil davrida, har davriylik asosida audit o'tkazishi lozim. Bu iste'molchi tomonidan aniqlanmagan bo'lsa, tashkilot qaysiki foydalanishi mumkin bo'lgan yondashuvni aniqlaydi.

Har qaysisi alohida audit rejasi asosida barcha har bir smenlarda, smenaga berish tanlovga yondashuv bilan audit o'tkazish lozim.

Ishlab chiqarish jarayonlari auditini jarayon xavflarni taxlillash (masalan, PFMEA) natijaviyligi, boshqarish rejasi va muvofiq hujjatlarni o'z ichiga olishi lozim.

#### 9.2.2.4 Mahsulot auditini

Tashkilot, iste'molchi o'rnatgan talablar, ishlab chiqarish bosqichlari va yetkazishga muvofiq, qaysiki o'rnatilgan talablarga muvofiqlikni verifikatsiyalash, zarur yondashuvdan foydalanish bilan mahsulot auditini o'tkazish lozim. Agarda bu iste'molchi tomonidan aniqlanmagan bo'lsa, tashkilot qaysiki foydalanishi mumkin bo'lgan yondashuvni aniqlaydi.

ISO 14001:2015 Ekologik menejmenti tizimi xalqaro standarti ISO 9001:2015 dan qo'ygan ichki auditga hech qanday qo'shimcha talab qo'ymagan. Faqatgina ISO 14001:2015 ekologik siyosat bo'yicha ichki audit talablarini belgilaydi.

ISO 50001:2018 Energetik menejmenti tizimi xalqaro standarti ISO 9001:2015 standarti qo'ygan ichki audit talablariga quyidagi qo'shimcha talablarini qiritgan:

a) energetik menejmenti tizimi va energetik tavsiflarni takomillashtirilyaptimi;

v) uni muvofiqligi ta'minlanganmi:

-tashkilotni o'z talablari energetik menejmenti tizimiga;

-tashkilot o'rnatgan energetik siyosat (5.2 ga qarang), maqsadlar va energetik vazifalari (6.2 ga qarang);

-mazkur standart talablariga muvofiqmi.

C) uni qo'llanishi (foydalanishi) natijaviymi va ishchi holatda saqlanilyaptimi;

e) bajariladigan chora tadbirlarni 10.1 i 10.2 bandlar bilan muvofiqligi;

f) audit dastur(lar)ini amalga oshirilganligi va audit natijalarni sifatli ekanligini isbotlovchi ma'lumot hujjatlarni ro'yxatga olish va saqlash (7.5 ga qarang).

ISO 9001:2015da ichki auditga qo'ygan talablarga ISO 22001:2018 Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi menejment tizimlari xalqaro standarti hech qanday qo'shimcha talablar qo'ymagan, oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizlik siyosati va maqsadlar bo'yicha ichki auditlarda e'tibor berishi ko'rsatilgan.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki har qaysi menejmenti tizimlarida auditlarni o'tkazishda asosiy talablarni ISO 9001:2015 xalqaro standarti qo'ygan

talablar bo'lishi va boshqa menejment tizimlar qo'ygan qo'shimcha talablarga qaratish bilan auditlarni to'la o'tkazish mumkin. Har bir jarayonlar uchun alohida reja, savolnoma, hisobotlar qilish, ularni hujjatlashtirish, saqlash va rahbariyat tahliliga taqdim etish lozim.

### **Nazorat savollari**

1. Sifat menejmenti tizimi auditi haqida ma'lumot bering.
2. Sifat menejmenti tizimi ichki auditi qanday amalga oshiriladi?
3. Sertifikatlashtirish idoralari sertifikatlashtirish auditida qanday ishlarni amalga oshiradi?
4. Sifatni boshqarish tizimi va/yoki ekologik boshqarish tizimlari auditi bo'yicha tavsiyalar berilgan xalqaro standart bo'yicha ma'lumot keltiring?
5. Sifat menejmenti tizimini sertifikatlashtirishda ekspert-auditorlarning vazifalarini va ularga qo'yilgan talablarni tushutiring.

## **26-mavzu. Sifat menejmenti tizimini xujjatlashtirish**

### **26.1. Sifat menejmenti tizimini xujjatlari tuzilmasi**

#### **26.1. Sifat menejmenti tizimini xujjatlari tuzilmasi**

Har qanday menejmenti tizimlarini joriy etish, saqlash va yaroqligini ta'minlash, hamda xodimlarga yetkazish va sertifikatlashtirishda uni hujjatlashtirish natijaviylik va samaradorlikka olib keladi. ISO 9001:2008 xalqaro stanadartining 4.2.2 bandi "Sifat qo'llanma"si sifat menejmenti tizimlarini qo'llash doirsi, istisnolarni asoslanishi va jarayonlarni bog'liqligi hujjatlashtirilgan yoki ularni manbaalar to'plarni yoritilishi talab etilgan bo'lsa, ISO 9001:2015 Sifat menejmenti tizimlari va IATF 16949:2016 Avtomobilsozlik sifat menejmenti tizimlari halqaro standartlarining "Tashkilot muhiti (konteksti) 4 bandida tashqi va ichki omillar, manfaatdor tamonlarni talablari, qo'llanish doirasi, mahsulot va xizmatlar, jarayonlarni o'zaro bog'liqligi, istisnolar, iste'molchining mahsus talablari, mahsulot va jarayonlarni muvofiqligi va mahsulot xavfsizligiga qo'yilgan talablar yoritilishi lozimligi ko'rsatilgan.

**Sifat bo'yicha qo'llanma** – bu korxona sifat menejmenti tizimini bayon etuvchi ya'ni tavsiflovchi hujjatdir.

Sifat bo'yicha qo'llanma quyidagilarni ta'minlash uchun ishlab chiqiladi:

- SMT samarali joriy qilish;
- korxonani sifat sohasidagi siyosatini bayon qilish;
- SMT jarayonlarini samarali boshqarish;
- SMT auditi uchun me'yoriy asosni;
- o'zgarayotgan sharoitlarda SMT faoliyati barqarorligini va SMT ISO 9001 standartiga muvofiqligini korxona tomonidan namoyishi.

**Sifat sohasidagi siyosat va maqsadlarni ishlab chiqish**

Sifat sohasidagi siyosatni ishlab chiqishda "Sifat sohasidagi siyosat" atamasi ta'rifini e'tiborga olish va quyidagilar ko'rsatilgan siyosatni ishlab chiqish bo'yicha vazifani belgilash kerak:

- yuqori rahbariyat tomonidan rasmiy shakllantirilgan, tashkilotni sifat sohasidagi umumiy mo'ljallari;

- yuqori rahbariyat tomonidan rasmiy shakllantirilgan, tashkilotni sifat sohasidagi faoliyat yo'nalishlari;

Sifat sohasidagi siyosatni ishlab chiqishni quyidagi ketma-ketlikda amalga oshirish tavsiya qilinadi:

- sifat sohasidagi siyosatni hujjat sifatida tuzilishini aniqlash;

- korxona strategik maqsadini aniqlash;

- tashkilotni sifat sohasidagi asosiy faoliyat yo'nalishlarini aniqlash;

- asosiy yo'nalishlar bo'yicha tashkilot faoliyati tamoyillarini aniqlash;

- sifat sohasidagi siyosatni yuritish va tashkilotni sifat sohasidagi maqsadlariga erishish uchun sharoitlarni yaratish uchun tashkilot rahbariyatini majburiyatlarini aniqlash.

Sifat siyosati va tashkilotning maqsadlari. Sifat siyosati - bu "yuqori rahbariyat tomonidan rasmiylashtirilgan tashkilotning sifat sohasidagi faoliyatining umumiy maqsadi va yo'nalishi". Sifat tizimi hujjatlarining majburiy elementi tashkilotning sifat sohasidagi siyosati va maqsadlari to'g'risidagi hujjatlashtirilgan bayonotlardir. Sifat sohasidagi maqsadlar "sifat sohasida nimaga erishishimiz yoki nimalarga intilishimiz" dir. Sifat maqsadlari odatda tashkilotning sifat siyosatiga asoslanadi va tashkilotning tegishli funksiyalari va darajalari uchun belgilanadi.

Sifat siyosati to'g'ridan-to'g'ri yuqori rahbariyat tomonidan (yoki uning nazorati ostida) tashkilotning ixtisoslashuvi va iqtisodiy holatini hisobga olgan holda ishlab chiqiladi.

Tashkilotning ixtisoslashuvi (ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish turi) tashkilotning sifat sohasidagi faoliyatining asosiy yo'nalishlarini belgilashda, shuningdek ushbu yo'nalishlarni amalga oshirish uchun turli bo'limlarning maqsadlarini ro'yxatlashda aks etadi.

Sifat siyosatini ishlab chiqish davridagi tashkilotning holati tashkilot oldida turgan sifat vazifalarining xususiyatiga ta'sir qiladi.

Sifat maqsadlari butun tashkilot uchun, shuningdek alohida bo'limlar, filiallar, idoralar va tarkibiy bo'linmalar uchun belgilanishi mumkin.

**Maqsad** (objective) -natija, qaysiki erishish lozim bo'lgan (ISO 9000:2015, 3.7.1).

1-izoh: Maqsad strategik, taktik yoki amaliy jihatli bo'lishi mumkin.

2-izoh: Maqsadlar har turli faoliyat jihatlariga nisbatan (qaysiki, masalan, moliyaviy, salomatlik va mehnat muhofazasi ta'minlash, atrof muhitni muhofazalash, sifat ko'rsatkichlariga erishish) bo'lishi mumkin.

3-izoh: Maqsadlar turlicha ifodalanish mumkin, shuningdek kutilayotgan «chiqish» (natija, jamlama), ko'zlangan marra, ishlab chiqarish mezonni, sifat

*ko'lamli maqsadlari yoki boshqa so'zlar bilan nomlangan, mohiyati aynan bo'lgan, masalan: niyat qilingan, belgilangan, orzu, intilishlar bo'lishi mumkin.*

*4-izoh: Sifat menejmenti tizimga qabul qilinadigan, aniq natijalar olish uchun tashkilot sifat ko'lamida o'rnatilgan, sifat siyosati bilan muvofiq bo'lgan maqsadlar.*

**Sifat doirasi maqsadi** (quality objective) - sifatga nisbatan bo'lgan maqsad (ISO 9000:2015, 3.7.2).

*1-izoh: Sifat ko'lamida maqsadlar odatda tashkilotni sifat ko'lamidagi siyosatiga muvofiq o'rnatiladi.*

*2-izoh: Sifat ko'lamida maqsadlar odatda muvofiq qo'yilgan vazifa-(biriktirilgan vazifa, javobgarligi)larni bajarish uchun va tashkilot darajalar bo'yicha o'rnatiladi.*

Maqsadlarni belgilashda quyidagi mezonlar hisobga olinishi kerak:

- erishiladigan;
- darajali;
- o'lchamli;
- muddatli;
- javobgari aniqlangan.

Maqsadga erishish vaqt ichida cheklangan bo'lishi kerak. Maqsadga erishish vaqtiga qarab, uni ikki guruhga bo'lish mumkin: qisqa muddatli va uzoq muddatli.

Qisqa muddatli maqsadlarga erishish vaqti boshqaruv tomonidan sifat menejmenti tizimini tahlil qilish davriyligidan oshmaydi.

Sifat menejmenti tizimini boshqaruv tomonidan tahlil qilish davriyligidan oshgan maqsadlarni uzoq muddatli deb atash mumkin. Maqsadning o'lchanishi maqsadga erishishni tekshirish (boshqarish, baholash) imkoniyatining mavjudligi deb hisoblanadi.

Strategik rejalashtirish va sifat siyosati tashkilotga quyidagi mezonlarni hisobga olgan holda sifat maqsadlarini belgilash uchun asos yaratadi:

- moliyaviy;
- uchinchi tomonni baholash (tashqi audit) va eng yaxshi yutuqlar bilan taqqoslash (qiyoslash);
- mijozlar, tashkilot xodimlari va boshqa manfaatdor tomonlarning ehtiyojlarini qondirish;
- iste'molchilar va boshqa manfaatdor tomonlar etkazib berilayotgan mahsulotning xususiyatlarini qabul qilishlari;
- tashkilotning barcha ko'rsatkichlarini yaxshilash;
- mijozlarning talablariga muvofiq mahsulot ishlashini yaxshilash.

Ushbu mezonlarga muvofiq, biz to'g'ri va noto'g'ri tuzilgan maqsadlarga misollar keltiramiz (26.1.1-jadval).

| To'g'ri shakllantirilgan maqsadlar                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                 | Noto'g'ri shakllangan maqsadlar                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                       |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <p><b>Mutlaq maqsadlar:</b><br/> Iste'molchilar bilan tuzilgan shartnomalar sonini 50 ga etkazish<br/> Tashkilotning aybi bilan mijozlar bilan shartnomalarni bajarmaslik holatlarining oldini olish (0 ta holat).<br/> Kompaniyaga qilingan shikoyatlar soni 5 tadan oshmasligi kerak</p> <p><b>Nisbiy maqsadlar:</b><br/> 100% sinov uskunalarini sertifikatlash<br/> Korxonaning bitta xodimining daromadini 5 mln so'mga oshirish.<br/> G'olib bo'lgan tenderlar sonini 10 foizga ko'paytirish<br/> Kasbiy jarohatlar sonini kamaytirish</p> <p><b>Vaqtinchalik maqsadlar:</b><br/> Sifat menejmenti tizimini 2020 yilda ISO 9001: 2015 ga muvofiqligini sertifikatlash.<br/> O'lchov vositalarining davlat reestriga kiritilgan mahsulotlarning davlat sinovida ishlatiladigan barcha o'lchash vositalarini, o'lchash vositalarini 100% ga 2020 yilga qadar 100% almashtiring. Shu bilan birga, 2021 yilga kelib kamida 80% almashtiring.</p> | <p><b>Noaniq maqsadlar:</b><br/> Sifatni menejment tizimini takomillashtirish;<br/> Mahsulot sifatini yaxshilash;<br/> Mahsulot sifatining barqaror darajasini ta'minlash;<br/> Ishlab chiqarish barqarorligini oshirish;<br/> Tadqiqot samaradorligini oshirish;<br/> Ishlab chiqarishning ritmik xususiyatini ta'minlash;<br/> Bilimlarni oshirish;<br/> Resurslardan unumli foydalanish;<br/> Sifat menejmenti tizimining narxini pasaytirish.</p> |

Tashkilotning sifat sohasidagi maqsadlari quyidagi qismlarga ega bo'lgan sifat dasturlarda aks ettirilishi mumkin:

- sifat menejmenti tizimini takomillashtirish;
- mahsulot sifatini yaxshilash;
- resurslarni boshqarishni takomillashtirish.

Sifat maqsadlari muntazam ravishda o'lchanishi, tahlil qilinishi va ko'rib chiqilishi kerak.

Bozor iqtisodiyoti muhitida korxonalarni raqobotbardosh bo'lishi uni sifat siyosati va maqsadlarini to'g'ri qo'yishi va erishishi bilan aniqlanadi. Shuningdek ularni xodimlarga o'z vaqtida va doimiy yetkazilganligi esa tashkilotga samara keltirishini ta'minlaydi.

#### Nazorat savollari

1. Sifat menejmenti o'zi nima?
2. SMT hujjatlar to'plami qanday tuziladi?

3. Sifat bo'yicha qo'llanma qanday shakllantiriladi?
4. Sifat bo'yicha qo'llanma uchun kerak?

#### **4-Modul bo'yicha o'z-o'zini tekshirish, nazorat va test savollari**

1. Sifat sohasidagi maqsadlarni ishlab chiqishda quyidagilardan qaysi biri hisobga olinmasa bo'ladi?:

- A) sifat qo'llanmasini
- B) tashkilot faoliyatini o'z-o'zini baholash natijalari
- C) barcha manfaatdor tomonlarning qoniqishi darajasi
- D) mahsulot va jarayonlar sifat ko'rsatkichlari

2. Sifat tizimi auditi natijasida nimani baholash mumkin?:

A) O'rnatilgan talablarga sifat tizimini hujjatlashtirish muvofiqlik darajasini

B) O'rnatilgan talablarga menejment tizimi hujjatlarini muvofiqlik darajasini

C) Tashkilotning aniqlangan hujjatlar talablariga menejment tizimi faoliyati muvofiqligi

D) Sifat tizimi talablari kafolatlangan holda va doimiy ravishda bajarilishi haqida iste'molchini ishonchini ta'minlash

3. Sifatga bo'lgan talablarni bajarilganligiga ishonch hosil qilishga yo'naltirilgan sifat menejmenti qismi, bu:

- A) Sifatni rejalashtirish
- B) Sifatni ta'minlash
- C) Ko'maklashuvchi (qo'llab-quvvatlovchi) jarayon
- D) Sifatni yaxshilash

4. Sifat menejmenti tizimi jarayonli yondoshish quyidagilar uchun qo'llaniladi:

A) Sifat menejmenti tizimini to'g'ri shakllantirish va samaradorligini ta'minlash uchun

B) Tashkilotda jarayonlar tizimini hamda boshqaruv jarayonlari ularni identifikatsiyalash va o'zaro faoliyatini qo'llash uchun

C) Sifat menejmenti tizimini ishlab chiqish, joriy etish va tizimli boshqarish uchun

D) Sifat menejmenti tizimini jarayonlari hujjatlarini ishlab chiqish va natijaviyligini baholash uchun

5. Sifat menejmenti tizimi hujjatlariga quyidagilar kiradi:

- A) ISO 9001 standarti talab qilgan hujjatlar
- B) Sifat sohasidagi siyosat, maqsadlar va ularni boshqarish hujjatlari
- C) Sifat menejmenti tizimi protsedura hujjatlari

D) Sifat bo'yicha qo'llanma, protseduralar va boshqalar

6. Tashkilotning sifat sohasidagi umumiy maqsadlari va yo'nalishini yuqori rahbariyat rasmiy ravishda tuzadi:

- A) Sifat sohasidagi siyosat
- B) Tashkilot vazifalari
- C) Tashkilot rahbariyatining his etishi
- D) Tashkilot faoliyatini yaxshilash sohasidagi maqsadlar

7. Uchinchi tomon auditi bu....:

- A) Mustaqil tashkilot auditi
- B) Mijoz yoki buyurtmachi auditi
- C) Mahsulot auditi
- D) Iste'molchilar auditi

8. Sifatni boshqarish tizimining qanday maqsadi tayyorlanadyotgan mahsulotning a'lo sifati, yuqori ishonchlik va uzoq muddatlilik ta'minlash bo'lib hisoblanadi?:

- A) KANARSPi
- B) NORM
- C) BIP
- D) SBT

9. Mahsulot sifatini boshqarishning qanday tizimi tadqiqot qilish, loyihalash va ekspluatatsiya bosqichlaridagi ko'plab ishlarni qamrab oladi?:

- A) KSUKP
- B) KANARSPi
- C) NORM
- D) BIP

10. Qanday tashkilot 1950 yillarda Mahsulotlarni nuqsonsiz tayyorlash qo'llay boshlagan?:

- A) Saratov tizimi
- B) Leningrad tizimi
- C) Kaliningrad tizimi
- D) Volgograd tizimi

## **5 - Modul. SIFAT MENEJMENTI TIZIMINI JORIY ETISH**

### **27-mavzu. Sifat menejmenti tizimini joriy etish**

27.1. Sifat menejmenti tizimini ishlab chiqish va joriy etishning vazifaviy va tashkiliy asoslari, sifat menejmenti tizimining me'yoriy ta'minoti

27.2 Sifat menejmenti tizimini hujjatlashtirish jarayoni va hujjatlarini joriy etish qoidalari va tartibi.

#### **27.1. Sifat menejmenti tizimini ishlab chiqish va joriy etishning vazifaviy va tashkiliy asoslari, sifat menejmenti tizimining me'yoriy ta'minoti**

ISO standartlarining paydo bo'lishi sifatni ta'minlashda korxona imkoniyati to'g'risida, ta'minotchilar ishonchililigi to'g'risida yetarli va ishonchlik bilan xulosalar qilish mumkinligini, sifat tizimi qanday mezonlarga javob berishi kerakligi savollariga, sifat tizimi orqali javob berildi.

ISO 9000 turkumli standartlar va boshqa xalqaro standartlar kabi, tavsiyanoma bo'lib hisoblanadi. Negaki, ularni o'zining shartlariga «yaqinlashtirish», ko'plab mamlakatlarda uni milliy sifatida qabul qilingan. Ular O'zbekistonda ham, masalan, O'z DSt ISO 9000, O'z DSt ISO 9001, O'z DSt ISO 9004 va O'z DSt ISO 19011 amaldagi davlat standartlari tizimida sertifikatlashtirish uchun yuritiladi.

Nega endi ularni joriy qilish kerak? Ular bozor sharoitlarida nimani beradi? degan savollarga to'xtalib o'tamiz.

Zamonaviy bozor, ya'ni, tovarlarni erkin aylanishi xususiyati, jahon bozori nomini oldi. U quyidagi tavsiflarga ega bo'ladi:

Mazmunli tovarlar: bozorda sezilarli darajada talab va takliflarni o'sishi.

Itse'molchilarni xabardorligi: iste'molchi haq, odatda, u nimani hohlashini biladi.

O'zgaruvchanlik: ilmiy-texnikaviy taraqqiyotni o'zgarishi, yuqori texnologiyalarni jadal rivojlanishi, bir vaqtda bozorda ishlovchi raqobatchilarning miqdorini ko'pligi — bir xildagi tovarlarni ishlab chiqaruvchilarni taklif va talablarni doimiy o'zgartiradilar.

Tovarni tanlashda, hal qiluvchi rolni o'ynovchi, raqobatbardoshlikning oltita asosiy mezonlari deb aytish mumkin.

Sifat. Iste'molchi, shak-shubhasiz bir xil sharoitda tovarning ishonchililigi, xavfsizligi, ko'proq afzal jozibadorligiga ahamiyat beradi.

Narx. Tovar narxi, uning sinfiga bog'liq bo'lib va aniqlangan to'lovchanlik darajasiga mo'ljallangan.

Yetkazish muddati. Ko'p holatlarda bu omil narxlashdan ham ko'proq ahamiyatga ega.

Ekspluatatsiya qiymati: tovarning ustunlikka egaligi, ya'ni iste'molchiga ekspluatatsiya qilish arzon tushadi.

Xizmat ko'rsatish qulayligi. Bu yerda texnik xizmat ko'rsatish va mahsulotni ta'mirlash, hamda uni mumkin bo'lgan tarmoq punktlari mavjudligi jiddiy o'rin tutadi.

Ishonish. Ishonish tayyorlovchining obru-e'tiborini, davomiylilik natijasida shakllanishi va bozor ishlaridan hech kamchilik topib bo'lmashlik deb ta'riflanadi.

Ishonchni qozonish usullaridan biri mahsulotni sertifikatlashtirish yoki tayyorlovchini nufuzli idoralar tomonidan sifat tizimini sertifikatlashidir.

Keltirilgan raqobatbardoshlik mezonlarining birinchi uchtasi (sifat, narx, yetkazish muddati) odatda, muhim bo'lib hisoblanadi. Bunda mahsulot sifati eng yuqori muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Sifatga berilgan ustunlik strategiyasi, bu jahon bozorida korxona taklifi turg'unligi davomiyligini ta'minlaydi. Agarda ustunliklar o'zgarsa, masalan, sifatga ziyon yetkazilib tannarxni tushib ketishi hisobida yuqori foyda olinsa, u holda bir qancha vaqt samara berishi mumkin, lekin, oxirida korxonani bozordan chiqib ketishiga to'g'ri keladi. Bunday strategiya «korxonalar-parvonalar» uchun tavsiflangan va qo'yiladigan masala – qisqa vaqt bozorda bo'linib maksimum foyda olishdir.

Bunday shaklda, jahon bozori sharoitlarida O'zbekiston iqtisodiyotining integrallashishida, korxonalar uchun, uning takliflari barqarorlikka intilishi, sifat, narx, yetkazish muddatlariga rioya qilish va boshqa mezonlar bo'yicha masalalarda raqobatchilar oldida, imkoniyatni ta'minlovchi menejment zarurdir. Bunda o'zgarib turuvchanlikni bozor talab qiladi, negaki, menejment tizimi moslashuvchanligi va bu o'zgaruvchanliklarga xususiy moslashuvchanligi mavjuddir.

Demak, jahon bozoriga ISO 9000 turkumli standartlariga muvofiq, bugungi kun darajasida sifat tizimini minimal tenglashtirish lozim.

Agarda, korxona sifat tizimi tavsiflari bozor talablariga to'g'ri kelmasa ham, ular ishlaydi, lekin bunday korxonalar uzoq yashashmaydi yoki mashaqqatlikda kun kechirishadi.

Agarda bugun korxona taraqqiy topsa, lekin, o'zgarishni sezmasa, bozorga chiqishi va o'zining sifat tizimini to'g'riligini yangilamasa, bunday korxonalar jiddiy muammolarni kutishi mumkin, negaki, raqobatchilar g'aflatda qolmagan va ular ko'pchilikni tashkil etadi.

Bozorda muayyan mahsulotni aniqlab va uni ishlab chiqarishni o'zlashtirsa, hamda kerakli o'rni topsa muvaffaqiyat qozonadi. Bunda korxona eksportga mo'ljallangan xususiyatiga kafolatga erishish uchun, ayni vaqtda texnologik nazorat jarayonlari va mukammal ma'muriy boshqaruvini o'ziga yetishmasligini aytib o'tish lozim. Mahsulotlarga texnik shartlarning mavjudligi garchan, uning sifatiga, bir qancha texnologiya va o'zgarib turuvchanligiga doir shartlar hamda brakka chiqarishga, noishlab chiqarish xarajatlarida yetkazib berish muddatining bekor bo'lishiga sabablarni qisman paydo bo'lishini yaxshi tavsiflari bo'lib hisoblanmaydi.

Bozorda barqarorlik davomiyligiga va peshqadamlikka intilish uchun quyidagi zarur:

korxona ishlayaptimi, bozor talablari va tavsiflarini o'rganish, tahlil qilib borish va undan kelib chiqadigan farazlarni o'rganish;

ushbu bozorda raqobatbardoshlik mezonlarini shakllantirish;  
yuzaga kelayotgan turli xil ish holatlari uchun ilg'or mezonlarni aniqlash;  
sifat tizimini qo'llash va uni takomillashtirish.

ISO 9000 xalqaro standarti xalqaro amaliyotda tekshirilgan iste'molchilarni kutishi va talablarini qondirish maqsadi bilan biznes-jarayonlarni boshqarishga tizimli yondashuv boshqaruv modelini tavsiya etadi. ISO 9001 standarti bo'yicha sertifikatlashtirishning muhim omillaridan biri xalqaro standartlarga muvofiq sifat menejmenti tizimi tasdiqlovchi akkreditlangan sertifikatlashtirish idorasi bo'lsa, unda kompaniya sifat menejmenti sohasidagi o'zining harakatlarini xalqaro va milliy darajalarda tan olishini qo'lga kiritish bo'lib hisoblanadi.

ISO 9000 turkumli standartlarni faoliyat turi, katta-kichikligi va qonuniy shakllariga bog'liq bo'lmagan ixtiyoriy tashkilotlarga qo'llash mumkin va universal bo'lib hisoblanadi. Hozirgi kunda ISO 9001:2008 butun dunyo bo'yicha va shu jumladan, O'zbekistonda ham sifat menejmentini sertifikatlashtirish standarti ko'proq ommalashgan bo'lib hisoblanadi. ISO 9001:2008 standartini joriy qilish tashkilotlarga muayyan imkoniyalarni beradi va uni quyidagi shaklda sinflash mumkin:

#### **1) Tashkiliy:**

- muntazamli boshqarish;
- javobgarlik va vakolatlarni aniq taqsimlash;
- jarayonlar va ishlarni ko'zda tutilgandek o'zaro faoliyati;
- strategik boshqarish uchun yuqori rahbariyatni tayinlash.

- Ishlab chiqarish xodimlarining ishlarini texnologik jarayonlar va qurilmalarni turg'un ishlashini, ularni malakasi va layoqatini hisobga olib ishlash xavfsizligini oshirish.

#### **2) Iqtisodiy:**

- mehnat samaradorligini oshirish, reserslardan foydalanishini optimallashtirish;
- «yashirin ishlab chiqarish»ni qisqartirish – nomuvofiqlikni bartaraf qilishga xarajatlar;
- ishlab chiqarishda yaroqsiz qurilmalar, asbob-uskunalar va o'lchash vositalaridan qo'llanilishidan iqtisodiy zararlarni qisqartirish;
- turli xil nomuvofiqliklar bilan bog'liq kompaniya qarz to'lovlari, jarimalar va iste'molchilar tomonidan shikoyatlarni qisqartirish;

sotuv bozorini kengaytirish.

#### **3) Obro' - e'tiboriligi:**

- barcha qiziquvchi tomonlarning ko'z o'ngida obro'sining yaxshilanishi;
- iste'molchilariga sodiqligini qo'lga kiritish;
- xodimlar odob-axloqini oshirish, psixologik muhitni yaxshilash;
- ta'minotchilar bilan munosabatni yaxshilash;
- sifat bo'yicha tanlovlarda qatnashish vaziyatlarini kuchayishi, sifat menejmenti sohasida kompaniya ishlarini milliy va xalqaro darajada tan olinishi.

#### 4) Strategik:

- kompaniya intellektual salohiyatida xodimlar mahorati va bilimining izchilligi;

- kompaniya mablag'ini oshishi va nomaterial aktivlarini o'sishi;
- biznesni ko'paytirish imkoniyati;
- biznes-jarayonlarni re-injiningga tayyorlanganligi.

Bir qancha sifat tizimini sertifikatlashtirishda qatnashgan ekspertlar tahlillari asosida, ISO 9000 seriyasi bo'yicha sifat tizimini joriy qilgan, korxonalar ishlash samaradorligi, joriy qilmaganlarga qaraganda 2-3 marta yuqori deb xulosa qilishgan. Xitoy mutaxassislari statistik guruhlash usuli asosidagi tadqiqot natijalari shuni ko'rsatganki, shubhasiz tizimni joriy qilgan korxonalar ushbu ishni boshlamagan bir turdagi korxonalar bilan solishtirilganda, eng yuqori samaradorlik faoliyatiga erishishgan.

Nazorat, tahlil va ishlab chiqarish jarayonlarini asosiy nuqtalarini davriy kuzatish va boshqarish jarayonlari, jumladan, xalqaro standart talablariga muvofiq sifat menejmenti tizimi korxona faoliyatini uzluksiz takomillashtirish va yaxshi boshqaruvchanligini hujjatlashtirish hisobiga ta'minlanadi. Bunda ISO 9001:2008 standart bo'yicha sifat menejmenti tizimi sertifikatini olishning yutug'i va boshqa maqsadlari – korxona qiymatini oshirishda (investitsiyalar kiritish, mablag'lashtirish, kelgusidagi sotish va boshqalar) asosiy vosita bo'lishi mumkin. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, xalqaro standartlar talablariga muvofiq tashkil qilingan sifat menejmenti tizimi korxona qiymatini, amalda 5-10% gacha oshirishi mumkin.

Ayni vaqtda shuni anglash kerakki, barcha ta'kidlangan imkoniyatlarga birdaniga erishilmaydi, yetarli bir qancha vaqtda, balki bir necha yildan so'ng, qachonki, tashkilot o'zining ishlarini tashkillashtirishni haqiqatdan ham o'zlashtirgandagina erishiladi. Lekin birinchi vaqtda joriy qililgandan so'ng quyidagi ijobiy o'zgarishlar, ya'ni qator korxonalardan so'rovlarda aniqlangan:

- firma obro'sini oshishi;
- bo'linmalararo o'zaro faoliyatni yaxshilanishi;
- reklama uchun tizimga sertifikat qo'llanilishi;
- mijozlar aloqasini kengayishi;
- mahsulot raqobatbardoshligini oshishi;
- nuqsonlar miqdorini kamaytirish;
- ishlab chiqarish samaradorligini oshirish;
- eksport imkoniyatini ta'minlash;
- xodimlarni samarali tanlash.

Sifat menejmenti tizimining eng asosiy ahamiyatli omillaridan biri uni aniqlangan sertifikatlashtirish sxemalari bo'yicha mahsulot ishlab chiqarishni tasdiqlash uchun qo'llash bo'lib hisoblanadi.

Xavfsizlikga talab va sifatga ixtiyoriy bo'lmagan emas, balki, ishlab chiqarishni yuqori tashkillashtirish bilan erishish. Tashkilotda foydalanilayotgan sifatni boshqarish jarayonlari tizimi mavjudligi, tashkilot tashqi va ichki

bozorlarda raqobatbardoshli bo'lishi va noishlab chiqarish yo'qotishlarni bartaraf qilishda foydalaniladi. Bu bozor sharoitida tashkilotda keragidan ham ko'p ishchilar ishlashi va qachonki foyda ishlar, xizmatlar va mahsulotlarni talab qilingan xavfsiz va sifatli bo'lishini ta'minlash o'rni bilan tashkilotni boshqaruvchi rahbariyat qarashlariga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'ladi.

Bundan tashqari, biror bir tashkilot O'z DSt ISO 9001 talablariga muvofiq menejment tizimi tasdiqlanmasdan, xalqaro tenderlarda qatnashishga qabul qilinishi mumkin emas. Buyurtmachi tashkilotdan xavfsizlik bo'yicha maxsus talablar va umumiy, hamda shartnomada ko'rsatilgan, sifat bo'yicha buyurtmachining qo'shimcha talablari bajarilishi barqarorligini ta'minlash kafolatini talab qiladi. O'zbekiston Butun jahon savdo tashkiloti (BJST) (Vsemirnnyy targovyy organizatsii - VTO)ga kirishi xorijiy hamkorlar uchun bizning bozorni kengroq ochish, xalqaro qoidalarni qabul qilish zaruriyatini hosil qiladi. Haqqoniy va samarasiz amaldagi tizimlariga tizim sertifikatining mavjudligi tashkilotni qutqarmaydi, u noishlab chiqarish yo'qotishlari singari kirib keladi. Mahsulot sifatining barqarorligini ta'minlash imkoniyati bo'lmasa, u ziyon yetkazishga olib keladi.

Tashkilot rahbarlari, xorijiy kompaniyalar bilan bir darajada muvaffaqiyatli ishlashni hohlashsa, tashkilotda amalga oshirilayotgan, barcha jarayonlar sifatini boshqarishni o'zlashtirishi lozim. Agar jaayonlarni bajarish qoidalari va tashkiliy tartiblari rasmiy tavsiflanmagan (yozilmagan) va jarayonni amalga oshirishda sifat uchun javobgar shaxs yo'q bo'lsa boshqarish bo'lishi mumkin emas. YUqori rahbariyat boshqarish yoki ushbu jarayonlar doirasida kerakli qarorlarni qabul qiluvchi javobgar shaxsga vakolatlar berishi lozim. Faqat bunday boshqarish tizimi O'zbekistonni xalqaro iqtisodiyotga kirish istiqbolini amalga oshirishda samarali bo'lib hisoblanadi.

Tashkilot muvofiqlikni deklaratsiyalash uchun hujjatlarni shakllantirish vaqtda, mahsulot ishlab chiqarishga majburiy talablarni bajarilishini barqarorligini ta'minlash kafolatini, tashkilotda menejment tizimi mavjudligini tasdiqlovchi, isbotlovchi texnikaviy hujjatlari sifatida keltirishni so'rash huquqiga ega.

## **27.2 Sifat menejmenti tizimini hujjatlashtirish jarayoni va hujjatlarini joriy etish qoidalari va tartibi**

**Hujjat** -ma'lum tartibga asosanib tuzilgan, tasdiqlangan, foydalanishga yaroqli ma'lumotlar to'plami.

SMT hujjatlarini boshqarish maqsadida korxonada "Hujjatlarni boshqarish" standarti ishlab chiqiladi.

Ushbu standart quyidagi talablarni o'z ichiga oladi:

- hujjatlarni boshqarish bo'yicha javobgarlik va huquqlar;
- hujjatlarni ishlab chiqish, kelishish va tasdiqlash tartibi;
- hujjatlarni ishchi holatda saqlash;
- davriy ravishda hujjatlarni qayta ko'rib chiqish;

- hujjatlarga o'zgartirishlar kiritish tartibi;
- hujjatlarni «Kerakli hujjat, kerakli joyda va kerakli vaqtda» tamoyiliga asosan tarqatish tartibi;
- eskirgan hujjatlarni yig'ib olish tartibi;
- tashqi hujjatlarni boshqarish tartibi.

Hujjatlar SMT ish faoliyatini ko'rsatuvchi asos hisoblanadi. SMT ga o'zgartirishlar kiritilayotganda SMT bo'yicha rahbariyat vakili uning to'raligini ta'minlashga javobgardir. SMT hujjatlari xodimlarni tizimning ishlashi haqida xabardor qiluvchi asosiy elementlardan biri hisoblanadi.

SMT hujjatlarini joriy qilish va ularga o'zgartirishlar kiritilganda tegishli xodimlar o'qitiladi. O'qitish natijalari rasmiylashtiriladi.

SMT hujjatlari va ISO 9001 va IATF 16949 xalqaro standartlari talablarini bajarilganligini tasdiqlash, shuningdek, tizimni samarali ishlashini ta'minlash maqsadidida yozuvlar olib boriladi. Yozuvlarni boshqarishni ta'minlash uchun korxonaning "Yozuvlarni boshqarish" standarti ishlab chiqiladi. Ushbu standart quyidagi talablarni o'z ichiga oladi:

- yozuvlarni boshqarish bo'yicha javobgarlik va huquqlar;
- sifat bo'yicha yozuvlarni ro'yxatini olib borish;
- yozuvlarni shaklni aniqlash;
- yozuvlarni olib borish;
- yozuvlarni saqlash, ishlatish, topish va qaytarib olish;
- yozuvlarni saqlash muddatlarini aniqlash.

Tashkilot rahbari yoki uning o'rinbosari tashkilot standartlari, buyruqlar, korxona nomidan tashqariga chiqadigan hujjatlarni o'z vaqtida tasdiqlash va bajarilishini ta'minlashi lozim.

Korxonaga va uning barcha bo'lim/sex kiruvchi va chiquvchi hujjatlarini ro'yxatga olish, hamda belgilangan muddatda bajarilishi, mas'ullarni aniqlash va nazorati olib borilishini rahbarlar ta'minlaydilar.

Kiruvchi va chiquvchi hujjatlarni ro'yxatga olish korxona bo'yicha aniqlangan mas'ul xodim yoki har bir bo'lim/tsexdagi tayinlangan xodimlar tomonidan olib boriladi.

Buyruq, qaror, ko'rsatmalar, tashqi aloqa va ichki xizmat xatlari tegishli bo'lim/tsexdar tomonidan tayyorlanadi, ular lavozim darajasi asosida tasdiqlanadi. Ularda mazmun, maqsad, vazifalar, mas'ul, bajarilish muddati aniqlash va tushunarli yozilishi lozim.

Korxona standartlariga o'zgartirishlar tuzuvchi mas'ul tomonidan, tegishli bo'limlar bilan kelishilgan holda kiritiladi va o'zgartirishlarni qayd etish varag'iga tartib bo'yicha yoziladi. O'zgartirilgan satrlarga tartib raqami qo'yiladi.

Hujjatlarga beshtadan ortiq o'zgartirish kiritilganda ular qaytadan tuziladi, tegishli bo'limlar bilan kelishiladi va tasdiqlagandan so'ng foydalaniladi.

ISO 9001:2015 xalqaro standartining 7.5 bandida Hujjatlashtirilgan ma'lumotlarga quyidagicha talablar qo'yilgan.

### 7.5.1 Umumiy qoidalar

Sifat menejmenti tizimi hujjatlari:

a) mazkur standart tomonidan talab qilingan hujjatlashtirilgan ma'lumotlar;

b) tashkilot tomonidan sifat menejmenti tizimining natijaviyligini ta'minlash uchun zarur deb aniqlangan, hujjatlashtirilgan ma'lumotlar.

Izoh: Sifat menejmenti tizimi hujjatlashtirilgan ma'lumotlarini hajmi:

-tashkilot o'lchami va uning faoliyat tavsifi, jarayon, mahsulot va xizmat ko'rsatish turi;

-jarayonlarning murakkabligi va ularning o'zaro bog'liqligi;

-va xodimlar layoqatiga muvofiq yaratish.

### 7.5.2 Yaratish va yaroqlilik

Tashkilot hujjatlashtirilgan ma'lumotlarni yaratish va yaroqlilik o'ziga mos ta'minlashi lozim:

a) uni belgilash va matnlash (m: mavzu nomi, sana, mualliflar, tartib raqami);

b) uni shaklli (m: bayon tili, dasturiy ta'minlanish versiyasi, grafik ko'rinishi) va o'rnatilgan muvofiq tashuvchi (m: qog'oz yoki elektron tashuvchi);

c) uni yaroqliligi va aynanligi nuqtai nazar bilan ma'lumotni tahlil o'tkazilganligi va tasdiqlanganligi.

### 7.5.3 Hujjatlashtirilgan ma'lumotlarni boshqarish

7.5.3.1 Sifat menejmenti tizimi va mazkur standart talab qilgan hujjatlashtirilgan ma'lumotlarni boshqarilishi lozim:

a) qaerda va qachon zarur bo'lsa undan foydalanish qulay va yaroqliligini ta'minlash;

b) aynan himoyalanganligi (m: sir saqlash, o'zga maqsadda foydalanish yoki qiymatini yo'qotishdan).

### 7.5.3 Hujjatlashtirilgan ma'lumotlarni boshqarish

7.5.3.2 Tashkilot hujjatlashtirilgan ma'lumotlarni boshqarish uchun zarur hajmdan, qaysiki bu qabul qilinadigan, quyidagilar ko'rib chiqiladigan bo'lishi lozim:

a) tarqatish, topish va foydalanishdagi qulaylik;

b) saqlash va himoyalash, o'qiy olishni ichiga olgan holda;

c) o'zgartishlarni boshqarish (m: nashr (versiya)larni boshqarish);

d) saqlash muddati va yo'q qilish tartibi.

Tashkilot sifat menejmenti tizimi vazifalarni bajarish va rejalashtirishni aniqlashi uchun zarur bo'lgan, tashqi hujjatlashtirilgan ma'lumotlarni muvofiq belgilashi va boshqarishi lozim.

Tasodifiy o'zgartirishlar kiritishdan himoya qilishda hujjatlashtirilgan ma'lumotlar muvofiqlik guvohligini ta'minlashda ro'yxatga olinishi va saqlanishi lozim.

*Izoh: Ruxsat etilganlik bo'lishi mumkin, hujjatlashtirilgan ma'lumot bilan faqat tanishishga yoki hujjatlashtirilgan ma'lumot bilan tanishish va uni o'zgartish huquqi bilan.*

### **Nazorat savollari**

1. Dunyo jaxon bozori tavsiflarini ayting?
2. Bozorda barqarorlik davomiyligiga va peshqadamlikka intilish uchun nimalar zarur?
3. ISO 9001:2015 standartini joriy qilish tashkilotlarga qanday imkoniyatlarni beradi?
4. Sifat sohasidagi siyosatni ishlab chiqishda qandayamallar ketma-ketlikda bajariladi?
5. Hujjatlashtirilgan protsedurada nechta asosiy va qanday savollarga javob bo'lishi kerak?

### **28-mavzu. Sifat tizimining ichki va tashqi auditlari**

28.1. Sifat menejmenti tizimini sertifikatlashtirish idoralariga bo'lgan umumiy talablar va ularni akkreditlash me'zonlari.

28.2. Sifat menejmenti tizimini sertifikatlashtirish idoralarini akkreditlash protseduralari.

#### **28.1. Sifat menejmenti tizimini sertifikatlashtirish idoralariga bo'lgan umumiy talablar va ularni akkreditlash me'zonlari.**

**Ariza beruvchi** - menejment tizimlarini sertifikatlashtirishga talabgor bo'lgan yuridik shaxs.

**Menejment tizimlarini sertifikatlashtirish organi** - menejment tizimlarini sertifikatlashtirishga doir ishlarni bajarish uchun belgilangan tartibda akkreditatsiya qilingan yuridik shaxs.

**Menejment tizimlarini sertifikatlashtirish** - menejment tizimlarining belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlashga oid faoliyat.

**Muvofiqlik sertifikatati** - sertifikatlashtirilgan menejment tizimlarining belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlash uchun sertifikatlashtirish tizimi qoidalariga binoan berilgan hujjat.

Menejment tizimlarini ishlab chiqish va joriy etish ariza beruvchi tomonidan mustaqil ravishda yoki tegishli malakaga ega bo'lgan maslahatchini jalb etish orqali amalga oshiriladi. Bunda maslahatchini jalb etish ochiq tanlov asosida amalga oshiriladi.

Sertifikatlashtirish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- sertifikatlashtirishga ariza berish;
- sertifikatlashtirishga arizani ko'rib chiqish va qaror qabul qilish;
- sertifikatlashtirishni o'tkazishga shartnoma tuzish;

- sertifikatlashtirishni o'tkazish uchun auditorlar guruhini shakllantirish va tayinlash;

- menejment tizimlari hujjatlarining tahlili va uning natijalari bo'yicha hisobot tuzish;

- menejment tizimlari auditini o'tkazish va uning natijalari bo'yicha hisobot tuzish;

- sertifikatlashtirish bo'yicha qaror qabul qilish;

- muvofiqlik sertifikatini Sertifikatlashtirish milliy tizimi davlat reestrda ro'yxatdan o'tkazish va berish.

Sertifikatlashtirish menejment tizimlarini sertifikatlashtirish organi tomonidan sertifikatlashtirishga arizaga asosan amalga oshiriladi. MTSOni tanlash ariza beruvchi tomonidan mustaqil amalga oshiriladi.

Ariza beruvchi menejment tizimlarini sertifikatlashtirish organiga ko'rsatilgan hujjatlar va ma'lumotlarni ilova qilgan holda sertifikatlashtirishga ariza beradi.

Ariza beruvchi sertifikatlashtirishga arizani, unga zarur hujjatlar va ma'lumotlarni ilova qilgan holda bevosita, pochta aloqasi vositasi orqali yoki elektron shaklda berishi mumkin.

Sertifikatlashtirishga ariza elektron shaklda berilgan taqdirda menejment tizimlarini sertifikatlashtirish organi hujjatlarining skaner qilingan versiyasini qabul qiladi, so'ngra ularni sertifikatlashtirish jarayonida asl nusxasi bilan taqqoslaydi. menejment tizimlarini sertifikatlashtirish organi elektron shakldagi sertifikatlashtirishga ariza olingani to'g'risida ariza beruvchini shu kunning o'zida xabardor qilinishini ta'minlaydi.

Sertifikatlashtirishga arizaga:

- sifat bo'yicha qo'llanmani (agar mavjud bo'lsa);

- menejment tizimi sohasi bo'yicha siyosat va maqsadlarni;

- menejment tizimining ishlashi uchun zarur bo'lgan jarayonlarning tavsifini;

- menejment tizimining muvofiqligiga ta'sir etishi mumkin bo'lgan xavflarning tavsifini;

- menejment tizimi ishlashi yuzasidan ariza beruvchining rahbariyati tomonidan ichki audit va tahlil o'tkazilganligi to'g'risidagi dalillarni o'z ichiga olgan hujjatlar va ma'lumotlar ilova qilinadi.

Ariza beruvchi o'z ixtiyoriga ko'ra qo'shimcha hujjatlarni taqdim qilishi mumkin.

Sertifikatlashtirishga ariza va unga ilova qilingan hujjatlarda ko'rsatilgan ma'lumotlarning to'g'riligi uchun ariza beruvchi javob beradi.

Menejment tizimlarini sertifikatlashtirish organi sertifikatlashtirishga arizani ko'rib chiqadi va taqdim etilgan hujjatlarni tahlil qiladi, natijalari bo'yicha 3 kun mobaynida sertifikatlashtirishga arizani qabul qilish to'g'risida qaror qabul qiladi yoki asoslantirilgan rad javobini yuboradi.

Sertifikatlashtirishga arizani qabul qilishni rad etish uchun quyidagilar asos bo'ladi:

- ko'rsatilgan hujjatlar va ma'lumotlarning to'liq taqdim etilmaganligi;
- sertifikatlashtirishga arizaga ilova qilingan hujjatlar va ma'lumotlarning soxtaligi yoki noto'g'riligining aniqlanganligi;
- sertifikatlashtirishga arizaning belgilangan boshqa talablarga nomuvofiqligi.

Sertifikatlashtirishga arizani qabul qilish rad etilganda hujjatlar ariza beruvchiga qaytariladi. Ariza beruvchi rad etish sabablarini bartaraf etgandan so'ng qayta sertifikatlashtirishga ariza berish huquqiga ega.

Sertifikatlashtirishga ariza qabul qilingan holatda uni qabul qilgan kundan boshlab 3 kun ichida menejment tizimlarini sertifikatlashtirish organi va ariza beruvchi o'rtasida sertifikatlashtirishni o'tkazish to'g'risida shartnoma tuziladi.

Sertifikatlashtirish bo'yicha ishlar qiymatining to'lovi uning natijalari-dan qat'i nazar, sertifikatlashtirishni o'tkazish to'g'risidagi shartnomada ko'rsatilgan miqdorda va tartibda amalga oshiriladi. Bunda sertifikatlashtirish bo'yicha ishlar qiymatining to'lovi sertifikatlashtirish bo'yicha qaror qabul qilingunga qadar amalga oshirilishi kerak.

Sertifikatlashtirish bo'yicha ishlar qiymatining birinchi to'lovidan so'ng 10 kun ichida, biroq shartnoma tuzilgandan so'ng 20 kundan kechiktirmay menejment tizimlarini sertifikatlashtirish organi sertifikatlashtirishni o'tkazish bo'yicha auditorlar guruhini shakllantiradi.

Sertifikatlashtirishni o'tkazish bo'yicha auditorlar guruhining shaxsiy tarkibi, a'zolarining huquq, majburiyatlari va javobgarligi, shuningdek sertifikatlashtirishni o'tkazish muddatlari va joyi menejment tizimlarini sertifikatlashtirish organi rahbarining qarori bilan belgilanadi.

Sertifikatlashtirishni o'tkazish bo'yicha auditorlar guruhini sifat bo'yicha ekspert-auditor boshqaradi.

Menejment tizimlari hujjatlarining tahlili ularning normativ-huquqiy hujjatlar va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarining talablariga muvofiqligini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Menejment tizimlari hujjatlarining tahlili va uning natijalari bo'yicha hisobot tuzish 15 kundan ortiq bo'lmagan muddatda o'tkaziladi.

Menejment tizimlari hujjatlarining normativ-huquqiy hujjatlar va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarining talablariga nomuvofiqligi aniqlanganda ariza beruvchiga menejment tizimlari hujjatlarining tahlili natijalari bo'yicha hisobot bilan birgalikda taqdim etiladigan nomuvofiqliklar bayonnomasi rasmiylashtiriladi.

Menejment tizimlari hujjatlarining tahlili natijalari bo'yicha quyidagilarni o'z ichiga olgan hisobot rasmiylashtiriladi:

- menejment tizimlarini sertifikatlashtirish organi nomi to'g'risidagi ma'lumotlar;

- ariza beruvchining nomi va manzili, shuningdek mas'ul xodimning bog'lanish ma'lumotlari to'g'risidagi ma'lumotlar;

- so'ralgan sertifikatlashtirish sohasining nomi (faoliyat turlari, jarayonlar va tashkiliy tuzilmalarning joylashishini ko'rsatgan holda identifikatsiyasi);

- sertifikatlashtirishni o'tkazish uchun asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarning ro'yxati;

- sertifikatlashtirish uchun ariza beruvchi taqdim etgan hujjatlar ro'yxati;

- menejment tizimi ishlashi yuzasidan ariza beruvchining rahbariyati tomonidan ichki audit va tahlil o'tkazilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar;

- nomuvofiqliklarni bartaraf etish uchun 30 kundan oshmaydigan muddat (nomuvofiqliklar bayonnomasi rasmiylashtirilganda);

- menejment tizimlari hujjatlarining tahlili bo'yicha xulosa.

Hisobotda qo'shimcha ravishda sertifikatlashtirish uchun ahamiyatga ega boshqa ma'lumotlar aks ettirilishi mumkin.

Nomuvofiqliklar mavjud bo'lmaganda yoki ular bartaraf etilgandan so'ng menejment tizimlarini sertifikatlashtirish organi tomonidan ariza beruvchi bilan kelishilgan holda menejment tizimlari auditini o'tkazish muddati belgilanadi. Bunda menejment tizimlari auditini menejment tizimlari hujjatlarining tahlili natijalari bo'yicha hisobot rasmiylashtirilgan yoki nomuvofiqliklar bayonnomasida ko'rsatilgan kamchiliklar bartaraf etilgan kundan boshlab 15 kun mobaynida boshlanishi kerak.

Menejment tizimlari auditini ularning normativ-huquqiy hujjatlar va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarning talablariga muvofiqligini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Menejment tizimlari auditini o'tkazish uchun MTSO tomonidan reja tuziladi.

Menejment tizimlari auditini ariza beruvchi joylashgan joyida o'tkaziladi.

Menejment tizimlari auditini va uning natijalari bo'yicha hisobot tuzish 30 kundan ortiq bo'lmagan muddatda o'tkaziladi.

Menejment tizimlarining normativ-huquqiy hujjatlar va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarning talablariga nomuvofiqligi aniqlanganda ariza beruvchiga menejment tizimlari auditini natijalari bo'yicha hisobot bilan birgalikda taqdim etiladigan nomuvofiqliklar bayonnomasi rasmiylashtiriladi.

Menejment tizimlari auditini natijalari bo'yicha quyidagilarni o'z ichiga olgan hisobot rasmiylashtiriladi:

- menejment tizimlarini sertifikatlashtirish organi nomi to'g'risidagi ma'lumotlar;

- ariza beruvchining nomi va manzili, shuningdek mas'ul xodimning bog'lanish ma'lumotlari to'g'risidagi ma'lumotlar;

- so'ralgan sertifikatlashtirish sohasining nomi (faoliyat turlari, jarayonlar va tashkiliy tuzilmalarning joylashishini ko'rsatgan holda identifikatsiyasi);

- sertifikatlashtirishni o'tkazish uchun asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarning ro'yxati;

- sertifikatlashtirish bo'yicha asoslangan qaror qabul qilish imkonini beruvchi menejment tizimlari auditi o'tkazilganligi to'g'risidagi kuzatuvlar, yozuvlar va dalillar;

- nomuvofiqliklarni bartaraf etish uchun 60 kundan oshmaydigan muddat (nomuvofiqliklar bayonnomasi rasmiylashtirilganda);

- menejment tizimlari auditi bo'yicha xulosa.

Hisobotda qo'shimcha ravishda sertifikatlashtirish uchun ahamiyatga ega boshqa ma'lumotlar aks ettirilishi mumkin.

O'tkazilgan sertifikatlashtirish natijalari bo'yicha menejment tizimlarini sertifikatlashtirish organi tomonidan muvofiqlik sertifikatini berish yoki berishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilinadi.

Muvofiqlik sertifikatini berish to'g'risida qaror qabul qilinganda ushbu qaror qabul qilingan kundan 3 kun ichida muvofiqlik sertifikati rasmiylashtiriladi, Davlat reestrda ro'yxatdan o'tkaziladi va ariza beruvchiga beriladi.

Muvofiqlik sertifikatining amal qilish muddati Davlat reestrda ro'yxatdan o'tkazilgan kundan boshlab 3 yilni tashkil qiladi.

Muvofiqlik sertifikati blankasi qat'iy hisobda turadigan hujjat hisoblanadi, hisobga olish raqamiga va himoyalanganlik darajasiga ega bo'ladi. Muvofiqlik sertifikati blankasi muvofiq shaklda "Davlat belgisi" davlat-ishlab chiqarish birlashmasi tomonidan tayyorlanadi va menejment tizimlarini sertifikatlashtirish organi ga "O'zstandart" agentligi tomonidan beriladi.

Muvofiqlik sertifikatini berishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilingan menejment tizimlarini sertifikatlashtirish organi ushbu qaror qabul qilingan kuni ariza beruvchini bu haqda xabardor qiladi.

Muvofiqlik sertifikatini berishni rad etish to'g'risida qaror menejment tizimlari hujjatlarining tahlilida ham, menejment tizimlari auditida ham qabul qilinishi mumkin.

Muvofiqlik sertifikatini berishni rad etish uchun quyidagilar asos bo'ladi:

- menejment tizimlari hujjatlarining tahlili yoki menejment tizimlari auditida aniqlangan nomuvofiqliklarning tegishli hisobotlarda belgilangan muddatlarda bartaraf etilmaganligi;

- sertifikatlashtirish bo'yicha ishlar qiymatining to'lovi amalga oshirilmaganligi;

menejment tizimlarining ushbu Nizom bilan belgilangan boshqa talablarga nomuvofiqligi.

Sertifikatlashtirishni o'tkazish bilan bog'liq hujjatlar to'plamlari, shu jumladan, sertifikatlashtirishga arizalar, hisobotlar, menejment tizimlari auditi rejaları, menejment tizimlarini sertifikatlashtirish organi rahbarlarining qarorlari va muvofiqlik sertifikatlarining nusxalari menejment tizimlarini sertifikatlashtirish organi da 4 yil davomida saqlanadi.

## **28.2. Sifat menejmenti tizimini sertifikatlashtirish idoralarini akkreditlash protseduralari.**

Menejmenti tizimini sertifikatlashtirish organlarini akkreditatsiyasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- akkreditatsiyaga so'rov berish, ekspertizani o'tkazish bo'yicha akkreditatsiya organi bilan shartnoma imzolash;
- akkreditatsiya ob'ektini baxolashga tayyorlash (komissiyani tayinlash, buyruqni chiqarish, baxolash dasturini joyida ishlab chiqish);
- arizachini joyida baxo berishi, akti rasmiylashtirish joyida;
- ekspertiza materiallari xujjatlarini, joyida baxo berish natijalari taxlili, arizachi tomonidan to'g'ri keltiruvchi xarakatlarning samaradorligi, qarorlar loyixasini tayyorlash;
- kengashda ekspertiza va baxo berish materiallarini ko'rib chiqish, xamda akkreditatsiyadan o'tkazish yoki uni rad etish;
- akkreditatsiya guvoxnomasini rasmiylashtirish, qayd etish va berilishi va arizachining to'lovni amalga oshirishi.

Keyingi xar bir bosqich oldingi bosqichda ijobiy natijaga erishilgandagina amalga oshiriladi.

Arizachi tuzilgan shartnomaga asosan akkreditatsiya ishlari uchun xaqni uning natijasidan qat'iy nazar to'lashga majbur.

Menejmenti tizimini sertifikatlashtirish organlarini akkreditatsiyadan o'tkazish so'rovnomasiga quyidagi xujjatlar ilova qilinadi:

- ta'sis xujjatlari nusxasi (agarda u yuridik shaxs xisoblansa);
- organ (markazlar)qoidolari loyixasi;
- akkreditatsiya soxasi loyixasi;
- organ pasporti loyixasi;
- sifat tizimi tartibini o'z ichiga olgan sifat bo'yicha qo'llanma.

Ekspertizaning ijobiy natijalariga ko'ra akkreditatsiya organi akkreditatsiya ob'ektini joyida baxolash uchun komissiya tashkil etadi.

Komissiya akkreditatsiya organi raxbarining buyrug'i bilan tayinlanadi. Buyruq komissiya tarkibini, maqsadi, joyida baxo berishning vaqti va muxlatini o'z ichiga oladi. Komissiya raisi sifat bo'yicha ekspert-auditor unvoniga akkreditatsiya qilinishi zarur.

Komissiya tarkibini shakllantirishda uning kompetentligi, ob'ektiv baxolashni o'tkazish uchun bilimi va ko'nikmalari xisobga olinadi.

Zaruriy xolatlarda texnik ekspertlar taklif etiladi. Texnik ekspertlar ekspert-auditorlar raxbarligida ishlashlari shart.

Ob'ekt va baxolash mezonlarini o'z ichiga olgan baxolash rejasi komissiya raxbari tomonidan ishlab chiqiladi va akkreditatsiya organi raxbari uni tasdiqlaydi. Buyruq va baxolash rejasi tanishish uchun arizachiga baxolash o'tkazilgunga qadar taqdim etiladi.

Akkreditatsiya ob'ektini joyida baxolashda xujjatlarda keltirilgan bilan uning xaqiqiy axvoli va keltirilgan vazifalarni bajara olish qobiliyati tekshiriladi.

Komissiya akkreditatsiya ob'ektini akkreditatsiya mezonlariga to'g'ri kelishini baxolaydi.

Baxolash davri bir oydan oshmasligi shart. Akkreditatsiya ob'ektini joyida baxolash natijalari baxolash akti (ma'lumotnoma) bilan rasmiylashtiriladi.

Akt komissiyaning barcha a'zolari tomonidan imzolanadi. Agarda komissiya a'zolaridan birortasi bunga rozi bo'lmasa, u yozma ravishda rasmiylashtiriladi va u baxolash aktiga ilova qilinadi.

Akkreditatsiya o'tkazuvchi organ arizachi tomonidan taqdim etilgan xamma ma'lumotlarni tekshirib chiqqandan so'ng ekspertiza xujjatlari natijalarini, baxolash aktini, akt bo'yicha xulosa va e'tirozlarni taxlil etadi, Kengashda ko'rib chiqish uchun qaror loyixasini tayyorlaydi.

Kengash 15 kun davomida qaror loyixasini, xamda arizachi tomonidan taqdim etilgan xujjatlarni ko'rib chiqadi va akkreditatsiyadan o'tkazish yoki rad javobini berish qarorini qabul qiladi.

Kengash tomonidan akkreditatsiya ob'ektiga rad javobi berilganda unga bir oy davomida aniqlangan kamchiliklar va akkreditatsiya talablariga to'g'ri kelmaslik xolatlarini bartaraf etishga vaqt beriladi.

Agarda qayta baxolashda yana kamchiliklar va akkreditatsiya talablariga to'g'ri kelmaslik xolatlari aniqlansa unda Kengash akkreditatsiyadan o'tkazishga rad javobini beradi.

Akkreditatsiyadan o'tkazish vaqti akkreditatsiya ob'ektini tayyorligiga bog'liq bo'lib, u akkreditatsiyadan o'tkazishga talabnoma qayd etilgandan so'ng olti oydan oshmasligi shart.

### **Nazorat savollari**

1. Sifat menejmenti tizimini sertifikatlashtirish idoralariga bo'lgan talablar qaysi me'yoriy xujjat orqali tartibga solinadi?

2. Menejment tizimini sertifikatlashtirish idoralari sertifikatlashtirish auditi jarayonini qanday bosqichlarda amalga oshiradi?

3. Tekshirilayotgan tashkilot hujjatlarni tahlil qilishni qanday maqsadda o'tkazadi?

4. MT auditini o'tkazish texnologiyasi qanday jarayonlarni o'z ichiga oladi?

5. Sifat tizimlari va ishlab chiqarishlarni sertifikatlashtirish bo'yicha akkreditlangan idoralarning asosiy vazifalari?

6. Komissiya tarkibini shakllantirishda uning kompetentligi, ob'ektiv baxolashni o'tkazish uchun bilimi va ko'nikmalari qanday xisobga olinadi?

## **29-mavzu. Sifat menejmenti tizimini sertifikatlashtirish bo'yicha ekspertlarga qo'yiladigan talablar**

29.1. Sifat menejmenti tizimini sertifikatlashtirish bo'yicha ekspertlarga qo'yiladigan talablar

29.2. Ularning vazifalari, majburiyatlari va javobgarliklari

### **29.1. Sifat menejmenti tizimini sertifikatlashtirish bo'yicha ekspertlarga qo'yiladigan talablar**

Sertifikatlashtirish bilan bog'liq bo'lgan faoliyatda faol qatnashuvchi shaxs bu ekspert - auditoridir. U odatda Sifat tizimlarini, ishlab chiqarishni va mahsulotni sertifikatlashtirishda sinov laboratoriyalarini akkreditlashda va boshqa ishlarda qatnashishi mumkin.

Ekspert - auditor deb, sertifikatlashtirish sohasida muassasa va korxonalar faoliyatini baholash va nazorat qilish huquqiga ega bo'lgan attestatlangan shaxsqa aytiladi.

Ekspert-auditor sifatida "O'zstandart" agentligi tomonidan belgilangan tartibda attestatlangan fan, sanoat, maishiy xizmat, institutlar va boshqa tashkilotlarning vakillari hamda belgilangan hujjatlar bilan ishlashda yetarli chuqur bilimga ega bo'lgan xususiy shaxs ham bo'lishi mumkin.

Ekspert-auditor quyidagi vazifalarni bajaradi:

- mahsulot, jarayon, xizmatlarni, Sifat tizimlarini va ishlab chiqarishni sertifikatlashtirish;
- sertifikatlashtirilgan mahsulot, jarayon va xizmatlarning tavsiflarini hamda sertifikatlashtirilgan Sifat tizimlarini va ishlab chiqarishning turg'unligini nazorat qilish;
- sertifikatlashtirish bo'yicha akkreditlash idoralari, sinov laboratoriyalarini (markazlarini) va ularning faoliyatini nazorat qilish;
- sertifikatlashtirishda tavsiyalar berish.

Ekspert-auditor o'z faoliyatini sertifikatlashtirish milliy idorasi, bir turdagi mahsulotni sertifikatlashtirish idoralari, Sifat tizimlarini va ishlab chiqarishni sertifikatlashtirish doirasida amalga oshiradi.

Ekspert-auditor muayyan talablarga javob berishi lozim:

- to'liq oliy ma'lumotli va sertifikatlashtirish sohasida yetarli bilimga ega bo'lib, faoliyati sertifikatlashtirishning ma'lum turi bo'yicha attestatlangan bo'lishi kerak;

- oliy o'quv yurtini tamomlagandan so'ng kamida 5 yillik amaliy tajga ega bo'lishi, shundan kamida 3 yili standartlashtirish, metrologiya, sinovlar, sifatni boshqarish va ta'minlash sohalarida ishlagan bo'lishi kerak.

Ekspert-auditor chuqur bilimli, tadbirkor bo'lmog'i lozim. U quyidagi sohalar bo'yicha bilimlarni mukammal egallagan bo'lishi shart:

- Respublika sertifikatlashtirish milliy tizimining qoida va tartiblar;
- sertifikatlashtirish o'tkazish bo'yicha bilimlar va me'yoriy hujjatlarni tushunish;

- sertifikatlashtirish va akkreditlash bo'yicha asosiy ishlar mazmuni;
- sertifikatlashtirish va akkreditlash bo'yicha iqtisodiy va huquqiy asoslari;
- mamlakat ichidagi va chet ellardagi sertifikatlashtirish va akkreditlash tajribasi;
- standartlashtirish, metrologiya va Sifat tizimlarining asoslari;
- tekshiruv o'tkazish va sifatni boshqarishining statistik usullari;

Ekspert-auditor tahlil qilish, mantiqiy asoslash, o'zining fikrini qattiq va asoslangan holda himoya qilishlik; ijodiy qobiliyatga va murakkab vaziyatda to'g'ri qaror qabul qilish xususiyatlariga ega bo'lishi; haqqoniy, ma'suliyatli, printsiipal ravishda hayrihoh, xushmuomalali, odobli va o'zini tutabilishlik kabi shaxsiy sifatlariga ega bo'lishi kerak. Ekspert-auditor tekshirilayotgan ob'ektning xodimlari bilan aloqada bo'lish va kerakli hujjatlar bilan tanishish; ma'lumot uchun har qanday qo'shimcha ma'lumotlar talab qilish (sertifikatlashtirish maqsadlari uchun); tizimda amaldagi me'yoriy-uslubiy hujjatlarni takomillashtirish bo'yicha o'z taklifini berish; sertifikatlashtiriluvchi mahsulot, jarayon, xizmatlar, Sifat tizimi va ishlab chiqarish bo'yicha rejalarni tuzatish yuzasidan o'z mulohazalarini kirgazish huquqiga egadir.

Korxonalarda sertifikatlashtirish sohasidagi ishlarni inobatga olib, sertifikatlashtirish milliy idorasi "O'zstandart" agentligi tomonidan ekspert-auditorlar tayyorlash maxsus kurslari tashkil etilib, bu sohadagi o'qishning tashkiliy tomonlari SSTITSITning asosiy faoliyatlaridan biri deb qaralmoqda. Ekspert-auditorlarini tayyorlash odatda ikki bosqichda olib boriladi: nazariy bilimlarni olish va attestatlash natijasida ularga tegishli rasmiy hujjatlar topshirish.

Tinglovchilarning nazariy bilimlarini "O'zstandart" agentligi tomonidan tuzilgan maxsus komissiya baholaydi. Baholanish natijalari yetarli darajada bo'lsa, ularga sertifikatlashtirish milliy tizimining ekspert-auditori degan guvohnomasi beriladi (agar attestatlashdan o'tmasa rad etiladi).

Ekspert-auditorlar ularga yuklatilgan vazifalari bo'yicha muayyan burch va ma'suliyatlarga egadirlar.

## **29.2. Ularning vazifalari, majburiyatlari va javobgarliklari**

O'z DSt 16949:2019 standartining 7.2.3 bandida ichki auditor layoqatiga quyidagicha talablar qo'yilgan.

Tashkilot iste'molchining barcha maxsus talablarini hisobga olgan holda ichki auditorlar layoqatini tekshirishi uchun hujjatlashtirilgan jarayoni bo'lishi lozim. Auditorlar layoqatiga qo'yilgan qo'shimcha rahbariy ko'rsatmalari bo'yicha ISO 19011 standartiga murojaat etish. Tashkilot ichki auditorlar layoqati ma'lumotlarini saqlashi lozim.

Sifat menejment tizimi, ishlab chiqarish jarayonlari va mahsulot auditorlari quyidagi minimal layoqatlikni namoyish etishi lozim:

- avtomobilsozlikda audit o'tkazishga jarayonli yondashuvni tushinish, tafakkurni xavfga yo'naltirishni ichiga olgan holda;

- iste'molchining barcha maxsus talablarini qo'llashni tushinish;
- audit doirasi qo'lamida IATF 16949 talablari qo'llashni tushinish;
- audit doirasi ko'lami bilan bog'liq muhim instrumentlarga qo'llanadigan talablarni tushinish;
- auditni rejalashtirish, o'tkazish, hisobot tayyorlash va audit ko'zatuvinini yopishni tushinish.

Qo'shimcha, ishlab chiqarish jarayonlari auditorlari, audit o'tkaziladigan muvofiq ishlab chiqarish jarayonlarini texnik namoyish etishni tushinish, jarayon xavflari tahlili (masalan PFMEA) va boshqarish rejasini ichiga olgan holda. Mahsulot auditorlari mahsulot va uni muvofiq tekshirish, foydalaniladigan o'lchov va sinov vositalari talablarini tushinish layoqatini namoyish etishi lozim. Agarda layoqatga erishish uchun o'qitish o'tkazilsa, o'qituvchining yuqorida ko'rsatilgan talablar bo'yicha layoqati namoyish etilishi va hujjatlashtirilgan ma'lumotlar saqlanishi lozim.

Ichki auditorlarni layoqatini takomillashtirish va saqlashda quyidagilar yordamida namoyish etish lozim:

- yilda minimal sonli auditlar o'tkazish, tashkilotda qanday aniqlangan bo'lsa; va

- ichki o'zgarishlar (masalan, mahsulot va jarayondagi) va tashqi o'zgarishlar (masalan, IATF 16949, muhim instrumentlar va iste'molchining maxsus talablari) asosida muvofiq bilim talablarini saqlash.

Standartning 7.2.4 bandida ikkinchi tomon auditori layoqatiga quyidagicha talab quyilgan.

Tashkilot ikkinchi tomon auditini bajarishda auditorlar layoqatini namoyish etishi lozim. Ikkinchi tomon auditorlarini layoqati iste'molchini maxsus talablarga javob berishi va minimum quyidagilarda layoqatlilik tushinchasini ichiga olishi lozim:

- a) avtomobilsozlikda auditlar o'tkazishga jarayonli yondashuv, tafakkurni xavfga yo'naltirishni ichiga olgan holda;

- v) iste'molchi va tashkilotni maxsus talablarni qo'llanishi;

- C) ISO 9001 va IATF 16949 talablari audit doirasi ko'lamiga nisbatan qo'llanishi;

- d) auditga taaluqli, ishlab chiqarish jarayonlar qo'llanishi, PFMEA tahlili va boshqaruv rejasini ichiga olgan holda;

- e) audit doirasi ko'lami bilan bog'liq, asosiy instrumentlarga talablar qo'llanishi;

- f) rejalashtirish xususiyatlari, auditlar o'tkazish, audit bo'yicha hisobotlarni tayyorlash va kuzatuv auditlarni yopish bo'yicha.

ISO 19011 Menejment tizimlarining auditi bo'yicha rahbariy ko'rsatmalar audit dasturi menejmenti bo'yicha, menejment tizimining auditini rejalashtirish va o'tkazish bo'yicha, hamda auditorlar va auditorlar guruhining layoqatlilik va baholash bo'yicha qo'llanma bo'lib xizmat qiladi. U auditorlarga, menejment tizimini joriy qilayotgan tashkilotlarga va menejment tizimlarini auditorlik

tekshiruvni o'tkazilishi zarur bo'lgan tashkilotlarga nisbatan qo'llash uchun mo'ljallangan.

### **Nazorat savollari**

1. Ekspert-auditor kim?
2. Ekspert-auditor kim tomonidan attestatlanadi?
3. Ekspert-auditor vazifalarini sanab bering?
4. Ekspert-auditor qanday talablarga javob berishi lozim?
5. Ekspert-auditor qanday bilimlarni mukammal egallagan bo'lishi shart?
6. Ekspert-auditor sifatida qaerda o'qitiladi?

### **5-Modul bo'yicha o'z-o'zini tekshirish, nazorat va test savollari**

1. Jarayonli yonloshuv sifat menejment tizimida quyidagilar uchun qo'llaniladi:

A) SMT jarayonlarini tizimli boshqarish va jarayonlari hujjatlarini ishlab chiqish

B) Tashkilotning faoliyati va mavjud resurslar jarayon tarizida boshqarilganida kutilgan natija

C) Jarayonga kirish va chiqishlarini belgilash, korxona faoliyatini aniqlash uchun

D) Tashkilotda jarayonlar tizimini hamda boshqaruv jarayonlarini identifikatsiyalash va o'zaro faoliyatni qo'llanishi

2. «Talab» daganda nima tushuniladi?

A) Qandaydir majburiy bo'lgan yoki ixtiyoriy kutilgan va o'rnatilgan ehtiyoj yoki kutilmalar

B) Qandaydir majburiy bo'lgan va o'rnatilgan ehtiyojlarni ma'lum vaqt oraligida natija berishi

C) Qandaydir oddiy kutilgan yoki o'rnatilgan me'yorlarni samaradorligining oshishi

D) Qandaydir majburiy bo'lgan yoki ixtiyoriy erishilgan va o'rnatilgan ehtiyoj yoki kutilmalar

3. ISO 9001 xalqaro standarti talablariga muvofiqlik sertifikatini quyidagilarga xizmat qiladi:

A) Ishlab chiqarilayotgan mahsulot muvofiqligiga tashkilot ishonchini ta'minlaydi va mahsulot raqobatbardoshligi uni eksport qilishni ta'minlaydi

B) Ishlab chiqarilayotgan mahsulot muvofiqligiga tashkilot ishonchini ta'minlaydi

C) Mahsulot raqobatbardoshligi uni eksport qilishni ta'minlaydi

D) Iste'molchilarga sotib olinayotgan mahsulot muvofiqligiga ishonch hosil qiladi, mahsulot raqobatbardoshligi va uni import qilishni ta'minlaydi

4. Ichki audit laboratoriya davriy va rejaga muvofiq o'z faoliyatida nima uchun o'tkaziladi?:

A) O'z DSt ISO/IEC 17025:2019 standarti va sifat tizimi talablariga muvofiq tekrix va ishlari davom etayotganini aniqlashda

B) O'z DSt ISO/IEC 17025:2007 standarti va sifat tizimi talablariga muvofiq tekrix va ishlari davom etayotganini aniqlashda

C) ISO/IEC 17025:2017 standarti bo'yicha sinov va kalibrlash laboratoriyalarini kompetentliga bo'lgan umumiy talablarni aniqlash

D) O'z DSt 16.4-2001 standarti talabiga muvofiq tekrix va ishlari davom etayotganini aniqlashda

5. Qaysi hollarda to'g'rilovchi amallar joriy qilinadi:

A) auditlar natijalari bo'yicha

B) jarayonlar belgilangan maqsadlarga erishganda

C) o'rnatilgan talablarni bajarilmaganligini aniqlashda

D) faoliyatlar to'g'riligini tasdiqlash uchun

6. Qanday maqsadlarda ichki audit o'tkaziladi?:

A) Sifat menejmenti tizimini takomillashtirish va samaradorligini aniqlash uchun o'tkaziladi

B) Bu sertifikatlashtirishning bir bosqichi va laboratoriya kompetentligini aniqlash uchun o'tkaziladi

C) Buyurtmachi talabi bo'yicha o'tkaziladi

D) Iste'molchilarning talabi bo'yicha o'tkaziladi

7. Maqsadlarni o'rnatish jarayoni va doimiy yaxshilash uchun qidiruv imkoniyatini beruvchi jarayon bo'lib, foydalaniladi:

A) Audit natijalari bo'yicha xulosa (tekshirish)

B) Audit kuzatuv (tekshirish)

C) Ma'lumotlar tahlili

D) Rahbariyat tomonidan tahlil

8. Rahbariyatni sifat bo'yicha vakili:

A) SMTni hujjatlashtirish va ichki auditni tashkillashtirish va yuqori rahbariyatga SMT ishlashi va uni yaxshilash zarurligi haqida hisobotlarni taqdim etadi

B) SMT ichki audit o'tkazish, tuzatuvchi va oldini oluvchi choralar, nomuvofiqlikni boshqarish ishlarini yuritish

C) Tashkilotning yuqori rahbariyatga SMT ishlashi va uni yaxshilash zarurligi haqida hisobotlarni taqdim etishi kerak

D) SMT hujjatlarini ishlab chiqishi kerak, ichki va tashqi audit dasturlarini ishlab chiqish, sifat siyosati va maqsadlarni belgilash

9. Sifat menejmenti bu:

A) Tashkilotga sifat jihatdan rahbarlik qilish va uni boshqarish bo'yicha o'zaro muvofiqlashtirilgan faoliyat

B) Barcha rejalash-tirilayotgan va tizimli amalga oshirilayotgan faoliyat turi bo'lib, u tashkilotga barcha qiziquvchi tomonlarni talablarini qondirishga yo'naltirilgan

C) O'zaro faoliyatdagi va o'zaro aloqador jarayonlarni boshqarish tizimi

D) Tashkilotga barcha qiziquvchi tomonlarning talablarini qondirishga yo'naltirilgan barcha turdagi faoliyatlarni tizimli amalga oshirish

10. Sifat menejmenti auditdan nimani baholash uchun foydalaniladi?:

A) O'rnatilgan talablarga sifat tizimini hujjatlashtirish muvofiqlik darajasini

B) Ishlarni bajarishda mashg'ul ishchilar miqdorini va kvalifikatsiyasini

C) Xodimlar malakasini nazorat qilishni, kadrlar qo'nimsizligini

D) Mahsulot ishlab chiqarishni sifat tizimini boshqarish darajasini

11. Sifat menejmenti tizimi (SMT):

A) Tashkilotga rahbarlik qilish va boshqarish uchun sifatga taalluqli menejment tizimi

B) Siyosat va maqsadlarni ishlab chiqish va bu maqsadlarga erishish uchun menejment tizim

C) O'zaro faoliyatdagi va o'zaro aloqador elementlar majmuasi

D) O'zaro faoliyatdagi va o'zaro aloqador elementlar majmuasini boshqarish va rahbarlik uchun menejment tizim

12. Sifat menejmenti tizimining hujjatlari hajmi quyidagilarga bog'liq:

A) Xodimlarni layoqatligiga

B) Mahsulot turiga bog'liq

C) Maslahatchilar fikriga

D) Auditorlar talablariga

## 6 - Modul. SIFAT MENEJMENTI TIZIMINI SERTIFIKATLASHTIRISH

### 30-mavzu. Sifat menejmenti tizimini sertifikatlashtirish

30.1. Sertifikatlashtirishni o'tkazishdan maqsad va uni o'tkazish sharoitlari va ob'ektlari.

#### 30.1. Sertifikatlashtirishni o'tkazishdan maqsad va uni o'tkazish sharoitlari va ob'ektlari.

ISO 9000 xalqaro standarti sifat menejment tizimi (SMT) uchun asosiy tushunchalar, printsiplar va atamalarini, shuningdek boshqa standartlar SMT uchun asosiy nizomni o'z ichiga olgan. Standart foydalanuvchilarga sifat menejment tizimining asosiy tushuncha, printsiplari va atamalarini berib, SMT ni natijaviy va samarali joriy etishga, hamda boshqa standartlarga SMT tadbiriq etishda yordam beradi.

ISO 9000 xalqaro standarti tashkilotni qo'ygan maqsadlariga erishishi uchun SMT ni asosiy tuzilishi, qaysiki sifat bilan aloqador asosiy tushunchalar, printsiplar va resurs aniq ko'rsatib beradi. Bular barcha tashkilotlar uchun, ularni o'lchami, murakkab-ligi yoki biznes-modeliga bog'liq bo'lmay qo'llaniladi. Uni maqsadi shundaki, qaysiki tashkilotlar o'z iste'molchilari va manfaatdor tomonlarni talab va hohishlarni qanoatlantirishda, shuningdek ularni mahsulot va xizmat ko'rsatishda qanoatlantirishga erishishda o'zining javobgarlik va majburiyat tushunchalarini takomillashtirsin.

ISO 9000 xalqaro standartida sifat menejmenti tizimi QMP 7 (printsipi) tamoyilini tadbiriq etishdagi asosiy tushunchalar 2.2 bandida yoritilgan. Ushbu printsiplar o'z-o'zi bo'yicha talablar bo'lmay, balki ularda asosiy talablar shakllanadi va ISO 9001 xalqaro standarti talablarida o'rnatiladi.

ISO 9000 xalqaro standartining 2.3 bandida har bir printsipni qo'llashdagi ustunligi, ta'sir imkoniyati, «mazmuni» va «mohiyati» keltirilgan bo'lib, bu printsiplarni nima uchun tashkilotlar hisobga olishi lozimligi tushintiriladi:

- tashkilotning takomillashtirish;
- bozorda o'z o'rmini topish;
- qonun-qoida talablariga rioya qilish;
- iste'molchi talablariga rioya qilish;
- yetkazuvchilarni rivojlantirish.

Sifat menejmenti tizimini sertifikatlash qanday ustunlik beradi:

- tashkilot sifat menejmenti tizimini xalqaro standartga haqiqatdan ham muvofiqligini tasdiqlaydi;
- ikkinchi tomonning ko'p sonli tekshirishlariga o'rin qolmaydi;
- bozordagi mavqeyi yuksaladi.

ISO 9000 xalqaro standarti sifat menejment tizimi asosiy tushuncha, printsiplari va atamalarini, qaysiki universal tavsif va qo'llash mumkin bo'lgan:

- tashkilot, sifat menejmenti tizimini joriy etish orqali turqin muvoffaqiyatga intiluvchi;
- iste'molchi, tashkilotni talab etilgan mahsulotni yetkazishi va xizmat ko'rsatish xususiyatiga ishonch va uni talabi qanoatlanirishini hohlovchi;
- tashkilot, mahsulot yetkazish va xizmat ko'rsatish zanjiri talablarni bajarilishiga ishonchli bo'lishini hohlovchi;
- tashkilot va manfaatdor tomonlar sifat menejmenti tizimidagi yagona atamalarni qo'llash orqali, o'zaro tushinishni takomillashtirishga erishmoqchilar;
- tashkilot, ISO 9001 talablariga muvofiqligini baholashni hohlovchi;
- kimki, sifat menejmenti ko'lamini baholash yoki maslahat berish, o'qitish olib boruvchilar;
- oilaga kiruvchi standartlarni ishlab chiquvchilar.

Korxonalarda halqaro standart talablariga muvofiq sifat tizimlarining joriy etilishi raqobat muhitida korxonalar yutug'ining kafolati xisoblanadi va korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirishga va iste'molchilarni sifatli va ekologik xavfsiz mahsulotlar bilan ta'minlash imkonini beradi.

SHuning uchun ushbu soha bo'yicha davlatimiz raxbari va xukumatimiz tomonidan katta e'tibor qaratilmoqda, jumladan:

Mazkur soha yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi tomonidan chiqarilgan qarorlar, mahalliy ishlab chiqaruvchi korxonalarda halqaro sifat tizimlarini joriy etish sohasining xuquqiy-normativ asosi bo'lib, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Eksport qiluvchi korxonalarni rag'batlantirishni kuchaytirish va raqobatbardosh mahsulotlarni yetkazib berishni kengaytirish borasida qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-1731, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 22 iyuldagi "Korxonalarda halqaro standartlarga muvofiq sifatni boshqarish tizimlarini joriy etish bo'yicha tadbirlar to'g'risida"gi №349, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 19 iyundagi "Respublika korxonalarida xalqaro standartlarga muvofiq bo'lgan sifatni boshqarish tizimlarini joriy etishni kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi №173 hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 29 avgustdagi "Korxonalarda halqaro standartlarga muvofiq sifatni boshqarish tizimlarini joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi №183 qarorlarida soliq, bojxona, mahsulotlarni eksport jarayonlari va bank xizmatlari bo'yicha ishlab chiqaruvchi korxonalarning imkoniyatlarini yanada kengaytirish maqsadida qator imtiyoz va qulayliklar berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 356-moddasiga asosan soliq solinadigan baza yangi texnologik uskunalar sotib olishda, sifatni boshqarish

tizimlarini joriy etish va mahsulotni halqaro standartlar talablariga muvofiq sertifikatlashtirishda kamaytiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 26 martdagi PQ-1731-sonli qaroriga asosan sifatni boshqarish tizimlarini joriy etayotgan mikrofirmalar va kichik tashkilotlarga yagona soliqlar to'lovlarini kamaytirish tartibi qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 19 iyundagi 173-son qaroriga asosan davlat ehtiyojlari uchun mahsulotlar xarid qilish yuzasidan tender savdolari o'tkazishda boshqa teng shart-sharoitlarda ustunlik sifatini boshqarishning sertifikatlashtirilgan tizimiga ega bo'lgan mamlakatimiz mahsulot yetkazib beruvchilariga beriladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 21 iyuldagi 154-son qarori bilan tasdiqlangan Nizomga asosan xalqaro standartlar bo'yicha sifat tizimini joriy qilgan, shuningdek eksportbop mahsulot turlarini ishlab chiqarishni nazarda tutuvchi korxonalar, mahalliy lashtirish dasturiga kirishda, yuqoridagi mezonlarga muvofiq keladigan loyihalar bo'yicha afzallikka ega.

### **Nazorat savollari**

1. Sifat menejment tizimlari sertifikatlangan korxona va tashkilotlar uchun qanday imkoniyat, imtiyoz va rag'batlantirishlar mavjud?
2. Sifat menejmentini sertifikatlashtirish nima maqsadda o'tkaziladi?
3. Sifat sertifikatlashtirishni o'tkazish sharoitiga qo'yiladigan talablarni tushuntiring?
4. SMT sertifikatlashtirishda audit ob'ektlarini sanang?
5. SMT komponentlarini tushuntiring?
6. SMT sertifikatlashtirishning asosiy bosqichlarini ayting?

### **31-mavzu. Sifat menejmenti tizimining sertifikatlashtirish bosqichlari**

31.1. Sifat sertifikatlashtirishdan oldingi bosqich, baholash auditini o'tkazish, tashkilotning sifat tizimini tekshirish va baholash, audit o'tkazish tartibi va grafisini ishlab chiqish, sertifikatlashtirilgan sifat tizimini inspeksion nazorati

#### **31.1. Sifat sertifikatlashtirishdan oldingi bosqich, baholash auditini o'tkazish, tashkilotning sifat tizimini tekshirish va baholash, audit o'tkazish tartibi va grafisini ishlab chiqish, sertifikatlashtirilgan sifat tizimini inspeksion nazorati**

Dastlabki yig'ilish komissiya raisi rahbarligida komissiya a'zolari, rahbariyat va tashkilotning yetakchi mutaxassislar ishtirokida o'tkaziladi.

Yig'ilish qatnashchilari ro'yxatga olingan bo'lishi shart

Dastlabki yig'ilish maqsadi quyidagilar bo'lib hisoblanadi:

- audit rejasini ishlatish imkoniyatini tasdiqlash;
- audit protsedurasi va usullarini foydalanish qisqacha qamrab olinganligi;

- komissiya a'zolari va tekshirilayotgan tashkilot xodimlari o'zaro faoliyati protsedurasini rasmiy o'rnatish;

- kelib chiqadigan masalalarni muhokama qilish.

Dastlabki yig'ilish paytida komissiya raisi majbur:

- qatnashchilarga audit o'tkazishda komissiya bilan ularga birlashtirilgan ishlarni tanishtirish;

- audit bo'yicha ishlarni o'tkazish grafigina e'lon qilish, oxirgi yig'ilish vaqti va kunini, auditga aloqador boshqa tadbirlarni hamda oraliq yig'ilishlarni tekshiruv komissiyasi va tekshirilayotgan tashkilot rahbariyatiga tanishtirish;

- audit protsedurasi va usuli bilan qisqacha tanishtirish;

- audit tanlanma tariqasida bo'lishi va baholash natijalari ehtimollik tavsifidan hol emasligini tashkilotga oldindan ma'lumot berish;

- audit ish tala haqida xabardor qilish (zaruriyat tug'ilgan hollarda);

- audit olib borilish haqida ma'lumotlarni tekshirilayotgan tashkilotga xabar berishi tartibi to'g'risida;

- komissiyani konfidentsillik talablariga rioya qilishini tasdiqlash;

- komissiya a'zolari uchun xavfsizlik va sag'lig'ini saqlash talablarini ta'minlash tartibini tasdiqlash;

- sertifikatlashtirish natijalari bo'yicha qabul qilingan qaror va rioya qilish tartib qoidalari to'g'risida oldindan ma'lumot berish;

- akt tuzish tartibi bilan tanishtirish;

- audit to'xtatilishi mumkin bo'lgan shartlar haqida ma'lumot berish;

- agarda aktda nomuvofiqlik bo'lgan holda sertifikatlashtirish idorasi keyingi faoliyatidagi masalalar to'g'risida tekshirilayotgan tashkilotni oldindan ma'lumot berish.

Sifat menejmenti tizimini sertifikatlashtirish SMT sertifikatlashtirishda asosiy ishlar bosqichlari quyidagicha:

1- ishlarni tashkillashtirish;

2- tashkilot SMT hujjatlarini tahlil qilish;

3- auditga tayyorgarlik;

4- auditni o'tkazish va audit natijalari bo'yicha dalolatnomalarni tayyorlash;

5- sertifikatlashtirishni yakunlash, sertifikatni ro'yxatga kiritish va taqdim etish;

6- sertifikatlashtirilgan SMT inspeksion nazorati.

Sifat menejmenti tizimini sertifikatlashtirish natijasida tekshirilayotgan tashkilotni O'z DSt ISO 9001:2015 talablariga muvofiqlik darajasi va SMT natijaviyligi aniqlanadi.

**ISO 9001:2015 xalqaro standarti talablari bo'yicha audit o'tkazish  
so'rovnomasi (misol)**

| <b>№</b> | <b>Standart bandi talablari</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                    | <b>Jarayon nomi,<br/>mas'ul va ko'rilgan<br/>ma'lumotlar</b>                                         | <b>Baho</b> |
|----------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------|
| <b>1</b> | <b>2</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                           | <b>3</b>                                                                                             | <b>4</b>    |
| <b>4</b> | <b>Tashkilot muhiti (kontekst)</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                 |                                                                                                      |             |
| 4.1      | <p>Tashkilot tushunchasi va uni muhiti.</p> <p>Tashkilot, qaysiki uni maqsadi va strategik rivojlanishi va sifat menejment tizimi istagan natijaga erishishga ta'sir etuvchi tashqi va ichki omil(ta'sir)larni aniqlashi lozim.</p> <p>Tashkilot ushbu tashqi va ichki omil(sharoit)larga tegishli monitoring va tahlil ma'lumotlarni olib borish lozim.</p>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                       | Tashkilot tashqi omillar "Nizom"ida va ichki omillar "Jamoa shartnoma"si, standartlardan aniqlangan. | 10          |
| 4.2      | <p>Manfaatdor tomonlarni ehtiyoj va hohishlarini tushunish.</p> <p>Tashkilot mahsulot va xizmat ko'rsatishni doimo yetkazib berish qobiliyatiga, qaysiki iste'molchilar talablariga muvofiq, hamda qo'llanilgan qonun va me'yoriy-huquqiy talablarga javob beradigan manfaatdor tomonlar tarafidan ko'rsatilayotgan yoki ko'rsatilishi mumkin bo'lgan ta'sirni hisobga olgan holda quyidagilarni belgilashi lozim:</p> <p>a) sifat menejmenti tizimiga aloqador bo'lgan manfaatdor tomonlar;</p> <p>b) ushbu manfaatdor tomonlarning sifat menejmenti tizimiga aloqador bo'lgan talablari.</p> <p>Tashkilot ushbu manfaatdor tomonlar va ularning tegishli talablari to'g'risida axborotlarni monitoring va tahlil etishni olib borishi lozim.</p> | GM-O'zbekiston AK -BIQ S (ISO 9001 va ISO/TS 16949) ga muvofiqlik sertifikatlar                      | 10          |
| 4.3      | <p>Sifat menejmenti tizimini qo'llash doirasini aniqlash.</p> <p>Tashkilot sifat menejmenti tizimini qo'llash chegaralarini aniqlashi lozim, qaysiki uni o'rnatadigan faoliyatiga.</p> <p>Qo'llash doirasini belgilashda tashkilot</p>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                             | Standartning barcha bandlarni qo'llaniladi.                                                          | 10          |

|     |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                       |                                                                                                                                                                                                                           |   |
|-----|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---|
|     | <p>quyidagilarni ko'rib chiqishi lozim:</p> <p>a) 4.1 bandda ko'rsatilgan tashqi va ichki omil(muhit)lar;</p> <p>b) 4.2 bandda ko'rsatilgan tegishli manfaatdor tomonlarning talablari;</p> <p>c) tashkilotning mahsulot va xizmatlari.</p> <p>Tashkilot mazkur xalqaro standartning barcha talablarini qo'llashi lozim, agarda uni sifat menejmenti tizimini qo'llanish doirasi chegaralarida ularni qabul qilish mumkin bo'lsa. Tashkilotning sifat menejmenti tizimini qo'llash doirasi bo'yicha ma'lumotlarini qulay, hamda hujjatlashtirilgan ma'lumot sifatida yaroqliligini ta'minlashi lozim. Qo'llanish doirasi mahsulot va xizmat ko'rsatish turlarining qamrab olishi, hamda tashkilotning sifat menejmenti tizimini qo'llanish doirasiga qo'llab bo'lmaydigan mazkur xalqaro standartning talablarini istisno etilishi asoslanishi lozim.</p> <p>Agar aniqlangan qo'llab bo'lmaydigan talablar tashkilotning mahsulot yoki xizmat ko'rsatish muvofiqligini ta'minlash, hamda iste'molchilarning qanoatlanligini oshirish qobiliyati yoki mas'uliyatiga ta'sir qilmasa, faqat bunday holdagina tashkilot mazkur xalqaro standart talablariga muvofiqligi bo'yicha bildirilishi mumkin.</p> |                                                                                                                                                                                                                           |   |
| 4.4 | <p>Sifat menejment tizimi va uni jarayonlari.</p> <p>4.4.1 Tashkilot sifat menejmenti tizimini mazkur xalqaro standart talablariga muvofiq ishlab chiqishi, joriy qilishi, saqlashi va doimiy takomillashtirishi lozim, shuningdek zarur jarayonlar va ularning o'zaro munosabatlar hisobga olgan holda.</p> <p>Tashkilot sifat menejmenti tizimi uchun zarur bo'lgan jarayonlar va ularni tashkilot ichida qo'llashni aniqlashi lozim, hamda:</p>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                    | <p>Sifat qullanmasi va boshqa tashkilot standartlarida jarayonlar ketma-ketligi va o'zaro munosabatlari, zarur resurslar, mas'uliyat va huquqlarni aniqlangan.</p> <p>Xavflar va imkoniyatlar alohida ko'rsatilmagan,</p> | 6 |

|                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                     |                                                                                         |  |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------|--|
| <p>a) bu jarayonlarga kiruvchi va undan kutilayotgan chiquvchi talablarni aniqlash;</p> <p>b) bu jarayonlarning ketma-ketligi va o'zaro munosabatlarini aniqlash;</p> <p>c) bu jarayonlarni faoliyati natijaviyligini ta'minlash va ularni boshqarish uchun zarur bo'lgan mezon va metodlarni (shuningdek faoliyat ko'rsatkichlari, monitoring va o'lchashlarni ichiga olgan holda) aniqlash va qo'llash;</p> <p>d) bu jarayonlar uchun zarur resurslarni aniqlash va ularning borligini ta'minlash;</p> <p>e) bu jarayonlarga nisbatan mas'uliyat va huquqlarni taqsimlash;</p> <p>f) 6.1 bandi talablariga muvofiq xavflar va imkoniyatlarni hisobga olish;</p> <p>g) bu jarayonlarni baholash va ularni kutilayotgan natijalarga erishishi uchun zarur o'zgarishlarni kiritish;</p> <p>h) sifat menejmenti tizimi va jarayonlar takomillashtirish.</p> <p>4.4.2 Bu zarur hajm va turda bo'lishida tashkilot qilishi lozim:</p> <p>a) uni jarayonlari faoliyatini ishlashi uchun hujjatlashtirilgan ma'lumotlar yaroqliligini ta'minlash;</p> <p>b) bu jarayonlar qanday rejalashtirilgan bo'lsa shunga muvofiq amalga oshirilayotganiga ishonchni ta'minlash uchun hujjatlashtirilgan ma'lumotlarni saqlash.</p> | <p>lekin ularni oldini olish va imkoniyatlar tashkilot standartlarida ko'rsatilgan.</p> |  |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------|--|

### Nazorat savollari

1. Sifat menejmenti tizimini sertifikatlashtirishda asosiy ishlar bosqichlari nechta?
2. Sifat menejmenti tizimi va uni ishlab chiqish tartibi.
3. Sifat menejmenti tizimi va uni ishlab chiqishda hujjatlarga talablar
4. Sifat menejmenti tizimi ichki auditi qanday amalga oshiriladi?
5. Sifat menejmenti tizimi sertifikatlashtirish qanday amalga oshiriladi?

## **32-mayzu. Auditni o'tkazish qoida va tartiblari**

32.1. Sertifikatlashtirish jarayonidagi tekshiruv ob'yektlari

32.2 Tekshiruv dasturi boshqaruviga qo'yiladigan talablar.

32.3 Tekshiruv ishtirokchilari, tekshiruv komissiyasi tarkibini tuzish.

### **32.1. Sertifikatlashtirish jarayonidagi tekshiruv ob'yektlari**

Auditlar SMT faoliyatining natijaviyligini baholash imkonini beradi, shuningdek SMTni takomillashtirish omillarini aniqlaydi va korxona faoliyatini yaxshilaydi. Auditlar o'tkazishdan maqsad nomuvofiqliklarni kelib chiqish sabablarini aniqlash va yo'qotish, shuningdek ularning oldini olish bo'yicha choralar o'tkazishni ta'minlash.

SMT auditining asosiy yo'nalishi SMTning ishlashi va uning jarayonlariga qaratiladi.

SMT ichki auditi xalqaro, ichki va tashki standartlar, qonun va qarorlar, manfaatdor tomon va iste'molchi talablari va boshqa me'yoriy talablar muvofiqlik darajasiga qaratiladi.

SMT auditi quyidagi maqsadlarni bajarilishiga imkon yaratishi lozim:

- SMT faoliyatini ishlashi to'g'risidagi aniq ma'lumotlar olish;
- SMT qo'llanish ko'lamida o'rnatilgan darajani aniqlash;
- SMT standartlari va boshqa me'yoriy hujjatlarda o'rnatilgan talablarni joylarda muvofiqligini ta'minlash;
- oldingi auditlar natijalari bo'yicha tuzatuvchi (oldini oluvchi) choralar natijaviyligini tekshirish;
- SMTni ishlashini va natijaviyligini baholash uchun audit natijalarini rahbariyatga taqdim etish, SMTni takomillashtirish bo'yicha tahlil va choralar ko'rish.

### **32.2 Tekshiruv dasturi boshqaruviga qo'yiladigan talablar.**

Auditni rejalashtirish

Sifat menejmenti bo'limi boshlig'i joriy yil uchun ichki audit grafik-rejasini tuzadi. Audit grafik-rejasida quyidagilarni inobatga olingan holda tuzilishi lozim:

- ✓ SMT jarayonlarining holati va muhimligi;
- ✓ mahsulot sifatini holati;
- ✓ oldingi ichki va boshqa auditlar natijalari;
- ✓ iste'molchi e'tirozlari;
- ✓ yuqori rahbariyat tomonidan SMT tahlili natijalari.

Korxonada ichki SMT audit joriy yilda kamida bir marta davriy o'tkaziladi. Agarda iste'molchidan e'tirozlar bo'lganida auditlar soni ko'paytirishi mumkin. Audit o'z ichiga SMT ko'lamidagi barcha jarayonlar, faoliyat turlari va smenalarni olishi lozim. Sifat menejmenti bo'limi boshlig'i audit guruhi rahbari va a'zolarini aniqlaydi. Auditorlar ISO 9000 guruhi, ISO 50001 IATF 16949 va boshqa xalqaro standartlari talablari bo'yicha bilimga

ega va xaqqoniy natijalar olishda o'tkazilayotgan joydan mustaqil bo'lishi lozim.

Ichki audit o'tkazish grafik-reja korxona bosh rahbari tomonidan tasdiqlanishi lozim.

Ichki audit o'tkazish grafik-rejasi tasdiqlangandan sung, Sifat menejmenti bo'limi boshlig'i barcha bo'lim, jarayon rahbarlariga va shuningdek ichki auditorlarga uni yetkazadi.

Ichki audit grafik-rejasidan kelib chiqib audit guruhi rahbari korxona bo'lim/jarayonlarida audit o'tkazish rejasini ishlab chiqadi va guruhi a'zolariga taqsimlaydi. SHuningdek rejada audit ko'lami, o'tkazish sanasi aniqlanadi va guruh a'zolari o'rtasida majburiyatlar belgilanadi.

Korxonada davriy ravishda mahsulot, texnologiya jarayonlari va boshqa maxsus auditlar ham o'tkaziladi. Bunday auditlar Sifat, texnologiya va texnik xizmat ko'rsatish mutaxassislari hamkorligida "Texnologiya" bo'limi rahbari javobgarligida davriy ravishda o'tkaziladi.

Maxsus auditlar quyidagi holatlarda o'tkaziladi:

- ishlab chikarishga yangi jarayonlar kiritilishi yoki jarayonlarni takomillashtirilishi;
- mahsulot sifatini tushib ketishi (nomuvofiq mahsulot ko'payishi);
- yangi texnologiyalarni joriy etishi;
- mahsulot sifati bo'yicha iste'molchi tomonidan tushgan e'tirozlar;
- manfaatdor tomonlar talablari;
- mahsulotga qo'yilgan me'yoriy talablarni o'zgarishi;
- korxona tizimidagi o'zgarishlar.

Xom-ashyo, materiallar, yarim tayyor va tayyor mahsulotlarni saqlash va ishlab chiqarish jarayonlarida brigadir/smena ustasilari har kuni, bo'lim/tsex boshliqlari/ombor mudirlari haftada bir va yuqori rahbariyat tomonidan chorakda bir 7-ilovalarga muvofiq Layered audit/ Darajali audit o'tkaziladi, savollar mazmuni o'zgartirilishi mumkin.

Ichki auditorlar malakasiga qo'yilgan talablar:

- audit o'tkazish metodlarini bilishi;
- auditni tashkil etish va reja tuzishni bilishi;
- ISO 9000 guruhi va IATF 16949 xalqaro standartlarini qo'llanish

mohiyatini tushunishi;

- auditning ahamiyati va javobgarlikni tushunishi;
- muloqat madaniyatini bilishi;
- audit o'tkazilayotgan jarayonni mohiyatini bilishi;
- dalillarga asoslanib qarorlar qabul qilish.

Audit rejasi

Audit guruhi rahbari audit o'tkazish rejasini auditdan avval tuzadi va o'z a'zolariga yetkazadi. Audit rejasi tuziladi. U o'z ichiga - audit turi, joyi, ko'lami, maqsadi, tekshirilish bandlarni oladi va sifat menejmenti bo'limi bilan kelishiladi.

Auditorlar audit davridagi tekshirish manbaalari va olingan kuzatish natijalarini audit so'rovnoma yozadilar. Nomuvofiqlik aniqlanganida esa, guruh rahbari bilan kelishgan holda nomuvofiqliklar bo'yicha hisobot to'ldiriladi.

Audit guruhi rahbari SMT audit natijasi bo'yicha hisobot tayyorlab, auditdan so'ng uch kun ichida uni Sifat menejment bo'limiga topshiradi. Audit natijasi bo'yicha hisobot to'ldiriladi.

#### **Tekshirish o'tkazish tartibi**

Audit o'tkazish vaqtida auditor tekshirilayotgan bo'lim yoki jarayon faoliyatida hujjatlar talablarini bajarilishi, yaroqligi, muvofiqligi, ishchi holati va saklanishlarini nazorat varag'i asosida tekshirishi lozim.

Bo'lim /jarayon faoliyatini tekshirishda auditor quyidagilarga: hujjatni tushunarli va foydalanishga qulayligi, javobgarlik va xuquqlarni aniqlanganligi, belgilanganlik, yaroqlik, ISO 9000 guruhi, IATF 16949 va boshqa xalqaro standartlari talablariga muvofiqlik, qo'yilgan talabni amalga muvofiqligi, xodimlar layoqati, mashina-jihozlarni muvofiqligi va ularga ko'rsatiladigan xizmatlarni bajarilishi, yozuvlar olib borilishi, sinash va o'lchash vositalari holati, tuzatuvchi va oldini oluvchi choralar bajarilganligi, statistik metodlar qo'llanishini, iste'molchi, yetkazuvchilar va boshqa manfaatdor tomonlar bilan aloqadorlik, takomillashtirish ishlarini olib borilishi va boshqalarga e'tiborini qaratishi lozim.

Audit o'tkazishda auditor quyidagi metodlardan foydalanadi:

- auditda haqqoniylikga asoslangan dalillarni kuzatish;
- tasdiqlovchi dalil va rad qilib bo'lmaydigan isbot;
- savollar tahlili ketma-ketligida muammoni tub sababini topish;
- audit ko'lamini qo'yilgan talablarga muvofiqlik darajasini baholash.

### **32.3 Tekshiruv ishtirokchilari, tekshiruv komissiyasi tarkibini tuzish.**

#### **Audit o'tkazish**

Audit o'tkazish quyidagi bosqichlarni o'ziga oladi:

Tekshirilayotgan bo'lim/jarayon rahbari va mas'ul xodimlar bilan auditor guruhining kirish yig'ilishini o'tkazish. Kirish yig'ilishida auditni maqsadi, rejasi, tartibi va xujjatlashtirishni tushuntirish.

- audit rejaga muvofiq tekshirilayotgan bo'lim faoliyati to'g'risida ma'lumot-larni yig'ish, ularni tekshirish, audit yozuvlarini shakllantirish;

- audit mezonlari bo'yicha olingan natijalarni baholash (hujjatlar va ISO xalqaro standarti talablari) va aniqlangan nomuvofiqlik, e'tiroz va takliflar yozuvini olib borish;

- audit natijalarini taxlil qilish;

- aniqlangan nomuvofiqliklar va audit natijalari bo'yicha xulosalarni tekshirilgan bo'lim/jarayon rahbarlariga yetkazish;

- tekshirilayotgan bo'lim/jarayon rahbari va mas'ul xodimlar ishtirokida audit guruhining yakuniy yig'ilishini o'tkazish;

- audit natijalari bo'yicha hisobot tuzish.

Audit kirish ma'lumotlari- faoliyat natijalari, yo'riqnomalar, chora-tadbirlar, nazorat yozuvlari, oldingi auditlar ma'lumotlari, qo'yilgan maqsadlarni bajarilishi, me'yoriy va qonun talabalari, manfaatdor tomonlar va iste'molchi talablari va boshqalar bo'lishi mumkin.

Audit rejasi va vaqti kelishilgan va har ikkala tomonga qulaylik yaratishni ta'minlashi lozim.

Yakuniy audit yig'ilishida audit guruhi rahbari o'tkazilgan audit bo'yicha xulosani yetkazadi. Nomuvofikliklar bo'yicha hisobotga bo'lim/jarayon rahbari nomuvofiklik sabablarini tuzatish yoki oldini olish choralari va bajarish muddatini aniqlaydi va imzolaydi va kelishilgan muddat bo'yicha bajarilishini ta'minlaydi.

Sifat menejment bo'limi boshlig'i o'z hisobotida ichki audit natijalarini tahlilini quyidagilarni yaxshilash uchun olib boradi va rahbariyatga yetkazadi.

- ichki auditlarni rejalashtirish;
- faoliyatini takomillashtirish;
- auditorlar malakasini oshirish;
- audit o'tkazilishini nazorat qilish va ularni natijalarini hujjatlashtirish;
- tuzatuvchi va oldini oluvchi choralarni ishlab chiqish va bajarishni nazorat qilish.

32.3.1-jadval.

«Tasdiqlayman»  
korxona rahbari

«\_\_\_» \_\_\_ 20\_\_ y.

\_\_\_ yil audit o'tkazish grafik-reja

| № | Bo'lim/tsex/mahsulot/<br>jarayonlar<br>nomi | Audit<br>sanasi | Audit guruh<br>rahbarining<br>ismi/sharifi | Auditorning<br>ismi/sharifi | Izoh |
|---|---------------------------------------------|-----------------|--------------------------------------------|-----------------------------|------|
|   |                                             |                 |                                            |                             |      |
|   |                                             |                 |                                            |                             |      |
|   |                                             |                 |                                            |                             |      |
|   |                                             |                 |                                            |                             |      |
|   |                                             |                 |                                            |                             |      |
|   |                                             |                 |                                            |                             |      |
|   |                                             |                 |                                            |                             |      |
|   |                                             |                 |                                            |                             |      |

Tuzuvchi: Sifat menejmenti bo'limi boshlig'i \_\_\_\_\_

**Audit rejasi**

|                                                                             |  |                    |      |              |
|-----------------------------------------------------------------------------|--|--------------------|------|--------------|
| Audit turi: davriy <input type="checkbox"/> maxsus <input type="checkbox"/> |  | Audit guruhi:      |      | Sana:        |
| Audit o'tkazilish joy nomi:                                                 |  | Audit ko'lami:     |      |              |
| Audit maqsadi:                                                              |  | Talablar bandlari: |      |              |
| Audit o'tkazish rejasi:                                                     |  |                    |      |              |
| Tuzuvchi auditor                                                            |  | Sana               | Imzo | Ismi/sharifi |

**Audit so'rovnomasi**

Sana:

| Audit o'tkazilayotgan joy nomi: |                       |                   |
|---------------------------------|-----------------------|-------------------|
| No                              | Ko'riladigan savollar | Olingan natijalar |
|                                 |                       |                   |

Auditor: \_\_\_\_\_

**Ichki audit natijalari bo'yicha hisobot**

Sana:

|    |                                              |                                                                                                                |      |              |
|----|----------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------|--------------|
| 1  | Audit o'tkazilgan joy nomi                   |                                                                                                                |      |              |
| 2  | Tekshirilgan tizim (joy) xujjatlari:         |                                                                                                                |      |              |
| 3  | Talab bandlari                               |                                                                                                                |      |              |
| 4  | Ko'rilgan yozuvlar                           |                                                                                                                |      |              |
| 5  | Tekshirilgan joyning kuchli tomoni           |                                                                                                                |      |              |
| 6  | Takomil- lashirish uchun berilgan tavsiyalar |                                                                                                                |      |              |
| 7  | Aniqlangan nomuvofiqlik                      |                                                                                                                |      |              |
| 8  | Faoliyat bahosi:                             | <input type="checkbox"/> Qoniqarli<br><input type="checkbox"/> lozim <input type="checkbox"/> Ishlov berilishi |      |              |
| 9  | Tekshirilgan joy rahbari                     | Sana                                                                                                           | Imzo | Ismi/sharifi |
|    |                                              |                                                                                                                |      |              |
| 10 | Auditor                                      | Sana                                                                                                           | Imzo | Ismi/sharifi |
|    |                                              |                                                                                                                |      |              |

### Nazorat savollari

1. Audit grafigini tushintiring.
2. SMT auditi qanday o'tkaziladi?
3. SMT sertifikatlashtirishda audit ob'ektlarini sanang?
5. Ichki audit xisobati nima?
6. SMT audit so'rovnomasi nima?

**33-mavzu. Sifat menejmenti tizimining ichki xolatini baholash, uning natijaviyligi va samaradorligini aniqlashda qo'llaniladigan vosita va usullar**

33.1. Sifat menejmenti tizimining ichki xolatini baholash, uning natijaviyligi va samaradorligini aniqlashda qo'llaniladigan vosita va usullar

33.2. Sifat menejmenti tizimida axborot texnologiyalarini qo'llash.

33.3. Sifat bo'yicha menejrlarga qo'yilgan talabalar va ularni tayyorlash

**33.1. Sifat menejmenti tizimining ichki xolatini baholash, uning natijaviyligi va samaradorligini aniqlashda qo'llaniladigan vosita va usullar**

Sifatni takomillashtirish (quality improvement)- sifatga qo'yilgan talablarni bajarishi imkoniyatini oshirishga yo'naltirilgan sifat menejmentini qismidir (ISO 9000:2015, 3.3.8).

Samaradorlik (efficiency) -erishilgan natija va sarflangan resurs o'rtasidagi nisbat (ISO 9000:2015, 3.7.10).

Natijaviylilik (effectiveness) -qaysiki rejalashtirilgan vazifalarni bajarilgani va rejalashtirilgan natijalarga erishilganlik bilan ifodalangan daraja. (ISO 9000:2015, 3.7.11).

Kuzatuvchanlik (traceability) -ob'yektni qo'llanishi yoki joylashuvi tarixini kuzatish imkoniyati (ISO 9000:2015, 3.6.13).

ISO 9004:2009 ga muvofiq, tashkilot maqsadlariga erishish uchun jarayonlarning samaradorligi va natijaviyligini ta'minlashi kerak.

Jarayonning samaradorligi erishilgan natijalar va foydalanilgan resurslar o'rtasidagi munosabatlar sifatida baholanadi. Korxona jarayonlarining samaradorligini tahlil qilib, korxona tomonidan belgilangan maqsadlar, shu jumladan sifat boshqaruv tizimi va atrof-muhitni boshqarish tamoyillarini amalga oshirish samaradorligini baholaymiz.

Ishlab chiqarish korxonasi sifat boshqaruv tizimi jarayonining samaradorligini aniqlash uchun unga sarflangan resurslarni ushbu jarayon uchun rejalashtirilgan resurslar bilan taqqoslash zarur (33.1.1-jadval).

**Jarayonning rejalashtirilgan va amaldagi xarajatlari  
(misol tariqasida)**

33.1.1-jadval

| Harajatlar nomi       | Rejalashtirilgan xarajatlar | Haqiqiy xarajatlar |
|-----------------------|-----------------------------|--------------------|
| Tashqi audit          | 100 000                     | 100 000            |
| Ichki audit o'tkazish | 20 000                      | 25 000             |
| Hodimlarni o'qitish   | 4000                        | 4000               |
| Jami                  | 124 000                     | 129 000            |

Rejalangan xarajatlarning amaldagi xarajatlarga nisbati quyidagi formulalar bo'yicha hisoblang:  $K_3 = \frac{3_n}{3_q}$  va biz xarajat nisbati qiymatini 0.96 ga

tenglashtiramiz. Jarayonning samaradorligini baholash uchun quyidagi formula yordamida hisoblangan xarajat nisbati va bajarilgan qiymatning qiymati o'rtasidagi munosabatni baholash kerak:  $\eta = PK_3$ . Hisob-kitoblar natijasi sifatida biz taklif qilinadigan ahamiyatga ega shkala doirasida ushbu jarayonning samaradorligini anglatadigan 0,86 koeffitsientini olamiz.

Korxonaning SMT jarayonlarini tahlil qilish natijasida quyidagilarni aniqladik.

Korxona SMT boshlig'i tomonidan barcha boshqarma va bo'lim rahbarlariga ISO 9001:2015 bo'yicha xavf va imkoniyat taxtilini quyida ko'rsatilgan bandlar asosida tegishli hujjatlarni ma'lum muddatda ishlab chiqishi bo'yicha aloqa xati chiqaradi va shu bilan korxonadagi mavjud xavf va imkoniyatlar taxlili amalga oshiriladi.

Samaradorlik xar bir ishlab — chiqarish korxonasining eng asosiy ko'rsatgichlaridan biri bo'lib xisoblanadi. U xo'jalik yuritishning sifat va miqdor ko'rsatgichlarini, shuningdek, buyumlashgan va jonli mexnat xarajatlari xamda olingan natijalar o'rtasidagi munosabatlarni ifodalaydi.

Xozirda, bozor iqtisodiyoti sharoitida "Samaradorlik" tushunchasi, daromad olish, xarajatlarni kamaytirish, mexnat unimdorligini o'sishi, fond qaytimi, fontabellik va xakozolar samaradorlik tushunchasiga mos kelib, bozor iqtisodiyoti talablariga zid kelmasada, baxo, foyda, daromad, xarajat kabi to'shunchalarga karaganda kamroq qo'llanilmoqda. Samarali ishlash degani o'z moxiyatiga ko'ra, rejadagi foydani olish, noishlab chiqarish xarajatlari va boshqa turdagi yo'qotishlarni kamaytirish, ishlab chiqarish qo'vvatlari va ishchi kuchidan unimiroq foydalanish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni raqobatbardoshligini —sifatini oshirishni anglatadi.

Bu yerda "samara", —samaradorlik tushunchalar o'rtasidagi farqni xam anglash zarurdir.

Samara —ishlab chiqarilayotgan mahsulot (ish —xizmat), foyda daromad xajmini oshirish, mahsulot tannarxini kamaytirishi sifatsiz mahsulot chiqishini keskin kamaytirish, xattoki eng minimal darajaga yetkazish, bularning xammasi naturar xolida ishlab chiqarish samarasini biddirsa, pul shaklida esa iqtisodiy samarani tavsiflaydi.

Samaradorlik, avvalo, korxona faoliyatining sifat jixatlarini tavsiflovchi tushunchadir. U "samara" tavsifidan kelib chiqadi xamda unga qaraganda murakkab va majmua tavsifiga ega.

Samaradorlik aslida chora —tadbir sifatida ko'plab texnik, iqtisodiy, loyixa va xo'jaliq qarorlarini avvaldan belgilab beradi. Korxona o'zining xo'jalik, ilmiy —texnik va investitsion siyosatini belgilashda samaradorlikdan kelib chiqadi. Xarajatlar qanchalik kam bo'lsa (mahsulot sifatiga ta'sir qilmagan xolda), samara shunchalik ortadi, demak, iqtisodiy samaradorlik xam ortadi.

Ijtimoiy —iqtisodiy samaradorlik ishlab chiqarish samaradorligini mexnat sharoitlarini, uning ijodkorlik mazmunini boyitish, aqliy va jismoniy mexnat o'rtasidagi farqni yo'qotishi inobatga olgan xolda tavsiflanadi. Ijtimoiy iqtisodiy

samaradorlik bir vaqtning o'zida, ishlab chiqarish samaradiligini kuchaytirish, korxonaning muvoffaqiyatli faoliyat yuritishi, shaxsning xar tomonlama rivojlanishi va uning barcha qobiliyatlaridan foydalanishining sabab va natijasi xisoblanadi. Bevosita ijtimoiy samara, xodimlarning bilish va malakasi, tajriba va madaniyatning, axoli salomatligining yaxshilanishi va o'rta umur ko'rish darajasini o'sishida o'z ifodasini topadi.

### **33.2. Sifat menejmenti tizimida axborot texnologiyalarini qo'llash.**

Sifat menejmentida axborot texnologiyalari – axborot texnologiyalarini chuqur bilgan holda zamonaviy hisoblash mashinasi yordamida sifat boshqaruv tizimlarini yaratish, joriy etishda, amaliyotga tavsiya etishda, ilmiy tadqiqotlarda va hisoblash ishlarini bajarish uchun zarur bo'lgan va yo'nalish bo'yicha ta'lim standarti talab qilgan bilimlar, ko'nikmalar va tajribalar darajasini ta'minlashni o'rgatadi.

Mahsulotlar sifatini boshqarishda axborot texnologiyalarini tadbiq qilish, ishlab chiqarishda texnik ob'ektlarni avtomatlashtirish masalalari, avtomatik tizimning o'rni va roli, sifatni boshqarishning asosiy printsiplari va sxemalari, sifatni boshqarishda axborot tizimlarining asosiy turlari, ularning matematik ifodasi, boshqarish tizimining turg'unlik holatlari hamda sifat ko'rsatkichlarini baholash usullari va ulardan foydalana bilish, sifatni ta'minlashda avtomatik boshqarishga chuqur tayyorgarlik hamda avtomatik tizimlarni qurish, ilmiy tekshirish va hisoblashlarni bajarishda amaliy mustahkam ko'nikma va tajribaga ega bo'lish yo'nalishning asosiy vazifalariga kiradi.

Sifatni boshqarishni avtomatlashtirilgan tizimi maxsulot sifatini oshirish uchun maxsulotning xamma xayotiy tsikllarida sifat ko'rsatkichlarini talab etilgan darajaga erishishini ta'minlaydi. Avtomatlashtirish tizimi sanoat korxonalari strukturasining xamma zvenolarini birlashtiradi, ishlab chiqarishdagi xamma qonunbuzarliklarga e'tibor qaratadi, sifat darajasini maqsadli yo'nalishda oshiradi, xamma ko'rsatkichlar bo'yicha ob'ektiv baho berish imkoniyatini, ya'ni maxsulotning iste'molchilik ta'rifini shakllantiradi.

Tizimni yaratishdan maqsad, raqobatbardosh maxsulot to'g'risida axborot yig'ish, uning texnik darajasi, bor sifat darajasining ob'ektiv bahosini, uni yanada yuksaltirish bo'yicha effektiv yo'nalishlarni ishlab chiqish, maxsulotning jaxon darajasiga ko'tarilishining shartlari va muddatlarini mo'ljallashtirish, maxsulotni mukammallashtirish uchun xarajatlar hajmi va strukturasini baholashni bilish hisoblanadi.

Tizimning ishlash jarayonida quyidagi masalalar yechiladi:

korxona maxsulotlarini bir shakldagilarni tanlash, kodlashtirish va taxlil qilish, bunda maxsulotning boshqa korxona axborot tizimlari, mintaqaviy va jahon miqiyosidagi tarmoqlar axborotlari bilan to'g'ri kelishi hisobga olinadi;

axborot texnologiyalari bir shakldagi vakillari uchun nazorat qilish, maxsulotni yetkazish, rad etilish vaqtida, yo'qotish vaqtlari va ishlab

chiqaruvchining xarajatlarini qoplanishi uchun to'planadi, saqlanadi va ishlatiladi;

axborotning bosqichma-bosqich yig'ilishi, to'planishi va qayta ishlanishi, tizimning yaratilishi va ro'yxatga olmasdan foydalanishdan himoyalaniishi va boshqalar.

Sifatni boshqarish avtomatlashtirilgan tizimi samarali bo'ladi, agar tizim maxsulot xayotiy tsiklining xamma bosqichlarini qamrab olsa (33.2.1-jadval).

33.2.1-jadval

**MXTS bosqichlarida sifatni boshqarish**

| <b>Bosqich</b>                 | <b>Maxsulot sifatini boshqarish usullari</b>                                                                                                                                   | <b>Erishiladigan natijalar</b>                                                                                                                                                             |
|--------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>Marketing</b>               | Maxsulotga ehtiyojni baholash. Ishlab chiqariladigan maxsulotni xalqaro nisbatan darajasini taxlili.                                                                           | Maxsulotning talab etilgan sifatini mo'ljallash. Talab darajasidagi maxsulotni yaratish imkoniyatlarini baxolash.                                                                          |
| <b>Texnik topshiriq</b>        | Ishlab chiqilayotgan maxsulotning erishish doirasi-dagi sifat ko'rsatkichlarini tuzish. Maxsulotni o'zlashtirish muddatlarini qisqartirish bo'yicha choralarni ishlab chiqish. | Yaratilayotgan maxsulotning texnik darajasini optimallashtirish. Maxsulotning raqobatbardoshligini oshishi.                                                                                |
| <b>Loyixani ishlab chiqish</b> | Ustivor texnik yechimlarni qo'llash.                                                                                                                                           | Buyurtmachini jalb qilishni oshishi.                                                                                                                                                       |
|                                | Maxsulotning texnologiklikka ishlab chiqish.                                                                                                                                   | Foydaning oshishi.                                                                                                                                                                         |
|                                | Yaratilayotgan maxsulotning sifat elementlarini xar tomonlama tekshirish.                                                                                                      | Maxsulotning ishonchligi va ishchanligining oshishi.                                                                                                                                       |
|                                | Avtomatlashtirilgan loyixalashni konstruktorlik tizimini qo'llash.                                                                                                             | Oldin sinalgan konstruktiv yechimlarni, analoglarni qo'llash. Loyixalash jarayonini, maxsulot ishlab chiqarishni tezlashishi. ISO 9000 tip sifat standartlarining talablarini bajarilishi. |
|                                | Tashqi ko'rinish, ergonomika, bezash, qadoqlashni mukammallashtirish.                                                                                                          | Maxsulot sifatini reklama qilish uchun sharoit yaratiladi.                                                                                                                                 |
| <b>Maxsulotni tayyorlash</b>   | Loyixada kiritilgan talablarga rioya qilish.                                                                                                                                   | Mo'ljallangan sifatni ushlab turish.                                                                                                                                                       |
|                                | Maxsulot talabiga mos ravishda korxonaning rekonstruksiyasi.                                                                                                                   | Tayyorlashda mo'ljallangan sifatni ta'minlash. Bajaruvchilar malakasini oshishi.                                                                                                           |
|                                | Ishlab chiqarishni texnologik                                                                                                                                                  | Yangi maxsulotni o'zlashtirish                                                                                                                                                             |

|                                                                                            |                                                                                                 |                                                                                                                                                                                    |
|--------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|                                                                                            | tayyorgarligini avtomatlashtirish.                                                              | tezlashadi va raqobatbardosh-liligi oshadi.                                                                                                                                        |
|                                                                                            | Sifatni boshqarish tizimini yaratish.                                                           | Erishilgan sifat darajasini ushlab turish va oshirish.                                                                                                                             |
|                                                                                            | Maxsulotni va sifatni boshqarish sertifikatlash.                                                | Maxsulot sifatini oshirish yo'llarini aniqlash.                                                                                                                                    |
|                                                                                            | Texnologik A.L.T ni yaratish.                                                                   | Sifatni oshirishdan yig'ilgan malakani qo'llash va amalda sinalgan texnik yechimlarni qo'llash doirasini kengaytirish.                                                             |
| Maxsulotni ishlab chiqarishning xamama bosqichlarida va buyurtmachiga topshirishda sinash. | Nazorat va sinashni avtomatlashtirilgan tizimini yaratish.                                      | Kamchiliklarni aniqlash va bartaraf etishni tezlashishi. Maxsulot raqobatbardoshligining oshishi. Maxsulot sifatini oshirish uchun ob'yektiv natijalarni olish.                    |
|                                                                                            | ISO 9000 bazasida sinash jarayonini standartlashtirish. Tizimni va maxsulotni sertifikatlash.   | Maxsulot sifatini xalqaro talablarga keltirish. Maxsulot sifatining oshishi. Bajaruvchilar malakasining talab darajasini va kadrlarni qayta o'qitish dinamikasini aniqlash.        |
| Buyurtmachida maxsulotni keltirish va tayyorlash.                                          | Davlat ichida yetkazish uchun:<br>• maxalliy mutaxassislarni ishlatish;                         | Ishga tushurish muddatini kamayishi va maxsulot sifatini ushlab turishga ketadigan xarajatlarni kamayishi.                                                                         |
|                                                                                            | • buyurtmachi xodimlarini o'qitish;                                                             | Ishga tushurish muddatini kamayishi. Eksploatatsiya jarayonida maxsulot sifatini ushlab turish uchun sharoit yaratish.                                                             |
|                                                                                            | • nuqson va xatolarni taxlili.                                                                  | Maxsulotni tayyorlashda sifatni oshirish bo'yicha choralarni ishlab chiqish.                                                                                                       |
|                                                                                            | CHet elga yetkazish uchun:<br>• maxsulotni maydalash va qismlarga ajratishni optimallashtirish; | Buyurtmachida transport xarajatlari va montaj-sozlash ishlarini kamayishi.                                                                                                         |
|                                                                                            | • bajaruvchilar malakasini oshirish;                                                            | Xizmat safariga ketadigan xarajatlarni brigadalaridagilar sonini kamaytirish xisobiga, maxsulot sifatini oshirish, maxsulot ishlab chiqarishni tezlashtirish xisobiga kamaytirish. |
|                                                                                            | • chet elda vakil firmalarni                                                                    | Xizmat safariga ketadigan                                                                                                                                                          |

|                            |                                                                                                             |                                                                                                                                                        |
|----------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|                            | yaratish;                                                                                                   | xarajatlarni kamayishi; maxsulot ishlab chiqarishni tezlashishi.                                                                                       |
|                            | • ma'lumotlar bazasini yaratish;                                                                            | Maxsulot sifatini oshirish bo'yicha choralarni ishlab chiqish.                                                                                         |
|                            | • maxsulot upakovkasining sifatini oshirish                                                                 | Maxsulot sifati va butunligini ta'minlash.                                                                                                             |
| Maxsulot ekspluatatsiyasi  | Me'yoriy xujjatlar bo'yicha texnik shartlar va qo'llanmalarga rioya qilish.                                 | Maxsulotni mo'ljallangan sifatini ta'minlash.                                                                                                          |
|                            | Kafolat muddati chegarasida sifatni belgilangan ko'rsatkichlariga rioya qilinishini taxlili.                | Buyurtmachida maxsulot sifatini oshirish yo'llarini ishlab chiqish. Ekspluatatsiya jarayonida sifatni ta'minlashga ketadigan xarajatlarni kamaytirish. |
|                            | Maxsulotni ekspluatatsiya davrida sifat ko'rsatkichlarini o'zgarishi xaqida ma'lumotlar bankida yig'ilishi. | Reklama va marketing uchun baza yaratish.                                                                                                              |
| MXTS ning yakuniy bosqichi | Maxsulot eskirish davrini oldindan bilish.                                                                  | Yangi maxsulotga o'tishga topshiriqni ishlab chiqish.                                                                                                  |
|                            | Erishilgan va kutilayotgan sifat ko'rsatkichlariga muvofiqlikni taxlili.                                    | Yangi maxsulotga texnik topshiriqni korrektirovkalash.                                                                                                 |
|                            | Atrof muhitga maxsulot va uning tarkibiy qismlarining ta'sirini taxlili.                                    | Maxsulotni utilizatsiyalash bo'yicha choralarni ishlab chiqish.                                                                                        |
|                            | Ekspluatatsiyadan va ishlab chiqarishdan olingan maxsulot sifati xaqida ma'lumotlar bazasini yaratish.      | Yaratiladigan maxsulot sifatini oshirish uchun yaxshi chiqqan texnik yechimlarni qo'llash.                                                             |

### Sifatni boshqarishni avtomatlashtirilgan tizimiga talablar.

Tizimni yaratishda quyidagilarga e'tibor berish kerak:

- me'yoriy – qonuniy ta'minot;
- SB sohasida axborotni iqtisodiy mexanizmini yaratish;
- axborot ta'minotiga talablarni unifikatsiyalash;
- turli iste'molchilar uchun axborotdan foydalanish sharoitlari;
- axborotni ishonchligini, ma'lumotlarni ochiqlik darajasini, tijorat sirlarini saqlanishini nazorati;
- axborotni taqsimlab qayta ishlash va qarorlar bajarilishini nazorati;
- tizim foydalanuvchilarini tayyorlash va qayta tayyorlash.

Bu masalalarni SBAT doirasida yechish mumkin.

ALT lari insonning ijodiy imkoniyatlari va mashinaning tezkorligi, katta hajmdagi hotirasi va boshqa hususiyatlari bilan uyg'unlashadi. EHM yordamida

nazorat va loyihalashtirish jarayonlarini avtomatlashtirish mahsulotni yaratishni hamma bosqichlarini qamrab oladi. SB ni avtomatlashtirishdan asosiy maqsad sifatni oshirish va loyihalashtiriladigan mahsulotning texnik – iqtisodiy darajasini oshirish, mehnat unumdorligining oʻstirishi, mahsulotni yaratishga ketadigan harajatlarni kamaytirish, loyihalash narhi va mehnat sigʻimini kamaytirish. Har qaysi avtomatlashtirish tizimi axborotni (oldin qoʻlda bajarilgan) qayta ishlash uchun yaratiladi. Tizimning kirishicha maʼlum axborot kelib tushadi, va u toʻldiriladi, tahlil qilinadi, qisman olib qoʻyiladi, bir qismi boshqaruv buyruqlari yoki hujjatlar shaklida chiqariladi. Bajaruvchi mehnatining avtomatlashtirish darajasini baholash mezonini sifatida  $K$  koʻrsatkich hismat qiladi

$$K_1 = \frac{\tau_0 + \tau_k}{\tau_b}$$

bu yerda  $\tau$  - chiqish axborotini tayyorlash uchun ketadigan vaqt;  $\tau_0$  - axborotni qayta ishlash vaqti.

Bu koʻrsatkich qaytadan yaratilayotgan tizim sifatini baholash va optimal variantni tanlash imkonini beradi. Agar tizim axborotni tayyorlash vaqtini butunlay istisno qilish imkonini bersa, unda  $K \rightarrow \max$  va bunday tizim avtomatik, agar axborotni tayyorlash vaqti uni qayta ishlashga ketadigan harajatlardan ortsa, bunday tizim yaroqli boʻla olmaydi.

Tizimning sifati uning ish qobiliyati bilan baholanadi ( $K_2$ )

$$K_2 = \frac{\tau_0 + \tau_p}{\tau_0 + \tau_n}$$

bu yerda  $\tau_\phi$  - bir, ikki, uch smenali ishlashda tizimning ishchi vaqtining fondi;  $\tau_B$  - mashinalar ishlashida axborotni tayyorlash vaqti;  $\tau_P$  - reja asosida hismat koʻrsatish va taʼmirlash vaqti.

Texnika va unga hismat koʻrsatish narxining bandligini eʼtiborga olib, koeffitsient  $K$  ni tizimni ikki smenali ishlashida 0,85 dan oshib ketmasligiga harakat qilish kerak.

SBT ni avtomatlashtirish darajasini  $K_3$  koeffitsienti bilan baholanadi. Koeffitsient mashina mehnatini ulushini qoʻl mehnatining ulushiga nisbati bilan aniqlanadi:

$$K_3 = \frac{\tau_B}{\tau_n}$$

Kirish tilining axborot sigʻimi darajasini  $K_4$  koeffitsienti boʻyicha baholash mumkin:

$$K_4 = \frac{1 + U_{cr}}{1 + 2U_{cr} + U_{cm} + U_{cm}}$$

bu yerda  $U_{cr}$  - tilning murakkablik darajasi;  $U_{cm}$  - tilning sigʻim darajasi;  $U_{cm}$  - axborotlashuv darajasi.

Bunda tilning murakkablik darajasi quyidagi formuladan aniqlanadi.

$$U_{ca} = \frac{J_a}{J_{abx}}$$

bu yerda  $J_a$  – chiqish axborotining loyiha protseduralarida ishtirok etmaydigan birliklar soni;  $J_{abx}$  – loyiha operatsiya va protseduralarini bajarishda o'zgartirish jarayonida ishtirok etuvchi axborot birligining soni.

Til sig'iminining darajasi quyidagi formuladan aniqlanadi.

$$U_{ca} = \frac{J_{ax}}{J}$$

bu yerda  $J_{abx}$  – chiqish axborot birligining soni;  $J_{ax}$  – o'zgartirish jarayonida olingan kirish axborot birligining soni.  $U_{ca}$  qanchalik kichik bo'lsa, til darajasi shunchalik yuqori bo'ladi.

Axborotlashuv darajasi quyidagi munosabat bilan aniqlanadi;

$$U_{ca} = \frac{J_u}{J_{ax}}$$

bu yerda  $J_u$  – qo'llanilgan tashqi axborot miqdori;  $J_{ax}$  – o'zgartirish jarayonida qo'llanilgan kirish axboroti miqdori va loyiha operatsiyalari va protseduralarini bajarish miqdori.  $U_{ca}$  ni ko'tarilishi operator ishini yangilashtiradi, lekin tizimning rivojlangan axborot bazasini talab qiladi.

### 33.3. Sifat bo'yicha menejrlarga qo'yilgan talabalar va ularni tayyorlash

Sifat menejmenti tizimining zamonaviy menejer o'z majburiyatlarini va vazifalari bajarishda noma'lum sharoitlarda boshqaruv qarorlarini qabul qilishga noiloj majbur, ko'proq tekshirish o'tkazishni talab qiladi va olingan yangi bilimlar asosida zaruriy qarorlarni chiqaradi. Birinchi navbatda bu strategik va taktik tavsifli masalalar va muamollarni hal etishga taalluqli bo'ladi. Bunda sifat menejmenti tizimini yaratish va ishchi holatida menejerning ishtirok etishi nafaqat uning kasbiy malakasini oshirish emas, biroq ilmiy, dinamik, kelgusida va oxirgi natijada ko'proq konstruktiv vazifalarni yanada yuqori sifatli boshqarishishi amalga oshirish shaklidagi samara bo'lib hisoblanadi.

Ko'rinib turibdiki, sifat menejment tizimining faoliyati, korxonani ishlarining natijaviyligi, iste'molchilarning ishonchi va uning obro'si menejerning faoliyatiga bog'liq. Burson-Marsteller PR-kompaniyasining baholashi bo'yicha biznesda oliy menejrlarni o'rni to'g'risida sotsiologik tadqiqotlar o'tkazganda, kompaniyalarning nufuzi yildan yilga ko'proq ularning rahbarlarining obro'siga bog'liq bo'lmoqda (ilgari ko'proq mijozga e'tibor berilar edi, hozir esa bu sifat atiga oltinchi o'rinda). Bunda boshqaruvning yuqori zveno menejrlari muvaffaqiyatining asosiy xususiyati, strategiyani qanday asoslab berish qobiliyatini, kelajakda kompaniyaning yorug'lik ko'rishi, o'tkazilgan tadqiqotlar asosida shakllantirish mumkinligi va ichki va tashqi muhit o'zgaruvchanligi hisobiga firmani aniqlangan istiqbolli rivojlanishi

qanday tashkil etish mumkinligi aniqlashgan. SHular asosida bunday korxonalarga iste'molchini ishonchini oshirish mumkin. Ko'rinib turibdiki, boshqaruvchilarning faoliyatida *tadqiqot yondashishdan* foydalanish mumkin.

Hisoblab chiqqanda, tadqiqot ishlarini o'tkazish uchun har bir menejer taxminan 30% ish vaqtidan foydalanadi. Ushbu baholashni sifat menejmentiga yondoshish bilan sharhlab, ya'ni hozirgi sharoitda aniqlash bo'yicha innovatsionlik bo'lishi lozim va uni umum ma'lum baholash bo'yicha boshqaruvchilar barcha ish vaqtining 50-60% ini ajratishadi. Bu munosabatda tendentsiya vaqtning o'tishi bilan faqat kuchayib boradi, chunki jamiyat yo'nalishning inovatsion rivojlanishida harakat qilmokda.

Korxonadagi mavjud boshqarish tizimlari qatorida sifatni boshqarish tizimini ishchi holatda saqlash, yaxshilash va undan samara olish uchun bu tizimin nazorat qilish, takomillashtirish va samaradorligi uchun sifat bo'yicha menejerlarning faoliyati zaruriyatga aylangan.

Menejer o'z faoliyatida tadqiqot yondoshishdan keng foydalanganligi uchun asboblarni tekshirish, usullarni, tamoyillarni bilishi va qo'llamog'i lozim, shuningdek, ishlarni tashkil qilishi va bu ishlarni o'tkazish, ularni natijasidan foydalanishi kerak. Menejer faoliyatida tadqiqot yondoshishni qo'llash zamonaviy boshqaruvchini fikrlashiga mansub va iqtisodiyotni zamonaviy rivojlanish davrida raqobatchilik va bozor munosabatlari sharoiti talabi bo'lib hisoblanadi.

Menejer-tadqiqotchilar va mohir (professional) tadqiqotchilar sifat menejementi sohasida tadqiqot ishlarini o'tkazishda o'ziga xos qonunlarga amal qilishlari kerak. Bu sifat menejementi masalalari bo'yicha tadqiqot faoliyati bilan aloqador o'ziga xos bo'lib hisoblanadi. Har bir shaxsning dunyo qarashini alohida xususiyati va tamoyillarga muvofiq rioya etishni talab qiladi va minimum o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- halollik va adolatlilikni talab etuvchi: tadqiqot ishlarini xolisona o'tkazish uchun o'zaro foydali va o'zaro ma'qbul sharoit va narxlarni vijudga keltiradi; buyurtmachi uchun o'tkazilgan tadqiqotlarning shaffofligi; ijro etuvchi-tadqiqotchi va buyurtmachi orasida paydo bo'lgan kelishmovchiliklar bartaraf qilishni amalga oshirishni talab qiladi;
- barcha turdagi yakka va jamoat javobgarliklarini ta'minlovchi buyurtmachilarga zarur shartlarni taqdim etish va rioya qilish, boshqarish sohasidagi tadqiqot faoliyatlari uchun tadqiqotchi sifatida javobgarlik;
- tadqiqotchidan tadqiqot ishlarini operativ, zaruriy sifat darajasida va o'z vaqtida bajarishda insofililik talab etadi;
- buyurtmachilar to'g'risidagi to'liq ma'lumotlarni mavjudligi, tadqiqotchilarda talab qilingan hajmda, tadqiqot natijalaridan amaliyotda foydalanish bo'yicha samarali tavsiyalarni va xolisona xulosalarni chiqarishda foydalaniladigan buyurtmachi to'g'risidagi ma'lumot;

• buyurtmachini va nazorat idoralari uchun ma'lumotlarni yetarliligi, joriy qilish ishlar hamda tadqiqot uchun ratsional qilingan xarajatlarni haqqoniy, xolisona, aniqligi tasdiqlash imkonini beradi;

• o'rganilayotgan ob'ekt va tadqiqot kodeksi tamoyillariga tadqiqotchilarni rioya qilishi va muvofiqligi (aholining istiqboli yuqori darajali salohiyatga ega bo'lish, bilimi, kasbiy va hayotiy tajribasi, mustaqil muhokamasi talablariga muvofiq).

Yuqorida keltirilgan tamoyillarga rioya qilib, tadqiqotga dialektik yondoshish va boshqa yondoshishlardan, birinchi navbatda tizimli yondashishdan foydalanish va targ'ibot qilish zarur.

Sifat menejment tizimida tadqiqot o'tkazishda ko'pincha anketa so'rov varaqasi, suhbat, savol-javob va h.k. qo'llaniladi. Bularni hammasini telefondan foydalanganda; yozishmalar (pochta, telegraf, teletayp va h.k.) yordamida, shaxsiy uchrashuvlar, turli xil usullar bilan birgalikda amalga oshirish mumkin.

Ma'lumotlarni yetkazishda zamonaviy texnika vositalarini qo'llash ko'proq operativ tadqiqotlarni o'tkazish imkonini beradi. Bunda ularning iqtisodiyoti oshib borib, shuningdek, xarajatlar kamayadi. SHaxsiy uchrashuv suhbatni (surishtiruvchi bilan) o'tkazganda yetarlicha baho bermaslik man etiladi. Qachonki, boshqa tadqiqot usullari xolisona va aniq ma'lumotlarni olishga imkon bermas, ushanda zaruriyat paydo bo'ladi.

So'roq (savol - javob), suhbat va h.k. o'tkazganda menejmentda hammaga ma'lum bo'lgan maqsadga muvofiq *qoidalariga* rioya qilish lozim:

- suhbatdoshga va o'ziga hurmat ko'rsatish;
- intizomli va punktualli bo'lishi;
- umumiy madaniyat va sog'lom fikrning paydo bo'lishi;
- suhbatdoshida ko'rish – jamoada tadqiqot ishtirokchisi teng huquqliligi;
- suhbatdoshning ishonchini qadrlash;
- suhbatdoshga qiziquvchan bo'lish va unga yokishga harakat kiliish.

Masalan, insonlarga yokish uchun Deyl Karnegi quyidagilardan foydalanishni tavsiya qiladi (tadqiqot o'tkazganga aniq izohlangan choralarni belgilash) qoidalari:

- boshqa insonlar bilan samimiy qiziqish;
- tabassum qilish;
- unutmazlik kerak, insonni ismi - bu eng lazzatli va hohlagan tilda u uchun eng muhim tovush;
- yaxshi tinglovchi bo'lish, o'zi haqida gapirib boshqalarni mukofotlash;
- sizning suhbatdoshingizni nima qiziqтира, shu haqida gapiring;
- ongni muhimligini, o'z suhbatdoshingizga ishonitiring va buni chin yurakdan qiling;

• har doim shuni hisobga oling, har birimizni asosan to'rtta omillar bo'yicha muhokama qilishadilar: nima qilamiz, qanday ko'rinamiz, nima haqida va qanday gapiramiz;

- kiyimingizga va ko'rinishingizga e'tibor bering;
- ko'p so'zli bo'lmang, chunki hammaga ma'lum "vaqt-pul";
- maqsad qo'yishni biling va unga erishish yo'lini tahlil qiling;
- qo'yilgan maqsadni suhbatdoshga yetkazishni biling;
- realistiklikni ko'rsata bilish va o'zining savollarini va takliflarini asoslab berishni bilish;

- maqsadga erishganda murosa qilish san'atiga ega bo'lish;
- suhbat uchun ayniqsa o'ziga afzal joyni tanlash;
- suhbatdoshni tinglashni va tushunishni bilish;
- milliy xususiyatlar, odatlar, didni, nimaga qiziqishni va suhbatdoshning fe'l-atvorini bilish va e'tiborli bo'lishi kerak;

- odob-axloq qoidalarini, bayonnoma va tadqiqot qoidalarini bilish;
- chet elliklar bilan ishlash vaqtida tarjimon bilan ishlashni bilish;
- ko'proq keng tarqalgan chet tillaridan bittasini yetarli darajada yaxshi bilish;

- suhbatdoshga ta'sir qila bilish, uni xolisona va kungligi ochishga erishish. Bunda masalan, Deyl Karnegi tavsiya qilgan qator qoidalaridan foydalanish mumkin:

- tortishuvdan o'zini chetga olish - bu yagona usul;
- tortishuvdan o'zini chetga olish - bu yagona, yuqori g'alaba qozonish usuli;

- suhbatdoshni fikriga hurmat ko'rsatish, agar u nohaq bo'lsa, unga aytmaslik kerak;

- o'zini nohaqligini tezroq va tortinmay tan olish;
- dustona ohangda tutish;
- vaqtning ko'proq qismini suhbatdosh gapirishiga imkon berish;
- fikr menga tegishli deb suhbatdosh o'ylaversin;
- suhbatdoshni nuqtai nazaridan narsalarga samimiyat bilan qarashga harakat qilmoq;

- o'zining g'oyalari dramalashtirish, ularni taassurotli ko'rsatish;
- boshqalarni xatosini bevosita ko'rsatib bermasdan, biroq bilvosita (boshqacha) yo'l bilan ko'rsatish;

- avval o'zini xatosini gapirish kerak, keyin boshqalarni xatosini;
- o'z obrusini saqlab boshqalarga imkon berish kerak;
- o'zini baholaganda "oq ko'ngli va maktovga sahovatli bo'lish kerak";
- boshqalarga yaxshi obru (e'tibor) yaratish, ular uni oqlashga harakat qiladilar;

- boshqalarni nimaga undamoqchi bo'lsangiz, siz shunday qilingki, kiyin (og'ir, mashaqatli) tuyulmasin;

- siz nimani taklif qilsangiz boshqalarni ham xursand qilishga harakat qiling.

- o'zingizni raqibni o'rniga qo'yib ko'ring;
- ayollarga alohida hurmat va e'tibor ko'rsatish.

Bu qoidalarining hammasidan vaziyatga qarab foydalanish kerak, ammo ular har doim samimiy, chin ko'ngildan, odobga rioya qilib, tartib-intizomli, me'yori bilan amalga oshirilishi kerak. Har qanday vaziyatda, boshqaruv funksiyalarini tadqiqot yondoshish bilan bajarganda menejer o'zining xodimlari orasida peshqadam bo'lishi zarur.

Tadqiqotchi turdagi menejer xuddi peshqadam sifatida munosib xususiyatlarga ega bo'lishi kerak. Ulardan foydalanganda, iste'molchilarning talablari va kutilmalarini bajarilishini, maqsadga erishish va samarali boshqarishni ta'minlash kerak. Menejer turli xil funktsiyalarni bajaradi, shu jumladan:

- informatsion;
- boshqaruvchi, bunga tadqiqot ham kiradi, doimo barcha boshqaruv elementlarini va tizim osti boshqarishni doimo takomillashtirishni ta'minlovchi;
- kelishuvchi
- vakilli.

Yuqorida keltirilgan tamoyillarni bajarish uchun sifat menejment tizimida tadqiqotni o'tkazishda menejerlarni ushbu sog'ada bilimi tushunchasi va qobiliyati hisobga olib tanlashni amalga oshirish kerak.

Tadqiqot turdagi muayyan menejerlarni tanlash har bir nomzodlardan sifatni tahlil qilishi asosida o'tkaziladi. Bu maqsad uchun turli xil usullardan foydalaniladi, bular:

- sifat menejmenti tizimi tadqiqotchilari sifatida o'tganlarning faoliyati natijalarni, statistik tahlili asosida nomzodlarni baholash;
- ushbu sohada mutaxassis sifatida esa, nomzodlarni kollektiv baholash;
- nomzod o'z-o'zini baholashi;
- menejment va boshqa sohalarida mutaxassisni anketa baholanishi.

Ko'pincha bir vaqtning o'zida bir necha usullar qo'llaniladi, masalan tadqiqot nomzodlarini o'z-o'zini baholash va kollektiv baholash talab qilinadi. Bunday yondashishning xislati kerakli sifat bilan tadqiqotchilarni yetarlicha asoslangan tanlash imkonini beradi. Biroq tan olish kerakki, kollektiv baholash va o'z-o'zini baholash usulidan ko'ra ko'proq o'tgan faoliyatni baholash usuli xolisonadir.

### Nazorat savollari

1. Sifat bo'yicha menejerlarning axloq-odobi va insonparvarligi haqida nimalarni bilasiz?
2. Sifat bo'yicha menejerlarning qanday toifalari mavjud?
3. Sifatni boshqarish bo'yicha qanday lavozim va vazifalar belgilangan.
4. Sifat bo'yicha mutaxassislarga qanday talablar qo'yilgan?
5. Sifat bo'yicha menejerlar va auditorlar qanday tabaqalanadi?

6. Sifatni boshqarish bo'yicha mutaxassislar qay tarzda malakalarini oshirishadi?

**6-Modul bo'yicha o'z-o'zini tekshirish, nazorat va test savollari**

1. O'z DSt ISO 9001:2009 talabi bo'yicha tashkilotda nechta hujjatlashtirilgan protsedura bo'lishi lozim?

- A) 6
- B) 12
- C) 20
- D) 8

2. Audit tamoyili nechta?

- A) 8
- B) 6
- C) 14
- D) 7

3. Jarayonli yonloshuv SMT da quyidagilar uchun qo'llaniladi:

- A) Korxona faoliyatini aniqlash uchun
- B) SMT jarayonlarini tizimli boshqarish va jarayonlari hujjatlarini ishlab

chiqish

- C) Jarayonga kirish va chiqishlarini belgilash uchun
- D) talablarni bajarish va boshqarish

4. ISO 9001 talablari bo'yicha qanday ma'lumotlar tahlil qilinishi kerak?

A) to'g'rilovchi amallarni bajarilishi va iste'molchilarni qanoatlanganligi va o'lchash va monitoring uchun asbob-uskunalarini qo'yilgan talablarga muvofiqligi bo'yicha

B) to'g'rilovchi amallarni bajarilishi va iste'molchilarni qanoatlanganligi bo'yicha

C) o'lchash va monitoring uchun asbob-uskunalarini qo'yilgan talablarga muvofiqligi bo'yicha

D) Ekologik ta'sirlar to'g'risidagi ma'lumotlar

5. Ichki audit laboratoriya davriy va rejaga muvofiq o'z faoliyatida nima uchun o'tkaziladi?

A) O'z DSt 16.4-2001 standarti talabiga muvofiq tekshirish va ishlari davom etayotganini aniqlashda

B) Laboratoriya faoliyatini va xodimlarini tekshirishda

C) Laboratoriyani moliyaviy faoliyatini tekshirishda

D) O'z DSt ISO/IEC 17025:2007 standarti va sifat tizimi talablariga muvofiq tekshirish va ishlari davom etayotganini aniqlashda

6. Qaysi hollarda to'g'rilovchi amallar joriy qilinadi:
- A) auditlar natijalari bo'yicha
  - B) jarayonlar belgilangan maqsadlarga erishganda
  - C) o'rnatilgan talablarni bajarilmaganligini aniqlashda
  - D) Faoliyatlar to'g'riligini tasdiqlash uchun

7. Qanday maqsadlarda ichki audit o'tkaziladi?

- A) Buyurtmachi talabi bo'yicha o'tkaziladi
- B) Bu sertifikatlashtirishning bir bosqichi
- C) Sifat menejmenti tizimini takomillashtirish va samaradorligini aniqlash uchun o'tkaziladi
- D) Iste'molchilarning talabi bo'yicha o'tkaziladi

8. Quyida sanab o'tilgan usullardan qaysi biri iste'molchilarni qanoatlanganligini kuzatish borish uchun tashkilot tomonidan qo'llanilishi kerak:

- A) anketa yoki turli so'rovlar o'tkazish usullari
- B) so'rov o'tkazish
- C) boshqa usullar
- D) anketa tarqatish

9. Ko'rsatilganlarni qay biri ISO 9001 talablariga taalluqli emas:

- A) mahsulotga tegishli qonun hujjatlari talablarini aniqlashi
- B) iste'molchining qanoatlanligi haqida axborotni olish va undan foydalanish usullarini aniqlashi zarur
- C) iste'molchilarning qanoatlanliklarini oshirish uchun ularni talablarini aniqlanish va bajarilishini ta'minlash
- D) oziq-ovqat mahsulotlarini nazorat nuqtalarini aniqlash

10. Rejalashtirilgan natijalarga erishish va rejalashtirilgan faoliyatlardan foydalanish darajasi

- A) Samaradorlik
- B) Natijaviylik
- C) Sifat darajasi
- D) Sifatni integral ko'rsatkichi

11. Sifat menedjmenti bu:

- A) tashkilotga sifat jihatdan rahbarlik qilish va uni boshqarish bo'yicha o'zaro muvofiqlashtirilgan faoliyat
- B) Barcha rejalashtirilayotgan va tizimli amalga oshirilayotgan faoliyat turi bo'lib, u tashkilotga barcha qiziquvchi tomonlarni talablarini qondirishga yo'naltirilgan
- C) O'zaro faoliyatdagi va o'zaro aloqador jarayonlarni boshqarish tizimi

D) Tashkilotga barcha qiziquvchi tomonlarning talablarini qondirishga yo'naltirilgan barcha turdagi faoliyatlarni tizimli amalga oshirish

12. Sifat menejmenti auditdan nimani baholash uchun foydalaniladi?

A) Xodimlar malakasini nazorat qilishni

B) Ishlarni bajarishda mashg'ul ishchilar miqdorini

C) O'rnatilgan talablarga sifat tizimini hujjatlashtirish muvofiqlik darajasini

D) Mahsulot ishlab chiqarishni

13. Sifat menejmentiga aloqador bo'lmagan atamani ko'rsating

A) Sifat indeksi

B) Sifatni boshqarish

C) Sifatni ta'minlash, Sifatni yaxshilash

D) Sifat, Sifatni loyihalash

14. Sifatga bo'lgan talablarni bajarishga yo'naltirilgan sifat menejmenti qismi, bu:

A) Sifatni boshqarish

B) Sifatni rejalashtirish

C) Sifatni ta'minlash

D) Sifatni yaxshilash

## ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoevning 2020 yil 28 sentabr kuni "Texnik jixatdan tartibga solish, standartlashtirish, sertifikatlash va metrologiya tizimidagi islohotlar natijadorligi muhokamasiga bag'ishlangan yig'ilishidagi nutqi.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoevning 2017 yilning 7 fevral kuni O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risidagi Farmoni.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 28 apreldagi «O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi PQ-2935-sonli qarori.

4. Ismatullaev P.R., Maksudov A.N., Abdullaev A.X., Axmedov B.M., A'zamov A.A. Metrologiya standartlashtirish va sertifikatlashtirish. «O'zbekiston» Toshkent-2001y.

5. Abduvaliev A.A., Latipov V.B., Umarov A.S., Alimov M.N., Boyko S.R., Hakimov O.Sh., Xvan V.I. Standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va sifat. O'quv qo'llanma. Toshkent, SMSITL, 2008 y. – 267 b.

6. Абдувалиев А.А. и др. «Основы стандартизации, сертификации, метрологии и управления качеством продукции». Учебное пособие. - Ташкент: Издательство ТПУ, 2002. - 287 с.

7. Axmedov B.M., Ismatullaev P.R., Turaev SH.A. Sertifikatlashtirish va sifatni boshqarish asoslari: 5521600 - "Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish" va 5524300 - "Mahsulot sifati menejmenti (mahsulot turlari bo'yicha)" yo'nalishlari bakalavriat talabalari uchun o'quv qo'llanma. O'zR OO'MTV; TDTU. - Toshkent, 2007. -233 B.

8. Ахмедов Б.М., Исмагуллаев П.Р., Туробжонов С.М., Юсупов Э.Д., Тураев Ш.А. Основы системы менеджмента качества. Изд-во ИПГД «Узбекистан», - Ташкент, 2009. –208 С.

9. Ахмедов Б.М., Абасов А.А. Система менеджмента качества – основа конкурентоспособности. Изд. «Асп-Матбуот». 2004. 96с.

10. Круглов, М.Г. Менеджмент качества как он есть / М.Г. Круглов, Г.М. Шипков. - М.: Эксмо, 2007. - 544 с;

11. Спичнадель В.Н. Системы качества. Учебное пособие. Изд.дом «Бизнес-пресса». 2000. 328 с.

12. Крылова Г.Д. Основы стандартизации, метрологии и сертификации. Учебник для студентов вузов. -М.: Издательство стандартов, -1998. - 497 с.

13. Трофимов, А.В. Аудит качества: учебное пособие / А.В. Трофимов. – Тамбов: Изд-во Тамб. гос. техн. ун-та, 2009. – 96 с. – 100 экз.

14. Никитин В.А. Управление качеством на базе стандартов ISO 9000-2000. 1-издание Теория и практика менеджмента. Из-во Питер, 2004г. – 272с.
15. Никитин В. А., Филончева В. В. Управление качеством на базе стандартов ИСО 9000:2000. 2-издание Политика. Оценка. Формирование. Теория и практика менеджмента. Из-во Питер, 2004г. – 127 с.
16. Менеджмент качества экспорта: Книга ответов для предприятий-экспортеров малого и среднего бизнеса. – Б.: Аль Салам, 2005.-318 с. (Секреты торговли).
17. Агарков А. П. Управление качеством: учеб. пособие : [по специальности "Менеджмент орг."А. П. Агарков. - М.: Дашков и К°, 2006.
18. Аристов, О. В. Управление качеством: учебник / О. В. Аристов. - М.: ИНФРА-М, 2006. - 238 с.: ил.
19. Басовский, Л. Е. Управление качеством: учебник Л. Е. Басовский, В. Б. Протасьев. - М.: ИНФРА-М, 2006. - 211 с.
20. Горбашко, Е. А. Управление качеством: учебное пособие. - СПб. [и др.]: Питер, 2008. - 382 с.: ил.
21. Елиферов, В. Г. Управление качеством: сказки, мифы и проза жизни : стандарты ИСО 9000 и система менеджмента / В. Елиферов. - СПб.; М.: Вершина, 2006. - 295 с.: ил.
22. Мазур, И. И. Управление качеством: учеб. пособие для вузов по специальности "Управление качеством" И. И. Мазур, В. Д. Шапиро. - 5-е изд., стер.. - М.: Омега-Л, 2008. - 399 с.
23. Миронов, М. Г. Управление качеством: учеб. пособие : [по специальностям "Упр. качеством", "Экономика и упр. на предприятии" и Менеджмент орг. М. Г. Миронов. - М.: Проспект, 2006. - 286 с.
24. Мишин, В. М. Управление качеством: учеб. для вузов по специальности 061100 "Менеджмент орг." и по специальностям экономики и упр. (060000)] В. М. Мишин. - М.: ЮНИТИ, 2005. - 464 с.
25. Салимова, Т. А. Управление качеством: учебник : по специальности Менеджмент орг. Т. А. Салимова. - 2-е изд., стер.. - М.: Омега-Л, 2008. - 414 с.: ил.
26. Эванс, Д. Р. Управление качеством: [учеб. пособие по специальности "Менеджмент орг." Джеймс Р. Эванс; пер. с англ. под ред. Э. М. Короткова. - [4-е изд.]. - М.: ЮНИТИ, 2007. - 637 с.: ил. (Зарубежный учебник). - Пер.изд.: Total quality / Evans, James R.
27. Andy Eadie., Global Certifications for Makers & Hardware Startups: Find the regulatory path to legally bring your product to market in the US (FCC), Europe (CE) and beyond., Kanada: 2015.
28. G. M. S. de Silva, Basic Metrology for ISO 9000 Certification (1st Editio), Ships from and sold by Amazon.com. Gift-wrap available., 2002.
29. «O'z DSt ISO 9000:2015 Sifat menejmenti tizimi. Atamalar va tushunchalar».

30. «O'z DSt ISO 9001:2015 Sifat menejmenti tizimi. Talablar».
31. «O'z DSt ISO 9004:2015 Sifat menejmenti tizimi. Faoliyatni yaxshilash bo'yicha tavsiyalar».
32. «O'z DSt ISO 19011:2015. Руководящие указания по аудиту систем менеджмента качества и/или систем экологического менеджмента»
33. O'z RH 51-162:2008 Национальная система подтверждения соответствия РУз. Правила сертификации систем менеджмента.
34. O'z RH 51-103:2000 Инспекционный контроль сертифицированных систем качества и производств.
35. O'zbekiston Respublikasi Sertifikatlashtirish va Akkreditatsiyalash milliy tizimining asos bo'luvchi me'yoriy hujjatlari.
36. [www.akkred.uz](http://www.akkred.uz).
37. [www.standart.uz](http://www.standart.uz)
38. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
39. [www.ziyounet.uz](http://www.ziyounet.uz)
40. [www.kpms.ru](http://www.kpms.ru)
41. [www.quality.eup.ru](http://www.quality.eup.ru)
42. [www.window.edu.ru](http://www.window.edu.ru)

## GLOSSARIY

**Sifat (quality)** – borliq (mahsulot, xizmat, jarayon, shaxs, tizim, tashkilot, resurslar)ni o'zining to'la tavsifi qandayligini talabga muvofiqlik darajasi yoki

**Sifat** – qo'yilgan talab tavsifi-ning muvofiqlik darajasi (ISO 9000:2015, 3.6.2).

### *Izohlar.*

1. "sifat" atamasi sifa-tida "qoniqarli", "yaxshi" yoki "a'lo" so'zlaridan foydalanish mumkin.

2. "o'ziniki(mavjud)" tushunchalar, borliq (ob'ekt-ob'ect)- da qarama-qarshi "tayinlangan, o'zlashtirilgan", tushunchalar (bor, mavjud)likni bildiradi

**Sifat darajasi (grade quality)** - bir hil vazifani bajaradigan, turli qo'yilgan talablarni o'z ichiga olgan mahsulot, jarayon yoki tizimlar sifati (ISO 9000:2015, 3.6.3). Sifat darajasi mahsulot tavsifining ajralmas qismi bo'lib, u texnik tavsifga bog'lik holda o'zgaradi:

**Talab (requirement)** - ehtiyoj yoki istak, qaysiki o'rnatilgan odada kutilgan yoki majburiy bo'lishi lozim bo'lgan (ISO 9000:2015, 3.6.4) Sifatga qo'yilgan talab (quality requirement)- sifat bilan aloqador talablar (ISO 9000:2015, 3.6.5).

**"Menejment" (management)** – tashkilotni o'rnatilgan yo'nalish faoliyati bo'yicha vazifalarini muvofiqlashtirish va ushbu faoliyatni boshqarish (ISO 9001:2015, 3.3.3).

### *Izohlar.*

1. "Menejment" - bu maqsadlarga erishish uchun siyosat, maqsadlar, shuningdek jarayonlarni o'rnatishni o'z ichiga olishi mumkin.

2. "Menejment" atamasi gohida insonlarga ham, masalan qaysiki tashkilotni yo'naltirish va uni boshqarish huquqi va javobgarligi bor shaxs yoki shaxs guruhlariga qo'llaniladi. Bunday holda "Menejment" atamasi, uni doimo sifatni aniqlash muvofiqligi bilan tushunish, yuqoridan o'rnatilgan «Menejment» tushunchasi bilan almashtirib qo'yimaslik lozim. Masalan, "Menejment" lozim deb tushunmaslik, balki "Yuqori rahbariyat" deb qabul qilish lozim. Aksincha insonlarga qo'llanil-ganda boshqa so'zlar bilan masalan "menejerlik" yoki "menejer" nomlarini qo'llash lozim.

**Audit** – kelishilgan audit mezonlarining bajarilish darajasini aniqlash maqsadida audit dalillarini olish va ularni ob'ektiv baholashdagi muntazam, mustaqil va hujjatlashtirilgan jarayon.

**Izoh** - Ba'zan, birinchi tomon o'tkazadigan auditlar deb ataluvchi ichki auditlar odatda tashkilotning tomonidan o'zi yoki uning nomidan ichki maqsadlar uchun o'tkaziladi va muvofiqlik haqidagi deklaratsiya uchu asos bo'lishi mumkin.

Tashqi auditlar odatda "ikkinchi tomon o'tkazadigan auditlar" yoki "uchinchi tomon o'tkazadigan auditlar" deb ataluvchi auditorlarni o'z ichiga oladi.

Ikkinchi tomon o'tkazadigan auditorlarni tashkilotning faoliyatidan manfaatdor bo'lgan tomonlar, masalan, iste'molchilar yoki ularning nomidan boshqa shaxslar o'tkazadi.

Uchinchi tomon o'tkazadigan auditorlarni tashqi mustaqil tashkilotlar o'tkazadi. Bu tashkilotlar talablarga, masalan, ISO 9001 va ISO 14001 talablarga muvofiqlikni sertifikatlashtiradi yoki ro'yxatga oladi.

Agar ikkita yoki bir nechta tashkilotlar tekshiriladigan tashkilotni auditini birgalikda o'tkazadigan bo'lsa, bu "birgalikda o'tkaziladigan audit" deb ataladi.

O'zbekiston Respublikasida sifat menejmenti tizimini ichki tekshirish yoki sertifikatlashtirish, sertifikatlashtirish bo'yicha akkreditlangan idoralarning va sinov laboratoriyalarining faoliyatini inspeksion tekshiruv auditga taaluqli faoliyatga namunaviy misol bo'ladi.

**Sifat menejmenti (quality management)** -sifatga muvofiqlik bo'yicha menejment (ISO 9000:2015, 3.3.4).

*Izoh* - Sifat menejmenti odatda o'z ichiga sifat ko'lamida o'rnatilgan siyosat va maqsadlarni, sifatni rejalashtirish, boshqarish, ta'minlash va takomillashtirishlarni oladi.

**Audit buyurtmachisi** - auditga buyurtma bergan tashkilot.

**Audit bo'yicha guruh** – audit o'tkazadigan bir yoki bir nechta auditorlar (sifat tizimini sertifikatlashtirish bo'yicha ekspert-auditorlar).

*Izohlar:*

1. Audit guruhida auditorlardan biri odatda audit guruhining rahbari etib tayinlanadi.

2. Audit guruhi stajerlarni va, zarur bo'lganda texnik ekspertlarni o'z ichiga olishi mumkin.

Guruh ishi audit guruhi a'zolarining vakolati bo'lmagan kuzatuvchilar ishtirok etishi mumkin.

**Audit dalili** – audit mezonlari bilan bogliq bo'lgan va tekshirilishi mumkin bo'lgan yozuvlar, faktlarni bayoni yoki boshqa axborot.

*Izoh* – audit dalili sifat yoki miqdorga oid bo'lishi mumkin.

**Audit dasturi** – muayyan vaqt oraligida rejalashtirilgan va muayyan maqsadga erishishga qaratilgan bir yoki bir nechta auditlar majmui.

**Audit kuzatuvlari** - audit dalilini audit mezonlariga bog'liq ravishda baxolash natijasi.

*Izoh* – audit kuzatuvlari audit mezonlariga muvofiqlik yoki nomuvofiqlikni yoki yaxshilash imkoniyatlari borligini ko'rsatish mumkin.

**Audit mezonlari** – havoalalar shaklida qo'llaniladigan siyosat, protseduralar yoki talablar majmui.

**Audit natijalari bo'yicha hulosasi** - audit maqsadlarini va barcha audit ko'rsatuvlarini ko'rib chiqqandan keyin audit guruhi tomonidan berilgan auditning chiqish ma'lumotlari.

**Auditor** - (sifat tizimlarini sertifikatlashtirish bo'yicha ekspert-auditor) audit o'tkazishga layoqatli shaxs

**Axborot** - ahamiyatga molik bo'lgan ma'noli ma'lumotlar

**Validatlash (tasdiqlash)** – aniq maqsadlarga foydalanish yoki qo'llanish uchun mo'ljallangan talablarning bajarilganligi ob'ektiv dalillar keltirish yo'li bilan tasdiqlash.

*Izohlar:*

1. "Tasdiqlangan" atamasi mos maqomni belgilash uchun ishlatiladi.

2. qo'llanish shartlari real yoki modellashirilgan bo'lishi mumkin.

Loyiha, konstruktorlik hujjatlari, texnologik hujjatlar, ishlab chiqilgan mahsulotga qo'yilgan texnik shartlarga va chiqarilgan mahsulotlarni qabul sinovlarining dalolatnomasini tasdiqlash validatlash (tasdiqlash)ga taaluqli faoliyatga misol bo'ladi.

**Verifikatlash** – belgilangan talablarning bajarilganligini ob'ektiv dalillar keltirish yo'li bilan tasdiqlash.

*Izohlar:*

1 "Verifikatlangan" atamasi mos maqomni belgilash uchun foydalaniladi.

2 Tasdiqlashga bo'yicha faoliyat quyidagi faoliyatlarni o'z ichiga olishi mumkin:

- alternativ hisoblarni amalga oshirish.

- yangi loyixa bo'yicha tuzilgan ilmiy-texnik hujjatlarni sinab ko'rilgan loyihaga tuzilgan o'xshash hujjatlar bilan taqqoslash, sinovlarni va namoyish o'tkazish.

- hujjatlarni, chiqarishdan oldin tahlil etish.

Loyihalashdagi chiqish ma'lumotlarining kirish talablariga muvofiqligini tekshirish, audit, vaqtda aniqlangan nomuvofiqliklarni bartaraf etish bo'yicha tuzatish harakatlarining bajarilganligini tekshirish verifikatlashga taaluqli faoliyatga massa bo'ladi.

**Gradatsiya** – bir xil vazifaga mo'ljallangan mahsulot, jarayonlar yoki tizimlar sifatiga bo'lgan turli talablarga berilgan klass, sort, toifa yoki razryad.

*Misol* – Aviabilet klassi yoki mehmonxanalar bildirgichidagi mehmonxona toifasi.

*Izoh* – Sifatga qo'yiladigan talabni aniqlashda gradatsiya odatda belgilanadi.

**Gradatsiyani pasaytirish** – nomuvofiq mahsulotning boshlangich talablardan farqlanuvchi talablarga muvofiq kelishi uchun uning gradatsiyani o'zgartirish.

**Doimiy yaxshilash** – talablarni bajarish imkoniyatini oshirishga qaratilgan takrorlanuvchi faoliyat.

*Izoh* – Maqsadlarni belgilash va sifatni yaxshilash imkoniyatlarini topish jarayoni audit kuzatuvlari va audit natijalari bo'yicha xulosalar, ma'lumotlar tahlili, rahbariyat tomonidan bajarilgan tahlil yoki boshqa vositalardan foydalanuvchi doimiy jarayon bo'lib, bular odatda, kuzatish harakatlariga yoki oldini olish harakatlariga olib keladi.

**Yozuv** – erishilgan natijalarni yoki faoliyatning amalga oshirilganligi to'grisidagi dalillarni o'z ichiga olgan hujjat.

*Izohlar:*

1 Yozuvlar, masalan, kuzatuvchanlikni va verifikatlash, o'tkazilganligi to'grisidagi dalillarni, oldini olish xarakatini va tuzatish harakatlarini hujjatlashtirishda foydalanishi mumkin.

2 Odatda yozuvlarni qayta ko'rib chiqishlar boshqarishni talab etmaydi.

**Etkazib beruvchi** – mahsulotni yetkazib beruvchi tashkilot yoki shaxs.

*Misol* – Ishlab chiqaruvchi, ulgurji savdo qiluvchi, chakana savdo qiluvchi korxona yoki mahsulotni sotuvchi, xizmatlarni bajaruvchi, axborotni yetkazib beruvchi.

*Izohlar:*

1. Yetkazib beruvchi tashkilotga nisbatan ichki yoki tashqi bo'lishi mumkin.

2. Kontraktli vaziyatda yetkazib beruvchi ba'zan "pudratchi" deyiladi.

**Jarayon** – kirishlarni chiqishlarga o'zgartiruvchi o'zaro boglangan va o'zaro harakat qiluvchi faoliyat turlarining majmui.

*Izohlar:*

1 Jarayonga kirishlar odatda boshqa jarayonlarning chiqishlari bo'ladi.

2. Tashkilotdagi jarayonlar odatda boylikni orttirish maqsadida boshqariluvchan sharoitlarda rejalashtiriladi va bajariladi.

3. So'nggi mahsulotning muvofiqligini tasdiqlash qiyin yoki iqtisodiy jihatdan maqsadga nomuvofiq bo'lgan jarayon ko'pincha "maxsus jarayonga" kiritiladi.

**Imkoniyatlar** – tashkilot, tizim, yoki jarayonning talablarni qondiradigan mahsulot ishlab ishlab chiqarish imkoniyati.

*Izoh* – Jarayonning statistikasi sohasidagi imkoniyatlariga tegishli atamalar ISO 3534-2 da keltirilgan.

**Infratuzilma** - (tashkilot) tashkilotning o'z vazifasini bajarishi uchun zarur bo'lgan binolar, jixozlar va taminot majmui.

**Iste'molchi** - mahsulotni oluvchi tashkilot yoki shaxs.

*Misol* – Mijoz, buyurtmachi, so'ngi foydalanuvchi, chakana savdogar, benifitsiarva xaridor.

*Izoh* – Iste'molchi tashkilotga nisbatan ichki yoki tashqi bo'lishi mumkin.

**Iste'molchilar qoniqqanligi** – iste'molchilarning o'z talablarning bajarilganlik darajasi idrok qilishi.

*Izohlar:*

1. Iste'molchilarning shikoyatlari ularning kam qoniqqanligining umumiy ko'rsatkichi bo'ladi, ammo shikoyatlarning o'qligi iste'molchilarning yuqori darajada qoniqqanligini bildirishi shart emas.

2. Iste'molchilarning talablari ular bilan kelishilgan va bajarilgan taqdirda ham bu iste'molchilarning yuqori darajada qoniqqanligini anglatishi shart emas.

**Ishlab chiqarish muhiti** – ish bajariladigan sharoitlar majmui.

*Izoh* – SHaroitlar fizik, ijtimoiy psixologik va ekologik omillarni (jumladan, xarorat, tan olish va ragbarlantirish tizimlari, ekonomika va atmosfera tarkibini) o'z ichiga oladi.

**Qayta yasash** – nomuvofiq mahsulotning belgilangan talablarga muvofiq kelishi uchun unga nisbatan ko'rilgan harakat.

*Izoh* – ta'mirlash qayta yasashdan o'laroq, nomuvofiq mahsulotning qismlariga ta'sir etishi yoki ularni o'zgartirishi mumkin.

**Kuzatuvchanlik** – ko'rilayotgan narsaning kelib chiqish tarixini, qo'llanilishini yoki uning joylashgan o'rnini kuzatish imkoniyatlari

*Izohlar:*

1. mahsulot ko'rilayotgan "kuzatuvchanlik" quyilagilarga nisbatan qo'llanishi mumkin:

- materiallar va butlovchi qismlarning kelib chiqishi
- ishlov berish tarixi
- yetkazib berilgandan so'ng mahsulotni taqsimlanishi va joylashgan o'rin.

2. VIM:1993,da merologiya sohasida keltirilgan ta'rif qabul qilingan ta'rifdir.

**Layoqatlilik** – o'z bilimlari va mahoratini aniq qo'llay olishlik qobiliyati.

**Loyiha** – cheklangan muddat, narx va resurslarni o'z ichiga olgan, muayyan talablarga mos maqsadga erishish uchun bajarilgan, boshlangich va oxirgi sanalari ko'rsatilgan muvofiqlashtirilgan va boshqariladigan faoliyat majmuidan iborat bo'lgan noyob jarayon.

*Izohlar:*

1. Alohida loyiha yirikroq loyihaning bir qismi bo'lishi mumkin.

2. Ba'zi loyihalarda maqsadlar mukammallashtiriladi, mahsulotning tavsiflari esa loyihaning rivojlanishi borasida mos holda aniqlanadi.

3. Loyihaning chiqish elementi bir buyum yoki mahsulotning bir nechta qismlari bo'lishi mumkin.

4. ISO 10006:1997 dan moslashtirib olingan.

**Loyihalash va ishlab chiqish** - talablarni belgilangan tavsiflarga yoki mahsulot, jarayon yoki tizim uchun tuzilgan me'yoriy texnik hujjatga aylantiruvchi jarayonlar majmui.

*Izohlar:*

1. "Loyihalash" va "ishlab chiqish" atamalaridan ba'zan, sinonimlar sifatida, ba'zan esa loyihalash yoki umuman ishlab chiqish jarayoning turli bosqichlarini aniqlash uchun foydalaniladi.

2. Loyihalash va ishlab chiqishob'ektini belgilash uchun aniqlovchi so'zlardan foydalanish mumkin (masalan, mahsulotni loyihalash va ishlab chiqish yoki jarayonni loyihalash va ishlab chiqish).

**Malaka berish jarayoni** – belgilangan talablarni bajarish imkoniyatini namoyish qilish jarayoni

*Izohlar:*

1. "Malaka berilgan" atamasi mos maqomni belgilash uchun ishlatiladi.
2. Malaka berish xodimlarga, mahsulotga, jarayonlarga yoki tizimlarga nisbatan qo'llaniladi.

*Misol* – auditorlar (sifat tizimlarini, sertifikatlashtirish bo'yicha ekspertlar)ga malaka berish, materialga malaka berish.

**Manfaatdor tomon** – tashkilotning faoliyatidan yoki yutuqidan manfaatdor bo'lgan shaxs yoki guruh.

*Misol* – iste'molchilar, sohiblar, tashkilot xodimlari, yetkazib beruvchilar, bankirlar, assotsiatsiyalar, sheriklar yoki jamiyat.

*Izoh* – Guruh tashkilotdan, uning bir qismidan Ki bir nechta tashkilotlardan iborat bo'lishi mumkin.

**Mahsulot** – jarayon natijasi

*Izohlar:*

1. Mahsulotlarning to'rtta toifasi bor:

- xizmatlar (masalan, yuk tashish)
- dasturiy vositalar (masalan, kompyuter dasturi, lug'at)
- texnik vositalar (masalan, motorning qismi)
- qayta ishlanadigan materiallar (masalan, surkov mollari)

Mahsulotning ko'p turlari mahsulotning turli umumiy toifalariga kiradigan elementlarni o'z ichiga oladi. Mahsulotni xizmatlar, dasturiy vositalar, texnik vositalar yoki qayta ishlanadigan materiallar kiritish shu mahsulotdagi ustunlik qiladigan elementga bog'liq. Masalan, yetkazib beriladigan mahsulot "avtomobil" texnik vositalar (masalan, shinalar), qayta ishlanadigan materiallar (yoqilgi, sovutish suyuqligi), dasturiy vositalar (motori dasturiy boshqarish, haydovchi uchun qo'llanma) va xizmatlardan iborat (avtomobildan foydalanish to'g'risidagi sotuvchi tomonidan beriladigan tushun-tirimlar).

2. Xizmat yetkazib beruvchi va iste'molchining o'zaro hamkorligida amalga oshirilgan kamida bitta harakat natijasidir. Xizmatlar odatda nomoddiy bo'ladi. Xizmat ko'rsatish quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

- iste'molchi yeikazib bergan moddiy mahsulot ustida bajarilgan faoliyat (masalan, ta'mir talab avtomobil)
- iste'molchi yeikazib bergan nomoddiy mahsulot ustida bajarilgan (masalan, soliq miqdorini aniqlash uchun zarur bo'lgan daromad to'g'risida ariza)
- nomoddiy mahsulotni berish (masalan, bilimlarni berish ma'nosidagi axborot)
- iste'molchilar uchun qulay sharoitlarni yaratib berish (masalan, mexmonxonalarda va restoranlarda)

Dasturiy vosita axborotga ega bo'ladi va u odatda nomoddiy bo'ladi, shuningdek yondashishlar, operatsiyalar yoki protseduralar shaklida ham bo'lishi mumkin.

Texnik vosita odatda moddiy bo'ladi va uning miqdori hisoblab topiladigan tavsif bilan ifodalanadi. Qayta ishlanadigan materiallar odatda

moddiy bo'ladi va ularning miqdori uzluksiz tavsif bilan ifodalanadi. Texnik vositalar va qayta ishlanadigan materiallar ko'pincha tovarlar deb ataladi.

3. Sifatni ta'minlash asosan mo'ljallangan mahsulotga qaratilgan.

**Menedjment tizimi** – siyosat va maqsadlarni ishlab chiqish va bu maqsadlarga erishish tizimi.

*Izoh* – tashkilot menedjmenti tizimi turli menedj-ment tizimlarini, jumladan sifat menedjmenti tizimi, moliyaviy faoliyat menedjmenti tizimi yoki atrof-muxitni muxofaza qilish menedjmenti tizimini o'z ichiga olishi mumkin.

**Menejment** – tashkilotga rahbarlik qilish va boshqarish bo'yicha o'zaro muvofiqlashtirilgan faoliyat.

*Izoh* – Ingliz tilida “management” atamasi ba'zan odamlarga, ya'ni tashkilotga rahbarlik qilish va boshqarish uchun vakolatlangan mas'ul shaxsga yoki xodimlar guruhiga taalluqli bo'ladi. “Management” bu ma'noda foydalanilganda uni yuqorida ta'riflangan “management” tushunchasi bilan aralashtirib yubormaslik maqsadida doim aniqlovchi so'zlar bilan qo'llanish lozim.

*Masalan*, “rahbariyat taminlashi lozim” emas, balki “yuqori rahbariyat ta'minlashi lozim» iborasi ma'qul bo'ladi.

**Metrologik tavsif** – o'lchash natijalariga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan farqlovchi xususiyat.

*Izohlar:*

1. O'lchash asbob uskunolari odatda bir nechta metrologik tavsifga ega bo'ladi.

2. Metrologik tavsifkalibrlanishi mumkin.

**Me'yoriy texnik hujjatlar** – talablarni belgilovchi hujjatlar

*Izoh* – Me'yoriy texnik hujjatlar faoliyatga (masalan, hujjatlashtirilgan hujjatlar, jarayon yoki sinash usuliyatiga oid texnologik hujjat) yoki mahsulotga taalluqli bo'lishi mumkin (masalan, mahsulotga qo'yiladigan texnikaviy shartlar, foydalanishga oid hujjatlar).

**Muvofiqlik** – talabning bajarilganligi.

*Izohlar:*

1 Ushbu ta'rif ISO/IEC 2 qo'llanmasida keltirilgan ta'rifga mos keladi, lekin ISO 9000 kontsepsiyasiga mos kelishi uchun undan yangicha ifodalanganligi bilan farqlanadi.

2 Ingliz tilida “conformance” atamasi sinonim sifatida yozilgan, lekin unga e'tirozlar bo'lgan

**Talab** – ehtiyoj yoki belgilangan kutilma bo'lib, odatda mo'ljallanadi yoki majburiy bo'ladi.

*Izohlar:*

1. “Odatda mo'ljallanadi” tushunchasi ko'rilayotgan ehtiyojlar yoki ko'tilmalar mo'ljallanayotganda tashkilot, uning iste'molchilari va boshqa manfaatdor tomonlarning umum qabul qilingan amaliyotini bildiradi.

2. Talabning aniq muayyan turini belgilash uchun masalan, mahsulotga qo'yiladigan talablar, sifat tizimiga qo'yiladigan talablar, iste'molchining talabi kabi aniqlovchi so'zlar qo'llanilishi mumkin.

3. Belgilangan talab bo'lib masalan, hujjat aniqlangan talab hisoblanadi.

4. Talablarni turli manfaatdor tomonlar ko'rsatishi mumkin.

**Nomuvofiq mahsulotni utillastirish** – nomuvofiq mahsulotdan dastlab mo'ljallangandek foydalanishga yo'l qo'ymaslik uchun unga nisbatan ko'rilgan harakat.

*Misol* – qayta ishlash, yo'qotish

*Izoh* – Nomuvofiq xizmat sodir bo'lganda uni qo'llanish xizmat ko'rsatishni to'xtatish yo'li bilan bartaraf etiladi.

**Nomuvofiqlik** – talabning bajarilmaganligi

**Nuqson** – mo'ljallangan yoki belgilangan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan talabning bajarilmaganligi

*Izohlar:*

1. Nuqson va nomuvofiqlik tushunchalari o'rtasidagi farq muhimdir, chunki uning tagida yuridik xarakterga ega, ayniqsa mahsulotning sifati uchun javobgarlik masalasi bilan bogliq bo'lgan ma'no bor.

2. Iste'molchining bu atamalarining qaysi biridan foydalanishi axborot xarakteriga, jumladan yetkazib beruvchi tomonidan yuborgan foydalanish va texnik xizmat ko'rsatishga oid qo'llanma bogliq bo'lishi mumkin.

**Ob'ektiv dalillar** – biror nasaning borligi yoki rostligini tasdiqlovchi ma'lumotlar.

*Izoh* – ob'ekti dalil kuzatish, o'lchash, sinash, yoki boshqa usullar bilan olinishi mumkin.

**Oldini olish harakati** – yuzaga chiqishi mumkin bo'lgan nomuvofiqlik yoki boshqa noma'qul vaziyatning sodir bo'lishiga yo'l qo'ymaslik uchun ularning sababini bartaraf etishga qaratilgan oldini olish harakati.

*Izohlar:*

1. Yuzaga chiqishi mumkin bo'lgan nomuvofiqlikning bir nechta sabablari bo'lishi mumkin.

2. Oldini olish harakati voqeaning sodir bo'lishiga yo'l qo'ymaslik uchun tuzatish harakati esa – bu voqeaning takrorlanishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida bajariladi.

**Protsedura** – faoliyatni yoki jarayonni amalga oshirishning belgilangan usuli.

*Izohlar:*

1. Protsedura hujjatlashtirilgan yoki hujjatlashtirilmagan bo'lishi mumkin.

2. Agar protsedura hujjatlashtirilgan bo'lsa, ko'pincha "yozma protsedura" yoki "hujjatlashtirilgan protsedura" atamalaridan foydalaniladi. Protsedurani o'z ichiga olgan hujjat "hujjatlashtirilgan protsedura" deb atalishi mumkin.

**Puxtalik** – tayyorlik, buzilmaslik, ta'mirlashga, yaroqlilik, texnik xizmat ko'rsatish va ta'mir bilan ta'minlanganlik xususiyatlarini ifodalash uchun qo'llaniladigan atama.

**Izoh** – Puxtalik xususiyati faqat miqdorsiz umumiy tavsiflash uchun qo'llaniladi. [IEC 60060-191:1990]

**Talab** – ehtiyoj yoki belgilangan kutilma bo'lib, odatda mo'ljallanadi yoki majburiy bo'ladi.

**Izohlar:**

1. "Odatda mo'ljallanadi" tushunchasi ko'rilayotgan ehtiyojlar yoki kutilmalar mo'ljallanayotganda tashkilot, uning iste'molchilari va boshqa manfaatdor tomonlarning umum qabul qilingan amaliyotini bildiradi.

2. Talabning aniq muayyan turini belgilash uchun masalan, mahsulotga qo'yiladigan talablar, sifat tizimiga qo'yiladigan talablar, iste'molchining talabi kabi aniqlovchi so'zlar qo'llanilishi mumkin.

3 Belgilangan talab bo'lib masalan, hujjat aniqlangan talab hisoblanadi.

4 Talablarni turli manfaatdor tomonlar ko'rsatishi mumkin.

**Sinash** - belgilangan protseduraga muvofiq bir yoki bir nechta tavsiflarni aniqlash.

**Sifat** – xususiy tavsif majmuining talablarga muvofiq darajasi

**Izohlar:**

1. "Sifat" atamasi yomon, yaxshi yoki a'lo kabi sifatlar bilan qo'llanishi mumkin.

2. "Xususiy" atamasi "rejalangan" atamadan farqli o'laroq biron narsaning ichida ekanligini bildiradi, ayniqsa bu doimiy tavsifga tegishli bo'lsa.

**Sifat bo'yicha qo'llanma** – tashkilotning sifat menejmenti tizimini aniqlovchi hujjat.

**Izoh** – sifat bo'yicha qo'llanmalar tashkilotning yirikligi va murakkabligidan kelib chiqqan holda yozilish shakli va batafsilligi jihatidan o'zaro farqlanishi mumkin.

**Sifat menedjmenti** - tashkilotga sifat jihatdan rahbarlik qilish va uni boshqarish bo'yicha o'zaro muvofiqlashtirilgan faoliyat.

**Izoh** - Sifat jihatdan rahbarlik qilish va boshqarish odatda sifat sohasidagi siyosatni sifat sohasidagi maqsadlarni ishlab chiqish, sifatni rejalash, sifatni boshqarish, sifatni ta'minlash va sifatni yaxshilash tushunchalarini o'z ichiga oladi.

**Sifat menedjmenti tizimi** – tashkilotga rahbarlik qilish va boshqarish uchun sifatga taalluqli menejment tizimi.

**Sifat rejasi** – muayyan loyiha, mahsulot, jarayon yoki kontraktga nisbatan qanday protseduralarning va mos resurslarning kim tomonidan va qachon qo'llanilishi lozimligini belgilovchi hujjat.

**Izohlar:**

1. Bu protseduralar odatda sifat menejmenti jarayonlariga va maxsus-lozni ishlab chiqarish jarayonlariga havolalar berilgan protseduralarni o'z ichiga oladi.

2. Sifat rejasi ko'pincha sifat bo'yicha qo'llanma bo'limlariga yoki hujjatlashtirilgan protseduralarga berilgan havolarni o'z ichiga oladi.

3 Sifat rejasi odatda sifatni rejalashtirish natijalarining biri bo'ladi.

**Sifat sohasidagi maqsadlar** – sifat sohasida erishmoqchi bo'lingan yoki intilayotgan maqsadlar.

*Izohlar:*

1. Sifat sohasidagi maqsadlar odatda tashqilotning sifat sohasidagi siyosatiga asoslanadi.

2. Sifat sohasidagi maqsadlar odatda tashkilotning mos vazifalari va darajalari uchun belgilanadi.

**Sifat sohasidagi siyosat** – tashkilotning yuqori rahbariyati tomonidan rasmiy ta'riflangan sifat sohasidagi umumiy maqsadlari va faoliyat yo'nalishi.

*Izohlar:*

1. Odatda sifat sohasidagi siyosat tashkilotning umumiy siyosati bilan muvofiqlashtiriladi va sifat sohasidagi maqsadlarni qo'yish uchun asos yaratadi.

2. ISO 9000 standartining (0,2 ga qaralsin) bayon etilgan sifat menedjmenti printsiplari sifat sohasidagi siyosatni ishlab chiqishga asos bo'lishi mumkin.

**Sifat tavsifi** – mahsulot, jarayon yoki tizimning talablaridan kelib chiqadigan xususiy tavsifi.

*Izohlar:*

1. "xususiy" so'zi, ayniqsa doimiy tavsifga taaluqli bo'lsa, biror narsaning ichida ekanligi bildiradi.

2. Mahsulot, jarayon yoki tizimga berilgan tavsiflar (masalan, mahsulot narxi, mahsulot egasi) bu mahsulot jarayon yoki tizimning sifat tavsiflari bo'la olmaydi.

**Sifatni boshqarish** - sifat menedjmentining sifatga qo'yiladigan talablarni bajarishga qaratilgan qismi.

**Sifatni rejalash** - sifat menedjmentining sifat sohasidagi maqsadlarni belgilashga yo'naltirilgan va mahsulot hayotiy tsiklining zarur ish jarayonlarini va sifat sohasidagi maqsadlarga erishish uchun mos resurslarni aniqlovchi qismi.

*Izoh* – Sifat rejalarini ishlab chiqish sifatni rejalashning bir qismi bo'lishi mumkin.

**Sifatni ta'minlash** - sifat menedjmentining sifatga qo'yilgan talablarning bajarilishiga ishonch hosil qilishga qaratilgan qismi.

**Sifatni yaxshilash** – sifat menedjmentining sifatga qo'yilgan talablarni bajarish imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan qismi.

*Izoh* – Talablar va har qanday jihatlarga, jumladan natijalik, samaradorlik yoki kuzatuvchanlikka tegishli bo'lishi mumkin.

**Siyosat (polisy)** -tashkilotni va uni yuqori rahbariyatini rasmiy ifodalagan faoliyat yo'nalishi va maqsadlari (ISO 9000:2015, 3.4.8).

**Sifat siyosati (quality policy)** -sifatga nisbatan siyosat (ISO 9000:2015, 3.5.9).

### *Izohlar:*

1. Odatda sifat siyosati tashkilotni umumiy siyosati bilan kelishilgan, uni ko'zlagan maqsadi va missiyasi bilan bog'liq bo'lishi, hamda maqsadlar o'rnatish uchun asos bo'lishi mumkin.

2. Balki Sifat menejmenti printsiplari sifat siyosatini yaratish uchun asos bo'lishi mumkin.

**Tavsif** – farqlovchi xossa

### *Izohlar:*

1. Tavsif xususiy yoki berilgan bo'lishi mumkin.

2. Tavsif sifat yoki miqdor jihatida bo'lishi mumkin.

3. Tavsiflarning turli klasslari bor, jumladan:

- fizik (masalan, texnik, elektr, kimyoviy yoki biologik) tavsiflar

- organoleptik (masalan, hid sezish, his qilish, ta'mni sezish, ko'rish, eshitish bilan bogliq bo'lgan) tavsiflar

- ahloq-odob (masalan, xushmuomalik, vijdonlilik, xaqqoniylik) tavsiflar

- muvaqqat tavsiflar (masalan, o'z vaqtida bajarishlik, rad qilmaslik, oddiylik)

- ergonomik (msalan, odamning fiziologik yoki xavfsizlik bilan bogliq bo'lgan) tavsiflar

- funksional tavsiflar (masalan, samolyotning maksimal tezligi)

**Talab** – ehtiyoj yoki belgilangan kutilma bo'lib, odatda mo'ljallanadi yoki majburiy bo'ladi.

### *Izohlar:*

1. «Odatda mo'ljallanadi» tushunchasi ko'rilayotgan ehtiyojlar yoki ko'tilmalar mo'ljallanayotganda tashkilot, uning iste'molchilari va boshqa manfaatdor tomonlarning umum qabul qilingan amaliyotini bildiradi.

2. Talabning aniq muayyan turini belgilash uchun masalan, mahsulotga qo'yiladigan talablar, sifat tizimiga qo'yiladigan talablar, iste'molchining talabi kabi aniqlovchi so'zlar qo'llanilishi mumkin.

3. Belgilangan talab bo'lib masalan, hujjat aniqlangan talab hisoblanadi.

4. Talablarni turli manfaatdor tomonlar ko'rsatishi mumkin.

**Tahlil** – belgilangan maqsadlarga erishish uchun ko'rilayotgan ob'ektning yaroqligini, adekvatligi (o'xshashdigi)ni, natijaligini aniqlash uchun amalga oshiriladigan faoliyat.

*Izohlar* – tahlil qilish samaradorlikni aniqlashni ham o'z ichiga olishi mumkin.

*Misol* – yuqori rahbariyat tomonidan o'tkaziladigan tahlil, loyihani va ishlanmani tahlil qilish, iste'molchilarning talablarini tahlil qilish va nomuvofiqlik tahlil qilish.

**Tashkiliy tuzilma** – mas'uliyatlar, vakolatlar va o'zaro munosabatlarning xodimlar o'rtasida taqsimlanishi.

### *Izohlar:*

1. Taqsimlash odatda tartibga solingan bo'ladi.

2. Rasmiy ravishda shakllantirilgan tashkiliy tuzilma ko'pincha sifat bo'yicha qo'llanma da yoki loyihaning sifat rejasida bo'ladi.

3. Tashkiliy tuzilmani qo'llanish sohasi tashqi tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikdagi harakatlarni o'z ichiga olishi mumkin.

**Tashkilot** – mas'uliyati, vakolati va o'zaro munosabatlari taqsimlangan xodimlar guruhi va o'zaro munosabatlarning zarur vositalari.

Misol – Kompaniya, korporatsiya, firma, korxona, muassasa, xayriya tashkiloti, chakana savdo korxonasi, assotsiatsiya, shuningdek ularning bo'linmalari yoki ulardan tuzilgan birlashma.

*Izohlar:*

1. Taqsimlash odatda tartibga solingan bo'ladi.

2. Tashkilot davlat tasarrufida yoki xususiy bo'lishi mumkin.

3. Ushbu ta'rif sifat menedjmenti tizimlari standartlariga nisbatan qo'llaniladi. "Tashkilot" atamasi ISO/IES 2 qo'llanmasida o'zgacha ta'riflangan.

**Ta'mirlash** - nomuvofiq mahsulotni mo'ljallangan foydalanishga yaroqli qilish maqsadida unga nisbatan ko'rilgan harakat.

*Izohlar:*

1. Ta'mirlash ilgari muvofiq bo'lgan mahsulotni tiklash maqsadida unga nisbatan ko'rilgan tuzatish harakatlarini, masalan, texnik xizmat ko'rsatishning bir qismi kabi harakatlarni o'z ichiga oladi.

2. Ta'mirlash qayta yasashdan farqli o'laroq, nomuvofiq mahsulotning qismlariga ta'sir etishi yoki ularni o'zgartirishi mumkin.

**Tekshiriladigan tashkilot** - audit o'tkaziladigan tashkilot.

**Tekshirish** – mos o'lchashlar, sinashlar, yoki kalibrlashni bajarib, kuzatish va fikrlash yo'li bilan baholash protsedurasi [Rukovodstvo ISO/MEK 2]

**Texnik ekspert** – "audit", audit o'tkaziladigan ob'ektga taaluqli mahsus bilimlarga yoki tajribaga ega bo'lgan shaxs.

*Izohlar:*

1. Mahsus bilimlar yoki tajriba audit o'tkaziladigan tashkilot, jarayon yoki faoliyatga taaluqli bilimlarni yoki tajribani, shuningdek audit o'tkaziladigan mamlakat aholisini tilini va madaniyatini bilishni ham o'z ichiga oladi.

2. Texnik ekspert audit guruhidagi auditor vakolatlariga ega bo'lmaydi.

**Tizim** – o'zaro aloqador va o'zaro faoliyatdagi elementlarning majmuasi.

**Tuzatish** – aniqlangan nomuvofiqlikni bartaraf etish uchun bajarilgan harakat.

*Izohlar:*

1. Tuzatish harakati bilan birgalikda bajarilishi mumkin.

2. Tuzatish, masalan qayta yasash yoki gradatsiyani pasaytirishni o'z ichiga olishi mumkin.

**Tuzatish harakati** – aniqlangan nomuvofiqlikning yoki boshqa noma'qul vaziyatning sababini bartaraf etish uchun bajarilgan harakat.

*Izohlar:*

1. Nomuvofiklikni bir nechta sabablari bo'lishi mumkin.  
2. tuzatish harakati vokelikning kayta sodir bulishini bartaraf etish uchun, oldini olish xarakati esa vokeaning sodir bulishiga yul kuymaslik maksadida bajariladi.

3. Tuzatish va tuzatish harakati tushunchalari o'rtasida farq bor.

**O'lchash asbob uskunolari** – o'lchash jarayonini bajarish uchun zarur bo'lgan o'lchash vositalari, dasturiy vositalar, etalonlar, standart namunalar yoki yordamchi apparatura yoki bulardan tuzilgan majmui.

**O'lchash jarayoni** – kattalikning qiymatini aniqlash uchun bajariladigan operatsiyalar majmui.

**O'lchashlarni boshqarish tizimi** – o'lchash jarayonlarini doimiy boshqarish va yaroqlilikni metrologik tasdiqlash uchun zarur bo'lgan, o'zaro bogliq va o'zaro birgalikda harakat qiluvchi elementlar majmui.

**Hujjat** – axborot va uni eltuvchi.

**Misol** – Yozuvlar me'yoriy texnik hujjatlar, protsedura hujjatlari, chizma, axborot, standart.

*Izohlar:*

1. Eltuvchi qogozli, magnitli, elektron yoki optik komp'yuter diski, fotosurat yoki etalon namuna, yoki bularning birlvshmasidan iborat bo'lishi mumkin.

2. hujjatlar majmui, masalan, texnikaviy shartlar va yozuvlar majmui ko'pincha "hujjatlar" deb ataladi.

3. Ba'zi talablar masalan, tushunarli va aniq bo'lishiga qo'yiladigan talablar, barcha turdagi hujjatlarga taaluqli bo'ladi, lekin texnikaviy shartlarga (masalan, qayta ko'rib chiqishlarini boshqarishga bo'lgan talab ) va yozuvlarga nisbatan boshqacha talablar( masalan, qayta tiklashga bo'lgan talab) bo'lishi mumkin.

**Chekinishga ruxsat** – mahsulotni ishlab chiqishdan oldin uning uchun belgilangan boshlangich talablardan chekinishga beriladigan ruxsat.

*Izoh* – chekinishga ruxsat odatda cheklangan miqdordagi mahsulot yoki vaqt oraliqiga, shuningdek, muayyan maqsadda foydalanishga beriladi.

**Chiqarish** – jarayonning navbatdagi bosqichiga o'tishiga ruxsat berish.

*Izoh* – ingliz tilida kompyuter dasturiy vositalari kontekstida dasturli vositalarning o'zidagi versiya (fikir) ko'pincha "release" deb ataladi.

**Yuqori rahbariyat** - tashkilotning faoliyatini yuqori po'onada yo'naltiruvchi va boshqaruvchi shaxs yoki xodimlar guruhi.

**Yaroqlilikni metrologik tasdiqlash** – o'lchash asbob uskunasi o'z vazifasini qondiradigan talablarga muvofiqligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan operatsiyalar majmui.

*Izohlar:*

1. Yaroqlilikni metrologik tasdiqlash odatda kalibrlash yoki verifikatlashni, zarur bo'lgan xar qanday kotirlash yoki ta'minlashni va keyinchalik qayta kalibrlashni, asbob uskunadan mo'ljallangandek foydalanish

uchun metrologik talablar bilan taqqoslashni, shuningdek talab etilgan xar qanday plombalash va markalashni o'z ichiga oladi.

2. Yaroqlikni metrologik tasdiqlashni bajarishdan oldin o'lchash jihozidan vazifasi bo'yicha foydalanish uchun uning yaroqliligi namoyish qilingan va hujjatlashtirilgan bo'lishi zarur.

3. Vazifasi bo'yicha foydalanishga qo'yiladigan talablar qo'lam, sezgirlik imkoniyati, eng kata joiz xatolik va x.k. tavsiflarni o'z ichiga oladi.

4. Yaroqlilikni metrologik tasdiqlashga qo'yiladigan talablarga mahsulotga qo'yiladigan talablardan farqlanadi va ularda ko'rsatilmaydi.

## TESTLAR

1. «Talab» deganda nima tushuniladi?

- A) Qandaydir majburiy bo'lgan yoki ixtiyoriy kutilgan va o'rnatilgan ehtiyoj yoki kutilmalar
- B) Qandaydir majburiy bo'lgan va o'rnatilgan ehtiyojlar
- C) Qandaydir oddiy kutilgan yoki o'rnatilgan me'yorlar
- D) Qandaydir kutilayotgan yoki o'rnatilgan ehtiyoj

2. Tashkilot deganda nima tushuniladi:

- A) Ishchilar guruhi va u zaruriy vosita bilan majburiyati, vakolati va o'zaro aloqalari taqsimlangan
- B) Ishlarni o'zicha bajaruvchi va mamuriyati mavjud kompaniya, korporatsiya, firma yoki korxona, muassasa, yoki ularning bo'linmalari yoki birlashmalari
- C) Bino, qurilma, ishchilar va xizmat ta'minlash majmuasi
- D) Ishchilar o'rtasida javobgarlik, vaklotlar va o'zaro aloqadorlikning taqsimlanishi

3. Sertifikatlashtirish so'zi qanday ma'noni anglatadi?

- A) me'yor, andoza, me'yorga keltirish
- B) tan olish, ishonch bildirish, tekshirib ko'rish
- C) guvohlik berish, qayd yoki shahodat etish, ishonch bildirish
- D) sinob ko'rish, ro'yxatdan o'tkazish, qayd etish

4. Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasida Sertifikatlashtirish sohasidagi asos soluvchi hujjat

- A) "Mahsulot va xizmatlarini sertifikatlashtirish to'g'risida"gi Qonun
- B) "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida"ga Qonun
- C) "Iste'molchilarning huquqlarini himo qilish tzo'g'risida"gi Qonun
- D) O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi

5. .... deganda talab etilgan ishonchlilik bilan mahsulotning muayyan standartga yoki texnikaviy hujjatga muvofiqligini tasdiqlaydigan faoliyat tushuniladi.

- A) standartlashtirish
- B) sertifikatlashtirish
- C) muvofiqlikni baxolash
- D) akkreditlash

6. Sertifikatlashtirish jarayoni, shunday uslubki.....

A) talab etilgan ishonchlilik bilan mahsulotning muayyan standartga yoki texnikaviy hujjatga muvofiqligini tasdiqlaydigan faoliyat tushuniladi.

B) deganda uchinchi tomon tarafidan "sinov laboratoriyasining bayonoti" tushunilib, ma'lum namuna mahsulotga bo'lgan talablarni belgilovchi ma'lum standartlar yoki boshqa hujjatlar bilan muvofiq ekanligini bayon etishiga aytiladi.

C) muvofiqlikning sertifikatlashtirish faoliyatini o'tkazish uchun ish tartibi qoidalariga va boshqarishiga ega bo'lgan tizimdir.

D) unda vositachi hisoblanmish – uchinchi tomon yozma ravishda guvohlik bildirib, mahsulot, jarayon yoki xizmatni qo'yilgan talablar darajasiga mosligini e'tirof qiladi.

7. "Mahsulot va xizmatlarini sertifikatlashtirish to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qachon qabul qilingan?

A) 1993-yil 28-dekabrda

B) 2009-yil 23-aprelda

C) 1992-yil 2-martda

D) 1994-yil 28- fevralda

8. Sertifikatlashtirish maqsadida sinovlar qaerlarda o'tkaziladi?

A) muayyan sinovlarni o'tkazishga akkreditlangan sinov laboratoriyalarida

B) ixtiyoriy sinov laboratoriyalarida

C) sertifikatlashtirish idoralarida

D) talabgor korxonaning ishlab chiqarish sharoitlarida

9. Sertifikatlashtirishning nechta turi mavjud?

A) 9

B) 4

C) 2

D) 3

10. Ixtiyoriy sertifikatlashtirish ob'ektlari:

A) ekologiyani boshqarish tizimlari

B) yengil avtomobillar

C) chakana savdo xizmatlari

D) bekor vaqtda va ermak uchun mahsulotlar

11. Majburiy muvofiqlikni tasdiqlash ob'ektlari:

A) O'zRes hududida ishlab chiqarilayotgan va muomaladagi mahsulotlari

B) O'zRes hududida ishlab chiqarilgan mahsulotlar

C) sifatni boshqarish tizimlari

D) xodimlar

12. Savdoda texnik to'siqlar deganda nimalar qabul qilingan?
- A) Muvofiqlik sertifikatini va sinov bayonnomalarini tan olmasligi
  - B) Bojxona jarayonlarining qiyinligi
  - C) Eksport qilishda transport xarachatlari
  - D) Mahsulot (xizmat)ga texnik shartlarni tan olinmasligi

13. Xizmatlarni sertifikatlashtirish idorasi tomonidan sertifikatga qancha muddat berilishi mumkin?
- A) Uch yil muddatda
  - B) Besh yilgacha muddatda
  - C) Ikki yilgacha muddatda
  - D) 4 yil muddatda

14. «Sertifikatlashtirish milliy tizimi» tushunchasiga aniqlik keltiring:
- A) Sertifikatlashtirishni o'tkazish uchun mahsulotni o'zining qoidalarini va boshqarish asnosida davlat darajasidagi faoliyat yurituvchi tizim
  - B) Majburiy sertifikatlashtirishni boshqarish davlat tizimi
  - C) Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirishga yo'naltirilgan akkreditlangan sertifikatlashtirish idoralari va laboratoriyalari faoliyati
  - D) Sertifikatlashtirishda akkreditlashtirish faoliyati

15. Amaldagi qaysi sertifikatlashtirish sxemalarida mahsulot muvofiqlik belgisi qo'yiladi?
- A) 3,4,5
  - B) 3,4,5,8,9
  - C) 6
  - D) 1,2

16. Bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish tizimi nima?
- A) Aniqlangan mahsulot (xizmat)ga aloqador bo'lgan bitta yoki aniq standartlar va qoidalar hamda o'zining protsedurasini qo'llash uchun sertifikatlashtirish tizimi
  - B) Muvofiqlikni sertifikatlashtirishni o'tkazish uchun o'zining boshqarish va protsedura qoidalariga ega bo'lgan tizim
  - C) Ixtiyoriy sertifikatlashtirishni o'tkazish uchun o'zining boshqarish va protsedura qoidalariga ega bo'lgan sertifikatlashtirish tizimi
  - D) Oziq-ovqat mahsulotlarini sertifikatlashtirish tizimi

17. Majburiy sertifikatlashtirish qoidalarini bajarilish yuzasidan tekshirishni kim amalga oshiradi?
- A) Milliy sertifikatlashtirish idorasi
  - B) Mahalliy davlat boshqaruv idoralari (militsiya, soliq inspeksiyasi va h.k.)

- C) Akkreditlangan sertifikatlashtirish idoralari
- D) Standart talablari nazorati bo'yicha davlat nazorat idoralari

18. Majburiy sertifikatlashtirishda mahsulotning qanday ko'rsatkichlari keltirilgan bo'lishi lozim?

- A) Mahsulotning me'yoriy hujjat talablari bo'yicha majburiy bo'lgan (xavfsizlik, moslashuvchanlik va h.k.) ko'rsatkichlari
- B) SI tarkibida faoliyat ko'rsatadigan sinovchi akkreditlangan laboratoriyaning ko'rsatkichlari
- C) Mahsulotning me'yoriy hujjatida ko'rsatilgan barcha ko'rsatkichlar
- D) Faqat ko'rsatkichlar emas, sertifikatlashtirish idorasining sinov dasturida aniqlanadi

19. Mahsulotni sertifikatlashtirish deganda nima tushuniladi?

- A) Aniq me'yoriy hujjatlarga muvofiq mahsulot, jarayon yoki xizmatlar identifikatsiyalangan shaklda zarur bo'lib, ishonchlilikni ta'minlash va uni isbotlovchi uchinchi tomon faoliyati
- B) Ishlab chiqaruvchilar (etkazib beruvchilar) muvofiqligi haqida deklaratsiyalash
- C) Mahsulotni muvofiqlik belgisi bilan tamg'alash
- D) Muvofiqlik belgisi bilan mahsulotlarni tamg'alash va muvofiqlik haqidagi deklaratsiya

20. Me'yoriy hujjatlarning qanday ko'rsatkichlar majburiy talablarga tegishli bo'ladi?

- A) Xavfsizlik, atrof-muhitni muhofazalash, moslashuvchanlik, o'zaroalmashinuvchanlik, resurslarni tejamkorligi, nazorat va tamg'alash usullarining yagonaligi talablari
- B) Faqat xavfsizlik, o'zaroalmashinuvchanlik va moslashuvchanlik talablar
- C) Barcha talablar
- D) Faqat nazorat va tamg'alash usullarining yagonalik talablari

21. Sertifikatlashtirish bo'yicha ish to'lovlari qaysi hujjatga muvofiq aniqlanadi?

- A) O'z RH 51-032-99 ga muvofiq shartnoma asosida
- B) O'z DSt 16.4:2001 muvofiq shartnoma asosida
- C) O'z DSt 5.2:2001 muvofiq shartnoma asosida
- D) O'z DSt 17025:2007 muvofiq shartnoma asosida

22. O'z SMTda mavjud sertifikatlashtirish sxemalarining qaysisi bo'yicha ishlab chiqarish holatini tekshirishda amalga oshiriladi?

- A) 3,4,5

B) 7,8

C) 6

D) 1,2

23. O'z SMTda mahsulotni sertifikatlashtirishni kim o'tkazadi?

A) Sertifikatlashtirish idorasi, mavjud bo'lgan xususiy akkreditlangan sinov laboratoriyasi

B) Sertifikatlashtirish idorasi bilan jalb qilingan akkreditlangan laboratoriya

C) To'liq mustaqil bo'lgan va barcha ishlarda laboratoriya va boshqa tomon tashkilotlari qatnashishsiz o'zi qilish kompetentsiyasiga ega bo'lgan sertifikatlashtirish idorasi

D) Faqat sertifikatlashtirish milliy idorasi – «O'zstandart» agentligi

24. O'zbekiston sertifikatlashtirish milliy tizimiga muvofiq, sertifikatlashtirish – bu ..... tomon faoliyatidir

A) uchinchi

B) talabgor

C) tekshiruvchi

D) nazoratchi

25. Ixtiyoriy sertifikatlashtirish tizimi yaratilishi mumkin:

A) hukumat idoralari bilan

B) mahalliy hukumat idorasi bilan

C) hududiy hukumat idorasi bilan

D) yuridik shaxs yoki xususiy tadbirqorlar bilan

26. Muvofiqlik sertifikati nima?

A) akkreditlangan laboratoriya tomonidan berilgan xujjat.

B) ishlab chiqaruvchilarning sertifikatsiz mahsulot ishlab chiqaruvchilar bilan raqobatida ko'maklashish imkonini beradigan xujjat.

C) iste'molchilarning o'ziga xos talablariga javob berishiga ishonch hosil qilishiga yordam beradigan xujjat.

D) sertifikatlashtirilgan mahsulotning qo'yilgan talablarga muvofiqligini tasdiqlaydigan, sertifikatlash tizimi qoidalariga muvofiq tayyorlangan hujjat.

27. ....bu belgilangan protsedura asosida mahsulot, prosess yoki xizmatning bir va undan ko'p xarakteristikasini aniqlaydigan texnik jarayon.

A) xizmat

B) mahsulot

C) sinov

D) sertifikatlashtirish

28. Sertifikatlashtirishning nechta sxemasi mavjud?

- A) 9
- B) 10
- C) 8
- D) 6

29. Vazirlar Mahkamasining «Mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibotini soddalashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» gi Qarori qachon qabul qilingan?

- A) 1993-yil 28-dekabrda
- B) 2004-yil 6-iyulda
- C) 2013-yil 23-aprelda
- D) 1996-yil 26-aprelda

30. Qanday laboratoriyalar sertifikatсион sinovlarni o'tkazish va uning natijasi bo'yicha bayonnoma berish uchun munosib bo'lishi mumkin?

A) Texnik kompetentlikka yoki texnik kompetentlikka va mustaqillikka akkreditlangan

- B) Attestatlangan ishlab chiqarish laboratoriyasi
- C) Istalgan laboratoriya
- D) Faqat texnik kompetentlikka akkreditlangan laboratoriya

31. Qanday xolatda sinov bayonnomasi berilganidan so'ng unga o'zgartirish kiritiladi?

- A) Qo'shimcha hujjat va ilovalar ko'rinishida
- B) Qo'shimcha hujjat ko'rinishida
- C) Bayonnomaga o'zgartirish ko'rinishida
- D) Bayonnomada to'g'rilash kiritish ko'rinishida

32. Qanday hujjatlar sertifikatlashtirish bo'yicha idora faoliyati huquqini beradi?

- A) Hokimiyat bilan kelishilgan nizom
- B) O'z Res. Vazirlar Mahkamasi beradigan litsenziya
- C) Sertifikatlashtirish idorasi haqida nizom, akkreditatsiya guvohnomasi va akkreditlashtirish idorasi bilan litsenziya shartnomasi
- D) Faqat «O'zstandart» agentiligi bergan akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnoma

33. Kim sertifikatlashtirilmagan mahsulotni ishlab chiqarishdan to'xtatish va uni foydalanish holatida jarima solish huquqiga ega?

- A) Soliq inspeksiyasi
- B) Sertifikatlashtirish idorasi rahbari
- C) Militsiya idorasi xodimlari

D) Standartlar ustida nazorat olib boruvchi bosh davlat inspektori

34. Laboratoriya o'zining faoliyatida sinov usullari va o'lchash usullarini foydalanishi lozim bo'ladi:

A) Akkreditatsiya sohasiga tegishli bo'lsa

B) Metrologik me'yorlariga javob beruvchi ba'zilarini

C) Metrologik me'yorlarga va uning faoliyat doirasiga muvofiq ba'zilarini

D) Uning faoliyat doirasiga muvofiq ba'zilarini

35. Mahsulot (buyum) mashina qurilmalari seriyali ishlab chiqarishda qanday sinash o'tkaziladi?

A) Davriy va qabul qilish

B) Qabul qilish va qabulni topshirish

C) Qabulni topshirish va davriy

D) Bir tipdagi (namunaviy), kvalifikatsion

36. Mahsulot namunalarini (proba sinash) sinash uchun qancha miqdorda tanlanadi?

A) Tekshirilayotgan mahsulot hajmidan 5% kam emas

B) Tekshirilayotgan mahsulot hajmiga bog'liq ixtiyoriy

C) Me'yoriy hujjatlarda ko'zda tutilgani bo'yicha

D) Tekshirilayotgan mahsulot hajmidan 10% kam emas

37. MDH mamlakatlaridan import qilinayotgan sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni dalillaridan kelib chiqib, uni kim tan oladi?

A) Bir turdagi mahsulotni sertifikatlashtirish bo'yicha idora MDH mamalakatlari sertifikatini tan olishni amalga oshiriladi

B) Bojxona idoralari MDH mamlakatlari sertifikatini tan olishni amaga oshiradi

C) Import qilinayotgan mahsulotlar qarshiliklarga uchramasdan O'zbekiston bozorlariga kirib kelishida eksportchi davlatning sertifikati mavjud bo'lib, agarda ushbu mamalakat MDH mamalkatalari a'zosi hisoblansa va o'zaro tan olish to'g'risidagi kelishuv imzolangan bo'lsa

D) Sertifikatlashtirish milliy idorasi

38. Sertifikatlashtirilgan mahsulot va xizmatlar ustidan inspeksion nazoratni kim o'tkazadi?

A) «O'zstandart» agentligi

B) Sertifikatlashtirish idorasi topshiriqlarni nazorat qilish bo'yicha akkreditlangan idora

C) Mahsulot va xizmatni sertifikatlashtirayotgan idora

D) Akkreditlashtirish idorasi

39. Sertifikatlashtirilgan mahsulot ustidan inspeksion nazoratni o'tkazish huquqi kimga berilgan?

A) Mahsulotni sertifikatlashtirayotgan idora

B) Sertifikatlashtirish idorasi topshiriqlarni nazorat qilish bo'yicha akkreditlangan idora

C) «O'zstandart» agentligi

D) Miliy sertifikatlashtirish idorasi

40. Sertifikatlashtirilmagan mahsulotni ishlab chiqarishdan to'xtatish va uni foydalanish holatida jarima solish huquqi kimga berilgan?

A) Sinov laboratoriyasi rahbari

B) Sertifikatlashtirish idorasi rahbari

C) Militsiya idorasi xodimlari

D) Standartlar ustida nazorat olib boruvchi bosh davlat inspektori

41. Sertifikatlashtirish murojaatchisi (arizachi) tanlangan mahsulot namunasini sinashda qatnashish huquqi bormi?

A) Ha

B) Yo'q

C) Ha, agarda bu shartnomada ko'zda tutilsa

D) Ha, agarda laboratoriya boshlig'i ruxsat etsa

42. Sertifikatlashtirishda rasmiylashtirilgan hujjatlar qancha muddatda saqlanadi?

A) Hujjatlar 5 yildan kam bo'lmagan muddatda

B) Hujjatlar sertifikat barcha amal qilish muddati davomida saqlanadi

C) Hujjatlar 3 yildan kam bo'lmagan muddatda saqlanadi

D) Hujjatlar sertifikat amal qilish muddati davomida saqlanadi, lekin bir yildan kam emas saqlanadi

43. Sertifikatlashtirish sinovlarni o'tkazish va uning natijasi bo'yicha bayonnoma berish uchun kanday laboratoriyalar munosib bo'lishi mumkin?

A) Istalgan laboratoriya

B) Texnik kompetentlikka yoki texnik kompetentlikka va mustaqillikka akkreditlangan

C) Attestatlangan ishlab chiqarish laboratoriyasi

D) Faqat texnik kompetentlikka akkreditlangan laboratoriya

44. Inspeksion nazorat 5 bosqichdan iborat

A) 4

B) 5

C) 3

D) 9

45. Mahsulotga gigienik sertifikat beriladi
- A) sertifikatlashtirishga ariza to'ldirish bosqichida
  - B) mahsulotni seriyali ishlab chiqarish boshlangungacha
  - C) muvofiqlik sertifikatini berishda
  - D) me'yoriy hujjatlarni kelishish bosqichida

46. Gigienik sertifikatni kim beradi?
- A) akkreditlangan sinov laboratoriyalari
  - B) davlat sanitariya nazorati organlari
  - C) standartlashtirish va metrologiya markazlari
  - D) sertifikatlashtirish idorasi

47. Maxsulot va xizmatlar muvofiklik sertifikatiga qancha muddat berilishi mumkin?

- A) Uch yil muddatda
- B) Besh yilgacha muddatda
- C) Ikki yilgacha muddatda
- D) 4 yil muddatda

48. Mahsulot muvofiqlik belgisida nima haqidagi guvohlik keltirilgan?

- A) Mahsulotni eksport qilish mumkin
- B) Mahsulot xavfsizligi
- C) Mahsulot laboratoriyada sinovdan o'tkazilganligi
- D) Mahsulot sertifikatsiyadan o'tkazilgan va mahsulot xavfsizligi

49. Muvofiqlikni tasdiqlash deganda nimani tushuniladi?

- A) Uchinchi tomon mahsulotni sertifikatlashtirish protsedurasi
- B) Mahsulot muvofiqligi haqida deklaratsiyalash va mahsulotni sertifikatlashtirish protsedurasi
- C) Ishlab chiqaruvchilar mahsulot muvofiqligi haqida deklaratsiyalash
- D) Muvofiqlik sertifikatini tan olish protsedurasi

50. Muvofiqlikni tasdiqlash nima?

- A) Muvofiqlik sertifikatini tan olish protsedurasi
- B) Uchinchi tomon mahsulotni sertifikatlashtirish protsedurasi
- C) Ishlab chiqaruvchilar mahsulot muvofiqligi haqida deklaratsiyalash
- D) Mahsulot va xizmatlarni muvofiqligi haqida deklaratsiyalash va mahsulotni sertifikatlashtirish protsedurasi

51. Muvofiqlikni tasdiqlashning shakllari

- A) majburiy va ixtiyoriy sertifikatlashtirish, muvofiqlikni deklaratsiyalash
- B) davlat va xususiy

C) ishlab chiqaruvchilarni tashabbusi bo'yicha va iste'molchilarning tashabbusi bo'yicha

D) milliy va xalqaro

52. Sertifikatlashtirishni ro'yxatga olish hujjatlar taqdim etilgandan boshlab ... kun davomida amalga oshiriladi:

A) 10

B) 5

C) 30

D) 15

53. Majburiy muvofiqlikni tasdiqlash ob'ektlari:

A) xodimlar

B) O'zRes hududida ishlab chiqarilgan mahsulotlar

C) sifatni boshqarish tizimlari

D) O'zRes hududida ishlab chiqarilayotgan va muomaladagi mahsulotlari

54. Muvofiqlik to'g'risidagi deklaratsiya (MD) va muvofiqlik sertifikat (MC):

A) teng yuridik kuchga ega

B) MD ko'proq ahamiyatga ega

C) MS ko'proq ahamiyatga ega

D) yuridik kuchga ega emas

55. Muvofiqlikni baholash sertifikatlashtirishni bosqichi sifatida quyidagini qamrab oladi

A) arizachi sertifikatlashtirish idorasini tanlashini

B) muvofiqlik sertifikatidan foydalanish to'g'riligini tekshirishni

C) muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirishni

D) mahsulot namunasini tanlash va identifikatsiyalashni

56. "Muvofiqlikni baholash to'g'risida" qonun qachon qabul qilingan?

A) 1992 yil 2-martda

B) 1993 yil 28 dekabrda

C) 2013 yil 4 oktyabrda

D) 2009 yil 23 aprelda

57. Muvofiqlikni baholashning asosiy vazifalari nitmalardan iborat?

A) inson hayoti va sog'lig'i, yuridik, jismoniy shaxslarning va davlatning mol-mulki xavfsizligini ta'minlash

B) akkreditatsiya qilish, sertifikatlashtirish, muvofiqlikni deklaratsiyalash xujjatlarini rasmiylashtirish

C) sanitariya-epidemiologiya, veterinariya, fitosanitariya yoki ekologik ekspertiza xulosalarini berish

D) Miliy sertifikatlashtirish idorasi faoliyatini tartibga solish

58. Muvofiqlikni tasdiqlash uchun qo'llaniladigan uslublar qaysilar?

A) Sinov, nazorat

B) Yetkazib beruvchining muvofiqlik to'g'risidagi deklaratsiyasi

C) Sertifikatlashtirish

D) barcha javoblar to'g'ri

59. ISO/IEC 17000 standarti .....faoliyatini - mahsulotlar, jarayonlar, tizimlar, shaxslar yoki tuzilmalarga tegishli muayyan talablarning bajarilganligini namoyish etuvchi faoliyat sifatida tavsiflaydi

A) muvofiqlikni baholash

B) muvofiqlik deklaratsiyasi

C) sertifikatlashtirish

D) standartlashtirish

60. Akkreditatsiya nima? Bu jarayon, biror bir nufuzli idora yordamida rasmiy tan olingan:

A) Akkreditlayotgan sub'ektlar akkreditlashtirish tizimining me'yoriy hujjatlari talablariga muvofiqligi

B) Akkreditlayotgan sub'ektlarning texnik kompetentligi

C) Huquqiy shaxs yoki muayyan ishni bajaruvchi idora

D) Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish uchun boshqaruv tizimi

61. Akkreditlangan laboratoriya uchun kim subpudratchi bo'lishi mumkin?

A) Sertifikatlashtirish idorasi

B) Attestatlangan sinov o'tkazash huquqiga ega korxona laboratoriyasi

C) Aynan shu turdagi sinovchi akkreditlangan laboratoriya

D) Istalgan attestatlangan laboratoriya

62. Akkreditlangan laboratoriyalarda kandy mahsulotlarni sinashga qabul qilish mumkin?

A) Tavsiflari va ko'rsatkichlarining tavsiflari mavjud mahsulot namunalari

B) Sinov usullari, tavsiflari, ko'rsatkichlarining tavsiflari mavjud mahsulot namunalari

C) Mahsulot tayyorlovchi vakili namunasini sinash, aniq identifikatsiyalangan mahsulot namunalari

D) Identifikatsiya jarayonisiz ixtiyoriy mahsulot

63. Akkreditlangan sertifikatlashtirish idoralari ustidan inspeksion nazorat o'tkazish davriyligini kim va qachon aniqlaydi?

- A) Akkreditatsiya o'tkazishda akkreditatsiya idorasi aniqlaydi
- B) Sertifikatlashtirish idoralari hisobotlarini tahlili natijalari bo'yicha Sertifikatlashtirish milliy idorasi o'rnatadi
- C) Davlat nazorati o'tkazash yillik rejasini tuzishda «O'zstandart» agentligi aniqlaydi
- D) SHu turdani faoliyat yurituvchi turdosh idora

64. Qanday maqsadlarda sinov laboratoriyasida ariza tahlili o'tkaziladi?

- A) Buyurtmachi talablarini aniq tuzish va hujjatlashtirish
- B) Laboratoriyaning talablarni bajarishda ruxsat etilgan resurslari va imkoniyatlari mavjudligi
- C) Tanlangan me'yoriy hujjatga muvofiq mahsulotga talablar va sinov usullarini aniqlash
- D) Buyurtmachi talabini anqlash, laboratoriyaning imkoniyalari va mahsulotga talablar va sinov usullarini aniqlash

65. Laboratoriya o'zining faoliyatida sinov usullari va o'lchash usullarini foydalanishi lozim bo'ladi:

- A) Akkreditatsiya sohasiga tegishli bo'lsa
- B) Metrologik me'yorlariga javob beruvchi ba'zilarini
- C) Metrologik me'yorlarga va uning faoliyat doirasiga muvofiq ba'zilarini
- D) Uning faoliyat doirasiga muvofiq ba'zilarini

66. Sertifikatlashtirish idorasi va Sinov laboratoriyalarida ichki auditni kim o'tkazadi?

- A) SI va SL rahbari
- B) Taklif etilgan eksp/ t-auditorlar
- C) «O'zstandart» agentligi vakili
- D) SI va SL ning maxsus o'qigan xodimi

67. Sertifikatlashtirish idorasi faoliyatini inspeksion nazorati natijalari salbiy bo'lgan holda akkreditlash idorasi quyidagi qarorni qabul qilishi mumkin:

- A) Jarimaga tortadi
- B) Sertifikatlashtirish idorasi rahbari sifatida direktorni ishdan bo'shatadi
- C) Akkreditatsiya sohasi qisqartiriladi
- D) Sertifikatlashtirish idorasi faoliyati jihatidan tashkilotni tugatadi va nizomini bekor qiladi

68. Sertifikatlashtirish idorasida faoliyatida akkreditlangan laboratoriya zarurmi yoki majburiymi, yetishmaydimi yo uni attestatlash kerakmi?

A) Ha, bunda akkreditlangan laboratoriyalarda sertifikatlashtirish sinovlari o'tkaziladi

B) Yo'q, agar yuqori tashkilotning qarori mavjud bo'lsa

C) Yo'q, majburiy emas, protseduralar bir xil, hamda sertifikatlashtirish idorasi mustaqil bo'ladi

D) Zarur

69. Sertifikatsion sinovlar o'tkazish tomonlarning sinov laboratoriyalari (markazi)da ruxsat etiladimi?

A) Standartlashtirish va metrologiya boshqarmasi ruxsati bilangina ruxsat etiladi

B) Akkreditlangan laboratoriya (markaz)lardagina ruxsat etiladi

C) Attestanlangan laboratoriyalardagina ruxsat etiladi

D) SHartsiz ruxsat etiladi

70. Sinov laboratoriyalarini akkreditlash maqsadi:

A) Sertifikatlashtirish sinovini o'tkazish huquqi

B) Muvofiqlik sertifikatini berish huquqi

C) O'lchash vositalarini turini tasdiqlash huquqi

D) Istalgan turdagi sinovlarni o'tkazish huquqi

71. Akkreditlangan sinov laboratoriyalarida namuna turini sinash va sertifikatlangan muhsulot ustidan navbatdagi inspeksion nazoratda namuna sotuvchidan olib sinash yo'li bilan mahsulotlarni sertifikatlashtirish nazarda tutiladigan sxemasi:

A) 3 sxema

B) 1 sxema

C) 2 sxema

D) 8 sxema

72. Akkreditlangan sinov laboratoriyalarida namuna turini sinash va sertifikatlanayotgan muhsulot ishlab chiqarish holati tahlil sertifikatlangan mahsulot ustidan navbatdagi inspeksion nazoratda namuna ishlab chiqaruvchi namuna tayyor mahsulot omboridan olib sinash yo'li bilan mahsulotlarni sertifikatlashtirish nazarda tutiladigan sxemasi:

A) 3 sxema

B) 1 sxema

C) 9 sxema

D) 7 sxema

73. Akkreditlangan sinov laboratoriyalarida tayyor mahsulot partiyasidan tanlab olingan, tanlanma namuna sinash sinash yo'li bilan mahsulotlarni sertifikatlashtirish nazara tutiladigan sxemasi:

- A) 5 sxema
- B) 1 sxema
- C) 6 sxema
- D) 7 sxema

74. ...— akkreditlashni amalga oshirish uchun protsedura va boshqaruvning o'z qoidalariga ega bo'lgan tizim.

- A) inspeksion nazorat tizimi
- B) sertifikatlashtirish tizimi
- C) muvofiqlikni baxolash tizimi
- D) Akkreditlash tizimi

75. Hozirgi Xalqaro standartlashtirish tashkiloti (International Standards Organization) qaysi yillarida tashkil topgan.

- A) 1946-1947 y
- B) 1938-1939 y
- C) 1901-1918 y
- D) 1960-1965 y

76. ISO prezidenti uning sessiyasida necha yil muddatga saylanadi?

- A) 5 yil
- B) 4 yil
- C) 3 yil
- D) 2 yil

77. Xalqaro elektrotexnika komissiyasi - (MEK) qaysi soxalarda faoliyat olib boradi?

- A) sertifikatlashtirishning qonunlashtirish soxasida
- B) mashinaozlik, robototexnika, mexatronika
- C) elektrotexnika, elektronika, radioaloqa, asbobsozlik
- D) sertifikatlashtirish, standartlashtirish ishlarini mashinasozlik soxalarida

78. ISO 9001 xalqaro standarti talablariga muvofiqlik sertifikati quyidagilarga xizmat qiladi

A) Ishlab chiqarilayotgan mahsulot muvofiqligiga tashkilot ishonchini ta'minlaydi va mahsulot raqobatbardoshligi uni eksport qilishni ta'minlaydi

B) Ishlab chiqarilayotgan mahsulot muvofiqligiga tashkilot ishonchini ta'minlaydi

C) Mahsulot raqobatbardoshligi uni eksport qilishni ta'minlaydi

D) Iste'molchilarga sotib olinayotgan mahsulot muvofiqligiga ishonch hosil qiladi

79. AQSH sertifikatlashtirish tizimining alomati:

- A) sertifikatlashtirish bo'yicha milliy idora mavjud emas
- B) sertifikatlashtirish yagona qoidasi
- C) sertifikatlashtirish bo'yicha yagona milliy idora
- D) sinov laboratoriyalarini akkreditlashtirish milliy tizimi mavjud emas

80. ISO ning rasmiy tili qaysi?

- A) ingliz, fransuz, ispan
- B) rus, ingliz, fransuz
- C) fransuz, ingliz, yapon
- D) xitoy, yapon, rus

81. Sifat bo'yicha Yevropa siyosati qaysi asosiy tamoyillarga suyanagan holda ish yuritadi?

- A) kooperatsiya va bir-birini to'ldirish tamoyili, asosli yondashish
- B) ijtimoiylik tamoyili, strukturalash tamoyili
- C) yangi sifat kontseptsiyalarini qo'llash
- D) barchasi to'g'ri

82. Asosli yondashuv bu...

A) agar sifat siyosati milliy, regional va xalqaro saviyadagi talablarga javob bermasa, ishonch qozongan, samarali, qonuniy va texnikaviy bir muhit yaratilmasa ichki bozorning davomiyligi va intensivligini kafolatlay olmaydi.

B) sifat infrastrukturasi barcha elementlari orasidagi hamkorlik va Yevropa iqtisodiyoti talablariga javob berish maqsadida ularning kompaniyalar bilan hamkorligiga qaratilgan.

C) yo'nalishda har xil milliy madaniyatlarning yumshoq integratsiyasi zarur. SHu bilan birga boshqaruvchi va ijro etuvchilar zvenosining bir-birini tushunishini ta'minlaydigan ishlab chiqarish atmosferasini yaxshilash.

D) sifat siyosati ishlab chiqarish siyosatining asosiy strategik elementlaridan biri hisoblanishi ayrim sohada emas, balki keng ko'lamda raqobatbardoshlikni ta'minlaydi.

83. Strukturalash tamoyili bu- ....

A) agar sifat siyosati milliy, regional va xalqaro saviyadagi talablarga javob bermasa, ishonch qozongan, samarali, qonuniy va texnikaviy bir muhit yaratilmasa ichki bozorning davomiyligi va intensivligini kafolatlay olmaydi.

B) sifat infrastrukturasi barcha elementlari orasidagi hamkorlik va Yevropa iqtisodiyoti talablariga javob berish maqsadida ularning kompaniyalar bilan hamkorligiga qaratilgan.

C) yo'nalishda har xil milliy madaniyatlarning yumshoq integratsiyasi zarur. SHu bilan birga boshqaruvchi va ijro etuvchilar zvenosining bir-birini tushunishini ta'minlaydigan ishlab chiqarish atmosferasini yaxshilash.

D) sifat siyosati ishlab chiqarish siyosatining asosiy strategik elementlaridan biri hisoblanishi ayrim sohada emas, balki keng ko'lamda raqobatbardoshlikni ta'minlaydi.

84. Sinov laboratoriyalarini akkreditlash maqsadi:

- A) Sertifikatlashtirish sinovini o'tkazish huquqi
- B) Muvofiqlik sertifikatini berish huquqi
- C) O'lchash vositalarini turini tasdiqlash huquqi
- D) Istalgan turdagi sinovlarni o'tkazish huquqi

85. Akkreditlangan sinov laboratoriyalarida namuna turini sinash va sertifikatlangan muhsulot ustidan navbatdagi inspeksion nazoratda namuna sotuvchidan olib sinash yo'li bilan mahsulotlarni sertifikatlashtirish nazarda tutiladigan sxemasi:

- A) 3 sxema
- B) 1 sxema
- C) 2 sxema
- D) 8 sxema

86. Akkreditlangan sinov laboratoriyalarida namuna turini sinash va sertifikatlanayotgan muhsulot ishlab chiqarish holati tahlil sertifikatlangan mahsulot ustidan navbatdagi inspeksion nazoratda namuna ishlab chiqaruvchi namuna tayyor mahsulot omboridan olib sinash yo'li bilan mahsulotlarni sertifikatlashtirish nazarda tutiladigan sxemasi:

- A) 3 sxema
- B) 1 sxema
- C) 9 sxema
- D) 7 sxema

87. Akkreditlangan sinov laboratoriyalarida tayyor mahsulot partiyasidan tanlab olingan, tanlanma namuna sinash sinash yo'li bilan mahsulotlarni sertifikatlashtirish nazara tutiladigan sxemasi:

- A) 5 sxema
- B) 1 sxema
- C) 6 sxema
- D) 7 sxema

88. ...— akkreditlashni amalga oshirish uchun protsedura va boshqaruvning o'z qoidalariga ega bo'lgan tizim.

- A) inspeksion nazorat tizimi

- B) sertifikatlashtirish tizimi
- C) muvofiqlikni baxolash tizimi
- D) Akkreditlash tizimi

89. O'z DSt ISO 9001:2009 talabi bo'yicha tashkilotda nechta hujjatlashtirilgan protsedura bo'lishi lozim?

- A) 6
- B) 12
- C) 20
- D) 8

90. Audit tamoyili nechta?

- A) 8
- B) 6
- C) 14
- D) 7

91. Jarayonli yonloshuv SMT da quyidagilar uchun qo'llaniladi:

- A) Korxona faoliyatini aniqlash uchun
- B) SMT jarayonlarini tizimli boshqarish va jarayonlari hujjatlarini ishlab chiqish
- C) Jarayonga kirish va chiqishlarini belgilash uchun
- D) talablarni bajarish va boshqarish

92. ISO 9001 talablari bo'yicha qanday ma'lumotlar tahlil qilinishi kerak?

- A) to'g'rilovchi amallarni bajarilishi va iste'molchilarni qanoatlanganligi va o'lchash va monitoring uchun asbob-uskunalarini qo'yilgan talablarga muvofiqligi bo'yicha
- B) to'g'rilovchi amallarni bajarilishi va iste'molchilarni qanoatlanganligi bo'yicha
- C) o'lchash va monitoring uchun asbob-uskunalarini qo'yilgan talablarga muvofiqligi bo'yicha
- D) Ekologik ta'sirlar to'g'risidagi ma'lumotlar

93. Ichki audit laboratoriya davriy va rejaga muvofiq o'z faoliyatida nima uchun o'tkaziladi?

- A) O'z DSt 16.4-2001 standarti talabiga muvofiq tekriş va ishlari davom etayotganini aniqlashda
- B) Laboratoriya faoliyatini va xodimlarini tekshirishda
- C) Laboratoriyani moliyaviy faoliyatini tekshirishda
- D) O'z DSt ISO/IEC 17025:2007 standarti va sifat tizimi talablariga muvofiq tekriş va ishlari davom etayotganini aniqlashda

94. Qaysi hollarda to'g'rilovchi amallar joriy qilinadi:

- A) auditlar natijalari bo'yicha
- B) jarayonlar belgilangan maqsadlarga erishganda
- C) o'rnatilgan talablarni bajarilmaganligini aniqlashda
- D) Faoliyatlar to'g'riligini tasdiqlash uchun

95. Qanday maqsadlarda ichki audit o'tkaziladi?

- A) Buyurtmachi talabi bo'yicha o'tkaziladi
- B) Bu sertifikatlashtirishning bir bosqichi
- C) Sifat menejmenti tizimini takomillashtirish va samaradorligini aniqlash uchun o'tkaziladi
- D) Iste'molchilarning talabi bo'yicha o'tkaziladi

96. Quyida sanab o'tilgan usullardan qaysi biri iste'molchilarni qanoatlanganligini kuzatish borish uchun tashkilot tomonidan qo'llanilishi kerak:

- A) anketa yoki turli so'rovlar o'tkazish usullari
- B) so'rov o'tkazish
- C) boshqa usullar
- D) anketa tarqatish

97. Ko'rsatilganlarni qay biri ISO 9001 talablariga taalluqli emas:

- A) mahsulotga tegishli qonun hujjatlari talablarini aniqlashi
- B) iste'molchining qanoatlanganligi haqida axborotni olish va undan foydalanish usullarini aniqlashi zarur
- C) iste'molchilarning qanoatlanganliklarini oshirish uchun ularni talablarini aniqlanish va bajarilishini ta'minlash
- D) oziq-ovqat mahsulotlarini nazorat nuqtalarini aniqlash

98. Rejalashtirilgan natijalarga erishish va rejalashtirilgan faoliyatlardan foydalanish darajasi

- A) Samaradorlik
- B) Natijaviylik
- C) Sifat darajasi
- D) Sifatni integral ko'rsatkichi

99. Sifat menejmenti bu:

- A) tashkilotga sifat jihatdan rahbarlik qilish va uni boshqarish bo'yicha o'zaro muvofiqlashtirilgan faoliyat
- B) Barcha rejalashtirilayotgan va tizimli amalga oshirilayotgan faoliyat turi bo'lib, u tashkilotga barcha qiziquvchi tomonlarni talablarini qondirishga yo'naltirilgan
- C) O'zaro faoliyatdagi va o'zaro aloqador jarayonlarni boshqarish tizimi

D) Tashkilotga barcha qiziquvchi tomonlarning talablarini qondirishga yo'naltirilgan barcha turdagi faoliyatlarni tizimli amalga oshirish

100. Sifat menejmenti auditdan nimani baholash uchun foydalaniladi?

- A) Xodimlar malakasini nazorat qilishni
- B) Ishlarni bajarishda mashg'ul ishchilar miqdorini
- C) O'rnatilgan talablarga sifat tizimini hujjatlashtirish muvofiqlik darajasini
- D) Mahsulot ishlab chiqarishni

101. Sifat menejmentiga aloqador bo'lmagan atamani ko'rsating

- A) Sifat indeksi
- B) Sifatni boshqarish
- C) Sifatni ta'minlash, Sifatni yaxshilash
- D) Sifat, Sifatni loyihalash

102. Sifatga bo'lgan talablarni bajarishga yo'naltirilgan sifat menejmenti qismi, bu:

- A) Sifatni boshqarish
- B) Sifatni rejalashtirish
- C) Sifatni ta'minlash
- D) Sifatni yaxshilash

103. SMT jarayonli yondoshish quyidagilar uchun qo'llaniladi:

- A) talablarni tushunish va bajarish
- B) SMT to'g'ri shakllantirish va samaradorligini ta'minlash uchun
- C) jarayonlarni tizimli boshqarish uchun
- D) SMT jarayonlari hujjatlarini ishlab chiqish

104. Tashkilotning sifat sohasidagi umumiy maqsadlari va yo'nalishini yuqori rahbariyat rasmiy ravishda tuzadi

- A) Tashkilot vazifalari
- B) Sifat sohasidagi siyosat
- C) Tashkilot rahbariyatining his etishi
- D) Tashkilot faoliyatini yaxshilash sohasidagi maqsadlar

**Mamajonov A.A.  
Xamdamov B.R.  
Xakimov D.V.**

# **SERTIFIKATLASHTIRISH ASOSLARI VA SIFAT MENEJMENTI**

*Darslik*

**Toshkent - "NIF MSH" - 2020**

*Muharrir                      Bakirov N. F.*

*Texnik muharrir  
Yoqubov A.F.  
Hoshimbekova U.Sh.*

*Bosishga 30.11.2020. da ruxsat etildi. Bichimi 60x84.  
"Times New Roman" garniturasi.  
Ofset bosma usulida bosildi.*

*Shartli bosma tabog'i 20. Nashr bosma tabog'i 19.38.  
Adadi 250 nusxa.*

*"NIF MSH" MCHJ matbaa bo'limida chop etildi.  
Manzil: Toshkent shahri, Farhod ko'chasi, 6-uy.*

41 000

30.604  
M23

ISBN 978-9943-6793-7-5



9 789943 679375